

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY GWARDIYASI
HARBIY-TEXNIK INSTITUTI**

M.X. RUSTAMBAYEV

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JINOYAT HUQUQI
K U R S I**

III TOM

**MAXSUS QISM
SHAXSGA QARSHI JINOYATLAR. TINCHLIK VA
XAVFSIZLIKKA QARSHI JINOYATLAR**

Oliy ta’lim muassasalari uchun darslik
(2-nashr, to’ldirilgan va qayta ishlangan)

TOSHKENT

UO‘K – 343.6(575.1)
KBK - 67.408(5O’)
R-92

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti kengashida ma’qullangan. 2018 yil 29 iyundagi 9-sonli bayonnoma

O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan. 2018 yil 15 avgustdagi 718-sonli buyrug‘i

Rustambayev M.X. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 3. Maxsus qism. Shaxsga qarshi jinoyatlar. Tinchlik va xavfsizligiga qarshi jinoyatlar. Darslik. 2-nashr, to‘ldirilgan va qayta ishlangan – T.: O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. – 412 bet.

Mazkur darslik O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga 2018 yil 1 noyabrgacha kiritilgan qo‘shimcha va o‘zgartishlar inobatga olingan holda tayyorlangan. Unda amaldagi qonun hujjatlari, tergov va sud amaliyoti, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlari asosida jinoyat huquqining Umumiy va Maxsus qismi masalalari yoritilgan.

Darslik besh tomdan iborat. Birinchi va ikkinchi tomlar JKning Umumiy qismiga bag‘ishlangan. Birinchi tomida jinoyat qonuni va jinoyat to‘g‘risidagi ta’limot masalalari yoritilgan. Ikkinchisida jazo, javobgarlik va jazodan ozod qilish, jinoyat-huquqiy ta’sirning boshqa choralari yoritilgan. Uchinchi, to‘rtinchi va beshinchi tomlar JKning Maxsus qismi normalarida nazarda tutilgan jinoyatlar uchun javobgarlik masalalariga bag‘ishlangan. Muallif tomonidan barcha jinoyatlar tarkibining belgilari tahlil qilingan, ularni kvalifikatsiya qilish masalalari, o‘xshash jinoyatlar tarkiblarini farqlash muammolari ko‘rib chiqilgan.

Darslik yuridik oliy o‘quv muassasalari bakalavr va magistr lari, Bosh prokuratura Akademiyasi tinglovchilari, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti kursantlari, O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi tinglovchilari, o‘qituvchilarga mo‘ljallangan, shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari va jinoyat huquqi muammolari bilan qiziquvchi shaxslar tomonidan foydalanilishi mumkin.

Taqrizchilar:

Abdurasulova K.R.

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi “Kriminologiya” kafedrasini boshlig‘i, yu.f.d., professor

Mirazov D.M.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik Instituti “Sohaviy huquqiy fanlar” kafedrasini boshlig‘i, yu.f.d., dotsent

ISBN 978-9943-5559-3-8

© Rustambayev M.X., 2018

© O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik Instituti, 2018

MUNDARIJA

I BOB. JINOYAT HUQUQI MAXSUS QISMI TUSHUNCHASI, VAZIFASI, PREDMETI VA TIZIMI..... 9

1-§. Jinoyat huquqi Maxsus qismi tushunchasi, vazifasi, predmeti va tizimi	9
2-§. Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishning ilmiy asoslari	13
«O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi Maxsus qismi tushunchasi, vazifasi, predmeti va tizimi» mavzusi bo‘yicha yakuniy savollar	19
Jinoyat huquqi Maxsus qismi barcha kurslari uchun qo‘shimcha adabiyotlar ..	19
Asosiy adabiyotlar	19
Normativ hujjatlar	20
Normativ hujjatlarga sharhlar, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, maxsus adabiyotlar	23

II BOB. HAYOTGA QARSHI JINOYATLAR 26

1-§. Hayotga qarshi jinoyatlarning umumiy tavsifi	26
2-§. Hayotga qarshi jinoyatlar. Odam jinoyatlarining tushunchasi, tahlili va turlari	29
3-§. Qasddan odam o‘ldirish (JK 97-moddasi)	41
Ikki yoki undan ortiq shaxsni qasddan o‘ldirish (JK 97-moddasi 2-qismi «a» bandi)	46
Homiladorligi aybdorga ayon bo‘lgan ayolni qasddan o‘ldirish (JK 97-moddasi 2-qismi «b» bandi)	48
Ojizligi aybdorga ayon bo‘lgan shaxsni qasddan o‘ldirish (JK 97-moddasi 2-qismi «v» bandi)	50
O‘z xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabati bilan shaxsni yoki uning yaqin qarindoshlarini qasddan o‘ldirish (JK 97-moddasi 2-qismi «g» bandi)	52
Boshqa shaxslarning hayoti uchun xavfli bo‘lgan usulda qasddan odam o‘ldirish (JK 97-moddasi 2-qismi «d» bandi)	55
Ommaviy tartibsizliklar jarayonida odam o‘ldirish (JK 97-moddasi 2-qismi «e» bandi)	56
O‘ta shafqatsizlik bilan odam o‘ldirish (JK 97-moddasi 2-qismi «j» bandi) ..	57
Nomusga tegish yoki jinsiy ehtiyojni zo‘rlilik ishlatib g‘ayritabiiy usulda qondirish bilan bog‘liq holda qasddan odam o‘ldirish (JK 97-moddasi 2-qismi «z» bandi)	59
Tamagirlik niyatida qasddan odam o‘ldirish (JK 97-moddasi 2-qismi «i» bandi)	61

Milliy yoki irqiy adovat zamirida sodir etilgan qasddan odam o'ldirish (JK 97-moddasi 2-qismi «k» bandi).....	64
Bezorilik oqibatida qasddan odam o'ldirish (JK 97-moddasi 2-qismi «l» bandi).....	66
Diniy taassublar zamirida qasddan odam o'ldirish (JK 97-moddasi 2-qismi «m» bandi).....	68
Kishi a'zolarini kesib olib, boshqa kishiga ko'chirish (transplantat) yoki murdaning qismlaridan foydalanish maqsadida qasddan odam o'ldirish (JK 97-moddasi 2-qismi «n» bandi).....	69
Boshqa biror jinoyatni yashirish yoki uning sodir etilishini osonlashtirish maqsadida qasddan odam o'ldirish (JK 97-moddasi 2-qismi «o» bandi)	71
Bir guruh shaxslar yoki uyushgan guruh a'zosi tomonidan yoxud o'sha guruh manfaatlarini ko'zlab, qasddan odam o'ldirish (JK 97-moddasi 2-qismi «p» bandi).....	72
Takroran yoki xavfli retsivist tomonidan sodir etilgan qasddan odam o'ldirish (JK 97-moddasi 2-qismi «r» bandi).....	74
O'ta xavfli retsivist tomonidan qasddan odam o'ldirish (JK 97-moddasi 2-qismi «s» bandi)	75
4-§. Kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o'ldirish (JK 98-moddasi).....	75
5-§. Onaning o'z chaqalog'ini qasddan o'ldirishi (JK 99-moddasi).....	82
6-§. Zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib, qasddan odam o'ldirish (JK 100-moddasi).....	83
7-§. Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlab turishning zarur choralarini chegarasidan chetga chiqib, qasddan odam o'ldirish (JK 101-moddasi).....	88
8-§. Ehtiyotsizlik orqasida odam o'ldirish (JK 102-moddasi).....	90
9-§. O'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish (JK 103-moddasi).....	91
10-§. O'zini o'zi o'ldirishga undash (103 ¹ -modda).....	96
«Hayotga qarshi jinoyatlar» mavzusi bo'yicha yakuniy savollar.....	98
Qo'shimcha adabiyotlar	99
O'quv qo'llanmalar, maxsus adabiyotlar	99
Ilmiy maqolalar	101
III BOB. SOG'LIQQA QARSHI JINOYATLAR	104
1-§. Badanga shikast yetkazish jinoyatlarining tushunchasi, tahlili va turlari.	104
2-§. Qasddan badanga og'ir shikast yetkazish (JK 104-moddasi).....	115
Badanga hayot uchun xavfli bo'lgan og'ir shikast yetkazish	117
Ko'rish, so'zlash, eshitish qobiliyatini yo'qotish yoxud biron a'zoning ishdan chiqishi yoki uning faoliyati tamoman yo'qolishi	119

Ruhiy kasallikka chalinish	121
Sogʻliq buzilib, umumiy mehnat qobiliyatining 33 % dan kam boʻlmagan qismining doimiy yoʻqolishi	121
Homilaning tushishi	122
Badanning tuzalmaydigan darajada xunuklashishi	123
Badanga ogʻir shikast yetkazganlik uchun javobgarlikni ogʻirlashtiruvchi holatlar.....	124
3-§. Qasddan badanga oʻrtacha ogʻir shikast yetkazish (JK 105-moddasi).....	134
4-§.Yengillashtiruvchi holatlarda badanga shikast yetkazganlik uchun javobgarlik.....	136
5-§. Qasddan badanga yengil shikast yetkazish (JK 109-moddasi).....	137
6-§. Qiynash (JK 110-moddasi)	139
7-§. Ehtiyotsizlik orqasidan badanga ogʻir yoki oʻrtacha ogʻir shikast yetkazish (JK 111-moddasi)	142
«Sogʻliqqa qarshi jinoyatlar» mavzusi boʻyicha yakuniy savollar	143
Qoʻshimcha adabiyotlar	144
Oʻquv qoʻllanma, maxsus adabiyotlar	144
Ilmiy maqolalar	145
IV BOB. HAYOT YOKI SOGʻLIQ UCHUN XAVFLI JINOYATLAR.....	147
1-§. Oʻldirish yoki zoʻrluk ishlatish bilan qoʻrqitish (JK 112-moddasi)	147
2-§. Tanosil yoki OIV kasalligiGʻOITSni tarqatish (JK 113-moddasi)	152
3-§. Jinoiy ravishda homila tushirish (abort) (JK 114-moddasi)	157
4-§. Ayolni oʻz homilasini sunʼiy ravishda tushirishga majburlash (JK 115-moddasi)	160
5-§. Kasb yuzasidan oʻz vazifalarini lozim darajada bajarmaslik (JK 116-moddasi)	162
6-§. Xavf ostida qoldirish (JK 117-moddasi).....	165
«Hayot yoki sogʻliq uchun xavfli jinoyatlar» mavzusi boʻyicha yakuniy savollar	167
Qoʻshimcha adabiyotlar	168
Oʻquv qoʻllanmalar, maxsus adabiyotlar	168
Ilmiy maqolalar	168
V BOB. JINSIY ERKINLIKKA QARSHI JINOYATLAR	170
1-§. Nomusga tegish (JK 118-moddasi).....	170
2-§. Jinsiy ehtiyojni zoʻrluk ishlatib, gʻayritabiiy usulda qondirish (JK 119-moddasi).....	186
3-§. Besoqolbozlik (erkakning erkak bilan jinsiy aloqa qilishi) (JK 120-moddasi).....	187
4-§. Ayolni jinsiy aloqa qilishga majbur etish (JK 121-moddasi).....	188

«Jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlar» mavzusi bo'yicha yakuniy savollar	191
Qo'shimcha adabiyotlar	192
O'quv qo'llanmalar, maxsus adabiyotlar	192
Ilmiy maqolalar	192
VI BOB. OILAGA, YOSHLARGA VA AXLOQQA QARSHI	
JINOYATLAR.....	194
1-§. Voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash (JK 122-moddasi)	194
2-§. Ota-onani moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash (JK 123-moddasi)	197
3-§. Bolani almashtirib qo'yish (JK 124-moddasi).....	199
4-§. Farzandlikka olish sirini oshkor qilish (JK 125-moddasi).....	200
5-§. Nikoh yoshi to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish (JK 125 ¹ -modda)	202
6-§. Ko'p xotinli bo'lish (JK 126-moddasi).....	206
7-§. Voyaga yetmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish (JK 127-moddasi)	207
8-§. O'n olti yoshga to'lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish (JK 128-moddasi)	213
9-§. O'n olti yoshga to'lmagan shaxsga nisbatan uyatsiz-buzuq harakatlar qilish (JK 129-moddasi)	216
10-§. Pornografik mahsulotni tayyorlash, olib kirish, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish (JK 130-moddasi).....	219
11-§. Zo'ravonlikni yoki shafqatsizlikni targ'ib qiluvchi mahsulotni tayyorlash, olib kirish, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish (JK 130 ¹ -modda)	223
12-§. Qo'shmachilik qilish yoki fohishaxona saqlash (JK 131-moddasi)	225
13-§. Moddiy madaniy meros obyektlarini nobud qilish, buzish yoki ularga shikast yetkazish (JK 132-moddasi).....	228
12-§. Inson a'zolari yoki to'qimalarini ajratib olish (JK 133-moddasi)	230
13-§. Qabrni tahqirlash (JK 134-moddasi).....	233
«Oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlar» mavzusi bo'yicha yakuniy savollar	234
Qo'shimcha adabiyotlar	235
O'quv qo'llanmalar, maxsus adabiyotlar	235
Ilmiy maqolalar	236
VII BOB. SHAXSNING OZODLIGI, SHA'NI VA QADR-QIMMATIGA	
QARSHI JINOYATLAR.....	238
1-§. Odam savdosi (JK 135-moddasi).....	238
2-§. Ayolni erga tegishga majbur qilish yoki uning erga tegishiga to'sqinlik qilish (JK 136-moddasi)	254

3-§. Odam o'g'irlash (JK 137-moddasi)	256
4-§. Zo'rlik ishlatib g'ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish (JK 138-moddasi)	260
5-§. Tuhmat (JK 139-moddasi)	262
6-§. Haqorat qilish (JK 140-moddasi).....	267
«Shaxsning ozodligi, sha'ni va qadr-qimmatiga qarshi jinoyatlar» mavzusi bo'yicha yakuniy savollar	270
Qo'shimcha adabiyotlar	271
O'quv qo'llanmalar, maxsus adabiyotlar	271
Ilmiy maqolalar	271
VIII BOB. FUQAROLARNING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ VA ERKINLIKLARIGA QARSHI JINOYATLAR.....	274
1-§.Fuqarolarning teng huquqliligini buzish (JK 141-moddasi).....	275
2-§.Shaxsiy hayot daxlsizligini buzish (141 ¹ -modda)	277
3-§.Fuqarolarning turar joyi daxlsizligini buzish (JK 142-moddasi).....	281
4-§. Xat-yozishmalar, telefonda so'zlashuv, telegraf xabarlar yoki boshqa xabarlarning sir saqlanishi tartibini buzish (JK 143-moddasi)	283
5-§. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish (144-modda)	285
6-§. Vijdon erkinligini buzish (JK 145-moddasi)	293
7-§. Saylov yoki referendum tashkil qilish, ularni o'tkazish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish (JK 146-moddasi).....	297
8-§. Saylov huquqining yoki ishonchli vakil vakolatlarining amalga oshirilishiga to'sqinlik qilish (JK 147-moddasi).....	300
9-§. Mehnat qilish huquqini buzish (JK 148-moddasi).....	303
10-§. Mualliflik yoki ixtirochilik huquqlarini buzish (JK 149-moddasi)	305
«Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar» mavzusi bo'yicha yakuniy savollar	310
Qo'shimcha adabiyotlar	311
O'quv qo'llanmalar, maxsus adabiyotlar	311
Ilmiy maqolalar	311
IX BOB. TINCHLIK VA INSONIYATNING XAVFSIZLIGIGA QARSHI JINOYATLAR.....	312
1-§. Urushni targ'ib qilish (JK 150-moddasi)	313
2-§. Agressiya (JK 151-moddasi)	315
3-§. Urushning qonun va udumlarini buzish (JK 152-moddasi).....	319
4-§. Genotsid (JK 153-moddasi)	325
5-§. Yollanish (JK 154-moddasi).....	329

6-§. Chet davlatlarning harbiy xizmatiga, xavfsizlik, politsiya, harbiy adliya organlari yoki shunga o‘xshash boshqa organlariga xizmatga kirish, yollanish (JK 154 ¹ -moddasi).....	334
7-§. Terrorizm (JK 155-moddasi)	340
8-§.Tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan terrorchilik harakatlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar va faktlarni xabar qilmaslik (155 ¹ -modda).....	349
9-§. Terrorchilik faoliyatini amalga oshirish maqsadida o‘quvdan o‘tish, chiqish yoki harakatlanish (155 ² -modda).....	356
10-§.Terrorizmni moliyalashtirish (155 ³ -modda)	364
11-§. Milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo‘zg‘atish (JK 156-moddasi).....	367
«Tinchlik va insoniyatning xavfsizligiga qarshi jinoyatlar» mavzusi bo‘yicha yakuniy savollar	374
Qo‘shimcha adabiyotlar	375
O‘quv qo‘llanmalar, maxsus adabiyotlar	375
Ilmiy maqolalar	376
X BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIGA QARSHI JINOYATLAR ...	378
1-§. Davlatga xoinlik qilish (JK 157-moddasi).....	378
2-§. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga tajovuz qilish (JK 158-moddasi)	385
3-§. O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumiga tajovuz qilish (JK 159-moddasi).....	389
4-§. Josuslik (JK 160-moddasi).....	396
5-§. Qo‘poruvchilik (JK 161-moddasi).....	400
6-§. Davlat sirlarini oshkor qilish (JK 162-moddasi)	402
7-§. Davlat siri yoki harbiy sir hisoblangan hujjatlarni yo‘qotish (JK 163-moddasi).....	405
«O‘zbekiston Respublikasiga qarshi jinoyatlar» mavzusi bo‘yicha yakuniy savollar	409
Qo‘shimcha adabiyotlar	410
O‘quv qo‘llanmalar, maxsus adabiyotlar	410
Ilmiy maqolalar	411

I BOB. JINOYAT HUQUQI MAXSUS QISMI TUSHUNCHASI, VAZIFASI, PREDMETI VA TIZIMI

1-§. Jinoyat huquqi Maxsus qismi tushunchasi, vazifasi, predmeti va tizimi

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi jinoyat qonunida jinoiy javobgarlikka tortish hamda sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish uchun qonun normalari doirasida jazo tayinlash nazarda tutilgan. U o‘ziga xos xususiyatlarini ifodalovchi, huquq tizimining mustaqil tarmog‘i ekanligini belgilovchi va huquqning boshqa turlaridan ajratib turuvchi o‘ziga xos tamoyillarga egadir. Bu tamoyillar jinoyatchilikka qarshi kurashda davlat siyosatini, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini amalga oshirishga xizmat qiladi.

NOTA BENE !

Jinoyat huquqining **Maxsus qismi** ijtimoiy xavfli qilmishning aniq ta’rifi, shu qilmish uchun beriladigan jazo turi va miqdorini o‘z ichiga olgan O‘zbekiston Respublikasi qonuni normalari tizimidan iboratdir.

Jinoyat huquqining Umumiy qismiga javobgarlikning prinsiplari, asoslari va chegaralari, jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslarga nisbatan qo‘llaniladigan jazo turlari va jazo belgilash tartibi belgilangan. Undan farqli ravishda, jinoyat huquqining Maxsus qismida ijtimoiy xavfli, huquqqa xilof qilmishlarning tugallangan ro‘yxati berilgan bo‘lib, ularning har birining belgilari ko‘rsatilgan va sud tomonidan aybdor shaxsga nisbatan qo‘llaniladigan muayyan jinoiy jazo chorasi nazarda tutilgan.

Fan sifatida jinoyat huquqining Umumiy va Maxsus qismlari qonun bilan qo‘riqlanadigan obyektlariga ega, ya’ni davlat tomonidan muhofaza qilinadigan ijtimoiy munosabatlarni qo‘riqlaydi. Jinoyat huquqi Umumiy va Maxsus qismlarining o‘zaro bog‘liqligi shundaki, shaxs aybli deb hisoblanayotgan ijtimoiy xavfli qilmish huquqni

muhofaza qilish organlari tomonidan har ikki qismning normalari qoʻllanilgandagina, aniq mazmunga ega boʻladi.

NOTA BENE !

Jinoyat huquqi Maxsus qismining **asosiy vazifasi** qonun normalarini yuridik tahlil qilish orqali oʻrganib, jinoyatchilikka qarshi kurashda ulardan yanada samarali foydalanishdan iboratdir.

Ushbu qism normalarisiz bunday kurashni amalga oshirib boʻlmas edi, chunki ularsiz ijtimoiy xavfli qilmishni konkretlashtirish va sodir etilgan jinoyat tarkibini belgilash imkoni yoʻqqa chiqar edi. Maxsus qismda har bir jinoyatning turi va belgilari, shuningdek, sodir etilgan qilmish uchun jazo choralari aniq koʻrsatilgan.

Jinoyat huquqi Maxsus qismining asosiy vazifasi shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulkni, tabiiy muhitni, tinchlikni, insoniyat xavfsizligini jinoiy tajovuzlardan qoʻriqlash, shuningdek, jinoyatlarning oldini olish, fuqarolarni Respublika Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya qilish ruhida tarbiyalashdan iboratdir (JK 2-moddasi).

Jinoyat huquqining Maxsus qismi – bu aniq bir jinoyat tarkibi haqidagi fan. Ayrim jinoyat tarkiblarini tahlil qilish, ularni kvalifikatsiyalash qonuniyatlari va xususiyatlarini hamda bu jinoyat tarkiblarini belgilashda davlat diqqat markazida boʻlgan ularning ijtimoiy xavfliligi darajasini aniqlash imkonini beradi. Har bir jinoyatni bir-biriga taqqoslash yoʻli bilan, jinoyatlarning bir-biridan farqi anglanadi, jinoyatni qonunga muvofiq toʻgʻri kvalifikatsiya qilish uchun zarur boʻlgan tavsiyalar ishlab chiqiladi va jinoyatga oid qonun hujjatlarini takomillashtirish boʻyicha takliflar beriladi.

Maxsus qism normalarini qoʻllashda huquqning asosiy manbai hisoblanmish Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga amal qilish lozim.

Jinoyat huquqi Maxsus qismi normalarini toʻgʻri qoʻllashda Oʻzbekiston Respublikasi sudlari uchun majburiy boʻlgan Maxsus

qismning tegishli normalari sharhlangan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarorlari muhim ahamiyatga egadir. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarorlari sud amaliyotini umumlashtiradi, jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda sudlar tomonidan yo‘l qo‘yilgan xatolarni aniqlaydi va amalda turlicha izohlanib kelinayotgan qonunning mohiyati va amalda tatbiq etilishi yuzasidan tushuntirishlar beradi. Oliy sud Plenumi tomonidan qonun hujjatlarini qo‘llash yuzasidan berilgan tushuntirishlar qonunni legal sharhlash hisoblanadi.

NOTA BENE !

Jinoyat huquqi **Maxsus qismining predmeti** jinoyat qonunining konkret normalaridir. Bu normalarda jinoyat sifatida qonunda mustahkamlangan ijtimoiy xavfli qilmishning belgilari ko‘rsatilgan.

Jinoyat huquqining Maxsus qismi sud tergov organlari, jinoyatning statistik ko‘rsatkichlarini aniqlash va O‘zbekiston Respublikasida va alohida viloyatlarda sodir bo‘layotgan barcha jinoyatlar statistikasini o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston Respublikasi jinoyat qonuni Konstitutsiya va xalqaro huquq normalariga asoslangan Respublika Jinoyat kodeksidan iboratdir. Shu sababdan jinoyat huquqi Maxsus qismi O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi tizimiga to‘la mos keladi. Maxsus qism normalari ilmiy asoslangan tizimga binoan joylashtirilgan. Bu tizim normalarning o‘zini to‘g‘ri tushunishga, ularning o‘rganilishini yengillashtirish va ularni amalda qo‘llashda vujudga keladigan chalkashliklarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Masalan, bezorilik ko‘p sodir etiladigan jinoyatlardan biri bo‘lganligi sababli u JK Maxsus qismi birinchi o‘n moddalari qatorida joylashtirilishi lozimdek tuyuladi. Ammo jinoyat qonuni tizimida bezorilik tushunchasi «Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar» deb nomlanuvchi XX bobga joylashtirilgan, chunki bu jinoyatning obyektiv belgilari do‘pposlash, badanga shikast yetkazish, o‘zganing mulkiga

zarar yetkazish, hokimiyat vakiliga qarshilik ko'rsatish, o'qotar qurolni qo'llash va h.k.larni qamrab oladi.

Shunday qilib, qonunda uni tavsiflovchi, ya'ni boshqa moddalarda mustaqil jinoyat tarkibini tashkil etuvchi xususiyati va o'rganilgan belgilariga asosan bezorilik jinoyati Kodeksda to'g'ri joylashtirilgan. Yuqorida aytilganlar jinoyat huquqi Maxsus qismining boshqa boblarida ham o'rganiladi.

Jinoyat huquqi Maxsus qismi kursining tizimi deganda, JKning bo'limi, bobi va alohida moddalarining ilmiy asoslangan holda joylashtirilishi va ularning o'rganilishi tushuniladi. Tizim moddalarning nafaqat bo'lim va bobga mantiqiy bo'linishini, balki har bir bobning ichida joylashgan moddalarning raqamlanishi va ayrimlarini maxsus raqamlar bilan belgilanishini o'z ichiga oladi.

JK Maxsus qismi tizimlanishining asosi sifatida jinoyatning maxsus obyekti olingan. Shuningdek, JKning har bir bobi jinoyatning turli obyektiga qarab bo'lingan. Shunga asosan, JK Maxsus qismining I bo'limida shaxsga qarshi jinoyatlar joylashgan, shu bo'lim esa jinoyatning maxsus obyektiga ko'ra 7 ta bobdan iborat: I bob. Hayotga qarshi jinoyatlar; II bob. Sog'liqqa qarshi jinoyatlar; III bob. Hayot yoki sog'liq uchun xavfli jinoyatlar; IV bob. Jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlar; V bob. Oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlar; VI bob. Shaxsning ozodligi, sha'ni va qadr-qimmatiga qarshi jinoyatlar; VII bob. Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat kodeksi Maxsus qismi

1959 yilgi JKdagiga nisbatan ancha takomillashtirilgan. Shu bilan birga uning tizimiga «Atamalarning huquqiy ma'nosi» deb ataluvchi VIII bo'limning kiritilganligi mantiqan to'g'ri emas. Shubhasiz, qonun chiqaruvchi tomonidan atamalarga izoh berilganligi jinoyat huquqi normalarining qo'llanilishini osonlashtirish uchun olg'a tashlangan qadamdir. Ammo VIII bo'limda berilgan atamalar huquqiy normalar emas, shu sababdan ular jinoyat huquqining qismi bo'la olmaydi. Undan tashqari, bu bo'limda berilgan terminlar nafaqat jinoyat qonunining

Maxsus qismiga, balki Umumiy qismiga ham taalluqlidir. Fikrimizcha, aytilgan atamalar ilova tariqasida berilsa, to‘g‘ri bo‘lar edi.

JK Maxsus qismi 8 ta bo‘lim, 24 ta bobdan iborat bo‘lib, bunday tizimni ishlab chiqishda turli omillar e‘tiborga olingan.

Birinchi o‘ringa O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va Inson huquqlarining umumjahon deklaratsiyasiga muvofiq shaxsga qarshi jinoyatlar qo‘yildi.

JKning har bir bo‘limi va har bir bobida ijtimoiy xavfliligi yuqori bo‘lgan jinoyatlar birinchi, keyin xavfliligi kamroq, undan keyin esa ijtimoiy xavfi unchalik katta bo‘lmagan jinoyatlar joylashtirilgan. Ba‘zan bu qoidadan istisnalar ham bor. Masalan, JKning 150-moddasi (Urushni targ‘ib qilish) «Tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar» bo‘limida tinchlik va insoniyat xavfsizligiga qarshi qaratilgan xavfli jinoyatlardan oldin keladi.

Shuni alohida ta‘kidlab o‘tish kerakki, jinoyat huquqi Maxsus qismi normalari bevosita obyektiga qarab joylashtirilgan. O‘zbekiston Respublikasi davlati jinoyat huquqi Maxsus qismi normalarida o‘zining siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlarini aks ettirishi bilan qanday qilmishlar ularga zid ekanligi va demak, jinoiy jazoni qo‘llash tahdidi bilan man qilinganligini ko‘rsatadi.

2-§. Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishning ilmiy asoslari

O‘zbekiston Respublikasi JKda nazarda tutilgan jinoyat tarkibida jinoyatning barcha belgilari mavjud bo‘lgan ijtimoiy xavfli qilmish uchun javobgarlik belgilangan.

Jinoiy javobgarlikka tortish va jazo tayinlash uchun shaxs JK Maxsus qismining aynan qaysi normasini buzganligini aniqlash lozim. Bunda sodir etilgan qilmishning jinoyat tarkibi JK Maxsus qismida nazarda tutilgan yoki tutilmaganligini aniqlash lozim. Bu jarayon **jinoiyatni kvalifikatsiya qilish jarayoni** deb ataladi.

NOTA BENE !

Kvalifikatsiyalashning maqsadi ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish uchun huquqiy asos mavjudligini aniqlashdir.

Sodir etilgan jinoyatni to'g'ri kvalifikatsiya qilishni ta'minlash – huquqni muhofaza qiluvchi organlarning asosiy vazifalaridan biridir.

Jinoyatni kvalifikatsiya qilishda qonuniylik, fuqarolar huquq va erkinliklarining himoya qilinishi kafolati, odil sudlovni amalga oshirish masalalarining ustuvor prinsiplari zaruriy shart bo'lib hisoblanadi.

Jinoyatni kvalifikatsiya qilishda sodir etilgan qilmish yuridik tahlil qilinadi: tajovuzning obyekti aniqlanadi, uning konkret belgilari tavsiflanadi, obyektiv va subyektiv tomonlari, subyektini xarakterlaydigan belgilari aniqlanadi. Bunday tahlil sodir etilgan qilmishda qanday jinoyatning tarkibi mavjudligi va ushbu qilmishni sodir etgan shaxsni JKning qaysi moddasi bilan javobgarlikka tortish mumkinligi haqida bir fikrga kelishga yordam beradi.

Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish tushunchasi keng va tor ma'noda ishlatiladi.

Tor ma'noda kvalifikatsiya qilish jinoyat-huquqiy normalarga muvofiq keluvchi ijtimoiy xavfli qilmishning huquqiy bahosidir.

NOTA BENE !

Keng ma'noda kvalifikatsiya muayyan mantiqiy jarayon bo'lib, Jinoyat kodeksi Maxsus qismida nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsning qilmishida jinoyat tarkibi mavjudligini aniqlash bo'yicha muayyan shaxslarning faoliyatidir.

Jinoyatni kvalifikatsiya qilish dinamik jarayon bo'lib, jinoiy ish bo'yicha ish yuritishning turli xil bosqichlarida muayyan xususiyatlarga ega.

Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish subyektlari (maxsus vakolatga ega bo'lgan davlat organlari vakillari) jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda «bilmaslikdan bilishga», «umumiyydan xususiyyga» qarab boradilar.

Jinoyat ishida faktik ma'lumotlarning paydo bo'lishi bilan jinoyatning tavsifi ham, unda baho berish ham o'zgarishi mumkin. Jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichida kvalifikatsiya dastlabki tavsifga ega bo'ladi. Dastlabki tergovni tugatish sud muhokamasi bosqichida maksimal to'liq va yakuniy tavsifga ega. Kvalifikatsiya qilish jarayoni bir qancha bosqichlardan iborat bo'ladi. Kvalifikatsiyalashning birinchi bosqichida huquqbuzarlikning turi aniqlanadi. Bunda xatti-harakatning ijtimoiy xavflilik darajasi, qilmishning jinoyat yoki jinoyat emasligi va jinoyat qonuniga muvofiq jazoga sazovor yoki sazovor emasligi aniqlanadi. Kvalifikatsiyalashning yakuniy bosqichida esa jinoyat turining individual belgilari aniqlanadi va bu belgilar yordamida obyekt bir xil bo'lgan jinoyatlardan qilmish alohida ajratib olinadi.

Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish ikki turga: rasmiy va norasmiy turlarga bo'linadi.

Rasmiy kvalifikatsiya bu aniq bir jinoiy ish bo'yicha maxsus vakolatga ega bo'lgan (surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudya) shaxs tomonidan amalga oshiriladigan jinoyat-huquqiy kvalifikatsiyadir.

Norasmiy kvalifikatsiya jinoyat huquqiga fuqarolar (ilmiy xodimlar, jurnalistlar va h.k.) tomonidan beriladigan huquqiy baho bo'lib, bu faqatgina ularning qarashlarida ifodalanadi. Norasmiy kvalifikatsiya huquqiy oqibat keltirib chiqarmaydi.

Kvalifikatsiya qilish jarayonida quyidagi ikki element mavjud: bir tomondan, bu muayyan turdagi jinoyat namunasini aks ettiruvchi jinoyat qonuni normalari – qonunchilik (abstrakt) modeli bo'lsa, ikkinchi tomondan, qonunga muvofiq baho berilishi lozim bo'lgan aniq bir hayotiy hodisalar (ijtimoiy xavfli qilmish) dir.

Jinoyat qonuni jinoyatni kvalifikatsiya qilishning huquqiy asosi bo'lib xizmat qiladi, chunki jinoyatni kvalifikatsiya qilish jarayonida jinoyatni qanday kvalifikatsiya qilish ilmiy tushuncha yoki sud amaliyotida shakllangan tushunchalar bilan emas, balki faqatgina muayyan jinoyatning qonuniy modeli bilan mos tushmog'i shart. Jinoyat qonunida belgilab qo'yilgan jinoyatlarning ro'yxati qat'iy bo'lib, ushbu ro'yxat kengaytirilgan holda shakllantirilishi mumkin emas. Qilmishni ijtimoiy xavfli deb topish va jinoyat sifatida kvalifikatsiya qilish faqat jinoyat

kodeksida belgilangan hollardagina bo'lishi mumkin. Jinoyat qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, jinoyatlar belgilarini to'ldirish yoki o'zgartirish faqat qonun chiqaruvchi organ tomonidan amalga oshiriladi.

Muayyan jinoiy qilmish uchun jinoyat qonunining qaysi moddasi, shu moddaning qaysi band va qismi qo'llanilishi kerakligi to'g'risidagi xulosa kvalifikatsiyaning yakuni bo'lib hisoblanadi. Jinoyatni kvalifikatsiya qilish jarayonida Jinoyat kodeksining Umumiy qismi qoidalari hisobga olinishi lozim.

Ayrim hollarda qilmishni to'g'ri kvalifikatsiya qilish Maxsus qismning moddasi, qismi va bandlarigagina asoslanmasdan, balki Umumiy qism qoidalariga murojaat qilishni ham taqozo etadi. Masalan, jinoyat tayyorgarlik yoki suiqasd bosqichida tugallangan bo'lsa, uni kvalifikatsiya qilishda JK 25-moddasiga havola qilish lozim bo'ladi.

JK normalari bilan kvalifikatsiya qilinadigan ijtimoiy xavfli qilmishning qonuniy modeli jinoyatning tarkibi hisoblanadi.

Jinoyat tarkibi – bu shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish uchun zarur va yetarli bo'lgan obyektiv va subyektiv belgilar tizimidir. Jinoyatning boshqa holatlari (JK 55- va 56-moddalarida ko'rsatilgan og'irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi holatlar) jazoni individuallashtirish uchun zarur bo'lib, qilmishni kvalifikatsiya qilishda ahamiyatga ega emas.

Jinoyat tarkibi, jinoyat turining qonuniy modeli bo'lishi bilan birgalikda, jinoyatning barcha eng muhim, ahamiyatli va zaruriy belgilarini o'z ichiga oladi. Ushbu ma'noda jinoyat tarkibi jinoiy javobgarlikka tortishning yagona huquqiy asosi bo'lib xizmat qiladi, ayni paytda jinoyat qonunida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish uchun faktik asos bo'lib xizmat qiladi.

Jinoyat tarkibi belgilari jinoyat qonunida ijobiy (belgilar borligini ko'rsatish) yoki salbiy (belgilar yo'qligini ko'rsatish) tarzida namoyon bo'lishi mumkin. Mustahkamlik darajasiga ko'ra ushbu belgilar doimiy va o'zgaruvchan bo'lishi mumkin. Shuningdek, qonunda baholovchi belgilar ham ishlatiladi, ularning mavjudligini jinoyatni kvalifikatsiya qiladigan shaxs aniqlaydi.

Qilmishni jinoiy-huquqiy kvalifikatsiya qilish uchun jinoyat tarkibi elementlariga ko'ra:

- obyekt;
- obyektiv tomon;
- subyekt;
- subyektiv tomonni tavsiflovchi belgilarga ajratiladi.

Jinoyatni to'g'ri va aniq kvalifikatsiya qilishning ikkita sharti mavjud: birinchidan, sodir etilgan jinoyatning barcha faktik belgilarini aniqlash lozim; ikkinchidan, huquqiy normaning barcha tarkibiy belgilarini, shuningdek, jinoyat qonuni tizimini bilish zarur. Jinoyatlarning ayrim belgilari JK Maxsus qismida to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilmagan bo'lishi mumkin. Buning sababi qonun chiqaruvchi tomonidan boshqa huquq sohalari yoki JK Umumiy qismidagi normalarni qaytarmaslik lozim deb topilganligi bo'lishi mumkin. Undan tashqari, ayrim belgilar umum-e'tirof etilgan yoki hammaga ma'lum bo'lgan holatlarga bog'liq, shuning uchun jinoyat qonunida ularni takrorlash maqsadga muvofiq emas.

Jinoyatni kvalifikatsiya qilishni amalga oshiruvchi shaxs tomonidan: birinchidan, asta-sekinlik bilan, bosqichma-bosqich jinoyatning faktik holatlari aniqlanishi, ikkinchidan, uning jinoyat-huquqiy normalarining tahlil qilinishi amalga oshiriladi. Jinoyatni kvalifikatsiya qilish jarayonida jinoyat-huquqiy normalar bilan jinoyatning faktik belgilari solishtiriladi.

Qilmishni kvalifikatsiya qilish uchun jinoyat qonuni normasini aniqlash bir necha bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqichda kvalifikatsiya qilish subyektlari tomonidan faktik ma'lumotlarni tartibga solib, ular ichidan yuridik ahamiyatga ega bo'lganlari ajratiladi. Bu sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishning faktik ma'lumotlari jinoyat qonunida mustahkamlab qo'yilganligini aniqlash lozimligini bildiradi.

Ikkinchi bosqichda yig'ilgan faktik materiallarga jinoyat qonuni normasidan qaysi biri mos kelishi aniqlanadi.

Uchinchi bosqichda jinoyat ishining faktik holatlariga mos keladigan o'xshash tarkibli jinoyatlar guruhi aniqlanadi. Bular qatoriga obyektiv

va subyektiv belgilarga ko‘ra mos keluvchi, alohida holatlarga ko‘ra farqlanadigan jinoyatlarning tarkibi kiradi.

To‘rtinchi bosqichda tanlab olingan jinoyat tarkibi guruhidan sodir etilgan jinoyatlar mos keladigan va uning barcha tomonlarini tavsiflaydigan bir yoki bir necha jinoyat qonuni tanlab olinadi.

Jinoyatni kvalifikatsiya qilish jarayonida bir qilmishni baholash uchun bir qancha jinoyat-huquqiy normalarini qo‘llash zarur bo‘lganida muammolar tug‘iladi. Bunday holatlar bir qancha jinoyatlar sodir qilinganida vujudga kelishi mumkin, ularni kvalifikatsiya qilish JKning Umumiy qismi normalarida o‘z aksini topgan. To‘g‘ri, kvalifikatsiya qilish uchun qaysi turdagi bir qancha jinoyatlar sodir etilganligini aniqlash katta ahamiyatga ega. Masalan, takroriy, jinoyatlar jami yoki retsidiv jinoyat sodir etilganligini farqlash lozim.

Bir qancha jinoyatlar sodir etishdan jinoyat qonuni normalarining raqobatligini farqlash lozim, bunda bir jinoyat o‘zining alomatlari bilan JK Maxsus qismi bir qancha normalarida nazarda tutilgan qilmishga mos keladi. Lekin raqobatli bir qancha jinoyatlar sodir etishdan farqli sodir etilgan qilmishga har tomonlama mos tushadigan bitta qonunni tanlash zarur.

Jinoyat huquqi nazariyasida umumiy va maxsus normalarning raqobati ikkita maxsus qonunlarning va modda bilan moddaning qismi o‘rtasidagi raqobat ajratib ko‘rsatiladi. Qonunlar raqobati jarayonida to‘g‘ri kvalifikatsiya qilish raqobatda bo‘lgan normalarni aniq tavsiflashdan iborat. Bunda normalarning bir-biri bilan munosabatiga bog‘liq norma bir holatda umumiy, boshqa holatda esa maxsus bo‘lishi mumkin. Raqobatning har bir turiga tegishli qoidalar mos tushishi kerak, ular har bir muayyan holat uchun kvalifikatsiya to‘g‘riligining kafolati bo‘lib xizmat qiladi.

**«O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi Maxsus qismi
tushunchasi, vazifasi, predmeti va tizimi» mavzusi bo‘yicha
yakuniy savollar**

1. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi Maxsus qismi nimani ifodalaydi? Jinoyat huquqi Umumiy va Maxsus qismi o‘rtasidagi farq nimada?
2. Jinoyat huquqi Maxsus qismi kursi predmetini nima tashkil etadi.
3. Jinoyat huquqi Maxsus qismi kursi tizimi deganda nima tushuniladi? U qanday prinsip asosida tashkil topgan?
4. Jinoyatni kvalifikatsiya qilish deganda nima tushuniladi? Uning qanday turlari mavjud?
5. Jinoyatni kvalifikatsiya qilishning qanday bosqichlari mavjud?

**Jinoyat huquqi Maxsus qismi barcha kurslari uchun
qo‘shimcha adabiyotlar**

Asosiy adabiyotlar

Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Т.: Ўзбекистон, 2016.– 48 б.

Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курашимиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 488 б.

Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо эташимиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.– 32 б.

Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қонидаси бўлиши керак. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 104

Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 592 б.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг қабул қилинган куннинг 25-йиллиги муносабати билан бўлиб ўтган тантанали маросимдаги “Конституция – эркин ва фаровон ҳаётимиз,

мамлакатимизни янада тараққий эттиришнинг мустаҳкам пойдеворидир” номли нутқидан // Халқ сўзи. 2017 йил 7 декабр. 247 (6741)-сон.

Президент Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йил 22 декабрдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси // Халқ сўзи. 2017 йил 23 декабр. 258 (6952)-сон.

Normativ hujjatlar

Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси: ўн иккинчи чақириқ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ўн биринчи сессиясида 1992 йил 8 декабрда қабул қилинган. – Т.: «Ўзбекистон», 2017.

Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1996 йил 27 февралдаги «Контрабанда ва божхона қонунларини бузиш тўғрисида ишлар бўйича суд амалиёти ҳақида»ги 2-сонли қарори. (Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2017 йил 29 ноябрдаги 46-сонли қарори билан киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар билан) // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси (www.lex.uz), 2017.

Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1996 йил 27 февралдаги «Қонунга хилоф равишда қуролга эгалик қилиш тўғрисида ишлар бўйича суд амалиёти ҳақида»ги 3-сонли қарори. (Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2017 йил 29 ноябрдаги 46-сонли қарори билан киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар билан) // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси (www.lex.uz), 2017.

Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1996 йил 15 мартдаги «Савдо соҳасида жиноятлар ва бошқа ҳуқуқбузарликлар тўғрисида ишлар бўйича суд амалиёти ҳақида»ги 9-сонли қарори. (Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2017 йил 29 ноябрдаги 46-сонли қарори билан киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар билан) // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси (www.lex.uz), 2017.

Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1996 йил 20 декабрдаги «Атроф муҳитни муҳофаза қилиш ва табиатдан фойдаланиш соҳасида жиноятлар ва бошқа ҳуқуқбузарликлар тўғрисида ишлар бўйича суд амалиёти ҳақида»ги 36-сонли қарори. (Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2017 йил 29 ноябрдаги 46-сонли қарори билан киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар билан) // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси (www.lex.uz), 2017.

Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1996 йил 20 декабрдаги «Транспорт воситасини олиб қочиш ишлари бўйича суд амалиёти ҳақида»ги 37-сонли қарори. (Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2017 йил 29 ноябрдаги 46-сонли қарори билан киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар билан) // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси (www.lex.uz), 2017.

Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1996 йил 20 декабрдаги «Республика судлари томонидан оммавий тартибсизликлар учун жавобгарлик тўғрисида қонунларни қўллаш амалиёти билан боғлиқ айрим масалалар тўғрисида»ги 38-сонли қарори. (Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2017 йил 29 ноябрдаги 46-сонли қарори билан киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар билан) // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси (www.lex.uz), 2017.

Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1998 йил 17 апрелдаги «Иқтисодиёт соҳасидаги жиноий ишлар бўйича суд амалиётида юзага келган айрим масалалар тўғрисида»ги 11-сонли қарори. (Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2017 йил 29 ноябрдаги 46-сонли қарори билан киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар билан) // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси (www.lex.uz), 2017.

Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1998 йил 11 сентябрдаги «ўзини ўзи ўлдириш даражасига етказиш жиноят ишлари бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 20-сонли қарори // Тўплам, 1-жилд. – 167–168-б.

Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1999 йил 30 апрелдаги «Ўзгалар мулкани ўғрилик, талончилик ва босқинчилик билан талон-тарож қилиш жиноят ишлари бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 6-сонли қарори. (Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2017 йил 29 ноябрдаги 46-сонли қарори билан киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар билан) // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси (www.lex.uz), 2017.

Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1999 йил 24 сентябрдаги «Порахўрлик ишлари бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 19-сонли қарори. (Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2002 йил 14 июндаги 10-сонли қарори билан киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар билан) // Тўплам, 1-жилд. – 236–241-б.

Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2000 йил 28 апрелдаги «Валюта қимматликларини қонунга хилоф равишда олиш ёки ўтказишга доир ишлар юзасидан суд амалиёти тўғрисида»ги 8-сонли қарори. (Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2017 йил 29 ноябрдаги 46-сонли қарори билан киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар билан) // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси (www.lex.uz), 2017.

Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2000 йил 15 сентябрдаги «Ҳарбий хизматни ўташ тартибига қарши жиноятларга оид ишларни кўриш бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 23-сонли қарори. (Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2016 йил 29 июлдаги 13-сонли қарорлари билан киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар билан)

Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2002 йил 14 июндаги «Безориликка оид ишлар бўйича суд амалиёти ҳақида»ги 9-сонли қарори. // Тўплам, 2-жилд. – 110–114-б.

Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2004 йил 21 майдаги «Жазоларни либераллаштириш тўғрисидаги қонунни иқтисодиёт соҳасидаги жиноятларга нисбатан қўллашнинг айрим масалалари ҳақида»ги 4-сонли қарори // 2016 йил 27 декабрдаги 29-сонли қарори билан киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар билан)

Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2004 йил 24 сентябрдаги «Қасддан одам ўлдиришга оид ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 13-сонли қарори // 2016 йил 27 декабрдаги 29-сонли қарори билан киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар билан)

Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2007 йил 27 июндаги «Баданга қасддан шикаст етказишга оид ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 6-сонли қарори //2012 йил 13 декабрдаги 19-сонли қарори билан киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар билан)

Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2007 йил 14 ноябрдаги 17-сонли «Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми айрим қарорларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида»ги қарори//2014 йил 23 майдаги 07-сонли қарори билан киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар билан)

Normativ hujjatlarga sharhlar, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, maxsus adabiyotlar

Кабулов Р., Якубов А.С.и др. Уголовное право. Особенная часть: Альбом схем. Учебно-методическое пособие. – Т.: Академия МВД Республики Узбекистан, 2002. – 258 Б.

Кодиров М. Уголовное право. Особенная часть. Учебник. – Т.: Академия МВД, 2000. – 513 Б.

Комментарий к Уголовному кодексу Российской Федерации. В 2-х томах / Под ред. О.Ф. Шишова. – М.: 1998. Том 1. – 277 Б.

Комментарий к Уголовному кодексу Российской Федерации / Отв. ред. В.М.Лебедев. –5-е изд., доп. и испр. –М.: Юрайт-Издат, 2005. – 921 Б.

Комментарий к Уголовному кодексу Российской Федерации: (постатейный) / В.К. Дуюнов, Л.Л. Кругликов и др.; отв. ред. Л.Л. Кругликов. – М.: «Волтерс Клувер», 2005. – 1104 Б.

Комментарий к Уголовному кодексу Российской Федерации с постатейными материалами и судебной практикой / Под общ. ред. С.И. Никулина, 2-е издание. – М.: «Менеджер», 2002. – 1176 Б.

Курс уголовного права. Особенная часть. Том 3. Учебник для вузов. Под ред. д.ю.н., проф. Г.Н. Борзенкова и к.ю.н., проф. В.С. Коммисарова. – М.: ИКД «Зерцало-М», 2002. – 468 Б.

Курс уголовного права. Особенная часть. Том 4. Учебник для вузов. Под ред. д.ю.н., проф. Г.Н. Борзенкова и к.ю.н., проф. В.С. Коммисарова. – М.: ИКД «Зерцало-М», 2002. – 672 Б.

Курс уголовного права. Особенная часть. Том 5. Учебник для вузов. Под ред. д.ю.н., проф. Г.Н. Борзенкова и к.ю.н., проф. В.С. Коммисарова. – М.: ИКД «Зерцало-М», 2002. – 512 Б.

Наумов А.В. Комментарий к Уголовному кодексу Российской Федерации. – М.: «Юристъ», 1996. – 824 Б.

Рустамбаев М.Х., Абдухаликов М.А. Сборник казусов по особенной части уголовного права. Учебно-методическое пособие. – Т.: «Адолат», 1998. – 198 Б.

Рустамбаев М.Х. Комментарий к Уголовному кодексу Республики Узбекистан. Особенная часть. – Т.: ИПТД «Ўқитувчи», 2004. – 1024 Б.

Рустамбаев М.Х. Уголовное право Особенная часть. В схемах. Учебно-методическое пособие. – Т.: ТГЮИ, 2004. – 313 Б.

Рустамбаев М.Х., Тохиров Ф. Уголовное право. (Особенная часть – Схемы). Учебно-методическое пособие. – Т.: ТГЮИ, 2004.

Рустамбаев М.Х. Уголовное право Республики Узбекистан. Особенная часть. Учебник для вузов. – Т.: «Мир экономики и права», 2002. – 528 Б.

Тарарухин С.А. Квалификация преступлений в судебной и следственной практике. – Киев: 1995. – 208 Б.

Уголовное право России. Часть Особенная: Учебник для вузов / Отв. ред. проф. Л.Л. Кругликов 2-е изд., перераб. и доп. – М.: «Волтерс Клувер», 2004. – 880 Б.


Уголовный кодекс Республики Узбекистан: научно-практический комментарий / А.С. Якубов, М.Х. Рустамбаев и др.; отв. ред. А.С. Якубов. – Т.: «Адолат», 1996. – 388 Б.

Уголовный кодекс Украины. Научно-практический комментарий / Отв. ред. С.С. Яценко, 3-е издание, исправленное и дополненное. – Киев: А.С.К., 2004. – 1096 Б.

Якубов А.С., Кабулов Р. и др. Уголовное право. Общая часть. Учебник. – Т.: Академия МВД Республики Узбекистан, 2005. – 527 Б.

II BOB. HAYOTGA QARSHI JINOYATLAR

1-sxema



1-§. Hayotga qarshi jinoyatlarning umumiy tavsifi

Davlatning eng muhim vazifalaridan biri inson haqida g'amxo'rlik qilishdir. Binobarin O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson omili, uning shaxsiy huquq va erkinliklari mustahkamlangan. Konstitutsiya normalarida har qanday holatdan qat'i nazar, shaxsning qonuniy huquq va manfaatlari kafolatlangan va himoya qilingan. Chunonchi, Konstitutsiyamizning 18-moddasida «O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar» deb qayd etilgan bo'lsa, uning 19-moddasida «Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki cheklab qo'yishga hech kim haqli emas»¹, deyiladi .

¹Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси: Ўн иккинчи чақириқ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ўн биринчи сессиясида 1992 йил 8 декабрда қабул қилинган. (2002 йил 27 январда ўтказилган умумхалқ референдуми натижаларига кўра ҳамда унинг асосида Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 24 апрелда қабул қилинган Қонунига мувофиқ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси XVIII, XIX, XX, XXIII бобларига ўзгартиришлар ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2007 йил 11 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 89-моддасига, 93-моддасининг 15-бандига, 102-моддасининг иккинчи қисмига тузатишлар киритилган. Ўзбекистон

Konstitutsiyaning «Shaxsiy huquq va erkinliklar», «Siyosiy huquqlar», «Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar» deb nomlangan bo‘limlarida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilishning huquqiy bazasi o‘z aksini topgan. «Davlat, – deb ta’kidlanadi Konstitutsiyaning 43-moddasida, – fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta’minlaydi». «Har bir shaxsga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish huquqi kafolatlanadi»¹.

O‘zbekiston inson huquqlari va erkinliklarini o‘zida mustahkamlagan 60 dan ortiq xalqaro hujjatlarga qo‘shilgan. Bu hujjatlar O‘zbekiston qonunchiligining shakllanishi, jumladan, jinoyat hamda inson huquq va erkinliklari borasidagi qonunlarning yaratilishi uchun ham asos bo‘lib xizmat qildi.

Республикасининг 2008 йил 25 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 77-моддасининг биринчи қисмига ўзгартириш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2011 йил 12 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 90-моддасининг иккинчи қисмига тузатиш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 16 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 32, 78, 93, 98, 103 ва 117 моддаларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 6 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 4-бандига, 81-моддасининг еттинчи қисмига, 83-моддасига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13 ва 14- бандларига, 107-моддасининг биринчи қисмига, 110-моддасининг биринчи ва учинчи қисмларига, 111-моддасига ўзгартишлар ва қўшимча киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 31 майда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 5 ва 12-бандларига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13-бандига ҳамда 108, 109-моддаларига ўзгартишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 29 августда қабул қилинган қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 99 ва 10-моддаларига ўзгартишлар киритилган.) – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. –9 б.

¹Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси: Ўн иккинчи чақириқ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ўн биринчи сессиясида 1992 йил 8 декабрда қабул қилинган. (2002 йил 27 январда ўтказилган умумхалқ референдуми натижаларига қўра ҳамда унинг асосида Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 24 апрелда қабул қилинган Қонунига мувофиқ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси XVIII, XIX, XX, XXIII бобларига ўзгартиришлар ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2007 йил 11 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 89-моддасига, 93-моддасининг 15-бандига, 102-моддасининг иккинчи қисмига тузатишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2008 йил 25 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 77-моддасининг биринчи қисмига ўзгартириш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2011 йил 12 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 90-моддасининг иккинчи қисмига тузатиш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 16 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 32, 78, 93, 98, 103 ва 117 моддаларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 6 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 4-бандига, 81-моддасининг еттинчи қисмига, 83-моддасига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13 ва 14- бандларига, 107-моддасининг биринчи қисмига, 110-моддасининг биринчи ва учинчи қисмларига, 111-моддасига ўзгартишлар ва қўшимча киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 31 майда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 5 ва 12-бандларига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13-бандига ҳамда 108, 109-моддаларига ўзгартишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 29 августда қабул қилинган қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 99 ва 10-моддаларига ўзгартишлар киритилган.) – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. –16 б.

«Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi»¹ ning 3, 4, 5-moddalarida, «Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt»ning 6, 7, 9, 10, 11-moddalarida² insonning yashash huquqi, qadr-qimmati, ozodligi va xavfsizligi, sha'ni va obro'yini himoya qilish kabi huquqlari mustahkamlangan. Bu xalqaro huquqiy me'yorlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ham asosini tashkil qiladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, shaxsning huquq va erkinliklari turli huquq sohalarining normalari bilan himoya qilinadi, lekin jinoyat qonunida fuqarolarning huquq va erkinliklari buzilganligi uchun jinoiy javobgarlik belgilangan bo'lib, huquqning bu sohasi ana shu javobgarlikni qo'llash orqali fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qiladi.

Jinoyat kodeksining «Shaxsga qarshi jinoyatlar» bo'limida hayotga; sog'liqqa qarshi; hayot yoki sog'liq uchun xavfli; jinsiy erkinlikka; oilaga, yoshlarga va axloqqa; shaxsning ozodligi, sha'ni, qadr-qimmatiga; fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi qaratilgan jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan bo'lib, bu jinoyatlar jamiyat uchun jiddiy xavf tug'diradi. Darhaqiqat, insonning hayoti va sog'ligi bebaho ne'mat hisoblanadi va uning bu ne'matlardan maxrum etilishi yoki ularga shikast yetkazilishi shaxs uchun fojia hisoblanadi. Inson yashar ekan, hayotdan, uning ne'matlaridan bahramand bo'lib yashashga intiladi, hayotdan mahrum qilingan shaxsning o'rini hech narsa bilan to'ldirib bo'lmaydi. Insonning sog'ligiga zarar yetkazilishi unga jismoniy, axloqiy, ruhiy azoblar berib, uning hayotiy faoliyatini cheklab qo'yadi.

Jinoyatchi tomonidan insonning boshqa huquq va erkinliklari buzilishining shaxs uchun ijtimoiy xavfi hayotdan mahrum etishdan kam bo'lmagan xavfni tug'diradi.

¹Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948 yil 10 dekabrda BMT Bo'sh Assambleyasining 217 A (III) Rezolyutsiyasida qabul qilingan va e'lon qilingan; Ўzbekiston Respublikasi mazkur deklaratsiyaga 1991 yil 30 sentyabrda Ўzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining № 336-XII qarori asosida qo'shilgan).

²1996 yil 16 dekabrda Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (BMT Bo'sh Assambleyasi 2200 A (XXI) Rezolyutsiyasida qabul qilingan va imzolashga, ratifikatsiya qilishga va qo'shiliشىga ochiq, 1976 23 martda kuchga kirgan, Ўzbekiston Respublikasi Ўzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining № 127-1 qarori asosida qo'shilgan, Ўzbekiston Respublikasi uchun 1995 yil 28 dekabrda kuchga kirgan).

Shaxsga qarshi jinoyatlarning xavflilik darajasi yuqori ekanligi sababli, Jinoyat kodeksining Maxsus qismi birinchi bo‘limi «Shaxsga qarshi jinoyatlar» deb nomlanadi.


Shaxsga faqat yuqorida aytilgan jinoyatlar sodir etilganida emas, balki boshqa obyektlarga tajovuz qilinganida, masalan, bosqinchilik, talonchilik va boshqa jinoyatlar sodir etilgan hollarda ham zarar yetkazadi. Shaxsga qarshi jinoyatlar tahlil qilinganida bu qilmishni sodir etgan aybdorning harakatlari aynan shaxsga zarar yetkazishga qaratilganligiga e’tibor beriladi.

Jinoyat kodeksi Maxsus qismining birinchi bo‘limida shaxsga qarshi jinoyatlarning bir necha turi uchun javobgarlik nazarda tutilgan bo‘lib, ular bevosita obyekt bo‘yicha quyidagi guruhlariga ajratilgan:

- 1) hayotga qarshi jinoyatlar;
- 2) sog‘liqqa qarshi jinoyatlar;
- 3) hayot yoki sog‘liq uchun xavfli jinoyatlar;
- 4) jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlar;
- 5) oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlar;
- 6) shaxsning ozodligi, sha’ni va qadr-qimmatiga qarshi jinoyatlar;
- 7) fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar.

2-§. Hayotga qarshi jinoyatlar. Odam jinoyatlarining tushunchasi, tahlili va turlari

2-sxema



Qasddan odam o'ldirish jinoyati haqidagi ishlar bo'yicha jinoyat qonunining to'g'ri qo'llanilishini ta'minlash juda muhim, chunki ushbu jinoyatni aybni og'irlashtiruvchi holatlarda sodir etganlik uchun qonunda favqulodda jazo chorasi – umrbod ozodlikdan mahrum qilish nazarda tutilgan.

NOTA BENE !

Hayotga qarshi jinoyatlarni shartli ravishda uch turkumga bo'lish mumkin:

- 1) qasddan odam o'ldirish;
- 2) ehtiyotsizlikdan odam o'ldirish;
- 3) o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish yoki o'zini o'zi o'ldirishga undash.

Odam o'ldirish – huquqqa xilof ravishda, qasddan boshqa kishini hayotdan mahrum qilishdir.

Odam o'ldirishning obyekti – boshqa odamning hayoti xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ijtimoiy munosabatlardir¹. Hayotdan ixtiyoriy ketish (suiqasd) yoxud o'z hayotiga suiqasd qilish odam o'ldirish jinoyatining tarkibini tashkil etmaydi. Ayrim sabablarga ko'ra inson o'zining hayotiga chek qo'yishga qaror qilganida uning xohish-irodasiga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra o'lim ro'y bermasligi mumkin (o'zini osgan vaqtda arqonning uzilib ketishi, zaharning ta'sir qilmasligi, begona shaxsning qutqarib qolishi va h.k.). o'lim yuz bermaganiga qaramay o'z joniga qasd qilganlik jamoatchilik tomonidan qoralanadi. Chunki bunday hodisa inson axloqiga yotdir va u shaxsning o'jizligi, irodasi bo'shligidan dalolat beradi, lekin jinoyat hisoblanmaydi.

Odam o'ldirishning obyekti nafaqat odamning hayotiy biologik jarayoni, balki odam uchun eng qimmatli bo'lgan ne'mat bilan bermalol foydalanishi, hayoti bilan ifodalanadigan ijtimoiy munosabat ham bo'ladi.

Odam o'ldirishning bevosita obyekti boshqa kishining hayoti hisoblanadi. Yoshidan, sog'ligi yoki yashash tarzidan qat'i nazar har qanday kishining hayoti jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadi. Shu sababli chaqaloq, keksa, sog'lom yoki umidsiz, og'ir kasal odamni hayotdan mahrum qilishga qaratilgan har qanday harakat odam o'ldirish deb hisoblanadi.

Keyingi vaqtlarda yuridik adabiyotlarda evtanaziya, ya'ni shaxsni o'zining roziligi bilan hayotidan mahrum etganlik uchun javobgarlik masalasi bo'yicha munozaralar avj olmoqda.

Bugungi kunda 40 dan oshiq dunyo mamlakatlarida passiv evtanaziya qonun bilan ruxsat berilgan². Masalan, Avstraliyada 10 yildan beri o'lim yoqasida turgan bemorning xohishi bilan sun'iy hayotni saqlab turish apparatini to'xtatishga yo'l qo'yilmoqda. O'ziga xos yo'lni Shveysariya tanlagan. Evtanaziya uchun jinoiy javobgarlikni qonunda

¹Бу илмий нуқтаи назардан қасддан одам ўлдириш объектининг нисбатан аниқ ва тўғри таърифи. Бироқ, кўп ҳолларда юридик адабиётларда таърифнинг қисқа кўринишларини учратиш мумкин "қасддан одам ўлдиришнинг объекти - бошқа шахснинг ҳаёти". Таъкидлаш керакки, бундай қисқартириш таърифнинг мазмунини ўзгартирмайди ва ЖК да кўрсатилган кўплаб жинойатларнинг объектини таърифлашда қўлланилади.

²Ивченко О. Ответственность за эвтаназию по уголовному законодательству зарубежных стран (сравнительно-правовой анализ). // Ж. Уголовное право. – 2001 – № 3. – 19-б.

saqlab qolingan holda, umidsiz qolgan bemorga ushbu davlat hokimiyati maxsus vrachlar ishtirokida maxsus dori berib bemorning o'limi yuz berishida ishtirok etishiga imkon berilgan. Fransiya ham evtanaziyani qonunlashtirish harakatlarini boshlagan¹. Aktiv evtanaziya birinchi bo'lib Gollandiyada qonunlashtirilgan. 2001 yilning 10 aprelida shu mamlakatning yuqori palatasi tomonidan najotsiz qolgan bemorga bu dunyoni tark etishda yordam bergan vrachni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish to'g'risida qonun qabul qilingan va 2002 yil 1 aprelidan beri evtanaziya shu mamlakatning JK dan mutlaq chiqarilgan². Gollandiyadan so'ng 2002 yil dekabr oyida Belgiya ham bunga qo'shildi. Shu yilda Angliyada pretsedent yaratildi. «Aktiv evtanaziyani Oregon shtatida (AQSh) qonunlashtirildi. Unga ko'ra evtanaziya faqat kasallikning oxirgi bosqichidagina qo'llanilishi mumkin. Ammo chet el olimlarning izlanishlariga ko'ra bu qonun hali amalda qo'llanilmagan, chunki hayotdan ko'z yummoqchi bo'lgan shaxs psixologik ko'rikdan o'tishi shart. Lekin Amerika psixologik assotsiatsiyasi bunday ko'rikda ishtirok etishdan bosh tortgan»³.

Evtanaziyani ma'qullovchi va uni qoralovchilar bo'lishiga qaramasdan, uni qonunlashtirishga ehtiyot bo'lish kerak, chunki insonga hayot xudo tomonidan ato etiladi, uni qaytib olishga faqatgina uning o'zi haqlidir, degan fikrlar ham mavjud. Bundan tashqari, dorishunoslik yutuqlaridan foydalanib, asta-sekin inson hayotiga chek qo'yadigan vositalar yaratilishidan ham umid qilinmoqda. Ammo inson tabiati, uning a'zolari faoliyati hali shifokorlar tomonidan to'liq o'rganilmaganligini e'tirof etish lozim. Ba'zan tuzalishiga hech qanday umid bo'lmagan kasal sog'ayadi va to'la hayotiy faoliyatini yana davom ettiradi.

¹«Труд» газетаси. 2003 йил 30 сентябрь.

² Албатта, голландиялик қонун чиқарувчи фақат муайян шартларга риоя қилган ҳолда эвтаназияга йўл қўяди, жумладан: а) бемор енгиллаш мумкин бўлмаган чидаб бўлмайдиган изтироб чекади; б) бемор фақат ўзининг хоҳиш-иродасига асосан шифокорларга уни ўлдириш ҳақидаги илтимос билан мурожаат қилиши шарт; в) шифокор эвтаназия ҳаракатини амалга оширишдан олдин яна битта мустақил мутахассис билан маслаҳатлашиши шарт; г) эвтаназияни қўллаш ҳар бир ҳолати тўғрисида шифокор нотабий ўлиш сифатида махсус органларни хабардор қилиши шарт.

³ Ивченко О. Кўрсатилган асар. 21-б.

Sun'iy homila tushirish (abort) bilan bog'liq jinoyatni to'g'ri kvalifikatsiya qilish uchun inson hayotining boshlanishini chuqur o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Haqiqatdan ham, bu savolga javob topish murakkab vazifadir.

Shu bois qaysi vaqtdan boshlab homila yoki yangi tug'ilgan bola ushbu jinoyatning obyekti bo'ladi? Tug'ilgan vaqtdanmi yoki ona qornida homila paydo bo'lgan vaqtdanmi degan savol tug'iladi. So'z uning shaxs sifatida tan olinishi va jinoyat qonunida javobgarlik belgilangan jinoyatning obyekti bo'lishi mumkinligi haqida bormoqda.

Yuridik adabiyotlarda bu borada qarama-qarshi qarashlar mavjud. Ayrim mualliflar inson hayotining boshlanish payti deb go'dakning nafas ola boshlashi yoki bolaning ona qornidan to'liq ajralib chiqish vaqtini hisoblaydilar¹. Boshqalar esa homilaning yetarli darajada rivojlanib, ona qornida homila tarzida hayot uchun barcha zaruriy sifatlarga ega bo'lganligini tasdiqlovchi jismoniy to'lqoqning boshlanishi bilan belgilaydilar². Bizningcha, bu qarashlar unchalik to'g'ri emas, chunki jismoniy to'lqoqning boshlanishi, tug'ish jarayonining boshlanishidir. Bu vaqtda homilaga zarar yetkazishni homilador ayolning sog'ligiga zarar yetkazish deb qaramoq kerak va bu qilmish Jinoyat kodeksidagi shaxsning sog'ligiga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlikni ko'zda tutuvchi bobining tegishli moddasi bilan kvalifikatsiya qilinishi kerak.

Hayotning boshlanishi chaqaloq tanasining biror qismi ona qornidan tashqarida paydo bo'lishi bilan bog'liq deb hisoblagan mualliflarning fikri ancha to'g'ridir³.

¹ Каранг: Комментарий к Уголовному кодексу Российской Федерации: расширенный уголовно-правовой анализ с материалами судебно-следственной практики / под общ. ред. А.П. Новикова. – 5-е изд., перераб. и доп. – М.: Издательство «Экзамен», 2006.217-б.

² Каранг: Кругликов Л.Л. Жизнь человека как объект уголовно-правовой охраны (понятие и некоторые вопросы квалификации). // Уголовно-правовая охрана личности и ее оптимизация: Научно-практ. конф., посв. памяти проф. А.Н. Красикова (20-21 марта 2003 г.) / Под ред. Б.Т. Разгильдиева. – Саратов: Изд-во ГОУ ВПО «Сарат. гос. академия права», 2003. – 45-б.; Уголовный кодекс Украины. Научно-практический комментарий / Отв. ред. С.С. Яценко, 3-е издание, исправленное и дополненное. – Киев: А.С.К., 2004. 261-б.; Комментарий к Уголовному кодексу Российской Федерации / Отв. ред. В.М. Лебедев. – 5-е изд., доп. и испр. – М.: Юрайт-Издат, 2005. –286-б.

³ Блиндер Б.А., Закутский С.Г. Уголовное право Узбекской ССР. Особенная часть. – Т.: «Ўқитувчи», 1985. – 8-б.

Aynan shu vaqtdan boshlab bola atrofdagilar tomonidan homila emas, balki inson, shaxs sifatida qabul qilinadi. Shu munosabat bilan, chaqaloq tanasining biror qismi to'lg'oq jarayonida ona qornidan tashqarida paydo bo'lgan vaqtni hayotning boshlanishi deb hisoblash ma'quldir.

Bu muammo bo'yicha fikrlarning xilma-xilligi, ularning bahsli ekanligi, jismoniy va tibbiy mezonlarga asoslangan holda hayot boshlanishining obyektiv belgilarini aniqlashga qaratilgandir. Lekin bunday belgilarni aniqlash mumkin emas. Hayot to'xtovsiz jarayondir. Homilaning paydo bo'lishi va sekin-asta rivojlanib, chaqaloq tug'ilishi bilan uning ko'rinishi, shakli o'zgaradi, xolos. Shuning uchun sud-tibbiyot ekspertizasining xulosasi hayotning boshlanishi haqidagi masalani hal qila olmaydi. Buni aniqlashda subyektning qasдини aniqlash zarur, ya'ni qasdi homilaga emas, balki shaxsga ziyon yetkazishidadir.

Sud-tibbiyot ekspertisasi faqatgina tajovuz vaqtida homila tirik bo'lgan yoki bo'lmaganligini aniqlashi zarur.

Ona tanasidan chaqaloqning biror a'zosi ko'ringan vaqtdan vrach, akusherning ehtiyotsizligi natijasida uning hayotiga shikast yetkazilsa, u O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 102-moddasiga binoan ehtiyotsizlik orqasida odam o'ldirganlik uchun jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Homilador ayolning roziligi bilan homila to'la shakllanmay turib, uning sun'iy ravishda tushirilishi odam o'ldirish deb hisoblanmasligi kerak. Bunday qilmish O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 114-moddasiga asosan homiladorlik muddatidan qat'i nazar, jinoiy ravishda homilani tushirish deb kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Jinoyat huquqi nazariyasida ham, tibbiyotda ham miyaning tuzalmas halokati, ya'ni jismoniy o'limining yuzaga kelishi bilan ifodalanuvchi **biologik o'lim** tan olinadi.

Klinik o'limning yuzaga kelishi (yurakning to'xtashi) bu hali, insonning o'limini anglatmaydi, chunki tibbiyot xodimlari zamonaviy sharoitlarda yurakning ishlash faoliyatini qayta tiklash imkoniyatiga ega.

O'lgan odamni tirik deb, uning hayotiga tajovuz qilish o'ldirishga suiqasd deb kvalifikatsiya qilinishi kerak.

Shunday qilib, odam o'ldirishning **obyekti** deb, **boshqa kishining hayoti**, ya'ni tanasining biror qismi to'lg'oq jarayonida ona qornidan tashqarida paydo bo'lgan vaqtdan to biologik o'limining kelib chiqishigacha bo'lgan jarayondir.

Obyektiv tomondan odam o'ldirish qonunga xilof ravishda boshqa shaxsni hayotidan mahrum qilishda ifodalanadi. Agar boshqa shaxsni hayotidan mahrum qilish qonunga xilof bo'lmasa, u odam o'ldirish deb hisoblanishi mumkin emas (masalan, zaruriy mudofaa holatida, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlab vaqtida (JK 39-moddasi) boshqa shaxsni hayotidan mahrum qilish va h.k.).

O'ldirish faol harakat bilan, shuningdek, harakatsizlik bilan ham sodir etilishi mumkin. Ko'pincha odam o'ldirish faol harakat orqali sodir etiladi, ya'ni bunda aybdor jabrlanuvchiga o'z xususiyatiga ko'ra shaxsni o'ldirishi mumkin bo'lgan muayyan tan jarohatini yetkazishdek (har qanday qurol-ashyodan foydalanish, bo'g'ish, kuydirish, zaharlash, elektr toki bilan ta'sir ko'rsatish, o'ta issiq yoki o'ta sovuq havoda ochiq yerda qoldirish) jismoniy ta'sir ko'rsatadi. Bu jinoyat ayrim hollarda jabrlanuvchiga ruhiy ta'sir qilish (sud-tergov amaliyotida o'limning qo'rquvdan, qo'rqitish tufayli ro'y berganlik holatlari ham ma'lum) yo'li bilan ham sodir qilinishi mumkin.

Odam o'ldirish harakatsizlik natijasida ham sodir etilishi mumkin. Bunday holda shaxs o'z vazifasini yoki bajarish imkoni bo'lgan harakatni amalga oshirmaydi. Lekin unda o'lim yuz bermasligi (masalan, vrach tomonidan zarur dori-darmonlarni bemorga bermaslik, onaning tug'ilgan chaqaloqqa qaramasligi va hokazo) ham mumkin.

Odamning joniga qasd qilgan aybdor shaxsning adashishi, ya'ni nazarda tutilganidan boshqa kishining hayotiga huquqqa xilof ravishda qasd qilsa, ya'ni jabrlanuvchining shaxsiga nisbatan adashsa, bu hol jinoyatning kvalifikatsiyasiga ta'sir qilmaydi va aybdorning qilmishi odam o'ldirish deb kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Odam o'ldirish moddiy tarkibli jinoyat bo'lib, uni tugallangan deb topish uchun jabrlanuvchining o'limi sifatidagi oqibat ro'y bergan bo'lishi lozim. Bunday oqibatning ro'y bermaganligi odam o'ldirishni tugallanmagan, odam o'ldirishga tayyorgarlik yoki unga suiqasd deb,

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 25-moddasining tegishli qismi orqali aybdorni javobgarlikka tortish uchun asos bo‘ladi. Aybdor o‘zi sodir etgan qilmishi natijasida qanday oqibat ro‘y berishini bilib harakat qilsa-yu, ammo uning ixtiyoriga bog‘liq bo‘lmagan sabablarga ko‘ra jabrlanuvchi tirik qolsa, uning harakati odam o‘ldirishga suiqasd deb topiladi. Bunday suiqasd nazariya va amaliyotda yaroqsiz qurol bilan tajovuz deb, ikki turga ajratiladi: yaroqsiz qurol bilan suiqasd va yaroqsiz obyektga suiqasd. Ikkinchi turga misol qilib, murdani tirik odamga adashtirib uni o‘ldirish maqsadida o‘q otishni keltirish mumkin. Bu holatda aybdor shaxsning tirik ekanligiga nisbatan adashmoqda. Bu qilmish o‘ta xavfli ijtimoiy qilmish bo‘lib, jinoiy javobgarlikka tortilishi zarurligini anglatadi.

Odam o‘ldirishga suiqasd haqidagi ishlarni ko‘rib chiqishda jinoiy harakat natijasida o‘lim yuz bermaganligi sabablarini aniqlash zarur. Negaki jinoiy harakat sodir etuvchi jinoyatni vaqtincha yoki majburan emas, balki o‘z xohishi bilan to‘xtatishi mumkin. Bunda uning o‘z xohishi bilan jinoyat to‘xtatilgan bo‘lishi zarur. Shunga qaramay, jinoyat huquqi nazariyasi va amaliyoti shuni inobatga oladiki, odamni qasddan o‘ldirishga suiqasddan so‘ng bunday harakatni qayta davom ettirishdan bosh tortish qilmishning kvalifikatsiyasiga ta’sir qilmaydi.

Shaxsni odam o‘ldirganlik uchun javobgarlikka tortishda jinoyatning tugallanganligi, jinoiy qilmish bilan o‘lim o‘rtasida sababiy bog‘lanishning mavjudligini aniqlash zarurdir. Jabrlanuvchining o‘limi aybdor tomonidan sodir etilgan qilmish bilan bog‘liq bo‘lishi shart, ya’ni o‘lim sodir etilgan qilmishning natijasi bo‘lishi kerak.

Qilmish va o‘lim o‘rtasida sababiy bog‘lanishning yo‘qligi shaxsni odam o‘ldirganlik uchun javobgarlikka tortishni istisno qiladi, mazkur qilmish jabrlanuvchining sog‘ligiga turli darajadagi shikast yetkazganlik uchun javobgarlik belgilangan moddalardan biri bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Jabrlanuvchini uning iltimosiga ko‘ra (tuzalmas dardga yo‘liqqan kasalning boshqa kishidan o‘zini zahar berib o‘ldirishini iltimos qilishi va h.k.) o‘ldirgan shaxs jinoiy javobgarlikdan ozod qilinmaydi. Duelda

odam o'ldirish bugungi kunda uchramaydi, lekin shunday hodisa ro'y bersa, aybdor qasddan odam o'ldirganlik uchun javobgarlikka tortiladi.

Subyektiv tomondan odam o'ldirish qasddan yoki ehtiyotsizlik bilan sodir etilishi, aybning shakllari turlicha bo'lishi mumkin, ammo ayb mavjud bo'lishi lozim. Ushbu qilmish egri qasd bilan ham sodir etilishi mumkin¹.

Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Qasddan odam o'ldirishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida»gi qarorining 5-bandida: «Aybdorning qasdi to'g'risidagi masalani hal qilishda sudlar sodir etilgan jinoyat holatlarining barcha tomonlari yig'indisini inobatga olishlari va jumladan, jinoyatni sodir etish usuli va qurolini, jarohatlarning sonini, xarakterini, joylashishini va boshqa yetkazilgan shikastlarni, jinoiy harakatning to'xtash sabablarini va hokazo, shuningdek, aybdor va jabrlanuvchining voqeagacha bo'lgan fe'l-atvorini, ularning o'zaro munosabatini, aybdor jinoyat sodir etilganidan keyingi harakatlarining xarakterini e'tiborga olishlari lozim»²ligi ko'rsatilgan.

Yuqorida sanab o'tilgan holatlarning aniqlanishi aybdorning qasdi bilan o'lim o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash imkonini beradi. Masalan, aybdor shaxsga tajovuz qilayotgan vaqtda o'qotar quroldan foydalanib, yaqin masofadan jabrlanuvchining yuragini mo'ljallab o'q uzgan, ammo u o'lmagan bo'lsa, aybdorning qilmishi badanga shikast yetkazish deb emas, balki qasddan odam o'ldirishga suiqasd deb kvalifikatsiya qilinishi lozim yoki aybdor pichoq bilan jabrlanuvchining yuragiga, bo'yniga va boshqa hayot uchun muhim a'zolariga ko'pgina jarohat yetkazsa-yu, o'lim ro'y bermasa, bu holat ham aybdorning odam o'ldirishga qasd qilganligidan dalolat beradi.

Agar aybdor va jabrlanuvchi do'stona munosabatda bo'lgan bo'lsa, bir-birini tushunsa, ammo ma'lum bir holatda, masalan, qiz bolani rashk qilish tufayli ulardan biri ikkinchisiga pichoq bilan jarohat yetkazsa-yu, shu vaqtning o'zida esini yig'ib olib, jabrlanuvchiga tez yordam ko'rsat-

¹Ўзбекистон Республикаси олий суди Пленумининг 2004 йил 24 сентябрдаги "Қасддан одам ўлдиришга оид ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида"ги 13-сонли қарори // Ўзбекистон Республикаси олий суди Пленуми қарорлари тўплами. - 1991 - 2006, 2-жилд. - Т.: "О'qituvchi", 2007. - 192-б. (Бундан кейин - Тўплам, 2-жилд).

²Ўша жойда. – 193-б.

gan, «Tez yordam»ni chaqirgan, uni qutqarish uchun qon topshirgan va hokazo bo'lsa-da, jabrlanuvchi yetkazilgan jarohatlar tufayli o'lgan bo'lsa, barcha holatlarni e'tiborga olgan holda aybdorning qilmishi JK 97-moddasida javobgarlik belgilangan qasddan odam o'ldirish, deb emas, balki JK 104-moddasi 3-qismi bilan, ya'ni jabrlanuvchining o'limiga sabab bo'lgan qasddan badanga og'ir shikast yetkazish deb kvalifikatsiya qilinadi.

Nazariya va amaliyotga qasdning quyidagi turlari ma'lum: ma'lum (konkretlashgan) va noma'lum (konkretlashmagan). O'ldirishni kvalifikatsiya qilishda ma'lum egri qasdning bo'lishi uncha muammo tug'dirmaydi. Ma'lum to'g'ri qasdning mavjud bo'lishida javobgarlikka, qilmishning tugallanganligidan so'ng va qilmishning natijasi aybdorning xohishi bilan ro'yobga chiqqan o'lim bo'lganidan so'ng tortiladi. Noma'lum to'g'ri qasdning mavjud bo'lishida kvalifikatsiya real natijaning ro'yobga chiqishi bilan amalga oshiriladi. Agarda bunday natijalar subyektning o'zi bilmagan holatida bo'lmasa, natijalar noma'lum to'g'ri qasd ichiga kirmasa, aybdorni o'zi xohlagan eng og'ir natijaga ko'ra jazolash kerak.

NOTA BENE !

Aybdorni odam o'ldirganligi uchun javobgar qilish uchun **ayb**, ya'ni jinoyat to'g'ri qasddan yoki egri qasd orqali sodir etilganligini aniqlash zarurdir. O'lim aybdorning qonunga xilof harakati tufayli ro'y bermagan bo'lsa, u o'lim ro'y berganligi uchun javobgarlikka tortilmaydi.

Masalan, D., B., L.lar K. ning nomusiga tegadilar va uni daryo bo'yida qoldirib ketadilar. Ular ketganidan so'ng K. yuvinib olish maqsadida daryoning qirg'og'iga keladi va oyog'i sirpanib suvga tushib ketishi natijasida cho'kib ketadi.

Dastlab D., B., L.lar guruh bo'lib nomusga tekkanlik va qasddan odam o'ldirganlik uchun javobgarlikka tortiladilar. Ularning xatti-harakatlarida jabrlanuvchining o'limi ro'y berishiga nisbatan qasd va ehtiyotsizlikning bo'lmaganligi sababli D., B., L.larning odam o'ldirganlik uchun hukm qilinganligi noto'g'ridir. Shu munosabat bilan

yuqori turuvchi sud tomonidan hukmning odam o'ldirganlik uchun javobgarlik belgilangan qismi bekor qilingan.

Qasddan odam o'ldirishga **suiqasd** qilish faqat **to'g'ri qasd** bilan sodir etilishi mumkin, chunki bunda aybdor o'z qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglagan, jabrlanuvchining o'limiga ko'zi yetgan va o'limini istagan bo'ladi, biroq o'lim aybdorga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra (jabrdiydaning faol qarshiligi, boshqa shaxslarning aralashuvi, jabrlanuvchiga o'z vaqtida tibbiy yordam ko'rsatilganligi va h.k. tufayli) yuz bermaydi¹.

Ushbu jinoyatning sodir etilishida **subyektiv tomondan** motiv va maqsadning ahamiyati kattadir. Motiv va maqsad qilmishning kvalifikatsiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining yuqorida ta'kidlangan qarorida: «Sodir etilgan harakatni to'g'ri baholash va jazo tayinlash uchun odam o'ldirishning sabablari, maqsadi va usuli muhim ahamiyatga ega ekanligini nazarga olib, sudyalarda barcha hollarda, bu holatlarni aniqlashlari zarurdir. Shuning bilan birgalikda hukmda sudlar tomonidan qilingan xulosalarni asoslovchi aniq dalillar keltirilishi kerak»² deb tushuntirish berilgan. Masalan, jinoyatning o'ch olish, rashk motivi bilan sodir etilganligi aniqlansa, aybdorning qilmishi JK 97-moddasi 1-qismi bilan; odam o'ldirish g'araz niyatida, bezorilik oqibatidagi motiv bilan sodir etilgan bo'lsa, qilmish jazoni og'irlashtiruvchi holat sifatida JK 97-moddasi 2-qismi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Odam o'ldirish to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishda aybdorning ruhiy holati ham inobatga olinishi lozim. Bunday shart aybdorning kuchli ruhiy hayajon holatida (JK 98-moddasi) sodir etgan qilmishini kvalifikatsiya qilishda muhim rol o'ynaydi.

JK 97-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan **jinoyatning subyekt** 13 yoshga to'lgan aqli raso jismoniy shaxsdir, 97-moddaning 1-qismida javobgarlik belgilangan qasddan odam o'ldirish, kuchli ruhiy hayajonlanish holatida odam o'ldirish (JK 98-moddasi)ning subyekt 14 yoshga to'lgan aqli raso jismoniy shaxsdir. Ehtiyotsizlik orqasidan odam

¹Ўзбекистон Республикаси Олий суди ... // Тўплам, 2-жилд. 192-б.

²Ўша жойда.

o'ldirish (JK 102-moddasi), o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish (JK 103-moddasi) va o'zini o'zi o'ldirishga undash (JK 103¹-moddasi) **jinoyatlari uchun javobgarlik** 16 yoshdan boshlanadi.


Odam o'ldirish bo'yicha jinoyat ishlari ko'rilganida aybdor shaxsini, uning shaxsiga oid xususiyatlarini va jabrlanuvchining xulq-atvorini chuqur o'rganish zarurdir. Bu hol jazo tayinlash uchun emas, balki jinoyatning sodir etilish shart-sharoitlari va motivini aniqlash va demakki, jinoyatni to'g'ri kvalifikatsiya qilishda ham ahamiyatga egadir.

Jinoyatni sodir etishda bir necha kishi ishtirok etgan bo'lsa, birgalikda odam o'ldirishga qaratilgan yagona qasd bilan harakat qilgan va jabrlanuvchini hayotdan mahrum etish jarayonida bevosita ishtirok etgan shaxsgina jinoyatning ishtirokchisi deb topilishi lozim. Agar o'lim bir kishining harakati natijasida ro'y bergan bo'lsa, ishtirokchilik belgilari bo'lmagan hollarda qolgan kishilar odam o'ldirganlik uchun javobgar bo'lmaydilar. Bir necha shaxs javobgarlikka tortilgan qasddan odam o'ldirish to'g'risidagi ishlarni ko'rishda sud har bir sudlanuvchining jinoyatda ishtiroki xarakteri va darajasini tekshirish lozim. Shuning bilan birgalikda odam o'ldirish maqsadi bilan harakat qilgan va jabrlanuvchini hayotidan mahrum etishda bevosita qatnashgan shaxs jinoyatning bajaruvchisi deb topilishi kerak. Ishtirokchilar tomonidan birgalikda jinoyat sodir etilganda sud xavfli retsivist, alohida xavfli retsivist yoki ilgari qasddan odam o'ldirgan shaxs tomonidan odam o'ldirishni ko'rsatuvchi alomatlar faqat shunday holatlarga tegishli bo'lgan jinoyat ishtirokchilarining harakatlarini tavsiflashda e'tiborga olinishi lozim.

Ijtimoiy xavflilik darajasiga qarab O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunining bir necha normalarida odam o'ldirganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Ammo odam o'ldirishdan odam o'ldirishning ham farqi bor. G'araz niyat tufayli, o'ta shafqatsizlik bilan, homilador ayolni o'ldirish, shuningdek, zaruriy mudofaa, xavfli jinoyatchini ushlab, oxirgi zarurat va hokazo holatlarda odamning hayotiga chek qo'yilishi mumkin. Yuqoridagi turli holatlarni e'tiborga olib, qonun chiqaruvchi tomonidan odam o'ldirganlik uchun turli jinoyat-huquqiy moddalarda javobgarlik belgilangan.

3-§. Qasddan odam o'ldirish (JK 97-moddasi)

3-sxema



Jinoyat kodeksining **97-moddasi** ikki qismdan iborat bo'lib, ushbu moddaning 1-qismida «oddiy» odam o'ldirganlik uchun javobgarlik belgilangan. Albatta, odam o'ldirish «oddiy» bo'lishi mumkin emas. Jinoyatni **JK 97-moddasi 1-qismi** bilan kvalifikatsiya qilish inkor usuli bilan amalga oshiriladi. Ishda, ya'ni sodir etilgan qilmishda **JK 97-moddasi 2-qismida** nazarda tutilgan odam o'ldirganlik uchun javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlarning mavjudligi va JK 98–102-moddalaridagi yengillashtiruvchi holatlarning borligi aniqlanadi. Agarda yuqorida aytilgan holatlar bo'lmasa, aybdorning qilmishi **JK 97-moddasi 1-qismi** bilan kvalifikatsiya qilinadi¹.

O'ch olish maqsadida, rashk tufayli, tuzalmaydigan kasalni azobdan qutqarish maqsadida jabrlanuvchining iltimosiga ko'ra, mushtlashish vaqtida o'ldirish, bezorilik belgilari bo'lmasa, hasad, qo'rqoqlik va hokazo tufayli sodir etilgan odam o'ldirish **JK 97-moddasi 1-qismi** bilan kvalifikatsiya qilinadi.

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2004 йил 24 сентябрдаги «Қасддан одам ўлдиришга оид ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 13-сонли қарори, 2-банд // Тўплам, 2-жилд. - 460 б.

O‘z xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabati bilan shaxsni yoki uning yaqin qarindoshlarini qasddan o‘ldirishdan boshqa barcha holatlarda o‘ch olish maqsadida shaxsni o‘ldirganligi uchun aybdor **JK 97-moddasi 1-qismi** bilan javobgarlikka tortiladi. Dastlab aytib o‘tilgan holatda odam o‘ldirganlik **JK 97-moddasi 2-qismi «g»** bandi bilan kvalifikatsiya qilinadi, buning uchun odam o‘ldirish aynan shaxsiy munosabatlar tufayli o‘ch olish maqsadida sodir etilganligini aniqlash lozim bo‘ladi.

Shaxsiy munosabatlar tufayli o‘ch olish maqsadida odam o‘ldirishdan bezorilik oqibatida odam o‘ldirishni farqlash lozim. Bezorilik oqibatida odam o‘ldirishga jabrlanuvchining ahamiyatga ega bo‘lmagan harakati (chekish uchun sigareta bermaslik, biror-bir korxonaning qayerda joylashganligini aytmaslik va hokazo) bahona bo‘ladi yoki u hech bir sababsiz ham amalga oshiriladi.

O‘ch olish motivi jabrlanuvchining xulq-atvori, xatti-harakati tufayli bevosita odam o‘ldirilishidan oldin yoki ancha ilgari vujudga kelishi mumkin.

Shaxsiy munosabatlar tufayli bevosita o‘ldirish sodir bo‘lishidan avval o‘ch olish motivi paydo bo‘lgan holatlarda, odam o‘ldirish kuchli ruhiy hayajonlanish yoki zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqish yoxud ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsni ushlab vaqtida zarar yetkazish tufayli sodir etilmaganligini ham aniqlash lozim.

Rashk tufayli odam o‘ldirish ham JK 97-moddasi 1-qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi. Odam o‘ldirish motivi sifatida rashk o‘zida ishonchsizlik, egoizm, qahr-g‘azab kabi unsurlarni jamlagan bo‘ladi. Ko‘pincha rashk tufayli odam o‘ldirishga er yoki xotinning xayoliy xiyonat qilganligi, jabrlanuvchining turmushga chiqishga yoki uylanishga rozilik bermaganligi yoki jabrlanuvchining nikohsiz birga yashash to‘g‘risidagi taklifni rad etganligi sabab bo‘ladi.

Agar qilmishda **JK 97-moddasi 2-qismi** nazarda tutilgan og‘irlashtiruvchi holatlar bo‘lmasa, kimning aybi bilan boshlanganligidan qat’i nazar urishish yoki mushtlashish vaqtida odam o‘lsa,

aybdorning qilmishi **JK 97-moddasi 1-qismi** bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Urishish yoki mushtlashish vaqtida odam o'ldirilganida qilmishni kuchli ruhiy hayajonlanish holatida yoki zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqqan holda yoxud ehtiyotsizlik oqibatida qasddan odam o'ldirishdagidek javobgarlikni yengillashtiruvchi holat ham mavjud bo'lishi mumkin. Yuqorida aytilgan yengillashtiruvchi holat mavjud bo'lsa, urishish yoki mushtlashish vaqtida odam o'ldirish JK 98-, 100-, 102-moddalarining birortasi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Qilmishni urishish yoki mushtlashish vaqtida odam o'ldirish deb kvalifikatsiya qilish uchun faqat urishish yoki mushtlashish bo'lganligini ta'kidlamasdan, balki jinoyatning sodir etilish motivi va haqiqiy holatlarini aniqlash zarurdir. Urishish yoki mushtlashish sodir etilgan odam o'ldirishning bir jihati bo'lib, u muayyan motiv (bezorilik oqibatida, tamagirlik niyatida, rashk, o'ch olish, hasad va hokazo tufayli) bilan sodir etiladi. Odam o'ldirilganida mushtlashish va urishishning o'zi, muayyan holatni e'tiborga olmaganida, qilmishni **JK 97-moddasi 1-qismi** bilan kvalifikatsiya qilish uchun zaruriy belgi hisoblanmaydi.

JK 97-moddasi 2-qismida jazoni og'irlashtiruvchi holatlarda odam o'ldirganlik uchun javobgarlik belgilangan. Ushbu normada odam o'ldirganlik uchun javobgarlikni og'irlashtiruvchi o'n yettita holat nazarda tutilgan bo'lib, bu ro'yxat o'zgarmasdir, ya'ni **JK 97-moddasi 2-qismida** ko'rsatilgan og'irlashtiruvchi holat bo'lmasa, qilmish ushbu norma bilan kvalifikatsiya qilinmaydi. Ammo **JK 97-moddasi 2-qismida** ko'rsatilgan og'irlashtiruvchi holatlardan birortasi yoki bir vaqtning o'zida bu holatlarning bir nechtasi mavjud ekanligi qilmishni **JK 97-moddasi 2-qismi** bilan kvalifikatsiya qilish uchun asos bo'ladi. Jinoyat ushbu norma bilan kvalifikatsiya qilinganida, og'irlashtiruvchi holatning har biri ko'rsatilishi va u jazo tayinlanganida e'tiborga olinishi lozim.

Jinoyat huquqiga oid adabiyotlarda qasddan javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlarda odam o'ldirganlikni kvalifikatsiya qilish

bo'yicha turli qarashlar mavjud. JK 97-moddasi 2-qismidagi holatlar jinoyat tarkibining elementlariga ko'ra tasniflangan. Ushbu tasnifga binoan birinchi guruhga **jinoyatning obyektiga** taalluqli bo'lgan holatlarni kiritish lozim. Bu guruhga:

- a) ikki yoki undan ortiq shaxsni;
- b) homiladorligi aybdorga ayon bo'lgan ayolni;
- v) ojiz ahvolda ekanligi aybdorga ayon bo'lgan shaxsni;
- g) o'z xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabati bilan shaxsni yoki uning yaqin qarindoshlarini o'ldirganlik kiradi.

Ikkinchi guruhga kiruvchi holatlar odam o'ldirishning **obyektiv tomoniga** taalluqli bo'lib, bu guruhga:

- a) boshqa shaxslarning hayoti uchun xavfli bo'lgan usulda;
- b) ommaviy tartibsizliklar jarayonida;
- v) o'ta shafqatsizlik bilan;
- g) nomusga tegish yoki jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib, g'ayritabiiy usulda qondirish bilan bog'liq holda odam o'ldirish kiradi.

Uchinchi guruhga odam o'ldirishning **subyektiv tomoni** bilan bog'liq holatlar:

- a) tamagirlik niyatida;
- b) milliy yoki irqiy adovat zamirida;
- v) bezorilik oqibatida;
- g) diniy taassublar zamirida;
- d) kishi a'zolarini kesib olib, boshqa kishiga ko'chirish (transplantat) yoki murdaning qismlaridan foydalanish maqsadida;
- e) boshqa bir jinoyatni yashirish yoki uning sodir etilishini osonlashtirish maqsadida odam o'ldirish kiradi.

**Qasddan odam o'ldirishning javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlari
(JK 97-moddasi 2-qismi)**

Ikki yoki undan ortiq shaxsni qasddan o'ldirish (JK 97-moddasi 2-qismi «a» bandi)

Homiladorligi aybdorga ayon bo'lgan ayolni qasddan o'ldirish (JK 97-moddasi 2-qismi «b» bandi)

Ojizligi aybdorga ayon bo'lgan shaxsni qasddan o'ldirish (JK 97-moddasi 2-qismi «v» bandi)

O'z xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabati bilan shaxsni yoki uning yaqin qarindoshlarini qasddan o'ldirish (JK 97-moddasi 2-qismi «g» bandi)

Boshqa shaxslarning hayoti uchun xavfli bo'lgan usulda qasddan odam o'ldirish (JK 97-moddasi 2-qismi «d» bandi)

Ommaviy tartibsizliklar jarayonida odam o'ldirish (JK 97-moddasi 2-qismi «e» bandi)

O'ta shafqatsizlik bilan odam o'ldirish (JK 97-moddasi 2-qismi «j» bandi)

Nomusga tegish yoki jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib g'ayritabiiy usulda qondirish bilan bog'liq holda qasddan odam o'ldirish (JK 97-moddasi 2-qismi «z» bandi)

Tamagirlik niyatida qasddan odam o'ldirish (JK 97-moddasi 2-qismi «i» bandi)

Milliy yoki irqiy adovat zamirida sodir etilgan qasddan odam o'ldirish (JK 97-moddasi 2-qismi «k» bandi)

Bezorilik oqibatida qasddan odam o'ldirish (JK 97-moddasi 2-qismi «l» bandi)

Diniy taassublar zamirida qasddan odam o'ldirish (JK 97-moddasi 2-qismi «m» bandi)

Kishi a'zolarini kesib olib, boshqa kishiga ko'chirish (transplantat) yoki murdaning qismlaridan foydalanish maqsadida qasddan odam o'ldirish (JK 97-moddasi 2-qismi «n» bandi)

Boshqa biror jinoyatni yashirish yoki uning sodir etilishini osonlashtirish maqsadida qasddan odam o'ldirish (JK 97-moddasi 2-qismi «o» bandi)

Bir guruh shaxslar yoki uyushgan guruh a'zosi tomonidan yoxud o'sha guruh manfaatlarini ko'zlab, qasddan odam o'ldirish (JK 97-moddasi 2-qismi «p» bandi)

Takroran yoki xavfli retsivist tomonidan sodir etilgan qasddan odam o'ldirish (JK 97-moddasi 2-qismi «r» bandi)

O'ta xavfli retsivist tomonidan qasddan odam o'ldirish (JK 97-moddasi 2-qismi «s» bandi)

Ikki yoki undan ortiq shaxsni qasddan o'ldirish
(JK 97-moddasi 2-qismi «a» bandi)

To'rtinchi guruhga **jinoyatning subyektiga** taalluqli holatlar jamlangan bo'lib, ular:

- a) bir guruh shaxslar yoki uyushgan guruh a'zosi tomonidan yoxud o'sha guruh manfaatlarini ko'zlagan holda;
- b) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan;
- v) o'ta xavfli retsivist tomonidan qasddan odam o'ldirilishi holatlarini o'z ichiga oladi.

Bir vaqtning o'zida ikki yoki undan ortiq shaxsni hayotidan mahrum qilishning ijtimoiy xavfliligi yuqoridir. Odam o'ldirishning bu turi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, aybdorda ikki yoki undan ortiq shaxsni o'ldirish niyati bo'ladi. Masalan, Semyonov degan shaxsning o'ynashi bo'lib, uning yana boshqa kishi bilan uchrashib turishi haqidagi gap-so'zlar Semyonovning qulog'iga etadi. Kechki payt Semyonov o'ynashinikiga kelganida, ularni to'shakda ko'radi va u har ikki shaxsni o'ldiradi. Uning qilmishi sud tomonidan **JK 97-moddasi 2-qismi «a» bandi** bilan to'g'ri kvalifikatsiya qilinadi.

JK 97-moddasi 2-qismi «a» bandida nazarda tutilgan odam o'ldirishni kvalifikatsiya qilganda jinoyatchining harakatlari yagona qasd bilan qamrab olinganligi va bir vaqtda sodir etilganligiga e'tibor berish lozim. Ikki yoki undan ortiq shaxsni o'ldirishga qasd qilinganligi, ularni hayotdan mahrum etish motivining bir xil ekanligi jinoiy niyatning yagonaligidan dalolat beradi.

NOTA BENE !

Ikki yoki undan ortiq shaxsni o'ldirishga qasd qilinganligi **jinoiy niyatning yagonaligini** ko'rsatuvchi zaruriy belgidir.

Yagona jinoiy niyat bilan qamrab olingan, turli vaqtlarda sodir etilgan odam o'ldirishni ikki yoki undan ortiq shaxsni o'ldirish deb topish uchun to'g'ri qasdning mavjudligini aniqlash lozim.

Bir vaqtning o'zida ikki yoki undan ortiq kishini o'ldirish nafaqat **to'g'ri qasd**, balki **egri qasd** bilan ham sodir etilishi mumkin.

Ikki yoki undan ortiq shaxsning o'limi ro'y berishi jinoyatning tugallangan deb hisoblanishiga asos bo'ladi.

Bir kishini o'ldirganlik va ikkinchi kishining hayotiga suiqasd tugallangan jinoyat (ikki yoki undan ortiq shaxsni o'ldirish) hisoblanmaydi. Aybdorning ikki yoki undan ortiq shaxsni o'ldirishga qaratilgan qasdi uning o'ziga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra amalga oshmay qoldi. Bunday holda, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining yuqorida ta'kidlangan qaroriga ko'ra, jinoyatni JK 25-moddasi orqali 97-moddaning 2-qismi «a» bandi va 97-moddaning tegishli qismi bilan bir kishini o'ldirganlik uchun va ikki yoki undan ortiq shaxsni o'ldirishga suiqasd sifatida kvalifikatsiya qilish kerak¹.

Ammo shuni ta'kidlab o'tish zarurki, sud amaliyotida qo'llaniladigan bunday yo'l JK ning 33-moddasi 2-qismiga zid keladi. Agarda jinoyatlar majmuining natijasi bitta qasd bilan qamrab olingan bo'lsa, javobgarlikka shu jinoyatning eng og'ir jazosi belgilangan moddaning bandiga ko'ra tortiladi, ya'ni yuqoridagi masalada javobgarlik **JK 25-moddasi 2-qismi va 97-moddasi 2-qismi «a» bandi** bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Jinoyat huquqi nazariyasida va sud amaliyotida faktik xato, ya'ni agar aybdor o'z qilmishini og'ir jinoyat deb tasavvur qilgan, ammo haqiqatda uning qilmishi shu jinoyatning uncha og'ir bo'lmagan holati bo'lsa (masalan, seyfni ochayotganda yoki inkassatorning sumkasini o'g'irlyotganda aybdor juda ko'p miqdorda talon-toroj qilmoqdaman deb o'ylasa, lekin haqiqatda u ko'p miqdorda yoki ancha miqdorda talon-toroj qilmoqda) uning qilmishi qasdiga ko'ra kvalifikatsiya qilinadi (yuqorida ko'rsatilgan misolga binoan, juda ko'p miqdorda talon-toroj deb hisoblanadi). Bu qoida hayotga qarshi jinoyatlarga ham tegishlidir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining tavsiyalariga binoan, «Ikki yoki undan ortiq shaxsni qasddan o'ldirish, garchi bu jinoiy harakatlar

¹Ўзбекистон Республикаси Олий суди ... // Тўплам, 2-жилд. 193-б.

bir vaqtning o'zida sodir etilgan bo'lsa-da, lekin aybdorning yagona qasdi bilan qamrab olinmagan bo'lsa, qilmish takroran qasddan odam o'ldirish tariqasida JK 97-moddasi 2-qismining «r» bandi bilan kvalifikatsiya qilinadi»¹.

Agar aybdor bir kishini o'ldirishga qasd qilgan bo'lsa-yu, o'zining ehtiyotsizligi orqasida ikkinchi shaxsni hayotidan mahrum etsa, qilmish jinoyatlar jami bo'yicha, ya'ni qasddan odam o'ldirish (JK 97-moddasi 1- yoki 2-qismi) va ehtiyotsizlik orqasida odam o'ldirish (JK 102-moddasi) bilan kvalifikatsiya qilinadi. Qilmishda ikki yoki undan ortiq shaxsni o'ldirish va JK 97-moddasi 2-qismida ko'zda tutilgan boshqa holatlar ham mavjud bo'lsa, aybdorning qilmishi o'sha bandlarning barchasi bilan kvalifikatsiya qilinadi va bu jazo tayinlashda hisobga olinadi.

Agarda aybdorda birinchi jinoyatni sodir etib bo'lgandan so'ng shu jinoyatni yashirish maqsadida boshqa odamni o'ldirish qasdi kelib chiqsa, bunday o'ldirish ikki yoki undan ortiq odamni o'ldirish deb JK 97-moddasi 2-qismining «a» bandi bilan kvalifikatsiya qilinishi mumkin emas. Bunday hollarda har bir jinoyat alohida kvalifikatsiyani talab qiladi.

Birinchi jinoyat o'ziga xos alomatlarini inobatga olib kvalifikatsiya qilinadi, ikkinchisi esa JK 97-moddasi 2-qismining «o» va «r» bandlari bilan kvalifikatsiya qilinadi, ya'ni boshqa bir jinoyatni yashirish maqsadida o'ldirish (bizning holatimizda birinchi jinoyatni) va takroran sodir etish deb kvalifikatsiya qilinadi.

Agar aybdor tomonidan JK 98–101-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar sodir etilgan bo'lsa, uning qilmishi JK 97-moddasi 2-qismining «a» bandi bilan jinoiy javobgarlikka tortilmaydi.

***Homiladorligi aybdorga ayon bo'lgan ayolni qasddan
o'ldirish (JK 97-moddasi 2-qismi «b» bandi)***

Odam o'ldirish jinoyati mazkur turining yuqori darajada ijtimoiy xavfliligi shundaki, bunda aybdor nafaqat homilador ayolning hayotiga, balki hali tug'ilmagan insonning hayotiga zomin bo'ladi. Odam o'ldirishning mazkur turi subyektiv tomondan to'g'ri qasd bilan sodir

¹Ўзбекистон Республикаси Олий суди ... // Тўплам, 2-жилд. 193-б.

etiladi. Jinoyatni JK 97-moddasi 2-qismi «b» bandi bilan kvalifikatsiya qilish uchun ayolning homiladorligi aybdorga avvaldan ma'lum bo'lganligini aniqlash zarur.

Yuqorida aytilgan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorida: «Qasddan odam o'ldirish jinoyatini JK 97-moddasi ikkinchi qismining «b» bandi bilan kvalifikatsiya qilish uchun aybdor jabrlanuvchining homiladorligini (tashqi belgilar va boshqa faktik ma'lumotlar mavjudligi) bilganligi aniqlangan bo'lishi kerak. Homiladorlik muddati, shuningdek, homilador ayol o'ldirilishi natijasida uning homilasi nobud bo'lgan-bo'lmaganligi qilmishni kvalifikatsiya qilish uchun ahamiyatga ega emas.

Agar aybdor yanglish taxmin asosida, aslida homilador bo'lmagan ayolni homilador deb qasddan o'ldirgan bo'lsa, basharti uning harakatlarida JK 97-moddasining ikkinchi qismida ko'rsatib o'tilgan javobgarlikni og'irlashtiruvchi boshqa holatlar mavjud bo'lmasa, qilmish JK 97-moddasi 1-qismi bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi»,¹ -deyilgan.

NOTA BENE !

Avvaldan ayon bo'lish, aybdor ayolning homiladorligini aniq bilishini taqozo etadi. Bunday ma'lumotlarni aybdor jabrlanuvchining o'zidan, shuningdek, boshqa manbalardan olishi mumkin.

Aybdor homiladorlikning oxirgi oylarida ayolning gavda tuzilishiga qarab, uning homiladorligini to'la aniqlashi mumkin. Homiladorlikning dastlabki oylarida uni bilish murakkab, biroq bu haqida aybdor jabrlanuvchining o'zi, ota-onasi, dugonalari va hokazolardan eshitgan bo'lishi mumkin.

Qilmishni JK 97-moddasi 2-qismi «b» bandi bilan kvalifikatsiya qilishning zaruriy sharti aybdor tomonidan ayolning homiladorligini bila turib o'ldirilganligi hisoblanadi.

Jinoyatni JK 97-moddasi 2-qismi «b» bandi bilan kvalifikatsiya qilishda homiladorlik muddati ahamiyat kasb etmaydi.

¹Ўзбекистон Республикаси Олий суди ... // Тўплам, 2-жилд. 1932-б.

Agar odam o‘ldirish tamagirlik niyatida, bezorilik oqibatida yoki boshqa motivlar bilan sodir etilgan bo‘lsa, aybdor faqat JK 97-moddasi 2-qismi «b» bandi bilan emas, balki ushbu moddaning tegishli bandlari bilan ham javobgarlikka tortilishi kerak.

Ojizligi aybdorga ayon bo‘lgan shaxsni qasddan o‘ldirish (JK 97-moddasi 2-qismi «v» bandi)

Aybdor ojizligi o‘ziga ayon bo‘lgan shaxsni qasddan o‘ldirsa (onaning o‘z chaqalog‘ini qasddan o‘ldirishidan tashqari), uning qil-mishi JK 97-moddasi 2-qismi «v» bandi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Ojizlik deganda, jabrlanuvchining ruhiy yoki jismoniy nochorligi tufayli, aybdor tomonidan o‘zining hayotiga qilinayotgan tajovuzdan himoyalana olmasligi tushuniladi.

Aybdorning harakatlarini JK 97-moddasi 2-qismi «v» bandi bilan kvalifikatsiya qilishda, ojiz ahvol deb, jabrlanuvchining jismoniy yoki ruhiy jihatdan (jismoniy nuqsonlari, ruhiyati buzilganligi, juda yosh yoki keksaligi, qattiq og‘riq yoki behush holatda yoxud uyquda bo‘lganligi, alkohol, giyohvandlik vositasi yoki psixotrop modda ta‘sirida og‘ir darajada mastlik tufayli) o‘zini himoya qilishga, aybdorga faol qarshilik ko‘rsatishga qodir emaslik yoki o‘ziga nisbatan sodir etilayotgan harakatlarning xususiyati va mohiyatini tushuna olmaslik yoxud o‘z harakatlarini boshqara olmaslik holati tushunilishi kerak. Bunda aybdor jabrlanuvchi ojiz ahvolda ekanligini anglagan bo‘lishi shart.

Jabrlanuvchining spirtli ichimlik, giyohvandlik vositasi yoki psixotrop modda ta‘sirida atrofdagi vaziyatni anlay olmaydigan darajada mastligi, uning ojiz ahvolda bo‘lgan deb tan olinishiga asos bo‘lishi mumkin. Bunda jabrlanuvchini kim bu ahvolga solganligi ahamiyatga ega emas¹.

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2004 йил 24 сентябрдаги «Қасддан одам ўлдиришга оид ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 13-сонли қарори, 8-банд. // Тўплам, 2-жилд. – 194-б.

NOTA BENE !

Ojiz ahvol – jabrlanuvchining shunday jismoniy yoki ruhiy holatiki, bunda u aybdorning uning hayotiga qilgan tajovuziga qarshilik ko‘rsata olmaydi yoki unga nisbatan sodir qilinayotgan harakatlarning xususiyati va mazmunini tushunishga yoxud o‘z harakatlarini boshqarishga qodir bo‘lmaydi.

Hayotlariga bo‘lgan tajovuzni bartaraf eta olmasliklarini e‘tiborga olib, yosh bolani, keksa kishini o‘ldirganlik, jabrlanuvchini uxlab yotganida, qattiq mast holatida yoki ruhiy kasal kishini bila turib o‘ldirganlik ham JK 97-moddasi 2-qismi «v» bandi bilan kvalifikatsiya qilinishi zarur.

Odam o‘ldirish jinoyatining mazkur turi subyektiv tomondan to‘g‘ri qasd bilan sodir etiladi.

Jabrlanuvchining ojizligidan foydalanib sodir etilgan odam o‘ldirishni kvalifikatsiya qilishda jinoyatning motiviga e‘tibor bermoq lozim. Shaxsning ojizligini bila turib uni o‘ldirish, ya’ni tamagirlik yoki bezorilik oqibatida, o‘ta shafqatsizlik bilan va hokazo motivlar bilan sodir etilgan bo‘lsa, aybdorning qilmishi bu motivlar ko‘rsatilgan boshqa bandlar bilan ham kvalifikatsiya qilinadi.

Jabrlanuvchining ojiz ahvoldaligi nima bilan bog‘liq bo‘lishidan qat’i nazar u sud tomonidan baholanadi. Masalan, jabrlanuvchining yoshi (yosh bola, keksa shaxs) tufayli ojizligi har bir holatda alohida baholanishi lozim. Bir xil yoshdagi shaxslarning sog‘ligi, jismoniy kuchi, chaqqonligi va boshqa holatlar turlicha bo‘lishi mumkin. Aybdor tomonidan JK ning 98-101-moddalarida nazarda tutilgan odam o‘ldirish jinoyati sodir etilganda, u JK 97-moddasi 2-qismi «v» bandi bilan javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

O‘z xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabati bilan shaxsni yoki uning yaqin qarindoshlarini qasddan o‘ldirish (JK 97-moddasi 2-qismi «g» bandi)

Odam o‘ldirishning bu turida jabrlanuvchining yoki uning yaqin qarindoshlarining o‘ldirilishi uning xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishdek ijtimoiy foydali faoliyati bilan bog‘liq holda ro‘y beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining yuqorida ta’kidlangan qarorida «Jabrlanuvchining xizmat yoki fuqarolik burchini amalga oshirishdagi qonuniy faoliyatiga to‘sqinlik qilish maqsadida, shuningdek, bunday faoliyatning bajarilishi munosabati bilan o‘ch olish niyatida sodir etilgan odam o‘ldirish harakatlari JK 97-moddasi 2-qismi «g» bandi bilan kvalifikatsiya qilinishi kerak»ligi tushuntirilgan.

Jabrlanuvchini xizmat yoki fuqaroviy burchini bajarishi munosabati bilan undan o‘ch olish maqsadida qasddan o‘ldirganlik JK 97-moddasi 2-qismi «g» bandi bilan kvalifikatsiya qilinishi kerak.

Shaxsning xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabati bilan yoki uning qonuniy talabiga to‘sqinlik qilish maqsadida o‘ldirilishining motivi aniqlanmagan hollarda ham jinoyatchi O‘zbekiston Respublikasi JK 97-moddasi 2-qismi «g» bandi bilan javobgarlikka tortiladi.

Yaqin qarindoshlar deganda, jabrlanuvchi bilan qarindoshlik munosabatlarida bo‘lgan shaxslar, ya’ni ota-ona, aka-uka va opa-singillar, er-xotin, farzand, shu jumladan, farzandlikka olinganlar, nevaralar, shuningdek, er-xotinning ota-onasi, aka-uka va opa-singillari tushuniladi¹.

Odam o‘ldirishning ushbu turida mansabdor shaxs, hokimiyat vakili, shuningdek, har qanday shaxs (ishchi, qorovul va hokazo) jabrlanuvchi bo‘lishi mumkin.

¹Яқин қариндошларнинг ўхшаш тавсифи Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг тегишли қарорларида ҳам берилган. Ўзбекистон Республикаси Олий суди ... // Тўплам, 2-жилд. 194-б.

NOTA BENE !

Xizmat vazifasini bajarish deganda, har qanday muassasa, korxon va tashkilotda xizmat bo'yicha yuklatilgan vazifani bajarayotgan har qanday shaxsning faoliyati tushuniladi.

NOTA BENE !

Fuqarolik burchini bajarish deganda, fuqaroning har qanday qonuniy faoliyatini tushunmoq lozim. Bular o'ziga yuklatilgan jamoat ishlari, jamiyat yoki ayrim fuqarolarning manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan, ya'ni huquqbuzarlikning oldini olish, jinoyat to'g'risida xabar berish, guvohlik berish va hokazo harakatlar bo'lishi mumkin.

Subyektiv tomondan bu jinoyat faqat to'g'ri qasd bilan sodir qilinishi mumkin. Aybdorning o'ziga shaxsning o'limiga sababchi bo'layotganliginigina emas, balki u shaxsni o'z xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabati bilan o'ldirayotganligini anglab yetganligini aniqlash lozim. Agar u buni anglab yetmagan bo'lsa JK 97-moddasi 2-qismi «g» bandi bilan javobgarlik vujudga kelmaydi.

Mazkur odam o'ldirish jinoyatini sodir etishning motivi jabrlanuvchining o'z xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi bilan bog'liq o'ch olishdir. Ko'rib chiqilayotgan kvalifikatsiyalovchi belgi faqatgina o'ch olish bilan bog'liq bo'lmasdan, jabrlanuvchining ayblanuvchi bilan maqbul bo'lmagan o'z xizmat yoki fuqarolik burchini bajarish bilan bog'liq qonuniy faoliyatini bajarishiga to'sqinlik qilish maqsadida uni o'ldirishda ham mavjud bo'ladi.

Qonuniy harakat qilgan shaxsni o'ldirganlik JK 97-moddasi 2-qismi «g» bandi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim. Jabrlanuvchi qonunga xilof harakati, ya'ni xizmat vazifasini suiiste'mol qilishi, aybdor shaxsga nisbatan hokimiyat vakolati doirasidan chetga chiqishi natijasida o'ldirilgan bo'lsa, u holda aybdor shaxsni JK 97-moddasi 2-qismi «g» bandi bilan javobgarlikka tortib bo'lmaydi. Odam o'ldirganlikni JK 97-moddasi 2-qismi «g» bandi bilan kvalifikatsiya qilish uchun jinoyatning jabrlanuvchi xizmat vazifasini bajarayotgan yoki boshqa vaqtda sodir

etilganligining ahamiyati yo‘q. Bunda odam o‘ldirish aynan jabrlanuvchining xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabati bilan sodir etilganligini aniqlash zarurdir.

Shaxsni yoki uning yaqin qarindoshlarini o‘ldirganlik uchun javobgarlik jabrlanuvchi tomonidan o‘zining xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishga qaratilgan u yoki bu harakatlar qachon bajarilganidan qat’i nazar, vujudga keladi va odam o‘ldirish o‘z xizmat burchini bajarganligi uchun jabrlanuvchidan o‘ch olish maqsadida sodir etilganligini aniqlash muhimdir.

Aybdor obyektidan adashganda, ya’ni jabrlanuvchining shaxsiga nisbatan adashib, hayoti va faoliyati xizmat yoki fuqarolik burchini bajarish bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa shaxsni o‘ldirganida uning harakati JK 25-moddasi tegishli qismi orqali 97-moddasi 2-qismi «g» bandi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim¹.

JK 97-moddasi 2-qismi «g» bandida nazarda tutilgan jinoyatni davlat yoki jamoat arbobi yoxud hokimiyat vakilining davlat yoki jamoatchilik faoliyati munosabati bilan uning hayotiga suiqasd qilish (JK 155-moddasi 2-qismi), shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hayotiga tajovuz qilish (JK 158-moddasi 1-qismi) jinoyatlaridan farqlash lozim. Ko‘rsatilgan jinoyatlarda jabrlanuvchilar doirasi bir-biridan farq qiladi. Bu jinoyatlar obyektiv tomoni bilan ham farqlanadi. Buning ustiga JK 155-moddasi terrorizmga xos bo‘lgan va aybdor shaxsni yoki uning yaqin qarindoshlarini o‘z xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabati bilan o‘ldirishni ko‘zlagan maqsadlardan juda ham farq qiladigan maxsus maqsadlarga erishishni ko‘zlaydi. Maxsus va umumiy moddalar raqobati vujudga kelganda kvalifikatsiyalash qoidalariga muvofiq maxsus normalar qo‘llaniladi. JK 155-moddasi 2-qismi (Terrorizm) va JK 158-moddasi 1-qismidagi (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hayotiga tajovuz qilish) normalar shunday maxsus normalar jumlasiga kiradi.

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2004 йил 24 сентябрдаги «Қасддан одам ўлдиришга оид ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 13-сонли қарори, 9-банд, 4-хатбоши // Тўплам, 2-жилд. – 195-б.

Boshqa shaxslarning hayoti uchun xavfli bo'lgan usulda qasddan odam o'ldirish (JK 97-moddasi 2-qismi «d» bandi)

Odam o'ldirishning ushbu turida qilmishning obyektiv tomoni shundan iboratki, aybdorning qasdi bir kishini hayotidan mahrum etishga qaratilgan bo'ladi, ammo aybdor qilmishni sodir etayotganida boshqa shaxslarning hayoti uchun xavf tug'iladi. Jinoyatni boshqa shaxslarning hayoti uchun xavfli bo'lgan usulda qasddan odam o'ldirish deb kvalifikatsiya qilish uchun aybdorning shaxsni hayotdan mahrum qilish uchun qo'llayotgan usuli boshqa shaxslarning hayotiga xavf tug'dirishini anglaganini aniqlash lozim. Ko'pincha ushbu turda odam o'ldirish usuli jinoyat qurolining xususiyati bilan aniqlanadi.

Odam o'ldirishni JK 97-moddasi 2-qismi «d» bandi bilan kvalifikatsiya qilish uchun jinoyatni sodir etish usulini aniqlash zarur. Bunday usulga: ko'pchilikka, turar joyda, transportda yoki odamlar to'planib turgan joyda tartibsiz ravishda o'q o'zish, portlatish, odamlar bor bo'lgan uyni yoqib yuborish natijasida odam o'ldirish, quduqdagi suvni zaharlash va hokazolar kiradi. Ammo odam o'ldirish usulining xavfliligi mavhum emas, balki sodir etilgan jinoyatning aniq holatidan kelib chiqqan holda aniq baholanmog'i lozim. Masalan, hech kim bo'lmagan joyda shaxsni portlatish yoki transport vositasi bilan bosib ketish natijasida hayotidan mahrum qilganlik JK 97-moddasi 2-qismi «d» bandi bilan kvalifikatsiya qilinmaydi, chunki bu holatlarda aybdorning xatti-harakati boshqa shaxslarning hayoti uchun real xavf tug'dirmaydi.

Haqiqatdan ham, boshqa shaxslarning hayoti uchun xavf mavjud bo'lganida va shu sharoitda boshqalarni hayotidan mahrum qilish mumkinligi ko'rinib turganidagina JK 97-moddasi 2-qismi «d» bandi bo'yicha javobgarlik vujudga keladi.

NOTA BENE !

Qasddan odam o'ldirishni boshqa shaxslarning hayoti uchun xavfli bo'lgan usulda sodir etilgan deb topish uchun aybdorning o'zi tanlagan usul nafaqat bir kishining, balki boshqalarning hayoti uchun ham xavfli ekanligini anglaganligini aniqlash zarur bo'ladi.

Mazkur jinoyat turi yaqqol bir kishining o'limi yuz bergan vaqtdan tugallangan jinoyat deb e'tirof etiladi. Bu jinoyatning subyektiv tomoni to'g'ri qasdda, shuningdek, egri qasdda ham ifodalanadi.

Ko'p shaxslarning hayoti uchun xavfli usulda odam o'ldirish vaqtida boshqa shaxslarga jarohat yetkazilgan bo'lsa, qilmish jinoyatlarning jami bo'yicha JKning badanga shikast yetkazganlik uchun javobgarlik belgilangan moddalari bilan ham kvalifikatsiya qilinadi. Agar jinoyat natijasida boshqa shaxslar ham o'lgan bo'lsa, aybdor ehtiyotsizlik orqasida odam o'ldirganlik uchun javobgarlik belgilangan moddalarning jami bo'yicha javobgar bo'ladi.

***Ommaviy tartibsizliklar jarayonida odam o'ldirish
(JK 97-moddasi 2-qismi «e» bandi)***

Odam o'ldirish mazkur turining ijtimoiy xavfliligi shundaki, aybdor ommaviy tartibsizliklar vaqtidagi tartibsizlik, g'ala-g'ovurdan foydalanib jinoyatni sodir etadi. Ommaviy tartibsizlik vaqtida odam o'ldirishni sodir etayotgan jinoyatchi hayosizlarcha, surbetlarcha harakat qiladi va o'z qilmishlari tartibsizlik qilayotgan to'da tomonidan sodir etilgan deb hisoblanadi, deb o'ylaydi. Mazkur holatda jinoyat obyektiv tomonining shart bo'lgan belgilaridan biri jinoyat sodir qilish sharoiti, ya'ni ommaviy tartibsizliklar jarayonidir.

NOTA BENE !

Ommaviy tartibsizliklar – bu ko'p sonli odamlar – bebosh to'daning o'rnatilgan jamoat tartibini buzish va jamoat joylarida xavfsizlikka tajovuz qilish hamda qirg'in solish, o't qo'yish, vayron qilish, mol-mulknini nobud qilish, shaxsga nisbatan zo'rlik ishlatish va boshqa huquqqa xilof harakatlaridir.

Mazkur jinoyatning subyektiv tomoni bir vaqtning o'zida ommaviy tartibsizliklarning ham tashkilotchisi yoki faol ishtirokchisi bo'lsa, uning qilmishlari jinoyatlarning jami – JK 244-moddasi va JK 97-moddasi 2-qismi «e» bandi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim. Odam o'ldirish

aynan ommaviy tartibsizliklar bo‘layotgan vaqtda sodir etilganidagina aybdorning qilmishi ushbu band bilan kvalifikatsiya qilinadi.

O‘ta shafqatsizlik bilan odam o‘ldirish
(JK 97-moddasi 2-qismi «j» bandi)

O‘ta shafqatsizlik shaxsning rahmsizligi, axloqsizligidan dalolat beradi.

JK 97-moddasi 2-qismi «j» bandida oddiy shafqatsizlik emas, balki o‘ta shafqatsizlik haqida gap boradi. Odam o‘ldirish hamma vaqt ham shafqatsizlikdir. o‘ta shafqatsizlik nimalarda namoyon bo‘ladi? U, eng avvalo, jinoyatni sodir etish usulida namoyon bo‘ladi.

NOTA BENE !

O‘ta shafqatsizlik bilan odam o‘ldirish deganda, jabrlanuvchini o‘ta azob berish usuli bilan hayotdan mahrum qilish yoki aybdor tomonidan o‘ta shafqatsizlik qilinganligidan dalolat beradigan o‘zga holatlarda odam o‘ldirish tushuniladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorida ko‘rsatilganidek, qasddan odam o‘ldirish jinoyatini JK 97-moddasi ikkinchi qismining «j» bandi bilan kvalifikatsiya qilishda aybdorning qasdi o‘ta shafqatsizlik bilan odam o‘ldirishga qaratilgan bo‘lganligini aniqlash shart. Bu o‘rinda, shuni nazarda tutish kerakki, qonun o‘ta shafqatsizlik tushunchasini odam o‘ldirish usuli bilangina emas, balki aybdor tomonidan o‘ta shafqatsizlik namoyon etilganligidan dalolat beruvchi boshqa holatlar bilan ham bog‘laydi.

O‘ta shafqatsizlik bilan odam o‘ldirish usullariga, jumladan, hayotdan mahrum etishdan oldin yoki qotillik sodir etish jarayonida jabrlanuvchini qiynoqqa solish yoki unga qattiq azob yetkazish bilan bog‘liq (kuchli og‘riq beruvchi zahardan foydalanish, tiriklayin yoqib yuborish, uzoq muddat ovqat, suv bermaslik) hollarni ham kiritish mumkin. Badanga ko‘plab shikast yetkazish orqali odam o‘ldirish, faqat aybdor buni jabrlanuvchiga qattiq azob-uqubat yetkazishga qaratilgan

to'g'ri qasd bilan sodir etgan bo'lsa, o'ta shafqatsizlik ko'rinishi deb baholanishi mumkin.

Jabrlanuvchining yaqin kishilari ko'z o'ngida odam o'ldirish, agar aybdor o'z harakatlari bilan ularga kuchli iztirob berayotganligini anglagan bo'lsa, aybdor tomonidan o'ta shafqatsizlik namoyon etilganligidan dalolat beruvchi holat sifatida baholanmog'i lozim.

Jabrlanuvchining yaqin kishilari qatoriga, uning yaqin qarindoshlaridan tashqari, jabrlanuvchi bilan alohida shaxsiy do'stona munosabatda bo'lgan shaxslar ham kirishi mumkin¹.

Marhumning jasadida bir necha jarohatlar borligining o'zi uni shafqatsizlarcha azoblab o'ldirilgan deb topish uchun asos bo'la olmaydi, bunday holda jarohatlarning aybdor tomonidan qasddan o'ldirish vaqtida yoki jabrlanuvchiga o'lishidan avval azoblash, qiynash maqsadida yetkazilganligini aniqlash zarur.

Bolalarni ota-onasi yoki yaqin qarindoshlari oldida o'ldirish ham o'ta shafqatsizlik bilan odam o'ldirish deb hisoblanadi. Uxlab yotgan kishini o'ldirganlik uchun aybdor ushbu band bilan javobgarlikka tortilmaydi, chunki jabrlanuvchi o'zining o'ldirilayotganligini anglamaydi. Shafqatsizlik tibbiy emas, balki ijtimoiy tushunchadir, shu sababdan qilmishning o'ta shafqatsizlik bilan sodir etilganligi to'g'risida ekspert xulosasiga ehtiyoj yo'q.

Agar aybdor, jabrlanuvchi tomonidan g'ayriqonuniy zo'rlik yoki og'ir haqorat, shuningdek, uning boshqa g'ayriqonuniy harakatlari tufayli yuz bergan kuchli ruhiy hayajonlanish holatida yoki zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib jabrlanuvchiga ko'plab tan jarohatlari bergan bo'lsa, aybdorning qilmishi JK 97-moddasi 2-qismi «j» bandi bilan kvalifikatsiya qilinmaydi, javobgarlik JKning 98- yoki 100-moddalari bilan kelib chiqishi kerak.

Mazkur jinoyat o'lim yuz berishi bilan tugallangan hisoblanadi. Shuning uchun o'lim yuz berganidan so'ng, aybdorning har qanday qilmishi o'ta shafqatsizlik bilan odam o'ldirish holati hisoblanmaydi

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2004 йил 24 сентябрдаги «Қасддан одам ўлдиришга оид ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 13-сонли қарори, 12-банд, 2–4-хатбошилари // Тўплам, 2-жилд. – 195–196-б.

(masalan, murdani bo‘laklarga bo‘lish, jinoyatni yashirish maqsadida uni yo‘q qilib yuborish). Qilmish bunday hollarda jinoyatlar majmui tarzida JK 97-moddasining tegishli qismi va JK 134-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinishi kerak.

Subyektiv tomondan mazkur jinoyat aksariyat hollarda to‘g‘ri qasd bilan, kamdan-kam hollarda egri qasd bilan sodir etiladi. Odam o‘ldirish jinoyati o‘ta shafqatsizlik bilan sodir etilgan deb topish uchun aybdorda o‘ta shafqatsizlik bilan odam o‘ldirish qasdining mavjudligini aniqlash muhimdir.

O‘ta shafqatsizlik bilan qasddan odam o‘ldirishda ishtirokchilar o‘rtasida oldindan til biriktirish mavjud bo‘lmasa, faqat bajaruvchining harakati JK 97-moddasi 2- qismi «j» bandi bilan kvalifikatsiya qilinadi, boshqa ishtirokchilarning harakatlari esa JKning 97-moddasi tegishli qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi¹.

Aybdor JKning 98-101-moddalarida nazarda tutilgan qasddan odam o‘ldirishni sodir etgan bo‘lsa, uning harakatlari JK 97-moddasi 2 qismi «j» bandi bilan kvalifikatsiya qilinmaydi.

***Nomusga tegish yoki jinsiy ehtiyojni zo‘rluk ishlatib
g‘ayritabiiy usulda qondirish bilan bog‘liq
holda qasddan odam o‘ldirish
(JK 97-moddasi 2-qismi «z» bandi)***

Nomusga tegish yoki jinsiy ehtiyojni zo‘rluk ishlatib g‘ayritabiiy usulda qondirish bilan bog‘liq holda qasddan odam o‘ldirish deganda, jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlar sodir etish jarayonida jabrlanuvchini hayotdan mahrum etish tushunilmog‘i lozim.

Bunda ikkita mustaqil jinoyat sodir etilishini inobatga olib, qilmish JK 97-moddasi ikkinchi qismining «3» bandi hamda ishning muayyan holatlariga qarab, Jinoyat kodeksi 118- yoki 119-moddasining tegishli qismlari bilan kvalifikatsiya qilinishi kerak.

Nomusga tegish yoki jinsiy ehtiyojni zo‘rluk ishlatib g‘ayritabiiy usulda qondirish jinoyati sodir etilgandan keyin ushbu jinoyatni

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2004 йил 24 сентябрдаги «Қасддан одам ўлдиришга оид ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 13-сонли қарори, 12-банд, 6-хатбоши // Тўплам, 2-жилд. – 196-б.

yashirish maqsadida jabrlanuvchini qasddan o'ldirish JK 118- yoki 119- moddasida hamda 97-moddasi 2-qismining «o» bandida nazarda tutilgan jinoyatlar majmui bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi¹.

Aybdor qasddan odam o'ldirish bilan bir qatorda nomusga tegishni sodir etgan (JK 118-moddasi) yoki jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirgan (JK 119-moddasi) hollarda jinoyat JK 97-moddasi 2-qismining «z» bandi bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi zarur. Nomusga tegish yoki jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish bilan bog'liq holda qasddan odam o'ldirish – nomusga tegish yoki jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish jarayonida yosh bolalarning a'zolari va to'qimalari ezilib-uzilib ketishi sababli asfiksiya natijasida o'lishi yoki shu jinoyatlarni yashirish maqsadida azoblash (zaharlash) va boshqa shu kabilar natijasida sodir etiladigan o'ldirish yoxud ayolning jinsiy erkinligi yoki jinsiy daxlsizligiga tajovuz qilish paytida qarshilik ko'rsatganlik uchun o'ch olish vajidan o'ldirishdir.

Nekrofiliya (murdalarga hirs qo'yish) maqsadida odam shafqatsiz ravishda o'ldirilishi ham mumkin.

NOTA BENE !

Nekrofiliya – murdalar bilan jinsiy aloqa qilish ko'rinishidagi shahvoniy telbalik, jinsiy buzuqlikdir.

Bunday hollarda jinoiy qilmish jinoyatlar jami bo'yicha o'ldirish va nomusga tegish yoxud jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish deb kvalifikatsiya qilinadi.

Agar odam o'ldirish nomusga tegishdan keyin uzoq vaqt o'tgach sodir etilsa, u JK 97-moddasi 2-qismining «z» bandi bilan kvalifikatsiya qilinishi mumkin emas. Bir guruh shaxslar tomonidan nomusiga tegilgan jabrlanuvchi jinoyat ishtirokchilaridan biri tomonidan, biroq qolgan ishtirokchilarning roziligi bilan o'ldirilgan bo'lsa, nomusga tegish yoki jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish bilan bog'liq holda odam o'ldirganlik uchun barcha ishtirokchilar javobgar bo'lishlari kerak.

¹Ўзбекистон Республикаси Олий суди ... // Тўплам, 2-жилд. 197-б.

Tamagirlik niyatida qasddan odam o'ldirish
(JK 97-moddasi 2-qismi «i» bandi)

Tamagirlik niyatida qasddan odam o'ldirish deganda (O'zbekiston Respublikasi JK 97-moddasi 2-qismining «i» bandi), har xil moddiy naf (pul, mol-mulk, mulkiy huquqlar, uy-joy maydoniga bo'lgan huquq va hokazo) olishga qaratilgan niyatda yoki moddiy sarf-xarajatlardan, qarzni, alimentni to'lashdan qutulish istagida yoxud boshqa tamagirlik niyatida sodir etilgan o'ldirish, masalan, jabrlanuvchining ancha ko'p haq to'lanadigan lavozimini egallash uchun haq evaziga odam o'ldirish va hokazolar tushuniladi.

NOTA BENE !

Jabrlanuvchi kim bo'lishidan qat'i nazar, ya'ni mol-mulkning (boshqa boyliklarning) egasi yoki o'zida mol-mulk turgan shaxs yoki mol-mulk saqlash uchun berib qo'yilgan shaxsmi, odam o'ldirish tamagirlik niyatida sodir etilgan deb topiladi.

O'limidan keyin biron-bir mulkiy tUSDagi huquqlarini aybdor o'z qo'lga kiritish maqsadida o'ldirilgan shaxs ham jabrlanuvchi bo'lishi mumkin.

NOTA BENE !

O'zi yoki boshqa shaxslarning manfaatini ko'zlab moddiy naf ko'rish yoki shaxs biron-bir moddiy sarf-xarajatlari qilishdan qutulish maqsadida sodir etilganligidan qat'i nazar, odam o'ldirish **tamagirlik** niyatida sodir etilgan deb hisoblanadi.

Agar odam o'ldirish, birinchidan, hujum qilib, ikkinchidan, mol-mulkni egallash maqsadida, uchinchidan, mol-mulkni egallash o'ldirishni sodir etish paytida yoki bevosita keyin sodir etilgan bo'lsa, bunda tamagirlik niyatidagi o'ldirish va bosqinchilik jinoyatlarining jami mavjud bo'ladi (O'zbekiston Respublikasi JK 97-moddasi 2-qismining «i» bandi va JK 164-moddasi). O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi

Plenumining qarorida: «Bosqinchilik, tovlamachilik bilan bog‘liq holda qasddan odam o‘ldirish harakatlari JK 97-moddasi 2-qismining «i» bandi hamda Jinoyat kodeksining bosqinchilik va tovlamachilik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi moddalari bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Agar aybdorda moddiy naf ko‘rishga nisbatan qasd qotillik sodir etilganidan keyin paydo bo‘lgan bo‘lsa, qilmish JK 97-moddasining tegishli qismi bilan hamda Jinoyat kodeksining o‘zganing mulkini talon-toroj qilish uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi moddalari bo‘yicha kvalifikatsiya qilinmog‘i lozim»¹, deb aytilgan.

Chunonchi, masalan, I.Toshmatov Komilov bilan dahanaki janjal chiqardi, keyin bu mushtlashuvga aylandi. Toshmatov Komilovni yiqitib, o‘lib qolguncha urdi. Komilov yiqilayotganida uning hamyoni yerga tushadi, unda talaygina pul bor edi. Odam o‘ldirishni sodir etganidan keyin I.Toshmatov hamyonni ko‘rib qoladi va uni o‘ziniki qilib oladi. Dastlab, I.Toshmatovning harakatlari tamagirlik niyatidagi odam o‘ldirish va bosqinchilik hujumi sifatida noto‘g‘ri kvalifikatsiya qilingan edi. Keyinchalik, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi uning harakatini mushtlashish jarayonida sodir etilgan odam o‘ldirish (JK 97-moddasi 1-qismi) va o‘g‘irlik sodir etish (JK 169-moddasi) deb, qaytadan to‘g‘ri kvalifikatsiya qildi. Negaki, Komilovning o‘limiga qadar Toshmatovda uning pullarini egallab olish niyati bo‘lmagan, pullarni egallab olish niyati jabrlanuvchining o‘limidan so‘ng paydo bo‘lgan.

Tamagirlik niyatida qasddan odam o‘ldirish aybdor egallab olishni xohlagan moddiy qimmatliklar yoki boshqa boyliklarni olgani yoki olmaganidan qat’i nazar o‘lim yuz bergan paytdan e’tiboran tamom bo‘lgan jinoyat deb topiladi.

Agar qasddan odam o‘ldirish mulkiy xarakterdagi janjal oqibatida kelib chiqqan bo‘lsa, aybdorning qilmishini tamagirlik niyatida qasddan odam o‘ldirish deb baholab bo‘lmaydi. Bunday holatda, jinoyatning motivi o‘zaro kelishmovchilik yoki qasd bo‘lishi mumkin. Shuningdek, qasddan odam o‘ldirish shaxsiy mulkni himoya qilish oqibatida sodir

¹Ўзбекистон Республикаси Олий суди ... // Тўплам, 2-жилд. 197-б.

etilgan bo'lsa, qilmishni JK 97-moddasi 2 qismi «i» bandi bilan kvalifikatsiya qilib bo'lmaydi.

Tamagirlik niyatida qasddan odam o'ldirish **to'g'ri** yoki **egri** qasd bilan sodir etilishi mumkin. Masalan, qarzdor pul egasiga qarzdan voz kechishi uchun azob berayotganda, qilmishining ijtimoiy xavfliligini biladi, shaxsning o'lishi mumkinligini ko'ra biladi, o'limning yuz berishini xohlamasa ham, lekin bunga ongli ravishda yo'l qo'yib beradi.

Moddiy rag'batlantirish evaziga qasddan odam o'ldirish (yo'llanma qotillik) ham tamagirlik niyatida qasddan odam o'ldirish hisoblanadi. Ushbu holatda tamagirlik niyatida qasddan odam o'ldirish ishtirokchilarining javobgarlik chegaralari o'ziga xosdir. Qotillik uchun haq va'da qilgan tashkilotchi (buyurtmachi)ning harakatlari u qaysi sabablarga ko'ra shunday qilganligidan kelib chiqib, Jinoyat kodeksi 28-va 97-moddalarning tegishli qismi bilan kvalifikatsiya qilinmog'i kerak¹.

Moddiy bo'lmagan rag'batlantirish evaziga (qotilni yoki uning yaqin qarindoshini ishga va o'qishga joylashtirishga va'da berish, shahvoniy xizmat ko'rsatish, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish va h.k.) qasddan odam o'ldirish JK 97-moddasi 2-qismi «i» bandi bilan kvalifikatsiya qilinmaydi. Boshqa og'irlashtiruvchi holatlar mavjud bo'lmasa, qilmishni JK 97-moddasi 1-qismi bilan kvalifikatsiya qilish mumkin.

Ko'p hollarda tamagirlik niyatida qasddan odam o'ldirish bosqinchilik jinoyatini amalga oshirish vaqtida sodir etiladi. Shuning uchun e'tiborga olish kerakki, agar qotillik:

- birinchidan, hamla (hujum) qilish yo'li bilan;
- ikkinchidan, o'zganing mulkiga ega bo'lish maqsadida sodir etilgan bo'lsa;
- uchinchidan, mulkka egalik qilish qotillik paytida yoki bevosita qotillikdan so'ng amalga oshirilgan bo'lsa (xullas, qasddan odam o'ldirish o'zganing mulkiga g'ayriqonuniy egalik qilish maqsadida sodir etilgan bo'lsa va to'g'ridan-to'g'ri sababiy bog'lanish mavjud bo'lsa), qilmish jinoyatlar majmui – qasddan odam o'ldirish va bosqinchilik

¹Ўзбекистон Республикаси Олий суди ... // Тўплам, 2-жилд. 197-б.

jinoyatlari bilan kvalifikatsiyalanishi kerak (JK 97-moddasi 2- qismi «i» bandi va 164-moddasi bilan).

Tamagirlik niyatida qasddan odam o'ldirish tovlamachilik (JK 165-moddasi) bilan jinoyatlar majmui ko'rinishida bo'lishi mumkin¹.

***Milliy yoki irqiy adovat zamirida
sodir etilgan qasddan odam o'ldirish
(JK 97-moddasi 2-qismi «k» bandi)***

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasida ko'rsatilganidek: «O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar»². Ushbu konstitutsion prinsipning buzilishi og'ir oqibatlariga olib keladi, xalqlar o'rtasidagi nafrat va dushmanlik, insonlarning ommaviy qurbon bo'lishiga olib keladi, mamlakat ichidagi ijtimoiy hayot og'irlashadi va boshqa davlatlar bilan munosabatlar qiyinlashadi, qurolli nizolar yuz beradi va oqibatda minglab odam qurbon bo'ladi. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida milliy, irqiy va diniy nafrat va dushmanlikni qo'zg'atganlik uchun javobgarlikni belgilovchi normalar mavjud. Xususan, JK 97-moddasi 2-qismi «k» va

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2004 йил 24 сентябрдаги «Қасддан одам ўлдиришга оид ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 13-сонли қарори, 14-банд, 4-хатбоши // Тўплам, 2-жилд. – 197-б.

²Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси: Ўн иккинчи чақириқ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ўн биринчи сессиясида 1992 йил 8 декабрда қабул қилинган. (2002 йил 27 январда ўтказилган умумхалқ референдуми натижаларига кўра ҳамда унинг асосида Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 24 апрелда қабул қилинган Қонунига мувофиқ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси XVIII, XIX, XX, XXIII бобларига ўзгартиришлар ва қўшимчалар қиритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2007 йил 11 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 89-моддасига, 93-моддасининг 15-бандига, 102-моддасининг иккинчи қисмига тузатишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2008 йил 25 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 77-моддасининг биринчи қисмига ўзгартириш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2011 йил 12 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 90-моддасининг иккинчи қисмига тузатиш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 16 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 32, 78, 93, 98, 103 ва 117 моддаларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 6 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 4-бандига, 81-моддасининг еттинчи қисмига, 83-моддасига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13 ва 14- бандларига, 107-моддасининг биринчи қисмига, 110-моддасининг биринчи ва учинчи қисмларига, 111-моддасига ўзгартишлар ва қўшимча киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 31 майда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 5 ва 12-бандларига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13-бандига ҳамда 108, 109-моддаларига ўзгартишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 29 августда қабул қилинган қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 99 ва 10-моддаларига ўзгартишлар киритилган.) – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. - 11 б.

«m» bandlari yuqorida ko‘rsatilgan sabablarga ko‘ra qasddan odam o‘ldirilgan bo‘lsa, og‘irlashtiruvchi holatni nazarda tutadi.

JK 97-moddasi 2-qismi «k» bandida nazarda tutilgan jinoyatning **obyektiv tomoni** boshqa millatdagi yoki irqdagi shaxsni hayotidan mahrum qilishdan iborat. Jinoyatning joyi va vaqti kvalifikatsiya qilishda ahamiyatga ega emas.

Mazkur jinoyat to‘g‘ri va egri qasd bilan sodir etilishi mumkin. Masalan, aybdor jabrlanuvchini shafqatsizlarcha uradi va uning o‘limiga ongli ravishda yo‘l qo‘yib beradi.

Subyektiv tomonning muhim belgilaridan biri – bu jinoyatning **motividir**. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi ta’kidlaganidek, «Milliy yoki irqiy adovat zamirida, ya’ni boshqa millatga, irqqa mansub shaxsga, uning turmush tarziga, madaniyatiga, urf-odatlariga, oila tutumiga nisbatan g‘ayrlik yoki nifoq solish maqsadida qasddan sodir etilgan odam o‘ldirish jinoyati JK 97-moddasi ikkinchi qismining «k» bandi bilan kvalifikatsiya qilinishi kerak»¹.

Yuqorida ko‘rsatilgan motivlarning mavjud emasligi JK 97-moddasi 2-qismining «k» bandi bilan kvalifikatsiya qilishni inkor etadi. Ma’lum bir millat, irq vakillariga boshqa motiv sababli (shaxsiy munosabatdan kelib chiqqan qasos, rashk, tamagirlik va h.k.) tajovuz qilinsa, JK 97-moddasining tegishli qismi bilan kvalifikatsiya qilinishi kerak.

Jabrlanuvchining u yoki bu millatga, irqqa mansubligi bilan bog‘liq holda, u yoki bu irq vakillarining hayot tarzi, turmushi, oila qurish tarzi, madaniyati, urf-odatlarini xush ko‘rmaslik yoki ulardan nafratlanish tufayli qotillik sodir etilgan hollarda odam o‘ldirish JK 97-moddasi 2-qismi «k» bandi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Boshqa vajlar (tamagirlik, rashk, o‘ch olish va boshqa shu kabilar)ga ko‘ra, u yoki bu millat, irq vakilining hayotiga tajovuz qilish O‘zbekiston Respublikasi JK 97-moddasi 2-qismining «k» bandi bo‘yicha javobgarlikni keltirib chiqarmaydi.

Shuni nazarda tutish kerakki, odam o‘ldirishda millatchilik, irqchilik sabablarining mavjud bo‘lishi ayni paytda subyektda boshqa: tamagirlik,

¹Ўзбекистон Республикаси Олий суди ... // Тўплам, 2-жилд. 197-б.

bezorilik niyatlarining mavjud bo'lganligini istisno etmaydi. Bunday hollarda aybdorning qilmishini O'zbekiston Respublikasi JK 97-moddasi 2-qismining «k» bandi va 97-moddaning tegishli bandi bilan kvalifikatsiya qilish lozim.

***Bezorilik oqibatida qasddan odam o'ldirish
(JK 97-moddasi 2-qismi «l» bandi)***

O'zbekiston Respublikasi JK 97-moddasi 2-qismi «l» bandi bilan «...aybdorning fe'l-atvorida jamoat tartibiga qarshi qo'yish, bepisandlik namoyish etish istagi mavjud bo'ladi. Bu holda aybdorning harakatlarini JKning 277-moddasi bo'yicha qo'shimcha kvalifikatsiya qilish talab etilmaydi»¹.

JK 97-moddasi 2-qismi «l» bandida javobgarlik nazarda tutilgan qilmishni sodir etganlik uchun javobgar deb topishda jinoyat sodir etilgan joy (masalan, jamoat joyi)ning ahamiyati yo'q. Jinoyatni kvalifikatsiya qilishda bezorilik o'ldirishga qasd qilishni keltirib chiqargan asosiy va bevosita sabab bo'lganini aniqlash muhimdir.

Qilmishni O'zbekiston Respublikasi JK 97-moddasi 2-qismi «l» bandi bilan kvalifikatsiya qilishning zarur sharti odamning bezorilik oqibatida o'ldirilganligidir. Bezorilik oqibatida odam o'ldirgan aybdor boshqa kishini o'ldirishdan yoxud jamoat tartibini odam o'lishi mumkin bo'lgan tarzda qo'pol ravishda buzish va jamiyatga nisbatan hurmatsizlik qilishdan rohatlanadi.

Shaxsning qasddan janjal paytida, sovuq munosabatlar tufayli, mushtlashish chog'ida o'ldirganligini ham, hatto bunda jamoat tartibi buzilgan bo'lsa ham, bezorilik oqibatidagi odam o'ldirish deb hisoblash mumkin emas.

Bezorilik oqibatida odam o'ldirilganida boshqa motivlar: rashk, o'ch olish, nafrat, hasad singarilar ham bo'lishi mumkin. Bunday hollarda ana shu motivlarni farqlash va ulardan qaysi biri jinoyatni sodir etishda ustunlik qilganligini, qaysi motiv ustun bo'lganligini aniqlash muhimdir. Yuqoridagilarga asoslanib aybdorning qaysi band bilan javobgarlikka tortilishi masalasi hal qilinadi.

¹Ўша жойда.

«Bezorilik oqibatida qasddan odam o'ldirish jinoyatini o'zaro janjal yoki urushish oqibatida sodir etilgan qotillikdan (JK 97-moddasi 1-qismi) farqlash uchun urush-janjal tashabbuskori kim ekanligi, nizo odam o'ldirishga bahona sifatida foydalanish maqsadida aybdor tomonidan ataylab uyushtirilgan-uyushtirilmaganligini aniqlash lozim. Agar urush-janjal jabrlanuvchi tomonidan boshlangan bo'lsa yoki nizoga uning g'ayriqonuniy xulq-atvori sabab bo'lgan bo'lsa, aybdor bezorilik oqibatida odam o'ldirish jinoyati uchun javobgar bo'lmaydi»¹.

Bezorilikni rashk va o'ch olishdan farqlash uchun bu motivlarning tabiati turlicha ekanligi inobatga olinmog'i lozim. Chunonchi, agar bezorilik niyati jamoat tartibiga qarshi qaratilgan va aybdorning jabrlanuvchini mensimasligida ifodalansa, rashk va o'ch olish motivlari ayblanuvchi va jabrlanuvchi o'rtasidagi jinoyat sodir etishdan avvalgi shaxsiy munosabatlar hisoblanadi.

Agar bezorilik oqibatida odam o'ldirish jarayonida aybdor jamoat tartibini buzgan bo'lsa, uning qilmishlari jinoyatlarning jami bo'yicha O'zbekiston Respublikasi JK 97-moddasi 2-qismi «l» bandi bilan kvalifikatsiya qilinib, qo'shimcha tarzda JKning 277-moddasi bilan kvalifikatsiya qilish talab etilmaydi .

Agar jamoat tartibini qo'pol ravishda buzish va jamiyatga nisbatan ochiqdan-ochiq hurmatsizlik bildirish, shuningdek, o'zganing mol-mulkini yo'q qilish yoki unga shikast yetkazish bilan bog'liq harakatlar aybdor tomonidan bezorilik oqibatida odam o'ldirish jinoyatidan so'ng qasddan sodir etilgan bo'lsa, qilmish JK 97-moddasi 2-qismining «l» bandi hamda Jinoyat kodeksi 277-moddasining tegishli qismlari bilan kvalifikatsiya qilinishi kerak² .

Mazkur jinoyat tarkibi quyidagi holatda mavjud bo'ladi: «jamiyatga va umume'tirof etilgan axloq qoidalariga ro'y-rost hurmatsizlik zamirida (masalan, hech bir sababsiz yoki arzimagan sabab tufayli) sodir etilgan bo'lsa»³ .

¹Ўша жойда, 16-банд, 3-хатбоши.

²Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2004 йил 24 сентябрдаги «Қасддан одам ўлдиришга оид ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 13-сонли қарори, 16-банд, 2-хатбоши // Тўплам, 2-жилд. – 198-б.

³Ўзбекистон Республикаси Олий суди ... // Тўплам, 2-жилд. 197-198-б.

Asosan mazkur jinoyat jamoat joyida sodir etiladi, lekin bu kvalifikatsiya qilishning asosiy sharti hisoblanmaydi. Jinoyat odamlar yo‘q joyda ham sodir etilishi mumkin (kvartirada, keng dalada, o‘rmonda va h.k.).

Mazkur jinoyat **to‘g‘ri** qasd bilan ham, **egri** qasd bilan ham sodir etilishi mumkin (masalan, odamlar ko‘p joyda betartib o‘q otish natijasida qasddan odam o‘ldirish). Jinoyatning **motivini** o‘rnatish muhim ahamiyatga egadir. Jinoyatni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilish uchun odam o‘ldirishga qasdning vujudga kelishiga bezorilik motivi to‘g‘ridan-to‘g‘ri sabab bo‘lganini o‘rnatish kerak.

Bezorilik oqibatida qasddan odam o‘ldirish jinoyatini sodir etishda, jinoyatchi boshqa shaxsni hayotidan mahrum qilayotganidan yoki qotillik kelib chiqishiga sabab bo‘lgan bezorilik harakatlaridan rohatlanadi.

Diniy taassublar zahirida qasddan odam o‘ldirish (JK 97-moddasi 2-qismi «m» banti)

U yoki bu din yoxud diniy ta‘limotga e‘tiqod qiluvchi shaxsni shu e‘tiqodi uchun o‘ldirganlik O‘zbekiston Respublikasi JK 97-moddasi 2-qismi «m» banti bilan kvalifikatsiya qilinishi kerak. Diniy taassublar zahirida deganda, diniy mutaassiblikka asoslangan, diniy g‘oyalarga ko‘r-ko‘rona, ashaddiy berilib ketish, turmushda ularga og‘ishmay rioya etishga intilish, g‘ayridinlar va boshqacha fikrlovchilarga murosasizlik tushuniladi.

Diniy taassublar zahirida qasddan odam o‘ldirish deganda, obyektiv tomondan shaxsni boshqa dinga mansubligi bo‘yicha o‘ldirish ham tushuniladi. «Diniy taassublar zahirida, jabrlanuvchining diniy e‘tiqodi bilan bog‘liq holda, ko‘pincha, muayyan bir konfessiyaning qadr-qimmatini kamsitish, diniy adovat yoki nifoq keltirib chiqarish maqsadida sodir etilgan qasddan odam o‘ldirish jinoyatini JK 97-moddasi ikkinchi qismining «m» banti bilan kvalifikatsiya qilish lozim»¹. Qasddan odam o‘ldirishning bu turida shaxs o‘zining sodir qilgan jinoyatiga fanatizm, u yoki boshqa bir din odatlarini amalga oshirish

¹Ўша жойда.

ma'nosida yondashadi. Aksariyat hollarda «shunday bo'lishi kerak» tushunchasida boshqa shaxsning hayotiga tajovuz qiladi.

NOTA BENE !

Diniy taassublar deganda, diniy fanatizmga asoslangan Qoyalarga ishonish, ularga kundalik hayotda o'qishmay amal qilish va boshqa dinga e'tiqod qiluvchilar va boshqacha fikrlovchilarga nisbatan murossasizlikda namoyon bo'ladigan xohish-istaklarni tushunmoq lozim¹.

Diniy taassublar zamirida odam o'ldirish to'g'ri qasddan, ayrim hollarda egri qasd bilan ham sodir etiladi (masalan, diniy inshootga o't qo'yish bilan undagi odamni o'ldirishda jabrlanuvchining o'limiga befarq qaraydi).

Kishi a'zolarini kesib olib, boshqa kishiga ko'chirish (transplantat) yoki murdaning qismlaridan foydalanish maqsadida qasddan odam o'ldirish

(JK 97-moddasi 2-qismi «n» bandi)

O'zbekiston Respublikasining ilgari Jinoyat qonuni odam o'ldirishning ushbu turini nazarda tutmagan. Jinoyat qonuniga odam o'ldirishning ushbu turini kiritish zarurati meditsina sohasida butun dunyo bo'yicha transplantologiya fan sifatida rivojlanishi bilan bog'liqdir. Transplantologiya fanining rivojlanishi natijasida kishi a'zolarining donorligi rivojlandi, bu o'z navbatida kishi a'zolarini ajratib olish maqsadida odam o'ldirish jinoyatini ham keltirib chiqaradi, odam organlari savdosi kuchayadi.

Odam o'ldirish odamning a'zolarini bemorga ko'chirib o'tkazish, ilmiy yoxud boshqa maqsadlar uchun ajratib olish maqsadida sodir etilganda O'zbekiston Respublikasi JK 97-moddasi 2-qismi «n» bandi bilan javobgarlikka tortiladi.

¹Каранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2004 йил 24 сентябрдаги «Қасддан одам ўлдиришга оид ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 13-сонли қарори, 17-банд, 2-хатбоши // Тўплам, 2-жилд.

Shaxs tirikligida uning roziligini olmasdan turib yoki uning yaqin qarindoshlarining roziligisiz murdaning a'zolarini yoki tana qismlarini ajratib olish O'zbekiston Respublikasi JK 133-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Haq evaziga (yo'llangan qotillik) kishi a'zolarini kesib olib, boshqa kishiga ko'chirish (transplantat) yoki murdaning qismlaridan foydalanish maqsadida odam o'ldirilganida aybdorning qilmishini O'zbekiston Respublikasi JK 97-moddasi 2-qismi «n» va «i» bandi bilan kvalifikatsiyalash zarur. Jabrlanuvchi a'zolaridan kesib olib transplantat sifatida yoki murdaning qismlaridan foydalanish (masalan, jabrlanuvchini tibbiy operatsiya niqobi ostida aldash, narkozdan foydalangan holda kuch ishlatish va hokazo) natijasida jabrlanuvchi o'limining yuz berganligi jinoyatni JK 97-moddasi 2-qismi «n» bandi bilan kvalifikatsiya qilishda ahamiyatga ega emas.

«Qasddan odam o'ldirish jinoyatini JK 97-moddasi ikkinchi qismining «n» bandi bilan kvalifikatsiya qilish uchun transplantat olish yoki murdadan olingan qism (bo'lak)lardan foydalanishga nisbatan to'g'ri qasd mavjudligini aniqlash zarur. Bunda aybdor qotillikdan ko'zlagan maqsadga erishgan bo'lishi shart emas»¹.

Jinoyatning motivi har xil bo'lishi mumkin, masalan, donorlik organi kerak bo'lgan yaqin insonining hayotini asrab qolishga harakat qilish, boylik orttirishga bo'lgan harakat. Alohida belgilarini ko'rsatuvchi **motivlar** jinoyatni yuridik baholashda o'z aksini topishi kerak.

Subyektiv tomonning muhim belgisi jinoyat sodir etishning **maqsadi** hisoblanadi. Maqsad faqat transplantat qilish emas, balki tana a'zolarini keng ma'noda ishlatishda namoyon bo'ladi. Masalan, ilmiy maqsadda, kannibalizm va h.k.

Jinoyatning **subyekt**i barcha shaxslar bo'lishi mumkin. Umuman olganda, kishi a'zolarini kesib olib, boshqa kishiga ko'chirish (transplantat) yoki murdaning qismlaridan foydalanish maqsadida qasddan odam o'ldirish jinoyatini tibbiyot xodimi ishtirokisiz sodir etib bo'lmaydi.

¹Ўзбекистон Республикаси Олий суди ... // Тўплам, 2-жилд. 198-б.

O'lgan odamdan hayotligida uning roziligisiz yoki yaqin qarindoshlarining roziligisiz tana a'zolarini olish yoki transplantat qilish JKning 133-moddasi bilan javobgarlikni keltirib chiqaradi.

***Boshqa biror jinoyatni yashirish yoki uning sodir etilishini
osonlashtirish maqsadida qasddan odam o'ldirish
(JK 97-moddaci 2-qismi «o» bandi)***

Odam o'ldirishning bu turini tavsiflashda u faqat to'g'ri qasd bilan sodir etilishini ta'kidlash kerak. Aksariyat hollarda, odam o'ldirishning bu turi mol-mulkni egallab olishni yengillashtirish, sodir etilgan jinoyatni yashirish, guvohlarni yo'qotish, ilgari sodir etilgan jinoyat uchun javobgarlikdan qutulish uchun sodir etiladi.

Boshqa biror jinoyatni yashirish yoki uning sodir etilishini osonlashtirish maqsadidagi odam o'ldirish jinoyatlarning jami bo'yicha, ya'ni JK 97-moddasi 2-qismi «o» bandi va jinoyat uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi tegishli boshqa moddasi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim. «Boshqa biror jinoyatni yashirish yoki uning sodir etilishini osonlashtirish maqsadida odam o'ldirish alohida jinoyat sifatida tavsif qilinishi lozim. Masalan, bosqinchilik jinoyatini sodir etishni osonlashtirish yoki yashirish maqsadida sodir etilgan qasddan odam o'ldirish Jinoyat kodeksi 97-moddasi 2-qismining «o» bandi va JK 164-moddasi bilan tavsiflanishi lozim».

Agar jabrlanuvchi tomonidan xabar berilgan bo'lsa va aybdor jinoyatni sodir etayotganida bundan xabardor bo'lsa, uning qilmishi – o'z xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabati bilan shaxsni o'ldirish – O'zbekiston Respublikasi JK 97-moddasi 2-qismi «g» bandi bilan kvalifikatsiya qilinadi. Bunday hollarda aybdor yangi sodir etilgan jinoyatni yashirishga urinmasligi bois, jinoyat huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ma'lum bo'lib qoladi.

Bunday hollarda, aybdor o'z fuqarolik burchini bajarganligi uchun o'ch olish maqsadida jabrlanuvchini o'ldiradi.

O'zbekiston Respublikasi JK 97-moddasi 2-qismi «o» bandida nazarda tutilgan odam o'ldirishni tamom bo'lgan jinoyat deb topish uchun aybdor odam o'ldirish natijasida boshqa biror jinoyatni

yashirganligi yoki uning sodir etilishini osonlashtirganligi talab qilinmaydi, shu maqsadda odam o'ldirilganligining aniqlanganligi kifoyadir.

Aybdor biror jinoyatning sodir etilishini osonlashtirish maqsadida boshqa jinoyatni sodir etishga ulgurmagan hollarda, u O'zbekiston Respublikasi JK 97-moddasi 2-qismi «o» bandi va boshqa jinoyatni sodir qilishga tayyorgarlik ko'rganlik uchun javobgarlikka tortiladi.

Bir guruh shaxslar yoki uyushgan guruh a'zosi tomonidan yoxud o'sha guruh manfaatlarini ko'zlab, qasddan odam o'ldirish (JK 97-moddasi 2-qismi «p» bandi)

Odam o'ldirish ikki yoki undan ortiq shaxslar tomonidan sodir etilganida aybdorlarning qilmishi O'zbekiston Respublikasi JK 97-moddasi 2-qismi «p» bandi bilan kvalifikatsiya qilinishi zarur.

Odam o'ldirish to'g'risida jinoyat ishtirokchilarining oldindan kelishuvi jinoyatni ushbu moddaga binoan kvalifikatsiyalash uchun ahamiyat kasb etmaydi. Odam o'ldirishni JK 97-moddasi 2-qismi «p» bandi bilan to'g'ri kvalifikatsiya qilish uchun jinoyatning barcha ishtirokchilari jabrlanuvchini o'ldirishga qasd qilganligini aniqlash zarur. Odam o'ldirish uchun yagona qasd bilan birgalikda harakat qilgan va jabrlanuvchini o'ldirish jarayonida bevosita ishtirok etgan shaxslarni jinoyatning ijrochilari deb e'tirof etish kerak bo'ladi.

Agar bir guruh shaxslar tomonidan jabrlanuvchining sog'ligiga shikast yetkazilsa-yu, guruh a'zolaridan biri, qolgan ishtirokchilarning xayoliga kelmagani holda, uni qattiq urib o'ldirgan bo'lsa, uning bu harakati O'zbekiston Respublikasi JK 97-moddasi 2-qismi «p» bandi bilan kvalifikatsiya qilinmaydi.

Bunday hollarda aybdorning qilmishini sodir etilgan jinoyatning motivini inobatga olgan holda, odam o'ldirish deb, jinoyatning qolgan ishtirokchilarining qilmishini esa, bir guruh shaxslar tomonidan jabrlanuvchining sog'ligiga shikast yetkazish deb kvalifikatsiya qilish lozim.

NOTA BENE !

Ikki yoki undan ortiq shaxsning birgalikda jinoiy faoliyat olib borish uchun oldindan guruhga birlashishi **uyushgan guruh** deb topiladi.

Jinoyat kodeksi 97-moddasi 2-qismining «p» bandi dispozitsiyasida ko'rsatilgan uyushgan guruh deganda, uning barqarorligini, unda tashkilotchining bo'lishini, odatda, bir necha jinoyatni sodir etish maqsadida tuzilganligini, jinoyatni amalga oshirish rejasi va yo'l-yo'rig'i ishlanganligini, har bir ishtirokchi o'rtasida vazifalar taqsimlanganligini, texnika bilan ta'minlanganligini, jinoyatni yashirish choralari ko'rilganligini, umumiy intizomga va jinoiy guruh tashkilotchisining ko'rsatmalariga itoat qilinishi va hokazolarni tushunmoq lozim.

Odam o'ldirish uyushgan guruh a'zosi tomonidan yoxud o'sha guruh manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan taqdirda aybdorning qilmishi O'zbekiston Respublikasi JK 97-moddasi 2-qismi «p» bandi bilan kvalifikatsiya qilinishi zarur.

Odam o'ldirishni uyushgan guruh manfaatlarini ko'zlagan holda sodir etilgan deb topish uchun sodir etilgan jinoyat natijasida uyushgan guruh a'zolari biror-bir manfaat ko'rgan bo'lishlari lozim, bevosita odam o'ldirgan shaxs uyushgan guruhning a'zosi bo'lmasligi ham mumkin. Bunday holda jinoyatchilarda uyushgan guruhning manfaatlarini ko'zlab jabrlanuvchini hayotdan mahrum etish niyati bo'lganligini aniqlash muhimdir.

Odam o'ldirishning bu turini sodir etish motivlari tamagirlik, jabrlanuvchidan o'z xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabati bilan o'ch olish, boshqa kishilar hayoti uchun xavfli usulda odam o'ldirish va hokazo ham bo'lishi mumkin. Bunday hollarda, asosiy motiv – uyushgan guruh manfaatlarini ko'zlagan holda odam o'ldirilganini aniqlash muhimdir. Odam o'ldirishni kvalifikatsiya qilishda barcha jazoni og'irlashtiruvchi holatlarni ko'rsatish va jazo tayinlashda ularni inobatga olish zarurdir.

***Takroran yoki xavfli retsivist tomonidan
sodir etilgan qasddan odam o'ldirish
(JK 97-moddasi 2-qismi «r» bandi)***

Aybdor ikkinchi marta odam o'ldirgan va ilgari ham odam o'ldirganligi uchun sudlanmagan bo'lsa, jinoyat takroran sodir etilgan deb topiladi.

Agar odam o'ldirishda aybdor bo'lgan shaxs jinoyatni sodir etganlik uchun ilgari sudlangan bo'lsa, odam o'ldirish xavfli retsivist tomonidan sodir etilgan deb kvalifikatsiya qilinadi.

Aybdor ilgari tamom bo'lgan odam o'ldirishni sodir etganmi yoki unga suiqasd qilganmi, u shu jinoyatning ijrochisi yoki ishtirokchisi bo'lganmi, bundan qat'i nazar, odam o'ldirish takroriy yoki xavfli retsivist tomonidan sodir etilganligi alomatiga ko'ra kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Odam o'ldirishdan oldin terrorizm, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hayotiga tajovuz qilish va hokazo jinoyatlar sodir etilgan bo'lsa, qilmish takroran odam o'ldirish deb topilishi kerak.

Agar shaxs ilgari sodir etgan odam o'ldirganligi uchun javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilingan yoxud ana shu jinoyatlar uchun sudlanganlik muddati o'tgan yoki qonunda belgilangan tartibda olib tashlangan, shuningdek, jinoiy javobgarlikka tortish muddati o'tgan bo'lsa, odam o'ldirish takroran sodir etilgan yoki xavfli retsivist tomonidan sodir etilgan deb topilishi mumkin emas.

Quyidagi hollarda odam o'ldirish takroran va xavfli retsivist tomonidan sodir etilgan deb topilishi mumkin emas: agar odam o'ldirish ehtiyotsizlik orqasida (JK 102-moddasi) yoxud zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib (JK 100-moddasi) yoki kuchli ruhiy hayajonlanish holatida (JK 98-moddasi) sodir etilgan bo'lsa yoki onaning o'z chaqalog'ini qasddan o'ldirishi (JK 99-moddasi) yoxud ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlab turish zarur choralari chegarasidan chetga chiqib (JK 101-moddasi) qasddan odam o'ldirish sodir etilgan bo'lsa.

Takroran odam o'ldirishni ikki yoki undan ortiq shaxsni qasddan o'ldirishdan farqlash lozim bo'ladi (O'zbekiston Respublikasi JK 97-moddasi 2-qismi «a» bandi). Jinoyatni kvalifikatsiya qilishda ikki yoki undan ortiq shaxsni qasddan o'ldirish uchun aybdorning jinoiy niyati umumiy ekanligi va u qoida tariqasida, bir vaqtda amalga oshirilganligiga e'tibor berish kerak.

O'ta xavfli retsivist tomonidan qasddan odam o'ldirish (JK 97-moddasi 2-qismi «s» bandi)

O'ta xavfli retsivist tushunchasi O'zbekiston Respublikasi JK 34-moddasi 3-qismida bayon qilingan. Odam o'ldirish sodir etilgunga qadar qonuniy kuchga kirgan hukmga binoan qonunda belgilangan tartibda o'ta xavfli retsivist deb topilgan shaxslargina JK 97-moddasi 2-qismi «s» bandi bo'yicha jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin. o'ta xavfli retsivist tomonidan odam o'ldirishning sodir etilganligi, agar boshqa ishtirokchilar odam o'ldirish sodir etilgunga qadar qonunda belgilangan tartibda o'ta xavfli retsivist deb topilmagan bo'lsalar, odam o'ldirishning boshqa ishtirokchilari O'zbekiston Respublikasi JK 97-moddasi 2-qismi «s» bandi bilan javobgar qilinmaydi.

Agar aybdor tomonidan JK 98–101-moddalarida nazarda tutilgan qasddan odam o'ldirish sodir etilgan bo'lsa, uning qilmishi JK 97-moddasi 2-qismi «s» bandi bilan o'ta xavfli retsivist tomonidan sodir etilgan deb kvalifikatsiya qilinishi mumkin emas.

4-§. Kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o'ldirish (JK 98-moddasi)

Kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o'ldirish – fiziologik affekt (kuchli hayajon, jazava) holatidagi odam o'ldirishdir.

Obyektiv tomondan jinoyat jabrlanuvchi tomonidan qilingan g'ayriqonuniy zo'rlik yoki og'ir haqorat, boshqa g'ayriqonuniy harakatlar tufayli to'satdan yuz bergan kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o'ldirishdan iboratdir.

Mazkur modda shunday tuzilganki, u quyidagi ikkita:

- 1) aybdorning alohida ruhiy jismoniy holati;

2) odam o'ldirish jabrlanuvchining aybi bilan sodir etilishini hisobga oladi.

Aybdorni O'zbekiston Respublikasi **JK 98-moddasi** bo'yicha javobgarlikka tortish uchun quyidagi uchta jihat:

1) nizo manbai – jabrlanuvchining g'ayriqonuniy zo'rliги yoki og'ir haqorati yoxud boshqa g'ayriqonuniy harakatlari;

2) nizo manbai natijasida aybdorda kuchli ruhiy hayajonlanish (fiziologik affekt) holatining yuzaga kelganligi;

3) subyektning shunday holatda to'satdan jabrlanuvchini o'ldirib qo'yishi mavjudligini aniqlash zarur.

Affekt deb, o'ta kuchli, tez paydo bo'ladigan va kuchli, qisqa vaqt ichida davom etadigan ruhiy holatga aytiladi. Odamning affekt holatida sodir etadigan qilmishi «portlash» kabi o'tadi.

Affekt odamning ruhiy holati kabi turli xil. Jahl, g'azab, qo'rquv, g'am, xursandlik va h.k. affektlari mavjud. U yoki bu turining mavjud bo'lishi uni shunga etaklagan holatga bog'liq.

Fiziologik affekt – qisqa muddatli, ammo jo'shqin his-tuyg'uli hayajonlanish, ochiqdan-ochiq, qisqa muddatga tutaqib ketish va ayni chog'da, nihoyatda kuchli, shiddatli kechinma, qattiq g'azablanishga aylanib ketuvchi jahl, vahimaga aylanib ketuvchi qo'rquv, chorasizlik darajasidagi qayg'u bo'lib, buning natijasida aybdor o'z harakatini nazorat qilish imkoniyatini va ularni idora qilish qobiliyatini qisqa muddatga yo'qotadi.

Odam fiziologik affekt holatida o'z harakatlari uchun javob bera oladi, nima qilayotganini tushunadi, biroq o'z harakatlarini idora qilish qobiliyati bo'shshib, o'zini to'la idora qila olmaydi. Shaxs ana shu qobiliyatini to'la yo'qotgan hollarda, u patologik affekt holatida bo'ladi, bu shaxsni aqli noraso deb topish uchun shart-sharoit vujudga keladi.

Affektning to'satdan ro'y berishi – jabrlanuvchining g'ayriqonuniy zo'rliги yoki og'ir haqorati yoxud boshqa harakatlariga javoban shaxs ruhiy tinch holatining jo'shqin his-tuyg'uli hayajonlanishga, portlashga o'tishi ko'rinishidagi fiziologik xususiyatdir.

To'satdan ro'y berishlik alomatini tor ma'noda tushunmaslik kerak. Aksariyat hollarda aybdor kuchli ruhiy hayajonlanish holatida uni darhol

ro'yobga chiqaradi, ya'ni jabrlanuvchining o'limiga sabab bo'lgan harakatni sodir etadi. Fiziologik affektning yuzaga kelishi va uning ro'yobga chiqishi o'rtasida vaqt bo'yicha uzilish bo'lmasligi lozim. Biroq jabrlanuvchini o'ldirish g'ayriqonuniy qilmish sodir etilgan paytdan e'tiboran vaqt o'tib sodir etilsa, lekin bu holat jabrlanuvchining o'sha qilmishi tufayli yuzaga kelgan bo'lsa, bunday o'ldirishni kuchli ruhiy hayajonlanish holatida sodir etilgan odam o'ldirish deb hisoblash kerak bo'ladi. Masalan, aybdor ayolning nomusiga tegadi va yashirinadi, ayol buni eriga aytib beradi, eri jinoyat sodir etilgan joyga yuguradi, ammo jinoyatchini topmaydi. Muayyan vaqt o'tib, xotin tasodifan tajovuzkorni uchratib qoladi va bu haqda eriga aytadi, erida kuchli ruhiy hayajonlanish paydo bo'ladi va tajovuzkorni o'ldirib qo'yadi.

Affektning psixologlar va psixiatrlar aniqlashlari mumkin bo'lgan o'ziga xos alomatlari mavjud. Shu munosabat bilan, psixologo-psixiatrik ekspertiza o'tkazilishi shart. Ekspertlarning xulosasi sud tomonidan ish bo'yicha boshqa dalillar bilan bir qatorda baholanadi.

Aybdorning harakatini **JK 98-moddasi** bilan kvalifikatsiya qilish uchun kuchli ruhiy hayajonlanish holati quyidagilar natijasida yuz bergan bo'lishi zarur:

1) jabrlanuvchi tomonidan qilingan g'ayriqonuniy zo'rlik yoki og'ir haqorat;

2) jabrlanuvchining boshqa g'ayriqonuniy harakatlari tufayli.

Zo'rlik jismoniy yoki ruhiy bo'lishi mumkin.

NOTA BENE !

Jismoniy zo'rlik – jabrlanuvchiga har qanday darajada tan jarohati yetkazish, urish, jismoniy kuch ishlatish, jabrlanuvchining qarindoshlarini, yaqinlarini o'ldirish, nomusiga tegish va hokazolar bo'lishi mumkin.

NOTA BENE !

Ruhiy zo'rlik – jabrlanuvchiga nisbatan jismoniy zo'rlik ishlatish, mol-mulkini nobud qilish yoki zarar yetkazish va jabrlanuvchi sir

saqlanishini istagan ma'lumotlarni oshkor etish va hokazo bilan qo'rqitishdir.

Fiziologik affekt holatini yuzaga keltirgan zo'rlik g'ayriqonuniy bo'lishi lozim. Aybdorning harakatini O'zbekiston Respublikasi **JK 98-moddasi** bo'yicha kvalifikatsiya qilishda bu jinoyatni O'zbekiston Respublikasi JK 100-moddasi (Zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib, qasddan odam o'ldirish) dan farqlash lozim. Shuni nazarda tutish kerakki, kuchli ruhiy hayajonlanish holatida aybdorda zaruriy mudofaa holati yuzaga kelmagan bo'lishi lozim. Agar aybdor uning manfaatiga haqiqatan ham xavf bo'lsa, uning harakatida O'zbekiston Respublikasi JK 100-moddasida nazarda tutilgan jinoyat alomatlari bo'ladi, xavf bo'lmasa qilmishi O'zbekiston Respublikasi **JK 98-moddasi** bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Qonunda nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lganda va qonunda belgilangan tartibda hokimiyat yoki jamoatchilik vakili tomonidan zo'rlik qo'llanishiga javoban o'ldirish sodir etilsa, bunday qilmish JK 98-moddasi bilan emas, balki muayyan alomatlar mavjud bo'lganida JK 97-moddasi bo'yicha javobgarlikni keltirib chiqaradi.

NOTA BENE !

Og'ir haqorat deganda, tahlil qilinayotgan modda mazmuniga ko'ra, fiziologik affekt holatini yuzaga keltirishi mumkin bo'lgan gap-so'zlar yoki harakatlar (shaxsning qadr-qimmatini, or-nomusi, milliy tuyg'ularini qo'pol ravishda tahqirlash va hokazo) tushuniladi.

Biroq har qanday xafa qiladigan so'zlar, hodisalar og'ir haqorat deb topilishi mumkin emas. Masalan, ishqiy aloqalarni to'xtatish, albatta, achinarli hol, ammo bu haqorat emas; turmushga chiqishni rad etish (do'st bo'lib qolamiz deyishlik); shuni nazarda tutish kerakki, faqat sud har bir alohida holda ish holatlarini hisobga olib, qanday haqorat og'ir ekanligi masalasini hal qilishi mumkin. Haqoratning subyektiv og'irligi

ko‘p hollarda aybdorning shaxsiy xususiyatlaridan, uning vaziyat dinamikasidan aniqlanadi.

Sud amaliyotida ko‘pincha er-xotinning bir-biriga xiyonati oqibatida odam o‘ldirish hollari uchraydi. Bunday hollarda javobgarlik masalasini qanday hal etish kerak? Er-xotin alohida yashashga, o‘z kvartiralariga ega bo‘lishga haqlidirlar va ularning ishqiy hayoti, ya’ni ularning jinsiy erkinligi hech qayerda man etilmagan. o‘zga shaxs bilan ishqiy aloqaga kirishish qonunga xilof emas, jazoga tortilmaydi (ilgari jinoyat qonunchiligida er-xotinning bir-biriga xiyonat qilganligi uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi modda bo‘lgan). Shu munosabat bilan, er-xotin vafodorligining buzilishi hodisasi og‘ir haqorat deb topilishi mumkin emas. Biroq er yoki xotinning ko‘zi oldida er-xotin vafodorligining buzilishi hollarini fiziologik affekt holatini yuzaga keltira oladigan og‘ir haqorat deb topish zarur.

Boshqa g‘ayriqonuniy harakat deganda, jabrlanuvchining shunday harakatlari tushuniladiki, ular na zo‘rlik deb, na haqorat deb topilishi mumkin emas va shu bilan birga aybdor yoki uning yaqinlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini qo‘pol tarzda buzilishi (masalan, tuhmat, beboshlik yoki beboshlikka olib borish, mol-mulkni yo‘q qilish va hokazo) mumkin.

Fiziologik affekt holati g‘ayriqonuniy zo‘rlik yoki og‘ir haqoratdan tashqari, shuningdek, jabrlanuvchining boshqa g‘ayriqonuniy harakatlari tufayli ham yuz berishi mumkin. To‘satdan kuchli ruhiy hayajonlanish va shu munosabat bilan odam o‘ldirishga qasd qilish nafaqat g‘ayriqonuniy zo‘rlik yoki og‘ir haqorat qaratilgan shaxsda, balki shu hodisaning guvohi bo‘lgan har qanday boshqa shaxsda ham paydo bo‘lishi mumkin. Bunday shaxsning qilmishi ham O‘zbekiston Respublikasi **JK 98-moddasi** bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

JK 98-moddasining dispozitsiyasida keltirilgan jabrlanuvchi tomonidan ayblanuvchiga qo‘llanilgan g‘ayriqonuniy zo‘rlik, og‘ir haqorat yoki boshqa g‘ayriqonuniy harakatdan tashqari fiziologik affekt uzoq vaqt mobaynidagi ruhiy holatdan kelib chiqishi mumkin. Boshqacha aytganda, **JK 98-moddasida** bitilgan javobgarlikka tortilish uchun nafaqat jabrlanuvchi tomonidan bir martada sodir etilgan g‘ayri-

qonuniy harakat yoki og‘ir haqorat yuzasidan kelib chiqqan affekt holati, balki jabrlanuvchi tomonidan bunday qilmish bir necha marotaba sodir etilganligi tufayli kelib chiqqan affekt holatida ham javobgarlikka sabab bo‘ladi.

NOTA BENE !

Uzoq vaqt mobaynidagi yiqilgan ruhiy holat aybdorda, jabrlanuvchi tomonidan uzoq vaqt mobaynida g‘ayriqonuniy harakatni qo‘llashdan keyin paydo bo‘lib, yiqilib, **ruhiy bosimni** vujudga keltiradi. Shundan so‘ng arziyas sabab ruhiy «portlashga» asos bo‘lishi mumkin.

Bu turdagi jinoyatni kvalifikatsiya qilishda qonun qo‘llovchi organ uzoq vaqt mobaynidagi yiqilgan ruhiy holatni hisobga olmaydi. Shunga binoan JK 98-moddasining dispozitsiyasiga quyidagi o‘zgartirishning kiritilishi fikrimcha to‘g‘ri bo‘ladi: «Shuningdek» so‘zidan keyin «*uzoq vaqt mobaynidagi yig‘ilgan ruhiy holatlar yoki*» iborasibilan to‘ldirish.

Shuni yana ta’kidlab o‘tish kerakki, amalda shunday hollar bo‘ladiki, uzoq vaqt mobaynidagi yig‘ilgan ruhiy holatda qilinayotgan harakatlar boshqa shaxsni, umuman g‘ayriqonuniy harakat qilmagan shaxsni kuchli ruhiy hayajon holatida o‘ldirishga sabab bo‘lishi mumkin. Masalan, D. xotini N. undan farzand tug‘maganligi uchun doimo haqoratlab, barcha qarindoshlar oldida sharmandasini chiqarish bilan qo‘rqitgan. Shunday haqoratlarni eshitayotgan bir paytda N. uzoq vaqt mobaynidagi yig‘ilgan ruhiy holatida pichoq bilan o‘zining qizini o‘ldirib qo‘yadi.

Bunday holda N.ning qilmishini JK 98-moddasi bilan, kuchli ruhiy holatda sodir etilgan jinoyat sifatida kvalifikatsiya qila olmaymiz. Chunki qonun bilan belgilangan jabrlanuvchi tomonidan sodir etilgan g‘ayriqonuniy harakat mavjud emas. Aybdorning qilmishi JK 97-moddasining umumiy asoslariga binoan kvalifikatsiya qilinishi kerak, ammo sud jazo belgilaganda aybdorning fiziologik affekt holatini inobatga olishi shart.

Bunday turdagi ishlarda sababiy bog‘lanishni o‘rnatish lozim. Jinoyatni **JK 98-moddasi** asosida kvalifikatsiya qilish uchun aybdor-

ning qilmishi jabrlanuvchi tomonidan qo'llanilgan g'ayriqonuniy zo'rlik, og'ir haqorat yoki boshqa g'ayriqonuniy harakatlar oqibatida to'satdan sodir bo'lgan kuchli ruhiy holati, ya'ni shunday harakatning aybdor tomonidan javob reaksiyasi bo'lishini aniqlash lozim. Agar aybdorning qilmishi boshqa ruhiy hayajon tufayli sodir etilgan bo'lsa (masalan, stress, frustratsiya va h.k.), bunday jinoyat JK 98-moddasiga asosan kvalifikatsiya qilinmaydi. Affekt holatini yolg'ondan keltirish ham mumkin.

JK 98-moddasida belgilangan jinoyatda tayyorgarlik bosqichi bo'lishi mumkin emas, lekin suiqasd bosqichi bo'lishi mumkin.

Kuchli ruhiy hayajonlanish holatida odam o'ldirish egri qasd bilan sodir etilishi mumkin. Bu yerda turli xil motiv bo'lishi mumkin, odatda jabrlanuvchining g'ayriqonuniy harakatlari uchun qasos bo'ladi. Albatta bu jinoyat subyektiv tomonining maxsus alomati ayblanuvchining maxsus ruhiy holati – fiziologik affektdir.

To'satdan ro'y bergan kuchli ruhiy hayajonlanish holatida odam o'ldirishda O'zbekiston Respublikasi JK 97-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan og'irlashtiruvchi holatlar, masalan, o'ta shafqatsizlik bilan harakat qilgan ikki yoki undan ortiq shaxs mavjud bo'lsa ham qilmish O'zbekiston Respublikasi JK 98-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Jinoyatni **JK 98-moddasi** asosida kvalifikatsiya qilishda uning JK 100-moddasidan (Zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib, qasddan odam o'ldirish) farqlash muammosi kelib chiqishi mumkin. Subyektda shunday holatning mavjudligi jinoyatni kuchli ruhiy hayajon holatida qasddan odam o'ldirish deb kvalifikatsiya qilish uchun eng muhim alomatdir. Ammo zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib, qasddan odam o'ldirishda esa bunday alomat muhim emas. Agarda zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib, qasddan odam o'ldirish kuchli ruhiy hayajon holatida kelib chiqsa, bunda ikkita normaning bir-biridan ustunligi ko'riladi (JK 98-va 100-moddalari). Bunda jinoyat JK 100-moddasiga asoslanib kvalifikatsiya qilinishi kerak, negaki uning sanksiyasi JK 98-moddasiga ko'ra yengilroq.

5-§. Onaning o‘z chaqalog‘ini qasddan o‘ldirishi (JK 99-moddasi)

Bu jinoyat turining **obyekti** chaqaloqning hayotini saqlash borasidagi ijtimoiy munosabatdir. Shundan kelib chiqadiki, jabrlanuvchi faqatgina chaqaloq bo‘lishi mumkin. Odatda, tug‘ilishning boshlanishi va ona qornidan chiqib hayotga kirib kelish vaqtidan to 4 haftalikkacha chaqaloqlik deb hisoblanadi¹. Sud tibbiyoti nazarida, chaqaloqlik juda qisqa vaqtdir; chaqaloq deb tug‘ilgandan so‘ng 1 sutkagacha yashagan go‘dak hisoblanadi².

Obyektiv tomondan jinoyat onaning o‘z chaqalog‘ini tug‘ish paytida yoki bevosita tug‘qan hamon qasddan o‘ldirishidan iboratdir.

Odam o‘ldirishning bu turi jazoni yengillashtiruvchi holatlarda odam o‘ldirish jumlasiga kiradi, chunki jinoyat tug‘ayotgan ayolning tug‘ish paytidagi yoki bevosita tug‘ishdan keyingi alohida ruhiy-jismoniy holati natijasida sodir etiladi. Bunday holat tug‘ish paytidagi og‘riqlar, aziyat tufayli paydo bo‘lishi va bu ko‘zi yoriyotgan ayolda chaqaloqqa nisbatan salbiy tuyg‘uni keltirib chiqarishi mumkin. Yoxud bu istalmagan (nomusga tegish natijasida homilador bo‘lish yoki uylanishga va’da qilib aldab ketish) tug‘ish bo‘lishi mumkin. Chaqaloq tanasining biron-bir a‘zosi ona qornidan chiqqan paytda yoki u to‘la tug‘ilib bo‘lgandan so‘ng onaning uni o‘ldirganligi O‘zbekiston Respublikasi **JK 99-moddasi** bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

O‘ldirish faol harakat (masalan, qattiq shikast yetkazish, cho‘ktirish, bo‘g‘ish) va harakatsizlik (masalan, ovqat bermaslik) bilan sodir etilishi mumkin.

Onaning ruhiy holati yengillashtirish holati deb faqatgina ma’lum bir vaqtda hisoblanishi mumkin: tug‘ish jarayonida yoki tug‘ib bo‘lgandan so‘ng, ya’ni chaqaloqning biror tana qismining ona qornidan chiqish paytida yoki butunlay chiqib bo‘lgandan so‘ng. Bunday holda sud-tibbiyot nazariyasi hisobga olinadi.

Agar ona o‘z chaqalog‘ini tug‘ishdan so‘ng muayyan vaqt o‘tgach, tug‘ish jarayonida ayol boshidan kechiradigan alohida ruhiy-jismoniy

¹Малая медицинская энциклопедия / Под ред. В.И. Покровского. Т.4. – М.: 1996. –96-б.

²Қаранг: Судебная медицина (Руководство для врачей) / Под ред. А.А. Матышева и А.Р. Деньковского. – Л.: «Медицина», 1985. – 386-б.

holat o‘tib ketganidan keyin o‘ldirsa, uning qilmishi, sodir etish motivini hisobga olgan holda, O‘zbekiston Respublikasi JK 97-moddasi bilan odam o‘ldirish deb kvalifikatsiya qilinadi. Shunday qilib, bunday qilmishga yuridik baho berishda vaqt inobatga olinishi shart.

Subyektiv tomondan jinoyat to‘g‘ri va egri qasd bilan sodir etilishi mumkin.

Shunday holatlar bo‘ladiki, onaning ehtiyotsizligi tufayli yetkazilgan turli xil jarohatlar go‘dakning o‘limiga sabab bo‘ladi. Bunday holda qilmish ehtiyotsizlikdan odam o‘ldirish sifatida (JK 102-moddasi) kvalifikatsiya qilinadi.

Bu turdagi odam o‘ldirishning o‘ziga xos xususiyati shundaki, bu jinoyatning **subyektiv** faqat chaqaloqning onasi bo‘lishi mumkin. Bolani o‘ldirish jinoyati ishtirokchilarining (vasvasaga soluvchilarning, ko‘makchilarning) qilmishlari O‘zbekiston Respublikasi JK 28- va 97-moddalari bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

6-§. Zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib, qasddan odam o‘ldirish (JK 100-moddasi)

Mazkur odam o‘ldirish jinoyatining obyektini jinoiy tajovuzni bartaraf etishda hujum qiluvchining o‘limiga sabab bo‘luvchi, o‘zini oqlamaydigan himoya choralarini qo‘llashning oldini olish bo‘yicha ijtimoiy munosabatlardir.

JKning 100-moddasida nazarda tutilgan **jinoyat obyektiv tomondan** zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib, qasddan odam o‘ldirishdan iboratdir.

«O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 37-moddasida ifoda qilingan zaruriy mudofaa huquqi fuqarolarning shaxsi, uy-joy va mulk haqidagi konstitutsiyaviy qoidalarni kafolatlaydi, fuqarolarning davlat mulkini, davlat va jamoat manfaatlarini qo‘riqlash borasidagi Konstitutsiyada belgilangan burchlarni amalga oshirishni ta‘minlaydi»¹.

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1996 йил 20 декабрдаги «Ижтимоий хавfli тажовузлардан зарурий мудофаа ҳуқуқини таъминловчи қонунларни судлар томонидан қўлланилиши ҳақида»ги 39-сонли қарори, муқаддиманинг 1-хатбоши // Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами, 1991–2006, 1-жилд. – Т.: «O‘qituvchi» НМИУ, 2007. – 76-б.

Aybdorni O‘zbekiston Respublikasi **JK 100-moddasi** bo‘yicha jinoiy javobgarlikka tortish uchun aybdor zaruriy mudofaa holatida bo‘lganligini va uning chegarasidan chiqqanligini aniqlash lozim.

Zaruriy mudofaa tushunchasi O‘zbekiston Respublikasi JK 37-moddasida bayon qilingan. JK 37-moddasi 1-qismiga binoan, zaruriy mudofaa holatida sodir etilgan, ya’ni mudofaalanuvchi yoxud boshqa kishining shaxsi yoki huquqlarini, jamiyat yoki davlat manfaatlarini qonunga xilof tajovuzlardan tajovuzchiga zarar yetkazgan holda himoya qilish chog‘ida qilgan harakat, agar zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqmagan bo‘lsa, jinoyat deb topilmaydi.

«Jinoyat kodeksining Maxsus qismida nazarda tutilgan harakatlari uni sodir etgan shaxsning javobgarlikka tortilganligi yoki ruhiy kasallik tufayli, jinoiy javobgarlik yoshiga to‘lmaganligi sababli va boshqa asoslarga ko‘ra javobgarlikdan ozod qilinganligidan qat’i nazar Jinoyat kodeksining 37-moddasi doirasida himoyalaniishiga asos beruvchi ijtimoiy xavfli tajovuz deb hisoblanadi»¹.

NOTA BENE !

Zaruriy mudofaa holati faqatgina ijtimoiy xavfli tajovuz yuz bergan paytning o‘zidagina emas, balki tajovuzning boshlanish xavfi mavjud bo‘lgan hollarda ham vujudga keladi. Zaruriy mudofaa holati agar himoyalaniuvchi ish holatlariga ko‘ra tajovuz tugagan vaqtni aniq anglay olmagan bo‘lsa, tajovuz tugagandan so‘ng ham bo‘lishi mumkin.

Adabiyotlarda bu haqda turlicha nuqtai nazarlar mavjud. Ulardan ayrimlarida aytilishicha, faqat tajovuz amalga oshirilayotgan vaqtdagina, ya’ni o‘ldirishga harakat qilinayotganda, sog‘liqqa shikast yetkazilayotganda, nomusga tegilayotganda va boshqa shu singari hollardagina himoyalaniish mumkin. Bu nuqtai nazar noto‘g‘ridir. Agar tajovuzga uchrash xavfi haqiqatda mavjud bo‘lsa, shaxs o‘z manfaatlariga qarshi qaratilgan xavfga nisbatan zarur himoya choralarini ko‘rmasa, keyin kech bo‘lishi, himoyalana olmay qolishi mumkin deb

¹Ўша жойда, 1-банд.

hisoblash uchun barcha asoslarga egadir. Ya'ni, tajovuzga uchragan shaxs hujum qiluvchining birinchi zarbasini kutmasdan oq faol himoyalani shga haqlidir.

Tajovuzning oldi olingan yoki tugagandan so'ng va himoya vositalarini qo'llash zaruriyati aniq yo'qolganda himoyalaniuvchining tajovuz qiluvchiga zarar yetkazganlikdagi harakati zaruriy mudofaa holatida sodir etilgan deb hisoblanmaydi. Bunday holatda javobgarlik umumiy asoslarda yuz beradi. Hujum vaqtida ishlatilgan qurol va boshqa ashyolarning tajovuzchidan himoyalaniuvchining qo'liga o'tib qolishi ning o'zi tajovuz tugaganligidan dalolat bermaydi.

«Agar shaxs ziyon yetkazish (urishish, azob berish, o'ch olish va boshqalar) niyatida hujumning kelib chiqishiga sababchi bo'lsa, bunday harakatlarni zaruriy mudofaa yo'sinida qilingan deb topish mumkin emas. Bu holatlarda sodir etilgan xatti-harakatlar umumiy asoslarda tavsiflanishi lozim»¹.

Respublika fuqarolari ijtimoiy xavfli tajovuzlardan himoyalani shda, ulardan qochib qutulish yoki tajovuzdan saqlanishning boshqa usullaridan foydalanish imkoniyati mavjud bo'lishidan qat'i nazar, tajovuzchini o'ldirishga qadar unga har qanday shikast yetkazish yo'li bilan faol choralarni ko'rish huquqiga egadirlar. Tajovuz yoki real qo'rqitish paytida o'z hayotini himoyalani sh uchun turli xil qurollarni qo'llash: jismoniy kuch, gazli qurol va h.k.

Jinoyatni O'zbekiston Respublikasi **JK 100-moddasi** bilan kvalifikatsiya qilish uchun aybdor zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqqan yoki chiqmaganini aniqlash zarur. Tajovuz nomusga tegish bilan bog'liq bo'lmagan, mudofaalanuvchi yoki boshqa shaxsning hayoti uchun xavfli yoki bunday qilmishni sodir etishligi bilan qo'rqitish hollarida zaruriy mudofaaning to'g'ri kelmasligi haqida savol tug'iladi. Bunda JK 37-moddasining 2-qismiga binoan, tajovuzning xususiyati va xavfliligi darajasiga butunlay muvofiq kelmaydigan mudofaa zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqish deb topiladi.

«Tajovuzning xarakteri va xavflilik darajasiga butunlay muvofiq bo'lmagan mudofaani va buning oqibatida tajovuzchiga hech qanday

¹Ўша жойда, 3-банд.

zaruriyatsiz Jinoyat kodeksining 100, 107-moddalarida nazarda tutilgan qasddan zarar yetkazilsagina zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqish deb topiladi»¹. Biroq dalillarni baholashda mudofaa vositalarining tajovuz vositalariga mutanosibligiga yuzaki qarab bo'lmaydi, masalan, tajovuz so'yil to'qmoqdan foydalanib amalga oshirilgan bo'lsa, himoyalalanuvchi ham so'yil to'qmoqdan foydalanishi mumkin.

Ayrim hollarda qilmishga to'g'ri baho berish uchun tajovuzchi va mudofaalanuvchining harakatlarini solishtirish lozim. Lekin holatlar turli xil bo'ladi, Shuning uchun qilmishlarni baholashda hamma holatga mexanik darajada bir xil yondashish mumkin emas (masalan, agar tajovuzchi taxta bilan tajovuz qilsa, mudofaalanuvchi faqatgina taxta bilan mudofaalanishi kerak deb o'ylash xato bo'ladi).

Jinoyatni O'zbekiston Respublikasi **JK 100-moddasi** bo'yicha kvalifikatsiya qilishda himoya va tajovuz vositalarining muvofiqligi yoki muvofiq emasligini, hujum qiluvchi va tajovuzdan himoyalalanuvchining kuchlari nisbatini, har ikkalasining yoshini, jismoniy quvvatini, quroli bor-yo'qligini, tajovuz joyini, tajovuz sodir etilayotgan vaziyatni, tajovuzning xususiyatini hisobga olish zarur. «Agar tajovuz bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan bo'lsa, mudofaalanuvchi hujum qiluvchilarning har biriga nisbatan guruhdagi barcha tajovuzchilar harakatining xarakteri va xavflilik darajasiga qarab tegishli himoya choralarini ko'rishga haqli»².

Sudlanuvchining bunday harakatlariga to'g'ri huquqiy baho berish maqsadida sudlar yuz bergan voqeaning barcha holatlarini hisobga olib, bu harakatlar ular tomonidan ijtimoiy xavfli tajovuz sababli kuchli ruhiy hayajonlanish holatida sodir etilgan-etilmaganligini aniqlashlari lozim.

Ayrim hollarda mushtlashish paytida sodir etilgan jinoyatni zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib odam o'ldirish deb kvalifikatsiya qilish mumkin. Bu holda qilmishni baholashda barcha umumiy qoidalar qo'llaniladi va tajovuzchi bilan mudofaalanuvchining harakatlari solishtiriladi. Bunda bir shaxs ikkinchi shaxsga haqiqatdan tajovuz qilishi asos bo'ladi.

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1996 йил 20 декабрдаги «Ижтимоий хавfli тажовузлардан зарурий мудофаа ҳуқуқини таъминловчи қонунларни судлар томонидан қўлланилиши ҳақида»ги 39-сонли қарори, 4-банд // Тўплам, 1-жилд. – 76-б.

²Ўша жойда, 5-банд.

Subyektiv tomondan qilmish to'g'ri qasddan, shuningdek, egri qasddan ham sodir etilishi mumkin. Tajovuzchiga nisbatan qasos, yoqtirmaslik va nafrat jinoyatning **motivi** hisoblanadi.

NOTA BENE !

Shaxs **ijtimoiy xavfli tajovuzdan himoyalanish** vaqtida ehtiyotsizlik orqasida tajovuz qiluvchini o'ldirib qo'yganligi uchun umuman jinoiy javobgarlikka tortilmasligi lozim.

Zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib sodir etilgan odam o'ldirishni kuchli ruhiy hayajonlanish holatidagi odam o'ldirishdan farqlash zarur. Bunda shuni nazarda tutish kerakki, kuchli ruhiy hayajonlanish holatida odam o'ldirish himoyalanish maqsadida sodir etilmaydi, demak odam o'ldirish zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqish natijasida sodir etilmaydi. Kuchli ruhiy hayajonlanish holatida odam o'ldirish sodir etilganda, aynan kuchli ruhiy hayajonlanish holati odam o'ldirishning zaruriy belgisi hisoblanadi, zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqishda kuchli ruhiy hayajonlanish holatining mavjud bo'lishi shart emas. Kuchli ruhiy hayajonlanish holati mavjud bo'lgan holda zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib, tajovuz qiluvchi o'ldirilganda aybdorning qilmishi Jinoyat kodeksining 100-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinishi kerak. Zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib odam o'ldirishda O'zbekiston Respublikasi JK 97-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan holatlar mavjud bo'lgan hollarda ham qilmish O'zbekiston Respublikasi JK 100-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim. Tajovuz qilinishi mumkin degan taxminga ko'ra, ya'ni haqiqatdan ham ijtimoiy xavfli tajovuz mavjud bo'lmagani holda shaxs yanglishib, shunday tajovuz qilinishi mumkin deb odam o'ldirgan taqdirda, himoya tajovuzning xavflilik darajasiga butunlay nomuvofiqligi sababli, aybdorning qilmishi JK 100-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim. Kuchli ruhiy hayajonlanish yoki zaruriy mudofaa holati o'tib ketganidan so'ng jazoni og'irlashtiruvchi holatlarsiz odam o'ldirilganida qilmish JK 98-moddasi bilan emas, balki JK 97-moddasining 1-qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Agar ish holatlariga ko'ra, mudofaa choralari qo'llagan shaxs o'zining yanglishganini bilmagan va bilishi ham mumkin bo'lmagan bo'lsa, uning harakatlari zaruriy mudofaa holatida sodir etilgan deb hisoblanishi kerak. «Agar shaxs tajovuzning aslida yo'q va xayoliyligini bila turib, ish holatlariga ko'ra ham uni, albatta, bilishi mumkin bo'lgani holda zarar yetkazsa, uning harakati Jinoyat kodeksining ehtiyotsizlik orqasida zarar yetkazganlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi moddasi bilan tavsiflanishi lozim»¹. Bunday odam o'ldirishda aybdor tajovuzni qaytarish emas, o'ch olish niyatida harakat qiladi. Zaruriy mudofaa holati o'tib ketganidan so'ng va jazoni og'irlashtiruvchi holatlarda odam o'ldirilganida qilmishni O'zbekiston Respublikasi JK 97-moddasining 2-qismi bilan kvalifikatsiya qilish kerak.

7-§. Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlab qolishning zarur choralari chegarasidan chetga chiqib, qasddan odam o'ldirish (JK 101-moddasi)

Bu turdagi jinoyatning obyekti ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlab qolishning zarur choralari chegarasidan chetga chiqib, qasddan odam o'ldirishni bartaraf etadigan ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Mazkur **jinoyat obyektiv tomondan** ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlab qolishning zarur choralari chegarasidan chetga chiqib, qasddan odam o'ldirishda ifodalanadi.

Shu normaga asosan, ushlab qolish vositasi va usuliga, qilmishning hamda uni sodir etgan shaxsning xavflilik darajasiga, shuningdek, ushlab qolish sharoitiga mos kelmaydigan, ushlab qolish zarurati taqozo etmagan holda ushlab qolgan shaxsga qasddan zarar yetkazish ushlab qolish choralari chegarasidan chetga chiqish deb topiladi (JK 39-moddasining 2-qismi). JK 39-moddasining 3-qismida ko'rsatilganidek, ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsni ushlab qolish vaqtida unga yetkazilgan zararining qonuniyligini baholashda, qilmishni sodir etgan shaxsni ushlab qolishdan qochish maqsadida qilgan harakatlari, ushlab qolishning kuchi va

¹Ўша жойда, 10-банд, 2-хатбоши. – 79-б.

imkoniyatlari, ruhiy holati va ushlab bilan bog'liq bo'lgan boshqa holatlar hisobga olinadi.

NOTA BENE !

Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlabning zarur choralari chegarasidan chetga chiqib, qasddan odam o'ldirish – sodir etilgan jinoyat xavflilik darajasiga yoki uni ushlab vaziyatiga ochiq-oydin nomutanosib ravishda odam o'ldirishdir.

Ushlab asoslari jinoyat-protsessual ahamiyatga ega va ular JPK ning 221-moddasida bayon qilingan.

Agar qilmish xavfli bo'lmasa, jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan qo'llanilgan oxirgi zaruratni qonuniy deb hisoblash mumkin emas. Bunday holda qasddan odam o'ldirishni kvalifikatsiya qilishda yengillashtiruvchi holatlarsiz JK ning 97-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinadi. Xuddi shunday qoida og'ir va o'ta og'ir jinoyat sodir etgan shaxs ushlovchiga qarshilik ko'rsatmagan (yoki qarshilik ko'rsatishni to'xtatgan) va uni o'ldirish zaruriyati ushlab sharoitidan kelib chiqmagan hollarda ham qo'llaniladi.

Sodir etilgan jinoyatni O'zbekiston Respublikasi **JK 101-moddasi** bilan kvalifikatsiya qilish uchun jinoyatchini ushlab paytida uning o'limiga sabab bo'lgan ushlab vositalarini qo'llash vaqtida ushlovchining ixtiyorida boshqa chora bo'lmaganligini anglab yetganligini aniqlash lozim.

JK 101-moddasida ko'rsatilgan jinoyat **to'g'ri qasd** bilan yoki **egri qasd** bilan sodir etilishi mumkin. Bu jinoyatning **motivi** zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib qasddan odam o'ldirish motivi bilan bir xil.

Bu jinoyatning **subyekt** ushlabni bajarayotgan shaxs hisoblanadi. Ushlabni bajarayotgan shaxs nafaqat qonun bilan maxsus vakolat berilgan huquqni muhofaza qiluvchi organ vakillari, balki jinoyat va uni sodir etgan shaxs haqida bilgan fuqarolar, jamoatchilik vakillari ham bo'lishi mumkin.

8-§. Ehtiyotsizlik orqasida odam o'ldirish (JK 102-moddasi)

Harakatdagi Jinoyat kodeksining **102-moddasida** nazarda tutilgan jinoyatning **obyekti** inson hayoti uchun xavfsiz alohida shart-sharoitlar yaratishga, ularning o'z-o'ziga ishonish yoki beparvolik oqibatida halok bo'lishiga yo'l qo'ymaslikka yo'naltirilgan ijtimoiy munosabatlardir.

Jinoyat **obyektiv tomondan** harakat yoki harakatsizlikdan sodir etilishi mumkin. Odatda bunday jinoyatlar oddiy hayotiy sharoitda odam hayotiga zarar keltirmaydigan holatlarda yuzaga keladi. Masalan, jismoniy kuch bilan shaxsni itarib yuborish, shaxsning turgan joyiga va sog'ligiga qarab o'limiga olib kelishi mumkin.

Agar ehtiyotsizlik orqasida ikki yoki undan ortiq shaxs o'ldirilgan bo'lsa, aybdor **JK 102-moddasining 2-qismi** bilan javobgarlikka tortiladi.

Subyektiv tomondan ehtiyotsizlik orqasida odam o'ldirish jinoiy o'z-o'ziga ishonish yoxud jinoiy beparvolikda ifodalanadi.

Jinoiy o'z-o'ziga ishonish natijasida odam o'ldirishda aybdor o'zi sodir etgan harakat (harakatsizlik) tufayli boshqa shaxsning o'ldirib qo'yilishi mumkinligiga ko'zi yetadi, lekin yengiltaklik qilib, uning oldini olishdan umidvor bo'ladi. Bunday hollarda, aybdor muayyan ehtiyotsizlik qoidalarini ongli ravishda buzadi. Jumladan, bunday buzish quyidagilarning oqibati bo'lishi mumkin:

- a) qasddan sodir etilgan qilmish;
- b) qonun bilan taqiqlangan, biroq jinoyat hisoblanmaydigan harakat;
- v) biron-bir qoida bilan taqiqlangan harakat (yo'l harakati qoidalarini buzish va hokazo);
- g) ilmiy ma'lumotlarga va kasbiy qoidalarga zid harakatlar;
- d) jamiyatda belgilangan ehtiyotkorlik qoidalarini buzadigan harakatlar;
- e) mazkur shaxsning amalga oshirish yoki shug'ullanish huquqiga ega bo'lmagan harakatlar yoki kasb bilan shug'ullanishi va hokazo.

Jinoiy o'z-o'ziga ishonish oqibatida ehtiyotsizlik bilan odam o'ldirishni egri qasd bilan sodir etilgan odam o'ldirishdan farqlash kerak

bo‘ladi. Egri qasd bilan odam o‘ldirishda aybdor odamni o‘ldirib qo‘yishi mumkinligiga ko‘zi yeta turib, ongli ravishda unga yo‘l qo‘yadi. o‘z-o‘ziga ishonishda esa, shaxs muayyan holatlarda o‘limning oldini olish mumkin deb umidvor bo‘ladi va uning oldini olishni mo‘ljallab harakat qiladi.

NOTA BENE !

Jinoiy beparvolik oqibatida ehtiyotsizlik orqasida odam o‘ldirishni shaxsning baxtsiz hodisa tufayli boshqa shaxsning o‘lishini oldindan ko‘ra olmagan, uni ko‘ra olishi mumkin va lozim ham bo‘lmagan (aybsiz holda zarar yetkazish) odam o‘ldirishdan farqlash kerak bo‘ladi.

Ehtiyotsizlik orqasida odam o‘ldirishni JKda belgilangan ko‘plab ehtiyotsizlik aybi tufayli o‘ldirish jinoyatidan farqlash lozim (114-modda – Jinoiy ravishda homila tushirish (abort); 118-modda – Nomusga tegish; 266-modda – Ma‘muriy nazorat qoidalarini buzish va boshqa ko‘plab jinoyatlar). JK 102-moddasida bayon qilingan jinoyatning ajratib turuvchi tarafi qonunga zid keladigan harakatlar yoki harakatsizliklarda bitilgan.

9-§. O‘zini o‘zi o‘ldirish darajasiga yetkazish (JK 103-moddasi)

Jinoyat kodeksining 103-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning obyekti inson hayotini oliy qadriyat deb tan olish, har qanday insonning sha’ni va qadr-qimmatini kamsitish va u bilan rahmsiz muomala qilishga yo‘l qo‘ymaslik bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlardir.

Bu **jinoiyat obyektiv tomondan** o‘zini o‘zi o‘ldirish yoki o‘zini o‘zi o‘ldirishga suiqasd qilish darajasiga yetkazish qo‘rqitish, unga rahmsiz muomala qilish yoki uning sha’ni va qadr-qimmatini muttasil ravishda kamsitish (**JK 103-moddasi 1-qismi**) yoxud o‘zini o‘zi o‘ldirish yoki o‘zini o‘zi o‘ldirishga suiqasd qilish moddiy tomondan yoki boshqa jihatlardan aybdorga qaram bo‘lgan shaxsga nisbatan, Voyaga yetmagan

shaxsga yoki homiladorligi aybdorga ayon bo‘lgan ayolga nisbatan¹, bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib, telekommunikatsiya tarmoqlaridan, Shuningdek Internet butunjahon axborot tarmog‘idan foydalanib² sodir etishda ifodalanadi.(JK 103-moddasi 2-qismi)

Aybdor sodir etgan qilmishni O‘zbekiston Respublikasi JK 103-moddasi bilan kvalifikatsiya qilish uchun aybdorning jabrlanuvchiga nisbatan qo‘rqitish, rahmsiz muomala qilishi yoki uning sha’ni va qadr-qimmatini muttasil ravishda kamsitishi natijasida o‘zini o‘zi o‘ldirishi yoki o‘zini o‘zi o‘ldirishga suiqasd qilish darajasiga yetkazganlikni aniqlash lozim.

NOTA BENE !

Qo‘rqitish deganda, jabrlanuvchiga zo‘rluk ishlatish bilan qo‘rqitish, qimmatbaho buyumlarini nobud qilish, jabrlanuvchi uchun sir saqlanishi lozim bo‘lgan ma’lumotlarni oshkor qilishni tushunish lozim³.

Ko‘pincha o‘zini o‘zi o‘ldirish darajasiga yetkazish ayblanuvchining harakatlari bilan amalga oshiriladi. Jabrlanuvchiga nisbatan badaniga og‘ir shikast yetkazish, qiynash, tuhmat qilish, zo‘rluk bilan harakatlanish huquqini chegaralash va h.k. kabi harakatlar qo‘llanilgan bo‘lishi mumkin. Lekin bu jinoyatni harakatsizlik bilan ham amalga oshirish mumkin (ovqat, suv, kiyim, turar joy va boshqa zarur ne’matlardan mahrum etish).

NOTA BENE !

Rahmsiz muomala qilish deganda, jabrlanuvchiga jismoniy yoki ruhiy azob beradigan qo‘pol, beshafqat muomala qilish (masalan, kaltaklash, urish, uy-joydan, issiqlikdan, ovqatdan, suvdan, tirikchilik vositalaridan mahrum qilish, ishdan asossiz bo‘shatish) hollari tushuniladi.

¹См.: комментарий к ст. 97 УК.

²См.: комментарий к ст. 278¹ УК

³Кўрkitиш тўғрисида батафсилроқ маълумот учун ЎЗР ЖКнинг 94-моддасини шарҳига қаранг

Shaxsni **JK 103-moddasiga** asosan jinoiy javobgarlikka tortish uchun jabrlanuvchiga nisbatan bir marta rahmsiz muomala qilganlik fakti aniqlanganligining o‘zi yetarli. Qonun muttasillikni zaruriy shart deb belgilamaydi, ammo shu bir marotabadagi harakat o‘zini o‘zi o‘ldirish darajasiga yetkazishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

NOTA BENE !

Shaxsning sha’ni va qadr-qimmatini muttasil ravishda kamsitish deganda, jabrlanuvchining sha’ni va qadr-qimmatini uzoq vaqt muntazam (uch va undan ortiq marta) kamsitish (masalan, tuhmat qilib aytilgan gaplar, haqorat qilish, ta’qib (quvg‘in) qilish va hokazo) hollari tushuniladi.

Bir marotabalik kamsitish fakti shaxsni JK 103-moddasiga asosan javobgarlikka tortish huquqini bermaydi. Ayrim hollarda haqiqiy ma’lumotlarni hayosizlarcha, masharaomuz, haqoratomuz shaklda muttasil ravishda tarqatish ham o‘zini o‘zi o‘ldirish darajasiga yetkazish usuli deb topilishi mumkin. Jabrlanuvchining o‘zini o‘zi o‘ldirishi (o‘lim sodir bo‘lishi) yoki o‘zini o‘zi o‘ldirishga suiqasd qilishi jinoyatning zaruriy belgisi hisoblanadi. Agar bunday oqibatlar bo‘lmasa, o‘zini o‘zi o‘ldirish darajasiga yetkazish jinoyatining tarkibi bo‘lmaydi. Biroq shaxsning harakatida boshqa jinoyatlar (masalan, haqorat qilish, tuhmat qilish)ning alomatlari bo‘lsa, u jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin.

Shaxsning o‘zini o‘zi o‘ldirishi yoki o‘z joniga suiqasd qilish vaqtidan jinoyat **tugallangan** deb hisoblanadi.

Aybdorning qilmishini O‘zbekiston Respublikasi **JK 103-moddasi** bilan kvalifikatsiya qilish uchun jabrlanuvchining o‘ziga nisbatan rahmsiz muomala qilinishi yoki uning sha’ni va qadr-qimmatini muttasil ravishda kamsitilishi natijasida o‘zini o‘zi o‘ldirganini yoki unga suiqasd qilganligini aniqlash zarur, ya’ni aybdorning muomalasi va yuz bergan oqibatlar o‘rtasidagi sababiy bog‘lanish mavjudligini aniqlash kerak.

O‘zini o‘zi o‘ldirish yoki unga suiqasd qilish o‘ynash bo‘lish, nikoh tuzishni rad etish, er-xotindan birining bevafoqligi, ishdan noqonuniy

bo'shatish, lavozimini pasaytirish kabilarning natijasi bo'lsa, shaxsning qilmishi O'zbekiston Respublikasi JK 103-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinishi mumkin emas.

Shakl va mazmuni bo'yicha qonuniy bo'lgan harakatlar natijasida o'zini o'zi o'ldirish yoki unga suiqasd qilish sodir etilgan taqdirda, bu harakatlarni sodir etgan shaxsga nisbatan JKning 103-moddasi tatbiq etilmasligi sudlarga tushuntirilsin¹.

Agar jabrlanuvchi moddiy tomondan yoki boshqa jihatlardan aybdorga qaram bo'lmasa, aybdor JK 103-moddasi 1-qismi bilan, basharti bunday qaramlik bo'lsa, JK 103-moddasi 2-qismi bilan javobgarlikka tortiladi.

JKning **103-moddasi 2-qismi** bilan aybdor tomonidan sodir etilgan harakatlarni kvalifikatsiya qilish kerak:

a) moddiy tomondan yoki boshqa jihatlardan aybdorga qaram bo'lgan shaxsga nisbatan;

b) Voyaga yetmagan shaxsga yoki homiladorligi aybdorga ayon bo'lgan ayolga nisbatan²;

v) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;

g) telekommunikatsiya tarmoqlaridan, shuningdek Internet butunjahon axborot tarmog'idan foydalanib³.

NOTA BENE !

Moddiy tomondan qaram deganda, jabrlanuvchi moddiy jihatdan aybdorga bog'liq bo'lgan hollar (aybdordan pul, oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak va hokazo olishi) tushuniladi. Bu qoida tariqasida, ishlamayotgan shaxsning ishlab turgan shaxsga, farzandlarning ota-onalariga, ishlamayotgan ota-onaning moddiy daromadga ega bo'lgan farzandlariga qaramligi va hokazo bo'lishi mumkin.

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1998 йил 11 сентябрдаги «Ўзини ўзи ўлдириш даражасига етказиш жиноят ишлари бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 20-сонли қарори, 2-банд, 1-хатбоши // Тўплам, 1-жилд. – 167-б.

²ЖКнинг 97-моддаси шарҳига қаранг

³ ЖКнинг 278¹-моддаси шарҳига қаранг

NOTA BENE !

Boshqa jihatdan qaram deganda, xizmat yuzasidan yoki boshqa qaramlik tushuniladi (masalan, xodimning boshliqqa, o'quvchining o'qituvchisiga, aspirantning ilmiy rahbarga tobeligi, qarindoshlarga qaramlik, vasiylik va homiylik amalga oshirilishi munosabati bilan qaramlik va hokazo).

Jabrlanuvchini yosh bolaligi, o'z harakati oqibatini anglay olmaydigan holdaligi kabi holatlardan foydalanib qasddan o'zini o'zi o'ldirish yoki o'zini o'zi o'ldirishga suiqasd qilishni ruhan singdirgan aybdorning qilmishini – jinoyatning sodir etilish motivini va O'zbekiston Respublikasi JK 97-moddasi tegishli qismini hisobga olgan holda, qasddan odam o'ldirish sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Agar o'zini o'zi o'ldirish yoki o'zini o'zi o'ldirishga suiqasd qilish darajasiga yetkazish chog'ida shaxs jabrlanuvchiga o'rtacha og'ir yoki og'ir tan jarohati yetkazsa, aybdorning qilmishi Jinoyat kodeksining fuqarolar sog'ligiga shikast yetkazganlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi tegishli moddalari bilan kvalifikatsiya qilinishi kerak.

O'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish **subyektiv tomondan** egri qasd yoki ehtiyotsizlik orqasida sodir etiladi.

Jinoyat egri qasd bilan sodir etilganda aybdor jabrlanuvchining o'zini o'zi o'ldirishi mumkinligiga ko'zi yetadi va uning o'zini o'zi o'ldirishiga yo'l qo'yib beradi.

Jinoyat ehtiyotsizlik orqasida sodir etilganida aybdor shaxs o'zini o'zi o'ldirishning oldi olinishidan kaltabinlik bilan umidvor bo'ladi (jinoyatkorona o'z-o'ziga ishonish) yoki aybdor jabrlanuvchining o'zini o'zi o'ldirishiga ko'zi yetmaydi. Vaholanki, aybdor ish holatlariga ko'ra o'zining harakatlari jabrlanuvchining o'zini o'zi o'ldirishiga olib kelishini oldindan ko'ra bilishi mumkin va lozim edi.

Ushbu **jinoyatning subyekt**i O'zbekiston Respublikasi JK 103-moddasi 1-qismi bo'yicha 16 yoshga to'lgan shaxs, 2-qismi bo'yicha esa, moddiy tomondan yoki boshqa jihatlardan jabrlanuvchi qaram bo'lgan shaxs hisoblanadi.

10-§. O‘zini o‘zi o‘ldirishga undash (103¹-modda)

O‘zbekiston Respublikasining “Ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish, Shuningdek ayrim qonun hujjatlarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish to‘g‘risida”gi qonuni bilan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi O‘zini o‘zi o‘ldirishga undash 103¹-moddasi bilan to‘ldirildi.¹

Ko‘rib chiqilayotgan jinoyatning obyekti bo‘lib o‘zga shaxsning hayoti hisoblanadi.

Ko‘rib chiqilayotgan moddaning birinchi qismidagi jinoyatning obyektiv tomoni ko‘ndirish, aldash yoki boshqa yo‘l bilan o‘zga shaxsda o‘zini o‘zi o‘ldirish hissini uyg‘otish hisoblanadi, agar shaxs o‘zini o‘zi o‘ldirgan yoki o‘zini o‘zi o‘ldirishga suiqasd qilgan bo‘lsa.

NOTA BENE !

O‘zini o‘zi o‘ldirish bu- shaxs o‘zini hayotdan mahrum qilish maqsadida, mustaqil ravishda o‘zga shaxslarni jalb qilmay turib sodir etiladigan harakatdir. Bunday harakatlar ixtiyoriydir, ammo shunga qaramay, inson ongiga ta‘sir ko‘rsatish va shunday harakatlar oqibatida o‘z erkinligidan mahrum qilish jinoyat hisoblanadi.

O‘zini o‘zi o‘ldirishning sababi insonning ruhiy beqarorligi bo‘lib, ish yoki oiladagi muayyan muammolar, real hayotda o‘z istaklari, vazifalari va boshqalarni ro‘yobga chiqarishning etishmasligi bo‘lishi mumkin.

NOTA BENE !

Ko‘ndirish deganda, jabrlanuvchini ongiga ruhiy ishlov berish, o‘zini o‘zi o‘ldirish hissini uyg‘otish yoki aksincha ichida qarama-qarshilik hosil qilish tushunilishi lozim.

¹Ўзбекистон Республикаси Қонунчилиги, 2017 й. №24, 487-м.

Aldashni inson ruhiyatiga ta'sir ko'rsatish usuli deb tushunish zarur bo'lib, mazkur usul boshqa shaxsni qasddan adashtirishdan yoki faoliyatga mos bo'lmagan axborotni berish yoki jabrlanuvchini o'zini o'zi o'ldirishga undash maqsadida turli faktlar, narsalar, hodisalar va boshqalarni yashirish yo'li bilan undagi mavjud yanglish fikrni qo'llab-quvvatlashdan iborat.

Shaxsning erki tashqaridan qaraganda ixtiyoriy bo'lib ko'rinishi aldash uchun xosdir, ammo ushbu ixtiyoriylik shaxsning haqiqiy manfaatlariga zid bo'ladi.

O'zini o'zi o'ldirishga undash boshqacha yo'l bilan, masalan og'irib olish va boshqa yo'l bilan ham sodir etilishi mumkin.

O'zini o'zi o'ldirishga undash, agar shaxs o'zini o'zi o'ldirgan yoki o'zini o'zi o'ldirishga suiqasd qilgan bo'lsa, tugallangan jinoyat deb e'tirof qilinadi.

O'zini o'zi o'ldirishga undash **subyektiv jihatdan** to'g'ri qasddan sodir etiladi. Jinoyatning maqsadi va sabablari uni kvalifikatsiya qilish uchun ahamiyatga ega emas.

O'n oltiyoshga to'lgan shaxs jinoyat subyektidir.

Ko'rib chiqilayotgan moddaning ikkinchi qismida:

a) Voyaga yetmagan shaxsga yoki homiladorligi aybdorga ayon bo'lgan ayolga nisbatan¹;

b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib²;

v) telekommunikatsiya tarmoqlaridan, Shuningdek Internet butunjahon axborot tarmog'idan foydalanib sodir etilgan o'zini o'zi o'ldirishga undash uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

Telekommunikatsiya tarmoqlaridan, Shuningdek Internet butunjahon axborot tarmog'idan foydalanib sodir etilgan o'zini o'zi o'ldirishga undash usuli qurbonlarga o'zini o'ldirishga ko'rsatmalar telefon aloqasi, matnli xabarlarni bir zumda almashishning ommabop tizimlari mobil yoki boshqa platformalar uchun ovozli aloqa yordamida, masalan, «WhatsApp», ijtimoiy tarmoqlar, masalan «V Kontakte» vositasida berilganida mavjud bo'lishi mumkin.

¹ЖКнинг 97-м. Шарҳига қаранг

²ЖКнинг 29-м. Шарҳига қаранг

«Hayotga qarshi jinoyatlar» mavzusi bo'yicha yakuniy savollar

1. Shaxsga qarshi jinoyatlar xavfligining yuqoriligi nimada?
2. Qanday tamoyillarga asosan odam o'ldirish turlarga bo'linadi?
3. Odam o'ldirish jinoyati obyektining o'ziga xos xususiyatlari nimadan tashkil topgan? Jinoyat huquqi nazariyasida inson hayoti boshlanish va tugallanish vaqti deganda nima tushuniladi?
4. Og'irlashtiruvchi holatlarsiz qasddan odam o'ldirish jinoyatini kvalifikatsiya qilishning o'ziga xos xususiyatlari nima?
5. Qasddan odam o'ldirish jinoyatining og'irlashtiruvchi holatlarini sanab bering. Qanday sabablarga ko'ra ushbu holatlarni tasniflash mumkin?
6. Qasddan odam o'ldirishning subyektiv tomon alomatlariga ko'ra og'irlashtiruvchi holatlarida kvalifikatsiya qilishning o'ziga xos xususiyatlari nima?
7. JK 97-moddasi 2-qismining «v» bandida berilgan jabrlanuvchining ojiz ahvoli deganda nima tushuniladi?
8. Shaxsning o'z xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi deganda nimani tushunish kerak?
9. Ommaviy tartibsizliklar jarayonida sodir etilgan qasddan odam o'ldirishning bezorilik oqibatida qasddan odam o'ldirishdan farqi nimada?
10. o'ta shafqatsizlikning alomatlarini ayting.
11. Xavfli va o'ta xavfli retsivist shaxslar kimlar hisoblanadi?
12. Boshqa biror jinoyatni yashirish yoki uning sodir etilishini osonlashtirish maqsadida qasddan odam o'ldirishning takror yoki xavfli retsivist tomonidan sodir etilgan qasddan odam o'ldirishdan farqi nimada?
13. Fiziologik va patologik affekt nima? Kuchli ruhiy hayajonlanish holati nimadan vujudga kelishi mumkin?
14. Aybdorning harakatini JKning 98-moddasi (Kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o'ldirish) bilan kvalifikatsiya qilishga ta'sir qiladigan omillarni ayting.

15. Onaning o'z chaqalog'ini qasddan o'ldirganligi uchun javobgarlikning kelib chiqishi shartlarini ayting.

16. Kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o'ldirishning onaning o'z chaqalog'ini qasddan o'ldirishidan va zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib qasddan odam o'ldirishdan farqi nimada?

17. Zaruriy mudofaa tushunchasi. Zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqish deganda nimani tushunish kerak?

18. Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlab turishning zarur choralaridan chetga chiqib qasddan odam o'ldirishni kvalifikatsiya qilishning asosi va o'ziga xos xususiyatlari nima?

19. Ehtiyotsizlik orqasidan odam o'ldirishning qasddan odam o'ldirishdan farqi nimada?

20. Aybdorning qilmishlarini JKning 103-moddasi (o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish) bilan kvalifikatsiya qilishga ta'sir etuvchi omillar nima?

21. JK ning 103-moddasida berilgan moddiy tomondan qaramlilik deganda nima tushuniladi?

22. O'zini o'zi o'ldirishga ko'ndirish deganda nima tushuniladi?

Qo'shimcha adabiyotlar

O'quv qo'llanmalar, maxsus adabiyotlar

Абзалова Х.М. Уголовно-правовые и криминологические аспекты умышленного убийства. Монография. Отв.ред.: д.ю.н., проф. Р.А.Зуфаров. –Т.: ТГЮУ, 2014. – 163 с.

Андреева Л.А. Квалификация убийств, совершенных при отягчающих обстоятельствах. – СПб.: 1998. – 55 Б.

Андреева Л.А., Константинов П.Ю. Влияние жестокости преступного поведения на уголовную ответственность. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2002. – 207 Б.

Антонян Ю.М., Верещагин В.А., Потапов С.А., Шостакович Б.В. Серийные сексуальные убийства. – М.: 1997.

Бородин С.В. Преступления против жизни. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2003. – 467 Б.

Зубкова В.И. Ответственность за преступления против личности по законодательству России. – М.: «Норма», 2005. – 256 Б.

Лукичев О.В. Детоубийство: уголовно-правовая и криминологическая характеристика. – М.: 2000. – 109 Б.

Нерсисян В.А. Ответственность за неосторожные преступления. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2002. – 240 Б.

Ниёзова С.С. Шахсга қарши зўрлик ишлатиб содир этиладиган жиноятларнинг виктимологик профилактикаси. Монография. – Т.: ТДЮУ, 2017. – 296 б.

Никифоров А.С. Ответственность за убийство в современном уголовном праве. – М.: Учебно-консультационный центр «ЮрИнфоР», 2000. – 60 Б.

Побегайло Э.Ф. Преступления против жизни и здоровья. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2001. – 460 Б.

Попов А.Н. Преступления против личности при смягчающих обстоятельствах. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2001. – 465 Б.

Попов А.Н. Убийства при отягчающих обстоятельствах. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2003. – 898 Б.

Протопопов А.Л. Расследование сексуальных убийств. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2001. – 296 Б.

Рарог А.И. Квалификация преступлений по субъективным признакам. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2003. – 304 Б.

Романовский Г.Б. Гносеология права на жизнь. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2003. – 360 Б.

Рустамбаев М.Х. Преступления против личности. Учебное пособие. – Т.: «Эльдинур», 1998. – 181 Б.

Рустамбаев М.Х., Пайзулаев К. Особенности добровольного отказа в насильственных преступлениях против личности // Конституция – ҳу-қуқий давлат Қуришнинг асоси. – Т.: «Адолат», 1996. – 28–32-Б.

Рустамбаев М.Х. Некоторые аспекты разграничения посягательств на жизнь и здоровье // В кн.: «Проблемы

совершенствования мер борьбы с преступностью». Сборник научных трудов ТашГУ. – Т.: ТашГУ, 1986. – 14–18 Б.

Рустамбаев М.Х., Крутько О.Г. Ответственность за умышленное убийство при отягчающих обстоятельствах по признакам субъективной стороны. – Т.: ТГЮИ, 2006. – 343 Б.

Рустамбаев М.Х., Тохиров Ф., Кодиров А. Обстоятельства, отягчающие наказание по уголовному законодательству Республики Узбекистан. Учебное пособие. – Т.: Типография фирмы «Нори», 2001. – 120 Б.

Трясоумов М.А. Уголовно-правовые и криминологические проблемы борьбы с убийством матерью новорожденного ребенка (106-ст Уголовного кодекса Российской Федерации). – Екатеринбург: 2000.

Тяжкова И.М. Неосторожные преступления с использованием источников повышенной опасности / Под ред. д.ю.н., проф. зав. кафедрой уголовного права МГУ В.С. Комиссарова. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2002. – 360 Б.

Тяжкова И.М. Неосторожные преступления. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2002. – 278 Б.

Шарапов Р.Д. Физическое насилие в уголовном праве. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2001. – 298 Б.

Ilmiy maqolalar

Абзалова Х.М. Сравнительно-правовой анализ ответственности за умышленное убийство в странах СНГ // Ўзбекистон Республикаси Олий судининг Ахборотномаси. Бюллетень Верховного суда Республики Узбекистан. –2018. №2(137). – Б.51-53.

Абзалова Х.М. Уголовно-правовая, криминологическая и виктимологическая характеристика умышленного убийства // Ўзбекистон қонунчилиги таҳлили. Uzbek Law Review. Обзор законодательства Узбекистана. – 2016. № 4. – Б. 60-63.

Абзалова Х.М., Каюмов И.Н. Ответственность за умышленное убийство по законодательству некоторых зарубежных стран // Жиноят қонунчилигининг либераллаштирилиши шароитида айрим

жиноятларни декриминализация қилиш масалалари. Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. –Т.: ТДЮУ, 2014. – Б.80-86.

Кругликов Л.Л. Жизнь человека как объект уголовно-правовой охраны (понятие и некоторые вопросы квалификации) // Уголовно-правовая охрана личности и ее оптимизация: Научно-практ. конф., посв. памяти проф. А.Н. Красикова / Под ред. Б.Т. Разгильдиева. – Саратов: Изд-во ГОУ ВПО «Сарат. гос. академия права», 2003.– 43–50-б.

Крутько О. Виктимологическая профилактика убийств // Ёш олимлар илмий мақолалари тўплами. 2005. №1 (1). – 117–119-б.

Крутько О. К вопросу о разграничении убийства из корыстных побуждений и убийства, сопряженного с разбоем // Ж. Давлат ва ҳуқуқ. 2004. № 3 (19). – 35–37-б.

Крутько О. Констатация смерти человека при квалификации убийства и проблема эвтаназии. // Ёш олимлар илмий мақолалари тўплами .2003. № 5. – 109–116-б.

Крутько О. Некоторые проблемы квалификации убийства, совершенного за вознаграждение // Бюллетень Верховного суда Республики Узбекистан. 2004. № 4 (63). – 50–52 б.

Крутько О. Некоторые проблемы квалификации умышленного убийства из хулиганских побуждений // Ж. Давлат ва ҳуқуқ. 2002. № 2 (10). – 56–62-б.

Крутько О. О начальном моменте жизни человека // Ж. Научные труды академии финансовой полиции Казахстана. 2003. № 4.– 173-184-б.

Крутько О. О праве на жизнь в Конституции Республики Узбекистан // Ўзбекистон Республикаси Конституцияси – демократик давлат пойдевори мавзусидаги илмий-амалий анжуман материаллари. 2004 йил 14 февраль. – Т.: ТДЮИ, 2004. – 139–141-б.

Крутько О. Общесоциальное предупреждение совершения убийств // Ж. Давлат ва ҳуқуқ. 2005. № 2 (24). – 33–35-б.

Крутько О. Объект убийства // Ж. Давлат ва ҳуқуқ. 2003. № 4 (16). – 41–44-б.

Крутько О. Определение понятия убийства // Ёш олимлар илмий мақолалари тўплами. – Т.: ТДЮИ, 2004. № 7. – 163–170-б.

Крутько О. Причинная связь как необходимый признак оконченного убийства // Ж. Давлат ва ҳуқуқ. 2004. № 1 (17). – 36–39-б.

Крутько О. Убийство путем бездействия: его признаки и отличие от оставления в опасности // Ж. Демократизация и права человека. 2004. № 1 (21). – 123–125-б.

Крутько О. Убийство: однозначно ли трактуется уголовным законом его понятие? // Ж. Ҳуқуқ-Право-Law. 2004. № 1 (25). – 37–38-б.


Крутько О. Характеристика личности преступника, осужденного за особо тяжкое убийство // Ж. Давлат ва ҳуқуқ. 2004. № 6 (22). – 48–50-б.

Крутько О., Рустамбаев М.Х. Виктимное поведение как одно из условий, способствующих совершению умышленных убийств // Ж. «Давлат ва ҳуқуқ». 2005. № 3 (25). – 25–26-б.

Рустамбаев М.Х. Насилие как отягчающее обстоятельство корыстно-насильственных преступлений // Сборник научных трудов. – Т.: «Адолат», 1993.

III BOB. SOG‘LIQQA QARSHI JINOYATLAR

5-sxema



1-§. Badanga shikast yetkazish jinoyatlarining tushunchasi, tahlili va turlari

Fuqarolarning sog‘ligi va jismoniy daxlsizligini jinoiy tajovuzlardan muhofaza qilish O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqining dolzarb vazifalaridandir. Inson sog‘ligi va uning daxlsizligi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish, uning barcha imkoniyatlarini va ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitni yaratish respublika rahbariyatining, davlatning, barcha huquqiy institutlarning, sud-tergov organlarining diqqat markazida bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi qonunlarining asosini tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan Inson huquqlari va erkinliklari deklaratsiyasining 13-moddasida davlat fuqarolarni ularning hayoti, sog‘ligi, shaxsiy erkinligi va xavfsizligiga

boʻladigan gʻayriqonuniy tajovuzlardan muhofaza qiladi deb belgilab qoʻyilgan.

Chunonchi, Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasida: «Hech kim qiynoqqa solinishi, zoʻravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas. Hech kimda uning roziligisiz tibbiy yoki ilmiy tajribalar oʻtkazilishi mumkin emas»ligi mustahkamlab qoʻyilgan¹.

Fuqarolarning sogʻligi yoki jismoniy daxlsizligi huquqning turli sohalari normalari orqali, uning oʻziga xos vositalari bilan, shu jumladan, jinoyat qonuni tomonidan fuqarolar sogʻligiga turli xildagi tajovuzlarni sodir etganlik uchun javobgarlik belgilangan normalar orqali qonunga xilof harakatlardan muhofaza qilinadi.

Ana shu tajovuzlarning mohiyatini ochib berish uchun ularning obyektini, jabrlanuvchiga xos xususiyatlarni koʻrsatib beruvchi barcha maʼlumotlarni aniqlash muhim ahamiyatga egadir. Bu maʼlumotlar sogʻliqqa qarshi jinoyatlarni toʻgʻri kvalifikatsiya qilishda, uni oʻxshash jinoyatlardan farqlashga, qilmishning xususiyati va sogʻliqqa yetkazilgan shikastga muvofiq jazoni toʻgʻri tayinlashga koʻmaklashadi.

Yuridik adabiyotlarda badanga shikast yetkazishning yagona tushunchasi hanuzgacha ishlanmagan. Badanga shikast yetkazishning tushunchasini yoritib berishdagi farqlar, birinchidan, badanga shikast

¹Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси: Ён иккинчи чакириқ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ўн биринчи сессиясида 1992 йил 8 декабрда қабул қилинган. (2002 йил 27 январда ўтказилган умумхалқ референдуми натижаларига кўра ҳамда унинг асосида Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 24 апрелда қабул қилинган Қонунига мувофиқ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси XVIII, XIX, XX, XXIII бобларига ўзгартиришлар ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2007 йил 11 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 89-моддасига, 93-моддасининг 15-бандига, 102-моддасининг иккинчи қисмига тузатишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2008 йил 25 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 77-моддасининг биринчи қисмига ўзгартириш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2011 йил 12 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 90-моддасининг иккинчи қисмига тузатиш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 16 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 32, 78, 93, 98, 103 ва 117 моддаларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 6 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 4-бандига, 81-моддасининг еттинчи қисмига, 83-моддасига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13 ва 14- бандларига, 107-моддасининг биринчи қисмига, 110-моддасининг биринчи ва учинчи қисмларига, 111-моддасига ўзгартишлар ва қўшимча киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 31 майда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 5 ва 12-бандларига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13-бандига ҳамда 108, 109-моддаларига ўзгартишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 29 августда қабул қилинган қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 99 ва 10-моддаларига ўзгартишлар киритилган.) – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. –11 б.

yetkazishlarning obyektini turlicha ta'riflashda (ba'zilar bunday obyekt sifatida sog'liqni belgilagan bo'lsalar, boshqalar jismoniy daxlsizlikni belgilaganlar); ikkinchidan, urish, do'pposlash, qiynashlarni badanga shikast yetkazishlar jumlasiga kiritish mumkinligidan iborat bo'lgan, uchinchidan, bular jumlasiga jismoniy og'riq beruvchi, ammo boshqa oqibatlarni keltirib chiqarmaydigan zo'rlik ishlatib qilingan boshqa harakatlarni kiritish mumkinligidan iborat bo'lgan.

Shu munosabat bilan badanga shikast yetkazish deb topilishi mumkin bo'lgan sog'liqqa zarar yetkazilishining chegaralarini aniq belgilash va uni boshqa zo'ravonlik tajovuzlaridan farqlash (ajratish) imkonini beradigan ikkita obyektiv mezon asos qilib olingan ta'rif, bizningcha ancha aniqrog'dir. Bu mezonlar quyidagilardir:

1) odam tanasi a'zolari va to'qimalarining anatomik bus-butunligi yoki bir me'yorda ishlab turishining buzilganligi;

2) odam sog'ligiga, sud-tibbiy ekspertizasi yordamida yetkazilgan zararining og'irligi va darajasini aniqlash imkonini beradigan zararining yetkazilganligi.

NOTA BENE !

Badanga shikast yetkazishni o'zga kishining sog'ligiga uning xohishiga zid ravishda, tashqi muhit omillari ta'siri ostida to'qimalar yoki a'zolarining anatomik bus-butunligi yoki fiziologik funksiyalari buzilishiga sabab bo'lgan bo'lsa **g'ayriqonuniy zarar yetkazish** deb ta'riflash mumkin.

Bundan urish, do'pposlash, jismoniy og'riq beruvchi boshqa zo'ravonlik harakatlari sodir etilishini badanga shikast yetkazishlar jumlasiga kiritish mumkin emas degan fikr tug'iladi. Shubhasiz, bunday harakatlar natijasida odamda jismoniy og'riq, noxush tuyg'ular paydo bo'ladi, lekin ular odatda, sud-tibbiy ekspertizasini (badanga yetkazilgan shikastlarning og'irlik darajasini sud-tibbiy aniqlash qoidalari asosida) o'tkazish jarayonida obyektiv mezonlar asosida tasdiqlanishi mumkin bo'lgan darajada sog'liqni ishdan chiqarmaydi.

Shu munosabat bilan urish, do'pposlash va boshqa zo'ravonlik harakatlarini badanga shikast yetkazishlar toifasiga kiritilishi mumkin bo'lmagan mustaqil jinoyatlar deb hisoblash kerak bo'ladi.

Sog'liqqa qarshi jinoyatlarning **obyekti** uning holati va xususiy fazilatlaridan qat'i nazar, o'zga kishining sog'ligidir. Jismoniy daxlsizlik shaxs sog'ligiga zarar yetkazish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa zo'ravonlik harakatlarining obyekti bo'la olmaydi.

Sog'liqqa zarar yetkazilganligini aniqlashda uning badanga shikast yetkazilgan paytdagi holatiga, ya'ni sog'liqning yomonlashuviga asoslanish kerak bo'ladi. Sud tibbiyoti va sud amaliyoti sodir etilgan qilmish natijasida sog'liq avvalgiga nisbatan yomonlashgan bo'lsa, jabr-lanuvchi sog'ligiga zarar yetkazilganligini qayd etishga amal qiladi.

NOTA BENE !

Faqat o'zga kishining sog'ligiga, badaniga shikast yetkazish ushbu **jinoyatning obyekti** bo'lishi mumkin.

O'z sog'ligiga zarar yetkazgan shaxs (o'z a'zosini mayib qilish) faqat boshqa jinoyat, masalan, harbiy yoki muqobil xizmatdan bo'yin tovlash (O'zbekiston Respublikasi JK 225-moddasi), o'zining biron a'zosini mayib qilish yo'li bilan yoki boshqa usulda harbiy xizmatdan bo'yin tovlash (O'zbekiston Respublikasi JK 290-moddasi) sodir etilgan hollardagina jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin.

Bunday hollarda o'z sog'ligiga zarar yetkazish ana shu moddalarda nazarda tutilgan jinoyatni sodir etish usuli sifatida namoyon bo'ladi va shu bois bunday shaxslarning harakati qo'shimcha kvalifikatsiyani talab qilmaydi. Agar ijtimoiy xavfli maqsadda shaxs roziligi bilan boshqa shaxs tomonidan uning sog'ligiga zarar yetkazilsa, yetkazgan zarar darajasiga qarab badanga shikast yetkazuvchi va o'z sog'ligiga zarar yetkazilishiga rozilik bergan shaxs jinoyatda ishtirokchi sifatida jinoyatlar jami bo'yicha javobgar bo'ladilar.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining Maxsus qismi II bobidan boshqa boblarda ham inson sog‘ligiga zarar yetkazadigan bir qancha jinoyatlar uchun ham javobgarlik belgilangan.

Bu jinoyatlarning jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan boshqa ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazishi tufayli qonun chiqaruvchi ularni «Sog‘liqqa qarshi jinoyatlar» jumlasiga kiritmaydi. Bunday jinoyatlarni yuridik adabiyotlarda ikki obyektli jinoyatlar deb aytadilar (masalan: Bosqinchilik – O‘zbekiston Respublikasi JK 164-moddasi, Talonchilik – O‘zbekiston Respublikasi JK 166-moddasi va hokazo). Badanga shikast yetkazishda tajovuz faqat shaxs sog‘ligigagina qaratilgan bo‘ladi. «Sog‘liqqa qarshi jinoyatlar» bobida nazarda tutilgan badanga shikast yetkazish va sodir etilishi jarayonida badanga shikast yetkaziladigan jinoyatlar o‘rtasidagi asosiy farq aynan shundan iboratdir.

Sog‘liqqa qarshi jinoyatlarning obyektiv tomoni. Fuqarolar sog‘ligiga va jismoniy daxlsizligiga qarshi jinoiy tajovuz obyektiv jihatining elementlarini aniqlab olish ularni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilish va bu jinoyatlarning mohiyatini tushunish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Ma‘lumki, sog‘liqqa va jismoniy daxlsizlikka qarshi jinoyatlar moddiy tarkibli bo‘lib, ijtimoiy xavfli oqibatlar yuz bergan paytdan e‘tiboran tamom bo‘lgan jinoyat deb topiladi.

Badanga shikast yetkazilganda, aybdorning g‘ayriqonuniy harakati tufayli jabrlanuvchining sog‘ligiga zarar yetkazish oqibat tariqasida namoyon bo‘ladi.

Aksariyat hollarda badanga shikast faol harakatni sodir etish yo‘li bilan yetkaziladi, biroq nazariy jihatdan bunday shikastni harakatsizlik yo‘li bilan ham yetkazish mumkin. Jinoyat huquqi nazariyasida shaxsning sog‘ligiga zarar yetkazishining oldini olishga qaratilgan biron-bir harakatni bajarishi shart bo‘lgan va uni qilishi mumkin bo‘lgan, ammo uni bajarmagan holdagina harakatsizlik yo‘li bilan sog‘liqqa zarar yetkazishi mumkin deb hisoblanadi. Bunday majburiyat qonun yoki qonun osti hujjatining biron-bir ko‘rsatmasidan yoxud shaxsning xizmat yoki kasbiy majburiyatidan yoxud jabrlanuvchining sog‘ligi uchun xavf tug‘dirgan shaxsning bundan oldingi xulq-atvoridan

yoki boshqa asoslardan kelib chiqadi. Biroq bunday qilmishni sodir etgan aybdor badanga shikast yetkazganlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi modda bilan emas, balki O‘zbekiston Respublikasi JK ning boshqa normalari: JK 117-moddasiga binoan – xavf ostida qoldirganlik, 116-moddasi bilan – o‘z xizmat vazifalarini lozim darajada bajarmaganlik uchun javobgar bo‘ladilar.

NOTA BENE !

Badanga jinoiy shikast yetkazishning zaruriy alomatlaridan biri uning g‘ayriqonuniyligidir.

Sog‘liqqa qasddan yoki ehtiyotsizlikdan shikast yetkazish mumkin. Shubhasiz, shaxs zaruriy mudofaa holatida uning chegarasidan chetga chiqmasdan yoxud oxirgi zarurat, kasb yoki xo‘jalik faoliyatiga bog‘liq asosli tavakkalchilik holatida sog‘liqqa har qanday darajada zarar yetkazsa, u jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin emas. Negaki bunday harakat ijtimoiy xavfli va g‘ayriqonuniy hisoblanmaydi.

Jinoyat qonunida zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib qasddan badanga og‘ir shikast yetkazganlik uchun javobgarlik nazarda tutiladi va zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib yengil yoki o‘rtacha og‘ir shikast yetkazganlik uchun alohida normada javobgarlik nazarda tutilmaydi. Qonun chiqaruvchining bunday qarori, bizningcha, to‘g‘ridir. Ijtimoiy xavfli tajovuzdan himoyalanish hujum qilayotgan shaxsga muayyan zarar yetkazishni taqozo etadi, aks holda biron-bir manfaatni himoya qilishning aslo iloji bo‘lmaydi.

Sog‘liqni saqlash huquqi insonning ana shu boylikdan foydalanishda muayyan huquqlarga ega ekanligini nazarda tutadi. Shu munosabat bilan inson tomonidan o‘zining sog‘lom bo‘lishdek subyektiv huquqini amalga oshirish chegarasining jinoyat huquqi tomonidan muhofaza qilinishi masalasi qiziqarli ekanligi shubhasizdir.

Shaxsning sog‘ligiga uning roziligi bilan ijtimoiy foydali maqsadda zarar yetkazilgani jinoiy javobgarlikka tortish uchun asos bo‘lmaydi. Masalan, bemorning hayotini saqlab qolish uchun uning jarohatlangan

a'zosini kesib tashlash yoki tibbiy aralashuv oqibatida kishi a'zosi shaklan o'zgaradi (oyoq, qo'lning kaltalashib qolishi va hokazo). U yoki bu a'zoni yoki to'qimalarning bir qismini muhtoj kishiga donorning roziligi bilan ko'chirib o'tkazish uchun kesib olish hollari ham shular jumlasiga kiradi.

Bunday holda shifokorning harakati ijtimoiy foydali harakat hisoblanadi. Agar bunday harakat shaxsning roziligi bilan sodir etilsa, bu rozilik kasallik varaqasida tegishli yozuv bilan qayd etib qo'yilishi kerak.

Ijtimoiy indeferent, ya'ni nuqsonni yo'qotish (kosmetik operatsiya o'tkazish va hokazo) maqsadida sog'liqqa shikast yetkazish, agar u ehtimol tutilgan oqibat haqida xabardor qilingan shaxsning roziligi bilan o'tkazilgan bo'lsa, jinoiy javobgarlikka sabab bo'lmaydi.

Faqat ijtimoiy jihatdan xavfli maqsadda shaxsning roziligi bilan zarar yetkazganlik uchun jinoiy javobgarlik yuzaga keladi. Bunga harbiy xizmatdan bo'yin tovlagan boshqa shaxsning sog'ligiga shikast yetkazish misol bo'la oladi.

Shifokorlik faoliyatida sog'liqqa muayyan shikast yetkazish ba'zi hollarda ancha yirik jarohat paydo bo'lishining yoki o'limning oldini olish uchun zaruriy shart hisoblanadi. Bunday holda O'zbekiston Respublikasi JK 41-moddasi (Kasb yoki xo'jalik faoliyatiga bog'liq asosli tavakkalchilik) inobatga olinishi lozim.

Boks, kurash, futbol, xokkey, sharq Yakkama-Yakka olishuvi kabi turli sport tadbirlarini o'tkazish chog'ida ham badanga shikast yetkazilishi mumkin. Yuridik adabiyotlarda bu masalaning yechimi bir xilda hal etilmagan.

Shu munosabat bilan sport musobaqasini o'tkazish jarayonida musobaqa qatnashchisiga shikast yetkazilishi mumkin bo'lgan to'rtta vaziyatni ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir:

birinchi vaziyat – sport bellashuvi vaqtida o'yin qoidalari buzilmagani holda sog'liqqa shikast yetkazilishi. Garchi bunday harakat natijasida zararli oqibat yuz bersa ham, sportchi sport qoidasini buzish va shikast yetkazishga qasd qilmaydi. Shu bois uning harakatlari ijtimoiy xavfli va g'ayriqonuniy deb topilishi mumkin emas;

ikkinchi vaziyat – sportchining ehtiyotsizlik orqasida o‘yin qoidalarini buzganligi natijasida sog‘liqqa shikast yetkazilishi. Bunday holda ham sportchining harakatida jinoyat tarkibi bo‘lmaydi va unga nisbatan musobaqa qoidalarida nazarda tutilgan jazolargina qo‘llanilishi mumkin;

uchinchi vaziyat o‘yin qoidasini qasddan buzish natijasida sog‘liqqa shikast yetkazilishini qamrab oladi. Bunday holda masala yuz bergan oqibatga qarab hal etiladi. Agar badanga yengil shikast yetkazish tarzidagi oqibat yuz bergan bo‘lsa, aybdor jinoiy javobgarlikka tortilmasligi lozim. Jabrlanuvchiga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazilgan bo‘lsa, aybdorning qilmishi O‘zbekiston Respublikasi JK 111-moddasi (Ehtiyotsizlik orqasida badanga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazganlik) bilan kvalifikatsiya qilinadi;

to‘rtinchi vaziyat – raqibning sog‘ligiga sport bellashuviga bog‘liq bo‘lmagan holda shikast yetkazilishidir. Bunday holda badanga u yoki bu og‘irlikda qasddan shikast yetkazganlik uchun aybdor jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Badanga shikast yetkazadigan harakat juda xilma-xil bo‘lib, ularni quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin:

1) jismoniy (mexanik, termik, elektrik va hokazo) ta’sir ko‘rsatib badanga yetkaziladigan shikast;

2) badanga kimyoviy yoki biologik vositalar bilan ta’sir ko‘rsatish (turli kislotalar, zaharli moddalar, gazlar va hokazodan foydalanish) yo‘li bilan badanga yetkaziladigan shikast;

3) ruhiy ta’sir ko‘rsatish yo‘li bilan badanga yetkaziladigan shikast.

Jismoniy ta’sir ko‘rsatish yo‘li bilan badanga yetkaziladigan shikast odamning muskul kuchidan foydalangan holda yetkazilishi mumkin: urish, tepish, kalla qo‘yish. Aksariyat hollarda aybdor buning uchun turli asboblardan foydalanadi. Fuqarolarning sog‘ligiga termik yoki elektrik ta’sir ko‘rsatish (badanni dazmol, qizdirilgan ashyolar bilan kuydirish va hokazo) orqali shikast yetkazishlar ham hayotda tez-tez uchraydi.

Badanga shikast yetkazganlikni kvalifikatsiya qilish uchun na ularni yetkazish usuli, na u yoki bu asbobdan foydalanganlik ahamiyatga ega

emas. Biroq jazo tayinlash vaqtida sog'liqqa shikast yetkazish usuli inobatga olinishi mumkin. Negaki, bu holat aybdor shaxsning va u sodir etgan jinoyatning u yoki bu darajada ijtimoiy xavfliligidan dalolat beradi. Odamning sog'ligi yoki jismoniy daxlsizligiga turli xildagi harakatlar, turlicha usullar orqali xilma-xil asboblardan va jinoyat vositalari bilan zarar yetkazilishi mumkinligi sababli badanga shikast yetkazish turli darajada bo'lishi mumkin.

Bu oqibatlar qonunda:

- 1) hayot uchun xavfning mavjudligi yoki yo'qligini;
- 2) sog'liqqa yetkazilgan zararining og'irligi darajasini;
- 3) umumiy mehnat qobiliyatini yo'qotish darajasini hisobga olib tasniflanadi.

Jinoyat kodeksida yuz bergan oqibatga qarab badanga og'ir (O'zbekiston Respublikasi JK 104-moddasi), o'rtacha og'ir (O'zbekiston Respublikasi JK 105-moddasi) va yengil (O'zbekiston Respublikasi JK 109-moddasi) shikast yetkazganlik uchun alohida-alohida javobgarlik nazarda tutilgan. Alohida normada do'pposlaganlik (kaltaklaganlik) va qiynaganlik uchun (O'zbekiston Respublikasi JK 110-moddasi) javobgarlik nazarda tutilgan.

Qonunda ko'rsatilgan muayyan oqibatning yuz berishi (mehnat qobiliyatining yo'qotilishi, inson organizmi a'zosi yoki ish faoliyatining yo'qotilishi, homilaning tushishi va hokazo) badanga og'ir, o'rtacha og'ir, yengil shikast yetkazishni tamom bo'lgan jinoyat deb topish uchun zaruriy belgi hisoblanadi. Bunda sodir etilgan ijtimoiy xavfli g'ayriqonuniy qilmish va yuz bergan oqibat o'rtasidagi sababiy bog'lanish mavjud bo'lishi kerak. Bunday bog'lanish bo'lmagan taqdirda, ro'y bergan oqibatda shaxsni aybdor deb topish mumkin emas.

Ko'pincha oqibat nafaqat sodir etilgan jinoiy harakatning, balki uchinchi shaxsning aybi bilan yoxud boshqa holatlar tufayli yuzaga kelgan o'zga omillarning natijasi bo'ladi.

Shu munosabat bilan, agar shaxsning qasdi bilan ro'y bergan oqibat o'rtasida sababiy bog'lanish mavjud bo'lsa, yuz bergan oqibatlar «to'g'ridan-to'g'ri» yoki «tasodifiy» bo'lganligidan qat'i nazar, javobgar bo'ladi. Masalan, V. ning jinoyat ishini ko'rib chiqsak. U talabalar

yotoqxonasida bo‘lganida O. ni jinsiy yaqinlik qilishga undagan. Rad javobini olgach, V. uning nomusiga tegishga uringan. O. deraza tokchasiga chiqib olib, agar V. unga yaqinlashsa, o‘zini derazadan tashqariga tashlab yuborishi haqida uni ogohlantirgan. V. tahdidga parvo qilmay unga yaqinlashgan, O. esa derazadan sakragan va uchinchi qavatdan yiqilib tushib, og‘ir shikastlangan. Bu holda, bizningcha, garchi O.ning sog‘ligiga o‘zining harakati natijasida shikast yetkazilgan bo‘lsa ham, V.ning harakati va yuz bergan oqibat o‘rtasidagi sababiy bog‘lanish muqarrar (to‘g‘ridan-to‘g‘ri) emas, balki tasodifiy xususiyatga ega bo‘lgan bo‘lsa-da, yuz bergan oqibatda V. aybdor deb hisoblanishi kerak, chunki yetkazilgan shikast va V. qilmishi o‘rtasida sababiy bog‘lanish mavjud.

Yuqorida aytilgan fikrlardan yuz bergan oqibatlar uchun javobgarlik ham muqarrar, ham tasodifiy sababiy bog‘lanish mavjud bo‘lgani taqdirda, agar uning rivojlanishi aybdorning qasdi bilan qamrab olingan bo‘lsa, yuzaga keladi, degan xulosa qilish mumkin.

Sog‘liqqa qarshi jinoyatlarda ayb, motiv va maqsad. Sog‘liqqa va jismoniy daxlsizlikka qarshi jinoyatlar ham **qasddan**, ham **ehtiyotsizlik** orqasida sodir etilishi mumkin. Sog‘liqqa qarshi jinoyatlar, xususan, badanga shikast yetkazishning aksariyati egri qasd bilan sodir etiladi.

NOTA BENE !

Fuqarolarning sog‘ligi va jismoniy daxlsizligiga qarshi jinoyatlarni sodir etishda to‘g‘ri qasd shunday xususiyatga ega bo‘ladiki, shikast yetkazgan shaxs o‘z qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglaydi, jabrlanuvchining sog‘ligiga muayyan zarar yetkazilishi muqarrarligi yoki ehtimoli borligiga ko‘zi yetadi va aynan shunday shikast yuz berishini xohlaydi.

Masalan, Qodirovning jinoyat ishini o‘rganish quyidagilarni ko‘rsatadi: u mast holda bundan oldinroq o‘zi haqorat qilgani uchun qaynonasinikiga ketib qolgan xotinini uyiga olib kelishga qaror qilgan. Xotini uyga qaytishni istamaganida, Qodirov uning homiladorligini bila

turib, «Sen hozir tug‘asan» degan so‘zlar bilan uning qorniga bir necha marta tepadi. Zarbalar natijasida Qodirovaning homilasi tushgan. Ish materialidan ko‘rinib turibdiki, Qodirov o‘z harakatining ijtimoiy xavflilik xususiyatini nafaqat tushungan, balki jabrlanuvchi homilasining tushishi ehtimoli borligiga ko‘zi yetgan va unga shunday shikast yetkazishni xohlagan ham.

Bularning hammasi Qodirov jinoyatni to‘g‘ri qasd bilan sodir etganligidan dalolat beradi.

Egri qasdda esa yuz beradigan oqibatga garchi aybdorning ko‘zi yetgan bo‘lsa ham, u yetkaziladigan zararining haqiqiy ko‘lamini tasavvur qilmaydi va jabrlanuvchining sog‘ligiga har qanday shikast yetishiga yo‘l qo‘yadi.

Masalan, aybdor jabrlanuvchining boshiga ayamadan urar ekan yoki unga tosh otar ekan, buning natijasida jabrlanuvchiga har qanday og‘irlikdagi: og‘ir, o‘rtacha og‘ir yoki yengil shikast yetkazilishi mumkinligiga ko‘zi yetadi va shunday oqibatlar yuz berishiga ongli ravishda yo‘l qo‘yadi.

Bunday hollarda javobgarlik amalda yetkazilgan shikastning darajasiga qarab belgilanadi, negaki aybdor ularning yuz berishini bir xil darajada anglagan bo‘ladi.

Subyektiv tomondan qasddan shikast yetkazishga nisbatan ehtiyotsizlik orqasida shikast yetkazishning ijtimoiy xavfliligi kamrog‘dir.

Sog‘liqqa qarshi jinoyatlar ehtiyotsizlikning jinoiy o‘z-o‘ziga ishonish shakli bilan ham sodir etilishi mumkin. Bunda shaxs muayyan ijtimoiy xavfli oqibatlar kelib chiqishi mumkinligiga ko‘zi yetadi va shunga qaramay, ongli ravishda ehtiyot choralariga rioya etmaydi, bunday oqibat kelib chiqmasligiga asossiz ravishda umid qiladi.

Qasddan jinoyat qilish va jinoiy o‘z-o‘ziga ishonishdan farqli ravishda, jinoiy beparvolikda shaxs o‘z harakati yoki harakatsizligidan qanday ijtimoiy xavfli oqibat yuz berishi mumkinligiga ko‘zi yetmaydi, lekin ko‘zi yetishi mumkin va lozim bo‘ladi.

Shaxsning u yoki bu oqibat yuz berishiga ko‘zi yetishi lozim bo‘lgani va muayyan vaziyatda unga ko‘zi yetishi mumkin bo‘lganligi

aniqlangandagina uni ehtiyotsizlikdan badanga shikast yetkazishda ayblash to‘g‘ri bo‘ladi.

Sog‘liqqa qarshi jinoyatlarni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilish uchun jinoyat subyektida aybning qasdi yoki ehtiyotsizlik shakli mavjudligini aniqlashning o‘zi kifoya qilmaydi.

Fuqarolarning sog‘ligiga qasddan shikast yetkazilgan barcha hollarda jinoyatning motiv va maqsadini aniqlash zarurdir.

Aksariyat hollarda sog‘liqqa va jismoniy daxlsizlikka qarshi jinoyatlarni sodir etish motiv va maqsadi aybdor shaxsning javobgarligini og‘irlashtiruvchi holatlar hisoblanadi (masalan, tamagirlik niyati, bezorilik tuyg‘usi, diniy taassublar zamirida, transplantat maqsadida badanga shikast yetkazish va hokazo).

Sog‘liqqa qarshi jinoyatlar subyektining yuridik tavsifi. JK 17-moddasida badanga shikast yetkazganlik uchun jinoiy javobgar bo‘lishi mumkin bo‘lgan shaxsning eng kichik yoshi belgilangan. Qasddan badanga og‘ir shikast yetkazganlik uchun (JK 104-moddasi), qasddan badanga o‘rtacha og‘ir shikast yetkazganlik uchun (JK 105-moddasi), kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan badanga og‘ir yoki o‘rtacha og‘ir shikast yetkazganlik uchun (JK 106-moddasi) jinoyatni sodir etgunga qadar **o‘n to‘rt yoshga** to‘lgan shaxslar javobgar bo‘ladilar.

Sog‘liqqa va jismoniy daxlsizlikka qarshi boshqa jinoyatlarning subyeksi **o‘n olti yoshga** to‘lgan shaxslar hisoblanadi.

2-§. Qasddan badanga og‘ir shikast yetkazish (JK 104-moddasi)

Mazkur jinoyatning bevosita **obyekti** boshqa shaxsning sog‘ligini himoya qilish borasidagi ijtimoiy munosabat hisoblanadi.

JKning 104-moddasida nazarda tutilgan jinoyat **obyektiv tomondan** huquqqa xilof ravishda boshqa shaxs sog‘ligiga og‘ir zarar yetkazishga sabab bo‘lgan harakat yoki harakatsizlikda ifodalanadi.

Bu jinoyat bo‘yicha javobgarlik boshlanishining muqarrar sharti – sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish va boshlangan jinoiy oqibat o‘rtasidagi sababiy bog‘lanishni aniqlash. Og‘ir shikast yetkazishning

shartli elementlari quyidagilardir: shikast yetkazilayotgan lahzada hayot uchun xavfli; ko‘rish, nutq, eshitish qobiliyatini yoki a‘zosini yo‘qotish yoki bajaradigan vazifasini butunlay bajara olmay qolishi; ruhiy kasallikka chalinish; 33% dan ziyod umumiy mehnat qobiliyatini butunlay yo‘qotish; badanni tuzatib bo‘lmaydigan darajada xunuklashtirish.

Jinoyat huquqi va sud tibbiyoti fanlari tomonidan badanga yetkaziladigan shikastning og‘irlik darajasini aniqlash mezonlari ishlab chiqilgan. Ular jumlasiga:

- 1) shikastning hayot uchun xavfliligi;
- 2) sog‘liqqa yetkaziladigan haqiqiy ziyon;
- 3) mehnat qobiliyatini yo‘qotish darajasi;
- 4) estetik mezonlar kiradi.

Bu mezonlar JK normalarida va O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan «Badanga yetkazilgan shikastlarning og‘irlik darajasini sud-tibbiy yo‘l bilan aniqlash qoidalari»da o‘z ifodasini topgan.

Hayot uchun xavfli shikast deganda, sodir etilayotgan vaqtda jinoyatchi tomonidan hayot uchun xavf tug‘diruvchi shikastni yetkazish tushuniladi. Bunday shikastga tibbiy yordam ko‘rsatilmasa, jabrlanuvchining o‘limiga sabab bo‘lishi mumkin bo‘lgan shikast kiradi.

Qasddan badanga og‘ir shikast yetkazish shaxsning sog‘ligiga turlicha shikast yetkazish yoki sog‘liqning **muayyan muddatga** izdan chiqishida ifodalanadi.

Mehnat qobiliyatini yo‘qotish darajasi foizlarda aniqlanadi va yetkazilgan shikast mehnat qobiliyatining qisman yoki butunlay yo‘qotilishiga sabab bo‘ladi.

Badanni tuzalmaydigan qilib xunuklashtirib yuborish estetik mezoni o‘ziga xos xususiyatga ega. Bunda yetkazilgan shikast natijasida jabrlanuvchi badanining xunuklashganligi uning ruhan ezilishiga olib keladi. Shikastning og‘irligi oqibat-natijada, avvalo, jabrlanuvchiga uning badani xunuklashgani sabab bo‘ladigan ruhan ezilishlar bilan bog‘liqdir.

Badanga yetkaziladigan shikastning og‘irligi darajasini aniqlash uchun «Qoidalar»da ikkita asosiy mezon: *tibbiy (anatomik) va iqtisodiy mezonlar* qo‘llanilgan.

Tibbiy mezon badanga yetkaziladigan barcha turdagi shikastni uning sodir etilish vaqtida jabrlanuvchining hayoti uchun xavfliligi nuqtai nazaridan tavsiflaydi, to‘qimalar yoki a‘zolar funksiyalarining buzilishi darajasi va xususiyatini, yetkazilgan shikastning davomlilik va organizmga ta‘sirini aniqlaydi.

Iqtisodiy mezon jabrlanuvchi tomonidan mehnat qobiliyatini yo‘qotishning foizlarda ifodalangan darajasini hisobga olgan holda badanga yetkazilgan shikastni tavsiflaydi.

Badanga shikast yetkazish, O‘zbekiston Respublikasi JK **104-moddasida** nazarda tutilgan alomatlardan loaqal bittasi mavjud bo‘lsa, og‘ir deb topiladi.

Shuni ta‘kidlash lozimki, «JK 104, 105, 109- moddalarida bitilgan jinoyat belgilari ro‘yxati to‘liqdir. Har bir belgi biror-bir jinoyatga tegishlilikini aniqlash uchun ularning hech bo‘lmasa bittasining mavjudligi yetarlidir. Agar ishda tanaga og‘ir, o‘rtacha og‘ir va yengil jarohat yetkazish belgilari bir nechta bo‘lsa, shaxsni aybdor sifatida sudga chaqirish ajrimida ko‘rsatiladi.

Agar ayblanuvchi jabrlanuvchiga yetkazgan og‘ir jarohatidan tashqari yana boshqa jarohatlar yetkazilsa, bunday holda aybdor qilmishida qo‘shimcha modda asosida kvalifikatsiya qilish talab qilinmaydi»¹.

Badanga hayot uchun xavfli bo‘lgan og‘ir shikast yetkazish

Bu badanga shikast yetkazishning eng ko‘p tarqalgan turlaridan biridir. Bunday shikast, odatda, o‘lim bilan tugaydi yoki jabrlanuvchining hayotiga bevosita xavf tug‘diradi.

Biror-bir oqibat yuz berishidan qat‘i nazar, hayot uchun xavfli shikast yetkazilgan paytdan jinoyat tugallangan hisoblanadi va javobgarlik

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2007 йил 27 июндаги «Баданга қасддан шикаст етказишга оид ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 6-сонли қарори, 5-банд, 2-қисм // Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг қарори. – Т.: «Адолат», 2014. – 54-б.

vujudga keladi. Yetkazilgan shikastning nima bilan tugashi jinoyatning kvalifikatsiyasiga ta'sir ko'rsatmaydi.

«Badanga yetkazilgan shikastning og'irlik darajasini aniqlash qoidalari»da badanga yetkaziladigan hayot uchun xavfli shikastning ro'yxati berilgan.

Badanga yetkaziladigan hayot uchun xavfli shikastni kvalifikatsiya qilish uchun bunday jinoyat subyektiv tomonining eng muhim belgilarini e'tiborga olish lozim. Bunday shikast yetkazilishining o'zi (ayniqsa, ko'krak qafasi, qorin, bosh suyagiga hayot uchun xavfli jarohat yetkazish) shundan dalolat beradiki, jinoyatchining jabrlanuvchiga nafaqat og'ir jarohat yetkazishi, balki uning o'lishi mumkinligiga ko'zi yetadi. Badanga hayot uchun xavfli bo'lgan shikast yetkazishni odam o'ldirishga suiqasd qilishdan farqlash lozim.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Qasddan odam o'ldirishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida»gi qarorida: «Qasddan odam o'ldirish jinoyatini jabrlanuvchining o'limiga sabab bo'lgan qasddan badanga og'ir shikast yetkazish jinoyatidan farqlash uchun aybdorning qasdi nimaga qaratilganligini, uning o'z harakatlari oqibati, ya'ni jabrlanuvchining o'limiga nisbatan subyektiv munosabatini inobatga olish darkor.

Qasddan odam o'ldirish jinoyatini sodir etayotganda aybdor shaxsni hayotdan mahrum qilish niyatida harakat qiladi, badanga og'ir shikast yetkazish shaxsning o'limiga sabab bo'lgan hollarda esa, o'limga nisbatan uning aybi ehtiyotsizlik shaklida ifodalanadi.

Aybdorning qasdi nimaga qaratilganligi to'g'risidagi masalani hal etishda qilmishning barcha holatlari majmuidan kelib chiqilishi, xususan, jinoyatni sodir etish usuli va quroli, tan jarohatlari soni, xususiyati va o'рни (masalan, odam hayoti uchun muhim a'zolarining jarohatlanganligi), jinoiy harakatlar to'xtashi sabablari, shuningdek, aybdor va jabrlanuvchining jinoyat sodir etilgunga qadar bo'lgan fe'l-atvori, o'zaro munosabatlari, aybdorning jinoyat sodir etilgandan keyingi harakatlari xususiyati e'tiborga olinishi lozim»¹.

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2004 йил 24 сентябрдаги «Қасддан одам ўлдиришга оид ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 13-сонли қарори, 4-банд // Тўплам, 2-жилд. – 193-б.

Aybdor badanga hayot uchun xavfli bo'lgan og'ir shikast yetkazayotganida jabrlanuvchini o'ldirib qo'yishi mumkinligini nafaqat anglagan va shunday bo'lishi ehtimoli borligini faraz qilgandagina emas, balki shunday oqibat yuz berishini xohlagan, ya'ni boshqa odamni o'ldirishga qaratilgan to'g'ri qasd bilan harakat qilgandagina uning qilmishi o'ldirishga qasd qilish deb kvalifikatsiya qilinishi lozim.

To'g'ri qasd odam o'ldirishga qaratilmagan bo'lsa, qasddan badanga hayot uchun xavfli bo'lgan shikast yetkazish O'zbekiston Respublikasi JK 104-moddasi 1-qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

NOTA BENE !

Sodir etilgan qilmishni **badanga hayot uchun xavfli shikast yetkazish** deb to'g'ri kvalifikatsiya qilish uchun jinoyatning subyektiv tomonini sinchiklab tahlil etish, jinoyat motivining xususiyatini va qasd nimaga qaratilganini aniqlash talab qilinadi.

JK ning subyektiv tomoni to'g'ri qasd bilan ham, egri qasd bilan ham ifodalanadi.

Ko'rish, so'zlash, eshitish qobiliyatini yo'qotish yoxud biron a'zoning ishdan chiqishi yoki uning faoliyati tamoman yo'qolishi

«Qoidalar»ga binoan badanga og'ir shikast yetkazish jumlasiga biror a'zoning ishdan chiqishi yoki uning faoliyati yo'qolishi alomati sifatida qo'l, oyoq funksiyalari, eshitish, so'zlash, nasl qoldirish qobiliyatining ishdan chiqishi yoki tamoman yo'qotilishi kiradi.

Ko'rish qobiliyatini yo'qotish ikkala ko'zning batamom ko'rmay qolishi yoki ko'rish qobiliyatining 2 metr va undan kam masofada barmoq sanarli darajada pasaygan (ko'rish o'tkirligi 0,04 % va past) holati. Bitta ko'zning ko'r bo'lib qolishi ham mehnat qobiliyatini uchdan bir hissa barqaror yo'qotish alomatiga ko'ra og'ir tan jarohatlari jumlasiga kiradi. Ko'rmaydigan ko'zning shikastlanishi uning olib tashlanishini taqozo etsa, qilmish sog'liq yomonlashganining muddati bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi.

So‘zlash qobiliyatini yo‘qotish – jabrlanuvchida o‘z fikrlarini atrofdegilar uchun tushunarli, birikkan tovushlar bilan ifodalash imkoniyati yo‘qligini, shuningdek, so‘zlash qobiliyati odam organizmi-ning bir qismi sifatida yo‘qotilishini bildiradi.

Eshitish qobiliyatini yo‘qotish – to‘la karlik yoki shunday tuzalmas holat, bunda jabrlanuvchi quloq chanog‘idan 3–5 sm masofadagi og‘zaki so‘zlashuvni eshitmaydi. Bitta quloqning kar bo‘lib qolganligini a‘zo faoliyatining yo‘qolgani deb e‘tirof etilmaydi va u umumiy mehnat qobiliyatining 15 % yo‘qotilishiga sabab bo‘lishi bois, o‘rtacha og‘ir tan jarohati deb topiladi.

A‘zoning ishdan chiqishi deganda, odam organizmi-ning hayot faoliyatida faqat o‘zigagina xos bo‘lgan vazifani bajaradigan har qanday, shu jumladan, juft a‘zoning (ichki, tashqi) ishdan chiqishi tushuniladi. Amaldagi qonunga muvofiq, og‘ir tan jarohatining bu turiga: qo‘l va oyoqni yo‘qotish kiradi.

Qo‘l yoki oyoqni yo‘qotish – tanadan uning ajralib ketishi yoki uning o‘z vazifasini bajarish qobiliyatidan mahrum bo‘lishi, bunda jabrlanuvchi shu a‘zosidan foydalanish imkoniyatini batamom yo‘qotadi (oyoq tayanch yoki harakat faoliyatini yo‘qotadi, qo‘l ishlamay qoladi). Qo‘l yoki oyoqni tirsak yoki tizza bo‘g‘imidan past bo‘lmagan darajada kesib tashlash uni yo‘qotish deb hisoblanadi. Qolgan barcha hollar qo‘l yoki oyoqning bir qismini yo‘qotish deb qaraladi va u mehnat qobiliyatining qay darajada yo‘qotilganligiga qarab baholanishi lozim.

Nasl qoldirish qobiliyatini yo‘qotish – jinsiy aloqa qilish qobiliyatini yo‘qotishdan yoki urug‘lanish, homilador bo‘lish va bola tug‘ish qobiliyatini yo‘qotishdan iborat. Shaxsning tashqi jinsiy a‘zolari shikastlanishi oqibatida jinsiy aloqa qilish qobiliyati yo‘qolsa yoxud ayol bachadon, tuxumdon yoki naychalar shikastlanishi oqibatida homilador bo‘lish, homilani normal olib yurish va ko‘zi yorish imkoniyatidan mahrum bo‘lsa, shikast og‘ir deb topiladi. Erkaklarda nasl qoldirish qobiliyatini yo‘qotish urug‘lantirish qobiliyatini yo‘qotishda namoyon bo‘ladi.

Ruhiy kasallikka chalinish

O'zbekiston Respublikasi JK 104-moddasida badanga og'ir shikast yetkazilganlik natijasida ruhiy kasalga chalinish ko'rsatib o'tilgan, bunda jabrlanuvchi, odatda, o'zi qilayotgan harakatining xususiyatini anglash qobiliyatini yo'qotadi va odamlar bilan muloqot qilishdan mahrum bo'ladi.

Ruhiy (psixik) kasallik normal ruhiy faoliyatning buzilishi bo'lib, u shaxsning atrofdagi voqelikni to'g'ri idrok etish va o'z xulq-atvorini nazorat qilish layoqatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Bu idrok, tafakkur, xotira, hissiyot, diqqat-e'tibor, iroda, qiziqish va yurish-turish izdan chiqishida namoyon bo'ladi.

Ruhiy kasallik tashxisi va uning yetkazilgan jarohat bilan bog'liqligi ruhiy-psixiatrik ekspertiza o'tkazib aniqlanadi. Bunday shikastlanishning og'irlik darajasi sud-tibbiyot ekspertining ishtirokida aniqlanadi.

Sog'liq buzilib, umumiy mehnat qobiliyatining 33 % dan kam bo'lmagan qismining doimiy yo'qolishi

Garchi badanga yetkazilgan shikast hayot uchun xavfli bo'lmasa yoki a'zo ishdan chiqmasa-da, jabrlanuvchi umuman sog'liqning buzilishi natijasida mehnat qobiliyatining o'ttiz uch foizidan kam bo'lmagan qismini doimiy yo'qotsa, badanga og'ir shikast yetkazish deb hisoblanadi.

JK 104-moddasida jabrlanuvchiga huquqqa xilof ta'sir etish natijasida umumiy mehnat qobiliyatining yo'qotilishiga alohida e'tibor berilgan. Bunday holatda mehnat qobiliyatining yo'qotilishi barqaror, ya'ni doimiy yoki ma'lum bo'lmagan uzoq muddatga yo'qotilgan bo'lishi lozim.

Tan jarohati natijasida yo'qotilgan umumiy mehnat qobiliyatining foizlarda ifodalangan jadvali orqali obyektiv tomonlarni inobatga olgan holda jarohat oqibati kelib chiqqandan so'ng belgilanadi.

Bolalarda mehnat qobiliyatining yo'qotilishi «Qoidalar»da belgilab qo'yilgan umumiy qoidalardan kelib chiqqan holda, katta yoshli

shaxslarniki singari, nogironlarniki esa nogironligi va uning guruhidan qat'i nazar, amaliy jihatdan sog'lom kishilarniki singari aniqlanadi.

Homilaning tushishi

Homilaning tushishi og'ir tan jarohati jumlasiga kiradi, chunki uning hatto tibbiyot muassasasida tushishi homilador ayolning sog'ligi yoki hayoti uchun xavflidir.

Homila zo'rlik ishlatilishi natijasida tushganida esa bu xavf yanada ortadi. Bundan tashqari, homilaning tushishi natijasida ayol onalikdan mahrum bo'ladi, homila nobud bo'ladi, hayot uziladi, ayol vujudiga og'ir ziyon yetadi. Bunday qilmish tufayli ayolga jiddiy ma'naviy, ruhiy ziyon yetkaziladi va bu hol uning ruhiyatiga salbiy ta'sir qiladi.

Homilaning tushishi, uning muddatidan qat'i nazar, agar bu holat organizmning individual xususiyati bilan bog'liq bo'lmasdan, yetkazilgan zarar bilan bevosita bog'liq bo'lsa, og'ir tan jarohati deb topiladi. Bunday holatda sud-tibbiyot ekspertizasi akusher-ginekolog bilan birgalikda amalga oshiriladi.

Homilaning tushishi nafaqat jismoniy, balki ruhiy zo'rlik ishlatish (hujum tufayli qattiq qo'rqish, cho'chish va hokazo) natijasida ham sodir bo'lishi mumkin. Homiladorlik muddati jinoyatni kvalifikatsiya qilish uchun ahamiyatsizdir.

Oliy sudning rahbariy ko'rsatmalariga muvofiq, homilaning tushishiga olib kelgan qasddan tan jarohati yetkazish faqat aybdor jabrlanuvchining homilador ekanligini bilmagan va unda ayolga tan jarohati yetkazishga qasd mavjud bo'lgan hollarda aybdorning qilmishini JK 104-moddasi 1-qismi bilan kvalifikatsiya qilish lozim. Boshqacha qilib aytganda, aybdor jabrlanuvchining homiladorligini bilmagan holda u tomonidan sodir etilayotgan huquqqa xilof harakatlar (uning jabrlanuvchiga qilgan ta'siri) jabrlanuvchi a'zo yoki to'qimalarining anatomik butunligining buzilishiga yoki ularning fiziologik funksiyasining buzilishiga sabab bo'lishi mumkinligini anglagan va bunga ko'zi yetishi lozim. Aks holda (masalan, tan jarohati yetkazish bilan bog'liq bo'lmagan jabrlanuvchini do'pposlash yoki

boshqa harakatlar) Oliy sud Plenumi qarorida sodir etilgan qilmishni JK 111-moddasi bilan kvalifikatsiya qilish nazarda tutilgan¹.

Badanning tuzalmaydigan darajada xunuklashishi

Aksariyat hollarda yetkazilgan shikast oqibatida badanning tuzalmaydigan darajada xunuklashishi sog'liqqa jiddiy zarar yetkazmasa-da, u odamni juda badbashara, xunuk qilishi natijasida jabrlanuvchi ma'naviy qattiq azob chekadi. Bunday shikast shaxsning jamoat bilan aloqalari uzilib qolishi xavfini tug'diradi. Jabrlanuvchilar tashqi qiyofasidan uyaliq, do'stlari, yaqinlari, qarindoshlari bilan aloqa qilmay qo'yadilar, mehnat va boshqa faoliyatlarini keskin kamaytiradilar, aksariyat holda ishlamay qo'yadilar, spirtli ichimliklarga, giyohvandlikka beriladilar, bundan taskin topganday bo'ladilar va ba'zan daydilik, tilamchilik bilan shug'ullanib, darbadarlikda kun kechira boshlaydilar. Bunday shaxslar ko'pincha jinoyat sodir etadilar.

Badanning tuzalmaydigan darajada xunuklashishi deganda, tananing ayrim qismlari (quloq, burun va lab) olib tashlanishi yoki yuzning notekis bo'lib qolishi, mimikaning buzilishi, yuzda chuqur chandiqlar, tirtiqlar, qaltiroqning paydo bo'lishi va natijada shaxs badani xunuk, jirkanch, yoqimsiz ko'rinish hosil qilishi tushuniladi².

Sud-tibbiy eksperti jarohatning xunukligini aniqlamaydi, chunki mazkur tushuncha tibbiy sohaga oiddir. U faqatgina oddiy belgilardan kelib chiqib tan jarohatining xususiyati va og'irlik darajasini belgilaydi va jarohat tuzalishi mumkinligini aniqlaydi.

NOTA BENE !

Shikastning tuzalishi deganda, vaqt o'tishi bilan yoki tibbiy yo'llar bilan, vositalar ta'sirida yo'qolib ketadigan patologik o'zgarishlar (chandiqlar, tirtikliqlar, mimika buzilishlari va hokazo)ning ancha

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2007 йил 27 июндаги «Баданга қасддан шикаст етказишга оид ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 6-сонли қарори, 7-банд // Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг қарори. – Т.: «Адолат», 2014. – 56-б.

²Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2007 йил 27 июндаги «Баданга қасддан шикаст етказишга оид ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 6-сонли қарори, 6-банд, 1-хатбоши // Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг қарори. – Т.: «Адолат», 2014. – 56-б.

kamayib borishi tushuniladi. Agarda ularni yo‘qotish uchun tezkor aralashuv (kosmetik operatsiya) talab qilinsa, badanga yetkazilgan shikast tuzalmaydigan deb hisoblanadi.

Badanga yetkazilgan shikast badanni xunuklashtirishi yoki xunuklashtirmasligi masalasi sud tomonidan taraflar ishtirokida va shikastning xususiyati, joylashuvi, tuzalmaslik darajasi hisobga olinib va umumiy qabul qilingan estetik tasavvurlar asosida sudning faqat ichki ishonchigagina asoslangan holda hal etiladi. Aynan sud obyektiv ravishda, jabrlanuvchining shikast yetkazilmasdan oldingi va keyingi qiyofasini taqqoslash yo‘li bilan badanning xunuklashganligini aniqlashi kerak¹.

Yuz terisining tuzalmaydigan darajada xunuklashishi masalasi dastlabki tergov va sud muhokamasida hal qilinadi. Agar sud muhokamasida tan jarohati ko‘rib chiqilayotgan belgi bo‘yicha og‘ir deb topilmasa, keyinchalik jabrlanuvchi sog‘ligining muvaffaqiyatsiz amalga oshirilgan jarrohlik va kosmetik operatsiyalar natijasida yomonlashuvi, agarda og‘ir tan jarohatining boshqa belgilari bo‘lmasa qilmishni JK 104-moddasi bo‘yicha kvalifikatsiya qilish uchun asos bo‘la olmaydi.

***Badanga og‘ir shikast yetkazganlik uchun javobgarlikni
og‘irlashtiruvchi holatlar***

JK 104-moddasi 2-qismida quyidagi og‘irlashtiruvchi holatlar:

- a) homiladorligi aybdorga ayon bo‘lgan ayolga nisbatan;
- b) o‘z xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabati bilan shaxsga yoki uning qarindoshlariga nisbatan;
- v) o‘ta shafqatsizlik bilan;
- g) ommaviy tartibsizliklar jarayonida;
- d) tamagirlik niyatida;
- e) bezorilik niyatida;
- j) millatlararo yoki irqiy adovat zamirida;
- z) diniy taassublar zamirida;

¹Ўша жойда.

i) kishi a'zolarini kesib olib, boshqa kishiga ko'chirish (transplantat) maqsadida;

k) bir guruh shaxslar tomonidan qasddan sodir etilgan badanga og'ir shikast yetkazganlik uchun javobgarlik belgilangan.

Ta'kidlash joizki, og'ir tan jarohati yetkazishni kvalifikatsiya qilishning mazkur belgilari (alohida kvalifikatsiya qilinadigan belgilar sifatida) o'z mazmuni va kvalifikatsiyasi xususiyatiga ko'ra yuqorida ko'rib chiqilgan JK 97-moddasi 2-qismi tahlilining belgilariga muvofiq keladi. Shu bilan birga ularning ayrimlari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, mazkur belgilarni qo'llash bo'yicha Oliy sud Plenumi qarorlarining rahbariy ko'rsatmalari mavjud, ularni ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

«Masalan, qilmishni **JK 104-moddasi 2-qismi «a» bandi** bilan kvalifikatsiya qilishda aybdor tomonidan tan jarohatlari yetkazilishiga qadar unga jabrlanuvchining homiladorligi ayon bo'lishi lozim»¹.

So'zsiz, agarda ayolning homiladorligi ancha muddatni tashkil etsa, homiladorlik belgilari ko'rinib turadi, bunda qilmishni kvalifikatsiya qilish qiyin bo'lmaydi. Lekin agar jabrlanuvchining homiladorligi qisqa muddatni tashkil etsa, uning homiladorligi aybdorga ayon bo'lmasa va unda jabrlanuvchiga faqat tan jarohati yetkazish maqsadi bo'lsa, bu holat JK 104-moddasi 1-qismining belgisi hisoblanadi.

Bunday holatda qilmishni JK 104-moddasi 1-qismi «a» bandi bilan kvalifikatsiya qilishda «ayolning homilador ekanligi holati uning badaniga shikast yetkazilgunga qadar aybdorga ma'lum bo'lgan bo'lishi lozim. Bunda qilmishni mazkur belgi bilan kvalifikatsiya qilish uchun homilani tushirishga nisbatan qasd mavjud bo'lishi, aybdorning harakati homilaning tushishiga olib kelmagan hollarda esa, badanga boshqa, tegishlicha, og'ir, o'rtacha og'ir shikast yetkazilgan bo'lishi lozim. Aks holda, harakatlar, kelib chiqqan oqibatlar bo'yicha, Jinoyat kodeksining

¹Ўша жойда, 7-банд.

badanga qasddan shikast yetkazish uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi tegishli moddasi bilan kvalifikatsiya qilinadi»¹.

Mazkur holatda sodir etilgan qilmish kelib chiqqan oqibatni ochgan holda aybdorning qasdi jabrlanuvchining homilasi tushishi mumkinligiga ko'zi yetishi bilan qamrab olinganligini aniqlash lozim (egri qasd). Agar aybdor jabrlanuvchining homilasi tushishiga to'g'ri qasd bilan harakat qilgan bo'lsa, lekin bunday oqibat unga bog'liq bo'lmagan holda kelib chiqmagan bo'lsa, jinoyat oxiriga yetkazilmagan hisoblanib, qilmish JK 25-moddasi 2-qismi va 104-moddasi 2-qismi «a» bandi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

O'z xizmat vazifasi va fuqarolik burchini bajarayotgan shaxsga yoki uning yaqin qarindoshlariga aybdor tomonidan uning o'z xizmat vazifasi yoki fuqarolik burchini bajarishga to'sqinlik qilish maqsadida, shuningdek, bunday vazifani amalga oshirgani uchun undan o'ch olish maqsadida og'ir tan jarohati yetkazilgan bo'lsa, qilmish **JK 104-moddasi 2-qismi «b» bandi** bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

«Fuqarolik burchini bajarish deganda, jumladan, insonning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida mustahkamlangan majburiyatlarni bajarishga qaratilgan har qanday qonuniy faoliyati tushuniladi»².

Og'ir tan jarohati yetkazilgan qilmishni **JK 104-moddasi 2-qismi «v» bandi** bilan, ya'ni o'ta shafqatsizlik bilan sodir etilgandebkvalifikatsiya qilish uchun aybdorda qilmishni jabrlanuvchiga jismoniy yoki ruhiy azob beruvchi usullar orqali amalga oshirish qasdi borligini aniqlash lozim.

Mazkur holatda o'ta shafqatsizlik og'ir tan jarohati yetkazilishiga olib kelgan azoblash va qiynashda namoyon bo'lishi mumkin. «Bunda azoblash deganda, uzoq vaqt ovqat, suv yoki issiqlikdan mahrum qilish kabi xo'rllovchi harakatlar yoxud insonni sog'liq uchun ziyon yetkazuvchi sharoitga solish yoki unda qoldirish va hokazolar

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2007 йил 27 июндаги «Баданга қасддан шикаст етказишга оид ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 6-сонли қарори, 7-банд // Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг қарори. – Т.: «Адолат», 2014. – 56-б.

²Ўша жойда, 8-банд, 2-хатбоши.

tushunilishi lozim. Qiynash deganda, ko‘p marta yoki uzoq vaqt davomida og‘riq yetkazuvchi, jumladan, muttasil do‘pposlash, chimchilash, kesish, o‘tmas yoki o‘tkir-sanchiluvchi (kesuvchi) predmetlar bilan ko‘p sonli, biroq chuqur bo‘lmagan jarohatlar yetkazish, elektr yoki termik omillar orqali ta’sir ko‘rsatish va hokazolar bilan bog‘liq harakatlar tushunilishi lozim»¹.

Shuningdek, xuddi qasddan odam o‘ldirish jinoyati kabi og‘ir tan jarohati yetkazishda ham o‘ta shafqatsizlik jinoyatni jabrlanuvchining yaqin insonlari (yaqin qarindoshlari yoki jabrlanuvchi bilan yaqin do‘stlik munosabatlarida bo‘lgan shaxslar) oldida aybdor o‘z harakatlari bilan ularga azob berayotganligini anglagan holda ham sodir etilishi mumkin.

Yetkazilgan og‘ir tan jarohatining usuli o‘ta shafqatsizlik bilan sodir etilganligi masalasini hal qilish sud-tibbiyot ekspertining emas, balki tergov va sud organlarining vakolatiga kiradi.

Ko‘rib chiqilayotgan jinoyatni **JK 104-moddasi ikkinchi qismining «g» bandi** bilan, ya’ni ommaviy tartibsizliklar jarayonida badanga qasddan og‘ir yoki o‘rtacha og‘ir shikast yetkazish sifatida kvalifikatsiya qilishda shuni inobatga olish lozimki, «agar aybdor tomonidan ommaviy tartibsizliklar jarayonida qasddan badanga og‘ir yoki o‘rtacha og‘ir shikast yetkazishdan tashqari yakson qilish, buzish, o‘t qo‘yish va shu kabi boshqa jinoyatlar sodir qilingan bo‘lsa, uning harakati jinoyatlar majmui bo‘yicha»² JK 104-moddasi ikkinchi qismining «g» bandi va 244-modda bo‘yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim.

«Badanga qasddan tamagirlik niyatida, ayni paytda, bosqinchilik belgilari mavjud bo‘lmagan holda yetkazilgan og‘ir, o‘rtacha og‘ir shikast, tegishlicha **JK 104-moddasi ikkinchi qismining «d» bandi** bilan kvalifikatsiya qilinadi»³.

Agar og‘ir tan jarohati bosqinchilik natijasida yetkazilgan bo‘lsa, qilmishni JK 164-moddasi 3-qismi «g» bandi, og‘ir tan jarohati

¹Ўша жойда, 9-банд, 2-хатбоши. – 56-б.

²Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2007 йил 27 июндаги «Баданга қасддан шикаст етказишга оид ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 6-сонли қарори, 10-банд, 2-хатбоши// Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг қарори. – Т.: «Адолат», 2014. – 57-б.

³Ўша жойда, 11-банд. – 57-б.

yetkazilishi bilan sodir etilgan bosqinchilik sifatida kvalifikatsiya qilish lozim.

Badanga qasddan bezorilik tuygʻusida yetkazilgan ogʻir shikast **JK 104-moddasi ikkinchi qismining «e» bandi** bilan kvalifikatsiya qilinadi va JK 277-moddasi bilan qoʻshimcha kvalifikatsiya qilishni talab etmaydi. «Agar aybdor mazkur jinoyatdan tashqari yana bezorilik jinoyati belgilari mavjud boshqa harakatlarni sodir etgan boʻlsa, qilmish JK 104-moddasi ikkinchi qismining «e» bandi va 277-moddasining tegishli qismida koʻrsatilgan jinoyatlar majmui boʻyicha kvalifikatsiya qilinishi lozim»¹.

«Badanga qasddan yetkazilgan ogʻir, oʻrtacha ogʻir shikastni millatlararo yoki irqiy adovat zamirida yetkazilgan (**JK 104-moddasi 2-qismining «j» bandi, 105-moddasi ikkinchi qismining «j» bandi boʻyicha**) deb kvalifikatsiya qilish uchun aybdor tomonidan bunday harakatlar boshqa motivlarda (masalan, muayyan jabrlanuvchiga nisbatan rashk, oʻch olish, shaxsiy kelishmovchilik munosabati tufayli) emas, balki aynan ushbu badda nazarda tutilgan motivda sodir etilganligi aniqlanishi lozim»².

JK 104-moddasi 2-qismining «z» bandi, 105-moddasi 2-qismining «z» bandi bilan «jabrlanuvchiga nisbatan diniy taassublar zamirida uning diniy eʼtiqodi munosabati bilan, aksariyat hollarda, muayyan diniy konfessiya shaʼni va obroʻsini kamsitish, diniy adovat yoki ixtilof qoʻzgʻatish maqsadida qasddan yetkazilgan, tegishlicha, ogʻir, oʻrtacha ogʻir shikast kvalifikatsiya qilinishi lozim»³.

«Jabrlanuvchi badaniga uning organlari yoki toʻqimalarini qonunsiz olish paytida yetkazilgan ogʻir shikast ham, transplantatsiya maqsadida uni oʻz organlari yoki toʻqimalarini berishga majburlash paytida yetkazilgan ogʻir shikast ham **JK 104-moddasi ikkinchi qismining «i» bandi** bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim. Bunda aybdorning harakatlari

¹Ўша жойда, 12-банд. – 57-б.

²Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2007 йил 27 июндаги «Баданга қасддан шикаст етказишга оид ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 6-сонли қарори, 13-банд // Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг қарори. – Т.: «Адолат», 2014. – 57–58-б.

³Ўша жойда, 14-банд. – 58-б.

natijasida kishi organi yoki to‘qimasi olingan bo‘lishi shart bo‘lmay, unda transplantat olish maqsadi borligi aniqlanishining o‘zi kifoya»¹.

Tirik insonning a‘zo va to‘qimalarini ajratib olish tashqi tomondan qonuniy (masalan, odam buyragidagi o‘simtani olib tashlashni vaj qilib jarrohlik operatsiyasi orqali shaxsning buyragini ajratib olish) va noqonuniy (a‘zo va to‘qimalarini ajratib olish maqsadida o‘g‘irlangan shaxsning a‘zolarini noqonuniy operatsiya orqali ajratib olish) tarzda amalga oshirilishi mumkin.

«Badanga qasddan og‘ir, o‘rtacha og‘ir shikast yetkazgan bir guruh shaxslarning harakatlari, oldindan til biriktirilgan yoki biriktirilmaganligidan qat’i nazar, tegishlicha, **JK 104-moddasi ikkinchi qismining «k» bandi, 105-moddasi ikkinchi qismining «i» bandi** bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim. Bunda badanga qasddan og‘ir, o‘rtacha og‘ir shikast bir guruh shaxslar tomonidan yetkazilgan deb topish uchun ikki va undan ortiq shaxs bunday shikast yetkazish maqsadida birgalikda harakat qilib, uni sodir etishda ham ijrochi sifatida qatnashgan bo‘lishi kerak. Biroq badanga shikast ulardan har biri tomonidan yetkazilgan bo‘lishi shart emas (masalan, guruh ishtirokchilaridan biri jabrlanuvchining qarshiligini bostirsa, ayni paytda boshqasi unga jarohat yetkazadi). Badanga og‘ir, o‘rtacha og‘ir shikast yetkazishga qaratilgan harakatlar bir shaxs tomonidan sodir etilishi jarayonida unga boshqa shaxslar shu maqsadda kelib qo‘shilganda ham bunday jinoyat bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan deb topilishi kerak»².

O‘zbekiston Respublikasi **JK 104-moddasi 3-qismida:**

- 1) ikki yoki undan ortiq shaxsga nisbatan;
- 2) takroran, xavfli retsivist yoki ilgari Jinoyat kodeksining 97-moddasida nazarda tutilgan tarzda qasddan odam o‘ldirgan shaxs tomonidan;
- 3) o‘ta xavfli retsivist tomonidan;
- 4) uyushgan guruh a‘zosi tomonidan yoki shu guruh manfaatlarini ko‘zlab sodir etilgan;

¹Ўша жойда, 15-банд. – 58-б.

²Ўша жойда, 16-банд, 2-хатбоши.

5) jabrlanuvchining o‘limiga sabab bo‘lgan qasddan badanga shikast yetkazganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

«Ikki va undan ortiq shaxs badaniga qasddan yetkazilgan og‘ir shikast, basharti aybdorning harakati yagona qasd bilan qamrab olingan va odatda, uzluksiz bir vaqtning o‘zida yoki juda qisqa vaqt ichida sodir etilgan bo‘lsa, **JK 104-moddasi uchinchi qismining «a» bandi, 105-moddasi ikkinchi qismining «a» bandi** bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim»¹.

JK 104-moddasi 3-qismi «b» bandiga ko‘ra og‘ir tan jarohati qasddan ikki yoki undan ortiq marta, turli vaqtlarda va yagona qasd bilan qamrab olinmagan holda sodir etilgan bo‘lishi lozim.

«Qasddan badanga yetkazilgan og‘ir, o‘rtacha og‘ir shikastni, tegish-licha, takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan sodir etilgan deb kvalifikatsiya qilish uchun aybdor jinoyatning ijrochisi yoki boshqa turdagi ishtirokchisi ekanligi ahamiyat kasb etmaydi. Ayni paytda, shuni nazarda tutish kerakki, aybdor tomonidan muqaddam boshqa jinoyat sodir etilgan bo‘lib, uning tarkibiy qismini qasddan og‘ir, o‘rtacha og‘ir shikast yetkazish tashkil etganligi (masalan, shaxs muqaddam bosqinchilik, terrorizm, bezorilik, harbiy xizmatchilar o‘rtasida o‘zaro munosabatlarga oid ustav qoidalarini buzish va hokazo jinoyatlarni sodir etgan bo‘lsa) **qilmishni JK 104-moddasi uchinchi qismining «b» bandi, 105-moddasi ikkinchi qismining «k» bandi** bilan takroriylik belgisi bo‘yicha kvalifikatsiya qilish uchun asos bo‘lmaydi.

Ishtirokchilikda badanga qasddan og‘ir, o‘rtacha og‘ir shikast yetkazilganda, takroriylik sifatidagi kvalifikatsiya belgisi, faqat ushbu belgiga loyiq aybdorga nisbatan qo‘llanilib, boshqa ishtirokchilarga nisbatan qo‘llanilishi istisno etiladi»².

O‘ta xavfli retsidivist hamda uyushgan guruh a‘zosi tomonidan yoki uning manfaatini ko‘zlab yetkazilgan og‘ir tan jarohatini kvalifikatsiya qilishning o‘ziga xos jihatlarini JK 97-moddasi 2-qismining tahlilida ko‘rishingiz mumkin.

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2007 йил 27 июндаги «Баданга қасддан шикаст етказишга оид ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 6-сонли қарори, 17-банд // Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг қарори. – Т.: «Адолат», 2014.

²Ўша жойда, 18-банд, 4-хатбоши.

Jabrlanuvchining o'limiga sabab bo'lgan qasddan og'ir tan jarohati yetkazish (JK 104-moddasi 3-qismi «d» bandi)da avvalambor, jabrlanuvchiga og'ir tan jarohati yetkazilishi, ya'ni JK 104-moddasi alomatlaridan biri bo'lishi lozim. Jabrlanuvchini urish, do'pposlash, unga yengil tan jarohati yetkazish, ehtiyotsizlik oqibatida uning o'limiga olib kelgan bo'lsa, aybdorning harakatlari JK 102-moddasi (Ehtiyotsizlikdan odam o'ldirish) bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Agar jabrlanuvchiga uning o'limiga sabab bo'lgan o'rtacha og'ir tan jarohati yetkazilgan bo'lsa, aybdor harakatini jinoyatlar jami bo'yicha JK 105-moddasi (Qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazish) va JK 102-moddasi (Ehtiyotsizlikdan odam o'ldirish) bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Qilmishni bunday kvalifikatsiya qilish uchun aybdor mazkur holat bo'yicha sababiy bog'lanishning bunday rivojlanishiga ko'zi yetishi mumkinligi va lozimligi aniqlanishi lozim. Aks holda uning harakati faqat JK 105-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Ko'rib chiqilayotgan jinoyat bilan qasddan odam o'ldirishni bir-biridan ajratishdagi qiyinchilik shu bilan bog'liqki, uning obyektiv tomoni o'z mohiyatiga ko'ra bir xil. Har ikkala holatda ham jabrlanuvchiga og'ir tan jarohati yetkazilib, bir xil oqibat – jabrlanuvchining o'limi kelib chiqadi. Mazkur jinoyatlar qoida tariqasida bir xil usulda va bir xil quroldan foydalangan holda sodir etiladi. Ayrim hollarda qilmish subyektiv tomonining motivi (rashk, bezorilik niyati, o'ch olish va boshq.) ham bir xil bo'lishi mumkin.

Shuningdek, xuddi qasddan odam o'ldirish kabi aybdor harakatini JK 104-moddasi 3-qismi «d» bandi bilan kvalifikatsiya qilish uchun yetkazilgan og'ir tan jarohati hamda kelib chiqqan o'lim o'rtasidagi sababiy bog'lanishni aniqlash lozim.

Mazkur jinoyatni bir-biridan ajratuvchi asosiy omil bu jabrlanuvchining o'limi yuzaga kelgan vaqt emas, balki aybdorning kelib chiqqan oqibatga bo'lgan ruhiy munosabati hisoblanadi.

JK 104-moddasi 3-qismi «d» bandidagi jinoyatning subyektiv tomoni o'ziga xosligi bilan ajralib turadi va yetkazilgan og'ir tan jarohati bilan yuzaga kelgan oqibatda aybdorning aybini alohida aniqlashni talab etadi,

ya'ni bunday holatda aybning murakkab shakli vujudga keladi. JK 104-moddasi 3-qismi «d» bandidagi jinoyat murakkab tarkibli hisoblanadi. Unda bir jinoyat tarkibida ikkita qilmish namoyon bo'ladi – qasddan og'ir tan jarohati yetkazish va qasddan odam o'ldirish. Shu munosabat bilan agar aybdor harakatida og'ir tan jarohati yetkazilishiga to'g'ri yoki egri qasd va jabrlanuvchining o'limiga nisbatan esa aybning ehtiyotsizlik shakli mavjud bo'lsa, uning harakati JK 104-moddasi 3-qismi «d» bandi bo'yicha jabrlanuvchining o'limiga olib kelgan og'ir tan jarohati yetkazish sifatida baholanishi lozim.

Shuni yana bir marotaba ta'kidlash lozimki, jabrlanuvchining o'limiga sabab bo'lgan og'ir tan jarohati yetkazish bilan qasddan odam o'ldirish jinoyatlarining tarkibidagi farq aybdor qasdining mazmuni va uning nimaga qaratilganligida namoyon bo'ladi.

Agar aybdorning qasdi jabrlanuvchini hayotdan mahrum qilishga qaratilgan yoki bunday oqibat kelib chiqishi uning qasdi bilan qamrab olingan bo'lsa, uning harakati JKning odam o'ldirish uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi moddasi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Aybdorning qasdi tarkibi masalasini hal qilishda sudlar barcha holatlar birikmasidan kelib chiqib, xususan, jinoyatning usuli va quoli, tan jarohatining darajasi, xarakteri va ularni bartaraf etish mumkinligi, masalan, hayotiy muhim a'zolarga yetkazilganligi, jinoiy harakatning to'xtatilish sabablari, shuningdek, aybdor va jabrlanuvchining oldingi harakati, jinoyat sodir etilishi oldidan ular o'rtasidagi munosabatlarni inobatga olishi lozim.

Sudlar badanga qasddan yetkazilgan va jabrlanuvchining o'lishiga sabab bo'lgan og'ir shikastni ehtiyotsizlik orqasida odam o'ldirishdan farqlashlari lozim. Bunda shuni e'tiborga olish lozimki, ehtiyotsizlik orqasida odam o'ldirishda aybdorda jabrlanuvchi badaniga og'ir shikast yetkazishga nisbatan ham, uni o'ldirib qo'yishga nisbatan ham qasd bo'lmasligi taqozo etilsa, jabrlanuvchi badaniga uning o'lishiga sabab

bo‘lgan og‘ir shikast yetkazilganda esa, shaxsning qasdi jabrlanuvchiga shunday shikast yetkazishga qaratilgan bo‘ladi»¹.

«O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qaroriga muvofiq «JK 104-moddasi ikkinchi yoki uchinchi qismlari, 105-moddasi ikkinchi qismining ikki va undan ortiq bandlarida nazarda tutilgan kvalifikatsiya belgilari mavjud bo‘lgan holda badanga qasddan og‘ir, o‘rtacha og‘ir shikast yetkazish ushbu bandning barchasi bilan kvalifikatsiya qilinadi. Bunday hollarda jazo bir necha kvalifikatsiya belgisi mavjudligi hisobga olingan holda tayinlanishi lozim.

Aybdorning harakatida JK 104-moddasining ham ikkinchi, ham uchinchi qismlarida nazarda tutilgan kvalifikatsiya belgilari mavjud bo‘lgan hollarda, barcha qilmish JK 104-moddasining uchinchi qismi bo‘yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim bo‘lib, biroq shaxsni jinoyat ishida ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb etish to‘g‘risidagi qarorda va hukmda barcha kvalifikatsiya belgilari ko‘rsatilishi shart»².

Aybdorning harakatini JK 104-moddasi 1-qismidagi bir necha belgilar bo‘yicha kvalifikatsiya qilishda qasddan badanga og‘ir shikast yetkazish (xuddi qasddan odam o‘ldirish singari) kvalifikatsiya belgilari sifatida JK 104-moddasi 2-qismining ikki yoki undan ortiq bandi bilan bir-biri bilan bog‘liq motiv va maqsadni (masalan, tamagirlik va bezorilik niyatlari) nazarda tutgan.

Ko‘rib chiqilayotgan jinoyat turini kvalifikatsiya qilishda Shuningdek, shuni e‘tiborga olish lozimki, «agar aybdor qo‘llagan zo‘rlik jabrlanuvchini do‘pposlash, uning badaniga yengil yoki o‘rtacha og‘ir shikast yetkazishga sabab bo‘lsa, jabrlanuvchi badaniga og‘ir shikast (yoki jabrlanuvchining o‘limi) aybdorning aybi bilan qamrab olinmagan holatlar bo‘yicha (masalan, zarbadan so‘ng yig‘ilish natijasida) kelib chiqqan bo‘lsa, aybdor oqibatiga ko‘zi yetmagan, biroq ko‘zi yetishi shart va mumkin bo‘lgan yoxud ko‘zi yetsada, yetarli asossiz uning oldini olishni mo‘ljallab qilgan harakatlari natijasida kelib chiqqan

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2007 йил 27 июндаги «Баданга қасддан шикаст етказишга оид ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 6-сонли қарори, 20-банд // Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг қарори. – Т.: «Адолат», 2014. – 60-б.

²Ўша жойда, 21-банд, 1 ва 2-хатбошилар. – 60-б.

oqibat JK 111 yoki 102-moddalari bilan kvalifikatsiya qilinadi. Bunday paytda badanga qasddan yetkazilgan shikast alohida yuridik baholanishi lozim. Bunday harakatlarda jinoiy jazoga sazovor qilmish belgilari mavjud bo'lsa javobgarlik jinoyatlar majmui bo'yicha kelib chiqadi»¹.

3-§. Qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazish (JK 105-moddasi)

Mazkur jinoyatning **bevosita obyekti** badaniga o'rtacha og'ir shikast yetkazilgan shaxsning sog'ligi daxlsizligini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Jinoyatning obyektiv tomoni shaxs sog'ligiga zarar yetkazuvchi harakat va harakatsizlikda ifodalanadi.

Aybdorni jinoiy javobgarlikka tortish uchun qilmish va jabrlanuvchi sog'ligiga o'rtacha og'ir shikast yetkazish o'rtasidagi sababiy bog'lanishni aniqlash lozim. Bunda jinoyat obyektiv tomonining zaruriy belgisi jabrlanuvchiga o'rtacha og'ir shikast yetkazilishi hisoblanadi.

o'rtacha og'ir shikast og'ir shikastdan shunisi bilan farqlanadiki, uning yetkazilishi odatda shaxs o'limiga olib kelmaydi.

Bu mazkur tan jarohatining birinchi asosiy belgisi hisoblanadi.

Ikkinchidan, o'rtacha og'ir tan jarohati shaxs sog'ligiga yetarli zarar yetkazishi mumkin, lekin ular og'ir tan jarohatlari singari biron-bir a'zodan ajralish yoki boshqa oqibatlarni keltirib chiqarmaydi.

o'rtacha og'ir tan jarohatining asosiy belgilari quyidagilar hisoblanadi:

- 1) yetkazilayotgan paytda shaxs hayotiga xavfning mavjud emasligi;
- 2) jabrlanuvchi sog'ligining uzoq muddatga yomonlashuvi;
- 3) umumiy mehnat qobiliyatining uchdan biridan kam bo'lgan qismining yo'qotilishi.

NOTA BENE !

Sog'liqning uzoq muddatga yomonlashuvi deb, bevosita yetkazilgan ziyon natijasida yuzaga kelgan va yigirma bir kundan ko'p,

¹Ўша жойда, 22-банд. – 61-б.

ammo to'rt oydan kam bo'lgan muddat davom etgan oqibatlar (kasalliklar, a'zolar faoliyatining buzilishi)ga aytiladi.

Amaliyotda sog'liqning yomonlashuvi qancha davom etganligi mehnatga qobiliyatsizlik varaqasi asosida, ko'pincha esa jabrlanuvchining kasalxonada yotib davolanishi qancha davom etgani haqidagi ma'lumotnoma asosida ham aniqlanadi. Ammo bu unchalik to'g'ri emas, chunki bu hujjatlarda badanga yetkazilgan shikast tufayli sog'liqning yomonlashuvi qancha davom etganligi hamisha ham to'g'ri qayd etilmaydi. Negaki, kasallik varaqasi bilan tasdiqlangan mehnatga qobiliyatsizlikning davom etish muddati hamisha ham yetkazilgan shikast bilan bog'liq bo'lavermaydi va boshqa holatlar: bir vaqtda qo'zg'algan boshqa kasallik, jabrlanuvchining kasbiy xususiyati (oshpaz, qandolatchining qo'lida chaqa joylar borligi va hokazo) bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Aksincha, jabrlanuvchining o'z iltimosiga ko'ra kasallik varaqasi barvaqt yopilib, u to'la sog'aymasdan ishga chiqib ketadigan hollar ham bo'lishi mumkin. Shu sababdan sog'liqning uzoq vaqt yomonlashuviga olib kelgan aybdorning qilmishi JK 105-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinganida, sog'liqning yomonlashuv muddati O'zbekiston Respublikasi JPK 173-moddasiga muvofiq sud-tibbiyot ekspertizasi xulosasi asosida aniqlanishi lozim.

NOTA BENE !

Umumiy mehnat qobiliyatining uchdan bir qismidan kam qismining yo'qotilishi deganda, 10 % dan 33 % gacha yo'qotilishi tushuniladi.

Mehnat qobiliyatining yo'qotilgan foizi sog'liqqa yetkazilgan ziyon natijasida kelib chiqqan oqibat aniqlanganda (masalan, mayda suyaklarning sinishi, a'zolarining chiqishi, qovurg'alarning sinishi, o'rtacha og'irlikdagi miya chayqalishi va boshq.) sud-tibbiyot ekspertizasi tomonidan aniqlanadi.

JK 105-moddasida nazarda tutilgan jinoyat subyektiv tomondan to'g'ri va egri qasd bilan sodir etiladi.

O'zbekiston Respublikasi JK 105-moddasi 2-qismida javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlarda badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

(Mazkur kvalifikatsiya belgilari haqida to'liq ma'lumotni JK 104-moddasi 2- va 3-qismining tahlilida ko'rishingiz mumkin.)

4-§.Yengillashtiruvchi holatlarda badanga shikast yetkazganlik uchun javobgarlik

Yengillashtiruvchi holatlarda sodir etilgan badanga shikast yetkazish jumlasiga kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan badanga og'ir yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazish (**JK 106-moddasi**); zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib, qasddan badanga og'ir shikast yetkazish (**JK 107-moddasi**); ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlab turish zarur choralarini chegarasidan chetga chiqib, badanga qasddan og'ir shikast yetkazish (**JK 108-moddasi**) kiradi.

Mazkur jinoyat tarkibini ochishda yengillashtiruvchi holatlarda odam o'ldirish bilan bog'liq qoidalarga asoslanish lozim.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi tushuntirishlariga muvofiq, qilmishni baholashda yana shuni e'tiborga olish lozimki, «kuchli ruhiy hayajonlanish holatida, zaruriy mudofaa yoki ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlab turish choralarini chegarasidan chetga chiqib, badanga qasddan og'ir yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazish, hatto JK 104-moddasi uchinchi qismida ko'rsatilgan aybni og'irlashtiruvchi belgilar mavjud bo'lgan taqdirda ham tegishli JK 104, 105-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinishi mumkin emas. Bunday harakatlar, jumladan, ular ehtiyotsizlik orqasida o'limga sabab bo'lgan holda ham, tegishli JK 106, 107, 108-moddalari bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim»¹.

¹Каранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2007 йил 27 июндаги «Баданга қасддан шикаст етказишга оид ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 6-сонли қарори, 23-банд // Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг қарори. – Т.: «Адолат», 2014. – 61-б.

5-§. Qasddan badanga yengil shikast yetkazish (JK 109-moddasi)

Mazkur jinoyatning **obyekti** yengil tan jarohati yetkazilgan shaxsning sogʻligi hisoblanadi.

Obyektiv tomondan jinoyat shaxs sogʻligiga yengil shikast yetkazuvchi harakat yoki harakatsizlik orqali sodir etiladi.

Shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish uchun aybdorning qilmishi va yetkazilgan yengil tan jarohati oʻrtasidagi sababiy bogʻlanishni aniqlash lozim.

Jinoyat kodeksi 109-moddasida:

1) badanga sogʻliqning qisqa muddatli yomonlashuviga yoki mehnat qobiliyatining uncha uzoq boʻlmagan muddatga yoʻqolishiga olib kelmagan yengil shikast yetkazish;

2) badanga sogʻliqning qisqa vaqt, yaʼni olti kundan ortiq, ammo yigirma bir kundan koʻp boʻlmagan muddatga yomonlashuviga yoki mehnat qobiliyatining uncha uzoq boʻlmagan muddatga yoʻqotilishiga sabab boʻlgan yengil shikast yetkazish uchun javobgarlik belgilangan.

Sogʻliqning qisqa muddatga yomonlashuviga olib kelgan yengil tan jarohati jumlasiga sogʻliqning olti kundan ortiq, ammo yigirma bir kundan koʻp boʻlmagan muddatga yomonlashuvi kiradi. Mehnat qobiliyatining uncha uzoq boʻlmagan muddatga yoʻqotilishi deganda esa umumiy mehnat qobiliyatining 10 % gacha yoʻqotilishi tushuniladi.

NOTA BENE !

Sogʻliqning qisqa muddatga yomonlashuviga yoki mehnat qobiliyatining uncha uzoq boʻlmagan muddatga yoʻqolishiga olib kelmagan **yengil tan jarohati** jumlasiga, tez oʻtib ketadigan, oqibati ogʻir boʻlmagan, olti kundan uzoq davom etmagan shikastlar kiradi (lat eyish, tiralish, shilinish, uncha katta boʻlmagan Qurra va boshqalar).

Qilmishni JK 109-moddasi 1-qismi bilan kvalifikatsiya qilishda «badanga qasddan, sogʻliqning qisqa muddatga yomonlashuviga yoki mehnat qobiliyatining uncha uzoq boʻlmagan muddatga yoʻqolishiga

sabab bo‘lmagan darajada yengil shikast yetkazganlik uchun ma‘muriy javobgarlik belgilanganligini va mazkur qilmish uchun jinoiy javobgarlik, faqat u shunday qilmish uchun shaxsga nisbatan ma‘muriy jazo qo‘llash to‘g‘risidagi qaror kuchga kirgan kundan boshlab bir yil ichida takroran sodir etilgan (JK 109-moddasining birinchi qismi) holdagina kelib chiqadi»¹.

NOTA BENE !

Sog‘liqning qisqa muddatga yomonlashuvi deganda, sog‘liqning 6 kundan ortiq, ammo 21 kundan ko‘p bo‘lmagan muddatga yomonlashuvi yoki umumiy mehnat qobiliyatining 10 % gacha yo‘qotilishi tushuniladi.

Ko‘rib chiqilayotgan jinoyatning subyektiv tomoni aybning qasd shakli bilan xarakterlanadi. JK 109-moddasidagi jinoyatni sog‘liqning buzilishi yoki mehnat qobiliyatining yo‘qotilishidan qat’i nazar, o‘z tarkibiga yengil tan jarohatini qamrab oluvchi bezorilik (JK 277-moddasi)dan ajratish lozim. Bunday ajratish aybdor qasdining mazmuni va nimaga qaratilganligi, u tomondan sodir etilgan harakatning motivi, maqsadi va shu holatlardan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Xususan, 109-moddadagi jinoyatning motivi rashk, o‘ch olish, yoqtirmaslik va boshqalar bo‘lishi mumkin. JK 27-moddasidagi jinoyatning motivi esa o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan bezorilik hisoblanadi.

JK 109-moddasini to‘g‘ri qo‘llashda yengil tan jarohati yetkazishni urish, do‘pposlash, qiynashdan farqlashi talab etiladi.

«Qoidalar»da badanga yetkazilgan shikastlar (tan jarohatlari)ning mohiyati ta’riflanar ekan, uning asosiy belgisi tana a’zolari va to‘qimalarning anatomik bus-butunligi yoki fiziologik faoliyatining buzilishi ekanligi ko‘rsatib o‘tiladi. Ulardan farqli ravishda urish va

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2007 йил 27 июндаги «Баданга қасддан шикаст етказишга оид ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 6-сонли қарори, 24-банд, 2-хатбоши // Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг қарори. – Т.: «Адолат», 2014. – 61–62-б.

do'pposlash ko'rsatib o'tilgan oqibatlariga sabab bo'lmaydi, jismoniy og'riq yetkazadi xolos.

Biroq agar do'pposlash jabrlanuvchining nafaqat qisqa muddatli og'riqiga, balki sog'ligining yomonlashuviga sabab bo'lgan bo'lsa, to'qimalar anatomik bus-butunligi buzilmagan bo'lsa ham, sog'liqning buzilishi har qanday a'zo funksiyasining buzilganligidan dalolat beradi va qilmish badanga shikast yetkazish tariqasida kvalifikatsiya qilinmog'i lozim.

JK 109-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan, do'pposlash, jismoniy og'riq beruvchi, ammo sog'liqning yomonlashuviga sabab bo'lmagan boshqa zo'rlik harakatini jismoniy azob bermaydigan, lekin shaxsga ma'naviy ziyon yetkazadigan harakat – haqorat qilish (JK 140-moddasi 1-qismi)dan farqlash kerak bo'ladi. Bular jumlasiga, masalan, shaxsning qadr-qimmatini kamsitadigan, ammo aytarli jismoniy og'riq bermaydigan shapaloq urish, yuzga tupurish, ayol badaniga hayosizlarcha tegish, kiyimni kuch ishlatib yulib olish kabilar kiradi.

6-§. Qiynash (JK 110-moddasi)

Qiynashning **bevosita obyekt** jabrlanuvchining sog'ligi yoki jismoniy daxlsizligi hisoblanadi.

Obyektiv tomondan jinoyat muttasil ravishda do'pposlashda yoki boshqacha harakatlar bilan qiynashda ifodalanadi, bunda Jinoyat kodeksi 104-, 105-moddalarida nazarda tutilgan oqibatlar kelib chiqmagan bo'lishi kerak.

NOTA BENE !

Qiynash – ko'p marotaba yoki uzoq vaqt davomida og'riq yetkazish bilan bog'liq harakatlar, chimchilash, savalash, to'mtoq yoki o'tkir uchli narsalar bilan ko'plab, ammo uncha katta bo'lmagan shikastlar yetkazish, qizdirilgan buyumlar bilan ta'sir ko'rsatish yoki boshqa shunga o'xshash harakatlardir. Qiynash jabrlanuvchiga og'ir jismoniy va ruhiy azob, og'riq, aziyat beradi.

Shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish uchun aybdor harakatida va jabrlanuvchiga yetkazilgan jismoniy va ruhiy azob o'rtasidagi sababiy bog'lanish aniqlanishi lozim.

Do'pposlash jabrlanuvchi badaniga ko'p marotaba zarbalar berish, uni urish bilan xarakterlanadi.

Qiydash sifatida baholanadigan boshqa harakatlar deganda, sanab o'tilganlardan tashqari uyqudan, ovqatdan, suvdan mahrum qilish, sovuq joyda saqlash, bog'lash, tishlash va boshqalarni tushunish lozim.

Qiydashda muttasillik jinoyat huquqi va jinoyat-protsessual huquqi kabi jinoyatni uch karra va bundan ortiq marta sodir etishdan iborat bo'lib, bu harakatning doimiyligidan, takroriyligidan dalolat beradi. Shuni ta'kidlash kerakki, muttasillik shunchaki ayni bitta jinoiy qilmish takrorlanishinigina emas, balki uning harakatlarida muayyan umumiy reja namoyon bo'lishini yoki aybdorning muayyan jinoiy ko'nikmalari mustahkamlanib borishini kuzatish mumkin bo'lgan bir qator harakatlarning mavjud bo'lishini nazarda tutadi – uning bir necha bor takrorlangan jinoiy qilmishlari bir-biri bilan bog'liq bo'lishi kerak.

«Aybdorning harakatlarini JK 110-moddasi bilan kvalifikatsiya qilish uchun do'pposlash yoki qiydash xususiyatiga ega bo'lgan boshqa harakatlar qasddan, muttasil, ya'ni jabrlanuvchiga jismoniy yoki ruhiy azob berish maqsadida yagona qasd bilan qamrab olingan va kamida uch marta sodir etilganligi aniqlanishi lozim»¹.

Boshqacha qilib aytganda, qiydashda qiydashni o'zida ifodalovchi do'pposlash va boshqa harakatlar aybdorning yagona qasdi bilan qamrab olingan va jabrlanuvchiga muttasil jismoniy va (yoki) ruhiy, psixologik azob berish maqsadida sodir etilgan bo'lishi lozim. Aks holda jabrlanuvchiga yetkazilgan zarar, agar boshqa jinoyat tarkibini tashkil etmasa, alohida modda bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi.

Shu tariqa, qasddan badanga yengil shikast yetkazish, muttasil ravishda do'pposlash, boshqa zo'ravonlik harakatlarini qilish qiydash

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2007 йил 27 июндаги «Баданга қасддан шикаст етказишга оид ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 6-сонли қарори, 25-банд, 1-хатбоши // Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг қарори. – Т.: «Адолат», 2014. – 62-б.

usulining mavjudligi tahlil qilinayotgan jinoyat obyektiv tomonining tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi.

Qiynashni sodir etishda aybdor aynan shunday usulni ongli ravishda tanlaydiki, bunda u o‘zi xohlagan oqibatlarga – jabrlanuvchiga juda qattiq og‘riq yetkazishga yoki uni azob-uqubatga solishga erishadi. Do‘pposlash va shikast yetkazishlarning usuli, vositasi muayyan doiradan chetga chiqmasligi, ularning xususiyati – bularning barchasi aybdorning niyati o‘z qurboniga o‘ziga xos jismoniy og‘riq yetkazishga yoki uni azob-uqubatga solishga qaratilganligidan dalolat beradi. Yuqoridagi aytilgan fikrlar qiynash muttasil ravishda ham, bir martalik ham sodir etilishi mumkin deb xulosa qilish imkonini beradi.

Shu tariqa «qiynash» tushunchasi muttasil do‘pposlashlar, jabrlanuvchiga qattiq qiynoq, jismoniy og‘riq va azob beradigan bir necha martalik yoki bir martalik harakatlardan iboratdir. Qiynash natijasida badanga yengil shikast yetkazilishi yoki yetkazilmasligi mumkin. Agar bunday shikastlar yetkazilgan bo‘lsa, qilmish JK 110-moddasi bilan qamrab olinadi va qo‘shimcha kvalifikatsiyani talab qilmaydi. Agar qiynash natijasida badanga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazilgan bo‘lsa, jinoyat JK 104-moddasi yoki 105-moddasining tegishli bandi bilan kvalifikatsiya qilinishi kerak¹.

Jinoyat do‘pposlash yoki boshqacha harakatlar bilan qiynash muttasil ravishda sodir etilgan paytdan e‘tiboran tamom bo‘lgan deb topiladi.

Subyektiv tomondan jinoyat qasddan sodir etiladi. Qilmishning motivi va maqsadi jinoyatni kvalifikatsiya qilish uchun ahamiyatsizdir.

Ushbu **jinoyatning subyeksi** 16 yoshga to‘lgan har qanday shaxs bo‘ladi.

Ko‘rib chiqilayotgan moddaning **2-qismida**:

- 1) Voyaga yetmagan shaxsga nisbatan;
- 2) homiladorligi aybdorga ayon bo‘lgan ayolga nisbatan;
- 3) ojiz ahvoldagi aybdorga ayon bo‘lgan shaxsga nisbatan sodir etilgan qiynash uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

¹Ўша жойда, 25-банд 2 ва 3-хатбошилари. – 62-б.

Aybdorning qilmishini JK 110-moddasi 2-qismi bilan kvalifikatsiya qilishda aybdor qiynashni sodir etishidan oldin ayolning homiladorligini bilganligini aniqlash zarur. Homiladorlik muddatlari jinoyatni kvalifikatsiya qilish uchun ahamiyatga ega emas. Ojiz ahvoldagi shaxsni qiynagan shaxsni javobgar deb topish uchun aybdor jabrlanuvchining ojiz ahvodaligini aniq bilgan yoki bilmaganligini aniqlash lozimdir.

7-§. Ehtiyotsizlik orqasidan badanga og‘ir yoki o‘rtacha og‘ir shikast yetkazish (JK 111-moddasi)

Obyektiv tomondan jinoyat ehtiyotsizlik orqasidan badanga og‘ir (JK 111-moddasi 1-qismi) yoki o‘rtacha og‘ir (JK 111-moddasi 2-qismi) shikast yetkazishda ifodalanadi.

Subyektiv tomondan jinoyat ehtiyotsizlikdan, jinoiy o‘z-o‘ziga ishonish yoki beparvolik oqibatida sodir etiladi.

Aybdor harakatlari qasddan sodir etilganda va buning natijasida jabrlanuvchiga JK 104-moddasi 1-qismi yoki 105-moddasidagi tan jarohatlari yetkazilsa, aybdorning esa ularga ko‘zi yetmasa, lekin ko‘zi yetishi lozim va mumkin bo‘lsa, uning harakatlari JK 111-moddasining tegishli qismi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

NOTA BENE !

Ehtiyotsizlikdan yengil tan jarohati yetkazish jinoiy javobgarlikni keltirib chiqarmaydi.

Ehtiyotsizlik orqasidan ikki yoki undan ortiq shaxs badaniga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazish JK 111-moddasi 3-qismiga asosan javobgarlikni keltirib chiqaradi.

Agar ehtiyotsizlik orqasidan badanga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazilsa va bu JKning tegishli moddalarida berilgan maxsus qoidalarini buzish oqibatida yuz bergan bo‘lsa, qilmish tegishli moddalar bo‘yicha kvalifikatsiya qilinadi (masalan, harakat xavfsizligi qoidalari, mehnat xavfsizligi, tog‘-kon, qurilish yoki yong‘inga xavfli

ishlarning xavfsizlik qoidalari, sanitariya-epidemiologik normativlar va boshq.)

Jabrlanuvchining o'limiga sabab bo'lgan ehtiyotsizlik orqasida badanga shikast yetkazish JK 102-moddasiga asosan kvalifikatsiya qilinadi. Shu bilan birga bir shaxsga ehtiyotsizlik orqasida o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazish va shu vaqtning o'zida ehtiyotsizlik orqasida odam o'ldirish JK 102- va 111-moddalari bo'yicha jinoyatlar jami tariqasida javobgarlikni keltirib chiqaradi.

«Sog'liqqa qarshi jinoyatlar» mavzusi bo'yicha yakuniy savollar

1. Tan jarohatlarining belgilarini sanab o'ting.
2. Tan jarohatlarining og'irlik darajasini aniqlash mezonlari qaysilar hisoblanadi?
3. Qasddan badanga og'ir shikast yetkazish tushunchasiga ta'rif bering.
4. Badanga og'ir shikast yetkazishning har bir belgilarini sanab o'ting. Mazkur qilmishning og'irlashtiruvchi holatlari qaysilar hisoblanadi?
5. Homiladorligi aybdorga ayon bo'lgan ayolning badaniga og'ir shikast yetkazishni kvalifikatsiya qilishning o'ziga xos xususiyatlariga nimalar kiradi?
6. Jabrlanuvchining o'limiga sabab bo'lgan qasddan badanga og'ir shikast yetkazishning qasddan odam o'ldirish va ehtiyotsizlik orqasida odam o'ldirishdan farqi nimada?
7. Badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazishning belgilarini sanab o'ting.
8. Badanga og'ir shikast yetkazish va badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazishning og'irlashtiruvchi holatlari uchun javobgarlik o'rtasidagi umumiy o'xshash tomonlari va farqlari nimada namoyon bo'ladi?
9. Yengillashtiruvchi holatlarda tan jarohatlari yetkazganlik uchun javobgarlikning o'ziga xos xususiyatlari nimada namoyon bo'ladi?

10. Qasddan badanga yengil shikast yetkazishning turlarini sanab o‘ting.

11. Yengil tan jarohatlarini kvalifikatsiya qilish belgilarining og‘ir yoki o‘rtacha og‘ir tan jarohatlarini kvalifikatsiya qilish belgilaridan farqi bormi?

12. Qiynashning asosiy belgilari nimalarda namoyon bo‘ladi?

13. Qiynashning takroran sodir etilgan badanga og‘ir yoki o‘rtacha og‘ir tan jarohatlari yetkazishdan farqi nimada namoyon bo‘ladi?

14. Aybdor harakatlarini JK 111-moddasi (Ehtiyotsizlik orqasida badanga og‘ir yoki o‘rtacha og‘ir shikast yetkazish) bilan kvalifikatsiya qilishning o‘ziga xos jihatlari nimalarda namoyon bo‘ladi?

Qo‘shimcha adabiyotlar

O‘quv qo‘llanma, maxsus adabiyotlar

Андреева Л.А., Константинов П.Ю. Влияние жестокости преступного поведения на уголовную ответственность. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2002. – 207 Б.

Зубкова В.И. Ответственность за преступления против личности по законодательству России. – М.: «Норма», 2005. – 256 Б.

Нерсисян В.А. Ответственность за неосторожные преступления.– СПб.: «Юридический центр Пресс», 2002. – 240 Б.

Побегайло Э.Ф. Преступления против жизни и здоровья. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2001. – 460 Б.

Попов А.Н. Преступления против личности при смягчающих обстоятельствах. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2001. – 465 Б.

Рустамбаев М.Х. Ответственность за преступления против здоровья по законодательству Республики Узбекистан. – Нукус: «Каракалпакстан», 1992. – 288 Б.

Рустамбаев М.Х. Преступления против личности. Учебное пособие. – Т.: «Эльдинур», 1998. – 181 Б.

Рустамбаев М.Х. Система норм об ответственности за преступления против здоровья в новом УК УзССР. Вопросы судебной экспертизы.– Т.: 1990. – 111 Б.

Рустамбаев М.Х. Социально-правовая обусловленность и уголовно-правовые средства охраны здоровья и телесной неприкосновенности граждан. Автореф. дисс. докт. юрид. наук. – Т.: 1993.

Тяжкова И.М. Неосторожные преступления. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2002. – 278 Б.

Шарапов Р.Д. Физическое насилие в уголовном праве. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2001. – 298 Б.

Ilmiy maqolalar

Абельцев С. Мотивация особо тяжких преступлений против личности. // Ж. Российская юстиция. 1998. № 11. – 29–30-б.

Адельханян Р. Субъективная сторона особо тяжкого преступления против здоровья (ч.4 ст.111 УК РФ) // Ж. Уголовное право. 2000. № 1. – 3–6-б.

Портнов И.П. Истязания (криминологический и уголовно-правовой аспекты) // Насильственные преступления: природа, расследование, предупреждение. Сборник научных трудов. – М.: 1994.

Рустамбаев М.Х. Значение последствий для квалификации телесных повреждений // Актуальные проблемы судебной экспертизы. – Т.: 1989. – 93–96-б.

Рустамбаев М.Х. К вопросу совершенствования законодательства об ответственности за легкие телесные повреждения // Совершенствование мер борьбы с преступностью и её профилактика. Сборник научных трудов. – Т.: ТашГУ. – 1988. – 36–40-б.

Рустамбаев М.Х. Квалификация телесных повреждений, причиненных при превышении пределов необходимой обороны // Ж. Бюллетень Верховного суда Республики Узбекистан. 1992. № 3. – 20–24-б.

Рустамбаев М.Х. Некоторые особенности квалификации тяжких телесных повреждений // Ж. Бюллетень Верховного суда Республики Узбекистан. 1993. № 2.

Рустамбаев М. Х. Объект и потерпевший в посягательстве на здоровье личности // Ж. Судебная экспертиза и вопросы борьбы с преступностью. 1991. № 1. – 48-51 б.

Рустамбаев М.Х. О квалификации телесных повреждений в законодательстве Республики Узбекистан // Ж. Общественные науки в Узбекистане. 1993. № 1.

Рустамбаев М.Х. Ответственность за преступление против здоровья по законодательству Республики Узбекистан. – Нукус: «Каракалпакстан», 1992.

Рустамбаев М.Х. Ответственность спортсменов за причинение вреда здоровью при проведении спортивных мероприятия. // Проблемы физического и нравственного воспитания здорового поколения студентов. – Т.: «Адолат», 1995.

Рустамбаев М.Х., Пайзуллаев К. Особенности добровольного отказа в насильственных преступлениях против личности // Конституция – ҳуқуқий давлат уришининг асоси. Тез. докл. конф. – Т.: «Адолат», — 1996. – 28–32-б.

Рустамбаев М.Х. Под охраной – здоровье спортсмена // Ишонч – Доверие. – 4 февраля. – 1994.


Рустамбаев М.Х. Специальные виды телесных повреждений в законодательстве Республики Узбекистан // Сборник научных трудов. –

Т.: «Адолат», 1993. – 0,5 я.в.

Рустамбаев М.Х. Спортивный турнир с уголовным финалом //– Правда Востока. – 21 января. – 1995.

IV BOB. HAYOT YOKI SOG‘LIQ UCHUN XAVFLI JINOYATLAR

6-sxema



Ushbu bobdagi moddalar mazmuni bilan tanishish shunday xulosa chiqarish imkonini beradiki, ularning barchasida hayot yoki sog‘liq uchun chinakam xavf tug‘diruvchi, sodir etilganidan keyin zarar yuz berishining oldini olish aybdorning o‘ziga bog‘liq bo‘lmagan qilmishlar uchun javobgarlik nazarda tutiladi.

1-§. O‘ldirish yoki zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqitish (JK 112-moddasi)

Mazkur jinoyatning **bevosita obyekti** shaxsning hayoti va sog‘ligi daxlsizligini kafolatlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Obyektiv tomondan JK 112-moddasida nazarda tutilgan jinoyat o‘ldirish yoki zo‘rlik ishlatishda ifodalanadi. Ko‘rib chiqilayotgan jinoyat obyektiv tomonining zaruriy belgilari quyidagilar hisoblanadi:

- 1) qo‘rqitishni aytish;
- 2) qo‘rqitishni amalga oshirilishidan xavfsirash uchun yetarli asoslarning mavjudligi (qo‘rqitishni amalga oshirishning realligi);
- 3) jabrlanuvchida qo‘rqitish amalga oshirilganda uning hayoti va sog‘ligiga ziyon yetkazilishi mumkinligidan xavfsirashning paydo bo‘lishi (qo‘rqitishning haqiqiyliги).

Qo‘rqitishni aytish – bu qo‘rqitishni jabrlanuvchiga yetkazish, ya’ni jabrlanuvchining harakatlarini qo‘rqitayotgan shaxs manfaati yo‘lida o‘zgartirish yoki o‘ch olish maqsadida jabrlanuvchiga ruhiy ta’sir ko‘rsatishning alohida shakli hisoblanadi.

Qo‘rqitish deganda, obyektiv haqiqatni shaxsan jabrlanuvchiga yoki uchinchi shaxslar orqali (og‘zaki, yozma tarzda, qurolni ko‘rsatish orqali va boshq.) huquqqa xilof harakatlarni sodir etish maqsadi borligini yetkazish tushuniladi.

JK 112-moddasi 1-qismida qo‘rqitishning ikkita turi nazarda tutilgan – o‘ldirish bilan qo‘rqitish va zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqitishdir.

NOTA BENE !

O‘ldirish bilan qo‘rqitish deganda, boshqa kishini o‘ldirish niyati borligi haqida xabardor qilishni tushunmoq lozim.

NOTA BENE !

Zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqitish deganda, aybdorda jabrlanuvchining sog‘ligiga shikast yetkazish niyati borligi tushunilmog‘i lozim.

112-modda matnida qanday zo‘rlik ishlatish haqida gap borayotganligi aytilmagan. Shu sababdan JK 112-moddasida har qanday ruhiy yoki jinoiy zo‘rlik ishlatish uchun javobgarlik belgilangan, deb tushunish lozim bo‘ladi.

NOTA BENE !

Jismoniy zo‘rlik ishlatish – odam organizmiga uning ra’yiga xilof ravishda tashqi muhit omillari bilan g‘ayriqonuniy ta’sir ko‘rsatishdir.

Jismoniy zo‘rlik jumlasiga badanga har qanday darajadagi: og‘ir, o‘rtacha og‘ir yoki yengil shikast yetkazish kiradi. Ammo, umuman olganda, zo‘rlik bilan qo‘rqitish jismoniy daxlsizlikka har qanday zo‘ravonlik tajovuzini sodir etish yuzasidan bildirilgan niyatni ham

qamrab oladi, chunonchi, do'pposlash yoki boshqacha harakatlarni bilan qiynash bilan qo'rqitishni qamrab oladi (JK 110-moddasi).

Qo'rqitish mustaqil jinoyat sifatida bir qator shartlarga javob berishi kerak: xususan, u obyektiv jihatdan real bo'lishi, ya'ni umuman olganda yaqin vaqt ichida amalga oshirilishi lozim.

Qo'rqitishni amalga oshirishning realligi, barcha ish holatlarini tahlil qilish va baholash orqali aniqlanadi: aybdor shaxsi (hayot yoki sog'liqqa qarshi jinoyatlar uchun sudlanganlik holatining mavjudligi); jabrlanuvchi bilan ular o'rtasidagi munosabat; qo'rqitishni yetkazishning joyi, vaqti, holatlari va usullari; aybdorda jabrlanuvchini o'ldirish yoki uning sog'ligiga ziyon yetkazish vositasi bo'lishi mumkin bo'lgan qurolning mavjudligi.

Amalga oshirilishi mumkin bo'lmagan yoki ro'yobga chiqarilishi faraz qilingan holatlar yuz berishini taqozo etadigan qo'rqitishni real deb topish mumkin emas. Masalan, odamni uning borish niyatida bo'lmagan u yoki bu shaharda, qishloqda paydo bo'lsa o'ldirish bilan qo'rqitish. Shuningdek, hali umuman turmushga chiqish niyatida bo'lmagan ayolni bo'lg'usi erini o'ldirish bilan qo'rqitish ham real emas.

Qo'rqitish aniq bo'lishi kerak, ya'ni jabrlanuvchiga muayyan zarar yetkazish niyatini ichiga olgan bo'lishi kerak. Bunda qo'rqitishning aniqlik darajasi turlicha bo'lishi mumkin: aybdor jabrlanuvchini o'ldirish yoki uning sog'ligiga ziyon yetkazishning usuli, quroli haqida aytmasligi mumkin, lekin jabrlanuvchida kuchli qo'rquv hosil qilish maqsadida aybdor unga o'ldirishni qanday usul va qurollardan foydalanib amalga oshirishi, bo'lajak qiynoqlar, azoblar va boshqalar haqida ma'lumot berishi mumkin.

«Ovozingni o'chir, aks holda yomon bo'ladi», «afsuslanasan», «ko'radiganingni ko'rasan», «meni uzoq eslab qolasan» singari noaniq tusdagi qo'rqitishlar javobgarlikni keltirib chiqarishi mumkin emas, chunki ular aniq bir zarar yetkazish niyatini o'z ichiga olmaydi. Albatta, bu aybdor jabrlanuvchiga qanday zarar yetkazmoqchi bo'lganini, ya'ni ko'zini o'yib olish, yuzini dabdala qilish, bichib qo'yish kabi shikast yetkazmoqchiligini mutlaqo aniq aytishi kerakligini bildirmaydi. Odatda, qo'rqitish unchalik aniq ma'lumotlarni o'z ichiga olmaydi.

Ammo, nima bo'lganda ham, agar so'z o'ldirish bilan qo'rqitish haqida borayotgan bo'lsa, odamni o'ldirishga bo'lgan muayyan niyat ifodalangan bo'lishi kerak.

Jinoiy jazoga loyiq qo'rqitish aniq bir shaxsga qaratilgan bo'lishi lozim. «Hammangni so'yaman», «hammangni o'ldiraman» kabi umumiy tusdagi, biron-bir kishiga aniq qaratilmagan qo'rqitishlar shaxsni JK 112-moddasi bilan javobgarlikka tortish uchun asos bo'la olmaydi.

Qo'rqitishning zaruriy belgisi uning **haqiqiyligidir**.

JK 112-moddasi matnida qo'rqitishning haqiqiyliги uning amalga oshirilishidan xavfsirash uchun asoslar mavjud bo'lishi tariqasida ochib beriladi. Jabrlanuvchiga amalga oshirilishidan xavfsirash uchun asoslar beradigan sifatlarga ega bo'lgan qo'rqitish haqiqiy deb topilmog'i lozim. Jabrlanuvchida qo'rqitishning amalga oshirilishidan xavfsirash uchun asoslar bo'lgan yoki yo'qmidi degan masalani hal qilishda aybdor aytgan so'zlarning mazmunini, qo'rqitishga sabab bo'lgan mojaroning jiddiyligini, keskinligini, qo'rqituvchi va qo'rqitiluvchi o'rtasida vujudga kelgan munosabatlar xususiyatini hisobga olish kerak bo'ladi. Qo'rqitishning jabrlanuvchi tomonidan idrok etilishiga vaziyat ham ta'sir ko'rsatadi. Masalan, hech kimdan yordam olish mumkin bo'lmagan xilvat joyda, subyektning harakatlari natijasida atrofdagilarning ochiq-oydin uni qo'llab-quvvatlashi va boshqa shu singari holatlarda bo'lishi mumkin.

Qo'rqitish, ya'ni tahdid qilish usullari har xil bo'lishi mumkin. Ko'pincha u kimga qaratilgan bo'lsa, bevosita o'shanga og'zaki aytiladi. Lekin u yozma ravishda (xat orqali), telefon, telegraf orqali, qurolni yoki uning o'rnini bosuvchi narsani ko'rsatish yo'li bilan, ramziy belgilar orqali, biron-bir narsani unga o'qtalib, badaniga pichoq tirab bildirishi mumkin.

O'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish aybdor qo'rqitishning mazmuni (mohiyati) jabrlanuvchiga ma'lum bo'lishi uchun o'ziga bog'liq bo'lgan hamma narsani qilgan paytidan e'tiboran **tamom bo'lgan jinoyat** deb topilishi lozim.

Subyektiv tomondan o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish to'g'ri**qasddan** sodir etiladi. Aybdorning qo'rqitayotganini, uning mazmunini va tahdidi jabrlanuvchiga ma'lum bo'lajagini va uning tomonidan haqiqiy deb idrok etilishini anglagan bo'lishi kerak. Aybdorning tahdidini amalga oshirish niyatida bo'lganligi yoki jabrlanuvchini faqat cho'chitmoqchi bo'lganligining jinoyat tarkibi mavjud bo'lishi uchun ahamiyati yo'q.

Bu jinoyatning **motivlari** har xil bo'lishi mumkin. Bular tamagirlik, o'ch olish, g'azab, jabrlanuvchining muayyan harakatlarni sodir etishiga erishish istagi, shaxsan xush ko'rmaslik kabilardan iborat bo'lishi mumkin. Garchi motiv jinoyat tarkibi doirasidan chetda tursa va jinoyatning kvalifikatsiyasiga ta'sir ko'rsatmasa ham, ular qilmishning ijtimoiy xavfliligi darajasiga ta'sir qiladi va binobarin, jazo tayinlashda hisobga olinishi kerak.

O'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitishning **maqsadlarini** aniqlash juda muhimdir. Aynan maqsadiga ko'ra bu jinoyatni boshqa o'xshash ijtimoiy xavfli xatti-harakatlardan ajratish mumkin bo'ladi. Masalan, jabrlanuvchini jinoyatchiga mulkni topshirish, mulkiy manfaatlar berishga majbur qilish maqsadida qo'rqitish tovlama-chilikdan (JK 165-moddasi), o'zganing mulkini talon-toroj qilish uchun zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitishdan foydalanish – bosqinchilikdan (JK 164-moddasi), ayol bilan jinsiy aloqa qilish uchun zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish esa nomusga tegishdan (JK 118-moddasi) iborat bo'ladi. Agar o'ldirish, zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish nomusga tegish amalga oshirilgandan so'ng, jabrlanuvchi bu holda boshqalarga aytib qo'ymasligi maqsadida amalga oshirilgan bo'lsa, aybdorning harakati JK 118- va 112-moddalari bilan jinoyatlar jami tarzida kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Qo'rqitish **jinoyatining subyeksi** jinoyat sodir etilgunga qadar 16 yoshga to'lgan aqli raso shaxs bo'lishi mumkin.

JK 112-moddasi 2-qismida o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish:

a) o'ta xavfli retsdivist tomonidan;

b) uyushgan guruh a'zosi yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

JK 112-moddasi 3-qismida o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish o'z xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabati bilan shaxsga yoki uning qarindoshlariga nisbatan sodir etganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

Yuqorida berilgan kvalifikatsiya belgilari javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o'ldirishning tahlilida ko'rib chiqilgan edi.

2-§. Tanosil yoki OIV kasalligi OITSni tarqatish (JK 113-moddasi)

Mazkur moddada to'rtta mustaqil jinoyat uchun javobgarlik belgilangan: 1) bila turib shaxsni tanosil kasalligini yuqtirish xavfi ostida qoldirish (JK 113-moddasi 1-qismi); 2) bila turib shaxsga tanosil kasalligini yuqtirish (JK 113-moddasi 2-qismi); 3) bila turib shaxsni OIV kasalligi va OITSni yuqtirish xavfi ostida qoldirish yoki yuqtirish (JK 113-moddasi 4-qismi); 4) shaxsning kasb yuzasidan o'z vazifalarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi oqibatida boshqa shaxsga OIV kasalligi va OITSni yuqtirishi (JK 113-moddasi 5-qismi).

Jinoyatning **bevosita obyekti** shaxsning hayoti yoki sog'ligi daxlsizligini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Obyektiv tomondan JK 113-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyat, ya'ni bila turib boshqa shaxsni tanosil kasalligini yuqtirish xavfi ostida qoldirishda, ya'ni o'zida tanosil kasalligi borligini yoki kasallikning manbalarini bilgan shaxsning mazkur kasallikni jabrlanuvchiga yuqtirish real xavfini vujudga keltiruvchi harakatlarni sodir etishida ifodalanadi.

NOTA BENE !

Bila turib deganda, aybdorning o'zida tanosil kasalligi borligini yoki kasallikning boshqa manbalarini bilgani holda jabrlanuvchini kasallikni yuqtirish xavfi ostida qoldirishi tushuniladi.

Tanosil kasalliklari deganda, jinsiy aloqa qilish orqali o‘tadigan infeksiyon kasalliklar tushuniladi. Bu zaxm, so‘zak, pereloy, tripper, yumshoq shankr, moyaklar (jinsiy) limfogranulosematozi kabilardir. Tanosil kasalligining xususiyati, uni davolash mumkinligi yoki kasallik tufayli yuz bergan oqibatlar jinoyatning kvalifikatsiyasiga ta’sir etmaydi.

Bila turib shaxsni tanosil kasalligini yuqtirish xavfi ostida qoldirish o‘zida tanosil kasalligi borligini bilgan shaxs tomonidan jabrlanuvchining shunday kasallikka chalinishi mumkin bo‘lgan turli harakatlar sodir etishidan (jinsiy aloqa qilish, qon quyish, sterillanmagan tibbiyot asboblariidan foydalanish, bitta idish-tovoqdan ovqatlanish, tanosil kasalliklariga chalingan shaxs tomonidan boshqa gigienik qoidalarga rioya qilmaslik va boshqalar) iborat bo‘ladi. Yuqtirish xavfi ostida qoldirish aybdor tomonidan jabrlanuvchiga tegishli sharoitlarda kasallikni yuqtirish mumkin bo‘lgan shunday harakatlar sodir etilishini nazarda tutadiki, bunda kasallik faqat tasodifiy holatlar yoki jabrlanuvchi o‘ziga yuqtirmaslik uchun ko‘rgan choralar tufayligina yuqmasligi mumkin. Boshqa shaxsni tanosil kasalligini yuqtirish xavfi ostida qoldirish usullari har xil. Lekin ular jinoyatning kvalifikatsiyasiga ta’sir ko‘rsatmaydi.

JK 113-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyat jabrlanuvchi kasallikni yuqtirish xavfi ostida qoldirilgan paytdan e’tiboran belgilangan oqibatlar yuz berganligidan qat’i nazar, **tamom bo‘lgan** deb topiladi. Masalan, sifilis kasali bilan kasallangan shaxs jinsiy aloqaga kirishsa, stomatologning oldingi bemori tanosil kasalligi bilan kasallanganligini bila turib bemorni davolashda sterillanmagan asboblardan foydalansa va boshqalar.

Ko‘rib chiqilayotgan jinoyat **subyektiv tomondan to‘g‘ri** qasd bilan sodir etiladi. Chunki aybdor o‘zida tanosil kasalligi borligini bila turib uning jabrlanuvchiga yuqishi mumkin bo‘lgan harakatlarni sodir etadi va bunday oqibatlar kelib chiqishini xohlaydi va bunga yo‘l qo‘yadi. Jinoyat motivi hech qanday asossiz shaxsning o‘zi tanosil kasalligi bilan kasallangani uchun qasd olishi bo‘lishi mumkin.

JK 113-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyatning **subyekt**i 16 yoshga to'lgan, tanosil kasalligi bilan kasallanganidan qat'i nazar, har qanday shaxs bo'lishi mumkin.

JK 113-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan jinoyatning **obyektiv tomoni** o'zida tanosil kasalligi borligini bilgan shaxs bu kasalini boshqa shaxsga yuqtirishida, shuningdek, aybdor tomonidan tanosil kasalligini yuqtiruvchi harakatlarni jabrlanuvchiga nisbatan sodir qilishida ifodalanadi. Boshqa holatdagi kabi, ushbu holatda ham kasallikni **yuqtirish usuli** kvalifikatsiyaga ta'sir qilmaydi.

Agar jabrlanuvchiga tanosil kasalligi yuqtirilgan bo'lsa, shaxs JK 113-moddasi 2-qismi bilan javobgarlikka tortiladi, agar bunday oqibatlar yuz bermagan bo'lsa, aybdorning qilmishini JK 113-moddasi 1-qismi bilan kvalifikatsiya qilish zarur bo'ladi.

JK 113-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan jinoyat jabrlanuvchiga tanosil kasalligi yuqtirilgan paytdan **tamom** bo'lgan hisoblanadi. Biroq barcha hollarda ham tanosil kasalligiga chalingan bemorning harakatlari bilan jabrlanuvchiga kasallik yuqtirilishi o'rtasidagi sababiy bog'lanish mavjudligini aniqlash zarur. Agar bunday bog'lanish bo'lmasa, aybdorning qilmishi JK 113-moddasi 1-qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

JK 113-moddasida ko'zda tutilgan jinoyat **to'g'ri yoki egri** qasd bilan sodir etiladi. Chunki aybdor o'zida tanosil kasalligi borligini bila turib uning jabrlanuvchiga yuqishi mumkin bo'lgan harakatlarni sodir etadi va bunday oqibatlar kelib chiqishini xohlaydi yoki bunga yo'l qo'yadi.

Mazkur jinoyatning **subyekt**i matnda berilganidek, faqatgina o'zida tanosil kasalligi borligini bilgan shaxs hisoblanadi. Bu haqda tanosil kasalligi bilan kasallangan shaxs tibbiy muassasaning rasmiy xulosasi, shuningdek, aybdorning kasalligi va uning yuqishi mumkinligi to'g'risida bilishi mumkin bo'lgan boshqa holatlar asosida bilib olishi mumkin.

NOTA BENE !

Aybdor o'zida tanosil kasalligi mavjudligini bilmagan va bilishi mumkin bo'lmagan hollarda u **JK 113-moddasi** bilan javobgarlikka tortilmaydi.

Masalan, shifokor analizni tekshirib, tanosil kasalligiga chalinganligi taxmin qilingan bemorga uning sog'lomligini aytadi va «bemor» sog'lomligiga ishonib, jinsiy aloqa qiladi va natijada kasalini jabrlanuvchiga yuqtiradi. Bunday holda ham JK 113-moddasida belgilangan javobgarlik vujudga kelmaydi.

JK 113-moddasi 3-qismida:

a) ikki yoki undan ortiq shaxsni;

b) Voyaga yetmagan shaxsni bila turib tanosil kasalligini yuqtirish xavfi ostida qoldirganlik yoki ularga kasallikni yuqtirganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

Agar avval sodir etilgan tanosil kasalligini yuqtirish xavfi ostida qoldirganlik yoki yuqtirganlik uchun jinoiy javobgarlikka tortish muddati o'tib ketmagan bo'lsa, aybdor ikki yoki undan ortiq shaxsni tanosil kasalligini yuqtirish xavfi ostida qoldirgan yoki ularga yuqtirgan bo'lsa, bunday holda qilmish JK 113-moddasi 3-qismi «a» bandi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim. Boshqa hollarda jinoyatni yuqoridagi belgilarga ko'ra kvalifikatsiya qilish uchun birinchi marta tanosil kasalligini yuqtirish xavfi ostida qoldirganlik yoki yuqtirganlik bilan keyingi sodir etilgan qilmish oralig'ida qancha vaqt o'tganligining ahamiyati yo'q.

Jabrlanuvchi 18 yoshga to'lmagan hollardagina aybdorning harakatlari: Voyaga yetmagan shaxsni bila turib tanosil kasalligini yuqtirish xavfi ostida qoldirishi yoki unga bu kasalni yuqtirishi JK 113-moddasi 3-qismi «b» bandi bilan kvalifikatsiya qilinishi kerak.

Subyektiv tomondan JK 113-moddasi 3-qismida nazarda tutilgan jinoyat to'g'ri yoki egri qasd bilan sodir etiladi.

JK 113-moddasi 3-qismida nazarda tutilgan jinoyatning **subyeksi** 16 yoshga to'lgan shaxs hisoblanadi.

JK 113-moddasi 4-qismi bo'yicha shaxsga OIV kasalligiG' OITS ni yuqtirish xavfi ostida qoldirganlik yoki yuqtirganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

OITS – orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi.

Jinoyat u yoki bu sabablar tufayli OIV kasalligiG'OITS yuqmagan bo'lsa ham shaxsni OIV kasalligiG'OITSni yuqtirish xavfi ostida qoldirgan yoki yuqtirgan paytdan boshlab **tugallangan** hisoblanadi. Masalan, narkoman shprints OIV kasalligiG'OITS bilan kasallangan shaxs tomonidan foydalanilganligini bila turib uni boshqa shaxsga ishlatsa; o'zida OIV kasalligiG'OITS borligini bilgan ona chaqalog'ini emizsa va boshqalar. Ko'rinib turibdiki, jinoiy oqibatlarining kelib chiqqanligi qilmishni JK 113-moddasi 4-qismi bilan kvalifikatsiya qilishda ahamiyatga ega emas. Lekin bu holat jazo tayinlashda inobatga olinishi lozim.

JK 113-moddasi 4-qismidagi jinoyat subyekti 16 yoshga to'lgan, aqli raso hamda OIV kasalligiG' OITS bilan kasallangan (jinsiy aloqaga kirishayotgan OIV kasalligiG'OITS bilan kasallangan shaxs va boshq.)shaxs.

JK 113-moddasi 5-qismi bo'yicha shaxsning kasb yuzasidan o'z vazifalarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi oqibatida boshqa shaxsga OIV kasalligiG'OITSni yuqtirganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

(«Kasb yuzasidan o'z vazifalarini bajarmaganlik» va «kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaganlik» tushunchalari haqida JK 116-moddasi tahliliga qarang.)

Shaxsning kasb yuzasidan o'z vazifalarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi ayrim harakatsizlik yoki harakatda ham, uzoq muddatli faoliyatsizlikda yoki lozim darajada bajarilmagan bir qator harakatlarda ham namoyon bo'lishi mumkin.

JK 113-moddasi 5-qismida nazarda tutilgan jinoyatning subyekti 16 yoshga to'lgan va unga kasbi bilan bog'liq muayyan vazifalar yuklangan har qanday aqli raso shaxs bo'lishi mumkin. Xususan, operatsiyada sterillanmagan asboblardan foydalangan yoki kuyish uchun mo'ljal-

langan qonni tegishli ravishda tekshirmagan tibbiyot xodimi mazkur jinoyatning subyekti sifatida e'tirof etilishi mumkin.

Agar shaxsning kasb yuzasidan o'z vazifalarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi bilan boshqa shaxsga OIV kasalligiG'OITSni yuqtirganlik ko'rinishidagi oqibat o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri sababiy bog'lanish mavjud bo'lsa, shaxs JK 113-moddasi 5-qismi bilan javobgarlikka tortiladi.

Tahlil qilinayogan jinoyat **subyektiv tomondan** ehtiyotsizlikdan sodir etiladi, ya'ni agar aybdor xavfli oqibatlar kelib chiqishini anglasa, asossiz ravishda ularning boshqa shaxslar tomonidan bartaraf qilinishiga umid qilsa va oldini olishga harakat qilmasa, lekin o'z kasbi yuzasidan yoki unga yuklatilgan majburiyatlar tufayli ularning oldini olishi lozim va mumkin bo'lsa.

Shuni ta'kidlash joizki, jabrlanuvchining o'z xohishi bilan tanosil yoki OIV kasalligiG'OITSni yuqtirish xavfi ostida qolishi tanosil yoki OIV kasalligiG'OITSni yuqtirish xavfi ostida qoldirgan yoki yuqtirgan hamda bu kasalliklar o'zida borligini bilgan shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish uchun asos bo'lmaydi.

3-§. Jinoiy ravishda homila tushirish (abort) (JK 114-moddasi)

Hozirgi vaqtda respublikamiz qonunlarida abort man etilmaydi. Biroq faqat davolash muassasalarida va tibbiy monelik bo'lmasagina, shunday operatsiyaning amalga oshirilishiga ruxsat etiladi.

Ushbu **jinoiyatning bevosita obyekt**i homilador ayolning (homilaning emas) hayoti yoki sog'ligining daxlsizligini ta'minlash borasidagi ijtimoiy munosabatlardir.

Obyektiv tomondan jinoyat shifokor-akusher yoki ginekolog tomonidan davolash muassasalaridan tashqari joylarda yoki tibbiy nuqtai nazardan mumkin bo'lmagan holda (JK 114-moddasi 1-qismi) yoxud bunday huquqqa ega bo'lmagan shaxs tomonidan (JK 114- moddasi 2-qismi) sun'iy ravishda homila tushirishda ifodalanadi.

JKning **114-moddasi 1-qismiga** ko‘ra, sun‘iy ravishda homila tushirish (abort): 1) davolash muassasasidan tashqari joylarda amalga oshirilgan; 2) tibbiy nuqtai nazardan mumkin bo‘lmagan holda amalga oshirilgan bo‘lsa, jinoiy ravishda amalga oshirilgan deb topiladi.

Quyidagi hollarda:

a) og‘ir yoki o‘rtacha og‘ir kechadigan so‘zak, jinsiy a‘zolarining yallig‘lanish jarayonlari, joylashgan joyidan qat‘i nazar, yiring o‘choqlari, og‘ir kechadigan yuqumli kasalliklar va boshqa shu singarilar mavjudligida;

b) homilaning 12 haftalikdan katta ekanligida;

v) avvalgi abortdan keyin 6 oy o‘tmasdan abort qildirish, shuningdek, abortni amalga oshirishga doir yo‘riqnomada nazarda tutilgan boshqa holatlarda **tibbiy nuqtai nazardan abort mumkin emas** deb topilishiga asos bo‘ladi.

Agar abort tibbiy muassasadan tashqarida amalga oshirilgan bo‘lsa, tibbiy nuqtai nazardan mumkin bo‘lmagan holatlar borligidan qat‘i nazar noqonuniy deb topiladi.

Agar abort uni amalga oshirishga vakolatli bo‘lmagan shaxs, ya‘ni tegishli oliy tibbiy ma‘lumotga ega bo‘lmagan shaxs tomonidan amalga oshirilsa, qilmish JK 114-moddasi 2-qismi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim. Bunda tibbiy nuqtai nazardan mumkin bo‘lmagan holatlarning bor-yo‘qligi, abort amalga oshirilgan joy (qilmish tibbiy muassasada yoki undan tashqarida sodir etilganligi) kvalifikatsiyaga ta‘sir qilmaydi.

Abortni amalga oshirish huquqiga ega bo‘lmaganlar jumlasiga:

1) shifokor-akusherlar yoki ginekologlardan tashqari, barcha toifadagi shifokorlar, ya‘ni oliy tibbiy ma‘lumotli shaxslar;

2) o‘rta tibbiy ma‘lumotga ega bo‘lgan shaxslar (akusherkalar, tibbiyot hamshiralari va hokazo);

3) tibbiyot sohasiga aloqasi bo‘lmagan boshqa barcha shaxslar kiradi.

Homilani sun‘iy ravishda tushirish boshlangan paytdan e‘tiboran abort **tamom bo‘lgan jinoyat** deb topiladi. Agar qilmish homilani tushirishga qaratilgan bo‘lsa-yu, lekin abort boshlanmagan bo‘lsa, u jinoiy ravishda abortni amalga oshirishga tayyorgarlik yoki suiqasd

qilish sifatida O‘zbekiston Respublikasi JK 25- va 114-moddalari bilan kvalifikatsiya qilinmog‘i lozim.

Abortni amalga oshirish **usullari** turli xil bo‘lishi (masalan, jarrohlik, mexanik, toksik, termik, medikamentoz) mumkin va ular jinoyatni kvalifikatsiya qilishga ta’sir ko‘rsatmasligi lozim. Lekin jazo tayinlashda inobatga olinishi mumkin.

Agar homilaning tushishi ayol sog‘ligiga shikast yetkazish natijasida yuz bergan bo‘lsa, aybdorning qilmishi **JK 114-moddasi** bilan emas, balki qasddan badanga og‘ir shikast yetkazganlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi JK 104-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinadi. Agar homila ayolning rozilgisiz tushirilgan bo‘lsa ham qilmish xuddi shunday kvalifikatsiya qilinadi.

JK 114-moddasi 1- va 2-qismida nazarda tutilgan jinoyat **subyektiv tomondan** faqat to‘g‘ri qasd bilan sodir etiladi. Jinoyat **motivi** tamagirlik niyatlari, rejalashtirilmagan boladan qutulishni xohlagan ayolga nisbatan achinish hissi va boshqalar bo‘lishi mumkin. **Motiv** va **maqsad** jinoyatni kvalifikatsiya qilishda inobatga olinmaydi.

JK 114-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoiy ravishda homila tushirishning **subyektiv** shifokor-akusher yoki ginekolog, 114-moddasi 2-qismi subyektiv esa 16 yoshga to‘lgan har qanday aqli raso shaxs bo‘lishi mumkin.

Agar abortni amalga oshirgan shaxs oxirgi zarurat holatida harakat qilgan bo‘lsa (masalan, homilador ayolning hayoti xavf ostida qolgan taqdirda, davolash muassasasidan tashqari joyda yoki tibbiy nuqtai nazardan mumkin bo‘lmagan holda homila tushirilganda), jinoiy ravishda homilani tushirganlik uchun javobgarlik vujudga kelmaydi.

Homilasini o‘zi tushirgan yoki jinoiy ravishda homilasi tushirilgan ayol O‘zbekiston Respublikasi JK 114-moddasi bilan jinoiy javobgarlikka tortilmasligi lozim.

Agar homilani tushirish:

a) jabrlanuvchining o‘limiga;

b) boshqa og‘ir oqibatlariga sabab bo‘lgan bo‘lsa, jinoiy ravishda homilani tushirishda aybdor harakatlari O‘zbekiston Respublikasi JK 114-moddasi 3-qismi bilan kvalifikatsiya qilinmog‘i lozim.

Jinoiy ravishda homilani tushirishdagi boshqa og‘ir oqibatlar jumlasiga: jabrlanuvchi salomatligining yo‘qolishi, uning badaniga og‘ir shikast yetishi (masalan, bola tug‘ish qobiliyatini yo‘qotish, bachadonni kesib tashlash), ruhiy faoliyatning buzilishi va boshqa shu kabilar kiradi.

Aybdorning qilmishini JK 114-moddasi 3-qismi bilan kvalifikatsiya qilish uchun sodir etilgan jinoiy ravishdagi abort va jabrlanuvchining o‘limi yoki boshqa og‘ir oqibatlarning yuz berishi o‘rtasidagi sababiy bog‘lanish mavjudligini aniqlash lozim. Jinoyat subyektining ana shu oqibatlarga nisbatan aybi ehtiyotsizlikda, jinoiy o‘z-o‘ziga ishonish va beparvolikda ifodalanadi.

Agar jinoiy ravishdagi abortni sodir etishda aybdor bo‘lgan shaxsning jabrlanuvchining o‘limi yoki boshqa og‘ir oqibatlar yuz berishiga nisbatan egri yoki to‘g‘ri qasdi bo‘lsa, bunday hollarda uning qilmishi tegishli ravishda qasddan odam o‘ldirish (JK 97-moddasining tegishli qismi) yoki qasddan badanga og‘ir shikast yetkazish (JK 104-moddasining tegishli qismi) deb kvalifikatsiya qilinadi.

4-§. Ayolni o‘z homilasini sun‘iy ravishda tushirishga majburlash (JK 115-moddasi)

Mazkur **jinoyatning bevosita obyekti** homilador ayolning hayoti yoki sog‘ligi xavfsizligini ta‘minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Obyektiv tomondan jinoyat ayolni o‘z homilasini sun‘iy ravishda tushirishga majburlash, ya‘ni homilador ayolning homilasini tushirish maqsadida unga jismoniy, ruhiy yoki boshqacha usulda ta‘sir ko‘rsatish (masalan, nikoh munosabatlarini tugatish bilan qo‘rqitish, moddiy ta‘minotdan mahrum qilish bilan qo‘rqitish va boshq.) natijasida homilaning sun‘iy tushirilishida namoyon bo‘ladi.

NOTA BENE !

Ayolni o‘z homilasini tushirishga majburlash deganda, homilador ayolga uning homilasini tushirish maqsadida uni qiyin ahvolga solib qo‘yish (moddiy ta‘minotdan mahrum qilish to‘g‘risida tahdid qilish,

uydan haydash va boshq.) yoki huquqqa xilof ta'sir ko'rsatish (jismoniy yoki ruhiy zo'rlik ishlatish) tushuniladi.

Jismoniy zo'rlik ishlatish obyektiv tomonning zaruriy belgisi sifatida jismoniy zo'rlik ishlatish, do'pposlash, qiynash, bog'lash, tibbiy muassasaga majburiy keltirish, yengil tan jarohati yetkazish, zo'rlik ishlatib g'ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilishda namoyon bo'ladi.

Jabrlanuvchiga uni abortni amalga oshirishga majburlash usuli sifatida o'rtacha og'ir yoki og'ir tan jarohati yetkaziladigan bo'lsa, qilmishni JK 115-moddasi (agar homila tushirilgan bo'lsa) va tegishli ravishda JK 104- yoki 105-moddalarining tegishli qismi bilan jinoyatlar majmui bo'yicha kvalifikatsiya qilish lozim.

Ruhiy zo'rlik ishlatish deganda, agar aybdorda bunga haqiqiy imkoniyat mavjud bo'lsa va jabrlanuvchida undan xavfsirash uchun asoslar mavjud bo'lsa, jismoniy zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish tushuniladi.

Faqat jinoiy bo'lmagan abortni sodir etishga majburlash O'zbekiston Respublikasi JK 115-moddasiga ko'ra kvalifikatsiya qilinadi.

Aybdor ayolni jinoiy abortni sodir etishga majburlayotganini anglagan hollarda (davolash muassasasidan tashqari, to'siq bo'luvchi boshqa holatlarda), uning qilmishini jinoiy ravishdagi abortni sodir etishga dalolat qilish tariqasida JK 28-moddasi 4-qismi, 114-moddalari bilan kvalifikatsiya qilish kerak bo'ladi.

Jinoyat homila sun'iy ravishda tushirilgan paytdan e'tiboran **tamom bo'lgan** deb topiladi.

Subyektiv tomondan jinoyat faqat to'g'ri qasd bilan sodir etiladi, ayolning homilasini tushirishga majburlash maqsadini ko'zlaydi. Jinoyatning motivi jinoyatni kvalifikatsiya qilish uchun ahamiyatga ega emas.

Ushbu **jinoyat subyekt** ayolning homilasini sun'iy ravishda tushirishga majbur qilgan 16 yoshga to'lgan aqli raso shaxs hisoblanadi.

5-§. Kasb yuzasidan o‘z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik (JK 116-moddasi)

JK 116-moddasida javobgarlik belgilangan **jinoyatning obyekt**i inson hayoti yoki sog‘ligining xavfsizligini ta‘minlash sohasidagi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

JKning 116-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyat **obyektiv tomondan** shaxsning o‘z kasbiga nisbatan beparvoligi yoki insofsizlik bilan munosabatda bo‘lishi tufayli kasb yuzasidan o‘z vazifalarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi badanga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazilishiga sabab bo‘lishida ifodalanadi.

NOTA BENE !

Kasb yuzasidan o‘z vazifalarini bajarmaganlik – shaxsning o‘z kasb majburiyatlari doirasiga kiruvchi harakatlarni qilishi lozim va mumkin bo‘lgan hollardagi harakatsizligidir.

Kasb yuzasidan o‘z vazifalarini lozim darajada bajarmaganlik deganda, shaxsning o‘z kasb majburiyatlari doirasidagi harakatlarini uning ishi, kasbiy faoliyati talab etganidek bajarmaganligi tushuniladi.

Shaxsning kasb yuzasidan o‘z vazifalarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi nafaqat ayrim harakatsizlik yoki harakatda, balki uzoq muddatli faoliyatsizlikda yoki lozim darajada bajarilmagan bir qator harakatlarda ham namoyon bo‘lishi mumkin.

Ushbu **jinoyatning subyekti** o‘ziga kasbi bilan bog‘liq muayyan vazifalar yuklangan 16 yoshga to‘lgan, har qanday aqli raso shaxs bo‘lishi mumkin.

Agar aybdor qonunga yoki maxsus qoidalarga muvofiq bemorga yordam ko‘rsatishi shart bo‘lsa-yu, uzrli sababsiz unga yordam ko‘rsatmagan bo‘lsa, bu badanga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazilishiga sabab bo‘lsa, bunday hollarda aybdorning qilmishi JK 116-moddasi 2-qismi bilan kvalifikatsiya qilinishi kerak.

«Tibbiyot va farmatsevtika xodimlari fuqarolarga tez tibbiy yordam ko‘rsatishlari shart.

Tez tibbiy yordam O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilangan tartib asosida sog‘liqni saqlash tizimidagi maxsus tez tibbiy yordam xizmati tomonidan ko‘rsatiladi»¹.

Tibbiy yordam kasalga har qanday vaqtda va har qanday joyda ko‘rsatilishi lozim.

Kasalga yordam ko‘rsatmaslik uni tibbiy muassasaga qabul qilishdan bosh tortish, unga tibbiy yordam ko‘rsatmaslik (masalan, aybdor o‘zida mavjud bo‘lgan dori-darmonlarni kasalga bermasligi, sun‘iy nafas berishni amalga oshirmasligi, zaruriy tibbiy davolash tadbirlarini amalga oshirmasligi va boshq.)da ifodalanadi.

Shifokorlar, akusherlar, tibbiyot hamshiralari, shuningdek, maxsus qoidalarga ko‘ra bemorga yordam ko‘rsatish majburiyati yuklatilgan boshqa shaxslar (militsiya xodimlari, yong‘in xavfsizligi, qutqaruv xizmati va boshq.) jinoyat subyektini bo‘lishlari mumkin.

«Tibbiy yordamgacha bo‘lgan birinchi yordamni voqea joyida militsiya xodimlari, yong‘in xavfsizligi xizmati, avariya holatlari, transport tashkilotlari, shuningdek, qonunchilik tomonidan shunday majburiyat yuklatilgan boshqa kasb vakillari xodimlari ko‘rsatishlari lozim». (O‘zbekiston Respublikasi «Fuqarolar sog‘ligini saqlash to‘g‘risida»gi Qonunining 30-moddasi 5-qismi)

JK 116-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan jinoiy javobgarlik bemorga **uzrli sababsiz** yordam ko‘rsatilmagan taqdirdagina vujudga keladi.

Uzrli sabablar jumlasiga shifokorning yoki bemorga yordam ko‘rsatishi shart bo‘lgan boshqa shaxsning kasalligi, mazkur vaziyatda malakasining yetarli emasligi, yordam ko‘rsatishga xalaqit beruvchi obyektiv to‘siqlarning mavjudligi (tabiiy ofat), oxirgi zarurat holati (vrachning boshqa kasalga yordam ko‘rsatishi), dori-darmonlar yoki asboblarning yo‘qligi va hokazoni kiritish kerak bo‘ladi.

¹Караг: Ўзбекистон Республикасининг 1996 йил 29 августдаги «Фуқаролар соғлигини сақлаш тўғрисида»ги 265–I-сон Қонуни, 30-модда 2, 3 ва 5-қисмлари // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1996 й., 9-сон, 128-модда.

Sud sabablar uzrli yoki uzrli emasligini har bir muayyan holda ishning barcha holatlarini hisobga olgan holda hal etadi.

Qilmishni JK 116-moddasi 1- yoki 2-qismi bilan kvalifikatsiya qilishning zaruriy sharti o'rtacha og'ir yoki og'ir tan jarohati yetkazilganligi ko'rinishidagi oqibatning kelib chiqqanligi hisoblanadi. Ayni shu paytdan boshlab jinoyat **tamom bo'lgan** hisoblanadi.

Agar kasb yuzasidan o'z vazifalarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi yoxud qonun yoki maxsus qoidalarga muvofiq kasalga yordam ko'rsatishi shart bo'lgan shaxsning uzrli sababsiz shunday yordam ko'rsatmaganligi bilan o'rtacha og'ir yoki og'ir tan jarohati yetkazilganligi ko'rinishidagi oqibat o'rtasida sababiy bog'lanish mavjud bo'lsa, shaxs JK 116-moddasi 1- yoki 2-qismi bilan javobgarlikka tortiladi.

Ko'rib chiqilayotgan jinoyat **subyektiv tomondan**:

a) egri qasd bilan sodir etilishi mumkin, ya'ni agar shaxs JK 116-moddasi 1- yoki 2-qismida nazarda tutilgan qilmishni sodir etayotganligini bilsa, jabrlanuvchiga o'rtacha og'ir yoki og'ir tan jarohati yetkazilishi mumkinligiga ko'zi yetsa va bunday oqibatlar kelib chiqishiga yo'l qo'ysa;

b) ehtiyotsizlikdan sodir etilishi mumkin, ya'ni agar aybdor xavfli oqibatlar kelib chiqishini anglasa, asossiz ravishda ularning boshqa shaxslar tomonidan bartaraf qilinishiga umid qilsa va oldini olishga harakat qilmasa, lekin o'z kasbi yuzasidan yoki unga yuklatilgan majburiyatlar tufayli ularning oldini olishi lozim va mumkin bo'lsa.

Kasb yuzasidan o'z vazifalarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi yoxud qonun yoki maxsus qoidalarga muvofiq kasalga yordam ko'rsatishi shart bo'lgan shaxsning uzrli sababsiz shunday yordam ko'rsatmaganligi natijasida odam o'lishi tarzidagi oqibatlar yuz bergan bo'lsa, aybdor JK 116-moddasi 3-qismi bilan javobgarlikka tortiladi. Bunday hollarda aybdorning qilmishi O'zbekiston Respublikasi JK 102-moddasi (Ehtiyotsizlik orqasida odam o'ldirish) bilan qo'shimcha ravishda kvalifikatsiya qilinmaydi.

Jinoyat natijasida odamlar o'lgan yoki boshqacha og'ir oqibatlar ro'y bergan bo'lsa, aybdor JK 116-moddasi 4-qismi bilan javobgarlikka tortiladi.

Odamlar o'limi – ikki yoki bundan ortiq kishilarning halok bo'lishidir.

Boshqacha og'ir oqibatlar – ikki yoki undan ortiq shaxsning badaniga og'ir shikast yetkazish tarzidagi oqibatlarining yuz berishi va boshqalar. U yoki bu holatni og'ir deb topish har doim sud tomonidan ish holatlaridan kelib chiqib hal qilinadi.

6-§. Xavf ostida qoldirish (JK 117-moddasi)

Mazkur **jinoyatning bevosita obyekti** o'zi haqida g'amxo'rlik qilish imkoniyati bo'lmagan shaxsning hayoti yoki sog'ligi xavfsizligini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Obyektiv tomondan jinoyat hayoti yoki sog'ligi xavf ostida qolgan va o'zini o'zi himoya qilish imkoniyatidan mahrum bo'lgan shaxsga yordam ko'rsatmaslikda, basharti, aybdor bunday ahvoldagi shaxsga yordam berishi shart va bunday imkoniyatga ega bo'lgan yoxud aybdorning o'zi jabrlanuvchini xavfli ahvolga solib qo'yishi va bu hol badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilishiga olib kelishida ifodalanadi.

NOTA BENE !

Jinoiy **harakatsizlik** — hayoti yoki sog'ligi xavf ostida qolgan va o'zini o'zi himoya qilish imkoniyatidan mahrum bo'lgan shaxsga yordam bermaslikda, uni qutqarish uchun chora-tadbirlarni ko'rmaslikda ifodalanadi.

Hayot va sog'liq uchun xavfli holat jabrlanuvchi hayoti yoki sog'ligiga xavf tug'diruvchi tabiiy ofat va boshqa holatlar tufayli inson organizmida yuz beradigan fiziologik va patologik jarayonlar (bolaning kichik yoshda ekanligi, qarilik, xastalik, tutqanoq tutishi va boshq.) bilan izohlanadi. JKning 117-moddasi bo'yicha javobgarlik jabrlanuvchi

o‘zini himoya qilish choralarini ko‘ra olmaganagina kelib chiqadi. Aks holda ushbu modda bo‘yicha javobgarlik istisno etiladi.

Hayoti yoki sog‘ligi xavf ostida qolgan shaxslarga g‘amxo‘rlik qilish va yordam berish qonun bilan belgilangan (masalan, onaning o‘z bolasiga g‘amxo‘rlik qilishi) yoki shartnomada mustahkamlangan (masalan, kasalga qarovchi hamshiraning kasalga qarash bo‘yicha majburiyatlari), shuningdek, kasb yuzasidan (masalan, qutqaruvchining, maktabgacha ta‘lim muassasalari xodimlarining majburiyatlari) bo‘lishi mumkin. Bunday shaxslarning javobgarligi hayot yoki sog‘liq uchun xavfli vaziyatning kelib chiqishiga ularning ta‘siridan qat‘i nazar kelib chiqadi. Asosiysi, jabrlanuvchiga yordam ko‘rsatish ularning majburiyatiga kirgan va bunga ularda imkoniyat mavjud bo‘lgan bo‘lishi lozim.

Shaxs jabrlanuvchi haqida g‘amxo‘rlik qilishi shart bo‘lmagan, ammo jabrlanuvchini hayoti va sog‘ligi uchun xavfli ahvolga tushirib qo‘ygan (masalan, suzishni bilmaydigan odamni suvga tashlab yuborish, avtotransport vositasi bilan bosib ketish natijasida hayoti va sog‘ligi uchun xavfli ahvolda qoldirish) hollarda ham mazkur jinoyatning tarkibi mavjud bo‘ladi.

Agar aybdor hayoti yoki sog‘ligi xavf ostida qolgan jabrlanuvchiga yordam berishi shart va bunday imkoniyatga ega bo‘lsa uning harakatlari JK 117-moddasi bilan javobgarlikka tortiladi.

O‘zbekiston Respublikasi JK 117-moddasida nazarda tutilgan jinoyat badanga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazilishi tarzidagi oqibat kelib chiqqanidan so‘ng **tugallangan** deb e‘tirof etiladi.

Xavf ostida qoldirish bilan mazkur moddada qayd etilgan oqibat-larning kelib chiqishi o‘rtasida sababiy bog‘lanish mavjudligini aniqlash jinoyatni O‘zbekiston Respublikasi JK 117-moddasi bilan kvalifikatsiya qilishning zaruriy sharti hisoblanadi.

Subyektiv tomondan jinoyat jabrlanuvchining hayoti yoki sog‘ligi uchun xavfli ahvolga solib qo‘yganlik faktiga nisbatan to‘g‘ri qasddan, buning natijasida kelib chiqqan oqibatga nisbatan ehtiyotsizlik (odatda, o‘z-o‘ziga ishonish)da ifodalanadi.

Yordamsiz qolgan odam haqida g'amxo'rlik qilishi lozim bo'lgan shaxs yoxud jabrlanuvchini hayoti va sog'ligi uchun xavfli ahvolga solib qo'ygan shaxsning o'zi, agar 16 yoshga to'lgan aqli raso bo'lsa, **jinoyatning subyekti** bo'lishi mumkin.

Jinoyat oqibatida hayoti xavf ostida qoldirilgan odam o'lgan bo'lsa, aybdorning qilmishi O'zbekiston Respublikasi JK 117-moddasi 2-qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Xavfli ahvolda qoldirish odamlar o'limiga yoki boshqa og'ir oqibatlarga olib kelgan bo'lsa, aybdor O'zbekiston Respublikasi JK 117-moddasi 3-qismi bilan javobgarlikka tortiladi.

Mazkur 117-moddada qayd etilgan oqibatlarga nisbatan aybdor egri yoxud to'g'ri qasddan munosabatda bo'lsa, bunday holda uning qilmishi badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazganlik yoxud qasddan odam o'ldirganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan tegishli moddalar bilan kvalifikatsiya qilinishi zarur.

«Hayot yoki sog'liq uchun xavfli jinoyatlar» mavzusi bo'yicha yakuniy savollar

1. O'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish deganda nima nazarda tutiladi?

2. Qilmishni JK 112-moddasi (o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish) bilan kvalifikatsiya qilishning zaruriy belgisi nimada namoyon bo'ladi?

3. Tanosil yoki OITS kasalligini tarqatganlik uchun javobgarlikning asoslari va o'ziga xos jihatlari nimalarda namoyon bo'ladi? Tanosil yoki OITS kasalligini tarqatish xavfi ostida qoldirish deganda nimani tushunish kerak?

4. Jinoiy abort tushunchasiga ta'rif bering. Mazkur jinoyatni kvalifikatsiya qilishning o'ziga xos jihatlari nimalarda namoyon bo'ladi?

5. Jinoiy abortda boshqacha og'ir oqibatlar deganda nima nazarda tutiladi?

6. Jinoiy abortning homiladorligi aybdorga ayon bo'lgan ayolning badaniga qasddan og'ir (o'rtacha og'ir) shikast yetkazishdan farqi nimada?

7. Ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlash deganda nima nazarda tutiladi? Mazkur jinoyatni kvalifikatsiya qilishning o'ziga xos jihatlari nimalarda namoyon bo'ladi?

8. Ayolni o'z homilasini jinoiy ravishda tushirishga majburlagan shaxsning harakatlarini qanday kvalifikatsiya qilish lozim?

9. JK 116-moddasi (Kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim dara-jada bajarmaslik) dagi jinoyatni kvalifikatsiya qilishning shartlari nimalarda namoyon bo'ladi?

10. Kasb yuzasidan o'z vazifalarini bajarmaslik va lozim darajada bajarmaslik deganda nima nazarda tutiladi?

Qo'shimcha adabiyotlar

O'quv qo'llanmalar, maxsus adabiyotlar

Зубкова В.И. Ответственность за преступления против личности по законодательству России. – М.: НОРМА, 2005. – 256 Б.

Нерсесян В.А. Ответственность за неосторожные преступления. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2002. – 240 Б.

Орлов П.И. Уголовная ответственность за оставление в опасности потерпевшего при автопроисшествии. – Харьков: ХарЮИ, 1982.

Рустамбаев М.Х. Преступления против личности. Учебное пособие. – Т.: «Эльдинур», 1998. – 181 Б.

Тер-Акопов А.А. Ответственность за нарушение специальных правил поведения. – М.: 1995. – 176 Б.

Ilmiy maqolalar

Киртиченко Т.В. Уголовная ответственность водителей транспортных средств за оставление в опасности при дорожно-транспортных происшествиях // Вестник МГУ. 1983. № 3.

Коробеев В. Ответственность за неоказание помощи // Ж. Морфлот. 1984. № 8.

Ниязов А.К. Ответственность за угрозу по Уголовному кодексу Республики Узбекистан // Ж. Общественные науки в Узбекистане. 1995. № 3. – 17–21-б.

Ниязов А.К. Ответственность за угрозу убийством или применением насилия // Конституция-хукукий давлат куришнинг асоси. Илмий-амалий анжуман материаллари. – Т.: – 1996. – 151–153-б.

Ниязов А.К. Уголовно-правовое понятие угрозы и ее квалификация // Ж. Қонун номи билан. 1995. № 3. – 3–4 -б.


Рустамбаев М.Х., Ниязов А.К. Ответственность за угрозу в зарубежном законодательстве // Ж. Давлат ва ҳуқуқ. 2000. № 2. – 3–5-б.

Рустамбаев М.Х. Ответственность за незаконное производство аборта. Криминалистика и вопросы судебной экспертизы // Сборник научных трудов ТАШГУ. – Т.: ТАШГУ, 1988. – 64–70-б.

Рустамбаев М.Х. Ответственность за распространение СПИДа // Ж. Агитатор Узбекистана. 1990. № 9.

V BOB. JINSIY ERKINLIKKA QARSHI JINOYATLAR

7-sxema



1-§. Nomusga tegish (JK 118-moddasi)

Ushbu **jinoyatning bevosita obyekti** jabrlanuvchining jinsiy erkinligini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar, o'z xohishiga ko'ra jinsiy sherigini tanlash huquqi, shuningdek, 16 yoshga to'lmagan shaxslarning jinsiy daxlsizligi hisoblanadi. Nomusga tegishning qo'shimcha obyekti jabrlanuvchining hayoti va (yoki) sog'ligi bo'lishi mumkin.

Sud-tergov amaliyotini o'rganish aksariyat hollarda ayollar jabrlanuvchi bo'lishi, ammo erkaklar ham jinoyatdan jabr ko'rganligi haqida dalolat beradi.

NOTA BENE !

Jabrlanuvchi ayol (erkak)ning **xohish-irodasiga qarshi** u bilan jinsiy aloqada bo'lish, jabrlanuvchi bokira qizmi yoki «ko'hna» kasb vakili (fohisha)mi bundan qat'i nazar, zo'rlab **nomusga tegish** hisoblanadi, chunki qonun axloq-odobidan qat'i nazar barchaning jinsiy erkinligini himoya qiladi.

Er-xotinlardan birontasi, hatto ular rasmiy nikohda bo'lishsa ham, nomusga tegish natijasida jabrlanuvchi bo'lishi mumkin, zero, nikoh er-xotinni jinsiy erkinlikdan mahrum qilmaydi.

Jinoyatning obyektiv tomoni zo'rlik ishlatib, qo'rqitib yoki jabrlanuvchining ojizligidan foydalanib jinsiy aloqa qilishda ifodalanadi.

NOTA BENE !

Nomusga tegish tarzidagi jinsiy aloqa qilish deganda, faqat tabiiy jinsiy aloqani, ya'ni jinsi qarama-qarshi bo'lgan erkak jinsiy a'zosining ayol jinsiy a'zosiga kiritish yo'li bilan qovushishni tushunish lozim. Fiziologik nuqtai nazardan normal jinsiy aloqa qilish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa zo'rlik ishlatish bilan bog'liq harakatlar – besoqolbozlik, ayolning jinsiy ehtiyojini ayol bilan zo'rlik ishlatib qondirishi va boshqa harakatlar nomusga tegish hisoblanmaydi va JK 119-moddasida nazarda tutilgan jinoyat tarkibini tashkil qiladi.

Nomusga tegish vaqtida aybdor qo'llagan **zo'rlik** jismoniy yoki ruhiy bo'lishi mumkin.

NOTA BENE !

Nomusga tegish vaqtida **jismoniy zo'rlik** ishlatish mushtlash, kaltaklash, jismoniy azob berish, badanga yengil yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazish, zo'r lab ma'lum bir holatda turishga majburlash va hokazo tarzida bo'lishi mumkin. Nomusga tegish vaqtida jabrlanuvchining badaniga og'ir shikast yetkazilgan hollarda aybdorning qilmishi O'zbekiston Respublikasi JK 118-moddasi 3-qismi «d» bandi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Odatda zo'rlik ishlatish va qarshilik ko'rsatish bir-biri bilan bog'liq bo'ladi, qarshilik kuchaygani sayin zo'rlik ham kuchayib boraveradi. Lekin alohida olingan har bir holda qarshilik samimiy yoki soxta, mug'ombirlik yoxud qichiq yo'sinda bo'lganligi aniqlanishi zarur. Basharti, jabrlanuvchi samimiy qarshilik ko'rsatmagan bo'lsa, aybdorning harakati nomusga tegish tarkibini tashkil etmaydi.

Odatda, zo'rlikning xususiyati va darajasi qarshilikning xususiyatiga muvofiq bo'ladi. Biroq har bir holatda qarshilik haqiqiy bo'lganmi yoki soxtami aniqlanishi lozim. Agar jabrlanuvchi haqiqiy qarshilik ko'rsatmagan bo'lsa, aybdorning harakatlarida nomusga tegish alomat-lari mavjud bo'lmaydi.

NOTA BENE !

Nomusga tegish vaqtidagi **ruhiy zo'rlik** deganda, jabrlanuvchiga nisbatan yoki uning irodasini sindirish maqsadida uning yaqin kishilariga nisbatan jismoniy zo'rlik ishlatish bilan **qo'rqitishda** ifodalanadigan ta'sirni tushunish lozim. Qo'rqitish va uni amalga oshirish imkoniyati jabrlanuvchini shunday ahvolga solib qo'yishi kerakki, u aybdorning shahvoniy intilishlariga qarshilik ko'rsata olmay qolgan bo'lishi lozim.

Qo'rqitish og'zaki tarzda qo'rqituvchi imo-ishoralar, jabrlanuvchi sog'ligiga ziyon yetkazishi mumkin bo'lgan qurol yoki boshqa ashyolar bilan qo'rqitish, mulkni nobud qilish, jabrlanuvchini sharmanda qiluvchi ma'lumotlarni tarqatish bilan qo'rqitish, shantaj orqali amalga oshiriladi. Jinoyat subyekti oldida bir necha shaxslar bo'lgan taqdirda qo'rqitish jabrlanuvchining aybdor bilan jinsiy aloqa qilishdan bosh tortganda bir guruh shaxslar tomonidan nomusga tegishni amalga oshirishida ifodalanishi mumkin.

Jabrlanuvchining irodasini sindirish usuli sifatidagi qo'rqitish **aniq** bo'lishi kerak. Qo'rqitish ham jabrlanuvchining manfaatlariga nisbatan, ham uning yaqin kishilari (bolalari, ota-onasi, yaqin qarindoshlari va hokazo)ga nisbatan bo'lishi mumkin.

Badanga har xil shikast yetkazish bilan qo'rqitish uchun javobgarlik JK 118-moddasi 1-qismi bilan qamrab olinadi, shu sababdan JK 112-moddasi bilan qo'shimcha kvalifikatsiya talab qilinmaydi.

Agar jabrlanuvchi tajovuz qiluvchi bilan jinsiy aloqaga kirishmasa, uning o'zini o'ldirish yoki sog'ligiga shikast yetkazish bilan qo'rqitish jabrlanuvchini noiloj ahvolga solib qo'ymaydi, uning qarshilik ko'rsatish irodasini to'la falaj qilmaydi, shu munosabat bilan bunday hollarda nomusga tegish yoki shunga tajovuz uchun javobgarlik bo'lmaydi.

Qo'rqitish jabrlanuvchining erkin harakatlarini falaj qilish, uning irodasini sindirishga qodir darajada jiddiy bo'lganmi-yo'qmi, buni alohida olingan har bir holda sud hal qiladi.

Zoʻrlik ishlatish bilan, mulkni nobud qilish yoki unga shikast yetkazish bilan, jabrlanuvchi sir saqlashni xohlagan uni sharmanda qiluvchi maʼlumotlarni tarqatish bilan qoʻrqitish nomusga tegishning belgisi sifatida jabrlanuvchining qarshiligini bartaraf etish maqsadida amalga oshiriladi.

Shuni alohida taʼkidlash joizki, nomusga tegish vaqtida qoʻrqitish **haqiqiy** (yaʼni, faqatgina jabrlanuvchining xayolida boʻlmasligi), **toʻgʻridan-toʻgʻri qaratilganligi** (yaʼni, kelajakda emas, yaqin orada amalga oshirilishi mumkinligi) va **yetarli darajada jiddiy** (jabrlanuvchi irodasini, qarshiligini sindira oladigan) boʻlishi lozim. Lekin aybdor harakatlarini **JK 118-moddasi** bilan kvalifikatsiya qilishda uning qoʻrqitishda aytganlarini amalda qoʻllash maqsadi bor-yoʻqligi inobatga olinmaydi.

Jabrlanuvchining ojizligidan foydalanish deganda, oʻziga nisbatan sodir etilayotgan harakatning mohiyati va ahamiyatini idrok qila olmaydigan yoki idrok etgan taqdirda ham zoʻravonga qarshilik koʻrsatish imkoniyatiga ega boʻlmagan jabrlanuvchi bilan jinsiy aloqada boʻlish tushuniladi. Ojizlik holati ruhiy yoki jismoniy boʻlishi mumkin.

Ruhiy ojizlik deganda, jabrlanuvchining ruhiy holati tufayli (xastaligi, hushsizligi, yosh bolaligi) oʻziga nisbatan sodir etilayotgan jinsiy aloqaning ahamiyatini idrok etmasligi tushuniladi.

Ojiz ahvoldagi shaxs deganda, shuningdek, aybdorning oʻz maqsadiga erishish uchun qilgan harakatlari va nomusga tegish vaqtidagi sharoit natijasida jabrlanuvchida vujudga kelgan ruhiy tushkunlik nazarda tutiladi. Bunday holatda jabrlanuvchi aybdor irodasiga boʻysunadi. Bunday holatni toʻgʻri baholash uchun jabrlanuvchining nomusga tegish oldidan qilgan harakatlarining psixiatriya ekspertiza xulosasi talab qilinadi. Shuningdek, sud psixiatriya ekspertizasini jabrlanuvchining u bilan sodir etgan harakatlarining mohiyatini tushunganligini aniqlash maqsadida jabrlanuvchining ruhiy holati buzilganida amalga oshirishi mumkin.

Jismoniy ojizlik deganda, shaxs aybdorning oʻzi bilan jinsiy aloqaga kirishayotganini tushunsa ham oʻzining jismoniy nuqsoni tufayli, zoʻravonga qarshilik koʻrsatish imkoniyatiga ega boʻlmagan holati

(nogironligi natijasida, qarib qolganligi, jismoniy toliqqanligi sababli va hokazo) tushuniladi.

Jabrlanuvchining juda yoshligi, agar u o‘zi bilan jinsiy aloqa qilishga rozilik bergan bo‘lsa, uning ojizlik holatidan foydalanib nomusga tegish, ya’ni yosh bola bilan jinsiy aloqa qilish deb kvalifikatsiya qilish uchun asos bo‘lmaydi.

Alohida har bir holda jabrlanuvchining o‘z yoshidan kelib chiqib, uning jinsiy aloqaning mohiyatini tushungan yoki tushunmaganligini aniqlash zarur. Shu sababli o‘ziga nisbatan sodir etilayotgan jinsiy aloqaning xususiyati va ahamiyatini anglamasa qilmish nomusga tegish deb kvalifikatsiya qilinishi kerak. Basharti, kichik yoshdagi bola o‘zi bilan sodir etilayotgan jinsiy aloqaning ahamiyatini tushungan va o‘zi jinsiy aloqaga rozilik bergan bo‘lsa, aybdorning qilmishi O‘zbekiston Respublikasi JK 128-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim, buning uchun jabrlanuvchining Voyaga yetmaganligini ayblanuvchi oldindan bilganligi zaruriy shart hisoblanadi.

Ichkilik yoki giyohvandlik vositasi ta’sirida mast holda bo‘lgan jabrlanuvchi bilan zo‘rluk ishlatmay va qo‘rqitmay jinsiy aloqada bo‘lish jinsiy aloqani jabrlanuvchining ojizligidan foydalanib sodir etilgan deb e’tirof etish uchun asos bo‘la olmaydi. Bu vaziyatda **ojizlik holati** deganda, mastlikning shunday darajasi tushuniladiki, bunda jabrlanuvchi o‘zi bilan jinsiy aloqaga kirishilayotganini idrok eta olmaydi yoki unga qarshilik ko‘rsata olmaydi.

Nomusga tegish tarzidagi qilmishlarni kvalifikatsiya qilishda jabrlanuvchining ana shunday (ojiz) holatga tushishiga o‘zi yoki boshqa biron kishi sabab bo‘lganligi (masalan, aybdorning jabrlanuvchiga spirtli ichimliklar ichirganligi, giyohvandlik vositalari yoki uyqu dorisi berganligi va boshq.) yoki jabrlanuvchining o‘zi aybdorning ta’sirisiz ojiz ahvolda bo‘lganligi ahamiyat kasb etmaydi¹.

Jinsiy aloqa jabrlanuvchini aldash yo‘li bilan (masalan, uylanishga, turmushga chiqishga, ishga joylashtirishga, o‘qishga kiritishga va’da berish, boshqa biron imtiyoz berish) uning roziligini olib sodir etilgan

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2010 йил 29 октябрдаги «Номусга тегиш ва жинсий эҳтиёжни ғайритабiiий усулда қондиришга доир ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 13-сонли қарори, 6-банд, 3-хатбоши // Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг қарори. – Т.: «Адолат», 2014. – 218-б.

bo'lsa, jinsiy aloqa qilgan shaxsning qilmishi nomusga tegish deb kvalifikatsiya qilinmaydi. Bunday hollarda jinoiy javobgarlik istisno qilinadi.

Nomusga tegish defloratsiya yoki eyakulyatsiyadan qat'i nazar, jinsiy aloqa boshlangan paytdan e'tiboran **tugallangan** jinoyat deb e'tirof etiladi.

Bevosita jinsiy aloqani sodir etishga qaratilgan, ammo aybdorning xohish-irodasiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra nihoyasiga yetkazilmagan harakatlar nomusga tegishga **suiqasd** deb topiladi va O'zbekiston Respublikasi JK 25-moddasi hamda **118-moddasining** tegishli qismi bilan (masalan, jabrlanuvchining irodasini sindirish maqsadida uning kiyimlarini echish, yirtish, mushtlash, kaltaklash, azob berish va hokazo) kvalifikatsiya qilinishi kerak.

NOTA BENE !

Nomusga tegishga suiqasd qilish deganda, bevosita jinsiy aloqa qilish maqsadida jismoniy zo'rlik ishlatish, qo'rqitish yoki jabrlanuvchining ojizlik holatidan foydalanishga urinish hamda aybdorga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra jinsiy aloqa boshlanmaganligi tushuniladi.

Bularsiz bironta ham shahvoniy harakat, jinsiy aloqa qilishga urinish yoki shunday aloqani taklif etish nomusga tegishga suiqasd deb hisoblanmaydi.

NOTA BENE !

Nomusga tegishga tayyorgarlik ko'rish deganda, aybdorning zo'rlik ishlatib nomusga tegish maqsadida mazkur harakatlarni amalga oshirish bo'yicha biror shaxs bilan kelishishi, reja tuzishi, zo'rlik ishlatish uchun zarur vositalarni olishi (arqon, kishan va boshq.) xonani tayyorlashi va boshqa harakatlarni amalga oshirishi tushuniladi.

Jabrlanuvchiga nisbatan uning sha'ni, qadr-qimmatini kamsituvchi harakatlar sodir etilgan bo'lsa-yu, ayni vaqtda ayblanuvchining zo'rlik

ishlatib jinsiy aloqa qilish niyati bo'lmagan bo'lsa, bunday shaxsning harakati nomusga tegishga suiqasd sifatida emas, shaxsga qarshi qaratilgan jinoyat (badanga shikast yetkazish, haqorat va hokazo) sifatida kvalifikatsiya qilinishi kerak.

Shaxs zo'rlik ishlatib, qo'rqitib yoki jabrlanuvchining ojizlik holatidan foydalanib, u bilan jinsiy aloqa qilishni istagan, ammo buning uchun qulay imkoniyat bo'lishiga qaramay, jinsiy aloqa qilmagan hollarda (boshqacha aytganda aybdorga bog'liq bo'lgan holatlarga ko'ra oxiriga yetkazilmagan bo'lsa), qilmish nomusga tegishdan **ixtiyoriy qaytish** deb qaralishi kerak.

NOTA BENE !

Shaxsning jinsiy aloqa qilish uchun qulay imkoniyatlar borligini bila turib, jabrlanuvchining jinsiy erkinligiga (daxlsizligiga) tajovuzni o'z xohish-irodasi bilan to'xtatgan yoki uni oxiriga yetkazmagan hollar nomusga tegishdan **ixtiyoriy qaytish** deb topiladi.

Nomusga tegishdan ixtiyoriy ravishda qaytishning motivi aybdorning jabrlanuvchiga rahmi kelganligi, uning nomusga tegmasligini iltimos qilishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bunday hollarda, O'zbekiston Respublikasi JK 26-moddasiga muvofiq, nomusga tegishdan ixtiyoriy qaytganlik uchun shaxs jinoiy javobgarlikka tortilmaydi. Ammo aybdorning qilmishida boshqa jinoyatning alomatlari bo'lsa, u ana shu jinoyat uchun JK Maxsus qismi bilan javobgarlikka tortilishi kerak (masalan, badanga shikast yetkazganlik, haqoratlash, mol-mulknini nobud qilish kabi nomusga tajovuz vaqtida sodir etilgan boshqa qilmishlar uchun).

Subyektiv tomondan jinoyat to'g'ri qasd bilan sodir etiladi. Aybdor jabrlanuvchiga nisbatan zo'rlik ishlatib, qo'rqitib yoki uning ojizligidan foydalanib, uning xohish-irodasiga qarshi nomusga tegayotganligini anglaydi va buni xohlaydi. Jinoyatni sodir etish motivi va ko'zlangan maqsad kvalifikatsiya uchun ahamiyatga ega emas. Jinoyatning motivi aksariyat hollarda, shahvoniy hirs hisoblanadi. Ayrim hollarda, jinoyat motivi jabrlanuvchidan o'ch olish, uni sharmanda qilish, atrofdagilar

oldida kamsitish va boshqalar bo'lishi mumkin. Nomusga tegish, shuningdek, diniy taassublar zamirida ham sodir etilishi mumkin. Milliy yoki irqiy adovat motivining mavjudligi jinoyatni kvalifikatsiya qilishga ta'sir ko'rsatmaydi.

Jinoyatning subyekti har ikki jinsdagi, jinoyat sodir etilgan vaqtga kelib 14 yoshga to'lgan aqli raso shaxs bo'lishi mumkin.

JK 118-moddasi 2-qismida jazoni og'irlashtiruvchi qator holatlar nazarda tutiladi:

1. **JK 118-moddasi 2-qismining «a» bandi** – ikki yoki undan ortiq kishining nomusiga tegish.

Shaxs zo'rlik ishlatib ikki yoki undan ortiq jabrlanuvchilar bilan jinsiy aloqa qilsa va uning qilmishi yagona qasd bilan qamrab olingan bo'lsa, aybdorning qilmishi O'zbekiston Respublikasi JK 118-moddasi 2-qismi «a» bandi bilan kvalifikatsiya qilinishi zarur. Zo'ravon ikki yoki undan ortiq shaxsning nomusiga tegish niyatida bo'lsa, ammo unga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra jinoiy niyatini oxiriga yetkaza olmagan hollarda (xususan, bittasining nomusiga tegadi, ikkinchisiga esa ulgurmaydi) uning qilmishi ikki yoki undan ortiq shaxsning nomusiga tajovuz qilishga suiqasd sifatida (O'zbekiston Respublikasi JK 25-moddasi va 118-moddasi 2-qismi «a» bandi) kvalifikatsiya qilinadi.

2. Takroran, xavfli retsivist tomonidan yoxud ilgari JKning 119-moddasida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan shaxs tomonidan sodir etilgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi **JK 118-moddasi 2-qismi «b»bandi** bilan javobgarlikka tortiladi.

Takroran nomusga tegish jinoyatini sodir etishda aybdor avvalgi qilmishini oxiriga yetkazmaganidan va unda bevosita bajaruvchi yoki boshqa ishtirokchi sifatida qatnashganidan qat'i nazar, agar aybdor sodir etgan qilmishlarining birortasi uchun javobgarlikka tortilmagan va mazkur qilmishlar uchun jinoiy javobgarlikka tortish muddati o'tmagan bo'lsa, uning harakatlari **JK 118-moddasi 2-qismi «b»bandi** bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Takroran sodir etilgan nomusga tegishni ikki yoki undan ortiq kishining nomusiga tegishdan farqlash lozim. Ikkinchi holatda aybdorning harakatlari yagona qasd bilan qamrab olinadi, birinchi holatda esa aybdorda har bir nomusga tegish oldidan alohida qasd

vujudga keladi. Bu ko‘rib chiqilayotgan holatlar o‘rtasidagi asosiy farq hisoblanadi. Shuningdek, shuni alohida inobatga olish lozimki, takroran nomusga tegish ikki yoki undan ortiq kishining nomusiga tegishdan farqli ravishda aynan bir jabrlanuvchiga nisbatan sodir etilishi ham mumkin.

NOTA BENE !

Jabrlanuvchi aynan bir shaxs yoki boshqa shaxslar bo‘lishidan qat’i nazar, qilmish **takroran** jinoyat sodir etilgan deb kvalifikatsiya qilinadi.

Ammo aybdor aynan bir jabrlanuvchiga nisbatan uzoq bo‘lmagan vaqt oralig‘ida bir necha jinsiy harakatlarni sodir etgan bo‘lsa va sodir etilgan nomusga tegishning ish holatlari aybdorning qasdi shunga yo‘nalganligidan dalolat bersa (davomli jinoyat), uning harakatlari takroran nomusga tegish sifatida baholanishi mumkin emas.

Agar aybdor **xavfli retsivist** yoxud ilgari **JKning 119-moddasida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan shaxs** bo‘lsa, u O‘zbekiston Respublikasi **JK 118-moddasi 2-qismi «b» bandi** bilan javobgarlikka tortiladi. Tabiiyki, mazkur holatda shaxsning avvalgi sodir etgan qilmishi uchun qonunda belgilangan tartibda sudlanganlik olib tashlanmagan yoki muddati o‘tib ketmagan bo‘lishi lozim.

3. **JK 118-moddasi 2-qismi «v» bandida** bir guruh shaxslar tomonidan nomusga tegish uchun javobgarlik belgilangan.

NOTA BENE !

Bir guruh shaxslar tomonidan nomusga tegish deganda, jinoyatni sodir etishda ikki yoki undan ortiq aqli raso 14 yoshga to‘lgan jismoniy shaxslarning ishtirok etishi tushuniladi. Bunda ularning har biri guruhning boshqa a‘zolari bilan kelishib harakat qilgan hamda nomusga tegish jinoyati obyektiv tomonining hech bo‘lmaganda bitta harakatini sodir etgan bo‘lishi lozim. Ishtirokchilar o‘rtasida oldindan til biriktirilganligi ahamiyatga ega emas.

Nomusga tegishning **bir guruh shaxslar** tomonidan sodir etilishi deganda, mazkur jinoyat subyekti belgilariga muvofiq keluvchi shaxslar tomonidan jinoyatni sodir etish tushuniladi. Ikki yoki undan ortiq shaxs jabrlanuvchining nomusiga tegishni tashkillashtirgan, lekin jinoyat sodir etilishida bevosita qatnashmagan bo'lsa, jinoyat sodir qilgan shaxslar esa 14 yoshga to'lmaganligi uchun jinoyat subyekti bo'la olmasa, shaxs harakatlari JK 118-moddasi 1-qismi bilan javobgarlikka tortiladi. Mazkur holatda nomusga tegishning tashkilotchisi qo'shimcha ravishda JK 127-moddasi 3-qismi bilan, ya'ni Voyaga yetmagan shaxslarni jinoyat sodir etishga jalb qilganlik uchun kvalifikatsiya qilinishi kerak.

Agar bir necha aybdor nomusga tegish harakatlarini bajarishga **oldindan til biriktirmagan bo'lsa**, ular nomusga tegayotgan shaxsga obyektiv jihatdan turli xil yordam bergan bo'lsalar ham jinoyat bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan deb topilmaydi. Chunki aybdorlar harakati o'rtasida hech qanday subyektiv bog'liqlik mavjud bo'lmaydi. Turli shaxslar tomonidan mustaqil holda harakat qilib sodir etilgan nomusga tegish bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan deb topilishi mumkin emas.

Nomusga tegish ikki yoki undan ortiq bajaruvchi (ishtirokchi) shaxs tomonidan sodir etilganda qilmish **JK 118-moddasi 2-qismi «v» bandi** bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim. Nomusga tegish jinoyatining tarkibi qonunchilik tomonidan shunday tuzilganki, faqatgina ikki harakatni: nomusga tegish va zo'rlik ishlatish yoki nomusga tegish va qo'rqitish harakatlarini sodir etish jinoyat hisoblanadi. Jabrlanuvchining o'jizligidan foydalanib uning nomusiga tegish bunday holatda istisno holat hisoblanadi. Birinchi ikki holatda qo'rqitish va zo'rlik ishlatish nomusga tegishdan oldin sodir etilsa (nomusga tegish bilan turli vaqtlarda sodir etilsa), mazkur holatda esa ikkala harakat bir-biriga qo'shib ketadi, ya'ni o'jiz ahvolda bo'lgan shaxsning nomusiga tegish uning bunday o'jizligidan foydalanish hisoblanadi.

Ikki subyekt tomonidan amalga oshiriladigan nomusga tegish jinoyati obyektiv tomonining mazkur jihatini inobatga olib, ishtirokchilar deb, o'z harakatlari bilan jinoyat tarkibi obyektiv tomonining belgilarini to'liq yoki qisman amalga oshiradigan, jabrlanuvchi erkiga qarshi

nomusga tegishni bevosita amalga oshiradigan yoki uning qarshiligini bartaraf qilish va bu bilan boshqa shaxsning jinsiy ehtiyojini qondirishini ta'minlash maqsadida jabrlanuvchiga jismoniy zo'rlik ishlatadigan yoki uni qo'rqitadigan shaxslar tushuniladi. Bunday holatda ular jinoyat obyektiv tomonini bajarishda ishtirok etadilar va bajaruvchilar, ya'ni **guruh ishtirokchisi** bo'ladilar.

Nomusga tegishning ishtirokchilari (tashkilotchi, dalolatchi, yordamchi) bevosita jinsiy aloqa qilmagan, lekin boshqa shaxslarning jabrlanuvchi bilan zo'rlik ishlatib, jinsiy aloqa qilishiga ko'maklashgan (aldash orqali jabrlanuvchini jinoyat joyiga keltirgan, jinoyat sodir etish uchun joy tayyorlab bergan, jabrlanuvchini ojiz ahvolga solish uchun ko'maklashgan va boshq.) hollarda ularning qilmishi bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan nomusga tegish deb e'tirof etilmaydi. Bunday hollarda ana shu shaxslarning qilmishi JK 28-moddasi orqali 118-moddaning tegishli qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Agar bunday ishtirokchilar nomusga tegishni sodir etayotgan bir necha bajaruvchilarga qasddan yordam bergan bo'lishsa, ular JK 28-moddasi va 118-moddasi 2-qismi «v» bandi bilan javobgarlikka tortiladilar. Qilmishni kvalifikatsiya qilishda bunday yondashuv shu bilan izohlanadiki, tashkilotchilar, dalolatchilar, yordamchilar jinoyat obyektiv tomonida belgilangan harakatlarni sodir etmaydilar va mazkur holatda bir guruh shaxslar deb e'tirof etilmaydilar. Bunday holatda bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan nomusga tegishni rollarni taqsimlagan holda ishtirokchilikda sodir etiladigan nomusga tegishdan farqlash lozim.

Nomusga tegish nafaqat bir necha subyekt tomonidan bir shaxsga nisbatan amalga oshirilganida, balki jinoyatchilar oldindan til biriktirib ikki yoki undan ortiq shaxsga nisbatan zo'rlik ishlatganida (boshqacha qilib aytganda, har bir jinoyatchi jabrlanuvchilardan birining nomusiga tekkanida) ham bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan deb topilishi lozim.

Oldindan til biriktirish turli shaklda bo'lishi mumkin bo'lgan (og'zaki tarzda, imo-ishoralar orqali), nomusga tegishga qaratilgan harakatlar amalga oshirilishidan oldin ikki yoki undan ortiq shaxsning

kelishuvi hisoblanadi. Qilmishni JK 118-moddasi 2-qismi «v» bandi bilan kvalifikatsiya qilishda aybdorlarning oldindan til biriktirganligi zaruriy belgi hisoblanmaydi, ammo mazkur holat sud tomonidan jazo tayinlashda og'irlashtiruvchi holat sifatida inobatga olinishi lozim.

4. o'ldirish bilan qo'rqitib nomusga tegish O'zbekiston Respublikasi **JK 118-moddasi 2-qismi «g» bandi** bilan kvalifikatsiya qilinadi.

O'ldirish bilan qo'rqitish deganda, jabrlanuvchini hayotidan mahrum qilish bilan qo'rqitish tushunilishi zarur.

Aksariyat hollarda nomusga tegish o'ldirish bilan qo'rqitib (og'zaki «o'ldiraman», «mayib qilaman», «osaman», «zaharlayman» deb) sodir etiladi, ammo do'q-po'pisa sukut saqlagan holda, nihoyatda ma'noli imo-ishoralar (quroldan foydalanib, jabrlanuvchini hayotdan mahrum qilish mumkin bo'lgan boshqa jismlarni namoyish etish vositasida va hokazo) bilan ham ifodalanishi mumkin. o'ldirish bilan qo'rqitish ishonarli, jabrlanuvchining o'z hayoti uchun xavotirlanishi uchun yetarli bo'lishi kerak. Aybdorning o'z do'q-po'pisasini amalga oshirish niyatida bo'lgan yoki bo'lmaganligi ahamiyatga ega emas.

Agar o'ldirish bilan qo'rqitish jabrlanuvchining qarshiligini bartaraf etish maqsadida qo'llanilgan bo'lsa, qilmish JK 118-moddasi 2-qismi «g» bandi bilan javobgarlikka tortiladi. Bunday qo'rqitish mazkur moddaning dispozitsiyasi bilan qamrab olinadi va qilmishni JK 112-moddasi (o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish) bilan qo'shimcha kvalifikatsiya qilish talab qilinmaydi.

Agar o'ldirish bilan qo'rqitish nomusga tegishdan so'ng, masalan, jabrlanuvchi bo'lgan voqealarni hech kimga aytmasligi maqsadida amalga oshirilgan bo'lsa, agar jabrlanuvchida qo'rqitish amalga oshirishdan xavfsirash paydo bo'lgan bo'lsa, aybdor harakatlari JK 118-moddasi 1-qismi (og'irlashtiruvchi holatlar bo'lmagan holda) va JK 112-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Jabrlanuvchini turli oqibatlar kelib chiqishi mumkinligi bilan qo'rqitish (turli darajadagi tan jarohatlari yetkazilishi bilan) JK 118-moddasi 1-qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

JK 118-moddasi 3-qismi bir qator og'irlashtiruvchi holatlarni o'z ichiga oladi:

1. **JK 118-moddasi 3-qismi «a» bandi** – shaxsning 18 yoshga to‘lmaganligi aybdorga ayon bo‘lgan holda nomusga tegish.

Mazkur jinoyatning **bevosita obyekti** Voyaga yetmagan shaxslarning jinsiy erkinligi yoki jinsiy daxlsizligi hisoblanadi.

14 yoshga to‘lmagan shaxsning nomusiga tegish JK 118-moddasi 4-qismida nazarda tutilganligi bois mazkur jinoyat jabrlanuvchilari 14 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan shaxslar hisoblanadi.

Nomusga tegishni **JK 118-moddasi 3-qismi «a» bandi** bilan baholash uchun aybdor 18 yoshga to‘lmagan shaxs bilan zo‘rlik ishlatib jinsiy aloqa qilayotganini bilgan bo‘lishi lozim. Agar jabrlanuvchining yoshiga nisbatan yanglishgani aniqlangan taqdirda (masalan, tashqi ko‘rinishi, bo‘y-basti, jabrlanuvchining xulqi va hokazolar) uning qilmishi JK 118-moddasi 3-qismi «a» bandi bilan o‘n sakkiz yoshga to‘lmaganligi aybdorga ayon bo‘lgan shaxsning nomusiga tegish deb kvalifikatsiya qilinmaydi. Bunday hollarda, aybdor JK 118-moddasi 1-qismi bo‘yicha javobgarlikka tortiladi.

NOTA BENE !

Qonun, ularning **o‘zi rozi bo‘lsa ham 16 yoshga** to‘lmagan shaxslar bilan jinsiy aloqa qilishni **qat’iyan man etadi**.

16 yoshga to‘lmagan shaxs bilan ixtiyoriy ravishda jinsiy aloqa qilish JK 128-moddasida nazarda tutilgan jinoyat tarkibini tashkil etadi.

2. Yaqin qarindoshning nomusiga tegish O‘zbekiston Respublikasi **JK 118-moddasi 3-qismi «b» bandi** bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Sud-tergov amaliyotida yaqin qarindoshlarining (o‘z qizlari, nabiralari, opa-singillari, o‘gay qizlar va hokazolarning) nomusiga tegish hollari ham uchrab turadi.

Shak-shubhasiz, bunday jinoyatlar jamiyatimizda mavjud bo‘lgan axloq normalariga zid bo‘lib, Qoyat darajada axloqsizligi, uyatsizligi bilan ajralib turadi.

NOTA BENE !

Yaqin qarindoshlar deganda, qarindosh yoki quda tomondan qarindosh bo‘lgan shaxslar, ya’ni ota-ona, opa-uka va opa-singillar, er-xotin, farzand, shu jumladan, farzandlikka olinganlar, nevaralar, shuningdek, er-xotinning ota-onasi, aka-uka va opa-singillari tushuniladi. Shu munosabat bilan zo‘rluk ishlatib, qo‘rqitib yoki ojizlik holatidan foydalanib, qarindoshlar bilan jinsiy aloqa qilish shaxsni **JK 118-moddasi 3-qismi «b» bandi** bilan javobgarlikka tortish uchun asos bo‘ladi.

3. O‘zbekiston Respublikasi **JK 118-moddasi 3-qismi «v» bandi** – ommaviy tartibsizliklar qatnashchisi tomonidan sodir etilgan nomusga tegish.

Nomusga tegish ommaviy tartibsizliklar vaqtida uning qatnashchilari tomonidan sodir etilgan taqdirdagina aybdorning qilmishi JK 118-moddasi 3-qismi «v» bandi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Nomusga tegish ommaviy tartibsizliklarning tashkilotchisi yoki faol qatnashchisi tomonidan sodir etilgan bo‘lsa, aybdorning qilmishi JK 118-moddasi 3-qismi va 244-modda (Ommaviy tartibsizliklar) bilan jinoyatlarning jami bo‘yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim.

4. O‘zbekiston Respublikasi **JK 118-moddasi 3-qismi «g»bandi** – o‘ta xavfli retsivist tomonidan sodir etilgan nomusga tegish.

Qilmish o‘ta xavfli retsivist tomonidan sodir etilgan deb aybdorni **JK 118-moddasi 3-qismi «g»bandi** bilan jinoiy javobgarlikka tortish uchun, uning nomusga tegishdan oldin JK 34-moddasi 3-qismiga muvofiq qonunda belgilangan tartibda o‘ta xavfli retsivist deb topilganligini aniqlash zarur.

5. O‘zbekiston Respublikasi **JK 118-moddasi 3-qismi «d»bandi** – nomusga tegish natijasida og‘ir oqibatlarining kelib chiqishi.

Quyidagilar **og‘ir oqibatlar** deb e’tirof etilishi mumkin:

– jabrlanuvchining o‘limi kelib chiqishi yoki unga og‘ir tan jarohatlari yetkazilishi;

- shaxsning tanosil yoki OIVG‘OITS kasalligi o‘zida borligini bila turib uni jabrlanuvchiga yuqtirishi¹;
- shaxsning o‘zini o‘zi o‘ldirishi yoki o‘zini o‘zi o‘ldirishga suiqasd qilishi;
- baxtsiz hodisa natijasida jabrlanuvchining o‘limi kelib chiqishi yoki unga og‘ir tan jarohatlari yetkazilishi;
- bachadondan tashqarida homilaning paydo bo‘lishi yoki tibbiy nuqtai nazardan tug‘ish yoki homilani sun’iy tushirish (abort) mumkin bo‘lmagan holda jabrlanuvchining homilador bo‘lishi (masalan, uning yosh bola ekanligi).

Mazkur holatda sodir etilgan qilmish JK **118-moddasi 3-qismi «d» bandi** bilan to‘liq qamrab olinadi va JK Maxsus qismining boshqa moddalari bilan qo‘shimcha kvalifikatsiya qilish talab qilinmaydi (masalan, nomusga tegish paytida ehtiyotsizlikdan jabrlanuvchining o‘limi kelib chiqsa JK 102-moddasi bilan, jabrlanuvchi o‘zini o‘zi o‘ldirsa JK 103-moddasi bilan, jabrlanuvchi ruhiy kasalga chalinsa JK 104-moddasi bilan).

NOTA BENE !

Nomusga tegish natijasida kelib chiqqan **og‘ir oqibatlarga** jinsiy aloqa oqibatlari, shuningdek, aybdor tomonidan jabrlanuvchiga nisbatan zo‘rlik ishlatib amalga oshirgan boshqachaharakatlari, undan tashqari jabrlanuvchining unga nisbatan ishlatilgan zo‘rlikni bartaraf qilish uchun qilgan harakatlari natijasida vujudga kelgan oqibatlar kiradi.

Nomusga tegish bilan bog‘liq barcha hollarda zo‘rlanganidan so‘ng yuz bergan barcha og‘ir oqibatlar bilan zo‘rlik ishlatib jinsiy aloqa qilish o‘rtasida **sababiy bog‘lanish** mavjudligini aniqlash zarur. Shunday bog‘lanish mavjudligi aniqlanmasa, jinoyatni **JK 118-moddasi 3-qismi «b» bandi** bilan kvalifikatsiya qilib bo‘lmaydi. Unda jabrlanuvchining o‘limiga nisbatan aybdorning aybi faqat ehtiyotsizlik shaklida bo‘ladi.

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2010 йил 29 октябрдаги «Номусга тегиш ва жинсий эҳтиёжни ғайритабiiий усулда қондиришга доир ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 13-сонли қарори, 16-банд // Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг қарори. – Т.: «Адолат», 2014. – 222-б.

Masalan, aybdorning jabrlanuvchining qarshiligini engish maqsadida zoʻrluk ishlatishi natijasida jabrlanuvchining oʻlimi kelib chiqqan boʻlsa, aybdor jabrlanuvchining oʻlimiga koʻzi yetmagan, lekin koʻzi yetishi lozim va mumkin boʻlgan boʻladi hamda kelib chiqqan oqibat ehtiyotsizlik natijasida yuz beradi.

Agar nomusga tegish jabrlanuvchisining oʻlimiga nisbatan aybdor qasddan harakat qilganligi aniqlansa, jinoyat **JK 118-moddasining** tegishli bandi va 97-moddasi 2-qismi «z» bandi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim. Tegishli ravishda agar jabrlanuvchi nomusga tegish amalga oshirilganidan soʻng hayot yoki sogʻliq uchun xavfli boʻlgan holda tashlab ketilishi oqibatida uning isboti kelib chiqsa yoki unga ogʻir tan jarohatlari yetkazilsa, qilmish **JK 118-moddasining** tegishli qismi va 117-moddasi bilan javobgarlikka tortiladi. Mazkur holatda **JK 118-moddasi 3-qismi «d» bandini** qoʻllash ortiqcha hisoblanadi, chunki qasddan odam oʻlimi yoki xavf ostida qoldirish jinsiy zoʻrluk ishlatish bilan bogʻliq holda sodir etilgan boʻlishiga qaramasdan nomusga tegishning ogʻirlashtiruvchi qismini tashkil qilmaydi va jinoyatning alohida tarkibini tashkil etadi va Shuning uchun bu holatda ikki marta javobgarlik belgilanmaydi.

Agar jabrlanuvchiga hayoti uchun xavfli ogʻir tan jarohatlari yetkazilgan boʻlsa-yu, ammo bu JK ning 104-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan oqibatlarga olib kelmasa, qilmish **JK 118-moddasi 1-qismi** va 104-moddaning 1-qismi bilan baholanadi.

Nomusga tegish natijasida jabrlanuvchining qizligini yoʻqotishi yoki homilador boʻlib qolishi ogʻir oqibat deb eʼtirof etilishi mumkin emas.

Oʻzbekiston Respublikasi **JK 118-moddasi 4-qismi** – oʻn toʻrt yoshga toʻlmaganligi aybdorga ayon boʻlgan shaxsning nomusiga tegish.

Jabrlanuvchining 14 yoshga toʻlmaganligi aybdorga oldindan maʼlum boʻlgan yoki uning xulqi va tashqi koʻrinishiga qarab yoshini bilishi lozim boʻlgan hollardagina aybdorning qilmishi **JK 118-moddasi 4-qismi** bilan kvalifikatsiya qilinadi. Basharti aybdor jabrlanuvchining yoshiga nisbatan haqiqatan ham yanglishgan boʻlsa, uning qilmishi JK 118-moddasi 1-qismi bilan, jabrlanuvchining oʻn sakkiz yoshga

toʻlmaganligini taxmin qilgan boʻlsa, **JK 118-moddasi 3-qismi «a»** bandi bilan kvalifikatsiya qilinishi zarur.

Agar 14 yoshga toʻlmaganligi aybdorga ayon boʻlgan shaxsning nomusiga tegish sodir etilib, keyinchalik uning ixtiyori bilan nomusga tegish harakatlari sodir etilgan boʻlsa, qilmish jinoyatlar jami tariqasida **JK 118-moddasi 4-qismi** va 128-moddasi (oʻn olti yoshga toʻlmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish) bilan kvalifikatsiya qilinadi.

2-§. Jinsiy ehtiyojni zoʻrlik ishlatib, gʻayritabiiy usulda qondirish (JK 119-moddasi)

Mazkur jinoyatning **bevosita obyekti** jabrlanuvchining jinsiy erkinligini taʼminlovchi ijtimoiy munosabatlar, shuningdek, oʻz ixtiyoriga koʻra jinsiy aloqa qilish sherigini tanlash huquqi, 16 yoshga toʻlmagan shaxslarning jinsiy daxlsizligi hisoblanadi. Jinsiy ehtiyojni zoʻrlik ishlatib gʻayritabiiy usulda qondirishning **qoʻshimcha obyekti** jabrlanuvchining sogʻligi va (yoki) hayoti boʻlishi mumkin.

Obyektiv tomondan jinoyat zoʻrlik ishlatib, qoʻrqitib yoki jabrlanuvchining oʻzligidan foydalanib, jinsiy ehtiyojni gʻayritabiiy usulda qondirishda ifodalanadi.

Mazkur moddada nazarda tutilgan jinoyat:

1) erkak kishining jinsiy ehtiyojini ayol bilan gʻayritabiiy usulda zoʻrlik ishlatib qondirishida;

2) ayolning jinsiy ehtiyojini ayol bilan zoʻrlik ishlatib qondirishida;

3) erkak kishining jinsiy ehtiyojini erkak bilan zoʻrlik ishlatib qondirishida;

4) jinsiy ehtiyojini qondirishga qaratilgan boshqa shahvoniy harakatlarni sodir etishda (masalan, jabrlanuvchini jinsiy aʼzo bilan muomala qilishga majburlashda va hokazo) ifodalanishi mumkin.

(«Zoʻrlik», «zoʻrlik ishlatish bilan qoʻrqitish», «jabrlanuvchining oʻz ahvoli» tushunchalarini JK 118-moddasi tahlilida koʻrib chiqqan edik.)

Koʻrib chiqilayotgan jinoyat jinsiy ehtiyojni gʻayritabiiy usulda qondirishga qaratilgan zoʻravonlik harakati sodir etilgan daqiqadan

e'tiboran, defloratsiya va eyakulyatsiyadan qat'i nazar, tugallangan deb e'tirof etiladi.

Jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish aybdorning xohish-irodasiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra nihoyasiga yetkazilmagan bo'lsa, qilmish shu jinoyatga suiqasd deb topiladi (masalan, kiyimlarini echish, muayyan holatda turishga majburlash va hokazo) va JK 119-moddasi hamda 25-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib, g'ayritabiiy usulda qondirishdan ko'ngilli ravishda voz kechish hollari ham uchraydi.

Subyektiv tomondan jinoyat to'g'ri qasddan g'arazli niyat bilan sodir etiladi. Jinoyatning **motivi** – shahvoniy aloqa, shuningdek, jabrlanuvchining sha'nini tahqirlash bo'lishi mumkin, **maqsad** – jinsiy ehtiyojni qondirish.

Jinoyatning subyeksi o'n to'rt yoshga to'lgan har qanday aqli raso shaxs bo'lishi mumkin.

Mazkur jinoyatning nomusga tegishdan farqi shundaki, nomusga tegishda jinsiy aloqa zo'rlik ishlatib **tabiiy usulda** sodir etiladi, bu jinoyatlarning boshqa barcha alomatlari esa bir xildir.

(Bu haqda batafsil JK 118-moddasi tahliliga qarang.)

3-§. Besoqolbozlik (erkakning erkak bilan jinsiy aloqa qilishi) (JK 120-moddasi)

Tahlil etilayotgan jinoyatning **bevosita obyeksi** jinsiy aloqalarning qaror topgan (normal) tartibini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Besoqolbozlik **obyektiv tomondan** erkakning erkak bilan jinsiy ehtiyojini ixtiyoriy qondirishidan iboratdir.

Besoqolbozlik – erkakning erkak bilan jinsiy ehtiyojini qondirishga qaratilgan har ikki tomonning ixtiyoriy harakatlaridir.

Basharti besoqolbozlikda zo'rlik ishlatish, qo'rqitish yoki jabrlanuvchining o'zligidan foydalanish alomatlari mavjud bo'lsa, aybdorning qilmishi JK 119-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Jinoyat jinsiy aloqa boshlangan daqiqadan e'tiboran **tugallangan** deb e'tirof etiladi.

Subyektiv tomondan jinoyat **to'g'ri qasd** bilan sodir etiladi.

Besoqolbozlikning subyekt o'n olti yoshga to'lgan, g'ayritabiiy jinsiy aloqa (gomoseksualizm)ning faol yoki passiv qatnashchisi bo'lgan shaxs hisoblanadi.

Besoqolbozlikning ishtirokchilaridan biri o'n olti yoshga to'lmagan bo'lsa, ikkinchi ishtirokchining qilmishi uning faol yoki passiv rol o'ynaganidan qat'i nazar, JK 128-moddasi (o'n olti yoshga to'lmagan shaxs bilan g'ayritabiiy usulda jinsiy aloqa qilish) bilan kvalifikatsiya qilinadi.

4-§. Ayolni jinsiy aloqa qilishga majbur etish (JK 121-moddasi)

Jinoyatning **bevosita obyekt** ayolning jinsiy erkinligini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Obyektiv tomondan jinoyat xizmat, moddiy yoki boshqa jihatlardan aybdorga qaram bo'lgan ayolni jinsiy aloqa qilishga yoki jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirishga majbur etishda ifodalanadi.

NOTA BENE !

Majbur etish deganda, ayolning xohish-irodasiga qarshi u bilan jinsiy aloqa qilish yoki jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish maqsadida uning ruhiyatiga g'ayriqonuniy tazyiq o'tkazishni tushunish zarur.

(«Jinsiy aloqa» tushunchasini JK 118-moddasi, «Jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish» tushunchasini esa JK 119-moddasi tahlilida ko'rishingiz mumkin.)

Jabrlanuvchiga majburlash paytida huquqqa xilof ruhiy ta'sir ko'rsatish quyidagi usullarda amalga oshiriladi:

– **xizmat jihatidan qaramlik**, ya'ni ayolning uni majburlovchi shaxsga xizmat yuzasidan bo'ysunishi – «rahbar – bo'ysunuvchi xodim»

ko‘rinishida (masalan, jabrlanuvchini ishdan bo‘shatish, kam haq to‘lanadigan ishga o‘tkazish, pul mukofotlaridan mahrum qilish, past lavozimga o‘tkazish, yashash manbalaridan mahrum qilish bilan qo‘rqitish va boshq.) bo‘lishi mumkin;

– **moddiy jihatdan qaramlik**, ya’ni ayolning uning jinsiy erkinligiga tahdid solayotgan shaxsga moddiy qaramligi yoki yashash uchun mablaQlarning asosiy qismini shu shaxsdan olishi (masalan, jabrlanuvchida to‘lay olmaydigan qarz majburiyatlarining mavjudligi; ayolning o‘z yashash joyi bo‘lmay turib aybdorning uyida yashashi va boshq.) hisoblanadi;

– **boshqacha tarzdagi qaramlik**, ya’ni tegishli xizmat vazifasini egallab turgan shaxsning jabrlanuvchi uchun muhim sanalgan masalalarni hal qilishi natijasida jabrlanuvchining ma’lum bir imtiyoz, foyda, ustunlikka erishishi. Bunday qaramlik turli ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin, masalan, «sportchi ayol – uning murabbiyi», «gumon qilinuvchi – tergovchi», «ariza bilan murojaat qilayotgan shaxs – arizani qanoatlantira oladigan shaxs», «aspirant – ilmiy rahbar».

Bundan tashqari, aybdor jabrlanuvchiga JK 121-moddasi 1- qismi dispozitsiyasida nazarda tutilgan jinsiy harakatlarni sodir etsa, uning qonuniy huquq va erkinliklarini buzmasligi shartini qo‘yishi mumkin.

Shuni tushunish lozimki, bu harakatlar ayolni yomon ahvolga solib qo‘yishga qaratiladi.

Ma’lum imtiyozlarning berilishi, ishlash uchun qulay sharoitlar, afzalliklarning yaratilishi, sovg‘alar tortiq etilishi, har xil qonuniy va noqonuniy xizmatlarning ko‘rsatilishini majbur etish deb e’tirof qilish mumkin emas.

Majburlash shaxsni o‘zi yoki boshqalar bilan tabiiy yoki g‘ayritabiiy usulda aloqa qilishga qaratilgan bo‘lishi mumkin.

Taklifning o‘zida, agar majbur etish alomati bo‘lmasa, tahlil qilinayotgan jinoyat tarkibi bo‘lmaydi. Jabrlanuvchining o‘zi qaram bo‘lgan shaxs bilan, o‘z roziligi bilan jinsiy aloqaga kirishishi jinoyat tarkibini tashkil etmaydi.

Majburlash ayolga nisbatan uni jinsiy aloqa qilishga yoki jinsiy ehtiyojni zo‘rlik ishlatib g‘ayritabiiy usulda qondirishga ko‘ndirish

maqsadida ruhiy zoʻrlik ishlatishning oʻziga xos shakli boʻlganligi uchun mazkur jinoyat tarkibi bilan JK 118- va 119-moddalarida nazarda tutilgan ruhiy zoʻrlik ishlatish bilan sodir etiladigan jinoyatlarni bir-biridan farqlash masalasi yuzaga keladi.

Ayolni majbur etishning nomusga tegishdagi ruhiy tazyiqdan farqi shundaki, ayol bosh tortgani doʻq-poʻpisaning darhol amalga oshirilishini taxmin qilmaydi. Ayni vaqtda yetkazilayotgan yoki doʻq-poʻpisa qilinayotgan zarar, birinchidan, bevosita jabrlanuvchining shaxsiga emas, uning mulkiy va boshqa shaxsiy huquqlariga daxldor boʻlishi, ikkinchidan, oʻz mohiyatiga koʻra bu zarar jabrlanuvchi xizmat yoki moddiy jihatdan qaram boʻlgan shaxs tomonidagina yetkazilgan boʻlishi kerak.

Agar shaxs oʻziga xizmat yuzasidan, moddiy jihatdan yoki boshqacha tarzda qaram boʻlgan ayolga uning nomusiga tegish yoki jinsiy ehtiyojini Gʻayritabiiy usulda qondirish maqsadida unga nisbatan ruhiy zoʻrlik ishlatsa, aybdorning harakatlari JK 118- yoki 119-moddalarining tegishli qismi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

JK 121-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyat ayolni jinsiy aloqa qilishga yoki jinsiy ehtiyojni Gʻayritabiiy usulda qondirishga majburlash faktining oʻzi, maqsadga erishilgan yoki erishilmaganidan qatʼi nazar, **tugallangan jinoyat** deb qaralishi kerak. JK 121-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan jinoyat esa aybdor tomonidan oʻz maqsadiga erishganidan soʻng, yaʼni jinsiy aloqa qilingan yoki jinsiy ehtiyoj gʻayritabiiy usulda qondirilgan paytdan boshlab tugallangan hisoblanadi.

Basharti shaxs ayolning xohish-irodasi boshqa shaxs tomonidan boʻysundirilganini bila turib, u bilan jinsiy aloqa qilsa yoki jinsiy ehtiyojni gʻayritabiiy usulda qondirsa, uning qilmishini JK 121-moddasi bilan kvalifikatsiya qilish mumkin emas. Ayrim hollarda aybdor majburlashga dalolat qilganligi uchun JK 28-moddasi orqali 121-moddasi bilan javobgarlikka tortiladi.

Subyektiv tomondan mazkur jinoyat faqat **toʻgʻri qasd** bilan sodir etiladi. Aybdor jabrlanuvchini uning xizmat yuzasidan, moddiy yoki boshqacha qaramligidan foydalanib u bilan yoki uchinchi shaxs bilan jinsiy aloqa qilish yoki jinsiy ehtiyojni zoʻrlik ishlatib gʻayritabiiy

usulda qondirishga majburlayotganini anglaydi, jinsiy ehtiyojini qondirish **motivi** asosida bu narsani xohlaydi.

Ushbu **jinoyatning subyekt**i 16 yoshga to'lgan shaxs hisoblanadi.

o'z manfaatini ko'zlab, jabrlanuvchining xizmat, moddiy yoki boshqa jihatlardan qaramligidan foydalanib, uni erkak kishi bilan jinsiy aloqa qilishga majburlagan ayol ham jinoyatning subyekt*i bo'lishi* mumkin.

«Jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlar» mavzusi bo'yicha yakuniy savollar

1. Nomusga tegish deganda nima tushuniladi?
2. Nomusga tegish jinoyatini sodir etishda qanday zo'rlik turlari qo'llaniladi?
3. Javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlarda nomusga tegish jinoyati kvalifikatsiyasining asosiy xususiyatlarini sanang.
4. o'ldirish bilan qo'rqitib nomusga tegish jinoyatining o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish jinoyatidan farqi nimada ko'rinadi?
5. Og'ir oqibatlarga, ehtiyotsizlikdan odam o'limi kelib chiqqan nomusga tegishning nomusga tegish yoki jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib G'ayritabiiy usulda qondirish bilan bog'liq holda odam o'ldirishdan farqi nimada ko'rinadi?
6. Nomusga tegish jinoyatini jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib G'ayritabiiy usulda qondirish jinoyatidan farqi nimada?
7. Jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib, G'ayritabiiy usulda qondirish jinoyatining besoqolbozlik jinoyatidan farqi.
8. Besoqolbozlik jinoyati uchun javobgarlikning o'ziga xos xususiyatlari nimada?
9. Ayolni jinsiy aloqa qilishga majbur etishning nomusga tegishdagi ruhiy tazyiqdan farqi nimada? Ayolni jinsiy aloqa qilishga majbur etganlik uchun aybdor javobgarligining o'ziga xos jihatlari nimada?
10. JK 121-moddasida berilgan xizmat, moddiy yoki boshqa jihatlardan qaram deganda nima nazarda tutiladi?
11. Nomusga tegish bilan ayolni jinsiy aloqa qilishga majbur etishning o'xshash va farq qiluvchi jihatlari nimada namoyon bo'ladi?

Qo‘shimcha adabiyotlar

O‘quv qo‘llanmalar, maxsus adabiyotlar

Антонян Ю.М., Ткаченко А.А. Сексуальные преступления. – М.: 1993.

Дьяченко А.П. Уголовно-правовая охрана в сфере сексуальных отношений. – М.: 1996.

Зубкова В.И. Ответственность за преступления против личности по законодательству России. – М.: «Норма», 2005. – 256 Б.

Кондрашова Т.В. Проблемы уголовной ответственности за преступления против жизни, здоровья, половой свободы и половой неприкосновенности. – Екатеринбург: 2000. – 239 Б.

Конева М.А. Насильственные действия сексуального характера. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2002. – 304 Б.

Мацнев Н.И. Половые преступления. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2003. – 400 Б.

Рустамбаев М.Х. Преступления против личности. Учебное пособие. – Т.: «Эльдинур», 1998. – 181 Б.

Ilmiy maqolalar

Блиндер Б.А. Повторность как обстоятельство, отягчающее изнасилование // В кн.: Вопросы уголовного права, уголовного процесса и криминологии. – Душанбе: 1966.

Блиндер Б.А. Уголовно-правовая охрана свободы и достоинства женщины // Сборник научных трудов ТашГУ. – Т.: ТашГУ, 1970.

Блиндер Б.А., Халиков А. Некоторые вопросы квалификации и предупреждения половых преступлений против несовершеннолетних // Сборник научных трудов ТашГУ. – Т.: ТашГУ, 1975.

Пайзуллаев К.П. Юридическая и криминологическая характеристика личности преступника, совершившего сексуальное насилие против несовершеннолетних // Ж. Давлат ва ҳуқуқ. 2003. № 3. – 49–51-б.

Рустамбаев А.М. Вопросы соучастия при групповом сексуальном насилии // ТДЮИ магистрантларининг илмий мақолалар тўплами. 2004. № 6. – 143–152-б.

Рустамбаев А.М. Объект преступлений и потерпевшее лицо в преступлениях, составляющих сексуальное насилие // ТДЮИ магистрантларининг илмий мақолалар тўплами. 2004. № 6. – 136–144-б.

Рустамбаев А.М. Социальная обусловленность противоправности и наказуемости сексуального насилия и его виды // Ёш олимлар илмий мақолалари тўплами. 2004. № 6. – 88–96-б.

Рустамбаев А.М. Вина, мотив, цель в преступлениях составляющих сексуальное насилие // Ёш олимлар илмий мақолалари тўплами. 2003. № 5. – 157–163-б.


Рустамбаев М.Х., Ниязов А. Ответственность за угрозу в зарубежном законодательстве // Ж. Давлат ва ҳуқуқ. 2000. № 2. – 64–68-б.

Тоҳиров Ф. Отграничение преступлений, предусмотренных статьями 118, 119 УК РУз от развратных действий в отношении лица, не достигшего 16 лет // Ж. Вестник Каракалпакского Отделения Академии наук Республики Узбекистан. – Нукус: 2002. № 1–2. – 81–83-б.

Тоҳиров Ф. Юридическая и социально психологическая характеристика субъекта преступлений, составляющих сексуальное насилие // Ж. Ҳуқуқ, бизнес ва сиёсат. –Хўжанд: 2002. № 1–2. – 12–16-б.

VI BOB. OILAGA, YOSHLARGA VA AXLOQQA QARSHI JINOYATLAR

8-sxema



1-§. Voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash (JK 122-moddasi)

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64-moddasida: «Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar.

Davlat va jamiyat etim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo‘lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o‘qitishni ta’minlaydi, bolalarga bag‘ishlangan xayriya faoliyatlarni rag‘batlantiradi», deb belgilangan.

Konstitutsiyaning 65-moddasida esa: «Farzandlar ota-onalarining nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar»¹, deb ta’kidlangan.

Oila kodeksiga ko‘ra, ota-ona Voyaga yetmagan bolalariga ta’minot berishi shart (Oila kodeksi 96-moddasi) yoxud, ota-ona voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bolalariga ta’minot berishi shartdir (Oila kodeksi 100-moddasi).

JKning 122-moddasida nazarda tutilgan **jinoyatning bevosita obyekti** Voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarning turmush kechirishi uchun normal moddiy sharoitlarni ta’minlash, shuningdek, Voyaga yetmaganlarning yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarning sog‘ligi, normal jismoniy rivojlanishini ta’minlashga yo‘naltirilgan munosabatlardir.

Jinoyatning obyektiv tomoni sudning hal qiluv qaroriga muvofiq moddiy yordamga muhtoj bo‘lgan Voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz shaxslarni boqish uchun undiriladigan mablag‘larni jami ikki oydan ortiq muddat mobaynida to‘lamaslikda ifodalanadi, shunday

¹Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси: Ўн иккинчи чакириқ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ўн биринчи сессиясида 1992 йил 8 декабрда қабул қилинган. (2002 йил 27 январда ўтказилган умумхалқ референдуми натижаларига кўра ҳамда унинг асосида Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 24 апрелда қабул қилинган Қонунига мувофиқ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси XVIII, XIX, XX, XXIII бобларига ўзгартиришлар ва қўшимчалар қиритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2007 йил 11 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 89-моддасига, 93-моддасининг 15-бандига, 102-моддасининг иккинчи қисмига тузатишлар қиритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2008 йил 25 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 77-моддасининг биринчи қисмига ўзгартириш қиритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2011 йил 12 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 90-моддасининг иккинчи қисмига тузатиш қиритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 16 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 32, 78, 93, 98, 103 ва 117 моддаларига ўзгартиш ва қўшимчалар қиритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 6 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 4-бандига, 81-моддасининг еттинчи қисмига, 83-моддасига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13 ва 14- бандларига, 107-моддасининг биринчи қисмига, 110-моддасининг биринчи ва учинчи қисмларига, 111-моддасига ўзгартишлар ва қўшимча қиритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 31 майда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 5 ва 12-бандларига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13-бандига ҳамда 108, 109-моддаларига ўзгартишлар қиритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 29 августда қабул қилинган қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 99 ва 10-моддаларига ўзгартишлар қиритилган.) – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. –22 б.

qilmish uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa.

NOTA BENE !

Bo'yin tovlash deganda, nafaqat sudning hal qiluv qarori bajarilishini to'g'ridan-to'g'ri rad etish, balki aybdorning oladigan maoshi miqdorini, boshqa daromadlarini yashirishi, ijro varaqasi bo'yicha to'lovlardan qochib qutulish maqsadida ish yoki yashash joyini o'zgartirishi yoxud shu maqsadda mehnat qilishdan bo'yin tovlashi va hokazolarni tushunish zarur.

Qilmish faqat quyidagi hollarda **JK 122-moddasi** bilan javobgarlikka tortiladi:

1) moddiy yordamga muhtoj bolalarni yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni boqish uchun mablag' to'lash to'g'risida qonuniy kuchga kirgan sudning hal qiluv qarori mavjudligi;

2) Voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni boqish uchun undiriladigan mablag'larni jami ikki oydan ortiq muddat mobaynida qasddan to'lamagan bo'lishi.

Mehnatga layoqatsiz shaxslar – I va II guruh nogironlari yoki kasalligi tufayli vaqtincha mehnat layoqatini yo'qotgan shaxslardir.

Qonuniy kuchga kirgan sudning hal qiluv qaroriga binoan moddiy yordamga muhtoj bo'lgan Voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni boqish uchun undirilishi lozim bo'lgan mablag'ni jami ikki oy mobaynida to'lanmagan taqdirda, shunday qilmish uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa jinoyat**tugallangan** deb e'tirof etiladi.

Subyektiv tomondan jinoyat **to'g'ri qasddan** sodir etiladi. Aybdor JK 122-moddasi dispozitsiyasida ko'rsatilgan shaxslarni moddiy ta'minlashi lozim bo'lgan sud qarorining qonuniy kuchga kirganligini biladi va mazkur majburiyatni bajarishdan bo'yin tovlaydi.

Jinoyatning motiv va maqsadlari qilmishni kvalifikatsiya qilishga ta'sir ko'rsatmaydi. Ko'pincha g'arazniyat yoki o'ch olish motivi mavjud bo'ladi.

Mazkur **jinoyatning subyekti** sudning hal qiluv qaroriga binoan moddiy yordamga muhtoj Voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta'minlash vazifasi zimmasiga yuklangan 18 yoshga to'lgan aqli raso har qanday shaxs (ota-onalar, farzandlikka oluvchilar) bo'lishi mumkin.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilish alimentlarni to'lashdan ozod etmaydi. Mazkur jinoyat subyektlari, shuningdek, sud tomonidan otalik belgilangan shaxslar bo'lishi mumkin.

Qayd etilgan shaxslarni boqish vazifasi zimmasiga yuklangan shaxs uzrli sabablarga ko'ra (kasalligi, mehnatga layoqatsizligi va hokazo) ularni boqa olmagan hollarda uni JK 122-moddasi bilan jinoiy javobgarlikka tortib bo'lmaydi.

Agar shaxs aliment majburiyatlari bo'yicha qarzdorlikni to'liq to'lagan bo'lsa, u javobgarlikdan ozod qilinadi.

2-§. Ota-onani moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash (JK 123-moddasi)

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 66-moddasida: «Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar»¹, deb uqtiriladi. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga muvofiq, voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalar mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj o'z ota-onasiga ta'minot berishlari va ular to'g'risida g'amxo'rlik qilishlari shart.

Ota-onasining davlat va nodavlat muassasalari qaramog'ida ekanligi voyaga yetgan mehnatga layoqatli bolalarni ota-ona haqida g'amxo'rlik qilish va ularga moddiy yordam ko'rsatish majburiyatidan ozod qilmaydi (Oila kodeksi 109-moddasi).

Ushbu **jinoyatning bevosita obyekti** – aybdorning ota-onasi bo'lmish, mehnatga qobiliyatsiz shaxslarning yashash uchun normal

¹Ўша жойда.

moddiy sharoitga ega bo'lishi, shuningdek, ularning sog'ligini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlardir.

Jinoyatning **obyektiv tomoni** sudning hal qiluv qaroriga binoan mehnatga layoqatsiz va moddiy yordamga muhtoj bo'lgan ota-onani yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni moddiy ta'minlash uchun undiriladigan mablag'ning voyaga yetgan shaxslar tomonidan jami ikki oydan ortiq muddat mobaynida to'lanmasligida ifodalanadi, shunday qilmish uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa.

Shaxsni JK 122-moddasidagi kabi **JK123-moddasi** bilan jinoiy javobgarlikka tortish uchun:

1) farzandlar zimmasiga ota-onalarini yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni moddiy ta'minlash uchun mablag' to'lab turish majburiyatini yuklovchi sudning hal qiluv qarori mavjudligi;

2) mazkur shaxslarni boqish uchun undiriladigan mablag'larni jami ikki oydan ortiq muddat mobaynida qasddan to'lamagan bo'lishini aniqlash zarur.

Ota-onalar – 55 yoshga to'lgan ayollar, 60 yoshga to'lgan erkaklar hamda I va II guruh nogironlari **mehnatga layoqatsiz shaxslar** deb hisoblanadi.

Sudning hal qiluv qaroriga binoan undirilishi lozim bo'lgan mablag'ning kamida ikki oydan ortiq muddat to'lanmasligi **tugallangan jinoyat** deb e'tirof etiladi. Bo'yin tovlash usuli (masalan, yashash joyini, ish joyini o'zgartirish, maoshining haqiqiy miqdorini yashirish va hokazo) qilmishni baholashda ahamiyatga ega emas.

Subyektiv tomondan jinoyat to'g'ri qasd bilan sodir etiladi. Jinoyatning sodir etilish motivi va ko'zlangan maqsad uni kvalifikatsiya qilishda ahamiyatga ega emas.

Jinoyatning subyeksi sudning hal qiluv qaroriga binoan ota-onalarini yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni moddiy ta'minlash majburiyati yuklangan voyaga yetgan tug'ishgan farzandlar, farzandlikka olingan o'g'il va qizlar, o'gay o'g'il va qizlar bo'lishi mumkin.

Agar shaxs aliment majburiyatlari bo'yicha qarzdorlikni to'liq to'lagan bo'lsa, u javobgarlikdan ozod qilinadi.

3-§. Bolani almashtirib qo'yish (JK 124-moddasi)

Ushbu **jinoyatning bevosita obyekti** bolaga nisbatan ota-onaning huquqlarini, shu jumladan, uni tarbiyalash bilan bog'liq huquqlarni ta'minlash borasida vujudga keladigan, shuningdek, bola tug'ilganidan so'ng kelajakda ham uning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilishda vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Bolani almashtirib qo'yish bu qonunchilik tomonidan o'rnatilgan hamda Oila kodeksida belgilangan kompleks huquqlarning buzilishi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga muvofiq, «har bir bola oilada yashash va tarbiyalanish, o'z ota-onasini bilish, ularning g'amxo'rligidan foydalanish, ular bilan birga yashash huquqiga ega, bola manfaatlariga zid bo'lgan holatlar bundan mustasnodir» (65-modda).

Mazkur jinoyatning **jabrlanuvchisi** qonunga muvofiq faqatgina **bola** bo'lishi mumkin. Ammo JK 124-moddasi mazmunidan har qanday bola emas, balki u bilan sodir etilayotgan harakatlarning xarakteri va mohiyatini tushuna olmaydigan bola almashtirish predmeti bo'lishi mumkinligi kelib chiqadi. Shuning uchun jinoyat tarkibining mazkur belgisi («bola») cheklangan holda izohlanishi kerak. Jabrlanuvchi qoida tariqasida yangi tug'ilgan chaqaloq hisoblanadi. Bunday holatda bolada aniq farq qiluvchi belgilar namoyon bo'lmagan yoki uning ota-onasi ularni farqlashga ulgurmagan bo'ladi.

Obyektiv tomondan jinoyat bolani almashtirishda, ya'ni yangi tug'ilgan yoki emizikli bir chaqaloqni boshqasi bilan almashtirishda ifodalanadi (kasal bolani sog'lom bolaga, qiz bolani o'g'il bolaga yoki teskarisi, bir millatdagisini boshqa millatga va boshq.). Bolani egallash va uning o'rniga boshqasini berish uning ota-onasi yoki unga huquqi bor shaxslardan yashirin ravishda ularning irodasiga qarshi amalga oshiriladi. Bunday harakatlar tug'ruqxonada, bolalar uyida, uy sharoitida yoki boshqa holatlarda amalga oshirilishi mumkin.

Qilmish bola egallangan va uning o'rniga boshqasi berilgan paytdan boshlab tugallangan hisoblanadi.

JK 137-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinadigan odam (bola)ni o'g'irlashdan farqli ravishda bolani almashtirish «o'ringa-o'rin» asosida amalga oshiriladi. Boshqa jihatdan esa sanab o'tilgan jinoyatlar o'xshash bo'lishi mumkin.

Subyektiv tomondan JK 124-moddasida nazarda tutilgan jinoyat to'g'ri qasd bilan sodir etiladi. Aybdor u tomondan amalga oshirilayotgan almashtirishning ijtimoiy xavfliligini anglaydi, shunga ko'zi yetadi va jinoiy oqibatlar kelib chiqishini xohlaydi.

Jinoyatni kvalifikatsiya qilishda jinoyat **motivi** zaruriy belgidir. Tamagirlik yoki boshqa past niyatlar mavjud bo'lganda jinoyat tarkibi mavjud bo'ladi.

Tamagirlik niyatlari moddiy manfaatga erishishga intilishda ifodalanadi. Bolani almashtirayotgan shaxs o'z harakatlari uchun moddiy rag'batlantirish olish maqsadini ko'zlaydi. Tamagirlik niyatlari bolaning ota-onasi yoki boshqa manfaatdor shaxslar bola kasalligini bilgan va uning davolanishi uchun ma'lum miqdordagi xarajatlar talab qilinishini anglab, undan almashtirish orqali qutulmoqchi bo'lganda ham mavjud bo'ladi.

Boshqa past niyatlar deganda, o'ch olish, hasad nazarda tutiladi.

Ehtiyotsizlik orqasidan bolani almashtirish jinoiy javobgarlikni keltirib chiqarmaydi.

Mazkur jinoyat **subyeksi** 16 yoshga to'lgan har qanday aqli raso shaxslar, tegishli muassasa (tug'ruqxona, bolalar uyi va boshq.)ning xodimlari ham bo'lishi mumkin.

4-§. Farzandlikka olish sirini oshkor qilish (JK 125-moddasi)

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga muvofiq, farzandlikka olish qonun himoyasida hisoblanadi (Oila kodeksining 153-moddasi).

Jinoyatning bevosita obyeksi farzandlikka olingan bolalarning normal rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni vujudga keltirishga qaratilgan ijtimoiy munosabatlar, oila manfaatlari, bolaning normal ruhiy rivojlanishi hisoblanadi. Davlat nafaqat farzandlikka olishning alo-

hida tartibini belgilaydi, balki birinchi navbatda bolaning ruhiy ezilishi, kattalar bilan munosabatda to‘siq va qiyinchiliklar vujudga kelishining oldini olish maqsadida boshqa shaxslarni farzandlikka olishni sir saqlash majburiyatini yuklaydi.

Obyektiv tomondan jinoyat farzandlikka oluvchining (mazkur shaxslar vafot etgan hollarda vasiylik va homiylik organlarining) roziligisiz farzand qilib olingan o‘g‘il yoki qiz bola haqidagi ma’lumotlarni oshkor etishi, fuqarolik holatini qayd etish yozuvlari kitobidagi farzandlikka oluvchilar bolaning qon-qarindoshi emasligini anglash mumkin bo‘lgan ko‘chirmalarni berishida ifodalanadi.

NOTA BENE !

O‘g‘il yoki qiz bolaning farzandlikka olingani haqidagi sirning oshkor etilishi, farzandlikka olingan bolalarning tug‘ishgan ota-onasi emasligi to‘g‘risidagi axborotni (og‘zaki, yozma ravishda, bosma usulda va hokazo) oshkor qilish jinoiy javobgarlikka tortish uchun asos bo‘ladi. Bunda axborot farzandlikka oluvchilarning xohish-irodasiga qarshi yoxud ularning vafotidan so‘ng vasiylik va homiylik organlarining ruxsatisiz oshkor etilgan bo‘lishi mumkin.

Basharti, farzandlikka olish sirining oshkor etilishi farzandlikka olishni haqiqiy emas deb e’tirof etish yoki farzandlikka olishni bekor qilish talabi bilan bog‘liq bo‘lgan hollarda, ushbu talablar tegishli rasmiy organlarga (sud, vasiylik organi va hokazolarga) qonunda ko‘zda tutilgan tartibda ma’lum qilingan bo‘lsa, bunday harakat jinoyat hisoblanmaydi.

JK ning 125-moddasida nazarda tutilgan jinoyat, farzandlikka olish haqidagi sir bir kishiga oshkor qilingan paytdan e’tiboran **tamom bo‘lgan** jinoyat hisoblanadi.

Subyektiv tomondan jinoyat to‘g‘ri qasd bilan sodir etiladi. Aybdor farzandlikka olish haqidagi ma’lumotning to‘g‘riligini biladi, boshqalarga buni ma’lum bo‘lishini istab, farzandlikka olganlarning yoki vasiy va homiylik organining roziligisiz oshkor qiladi.

JKning 125-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan **jinoyatning subyekti** 16 yoshga to'lgan farzandlikka olinganlik haqidagi ma'lumotga ega har qanday shaxs, farzandlikka olgan insonning ota-onasi, bolalar muassasasi tarbiyachilari, o'qituvchilari, er-xotindan birontasi (boshqasining xohishiga zid kelsa) ham bo'lishi mumkin.

Aybdorning harakatlari quyidagi hollarda **JK ning 125-moddasi 2-qismi** bilan kvalifikatsiya qilinadi:

a) farzandlikka olish sirini oshkor etish kasbiy faoliyati yoki egallab turgan xizmat mavqei munosabati bilan buni sir saqlashi lozim bo'lgan shaxs tomonidan sodir etilgan bo'lsa;

b) g'arazgo'ylik yoki boshqa past niyatlarda sodir etilgan bo'lsa;

v) og'ir oqibatlariga sabab bo'lsa.

o'z kasbi yoki xizmat vazifasiga ko'ra farzandlikka olinganlik haqidagi ma'lumotni sir tutishi lozim bo'lgan shaxslar (vasiylik va homiylik organlari xodimlari, sud majlisi sudyasi, kotibi, tarjimon) JKning **125-moddasi 2-qismi «a» bandi** subyekti bo'la oladi.

JK 125-moddasi 2-qismi mohiyatidan kelib chiqib, og'ir oqibatlar deganda, oilaning buzilishi, shaxs salomatligiga ziyon etishi va hokazoni tushunish zarurdir (masalan, bola asrab olgan shaxslarning yoki asrab olingan bola ko'nglining buzilishi).

5-§. Nikoh yoshi to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish (JK 125¹-modda)

Sog'liqni saqlash sohasidagi ekspertlarning fikricha, ayollarning erta turmush qurishlari yosh ona va tug'ilishi mumkin bo'lgan bolalarning hayoti va sog'ligiga zarar yetkazish xavfini yanada kuchaytiradi va bunday holatlar nogiron, aqliy va jismoniy nuqsoni bor, o'lik bolalar tug'ilishiga sabab bo'ladi, ayrim holatlarda yosh onaning o'limiga ham olib keladi.

Mazkur jinoyatning **obyekti** – nikoh yoshiga etmagan shaxslarning manfaatlari, ya'ni sog'ligi, normal jismoniy rivojlanishi va nikoh qurishning belgilangan tartibini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 15-moddasiga ko‘ra nikoh yoshi erkaklar uchun 18 yosh, ayollar uchun 17 yosh etib belgilangan va uzrli sabablar bo‘lganida, alohida hollarda nikohga kirishni xohlovchilarning iltimosiga ko‘ra nikoh davlat ro‘yxatidan o‘tkaziladigan joydagi tuman, shahar hokimi nikoh yoshini ko‘pi bilan 1 yilga kamaytirishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 125¹-moddasi 3 qismdan iborat bo‘lib, ushbu **moddaning 1-qismiga** ko‘ra nikoh yoshiga etmagan shaxs bilan haqiqatda nikoh munosabatlariga kirishganlik uchun javobgarlik belgilanib, unda aybdor dastlab Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 47³-moddasi 1-qismi bilan shunday qilmish uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etgan bo‘lsa, jinoiy javobgarlikka tortilishi belgilandi.

Ushbu qoidaga ko‘ra, agar nikoh yoshiga etmagan shaxs, ya‘ni erkaklar 18 yoshga, ayollar 17 yoshga to‘lgunga qadar (agar hokim qarori bilan bu yosh 1 yilga kamaytirilmagan bo‘lsa) ixtiyoriy ravishda haqiqatda nikoh munosabatlariga kirishgan bo‘lsa, ularning harakatlari uchun javobgarlik belgilanadigan bo‘ldi.

Bunda haqiqatda nikoh munosabatlariga kirish deganda, nikoh yoshiga etmagan shaxslarning er-xotin bo‘lib yashab, er-xotinlik munosabatlarida bo‘lishi tushuniladi.

Bunda ushbu holatda javobgarlik faqatgina nikoh yoshiga etmagan shaxslarning o‘zaro ixtiyoriy nikoh munosabatlariga kirishishi tushuniladi.

Jinoyat kodeksi 125¹-moddasi 2-qismiga ko‘ra ota-ona yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar tomonidan nikoh yoshiga etmagan shaxsni erga berish yoxud uylantirish uchun javobgarlik belgilanib, unda aybdor dastlab Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 47³-moddasi 2-qismi bilan shunday qilmish uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etgan bo‘lsa, jinoiy javobgarlikka tortilishi belgilandi.

Ushbu qoidaga ko‘ra, ota-ona yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar tomonidan nikoh yoshiga etmagan shaxslarni erga berish yoki uylantirish maqsadida bila turib, nikoh marosimlarini o‘tkazish va nikoh

yoshiga etmagan shaxslarni birga yashashlari uchun tegishli shart-sharoitlarni yaratishi tushuniladi.

Agar ota-ona yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar ayolni erga tegishga yoki nikohda yashashni davom ettirishga majbur qilsa, ish holatlariga qarab, ularning harakatlari Jinoyat kodeksi 136-moddasi (ayolni erga tegishga majbur qilish yoki to'sqinlik qilish) bilan kvalifikatsiya qilinishi mumkin.

Jinoyat kodeksi 125¹-moddasi 3-qismiga ko'ra nikoh yoshiga etmagan shaxs bilan nikoh tuzishga doir diniy marosimni amalga oshirish uchun javobgarlik belgilanib, unda aybdor dastlab Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 47³-moddasi 3-qismi bilan shunday qilmish uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etgan bo'lsa, jinoiy javobgarlikka tortilishi belgilandi.

Ushbu qoidaga ko'ra, maxsus diniy ma'lumotga ega va diniy tashkilot boshqaruvi markaziy organining tegishli ruxsatiga ega bo'lgan shaxs (masalan: masjid imomi, masjid imom-xatibi kabilar) tomonidan bila turib, nikoh yoshiga etmagan shaxslarlarni nikoh tuzishga doir diniy marosimlarni amalga oshirishi tushuniladi.

Agar maxsus diniy ma'lumoti bo'lmay turib va diniy tashkilot boshqaruvi markaziy organining ruxsatiga ega bo'lmagan shaxs nikoh yoshiga etmagan shaxslarlarning nikoh tuzishiga doir diniy marosimlarni amalga oshirsa, ish holatlariga qarab, aybdorning harakatlari Jinoyat kodeksi 229²-moddasi (diniy ta'limotdan saboq berish tartibini buzish) bilan jinoyatlar jami tariqasida kvalifikatsiya qilinishi mumkin.

Nikoh yoshi to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish uchun javobgarlikning zaruriy begilaridan biri bu nikoh yoshiga etmagan shaxslarning ixtiyoriy nikoh qurishlari hisoblanadi.

Jinoyatning **obyektiv tomoni** – Jinoyat kodeksi 125¹-moddasi 1-qismi bo'yicha: nikoh yoshiga etmagan shaxs bilan haqiqatda nikoh munosabatlariga kirishish;

Jinoyat kodeksi 125¹-moddasi 2-qismi bo'yicha: ota-ona yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan nikoh yoshiga etmagan shaxsni erga berish yoxud uylantirish;

Jinoyat kodeksi 125¹-moddasi 3-qismi bo'yicha: nikoh yoshiga etmagan shaxs bilan nikoh tuzishga doir diniy marosimni amalga oshirish hisoblanadi.

Bunda Jinoyat kodeksi 125¹-moddasi tegishli qismi bilan jinoiy javobgarlikka tortish uchun aybdor dastlab Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 47³-moddasi tegishli qismi bilan shunday qilmish uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin 1 yil ichida ushbu harakatlar sodir etilgan bo'lishi lozim.

Jinoyatning **subyekt** – Jinoyat kodeksi 125¹-moddasi 1-qismi bo'yicha 18 yoshga to'lgan nikoh yoshiga etmagan shaxs bilan haqiqatda nikoh munosabatlariga kirishgan aqli raso, jismoniy shaxs hisoblanadi.

Jinoyat kodeksi 125¹-moddasi 2-qismi bo'yicha 18 yoshga to'lgan ota-ona yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar hisoblanadi.

Jinoyat kodeksi 125¹-moddasi 3-qismi bo'yicha 18 yoshga to'lgan maxsus diniy ma'lumotga ega va diniy tashkilot boshqaruvi markaziy organining tegishli ruxsatiga ega bo'lgan shaxs, jumladan masjid imomi, imom-xatib kabilar hisoblanadi.

Subyektiv tomondan ushbu jinoyat qasddan sodir etiladi, nikoh qurayotgan shaxslarning nikoh yoshiga etmaganligi aybdorga oldindan ayon bo'lishi talab etiladi.

Jinoyatning tamom bo'lgan vaqti Jinoyat kodeksi 125¹-moddasi 1-qismi bo'yicha:

nikoh yoshiga etmagan shaxs bilan haqiqatda nikoh munosabatlariga kirishilgan vaqtdan;

Jinoyat kodeksi 125¹-moddasi 2-qismi bo'yicha: ota-ona yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan nikoh yoshiga etmagan shaxsni erga bergan yoki uylantirgan vaqtdan;

Jinoyat kodeksi 125¹-moddasi 3-qismi bo'yicha: nikoh yoshiga etmagan shaxs bilan nikoh tuzishga doir diniy marosimni amalga oshirgan vaqtdan hisoblanadi.

6-§. Ko‘p xotinli bo‘lish (JK 126-moddasi)

Ushbu **jinoyatning bevosita obyekti** oilaviy munosabatlarni yaxshi yo‘lga qo‘yish, xususan, er-xotin o‘rtasidagi munosabatlar hisoblanadi.

Obyektiv tomondan jinoyat umumiy ro‘zg‘or yuritish asosida ikki yoki undan ortiq ayol bilan er-xotin bo‘lib yashashda ifodalanadi.

Er-xotin bo‘lib yashash er-xotin o‘rtasida jinsiy munosabatlarning bo‘lishini nazarda tutadi.

Umumiy ro‘zg‘or, odatda, umumiy xonadon yoki uydan, umumiy mol-mulk, pul mablag‘lari va hokazolardan iborat bo‘ladi. Bunda aybdorning bir uy yoki xonadonda bir vaqtning o‘zida ikki yoki undan ortiq ayol bilan yashashi ahamiyatga ega emas. Shuningdek, xotirlarning bir-biri haqida bilishi yoki ularning bir shaxs bilan umumiy ro‘zg‘or asosida yashashga roziligi ham jinoyatning kvalifikatsiyasiga ta‘sir qilmaydi. Asosiysi, aybdor ularning umumiy ro‘zg‘origa moddiy xarajat qilgan bo‘lishi lozim (masalan, kommunal va foydalanish to‘lovlarini doimiy to‘lashi, oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlab turishi, uyni yoki xonani ta‘mirlash xarajatlarini, bolalarning ta‘lim olishini to‘lashi va boshq.).

Nikohda bo‘lgan erkakning boshqa ayollar bilan umumiy ro‘zg‘orsiz birgalikda yashashi kabi ayrim hollar **JK 126-moddasi** bilan kvalifikatsiya qilinishi mumkin emas. Shu bilan bir qatorda, agarda shaxs bir xotin bilan nikohni xo‘jako‘rsinga bekor qilib, boshqa xotini bilan nikohdan o‘tsa, ammo aslida ikkala oilani ham saqlab qolsa, ko‘rib chiqilayotgan jinoyat sodir etilgan hisoblanadi, demak, shaxsni javobgarlikka tortish uchun har ikki xotin bilan yuridik jihatdan nikohda ekanligi faktini aniqlashning hojati bo‘lmaydi. Aybdor ularning birortasi bilan ham nikohdan o‘tmagan bo‘lishi mumkin.

Umumiy ro‘zg‘or yuritish asosida ikki yoki undan ortiq ayol bilan er-xotin bo‘lib yashash boshlangan paytdan e‘tiboran **jinoyat tugallangan** deb e‘tirof etiladi.

Subyektiv tomondan jinoyat to‘g‘ri qasddan sodir etiladi. Aybdor bir vaqtning o‘zida ikki yoki undan ortiq ayol bilan umumiy ro‘zg‘or

asosida yashayotganligini biladi va buni xohlaydi. Qilmishning sodir etilish motivi va ko‘zlangan maqsad jinoyatni kvalifikatsiya qilishda ahamiyatga ega emas.

Jinoyatning subyekti 16 yoshga to‘lgan har qanday aqli raso shaxs bo‘lishi mumkin.

7-§. Voyaga yetmagan shaxsni g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish (JK 127-moddasi)

Ko‘rib chiqilayotgan modda uch qismdan iboratdir: Voyaga yetmagan shaxsni tilamchilikka, spirtli ichimliklar iste‘mol qilishga, giyohvandlik vositalari va ularning analoglari yoki psixotrop hisoblanmagan, lekin kishining aql-idrokiga ta‘sir qiladigan vosita va moddalarni iste‘mol etishga jalb qilish (JK 127-moddasi 1-qismi); Voyaga yetmagan shaxsni giyohvandlik vositalari ularning analoglari yoki psixotrop moddalar iste‘mol etishga jalb qilish (JK 127-moddasi 2-qismi); Voyaga yetmagan shaxsni jinoyat qilishga jalb etish (JK 127-moddasi 3-qismi).

Bu **jinoiatning bevosita obyekt**i Voyaga yetmagan shaxsning normal, axloqiy va jismoniy rivojlanishi, uning sog‘ligi hamda jamoat xavfsizligi va tartibini ta‘minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Jinoyatning **jabrlanuvchisi** aybdor uni g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilayotgan paytda Voyaga yetmagan, ya‘ni 18 yoshga to‘lmagan shaxslar hisoblanadi.

JK 127-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyatning **obyektiv tomoni** Voyaga yetmagan shaxsni tilamchilik qilishga, spirtli ichimliklar iste‘mol qilishga, giyohvandlik vositalari va ularning analoglari yoki psixotrop hisoblanmagan, lekin kishining aql-idrokiga ta‘sir qiladigan vosita va moddalarni iste‘mol etishga jalb qilishdan iboratdir. Mazkur modda ma‘muriy preiuditsiyaga ega, ya‘ni agar shaxs aynan shunday qilmish uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan so‘ng bir yil ichida xuddi shu qilmishni sodir etsa, **JK 127-moddasi 1-qismi** bilan javobgarlikka tortiladi.

NOTA BENE !

Jalb qilish deganda, voyaga yetgan shaxsning Voyaga yetmagan shaxsni ma'lum bir harakatlarni bajarishga ko'ndirishga qaratilgan harakatlari tushuniladi. Jalb qilish pul berish, aldash, jismoniy yoki ruhiy zo'rlik ishlatish va boshqa harakatlar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Va'da berish aybdor shaxsning voyaga yetmagan shaxsga nisbatan biror-bir majburiyatni olishini, ya'ni uning manfaatlari yo'lida ma'lum bir harakatni amalga oshirishi yoki amalga oshirishdan o'zini tiyishini aytishida ifodalanadi (masalan, Voyaga yetmagan shaxsni boshqalardan himoya qilishga, moddiy yordam berishga, o'qishga kiritishga va'da berish).

Aldash Voyaga yetmagan shaxsni biror-bir ma'lumot yoki voqeani chalg'itib ko'rsatish orqali amalga oshiriladi.

Jismoniy zo'rlik ishlatish Voyaga yetmagan shaxsni uning irodasini sindirib, ma'lum bir harakatlarni amalga oshirishga majburlash maqsadida do'pposlash, turli darajadagi tan jarohatlari yetkazish yoki boshqacha tarzda jismoniy azob berish (bog'lash, qo'lini qayirish va boshq.)da ifodalanadi. Agar Voyaga yetmagan shaxsga nisbatan qo'llanilgan jismoniy zo'rlik (jalb qilish usuli sifatida) JK Maxsus qismida nazarda tutilgan alohida jinoyat tarkibini tashkil qilsa, sodir etilgan qilmish yetkazilgan tan jarohatining darajasiga muvofiq JKning tegishli moddasi bilan jinoyatlar jami sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozim (masalan, 127- va 105-moddalar bilan).

Ruhiy zo'rlik ishlatish g'ayriijtimoiy harakatlarga jalb qilish usuli sifatida Voyaga yetmagan shaxsning ma'lum harakatlarni amalga oshirishni rad etganda unga nisbatan jismoniy zo'rlik (do'pposlash, qiynash va boshq.) ishlatish, mulkiy zarar yetkazish, uni sharmanda qiluvchi ma'lumotlarni tarqatish, do'stlikni tugatish va boshqalarni aytishda ifodalanadi. Qo'rqitish turli usullar orqali amalga oshirilishi mumkin hamda aytilgan qo'rqitish alohida jinoyat (masalan, o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish) tarkibini tashkil etsa, jalb qiluvchi shaxsning harakatlari jinoyatlar jami tariqasida (masalan, JK 112- va

127-moddalari bilan) kvalifikatsiya qilinishi lozim. Bunda Voyaga yetmagan shaxs qoʻrqitishni jiddiy qabul qilib, unda qoʻrqitishning amalga oshirilishidan qoʻrqish uchun real asos mavjud boʻlgan boʻlishi lozim.

Voyaga yetmagan shaxsni Gʻayriijtimoiy harakatlarga **jalb qilishning boshqacha usullari** deganda, taklif qilish, soʻrash, koʻndirish, pul bilan oʻziga ogʻdirish, shuningdek, unga «kattalar ishi»ni qilolmasligini yoki atrofdegilar oldida uning obroʻyi oshishini aytish orqali unda spirtli ichimliklarni isteʼmol qilishga qiziqish uygʻotish va boshqalar tushuniladi.

Tilamchilik qilishga jalb qilish uchun javobgarlik, Voyaga yetmagan shaxsni begona shaxslardan pul, oziq-ovqatlarni, kiyim-kechaklarni va hokazolarni soʻrab tilamchilik qilishni boshlamaganda ham yuzaga kelishi lozim.

Voyaga yetmaganlarni spirtli ichimliklar isteʼmol qilishga, giyohvandlik vositalari va ularning analoglari yoki psixotrop hisoblanmagan, lekin kishining aql-idrokiga taʼsir qiladigan vosita va moddalarni isteʼmol etishga jalb qilish deganda, voyaga yetgan shaxsning qayd etilgan ichimliklarni, vosita va moddalarni qayta va qayta isteʼmol qilishga oʻrgatish yoxud qayd etilgan ashyolarni qayta va qayta Voyaga yetmaganlar uchun qoʻlga kiritilishini va Voyaga yetmagan shaxsning qayd etilgan ashyolarni aldash, mehmon qilish, koʻndirish va hokazo yoʻllar bilan qoʻlga kiritishga qaratilgan harakatlarni tushunish zarur.

Giyohvandlik vositalari va ularning analoglari yoki psixotrop hisoblanmagan, lekin kishining aql-idrokiga taʼsir qiladigan vosita va moddalar deganda, inson miyasini gangituvchi taʼsir koʻrsatadigan va unga nisbatan talabni vujudga keltiradigan turli moddalarni tushunish lozim. Ularga misol qilib klofelinning alkogol bilan har qanday protsentdagi aralashmasi, xloroform, efir, dimedrolning alkogol bilan aralashmasi, tarkibida tropan guruhiga kiruvchi alkaloid boʻlgan oʻsimliklarning spirtli ekstrakti va boshqalar, shuningdek, atseton, boʻyoq, lok, elimlarning ayrim turlari va boshqa hidi kishi aql-idrokiga gangituvchi taʼsir koʻrsatuvchi boshqa kimyoviy moddalar tushuniladi. Mazkur moddalar turmushda, ishlab chiqarishda, aholiga tibbiy xizmat

ko'rsatishda keng qo'llanilib, ular bilan muomala qilishning alohida tartibini belgilash mumkin emas.

JK 127-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyat Voyaga yetmagan shaxsni tilamchilikka, spirtli ichimliklar iste'mol qilishga, giyohvandlik vositalari va ularning analoglari yoki psixotrop moddasi hisoblanmagan, lekin odamning aql-idrokiga ta'sir qiladigan vosita va moddalarni iste'mol etishga jalb qilishga qaratilgan har qanday harakat sodir etilgan paytdan e'tiboran, aybdor o'z maqsadiga erishgani yoki erishmaganidan qat'i nazar, tugallangan deb e'tirof etiladi.

JK 127-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan jinoyatning **obyektiv tomoni** Voyaga yetmagan shaxsni turli usullar bilan (avrash, mehmon qilish, aldash va hokazo) giyohvandlik vositalari vositalari va ularning analoglarini yoki psixotrop moddalarni iste'mol etishga jalb qilishdan iboratdir.

NOTA BENE !

Giyohvandlik vositalariga tabiiy va sintetik usulda olingan, insonning markaziy nerv tizimiga ezuvchi, qo'zg'atuvchi, gallyutsinogen ta'sir ko'rsatuvchi va bu holat ularning tibbiy qoidalarga nomuvofiq holda iste'mol qilinishi va ularga jismoniy va ruhiy moyillikning vujudga kelishiga sabab bo'luvchi narsalar kiradi.

Tarkibida giyohvandlik vositalari bo'lgan preparat va o'simliklar narkotik moddalar ro'yxatiga kiritilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasida nazorat ostiga olingan. Ularga JK 8-bo'limida berilgan ta'riflar bilan birga 1961 yilgi Narkotik moddalar to'g'risidagi Qo'shma Konvensiyaning I va II ro'yxatiga 1961 yilgi Narkotik moddalar to'g'risidagi Qo'shma Konvensiyaga o'zgartirish kiritish to'g'risidagi 1972 yilgi Bayonnomaga muvofiq kiritilgan moddalar kiradi.

NOTA BENE !

Psixotrop moddalar tabiiy va sintetik usulda olingan, insonda moyillik holatini vujudga keltiruvchi va insonning markaziy nerv tizimiga qo'zg'atuvchi yoki depressiv ta'sir ko'rsatuvchi gallyutsinatsiya

yoki harakatlanish, idrok qilish, qabul qilish, kayfiyatning buzilishiga olib keluvchi moddalar hisoblanadi.

Psixotrop moddalar ham psixotrop moddalarning alohida ro'yxatiga kiritilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasida nazorat ostiga olingan. Ularga BMT ning 1971 yilgi Psixotrop moddalar to'g'risidagi Konvensiyasining I, II, III yoki IV ro'yxatiga (JKning 8-bo'limida berilgan) kiritilgan moddalar kiradi.

Mazkur jinoyat aybdor tomonidan Voyaga yetmagan shaxsni narkotik yoki psixotrop moddalarni iste'mol qilishga jalb qilishga qaratilgan harakatlarni amalga oshirgan paytdan boshlab, kelib chiqqan oqibatlardan, ya'ni shaxs giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni iste'mol qilganligidan qat'i nazar **tugallangan** hisoblanadi.

Basharti shunday harakatlar:

a) ilgari giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni g'ayriqonuniy ravishda muomalaga chiqarish bilan bog'liq biron-bir jinoyatni sodir etgan shaxs tomonidan amalga oshirilgan bo'lsa;

b) shunday harakatlar ikki yoki undan ortiq Voyaga yetmagan shaxsga nisbatan sodir etilgan bo'lsa;

v) jinoyat o'quv yurtlarida, o'quvchilar va talabalar o'quv-tarbiya, sport yoki jamoat tadbirlarini o'tkazishda foydalaniladigan boshqa joylarda sodir etilgan bo'lsa, aybdorning qilmishi **JK 127-moddasi 3-qismi** bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

NOTA BENE !

Voyaga yetmagan shaxsni jinoyatga jalb etish deganda, Voyaga yetmagan shaxsga nisbatan jismoniy zo'rlikni qo'llash yoki unga ruhiy tazyiq o'tkazish bilan qo'rqitish, pul berib og'dirish, avrash, aldash, o'ch olish, hasad, rashk tuyg'ularini va boshqa past niyatlarini qo'zg'atish, jinoyat sodir etishni taklif qilish, o'g'irlangan narsalarni sotib olish yoki sotib berishni va'da qilish, jinoyatni sodir etish joyi va usullari yoki jinoyat izlarini yashirish haqida maslahatlar berish yo'li bilan uning bir

yoki bir necha jinoyatlarning sodir etilishida ishtirok etish niyatini rag'batlantirishga qaratilgan harakatlar va jinoyatni sodir etishga og'dirish maqsadida Voyaga yetmagan shaxslar bilan spirtli ichimliklar ichilishini tushunish zarur.

Voyaga yetmagan shaxsni jinoyatga jalb qilish aybdorning Voyaga yetmagan shaxsga jismoniy yoki ruhiy ta'sir ko'rsatish bilan bog'liq faol harakatlari orqali amalga oshiriladi.

Mazkur jinoyat tarkibi uchun aybdorning 18 yoshga to'lmagan Voyaga yetmagan shaxsni qaysi jinoyatga jalb qilganligining ahamiyati yo'q.

Tahlil etilayotgan jinoyat shaxs tomonidan Voyaga yetmagan shaxsni jinoyatga jalb etishga qaratilgan yoxud jinoyat sodir etishga dalolat qiluvchi harakatlarni sodir etgan paytdan e'tiboran, Voyaga yetmagan shaxs jinoyatga jalb etilgani yoki etilmaganidan qat'i nazar, **tugallangan** deb e'tirof etiladi.

Voyaga yetmagan shaxsni ma'lum bir jinoyatni sodir etishga da'vat qilgan shaxsning qilmishi, basharti ana shu jinoyat sodir etilgan bo'lsa, **JK 127-moddasi 3-qismi** va Voyaga yetmagan yoshni jinoyatga da'vat qilish yoxud aybdorning o'zi ham jinoyatni sodir etishda ishtirok etgan bo'lsa, jinoyatning ishtirokchisi sifatida jinoyatlar jami bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi.

O'smir jinoyatga jalb qilingan, ammo u jinoyatning subyekti bo'la olmaydigan hollarda, uni jinoyatga jalb qilgan shaxsning qilmishi **JK 127-moddasi** va Voyaga yetmagan shaxs sodir etgan jinoyatning bajaruvchisi sifatida jinoyatlarning jami bo'yicha baholanishi darkor.

Yosh boladan foydalangan holda jinoyatni sodir etish JK 56-moddasi «j» bandiga muvofiq jazoni og'irlashtiruvchi holat deb topiladi va jazo tayinlash vaqtida sud tomonidan inobatga olinadi.

Sodir etilgan jinoyatda Voyaga yetmagan va voyaga yetgan shaxslar birgalikda ishtirok etgan va voyaga yetgan shaxslar tomonidan jinoyatga jalb etish yoki da'vat etish alomatlari bo'lmagan hollarda ularning qilmishini **JK 127-moddasi 3-qismi** bilan kvalifikatsiya qilib

bo‘lmaydi, jinoyat JK 28-moddasiga asosan jinoyatda ishtirokchilik deb baholanishi lozim.

Subyektiv tomondan jinoyat **to‘g‘ri qasd** bilan sodir etiladi, ya‘ni aybdor Voyaga yetmagan shaxsni g‘ayriijtimoiy xatti-harakatga jalb qilayotganini bilib turadi va shuni xohlaydi. Ayni paytda aybdor g‘ayriijtimoiy xatti-harakatga jalb qilinayotgan shaxsning Voyaga yetmaganligini bilgan hollardagina mazkur modda bo‘yicha jinoiy javobgarlikka tortish mumkin ekanligiga e‘tibor bermoq kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi bo‘yicha sud amaliyoti» to‘g‘risidagi qarorida shunday deyiladi: «Shuningdek katta yoshdagi kishi o‘z harakatlari bilan Voyaga yetmagan shaxsni g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilayotganini bilgani holda yoki shunday fikrga yo‘l qo‘yganini ham aniqlash lozim.

Agarda katta yoshdagi kishi shaxsni g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilsa-yu, uning Voyaga yetmaganligini bilmasa yoki bilishi mumkin bo‘lmasa, bu holda JKning 127-moddasi bilan jinoiy javobgarlikka tortish mumkin emas»¹.

Ushbu **jinoyatning subyeksi** 18 yoshga to‘lgan har qanday aqli raso shaxs bo‘lishi mumkin.

8-§. O‘n olti yoshga to‘lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish (JK 128-moddasi)

Bu **jinoyatning bevosita obyeksi** 16 yoshga to‘lmagan shaxslarning jinsiy daxlsizligini hamda ularning normal ruhiy va jismoniy rivojlanishini ta‘minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Obyektiv tomondan jinoyat erkak yoki ayolning qarama-qarshi jinsdagi o‘n olti yoshga to‘lmagan shaxs bilan ixtiyoriy ravishda aloqa qilishi yoki jinsiy ehtiyojni g‘ayritabiiy usulda qondirishida ifodalanadi.

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2000 йил 15 сентябрдаги «Вояга етмаганларнинг жиноятлари ҳақидаги ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 21-сон қарори, 7-банд, 2-хатбоши // Тўплам, 2-жилд. – 25-б.

(«Jinsiy aloqa qilish» hamda «jinsiy ehtiyojni g‘ayritabiiy usulda qondirish» tushunchalari haqida to‘liq ma’lumot JK 118- va 119- moddalari tahlilida berilgan.)

Shuni inobatga olish lozimki, mazkur moddaga muvofiq, jinsiy aloqa qilish hamda jinsiy ehtiyojni g‘ayritabiiy usulda qondirish ixtiyoriy ravishda amalga oshirilgan bo‘lishi lozim.

NOTA BENE !

Ixtiyoriy ravishda jinsiy aloqa qilish yoki jinsiy ehtiyojni g‘ayritabiiy usulda qondirish deganda, zo‘rluk ishlatmay, qo‘rqitmay yoki jabrlanuvchining ojizlik holatidan foydalanilmagan holda jinsiy ehtiyojning qondirilishini tushunish zarur.

Mazkur holatlarda rozilik ikki xil bo‘lishi mumkin: 1) 16 yoshga to‘lmagan shaxsni moddiy yoki boshqacha usulda qiziqtirish, shuningdek, unda jinsiy qiziqish hosil bo‘lganligi; 2) jabrlanuvchi ruhiy ojiz ahvolda bo‘lmagan holda aybdor harakatlariga qarshilik ko‘rsatmasligi.

Shaxs necha yoshgacha jinsiy aloqa qilish yoki g‘ayritabiiy usulda jinsiy ehtiyojni qondirishning ahamiyatini tushunmaydi degan savolga javoban qonunda ma’lum bir yosh belgilangan emas. Shuning uchun jinsiy aloqa qilish yoki jinsiy ehtiyojni g‘ayritabiiy usulda qondirish ixtiyoriy ravishda sodir etilganligi (jabrlanuvchining ojizligidan foydalanib sodir etilmaganligi) har bir alohida holda, ish holatlari hisobga olinib, jabrlanuvchining ongi qay darajada rivojlanganligi, o‘ziga nisbatan sodir etilayotgan jinsiy aloqaning mohiyati va ahamiyatini qay darajada idrok etganligini hisobga olinib, hal etilishi lozim.

Shuni ta’kidlash joizki, aybdor va jabrlanuvchi o‘rtasidagi nikohning mavjudligi qilmishni JKning mazkur moddasi bilan kvalifikatsiya qilishga ta’sir qilmaydi.

Jinsiy aloqa qilish boshlangan, ya’ni erkakning jinsiy a’zosi ayolning jinsiy a’zosiga kiritilgan yoxud jinsiy ehtiyojni g‘ayritabiiy usulda

qondirishga qaratilgan xatti-harakatlar sodir etilgan paytdan e'tiboran jinoyat **tugallangan** deb e'tirof etiladi. o'n olti yoshga to'lmagan shaxs qayd etilgan xatti-harakatlarni sodir etishga ko'ndirilgan, ammo aybdorga bog'liq bo'lmagani holda amalga oshirilmagan bo'lsa, qilmish tahlil etilayotgan jinoyatga suiqasd deb kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Subyektiv tomondan jinoyat **to'g'ri qasd** bilan sodir etiladi. Aybdor 16 yoshga to'lmagan shaxs bilan jinsiy aloqaga kirishayotganligini biladi va buni xohlaydi.

Jabrlanuvchi qiz (o'g'il) bolaning o'n olti yoshga to'lmaganligi subyektga oldindan ayon bo'lganligi, aybdorni JK 128-moddasi bilan javobgarlikka tortishning zaruriy sharti hisoblanadi. Aybdor mazkur fakti jabrlanuvchi bilan avvaldan tanishganlik tufayli, uning tashqi jismoniy ko'rinishidan, xatti-harakatlaridan bilishi mumkin. Basharti subyekt jabrlanuvchi qiz (o'g'il) bolaning yoshiga nisbatan haqiqatan ham adashgan bo'lsa **JK 128-moddasi** bilan kvalifikatsiya qilinmaydi.

Ushbu **jinoyatning subyekt** har ikki jinsdagi, 16 yoshga to'lgan har qanday aqli raso shaxslar bo'lishi mumkin.

Ko'rib chiqilayotgan jinoyatda, alohida holatlardan kelib chiqib, xususan, aybdorning shaxsini tasdiqlovchi holatlar, ro'y bergan oqibatlardan va ishning boshqa alomatlari (masalan, aybdor va jabrlanuvchi o'rtasidagi nikohning, muhabbatning borligi, jabrlanuvchining homiladorligi)dan kelib chiqib, shaxsni javobgarlikdan va jazodan ozod qilish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu moddaning 1-qismida javobgarlik nazarda tutilgan qilmish takroran yoki retsidivist tomonidan yoxud ilgari JK 118- yoki 119-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etgan shaxs tomonidan sodir etilgan hollarda, aybdor JKning **128-moddasi 2-qismi** bilan javobgarlikka tortiladi.

**9-§. O‘n olti yoshga to‘lmagan shaxsga nisbatan
uyatsiz-buzuq harakatlar qilish
(JK 129-moddasi)**

Jinoyatning bevosita obyekti 16 yoshga to‘lmagan shaxslarning jinsiy daxlsizligini ta‘minlovchi ijtimoiy munosabatlar, shuningdek, ularning normal jismoniy va ruhiy rivojlanishi hisoblanadi.

16 yoshga to‘lmagan bolalar va qizlarga nisbatan uyatsiz-buzuq harakatlar qilishning ijtimoiy xavfliligi shunda namoyon bo‘ladiki, mazkur shaxslarda jinsiy hayotga muddatdan oldin nosog‘lom, jismoniy va ruhiy asoslanmagan qiziqish paydo bo‘ladi, odamlar o‘rtasidagi jinsiy munosabatlar haqida ularning fikri buzluq bo‘ladi, ayrim hollarda bunday shaxslarda G‘ayritabiiy jinsiy qarashlar shakllanadi.

JK 129-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyatning **obyektiv tomoni** shaxsning o‘n olti yoshga to‘lmaganligi aybdorga ayon bo‘lgan holda unga nisbatan zo‘rluk ishlatmay, uyatsiz-buzuq harakatlar sodir etishida ifodalanadi.

Uyatsiz-buzuq harakatlar jinsiy xarakterga ega bo‘lib, aybdorning jinsiy ehtiyojini qondirishga yoki aksincha jabrlanuvchida jinsiy qiziqish uyg‘otish maqsadida amalga oshiriladi. Bunday harakatlar jismoniy yoki ruhiy amalga oshirilishi mumkin.

NOTA BENE !

Jismoniy uyatsiz-buzuq harakatlar deganda, o‘n olti yoshga to‘lmagan shaxslar ko‘zi oldida jinsiy organlarni yalang‘ochlash, jinsiy aloqani sodir etish yoki jinsiy ehtiyojni G‘ayritabiiy usulda qondirish, ularni jinsiy aloqalar qilishga o‘rgatish, jabrlanuvchining jinsiy a‘zolariga tegishi tushuniladi.

Sodir bo‘layotgan voqealarning mohiyatini anglashga to‘sqinlik qiladigan yoshda bo‘lgan yosh bola oldida jinsiy harakatlar yoki jinsiy xarakterga ega bo‘lgan boshqa harakatlarni sodir etish, basharti shaxs mazkur harakatlarni 16 yoshga to‘lmagan shaxsning kuzatib turishi uchun sodir etmagan bo‘lsa, jinoiy javobgarlikka tortilmaydi.

NOTA BENE !

Ruhiy uyatsiz-buzuq harakatlar deganda, o‘n olti yoshga to‘lmagan shaxslarga behayo filmlarni, tasvirlarni namoyish etish, behayo adabiyotlarni o‘qish, jinsiy mavzularda uyatsiz gaplashish va hokazolarni tushunish lozim.

JK 129-moddasi 1-qismi dispozitsiyasiga muvofiq, 16 yoshga to‘lmagan shaxsga nisbatan uyatsiz-buzuq harakatlar zo‘rlik ishlatmasdan amalga oshiriladi. Bunda 16 yoshga to‘lmagan shaxsning aybdor bilan uyatsiz-buzuq harakatlar qilish tashabbusi bilan chiqishi aybdorni **JK 129-moddasi** bo‘yicha javobgarlikdan ozod qilish uchun asos bo‘lmaydi.

Uyatsiz-buzuq harakatlarni qilish vaqtida aybdor jabrlanuvchiga zo‘rlik ishlatgan yoki qo‘rqitgan bo‘lsa, u JK 129-moddasi 2-qismi bilan javobgarlikka tortiladi.

JK 129-moddasi 2-qismi mohiyatidan kelib chiqib, **zo‘rlik ishlatish** deganda, jabrlanuvchining kaltaklanishini, uning badaniga yengil yoki o‘rtacha og‘ir shikast yetkazilishini tushunish zarur.

Jabrlanuvchining badaniga og‘ir shikast yetkazilgan hollarda aybdorning qilmishi jinoyatlar jami bo‘yicha (JK 129-moddasi va JK 104-moddasi bilan) kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Uyatsiz-buzuq harakatlarni qilish vaqtida aybdor jinsiy aloqa qilish yoki jinsiy ehtiyojini g‘ayritabiiy usulda qondirish maqsadida zo‘rlik ishlatgan, qo‘rqitgan yoki jabrlanuvchining o‘jizlik holatidan foydalangan, ammo o‘z xohish-irodasiga bog‘liq bo‘lmagan sabablarga ko‘ra maqsadiga erisha olmagan bo‘lsa, uning qilmishi 16 yoshga to‘lmagan shaxsning nomusiga tajovuz sifatida JK 25-moddasi va 118-moddasi 3-qismi «a» bandi bilan yoxud jinsiy ehtiyojni g‘ayritabiiy usulda qondirishga tajovuz sifatida JK 25-moddasi va 119-moddasining 3-qismi «a» bandi bilan kvalifikatsiya qilinadi. Agar 16 yoshga to‘lmagan shaxsga nisbatan uyatsiz-buzuq harakatlar qilish uning roziligi asosida nomusga tegish yoki jinsiy ehtiyojni g‘ayritabiiy usulda

qondirish bilan tugasa, aybdorni JK 128-moddasi bo'yicha javobgarlikka tortish lozim.

Amaliyotda 16 yoshga to'lmagan shaxsga nisbatan uyatsiz-buzuq harakatlar qilish jinoyatining tarkibini JK 119-moddasi 3-qismi «a» bandi va 128-moddaning tarkibidan farqlashda qiyinchiliklar vujudga keladi. Qonun chiqaruvchi JK 119-moddasi 1-qismi va 128-moddasi 1-qismini ishlab chiqayotganda «jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish» tushunchasining mazmunini yoritib bermagan va bu qilmishning uyatsiz-buzuq harakatlardan farqlari ko'rsatilmagan.

Mazkur tushunchalarni bir-biridan farqlashda, bizning nazarimizda, jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirishga qaratilgan harakatlar uyatsiz-buzuq harakatlardan farqli ravishda jinsiy ehtiyojni qondirishning nisbatan seksual xarakter kasb etishiga e'tibor qaratishimiz lozim. Undan tashqari, aksariyat hollarda, uyatsiz-buzuq harakatlarni amalga oshirishda aybdor o'zining g'ayritabiiyjinsiy ehtiyojini qondirishni emas, balki 16 yoshga to'lmagan, ongida insonlar o'rtasidagi jinsiy munosabatlar to'g'risida aniq shakllangan to'g'ri tushunchalar mavjud bo'lmagan shaxsning ongini zaharlash maqsadini ko'zlaydi.

Jinoyat uyatsiz-buzuq harakat sodir etilgan paytdan e'tiboran **tugallangan** deb e'tirof etiladi. Jinoyatni kvalifikatsiya qilish uchun aybdorning 16 yoshga to'lmagan shaxsga nisbatan o'z maqsadiga erishgani yoki erisha olmaganligi ahamiyatga ega emas.

Subyektiv tomondan jinoyat to'g'ri qasd bilan sodir etiladi. Ko'pgina hollarda, aybdor 16 yoshga to'lmagan shaxsga nisbatan uyatsiz-buzuq harakatlarni sodir qilayotganligini biladi va buni xohlaydi (**to'g'riqasd**). **Egri qasd** bo'lishi uchun aybdor 16 yoshga to'lmagan shaxs borligida jinsiy aloqa yoki shahvoniy harakatlar qilib, qilmishi-ning ijtimoiy xavfliligini bila turib, bolani axloqsizlikka o'rgatayotganligini ko'ra biladi va zararli oqibatlar kelib chiqishiga yo'l qo'yib beradi yoki bunga befarq qaraydi. Bu holatda aybdor

jabrlanuvchining jismoniy tuzilishiga qarab, tashqi ko‘rinishiga, harakatlariga va boshqa holatlarga qarab yoshini aniq bilishi kerak.

Aybdorning qilmishini **JK 129-moddasi** bilan kvalifikatsiya qilish uchun jabrlanuvchi qiz (o‘g‘il) bolaning 16 yoshga to‘lmaganligi aybdorga oldindan ayon bo‘lganligini aniqlash zarur. Agarda u jabrlanuvchining yoshiga nisbatan haqiqatan ham adashgan yoki jabrlanuvchining yoshi o‘n oltidan oshganligiga ishongan bo‘lsa, qilmish JK 129-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinmaydi. Ammo aybdorning uyatsiz-buzuq harakatlarni sodir etishi natijasida, jabrlanuvchining badaniga shikast yetkazilgan, tanosil yoki OITS kasalliklari yuqtirilgan bo‘lsa, qilmish JK tegishli moddalari bilan jinoyatlar jami sifatida kvalifikatsiya qilinadi.

Mazkur **jinoyatning subyekti** har ikki jinsdagi, o‘n olti yoshga to‘lgan shaxslar bo‘lishi mumkin.

10-§. Pornografik mahsulotni tayyorlash, olib kirish, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish (JK 130-moddasi)

Tahlil etilayotgan modda JKga Xalqaro Jeneva Konvensiyasining 1923 yil 13 sentyabrdagi «Pornografiya buyumlarining tarqatilishi va savdo-sotig‘iga qarshi kurash to‘g‘risida»gi qaroriga muvofiq kiritilgan¹.

Mazkur Konvensiyada jinoyat sifatida quyidagi qilmishlar nazarda tutilgan: pornografik narsalarni sotish, tarqatish yoki ommaviy namoyish etish maqsadida tayyorlash va saqlash; mazkur narsalarni davlat chegarasidan olib kirish, olib o‘tish, olib chiqish yoki ularni muomalaga chiqarish; pornografik narsalarni sotish, tarqatish yoki ommaviy namoyish etish, prokatga topshirish; mazkur materiallarni olish mumkin bo‘lgan yo‘llarni oshkor qilish va e‘lon qilish.

¹Караңг: Порнографик нашрлар айланишининг олдини олиш юзасидан битим (Париж, 1910 йил 4 май).

Ushbu **jinoyatning bevosita obyekti** jamoat odob-axloqi, yoshlarning normal axloqiy rivojlanishini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Jinoyat predmeti pornografik narsalar hisoblanadi.

NOTA BENE !

Pornografik narsalar deganda, pornografik asarlarni (qo'lyozma yoki mashinada yozilgan), bosma buyumlarni, tasvirlarni (fotosuratlar, slaydlar, kinoplyonkalar, gravyuralar, afisha va boshqalar), jinsiy aloqalarni, erkak va ayol jinsiy a'zolarini qo'pol, natural holatda, uyatsizlarcha, sharmandali yoki buzuvchi holda aks ettiruvchi boshqa narsalarni tushunish zarur.

Pornografiya narsalari tushunchasini bunday belgilash xalqaro standartlarga javob beradi. Predmetning pornografik xarakteri, qoida tariqasida, maxsus bilimga ega bo'lmagan har qanday shaxs uchun ma'lum bo'lishi kerak. Ammo shuni ham ta'kidlash joizki, har bir mamlakatda «pornografiya» tushunchasi mazkur masalaga nisbatan davlatlar va jamiyatlar qonunchilik hokimiyatining munosabati, ularning milliy an'analari, ma'naviy va diniy qoidalari va boshqa omillarga muvofiq turlicha talqin qilinadi.

Pornografiyani insonlar jinsiy hayotini aks ettiruvchi jinoyat hisoblanmaydigan «erotika»dan farqlash lozim. Ishqiy munosabatlarni namoyish etish, ularning tasviri, yalang'och tananing ko'rsatilishi, basharti ular qo'pol, bezbetlik, naturalistik xususiyatga ega bo'lmasa, pornografiya deb e'tirof etilishi mumkin emas. Shuningdek, buzuvchi holatdagi, naturalizm bo'lmagan, insonlar o'rtasidagi jinsiy munosabatlarni aks ettiruvchi san'at asarlari ham pornografik narsalar hisoblanadi (masalan, «Kama Sutra» hind eposi).

Material yoki predmetlarning pornografik xarakterga ega ekanligini aniqlash uchun kinotanqid, psixologiya, seksopatologiya, yurisprudentsiya va boshqa sohalardagi maxsus mutaxassislar ishtirokida **kompleks ekspertiza** tayinlanishi lozim bo'ladi.

JKning 130-moddasida ko'rsatilgan jinoyatning obyektiv tomonipornografik mahsulotni tarqatish, reklama qilish, namoyish etish maqsadida tayyorlash yoki O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish, xuddi Shuningdek uni tarqatish, reklama qilish, namoyish etish shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilishidan iboratdir.

Mazkur modda bo'yicha javobgarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil ichida shunday qilmish sodir etgandan so'ng vujudga keladi.

NOTA BENE !

Pornografik narsalarni tayyorlash deganda, ularning yaratilishi (videofilmga tushirish, montaj qilish, fotosuratga olish, asarlar yaratilishi, ko'paytirilishi va hokazolar)ga qaratilgan harakatlarni tushunish lozim.

Pornografik narsalarni tayyorlaganlik uchun javobgarlik aybdor ularni namoyish qilish yoki tarqatish maqsadini ko'zlagandagina yuzaga keladi.

NOTA BENE !

O'zbekiston Respublikasi xududiga pornografik mahsulotni olib kirish deganda, pornografik mahsulotni O'zbekiston chegarasi orqali boshqa davlatlarni xududidan olib o'tilishini tushunish lozim.

NOTA BENE !

Tarqatish deganda, pornografik narsalarning hech bo'lmaganda bir shaxsga berish, jo'natish, sotish, hadya qilish, internetga joylash yoki boshqa usulda yetkazib berilishini, jo'natilishini tushunish kerak. Tarqatish usuli kvalifikatsiya qilishda ahamiyatga ega emas.

NOTA BENE !

Reklama qilish deganda, pornografik mahsulot to'g'risida har qanday shaklda va har qanday vositalar yordamida maxsus axborot tarqatilishini tushunish lozim (masalan, ularni ommaviy axborot vositalarida chop etish, internet orqali namoyish etish, odamlarga planshet yoki uyali aloqa telefonlarida ko'rsatish va boshqalar). O'zbekiston Respublikasining «Reklama to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq, reklamada pornografiyani tarqatish taqiqlanadi¹.

NOTA BENE !

Namoyish qilish deganda, pornografiya bilan hech bo'lmaganda bir shaxsning har qanday usullar (masalan, videofilm, kinofilm, fotosuratlar, slaydlarni ko'rsatish, pornografik asarlarni o'qish va hokazo yo'llar) bilan tanishtirilishini tushunish lozim.

Pornografik mahsulotni tarqatish, reklama qilish, namoyish etish maqsadida tayyorlash yoki O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish, xuddi Shuningdek uni hech bo'lmaganda bir kishiga tarqatish, reklama qilish, namoyish etish vaqtidan boshlab jinoyat **tugallangan** hisoblanadi.

Pornografik narsalar namoyish etish yoki tarqatish maqsadisiz saqlangan bo'lsa, shaxs jazoga tortilmaydi.

JK 130-moddasi 3-qismidagi Voyaga yetmagan shaxs tavsiflangan yoki tasvirlangan pornografik mahsulot deganda o'zida Voyaga yetmagan shaxslarni aks ettirgan mahsulotni tushunish lozim (rasmlardagi, foto-fideo materiallardagi, internetdagi, asarlardagi va boshqalar).

Voyaga yetmagan shaxsni pornografik xususiyatga ega harakatlarning ijrochisi sifatida jalb qilish deganda, voyaga yetmagan shaxsdan bevosita pornografik materiallarni tayyorlashda har qanday ularning ishtiroki yoki undan foydalanish tushuniladi (voyaga yetmagan

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг 1998 йил 25 декабрдаги «Реклама тўғрисида»ги 723–I-сон Қонуни, 6-модда, 2-қисм // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1999 й., 1-сон, 14-модда.

shaxsning kino, videofilmlardagi ishtiroki, rasm yoki surat oldirish uchun biror vaziyatda turishi va boshqalar).

Ta'kidlash joizki, o'n olti yoshga to'lmagan Voyaga yetmagan shaxs pornografik xususiyatga ega harakatlarning ijrochisi sifatida jalb qilinganda unga nisbatan u bilan jinsiy aloqa qilingan yoki jinsiy ehtiyoj g'ayritabiiy usulda qondirilgan, shuningdek, unga nisbatan uyatsiz-buzuq harakatlar sodir etilgan hollarda qilmish zarur belgilar mavjudligida jinoyatlar jami tariqasida JKning 130-moddasi 3-qismi va JKning 128 yoki 129-moddalari tegishli qismi bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Subyektiv tomondan jinoyat to'g'ri qasd bilan sodir etiladi. Jinoyatning maqsadini zaruriy belgisi—bu pornografik maxsulotni tarqatish, reklama qilish va namoyish qilishdan iborat.

Jinoyatning **subyekt**i 16 yoshga to'lgan har qanday aqli raso shaxs bo'lishi mumkin.

11-§. Zo'ravonlikni yoki shafqatsizlikni targ'ib qiluvchi mahsulotni tayyorlash, olib kirish, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish (JK 130¹-modda)

Jinoyat **obyekt**i jamoat odob-axloqi, yoshlarning normal axloqiy rivojlanishini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar, jamiyatdagi ma'naviy va axloqiy tamoyillar hisoblanadi.

NOTA BENE !

Jinoyatning **predmet**i sifatida zo'ravonlikni yoki shafqatsizlikni targ'ib qiluvchi mahsulot (kino, audio va videomahsulotlar, asarlar, lazer disklari,) xizmat qiladi.

JKning VIII bo'limida belgilanganidek, zo'ravonlikni yoki shafqatsizlikni targ'ib qiluvchi mahsulot deganda, badiiy, ilmiy yoki madaniy qimmatga ega bo'lmagan, zo'ravonlik yoki shafqatsizlik sodir etishga undaydigan materiallar va narsalarni tushunish zarur.

Ko'rib chiqilayotgan jinoyatning predmeti sifatida turli asarlar, bosma nashrlar, rasmlar va boshqa har qanday buyumlar e'tirof etilishi

mumkin. Muhimi, ular shaxslarni zo‘ravonlik yoki shafqatsizlik sodir etishga undashi kerak. Ya’ni, zo‘ravonlikni yoki shafqatsizlikni targ‘ib qiluvchi san’at asarlarini sharhlanayotgan jinoyatning predmeti sifatida e’tirof etish uchun mazkur asarlar hech qanday badiiy, ilmiy yoki madaniy qimmatga ham ega bo‘lmasligini aniqlash zarur. San’atshunoslikka oid kompleks ekspertiza tayinlanishi lozim.

Jinoyatning **obyektiv tomoni** zo‘ravonlikni yoki shafqatsizlikni targ‘ib qiluvchi mahsulotni tarqatish, reklama qilish, namoyish etish maqsadida tayyorlashda yoki O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda, Shuningdek xuddi shunday harakatlar uchun ma’muriy jazo qo‘llanilganidan keyin zo‘ravonlikni yoki shafqatsizlikni targ‘ib qiluvchi mahsulotni tarqatish, reklama qilish, namoyish etishda ifodalanadi. (*Tarqatish, reklama qilish, namoyish etish, tayyorlash, O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish tushunchalari to‘g‘risida JKning 130-moddasi sharhiga qarang*).

Zo‘ravonlikni yoki shafqatsizlikni targ‘ib qiluvchi mahsulotni tayyorlash yoki O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish aybdor ularni tarqatish, reklama qilish yoki namoyish etish maqsadini ko‘zlagan hollardagina jinoyat tarkibini tashkil qiladi.

Zo‘ravonlikni yoki shafqatsizlikni targ‘ib qiluvchi mahsulotni tarqatish, reklama qilish, namoyish etish maqsadida tayyorlash yoki O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish, xuddi Shuningdek uni tarqatish, reklama qilish, namoyish etish vaqtdan boshlab jinoyat **tugallangan** hisoblanadi.

Zo‘ravonlikni yoki shafqatsizlikni targ‘ib qiluvchi mahsulot uni tarqatish, reklama qilish yoki namoyish etish maqsadisiz saqlangan bo‘lsa, shaxs jazoga tortilmaydi.

Sharhlanayotgan moddaning 2-qismida zo‘ravonlikni yoki shafqatsizlikni targ‘ib qiluvchi mahsulotni tarqatish, reklama qilish, namoyish etish maqsadida tayyorlash yoki O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish, xuddi Shuningdek uni tarqatish, reklama qilish, namoyish etish:

takroran yoki xavfli retsivist tomonidan (*JKning 32 va 34-moddalari sharhiga qarang*);

– bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib, sodir etilishi uchun javobgarlik nazarda tutilgan (*JKning 29 va 30-moddalari sharhiga qarang*).

12-§. Qo‘shmachilik qilish yoki fohishaxona saqlash (JK 131-moddasi)

Ushbu jinoyatning **bevosita obyekti** jamiyatdagi normal axloqiy muhitni ta’minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Shuningdek, oila va Voyaga yetmaganlarni himoya qiluvchi ijtimoiy munosabatlar, fuqarolarning hayoti, sog‘ligi va sha’ni, qadr-qimmati **fakultativ obyekt** hisoblanadi.

NOTA BENE !

Jinoyat obyektiv tomondan g‘arazli yoki boshqa past niyatlarda qo‘shmachilik qilish (1-q) va fohishaxona tashkil etish yoki saqlashda (2-q) ifodalanadi.

Fohishaxona deganda, mijozlar jinsiy aloqa yoki jinsiy ehtiyojlarini g‘ayritabiiy usulda qondirishi uchun mo‘ljallangan har qanday xonani yoki joyni tushunish zarur.

Fohishaxona alohida xonadon, uy, dala hovli, saunadagi, yordamchi xonadagi alohida bir joy va hokazo ko‘rinishda bo‘lishi mumkin. Hozirgi vaqtda uylar, mehmonxona, dam olish zonalari va boshqa joylarda ham fohishaxonalar bo‘lishi mumkin. Poezdlar, avtomashinalar, mikroavtobuslarning maxsus joylari ham bo‘lishi mumkin. Zaruriy sharti, bu erga odamlarni o‘z ehtiyojini qondirish uchun haq evaziga kelishidir.

Ushbu jinoyatning obyektiv tomoni faol harakat bilan sodir qilinadi. **Fohishaxona ochish va saqlash** deganda, xona tanlanishi, uning jihozlanishi, faoliyat ko‘rsatishi uchun shart-sharoitlar yaratilishi, uzoq vaqt xizmat qilishi uchun fohishaxonaning saqlanishi, mijozlar jalb qilinishi, uning reklamasi va hokazolarni tushunish kerak. Fohishaxona egasi shahvoniy yoki boshqa maqsadlarda odam yollagan hollarda,

uning qilmishi JK 131- va 135-moddalari bilan jinoyatlar jami bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi zarur.

NOTA BENE !

Qo'shmachilik – tamagirlik yoki boshqa past niyatlarni ko'zlab, manfaaddor shaxslar (mijoz)ning o'zaro jinsiy aloqa qilishi yoxud jinsiy ehtiyojlarini g'ayritabiiy usulda qondirishiga yordam ko'rsatishdan iborat (jinsiy aloqa sherigini topish).

Jinoyat fohishaxona ochishga yoki saqlashga qaratilgan har qanday xatti-harakatlar sodir etilgan paytdan boshlab yoxud g'arazli yoki boshqa past niyatlarni ko'zlab, mijozlarning shahvoniy harakatlarni amalga oshirishiga yordam berishga qaratilgan xizmatlar ko'rsatilgan paytdan e'tiboran **tugallangan** hisoblanadi.

Uning o'ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, unda jinoiy faoliyatga tayyorgarlik ko'rish yoki suiqasd qilish bosqichlari bo'lmaydi. Subyekt tomonidan jinsiy ehtiyojlarni qondirish uchun shaxslarni qidirishi, buning uchun xonaning tayyorlanishi hamda jinoyat sodir etish uchun qasddan boshqa sharoitlarning tayyorlanishi bilan jinoyat tugallangan hisoblanadi.

Subyektiv tomondan jinoyat to'g'ri qasd bilan sodir etiladi. Shaxs fohishaxona tashkil etish va saqlash yoki boshqa shaxslarning jinsiy ehtiyojini qondirishga xizmat qilishga qaratilgan harakatlarni bajarayotganligini anglaydi va buni xohlaydi.

Jinoyat subyektiv tomonining zaruriy belgisi **motividir**. o'sha qilmish **tamagirlik yoki boshqa past niyatlarda** sodir etilgan hollardagina, aybdor **JK 131-moddasi** bilan javobgarlikka tortilishi mumkin.

(«Tamagirlik niyatlari» tushunchasi to'g'risida to'liq ma'lumotni JK 97-moddasi tahlilida olishingiz mumkin.)

Bunda mansabparastlik, o'ch olish, xushomadgo'ylik, laganbardorlik va h.k. boshqa past niyat hisoblanadi.

Ushbu **jinoyatning subyekt** 16 yoshga to'lgan har qanday aqli raso shaxs bo'lishi mumkin.

Fohishaxonalarga borish jinoyat deb baholanmaydi.

Sharhlanayotgan moddaning birinchi yoki ikkinchi qismida nazarda tutilgan harakatlar bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo'lsa, aybdorning harakatlari JK 131-moddasi 3-qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Aybdorning harakatlari, agar jinoyat Voyaga yetmagan shaxsni jalb qilgan holda; takroran, xavfli retsivist (*JKning 32, 34-moddalari sharhiga qarang*) yoki ushbu Kodeksning 135 yoki 137-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarni ilgari sodir etgan shaxs tomonidan; uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa, JK 131-moddasi 4-qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Aybdorning harakatlarini JKning 131-moddasi 4-qismi «a» bandi bilan kvalifikatsiya qilish uchun aybdor jinoyatni sodir etishga 18 yoshga to'lmagan shaxsni jalb qilayotganligini aniq bilgan bo'lishi lozim. Bunda Voyaga yetmagan jabrlanuvchi fohishaxona ochishga yoki saqlashga yoxud qo'shmachilik qilishga har qanday rolda (fohishaxona qorovuli, fohishaxona haydovchisi, fohishalik bilan shug'ullanuvchi shaxs va boshqalar) ishtirok etishga jalb qilinishi mumkin.

Mazkur jinoyat takroran, xavfli retsivist yoki Jinoyat kodeksining 135 yoki 137-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarni ilgari sodir etgan shaxs tomonidan sodir qilingan bo'lsa, qilmish JK 131-moddasi 4-qismi «b» bandi bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi. (*Takroran yoki xavfli retsivist tushunchalari bo'yicha JKning 32 va 34-moddalari sharhiga qarang*).

Mazkur jinoyat uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa, qilmish JK 131-moddasi 4-qismi «v» bandi bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi. (*Uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab jinoyat sodir etilishi haqida JKning 29 va 30-moddalari sharhiga qarang*).

13-§. Moddiy madaniy meros obyektlarini nobud qilish, buzish yoki ularga shikast yetkazish (JK 132-moddasi)

O‘zbekiston Respublikasining 2001 yil 30 avgustdagi «Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida»gi Qonuniga muvofiq, mazkur qonunni buzgan shaxslar belgilangan tartibda (ma‘muriy yoki jinoiy) javobgarlikka tortiladilar¹.

Jinoiy javobgarlik **davlat muhofazasiga olingan** tarix yoki madaniyat yodgorliklariga tajovuz qilingan hollardagina yuzaga keladi.

Tarix va madaniyat yodgorliklarining davlat muhofazasiga olingani aholi e‘tiboriga ma‘lum bir usulda (taxtachalar, muhofaza lavhalari, ko‘rsatkichlarni osib qo‘yish, kitoblarda, gazeta va jurnallarda, yo‘l ko‘rsatkichlarida axborotlar berish va hokazo yo‘llar bilan) yetkazilishi lozim.

Jinoyat **obyekti** jamiyatning normal rivojlanishini ta‘minlovchi ijtimoiy munosabatlar, moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish kabi manfaatlar hisoblanadi.

Davlat muhofazasidagi har xil moddiy madaniy meros obyektlarini (tabiiy obyektlar, tabiiy favvoralar, sharsharalar, ajdodlarimizning maqbaralari, qo‘riqxonalar va hokazolar) jinoyatning predmeti bo‘lishi mumkin. Shu o‘rinda mazkur obyektlarning muhofazaga olingani to‘g‘risida tegishli idoralarning qarorlari chiqarilgan bo‘lishi va bu biron-bir usul bilan fuqarolar e‘tiboriga yetkazilgan bo‘lishi lozim.

Yuqoridagi qonunga ko‘ra **yodgorliklar** deganda, ayrim imoratlar, binolar va inshootlar, ularga taalluqli rassomlik, haykaltaroshlik, amaliy bezak san‘ati asarlari hamda shu imoratlar, binolar va inshootlarning tarixan tarkib topgan hududlari bilan birga, memorial uylar, kvartiralar, qabristonlar, maqbaralar va ayrim qabrlar, monumental san‘at asarlari, fan va texnika (shu jumladan, harbiy texnika) obyektlari, xalq og‘zaki ijodi, numizmatika, epigrafika namunalari, antropologiya, etnografiya, kartografiya, fotografiya materiallari, kinofilmlar, ovozli-tasvirli

¹Ўзбекистон Республикасининг 2001 йил 30 августдаги “Маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш тўғрисида” ги N 269-II Қонуни // “Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами”, 2001 й., 17-сон, 116-модда; “Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси”, 2001 й., 9-10-сон, 180-модда.

yozuvlar hamda boshqa jismlardagi yozuvlar, adabiyot va san'at asarlari, arxiv, qo'lyozma va chizma hujjatlar, qadimgi qo'lyozma kitoblar, harf terish usulida chiqarilgan dastlabki kitoblar, nodir va noyob nashrlar, notalar, muqaddas buyumlar va memorial xususiyatga ega bo'lgan ashyolar, tosh haykallar, qoyaga o'yib solingan tasvirlar, shuningdek, tarixiy, ilmiy, badiiy va o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan arxeologiya yodgorliklari tushuniladi.

Jinoyatning **obyektiv tomoni** davlat muhofazasiga olingan moddiy madaniy meros obyektlarini qasddan nobud qilishda, buzishda yoki ularga shikast yetkazishda ifodalanadi. Bunda JKning 132-moddasi 1-qismi bo'yicha javobgarlik ko'rsatilgan harakatlar xuddi shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilgandan so'ng sodir etilgan holdagina vujudga keladi.

Moddiy madaniy meros obyektlarini **nobud qilish** deganda, ularning qayta tiklash imkoniyati bo'lmagan holda butunlay yaroqsiz holga keltirilishini tushunish lozim.

Moddiy madaniy meros obyektlarini **buzish** deganda, qayta tiklash imkoniyatini qoldirgan holda ularga ma'lum darajada zarar yetkazilishini tushunish kerak.

Moddiy madaniy meros obyektlariga shikast yetkazish deganda, ularga muayyan zarar yetkazilgan bo'lib, buning oqibatida yodgorliklar badiiy, tarixiy, arxeologik, ilmiy qiymatining yo'qolishi tushuniladi.

Moddiy madaniy meros obyektlarini qasddan nobud qilish, buzish yoki ularga shikast yetkazish usullari jinoyatni kvalifikatsiya qilishda ahamiyatga ega emas. Bu yondirish, vayron qilish, suv bostirish, jismoniy ta'sir ko'rsatish va hokazo bo'lishi mumkin.

Davlat muhofazasiga olingan moddiy madaniy meros obyektlarini nobud qilingan, buzilgan yoki ularga shikast yetkazilgan paytdan boshlab jinoyat **tugallangan** hisoblandi.

Aybdor o'z qilmishi natijasida **ko'p miqdorda** zarar yetkazgan bo'lsa, **JK 132-moddasi 2-qismi** bilan javobgarlikka tortiladi.

Eng kam oylik ish haqining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha miqdordagi zararni **ko'p miqdordagi** zarar deb tushunish lozim.

Jinoyat kodeksi 132-moddasi 3-qismi rag‘batlantiruvchi xarakterga ega bo‘lib, yetkazilgan moddiy zarar uch baravariga teng miqdorda qoplangan hollarda, aybdorga nisbatan ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo qo‘llanilmaydi.

Subyektiv tomondan jinoyat to‘g‘ri yoki egri qasddan, bilvosita yoki bevosita g‘arazli niyat bilan sodir etiladi.

Jinoyatning sodir etilish **motivi** jinoyatning kvalifikatsiyasiga ta‘sir etmaydi. Ammo, moddiy madaniy meros obyektlarini nobud qilish, buzish, ularga shikast yetkazish bezorilik harakatlari bilan birgalikda sodir etilsa, aybdorning qilmishi O‘zbekiston Respublikasi **JK 132-** va **277-moddalari** bilan jinoyatlar jami bo‘yicha kvalifikatsiya qilinadi.

Moddiy madaniy meros obyektlarini nobud qilish, buzish yoki ularga shikast yetkazish ehtiyotsizlik natijasida ro‘y bergan hollarda, ish holatiga qarab, aybdor JK 207-moddasi (Mansabga sovuqqonlik bilan qarash) yoxud 172-moddasi (Mulknı qo‘riqlashga vıjdonsız munosabatda bo‘lish) bilan javobgarlikka tortiladi.

Moddiy madaniy meros obyektlarini buzish yoki ularga shikast yetkazish yodgorliklarning muayyan qismlarini talon-toroj qilish bilan birgalikda sodir etilgan hollarda, aybdorning qilmishi JK 132-moddasi va o‘zganing mulkini talon-toroj qilganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan tegishli modda bilan jinoyatlar jami bo‘yicha kvalifikatsiya qilinishi zarur.

Bu **jinoyatning subyektı** 16 yoshga to‘lgan aqli raso shaxs bo‘lishi mumkin.

Aybdor shaxsning qilmishida mansab vakolati bilan bog‘liq jinoyat alomatlari bo‘lgan taqdirda, uning qilmishi jinoyatlarning jami bo‘yicha kvalifikatsiya qilinadi.

12-§. Inson a‘zolari yoki to‘qimalarini ajratib olish (JK 133-moddasi)

O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga ko‘ra, inson a‘zolari yoki to‘qimalari oldi-sotdi predmeti bo‘lishi mumkin emas.

Retsipientlarga a‘zolari va to‘qimalarnı ko‘chırıb o‘tkazish bilan bog‘liq operatsiyalar tibbiy xulosalarga asoslanib amalga oshiriladi.

Inson a'zolari va to'qimalarining ajratib olinishi va tayyorlanishiga shaxs tirikligida uning roziligi, shaxs vafot etganda esa, uning yaqin qarindoshlari roziligi asosida faqat Davlat sog'liqni saqlash muassasalaridagina ruxsat beriladi. Shaxsning a'zo yoki to'qimalarini ko'chirib o'tkazishga faqat maxsus sog'liqni saqlash muassasalarida ruxsat beriladi.

JK 133-moddasining **bevosita obykti** jamiyatning normal ma'naviy asoslarini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Jinoyat **predmeti** inson a'zolari yoki to'qimalari hisoblanadi.

(Bu haqda batafsil ma'lumotni JK 97-moddasi 2-qismi «i» bandida ko'rishingiz mumkin.)

Obyektiv tomondan jinoyat shaxs tirikligida uning roziligini olmasdan turib yoki o'lganidan keyin yaqin qarindoshlarining roziligisiz, ilmiy yoxud ta'lim ishlari uchun ko'chirib o'tkazish yoki buzilmaydigan holda saqlash (konservatsiya) maqsadida murdaning a'zolari yoki to'qimalarini ajratib olishda ifodalanadi.

NOTA BENE !

A'zolar yoki to'qimalarni sog'liqni saqlash muassasasida ajratib olishga odam tirikligi vaqtida yoxud uning yaqin qarindoshlari shaxs o'lganidan so'ng uning a'zolari yoki to'qimalarini ma'lum maqsadlar uchun ajratib olishga rozi emasliklarini ma'lum qilgan bo'lsalar, murdaning a'zolari yoki to'qimalari **ajratib olinishiga** yo'l qo'yilmaydi.

Mutaxassis vrachlar konsiliumi tomonidan qayd etilgan o'lim faktining shubhasiz isbotlari mavjud bo'lsa, odam tirikligi vaqtida bergan yoki uning yaqin qarindoshlari u o'lganidan keyin rozilik bergan bo'lsa, ko'chirib o'tkazish uchun murdaning a'zolari yoki to'qimalarini ajratib olish mumkin.

Murda a'zolari yoki to'qimalarini ajratib olish sog'liqni saqlash muassasasi bosh vrachining ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sud-tibbiy ekspertizasini o'tkazish talab qilingan hollarda murdaning a'zolari yoki to'qimalarini ajratib olishga ruxsat, prokuror ogoh etilib, sud-tibbiy eksperti tomonidan berilishi lozim.

Qotillik murdaning a'zolari yoki to'qimalarini ko'chirib o'tkazish maqsadida sodir etilganligi aniqlansa, aybdorning qilmishi JK 97-moddasi 2-qismi «n» bandi hamda 25- va **133-moddalar** bilan yoxud agar ko'chirib o'tkazish uchun a'zolari yoki to'qimalarni ajratib olish ro'y bergan bo'lsa, JK 97-moddasi 2-qismi «n» bandi va **133-modda** bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Ko'chirib o'tkazilgani yoki o'tkazilmagani, saqlab qo'yilgani yoki saqlab qo'yilmaganidan qat'i nazar, odamning a'zolari yoki to'qimalari ajratib olingan paytdan boshlab **jinoyat tugallangan** deb hisoblanadi.

Ushbu harakatlar:

a) tamagirlik yoki boshqa past niyatlarda;

b) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan sodir etilgan bo'lsa, **JK 133-moddasi 2-qismi** bilan kvalifikatsiya qilinadi.

(«Tamagirlik niyatida» tushunchasi haqida JK 97-moddasi tahliliga qarang.)

Tamagirlik niyati mulkiy yoki moddiy majburiyati bo'lgan shaxsdan qutulib, qarzlarni va alimentni to'lash va boshqa maqsadlarda amalga oshirilganda namoyon bo'lishi mumkin. Boshqa past niyatlar deganda, mazkur holatda mansabparastlik, laganbardorlik, oshna-og'aynigarchilikni tushunish mumkin.

(«Takroran» yoki «xavfli retsivist tomonidan» tushunchalari to'g'risida to'liq ma'lumotni JK 97-moddasi tahlilida olishingiz mumkin.)

Subyektiv tomondan jinoyat to'g'ri qasddan sodir etiladi.

Jinoyatni sodir etish **motivlari** aybdorni **JK 133-moddasi 1-qismi** bilan javobgarlikka tortish uchun ahamiyat kasb etmaydi. Jinoyat transplantatsiya, konservatsiya yoki ilmiy **maqsadlarda** amalga oshirilishi mumkin.

Mazkur **jinoyatning subyekti** 16 yoshga to'lgan shaxslar bo'lishi mumkin, odatda ular tibbiy ixtisoslikka ega bo'ladilar.

13-§. Qabrni tahqirlash (JK 134-moddasi)

JK 134-moddasida javobgarlik belgilangan **jinoyatning bevosita obyekti** jamiyatda mavjud bo‘lgan odob-axloq asoslarini ta’minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Jinoyat **predmeti** vafot etgan odamlarning murdalari, ularning ko‘milgan joylari, qabrlari, mozorlari hisoblanadi.

Qabr – o‘lgan odam yotgan (har xil anjomlar, kiyim-kechak, tobut va hokazo narsalar bo‘lgan) joydir.

Mozor deganda, qabrni va uning ustidagi tepalikni, yodgorlik, panjara, gullar, gulchambarlarni va hokazolarni tushunish lozim.

Obyektiv tomondan jinoyat qabrni yoki murdani tahqirlashda, shuningdek, murdadagi, qabr ustida yoki ichidagi narsalarni olishda ifodalanadi.

Qabrni tahqirlash deganda, uning kovlab tashlanishi, qabr ustidagi toshlar, yodgorliklar, marhumning xoki saqlanayotgan idishlar, panjaralarning vayron qilinishi, yashil nihollarning bosib-yanchilishi, qabr toshlariga beadab yozuvlar yozilishi va hokazolarni tushunish lozim.

Murdani tahqirlash deganda, murdaning, uning alohida qismlarining tashqariga chiqarib olinishi, murdaning tanib bo‘lmas holga keltirilishi, uning xo‘rlanishi tushuniladi.

Murdadagi, qabr ustidagi yoki ichidagi narsalarni olish qabrni tahqirlashning ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, ana shu narsalarning yashirin yoki oshkora qo‘lga kiritilishidan iboratdir.

Ushbu jinoyat qabr ustidagi yoki ichidagi narsalar olingan va aybdor ularni qo‘lga kiritgan paytdan boshlab tugallangan deb e’tirof etiladi.

Subyektiv tomondan jinoyat **to‘g‘ri qasd** bilan sodir etiladi. Aybdor qabrni tahqirlayotganligini anglaydi va buni xohlaydi. Jinoyatning sodir etilish **motivi** uni kvalifikatsiya qilishda ahamiyatga ega emas. Ko‘pgina hollarda, qabrni tahqirlashda aybdor bezorilik niyatlari yoki diniy taassublar zamirida (qandaydir marosim o‘tkazadi) harakat qiladi.

Mazkur **jinoyatning subyekti** 16 yoshga to‘lgan har qanday aqli raso shaxs bo‘lishi mumkin.

Jamoat joylarida jamoat tartibi qoidalariga qasddan hurmatsizlik bildirish bilan birga sodir etilgan o'zganing mulkiga shikast yetkazish yoki nobud qilish, qabrni yoki murdani tahqirlash JK 134-moddasi va 277-moddasi 2-qismi «p» bandi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

**«Oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlar»
mavzusi bo'yicha yakuniy savollar**

1. Voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash tushunchasi va jinoiy javobgarlik qanday asoslarda kelib chiqadi?

2. Voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta'minlash jinoyatidan ota-onani moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash jinoyatining farqi nimadan iborat?

3. Aybdor harakatlarini JK 124-moddasi (Bolani almashtirib qo'yish) bilan kvalifikatsiya qilishning o'ziga xos jihatlari nimalardan iborat?

4. Farzandlikka olish sirini oshkor qilish jinoyati uchun javobgarlikning kelib chiqish asoslari nimalardan iborat?

5. Ko'p xotinlilik belgilari nimalardan iborat?

6. Voyaga yetmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish deganda nimalarni tushunasiz? o'ayriijtimoiy xatti-harakatlar tushunchasiga ta'rif bering.

7. O'n olti yoshga to'lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish uchun javobgarlikning asoslari va o'ziga xos xususiyatlari nimalarda ko'rinadi? Mazkur jinoyatning nomusga tegish yoki jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib G'ayritabiiy usulda qondirish jinoyatlari bilan o'xshash va farqli jihatlari nimalarda ko'rinadi?

8. Uyatsiz-buzuq harakatlar deganda nimani tushunasiz?

9. Uyatsiz-buzuq harakatlarning qanday ko'rinishlari mavjud?

10. Pornografik narsalar deganda nimani tushunasiz? Pornografik narsalarni tayyorlash yoki tarqatish uchun jinoiy javobgarlik yuzaga kelishining o'ziga xos jihatlari nimalarda ko'rsating.

11. Uyatsiz-buzuq harakatlarning pornografik narsalarni tayyorlash yoki tarqatishdan farqi nimada?

12. Fohishaxona saqlash yoki qo‘shmachilik qilish tushunchasiga ta’rif bering, ularning belgilari va o‘ziga xos jihatlarini sanang.

13. Fohishaxona ochish va saqlash deganda nimani tushunasiz?

14. Qilmishni JK 131-moddasi (Qo‘shmachilik qilish yoki fohishaxona saqlash) bilan kvalifikatsiya qilishning zaruriy shartlari nimalar?

15. Moddiy madaniy meros obyektlarini nobud qilish, buzish yoki ularga shikast yetkazish uchun javobgarlikning o‘ziga xos jihatlari nimalar? Moddiy madaniy meros obyektlarini nobud qilish, buzish yoki ularga shikast yetkazish deganda nimani tushunasiz?

16. Inson a’zolari yoki to‘qimalarini ajratib olish jinoyatining belgilarini sanang. Mazkur qilmish uchun jazoni og‘irlashtiradigan holatlar qaysilar?

17. Qabrni, murdani tahqirlash deganda nimani tushunasiz?

18. Murdani tahqirlash jinoyatining qonunga xilof ravishda inson a’zolari yoki to‘qimalarini ajratib olish jinoyatidan farqi nimada?

Qo‘shimcha adabiyotlar

O‘quv qo‘llanmalar, maxsus adabiyotlar

Арзымбетов М.У. Правовые вопросы совершенствования уголовного законодательства о преступлениях, связанных с обычаями и традициями (на материалах Республики Каракалпакстан). Монография. – Т.: 1996.

Дорош Л.В. Уголовная ответственность за злостное уклонение от платежа алиментов на содержание детей. Автореф. канд. дисс. – Харьков: ХарЮИ, 1982.

Зубкова В.И. Ответственность за преступления против личности по законодательству России. – М.: «Норма», 2005. – 256 Б.

Игнатов А.И. Ответственность за преступления против нравственности. – М.: 1966.

Кондрашова Т.В. Проблемы уголовной ответственности за преступления против жизни, здоровья, половой свободы и половой неприкосновенности. – Екатеринбург: 2000. – 239 Б.

Осокин Р.Б., Денисенко М.В. Уголовная ответственность за незаконное распространение порнографических материалов или предметов. – М.: Щит-М, 2005.

Пудовочкин Ю.Е. Ответственность за преступления против несовершеннолетних по Российскому уголовному праву / Под ред. д.ю.н., проф., заслуженного юриста РФ Г.И. Чечеля – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2002. – 320 Б.

Рустамбаев М.Х. Преступления против личности. Учебное пособие. – Т.: «Эльдинур», 1998. – 181 Б.

Савельева В.С. Уголовная ответственность за преступления против несовершеннолетних. – М.: МЮИ, 1992.

Степанок А.Ф. Уголовная ответственность за изготовление, сбыт и распространение порнографических предметов. Автореф. канд. дисс. – Харьков: ХарЮИ, 1983.

Тихонова С.С. Посмертное и прижизненное донорство в Российской Федерации: Вопросы уголовно-правового регулирования. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2002. – 321 Б.

Халиков А. Ответственность за посягательство на интересы несовершеннолетних. – Нукус: «Каракалпакстан», 1983.

Щерба С.П., Приданов С.А. Уголовно-правовая охрана предметов и документов, имеющих историческую, научную, художественную или культурную ценность: Практическое пособие / Под общ. ред. проф С.П. Щербы. – М.: Учебно-консультационный центр «ЮрИнфоР», 2000.

Якубов А.С. Уголовно-правовые меры борьбы с вовлечением несовершеннолетних в пьянство и употребление наркотических средств. – Т.: ВШ МВД, 1992.

Ilmiy maqolalar

Михайлова Л.П. Применение наказаний за злостное уклонение от уплаты алиментов детям. – М.: Вестник МГУ. Право. 1980. № 1.

Пайзуллаев К.П. Юридическая и криминологическая характеристика личности преступника, совершившего сексуальное


насилие против несовершеннолетних // Ж. Давлат ва ҳуқуқ. 2003. № 3. – 49–51-б.

Тоҳиров Ф. Отграничение преступлений, предусмотренных статьями 118, 119 УК РУз от развратных действий в отношении лица, не достигшего 16 лет // Ж. Вестник Каракалпакского Отделения Академии наук Республики Узбекистан, Нукус. 2002. № 1–2. – 81–83-б.

Тоҳиров Ф. Семья – как объект защиты общества и государства // Ж. Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари. 2001. № 4. – 8–10-б.

VII BOB. SHAXSNING OZODLIGI, SHA'NI VA QADR-QIMMATIGA QARSHI JINOYATLAR

9-sxema



1-§. Odam savdosi (JK 135-moddasi)

Odam savdosi bilan bog'liq jinoyatlar (ayniqsa, ayollar va bolalarga nisbatan) xalqaro huquqda uzoq vaqtdan beri ma'lum. 1949 yil 2 dekabrda BMT Odam savdosi va uchinchi shaxslarning tanfurushligini ekspluatatsiya qilishga qarshi Konvensiyani qabul qildi¹. Hozirgi kunda odam savdosi transmilliy uyushgan jinoyatchilikning ajralmas bir bo'lagiga aylangan bo'lib, dunyo miqyosida shunday keng tarqalganki, BMT va Xalqaro migratsiya tashkiloti ekspertlarining fikrlariga ko'ra, mazkur jinoyatdan jabrlanganlar soni millionlarni tashkil etadi.

Odam savdosi – hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Undan keladigan daromad giyohvand moddalar va qurol savdosidan so'ng uchinchi o'rinda turadi. Jinoyatchilikning mazkur turidan keladigan daromadning yillik aylanmasi 7 mlrd. AQSh dollarini tashkil etadi.

¹Қаранг: Одам савдосига ва учинчи шахслар томонидан танфурушликдан фойдаланилишига қарши кураш тўғрисидаги конвенция (Нью-Йорк, 1949 йил 2 декабрь; Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 317 (IV)-сон Резолюцияси билан маъқулланган; Ўзбекистон Республикаси Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг 2003 йил 12 декабрдаги 576–II-сон қарори билан қўшилди).

Jinsiy ekspluatatsiya, majburiy mehnat, bolalar mehnatini ekspluatatsiya qilish ayrim mamlakatlarda shu darajada keng tarqalganki, natijada hozirgi kunda millat genofondiga, shu bilan birga milliy xavfsizlikka jiddiy xavf tug'dirmoqda. Bunday holatda har qanday madaniyati rivojlangan mamlakat mazkur jinoiy faoliyat turi bilan kurash bo'yicha barcha zarur choralarni ko'rishi lozim. O'zbekiston ham bu borada istisno emas.

Bizning mamlakatimizda ekspluatatsiya qilish maqsadida odamlarni sotish muammosi mustaqillikning ilk davrlaridayoq dolzarb muammoga aylandi. Mamlakatda yuz bergan siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, ayniqsa chegaralarning ochilishi va aholi xalqaro migratsiyasining oshishi, shuningdek, iqtisodiyotda o'tish davri munosabati bilan aholi turmush darajasining sezilarli tarzda pasayishi natijasida kriminogen holatning yomonlashuvi va shaxsning jinsiy va boshqa turdagi ekspluatatsiyasi bilan bog'liq harakatlardagi jabrlanganlar sonining oshishi kuzatildi. Shu bilan birga ko'pgina hollarda, jabrlanuvchilar respublika hududidan tashqariga olib chiqilib, noqonuniy tarzda saqlab turilgan. Aynan Shuning uchun mamlakatimiz qonunchiligi tomonidan sobiq Sovet mamlakatlari orasida birinchilardan bo'lib 1994 yili jinoyat qonunchiligida odamlarni jinsiy yoki boshqacha tarzda ekspluatatsiya qilish uchun ularni yollash uchun javobgarlikni belgilovchi norma qabul qilindi.

2003 yilda O'zbekiston yuqorida qayd etilgan BMTning 1949 yilgi Konvensiyasiga qo'shildi, 2008 yilda esa BMTning transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konvensiyasini to'ldiruvchi Odam savdosi, ayniqsa ayollar va bolalar savdosining oldini olish, bartaraf qilish va buning uchun javobgarlik to'g'risidagi Bayonnomani¹ tasdiqlab, aholini ogohlantirish, jabrlanuvchilarni himoya qilish va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan dasturlarni amalga oshirish va ularni qo'llab-quvvatlash orqali odam savdosining oldini olish va bartaraf qilish majburiyatini oldi.

¹Ведомости палат Олий Мажлиса Республика Узбекистан, 2008 г. № 7, ст.

O‘zbekiston Respublikasining «Odam savdosiga qarshi kurash to‘g‘risida»gi¹ Qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan JKning 135-moddasiga o‘zgartish kiritildi. JK 135-moddasining avvalgi tahriri odamlarni ekspluatatsiya qilish uchun ularni yollash uchun javobgarlikni nazarda tutgan va xalqaro huquqiy hujjatlarda qayd etilgan odam savdosi bilan bog‘liq jinoiy qilmishlarni qamrab olmagan, natijada uning amalda qo‘llanilishi trafikning obyektiga aylangan fuqarolarning erkinliklari, sha‘ni va qadr-qimmatini to‘liq himoya qilishni ta‘minlay olmagan. Bundan tashqari, faqatgina fohishalikning ekspluatatsiya qilinishi maqsadida odamlarni sotish nazarda tutilgan 1949 yilgi Konvensiyadan farqli ravishda O‘zR JK 135-moddasi odamlarni har qanday ekspluatatsiya qilish maqsadida bunday harakatlarni amalga oshirganlik uchun javobgarlikni belgiladi.

Odam savdosining **bevosita obyektini** shaxsning shaxsiy erkinligi, sha‘ni va qadr-qimmatini kafolatlovchi ijtimoiy munosabatlar tashkil etadi. **Qo‘shimcha obyekt** alohida kvalifikatsiya qilingan tarkiblarda shaxsning hayoti va sog‘ligi daxlsizligini ta‘minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

JK 135-moddasi tavsiflovchi dispozitsiyaga ega. Mazkur jinoyat **obyektiv tomondan** odam savdosi, ya‘ni odamlarni olish-sotish yoki ularni ekspluatatsiya qilish maqsadida yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilishda ifodalanadi.

Agar aybdor jabrlanuvchining Voyaga yetmaganligini bila turib, unga nisbatan modda dispozitsiyasida sanab o‘tilgan yuqoridagi harakatlardan birini sodir etsa hamda uning harakatlarida JK 135-moddasi 2-qismidagi «a, v, g, d, e, j, z, i, k» va 3-qismining «b, v, g» bandlari bo‘lmasa, qilmish 135-moddaning 1-qismi bilan javobgarlikka tortiladi.

Odam savdosi shaxs ekspluatatsiyasining boshlanishidan qat‘i nazar, aybdor **JK 135-moddasi 1-qismida** nazarda tutilgan harakatlardan birini sodir etgan paytdan boshlab, odamlarni olish-sotish, ularni yollash,

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг 2008 йил 16 сентябрдаги «Одам савдосига қарши курашиш тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни қабул қилинганлиги муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодексига ўзгартиш ва қўшимча киритиш ҳақида»ги ЎРҚ-179-сон Қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2008 й., 9-сон, 485-модда.

tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilish harakatlari sodir etilgan paytdan boshlab **tugallangan** hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining «Odam savdosiga qarshi kurash to‘g‘risida»gi Qonunida «odam savdosi» tushunchasi «yollash», «tashish», «topshirish», «yashirish», «qabul qilish» qilmishlari (harakat shakli) shaklida berilgan. Biroq JK matnida bu tushunchalar qisqa berilgan.

NOTA BENE !

Odam savdosi odamni olish-sotish, ya’ni uni sotuvchiga pul ko‘rinishida ma’lum miqdordagi mablag‘ yoki boshqacha mulkiy ekvivalent (ko‘char va ko‘chmas mulklar, mulkiy xarakterdagi daromadlar, mulkiy yoki pul ko‘rinishidagi qarzdan voz kechish va boshqalar) berish evaziga sotib oluvchi egaligiga topshirish hisoblanadi.

Odam savdosi **olish-sotish** – «tovar»ga haq to‘langandan so‘ng, ya’ni odam savdosi bilan shug‘ullanuvchi shaxsning jabrlanuvchini sotib oluvchi egaligiga topshirgan paytdan qat’i nazar, ma’lum miqdordagi pul yoki boshqacha mulkiy ekvivalent olgan paytdan boshlab tugallangan hisoblanadi.

Agar jinoyatchilar (bir tomondan odamlarni sotuvchi, ikkinchi tomondan sotib oluvchi) o‘rtasida odamni olish-sotish to‘g‘risida kelishuv tuzilgan bo‘lib, ammo ma’lum sabablarga ko‘ra rejalashtirilgan kelishuv amalga oshmagan bo‘lsa (pul topshirilmagan bo‘lsa), ularning harakatlari JK 135-moddasining tegishli qismi va 25-moddaning 1-qismi bo‘yicha, ya’ni olish-sotish ko‘rinishida odam savdosiga tayyorgarlik ko‘rish sifatida baholanishi lozim.

Odam savdosining bir ko‘rinishi odamlarni biror-bir faoliyatga, mazkur holatda ekspluatatsiyaga jalb qilishga qaratilgan harakatlarda namoyon bo‘luvchi odamlarni **yollash** hisoblanadi (masalan, odamlarni qidirish, xohlovchilarni ro‘yxatga olish, ular bilan dastlabki kelishuv

tuzish va boshq.)¹. Odamni yollash faqat uni olish-sotish bilan tugaydi va bu, qoida tariqasida, aldash orqali amalga oshiriladi. Aybdor jabrlanuvchining o'z xohishiga ko'ra ma'lum bir faoliyat bilan shug'ullanishiga roziligini olmoqchi bo'lganda yollash usuli sifatida ko'ndirish mazkur holatda kamdan-kam hollarda qo'llaniladi.

Odamni yollash uni zo'rlash, qo'rqitish yoki majburlashning boshqacha turlarini qo'llash orqali amalga oshirilsa, kelib chiqqan oqibatlarining darajasidan qat'i nazar, qilmish **JK 135-moddasi 2- yoki 3-qismi** bilan javobgarlikka tortiladi.

Yollash yollanayotgan shaxsning roziligini olishga qaratilgan harakatlar amalga oshirilgan paytdan boshlab, shaxs roziligi olinganidan qat'i nazar, tugallangan hisoblanadi.

Shaxsni jinsiy ekspluatatsiya qilish maqsadida yollashni uni fohishalik bilan shug'ullanishga jalb qilish maqsadida yollashdan, ya'ni **JK 131-moddasidagi** qo'shmachilik jinoyatidan farqlash lozim. Ular o'rtasidagi farqni jinoyatchining maqsadi, shuningdek, jinoiy tajovuz obyektida ko'rish mumkin. Avvalambor, aybdorning yollashga qaratilgan harakatlaridan kelib chiqadigan oqibatga ko'zi yetishini aniqlash lozim. Agar jinoyat subyekti u tomonidan yollanayotgan shaxsning shaxsiy erkinligi cheklanishi, u uchun noqulay sharoitga solinib, boshqalarga qaram holatda saqlanishi (masalan, qul sifatida saqlanishi)ni bilsa, yollash shaxsni keyinchalik ekspluatatsiya qilish maqsadida amalga oshirilayotganligini belgilash mumkin bo'ladi.

Qo'shmachilikda esa aybdor faqat tamagirlik maqsadini ko'zlaydi. Undan tashqari, mazkur holatda yollashda fohishalik bilan shug'ullanish va uning uchun to'lanadigan haq shaxs bilan oldindan shartlashilgan kelishuv asosida uning roziligini olib amalga oshiriladi. Bunday holatda yollanayotgan shaxs o'zining shaxsiy erkinligi va undan foydalanishda to'la mustaqil bo'ladi.

Tashish – odamni bir joydan ikkinchi joyga, shuningdek, bir aholi yashaydigan joydan ikkinchisiga har qanday transport, shuningdek, ot-

¹Караг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2009 йил 24 ноябрдаги «Одам савдосига оид ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 12-сонли қарори, 6-банд, 2-хатбоши. // Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг қарорлари. – Т.: «Адолат», 2014. – 189-б.

arava vositasida olib o'tishda namoyon bo'ladi. Tashish olish-sotish harakatlari boshlanishidan oldin yoki keyin ham amalga oshirilishi mumkin va jabrlanuvchi bir joydan ikkinchi joyga olib o'tish boshlangan paytdan boshlab tugallangan hisoblanadi.

Shaxsni topshirish odam savdosida vositachi, undan tashqari, olish-sotish amalga oshirilganidan so'ng sotib oluvchining o'zi tomonidan jabrlanuvchini ekspluatatsiya qilish, vaqtinchalik joylashtirish yoki uning yashashi uchun topshirish harakatlarida namoyon bo'lishi mumkin. Bunda topshirish qaytarib olish (masalan, yo'llangan shaxsni berish) yoki qaytarib olmaslik (masalan, hadya qilish) sharti bilan, doimiy yoki ma'lum bir muddatga, ma'lum bir shartlarni bajargandan so'ng yoki ularsiz amalga oshirilishi mumkin hamda jabrlanuvchining bir shaxs egaligidan boshqasiga o'tgan paytdan boshlab tugallangan hisoblanadi.

Yashirish jabrlanuvchini olish-sotishdan oldin ham, keyin ham amalga oshirilishi mumkin (masalan, shaxsni uyning yerto'lasida saqlash) hamda shaxsni yashirishga qaratilgan har qanday harakat amalga oshirilgan paytdan boshlab tugallangan hisoblanadi.

Qabul qilish shaxsning topshirilishi natijasida uni egallab olish bilan bog'liq harakatlar (topshirishga qarama-qarshi harakatlar)da namoyon bo'ladi.

Subyektiv tomondan odam savdosi **to'g'ri qasd** bilan sodir etiladi hamda qonunda ko'rsatilganidek, odamlarni ekspluatatsiya qilish **maqsadida** amalga oshiriladi. Aybdor shaxsni ekspluatatsiya qilish maqsadida uni olish-sotish yoki uni yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilish harakatlarini bajarayotganligini angelaydi va bu harakatlarni bajarishni xohlaydi. Bunda JK 135-moddasi bo'yicha javobgarlik vujudga kelishi uchun shaxs ekspluatatsiyasi amalga oshganligi ahamiyatga ega emas. Asosiysi, aybdor jabrlanuvchini shaxsan o'zi ekspluatatsiya qilmoqchi yoki boshqa shaxslarning ekspluatatsiya qilmoqchiligini bilgan bo'lishi kerak. Masalan, shaxsni jinsiy ekspluatatsiya qilish uchun sotayotgan aybdor uning boshqa shaxslar tomonidan jinsiy ekspluatatsiya qilinishini biladi va aynan Shuning uchun o'zining jinoiy qilmishlarini amalga oshiradi. Unga

qarama-qarshi tarzda shaxsni o‘z egaligiga olayotgan shaxs keyinchalik shaxsan o‘zi uni ekspluatatsiya qiladi (mazkur holat uy qulchiligiga xos).

(Odamlarni ekspluatatsiya qilish tushunchasi JKning 8-bo‘limida berilgan.)

NOTA BENE !

Odamlarni ekspluatatsiya qilish boshqa shaxslarning tanfuru-
rushligini ekspluatatsiya qilish yoki jinsiy ekspluatatsiyaning boshqa
turlari, majburiy mehnat yoki xizmatlar, qulchilik, unga o‘xshash
an’analar, erksiz holat yoki inson a’zo yoki to‘qimalarini ajratib olish
hisoblanadi.

**Boshqa shaxslarning fohishafurushligini ekspluatatsiya qilish
yoki jinsiy ekspluatatsiyaning boshqa turlari** deganda,
jabrlanuvchining shunday bir holatga solinishi tushuniladiki, natijada u
aybdorning xohishiga ko‘ra jinsiy aloqa qilish, kimlarningdir jinsiy eh-
tijojini g‘ayritabiiy usulda qondirish yoki boshqa shaxslarning
xohishiga ko‘ra boshqa jinsiy xarakterga ega bo‘lgan harakatlarni
bajarishga majburligi tushuniladi. Jinsiy ekspluatatsiyaning boshqa
turlariga, jumladan, shaxsdan pornografik narsalarni tayyorlashda
foydalanishni tushunish lozim.

Majburiy mehnat yoki xizmatlar deganda, jabrlanuvchining shun-
day bir holatga solinishi tushuniladiki, natijada u aybdorning xohishiga
ko‘ra qaysidir mehnat faoliyati bilan shug‘ullanishga yoxud u yoki bu
xizmatlarni ko‘rsatishga (jinsiy xizmatlardan tashqari) majburligi
tushuniladi. Shuni ta’kidlash lozimki, xalqaro huquqda «zo‘rlab ishlatish
yoki majburiy mehnat» tushunchalari mavjud bo‘lib, ular ma’lum bir
shaxsni ma’lum bir jazoni qo‘llash bilan qo‘rqitib, shaxs o‘zi bajarishga
rozi bo‘lmagan ishlarni bajarishni talab qilishni anglatadi»¹.

¹Қаранг: Зўрлаб ишлатиш ёки мажбурий меҳнат тўғрисидаги 29-сонли конвенция (Женева, 1930 йил 28 июнь, Халқаро меҳнат ташкилоти Бош конференциясининг 14-сессиясида қабул қилинган; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг 1997 йил 30 августдаги 492–I-сон қарори билан ратификация қилинган), 2-модда.

Majburiy mehnatning nisbatan og‘ir va xavfli turi **qullik** hisoblanadi. Unda «shaxsga nisbatan mulkiy huquqlar yoki ularning ayrimlari amalga oshiriladigan holatga tushadi»¹. Qullikning belgilaridan biri odam savdosi va iqtisodiyotdan tashqarida shaxsni majburiy mehnat qildirish hisoblanadi.

Majburiy mehnat (qul mehnati), qoida tariqasida, norasmiy va xufyona iqtisodiyotda, yashirin ishlab chiqarishda hamda noqonuniy mahsulotlarni ishlab chiqarishda, shuningdek, uy sharoitida (uy qulchiligi) qo‘llaniladi.

Qulchilikka o‘xshash an‘analar deganda, shaxsdan uy xo‘jaligida, qurilish yoki qishloq xo‘jaligi ishlarida, mol boqishda, bola tug‘ishda, kasal yoki keksaygan qarindoshlarga, bolalarga qarashda foydalanishni tushunish lozim. Bunday an‘analar, odatda, oilaviy yoki qarindoshlik munosabatlaridan kelib chiqadi.

Erksiz holat qullikka o‘xshash holat hisoblanadi. Unga misol qilib, tilamchilik qilish uchun foydalaniladigan bolalar va nogironlarni tushunishimiz mumkin.

JK 135-moddasiga «ekspluatatsiya» atamasi shaxsni nafaqat ma‘lum bir faoliyatga jalb qilish, balki undan donor sifatida foydalanish, ya‘ni uning a‘zo va to‘qimalarini ajratib olishni o‘z ichiga olgan «foydalanish» atamasi kabi keng ma‘noda qo‘llanilgan. Bunda shuni alohida ta‘kidlash lozimki, odam savdosi jinoyatining obyektiv tomonidagi harakatlardan birini sodir qilishda transplantat olish maqsadi bo‘lsa, qilmish **JK 135-moddasi 1-qismi** bo‘yicha kvalifikatsiya qilinmaydi va mazkur holat kvalifikatsiyaning asosiy belgisi bo‘lgan moddaning 2-qismi «k» bandi bilan kvalifikatsiya qilinadi. Mazkur holat qonun chiqaruvchi tomonidan og‘irlashtiruvchi holat sifatida to‘g‘ri ishlab chiqilgan, chunki aynan shu maqsadni ko‘zlash (uning amalga oshishi haqida gapirmasa ham bo‘ladi) jinsiy yoki mehnatni ekspluatatsiya qilish maqsadini ko‘zlashga nisbatan jabrlanuvchiga tuzatib bo‘lmaydigan zarar yetkazish xavfini keltirib chiqaradi.

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2009 йил 24 ноябрдаги «Одам савдосига оид ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 12-сонли қарори, 5-банд, 4-хатбоши// Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг қарорлари. – Т.: «Адолат», 2014. – 190-б.

Yuqorida ta'kidlanganidek, odam savdosi jinoyat obyektiv tomoniga kiruvchi harakatlardan birini bajargan paytdan boshlab, jinoiy maqsadning amalga oshgani va ularning natijasida ma'lum moddiy oqibatlarning kelib chiqqanligidan qat'i nazar, tugallangan hisoblanadi. Shunday ekan, bunday oqibatlarning vujudga kelishi JK Maxsus qismining sodir etilgan aniq qilmish uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi tegishli moddasi bo'yicha huquqiy jihatdan alohida baholanishi lozim:

– odam savdosi jabrlanuvchilari jinsiy ekspluatatsiya qilinganda JK 118-moddasi (Nomusga tegish) yoki JK 119-moddasi (Jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish) bo'yicha;

– agar jinsiy ekspluatatsiyaning fohishalik bilan shug'ullanishga majburlash shakli qo'llanilgan bo'lsa JK 121-moddasi (Ayolni jinsiy aloqa qilishga majbur etish) bilan;

– agar bolalardan tilamchilik qilishda foydalanilgan bo'lsa JK 127-moddasi (Voyaga yetmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish) bilan;

– agar **JK 135-moddasi 2-qismida** nazarda tutilgan transplantat olish maqsadi amalga oshirilgan bo'lsa, JK 97-moddasi 2-qismi «n» bandi (kishi a'zolarini kesib olib, boshqa kishiga ko'chirish (transplantat) yoki murdaning qismlaridan foydalanish maqsadida) yoki JK 104-moddasi (Qasddan badanga og'ir shikast yetkazish) bilan.

Ammo, jinsiy ekspluatatsiyaning pornografiyada tasvirga tushirishga majburlash yoki jabrlanuvchini qullikka o'xshash mehnat qilish (xizmat ko'rsatish)ga majburlash harakatlari amalga oshirilgan bo'lsa, qilmishga huquqiy baho berish sezilarli darajada murakkablashadi. Undan tashqari, shaxsni javobgarlikka tortish masalasi ham yuzaga keladi. Bu amaldagi JKda mazkur qilmishlar uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi maxsus jinoyat tarkibining mavjud emasligi bilan bog'liq. Bunday holatlarda aybdor harakatlarini qiynash (agar ko'zlangan natijalarga erishish uchun aybdor ekspluatatsiya qilinayotgan shaxsni muttasil ravishda do'pposlagan yoki JK 110-moddasidagi boshqa harakatlarni sodir etgan bo'lsa); zo'rlik ishlatib g'ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish yoki o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish (agar jabrlanuvchi

o‘zining erksiz holatiga chiday olmay o‘zini o‘ldirgan yoki o‘ldirishga suiqasd qilganligi aniqlansa) va boshqa harakatlar uchun javobgarlikka tortish mumkin.

JK 135-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyatning **subyeksi** 16 yoshga to‘lgan aqli raso shaxs hisoblanadi.

Agar qilmish:

a) o‘g‘irlash, zo‘rlik ishlatish yoki zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqitish yoxud majburlashning boshqa shakllarini qo‘llash orqali;

b) ikki yoki undan ortiq shaxsga nisbatan;

v) ojiz ahvoldaligi aybdorga ayon bo‘lgan shaxsga nisbatan;

g) aybdorga moddiy jihatdan yoki boshqa jihatdan qaram bo‘lgan shaxsga nisbatan;

d) takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan;

e) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;

j) xizmat mavqeidan foydalangan holda;

z) jabrlanuvchini O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasidan olib o‘tish yoki uni chet elda qonunga xilof ravishda ushlab turgan holda;

i) qalbaki hujjatlardan foydalangan holda, xuddi Shuningdek, jabrlanuvchining shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarni olib qo‘ygan, yashirgan yoxud yo‘q qilib yuborgan holda;

k) kishi a‘zolarini kesib olib, boshqa kishiga ko‘chirish (transplantat) maqsadida sodir etilgan bo‘lsa **JK 135- moddasi 2-qismi** bo‘yicha javobgarlikka tortiladi.

Agar jinoyat jabrlanuvchini o‘g‘irlash, unga nisbatan jismoniy zo‘rlik ishlatish, shunday zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqitish, shuningdek, majburlashning boshqacha shakllarini, masalan, shantaj qilish orqali amalga oshirilgan bo‘lsa, qilmish **JK 135-moddasi 2-qismi «a» bandi** bilan javobgarlikka tortiladi.

Shaxsni o‘g‘irlash yashirin, ochiqdan-ochiq, aldash yoki ishonchni suiiste‘mol qilish orqali egallab va o‘zining doimiy yoki vaqtinchalik yashash joyidan aybdor tanlagan boshqa joyga, keyinchalik, olish-sotish yoki topshirish maqsadida saqlash uchun keltirishda ifodalanadi. Bunday

qilmish JK 137-moddasi (Odam o'g'irlash) bilan jinoyatlar jami sifatida kvalifikatsiya qilinmaydi.

Zo'rlik ishlatish do'pposlash, qiynash, g'ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish, yengil yoki o'rtacha tan jarohatlari yetkazish ko'rinishida jismoniy ta'sir ko'rsatishda ifodalanadi. Bunday holatlarda qilmish **JK 135-moddasi 2-qismi «a» bandi** bilan to'liq qamrab olinib, JK Maxsus qismining boshqa moddasi bilan qo'shimcha kvalifikatsiya qilish talab qilinmaydi. Agar jabrlanuvchi o'ldirilgan yoki unga og'ir tan jarohatlari yetkazilgan bo'lsa, qilmish tegishli ravishda JK 97-moddasi yoki 104-moddasi bo'yicha qo'shimcha kvalifikatsiya qilinishi lozim. Agar jabrlanuvchiga zo'rlik ishlatish natijasida ehtiyotsizlikdan uning o'limi kelib chiqqan yoki uning sog'ligiga og'ir tan jarohatlari yetkazilgan bo'lsa, qilmish jabrlanuvchining o'limi yoki boshqa og'ir oqibatlariga olib kelgan odam savdosi sifatida baholanib, **JK 135-moddasi 3-qismi «b» bandi** bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Shuni inobatga olish lozimki, jabrlanuvchining irodasi yoki qarshiligini sindirish maqsadida uni giyohvandlik vositalari ularning analoglari yoki psixotrop moddalar iste'mol qilishga zo'rlik bilan jalb qilish mumkin. Bunday holatlar jinsiy ekspluatatsiya qilinuvchi shaxslarni egallashda ko'p uchraydi. Bunday holatda aybdor harakatlarini **JK 135-moddasi 2-qismi «a» bandi** va ish holatlariga ko'ra JK 127-moddasi 2-qismi (Voyaga yetmagan shaxsni giyohvandlik vositalari ularning analoglari yoki psixotrop moddalar iste'mol etishga jalb qilish) bilan yoki JK 274-moddasi (Giyohvandlik vositalari ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni iste'mol qilishga jalb etish) bo'yicha jinoyatlar jami bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Odam savdosida qo'rqitish jabrlanuvchiga, agar u aybdorning talablarini bajarishdan bo'yin tovlaganda unga nisbatan har qanday jismoniy zo'rlik ishlatish, ya'ni do'pposlash, tan jarohatlari yetkazish, hayotdan mahrum qilish, ovqatsiz yoki suvsiz qoldirish maqsadi borligini aytish orqali ruhiy ta'sir ko'rsatishda ifodalanadi. Bunda qo'rqitish haqiqiy bo'lishi kerak. Lekin amalga oshishi shart emas hamda bu qilmish JK 112-moddasi (o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish) bilan qo'shimcha kvalifikatsiya qilinishini talab qilmaydi.

Shantaj qilish yoki **majburlashning boshqacha shakllari** jabrlanuvchini aybdorning u yoki bu talablarini bajarishga majbur qiluvchi holatlarni yaratish, jabrlanuvchini unga bog‘liq bo‘lmagan holda aybdor talablarini bajarishdan bo‘yin tovlay olmaydigan holatga tushirishda ifodalanadi.

Bunday holatni yaratish jabrlanuvchining yaqin insonlariga zo‘rlik ishlatish, mulkni nobud qilish yoki unga shikast yetkazish, jabrlanuvchi sir saqlashni xohlagan, uning qonuniy huquq va manfaatlariga zarar yetkazadigan ma‘lumotlarni oshkor qilish (masalan, farzandlikka olinganlik sirini oshkor qilish) bilan qo‘rqitishda ifodalanadi. Agar aybdor mazkur jinoyatni hech qanday to‘sqinliksiz amalga oshirish maqsadida jabrlanuvchining giyohvandlikka bo‘lgan moyilligidan foydalansa (masalan, jabrlanuvchi aybdorning unga giyohvandlik vositalari ularning analoglari yoki psixotrop moddalar topib berishi evaziga uning barcha talablarini bajarsa) aybdor harakatlarini JK 273-moddasi (Giyohvandlik vositalari ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o‘tkazish maqsadini ko‘zlab qonunga xilof ravishda tayyorlash, olish, saqlash va boshqa harakatlar qilish, shuningdek, ularni qonunga xilof ravishda o‘tkazish) bilan qo‘shimcha kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Aybdorda ko‘rib chiqilayotgan modda dispozitsiyasida ko‘rsatilgan harakatlarni yagona qasd asosida kamida ikki shaxsga nisbatan amalga oshirgan bo‘lsa, qilmish **ikki yoki undan ortiq shaxsga nisbatan amalga oshirilgan deb topiladi**. Bunda, qoida tariqasida, jinoiy harakatlar bir vaqtda yoki uzoq bo‘lmagan vaqt oralig‘ida sodir etiladi.

Agar subyektda ikki yoki undan ortiq shaxsga nisbatan odam savdosi harakatlarini amalga oshirishga qasd bo‘lib, u bu qilmishni o‘ziga bog‘liq bo‘lmagan holda oxiriga yetkazmagan bo‘lsa (hatto bir jabrlanuvchiga nisbatan ham), uning harakatlari JK 25-moddasi 2-qismi, **135-moddasi 2-qismi «b» bandi** bilan ikki yoki undan ortiq shaxsga nisbatan odam savdosini bajarishga suiqasd sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Jabrlanuvchining ojiz ahvoli uning qarshilik ko‘rsatish yoki unga nisbatan qo‘llanilayotgan harakatlar mohiyatini anglashga to‘sqinlik

qiluvchi organizmning jismoniy yoki ruhiy xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

(«Ojiz ahvol» tushunchasi to‘g‘risida to‘liq ma’lumotni JK 97-moddasi 2-qismi tahlilida ko‘rishingiz mumkin.)

Agar odam savdosi harakatlari **aybdorga moddiy jihatdan yoki boshqa jihatlardan qaram bo‘lgan shaxsga nisbatan** sodir etilgan bo‘lsa, qilmish **JK 135-moddasi 2-qismi «g» bandi** bilan kvalifikatsiya qilinadi.

(«Moddiy va boshqa jihatdan qaram» tushunchasi to‘g‘risida to‘liq ma’lumotni JK 103-moddasi tahlilida ko‘rishingiz mumkin.

Jinoyatning «takroran yoki xavfli retsivist tomonidan» sodir etilishining o‘ziga xos jihatlarini JK 97-moddasi 2-qismi tahlilida ko‘rishingiz mumkin.)

Bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib odam savdosini amalga oshirish deganda, ikki yoki undan ortiq shaxsning ko‘rib chiqilayotgan moddaning 1-qismi dispozitsiyasida ko‘rsatilgan harakatlarni amalga oshirishda birgalikda harakat qilishi tushuniladi. Bunda qilmishni JK 135-moddasi 2-qismi «e» bandi bilan kvalifikatsiya qilishda aybdorlar o‘rtasidagi kelishuv jinoiy faoliyat vaqtida yoki undan bevosita oldin tuzilgan bo‘lishi kerak.

JK 135-moddasi 2-qismi «j» bandidagi xizmat mavqeidan foydalanish deganda, jinoyatning maxsus subyekt, ya’ni mansabdor shaxslar, shuningdek, mulk shaklidan qat’i nazar, korxonalar, muassasa, tashkilotlarda boshqaruv vazifalarini bajaruvchi, tegishli xizmat vakolatlari berilgan shaxslar tomonidan bajarilishi tushuniladi.

Mazkur qilmishning ijtimoiy xavfliligi shunda namoyon bo‘ladiki, xizmat vakolatlari, ayrim hollarda, hokimiyat vakolatlariga ega bo‘lgan shaxslar jinoyat sodir etilishini osonlashtiradi. Bunday hollarda, qilmishni qo‘shimcha tarzda JK 205-moddasi (Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste’mol qilish) yoki 206-moddasi (Hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish) bilan kvalifikatsiya qilish talab qilinmaydi. Bunda qilmish **JK 135-moddasi 2-qismi «j» bandi** bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Agar jabrlanuvchi O‘zbekiston Respublikasi Davlat chegarasidan olib o‘tilgan, O‘zbekiston hududiga olib kirilgan yoki O‘zbekiston chegarasidan olib o‘tilib, respublikaga qaytish imkoniyatidan mahrum qilingan bo‘lsa, qilmish **JK 135-moddasi 2-qismi «z» bandi** bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Birinchi va ikkinchi holatlarda shaxs O‘zbekiston chegarasidan qonuniy va noqonuniy tarzda olib o‘tilishi mumkin. Masalan, odamlarni bojxona xizmati xodimlaridan tovar vagonlarida, kema yukxonalarida yashirish orqali yoki qalbaki hujjatlardan foydalangan holda (masalan, bolalarni olish-sotishni farzandlikka olish niqobi ostida) amalga oshirilishi mumkin. Belgilangan tartibni buzib, O‘zbekiston Respublikasi Davlat chegarasidan o‘tganda qilmish JK 223-moddasi (Qonunga xilof ravishda chet elga chiqish yoki O‘zbekiston Respublikasiga kirish) bilan jinoyatlar jami bo‘yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Uchinchi holatda jabrlanuvchi chet elda noqonuniy tarzda ushlab turiladi va unga nisbatan odam savdosi harakatlarini qo‘llash uchun chet elda ushlab turib, uning qaytib kelishiga noqonuniy to‘sqinlik qilinadi.

Qalbaki hujjatlardan foydalanish deganda, odam savdosi harakatlarini amalga oshirishni osonlashtirish, ya’ni yashirish maqsadida ularni taqdim qilish nazarda tutiladi. Bunda, agar aybdor rasmiy hujjatni o‘zi tayyorlagan yoki qalbakilashtirgan bo‘lsa, uning harakatlarini JK 228-moddasi (Hujjatlar, shtamplar, muhrlar, blankalar tayyorlash, ularni qalbakilashtirish, sotish yoki ulardan foydalanish) tegishli qismi bilan yoki agar subyekt mansabdor shaxs bo‘lsa, JK 209-moddasi (Mansab soxtakorligi) bilan qo‘shimcha tarzda kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Hujjatlarni olib qo‘yish yoki yashirish deganda, jabrlanuvchini shaxsini tasdiqlovchi haqiqiy hujjatlarga egalik qilish imkoniyatidan mahrum qilish yoki bu hujjatlarning boshqa shaxs egaligida bo‘lishi tushuniladi. **Hujjatlarni yo‘q qilib yuborish** deganda esa, insonning shaxsini aniqlash imkoniyatini beruvchi hujjatlarni yo‘qotish nazarda tutiladi. Bunda shuni inobatga olish lozimki, mazkur harakat JKning 227-moddasi (Hujjatlar, shtamplar, muhrlar, blankalarni egallash, nobud

qilish, ularga shikast yetkazish yoki ularni yashirish) bilan qo‘shimcha kvalifikatsiya qilinmaydi.

Transplantat olish maqsadida odam savdosini amalga oshirish jabrlanuvchidan donor sifatida foydalanishni anglatadi. Bunda qilmishni mazkur band bilan kvalifikatsiya qilishda aybdor jabrlanuvchining qaysidir a‘zo yoki to‘qimalarini ajratib olishi shart emas. Aybdorda bunday maqsadlarning borligi yetarli hisoblanadi. Mazkur harakatlar amalga oshirilganda esa, qilmish JK 97-moddasi 2-qismi «n» bandi bilan, ya’ni transplantat olish yoki murdaning qismlaridan foydalanish maqsadida odam o‘ldirish sifatida yoki JK 104-moddasi bilan, ya’ni qasddan badanga og‘ir shikast yetkazish sifatida qo‘shimcha kvalifikatsiya qilinishi lozim.

JK 135-moddasi 3-qismida odam savdosi bilan bog‘liq quyidagi qilmishlar uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan:

a) o‘n sakkiz yoshga to‘lmaganligi aybdorga ayon bo‘lgan shaxsga nisbatan sodir etilgan bo‘lsa;

b) jabrlanuvchining o‘limiga yoki boshqa og‘ir oqibatlariga sabab bo‘lsa;

v) o‘ta xavfli retsidivist tomonidan sodir etilgan bo‘lsa;

g) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko‘zlab sodir etilgan bo‘lsa.

Agar aybdor jabrlanuvchining **o‘n sakkiz yoshga to‘lmaganligini** bilsa, uning qilmishlari **JK 135-moddasi 3-qismi «a» bandi** bilan javobgarlikka tortiladi. Agar aybdor jabrlanuvchining yoshiga nisbatan adashsa, buning uchun esa unda yetarli asoslar mavjud bo‘lsa va uning harakatlarida mazkur moddaning og‘irlashtiruvchi holatlari bo‘lmasa, qilmish JK 135-moddasi 1-qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Hali tug‘ilmagan bolani olish-sotish to‘g‘risida kelishuv tuzish va bolaning onasi yoki boshqa manfaatdor shaxsga tegishli pul taqdim qilish JK 25-moddasi 2-qismi va **JK 135-moddasi 3-qismi «a» bandi** bilan, ya’ni o‘n sakkiz yoshga to‘lmaganligi aybdorga ayon bo‘lgan shaxsga nisbatan odam savdosini amalga oshirishga suiqasd qilish sifatida baholanishi lozim.

Agar jabrlanuvchiga nisbatan odam savdosi bo'yicha harakatlarni qo'llash natijasida ehtiyotsizlik oqibatida uning o'limi yoki boshqa og'ir oqibatlar kelib chiqqan bo'lsa, qilmish **JK 135-moddasi 3-qismi «b» bandi** bilan javobgarlikka tortiladi, **boshqa og'ir oqibatlar** tushunchasi qilmishni baholovchi tushuncha hisoblanadi. Ularga jabrlanuvchini o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish, uning tanosil yoki OITS kasalligiga chalinishi, uning ruhiy holatining buzilishi, boshqa og'ir kasallikka chalinishi va boshqalarni misol qilishimiz mumkin. Agar mazkur oqibatlar jabrlanuvchiga qasddan yetkazilgan bo'lsa, qilmishlar JK Maxsus qismining tegishli moddasi bilan, masalan, qasddan odam o'ldirish (JK 97-moddasi), qasddan badanga og'ir shikast yetkazish (JK 104-moddasi) bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

(Jinoyatning **o'ta xavfli retsidivist** tomonidan sodir etilganligining o'ziga xos jihatlarini JK 97-moddasi 2-qismi «s» bandi tahlilida ko'rishingiz mumkin.)

Agar odam savdosi birgalikda jinoiy faoliyat olib borish maqsadida barqaror faoliyat yurituvchi guruhga birlashgan ikki yoki undan ortiq shaxs tomonidan sodir etilgan bo'lsa, qilmish **uyushgan guruh** tomonidan sodir etilgan deb topiladi. Bunda odam savdosini amalga oshirishda ishtirok etgan uyushgan guruhning har bir a'zosi bajargan vazifalaridan qat'i nazar, **JK 135-moddasi 3-qismi «g» bandi** bilan javobgarlikka tortiladi.

Odam savdosini uyushgan guruh manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan deb topishda jinoyat sodir etilishidan uyushgan guruh a'zolarining manfaatdor bo'lishi lozimligini inobatga olish kerak. Bunda jinoyatni bajaruvchi shaxs uyushgan guruhning a'zosi bo'lmasligi ham mumkin. Shunga e'tibor qaratish lozimki, aybdorda uyushgan guruh manfaatlarini ko'zlab shaxsni ekspluatatsiya qilish maqsadida olish-sotish, yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilishga qasd bo'lgan bo'lishi lozim.

2-§. Ayolni erga tegishga majbur qilish yoki uning erga tegishiga to'sqinlik qilish (JK 136-moddasi)

Mazkur **jinoyatning bevosita obyekti** ayol kishining erki va qadri-qimmatini, uning erga tegish yoki eri bilan birga yashashda davom etish masalasini mustaqil hal qilish erkinligini kafolatlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Jinoyat obyektiv tomondan ayolni erga tegishga yoki nikohda yashashni davom ettirishga majbur qilish yoxud ayolning erkiga xilof ravishda u bilan nikohda bo'lish uchun o'g'irlash, shuningdek, ayolning erga tegishiga to'sqinlik qilishdan iboratdir.

NOTA BENE !

Ayolni erga tegishga yoki nikohda birga yashashni davom ettirishga majbur qilish deganda, unga nisbatan erga tegishi yoki nikohda yashashida davom etishiga majburlash maqsadida jismoniy yoki ruhiy zo'ravonlik ishlatilishini tushunish lozim.

Ko'rib chiqilayotgan modda mohiyatidan kelib chiqib **jismoniy zo'rlik** ishlatish deganda, ayol kishini urish, kaltaklash, badaniga yengil yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazilishini tushunish kerak.

Ayolni majbur qilish vaqtida uning badaniga og'ir shikast yetkazilgan hollarda aybdorning qilmishiga JK 136- va 104-moddalari bilan jinoyatlar jami bo'yicha javobgarlik belgilanadi.

Ruhiy zo'rlik deganda, jismoniy zo'rlikni qo'llash, ayol kishi sir saqlashni istagan ma'lumotlarni oshkor qilish, mol-mulkini nobud qilish bilan qo'rqitish va hokazolarni tushunish lozim. Aybdor ayol kishini o'ldirish yoki zo'rlik ishlatib shikast yetkazish bilan qo'rqitgan hollarda, aybdorning qilmishi JK 112-moddasi (o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish) bilan qo'shimcha ravishda kvalifikatsiya qilinmaydi.

NOTA BENE !

Ayolni o'g'irlash ayolning xohish-irodasiga qarshi, nikohdan o'tish uchun aldash yoki zo'rlik ishlatish yo'li bilan, uni biron-bir yerda Yakkalab qo'yishdan (masalan, biron-bir transportda olib qochish va hokazo) iboratdir.

Ayolni uning xohish-irodasiga qarshi nikohdan o'tish uchun o'g'irlash ham JK 137-moddasi (Odam o'g'irlash) bilan jinoyatlar jami tariqasida kvalifikatsiya qilinmaydi. Jabrlanuvchini u bilan nikohdan o'tish maqsadi bo'lmay turib o'g'irlash esa, JK 137-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Ayol kishi, urf-odatga ko'ra, nikohdan o'tish uchun o'g'rilangan bo'lib, bunga o'g'irlangan ayolning o'zi rozilik bergan bo'lsa, JK 136-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning tarkibi mavjud bo'lmaydi.

O'g'rilangan shaxs 16 yoshga to'lmagan va aybdor buni bila turib uning roziligi bilan jinsiy aloqa qilgan yoxud jinsiy ehtiyojini g'ayritabiiy usulda qondirgan hollarda aybdorning qilmishi JK 136- va 128-moddalari bilan jinoyatlar jami bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi.

NOTA BENE !

Ayolni erga tegishiga to'sqinlik qilish uning o'z xohish-irodasiga ko'ra erga tegishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida jismoniy yoki ruhiy zo'rlik ishlatish (qo'rqitish)da ifodalanadi.

Ayolning erga tegishiga to'sqinlik qilishda qo'llaniladigan jismoniy yoki ruhiy zo'rlik ayolni nikohdan o'tishga majburlash va nikohda yashashni davom ettirishda qo'llaniladigan zo'rlik bilan bir xildir. Qarindoshlar va boshqalar tomonidan ayolning nikohdan o'tish istagini o'zgartirish maqsadida uni ko'ndirish jinoyat tarkibini tashkil etmaydi.

Subyektiv tomondan jinoyat to'g'ri qasddan sodir etiladi. Aybdor ayolni erga tegishiga majburlayotganligini yoki erga tegishiga to'sqinlik qilayotganligini anglaydi va o'z maqsadiga erishishni xohlaydi. Mazkur jinoyatning sodir etilish motivi turli xil bo'lib (masalan, o'ch olish,

rashk, tamagirlik va boshq.), jinoyatni kvalifikatsiya qilishda ahamiyatga ega emas.

Ushbu **jinoyatning subyekti** 16 yoshga to'lgan har qanday shaxs bo'lishi mumkin. Aksariyat hollarda, ayolning ota-onasi, boshqa qarindoshlari, kuyov bo'lmish shaxs jinoyatning subyekti bo'lib chiqadi.

3-§. Odam o'g'irlash (JK 137-moddasi)

Odam o'g'irlashning **bevosita obyekt**i odamlarning istagan yerda bo'lish erkinligini kafolatlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Mazkur jinoiy qilmishning **fakultativ obyekt**i jabrlanuvchining hayoti yoki sog'ligi xavfsizligi bo'lishi mumkin.

Obyektiv tomondan jinoyat JK 245-moddasi (Shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish)da nazarda tutilgan alomatlar mavjud bo'lmagan holda odam o'g'irlashda ifodalanadi.

NOTA BENE !

Odamni o'g'irlash deganda, odamni yashirincha, oshkora yoki aldash yoxud ishonchini suiiste'mol qilish yo'li bilan ushlab va keyinchalik uni doimiy yashash joyidan boshqa o'g'irilgan odam zo'rlik ishlatib muayyan maqsadda ushlab turiladigan aybdor istagan joyga joylashtirish tushuniladi.

Egallab olish deganda, jabrlanuvchiga egalik qilish, uning taqdirini belgilash imkoniyatiga ega bo'lish uchun uni shaxsiy erkinligidan mahrum qilish nazarda tutiladi.

Odam o'g'irlash usullari jinoyatni kvalifikatsiya qilishda ahamiyatga ega emas.

Odam o'g'irlash vaqtida unga nisbatan jismoniy yoki ruhiy zo'rlik qo'llanilishi mumkin (qo'lini bog'lab qo'yish, urish, qo'rqitish va boshqalar).

Agar odam o'g'irlash vaqtida jabrlanuvchining badaniga yengil yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazilgan bo'lsa, qilmish jabrlanuvchining sog'ligiga shikast yetkazganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan

moddalar bo'yicha qo'shimcha kvalifikatsiyani talab qilmaydi, jinoyat JK 137- moddasi 1-qismi bilan baholanadi.

Aybdorlar harakatlarini JK 137-moddasi bo'yicha kvalifikatsiya qilishda, shuningdek, o'g'irlangan shaxs ushlab turilgan joy (turar joy yoki turar joy bo'lmagan inshoot, avtotransport vositasi, mahalliy er uchastkasi) va u ushlab turilgan muddat ahamiyatga ega emas.

Agar «jabrlanuvchi» «o'g'ri» bilan kelishib, o'z turar joyini tark etsa va o'zining ozod qilinishi uchun «o'g'ri» undan pul so'rasa, qilmish JK 137-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinmaydi. Mazkur holatlarda jinoyatning obyektiv tomoni – shaxsni egallab olish, zo'rlik bilan ushlab turish va ko'chirish mavjud bo'lmay, tovlamachilik (JK 165-moddasi) yoki firibgarlik (JK 168-moddasi) jinoyatlarining tarkibi mavjud bo'ladi.

Shuningdek, shaxsning o'z bolasi yoki farzandlikka olingan bolasini boshqa ota-onasi yoki yaqin qarindoshlari qo'l ostidan ularning xohish-irodasiga qarshi olish odam o'g'irlash sifatida baholanishi mumkin emas.

Odam erkinligidan mahrum qilingan paytdan e'tiboran jinoyat tugallangan deb hisoblanadi. O'g'rilangan odamning ozodlikka qanday chiqqanligi — huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan ozod qilinganligi yoki o'g'rilarning o'zlari tomonidan qo'yib yuborilganligi qilmishni JK 137-moddasi bilan kvalifikatsiyasiga ta'sir ko'rsatmaydi.

Shuni ta'kidlash lozimki, o'g'irlangan shaxsni o'g'irlaganlik uchun javobgarlikka tortilmasdan turib va hech qanday to'siqsiz ushlab turish imkoniyati mavjud bo'lgan holda jinoiy javobgarlikdan, jabrlanuvchi qarindoshlarining o'ch olishidan qo'rqib va boshqa sabablar tufayli sodir etilgan qilmish uchun pushaymon bo'lib, o'g'rilar tomonidan qo'yib yuborilishi ularni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish uchun asos bo'lmaydi, lekin bu holat jazo tayinlashda inobatga olinishi mumkin.

Subyektiv tomondan odam o'g'irlash **to'g'ri qasd** bilan sodir etiladi. Aybdor o'zining jabrlanuvchini noqonuniy egallab olib, uning xohish-irodasiga qarshi boshqa joyga ko'chirishi, u yerda saqlashda ifodalanuvchi harakatlarining huquqqa xilofligini anglaydi va buni xohlaydi.

Bunday holatda jinoyat motivi turlicha bo'lishi mumkin.

Agar aybdor odam o'g'irlash orqali moddiy jihatdan boyish yoki moddiy xarajatlardan qutulishni yoxud jinoyatni sodir qilishda boshqa past niyatlarda (jinsiy niyatlar, jabrlanuvchi yoki uning yaqin qarindoshlariga ma'naviy va moddiy zarar yetkazish va boshq.) harakat qilsa, qilmish JK 137-moddasi 2-qismi «b» bandi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Ushbu **jinoyatning subyekti** 14 yoshga to'lgan har qanday aqli raso shaxs bo'lishi mumkin.

Odam o'g'irlashda:

- a) Voyaga yetmagan shaxs o'g'irilgan bo'lsa;
- b) jinoyat tamagirlik yoki boshqa past niyatlarda sodir etilgan bo'lsa;
- v) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo'lsa;
- g) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan sodir etilgan bo'lsa, aybdorning qilmishi **mazkur moddaning 2-qismi** bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Agar aybdor bolani o'g'rilab, uni almashtirib qo'ygan bo'lsa va bunda tamagirlik yoki boshqa past niyatni ko'zlagan bo'lsa, uning qilmishi JK 124-moddasi va 136-moddaning 2-qismi «a», «b» bandlari bilan jinoyatlarning jami bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Odam o'g'irlash:

- a) o'ta xavfli retsivist tomonidan sodir etilgan;
- b) og'ir oqibatlariga olib kelgan bo'lsa, aybdor shaxs JK 137-moddasi 3-qismi bilan javobgarlikka tortiladi.

Og'ir oqibatlar deganda, o'g'irlangan shaxsga qasddan og'ir tan jarohatlari yetkazilishi; ehtiyotsizlikdan uning o'limi kelib chiqishi; jabrlanuvchi ota-onasi yoki yaqin qarindoshlarining o'zini o'ldirishi yoki yurak xastaligiga chalinishi; zo'rlik bilan ushlab turishga qarshi jabrlanuvchining o'zini o'ldirishi; jabrlanuvchi homilador ayollarning homilasi tushishi yoki muddatidan oldin tug'ilgan chaqaloqning vafot etishini tushunish lozim.

JK 137-moddasida nazarda tutilgan jinoyatni to'g'ri kvalifikatsiya qilishda odam o'g'irlashni zo'rlik ishlatib g'ayriqonuniy ravishda

ozodlikdan mahrum qilish (JK 138-moddasi) va shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish (JK 245-moddasi) jinoyatlaridan farqlash lozim.

Mazkur jinoyatlar tarkibidagi umumiy o'xshashlik jabrlanuvchining o'zi xohlagan yerda bo'lish erkinligini cheklashda, ayrim hollarda uni bog'lash orqali binoda saqlash, boshqa shaxslar bilan erkin muomalada bo'lish imkoniyatidan mahrum qilish, agar ruxsat etilsa ham, faqatgina jinoyatchilar roziligi yoki ularning ko'rsatmasiga asosan ruxsat berishda namoyon bo'ladi.

Zo'rlik ishlatib g'ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish, shuningdek, jabrlanuvchini doimiy yoki vaqtinchalik yashash joyida saqlash orqali ham amalga oshirilishi mumkin (uning o'z uyida, ishxonasida, avtomashinasida, garajida va boshq.). Zo'rlik ishlatib g'ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish muddati, unga hech qanday ziyon yetkazilmagan bo'lsa ham, yuqorida ta'kidlanganidek, aybdor harakatlarini JK 137-moddasi bo'yicha kvalifikatsiya qilishga ta'sir etmaydi.

Jabrlanuvchi uni egallab tutqunlikka olishda hech qaerga ko'chirilmagan o'z joyida ushlab turilishi mumkin. Ammo bu holat shaxsni garov sifatida tutqunlikka olishning odam o'g'irlashdan asosiy farqi emas. Ular o'rtasidagi asosiy farq jinoyatlarning obyektida hisoblanadi: odam o'g'irlashda jinoyat obyekti shaxsning shaxsiy erkinligini kafolatlovchi ijtimoiy munosabatlar bo'lsa, shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish jinoyatining obyekti esa jamoat xavfsizligini kafolatlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Undan tashqari, odam o'g'irlashda va shaxsni garov sifatida tutqunlikka olishda jinoyatlar turli maqsadlarni ko'zlaydi.

Odam o'g'irlash insonlardan o'ch olish maqsadida uni o'ldirish, uning nomusiga tegish yoki jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish, jinsiy yoki boshqacha tarzda ekspluatatsiya qilish, jabrlanuvchidan yoki uning yaqin qarindoshlaridan ma'lum talablarni bajarishga rozilik olish: qarzdan voz kechish, mulkiy huquqlarni berish maqsadida amalga oshirilishi mumkin. Bunda jabrlanuvchini tanlash jinoyatchi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega (qarz bergan shaxs, to'lovni to'lash imkoniyatiga ega bo'lgan qarindoshlari bo'lgan shaxs va

boshq.), odam o'g'irlash yashirin tarzda kam guvohlar bo'lgan vaziyatlarda sodir etiladi.

Shaxsni tutqunlikka olishda jabrlanuvchining shaxsi jinoyatchini qiziqitirmaydi. Jabrlanuvchi har qanday shaxs bo'lishi mumkin yoki mazkur jinoyatga keng ijtimoiy e'tibor berish maqsadida jabrlanuvchilar taniqli jamoat yoki siyosat arboblari bo'lishi mumkin. Bunda odam o'g'irlashdan farqli tarzda jinoyatchilar tutqunlikka olingan shaxslarni ozod qilish sharti bilan o'z talablarini ochiqdan-ochiq, qoida tariqasida davlatga yoki turli tashkilotlarga e'lon qilishadi.

4-§. Zo'rlik ishlatib g'ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish (JK 138-moddasi)

Mazkur jinoyatning **bevosita obyekti** jabrlangan shaxsning shaxsiy (jismoniy) erkinligini kafolatlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Ko'pgina hollarda, qo'shimcha obyekt sifatida shaxsning hayoti va sog'ligi xavfsizligi namoyon bo'ladi.

Jinoyatning obyektiv tomoni zo'rlik ishlatib g'ayriqonuniy ravishda shaxsni harakat qilish erkinligidan mahrum etish, jabrlanuvchiga nisbatan jismoniy yoki ruhiy zo'rlik ishlatib, odamni uning xohish-irodasiga qarshi ma'lum bir joyda majburan ushlab turish maqsadida jabrlanuvchini bandi qilish, unga uyqu dorisini berish, odamni aldash yo'li bilan o'zi kirishni istamagan xonaga olib kirish va hokazolar, uning qayerda bo'lishini erkin tanlash huquqini cheklash kabi xatti-harakatlarni sodir etishda ifodalanadi. Jabrlanuvchiga nisbatan jismoniy va ruhiy zo'rlik (jabrlanuvchining qarshiligini engish maqsadida uni bog'lash, uyqu dorisi berish, kishan bilan qo'zg'almaydigan jismlarga biriktirish; jabrlanuvchi yoki uning yaqin qarindoshlariga nisbatan zo'rlik ishlatish bilan yoki mulkni nobud qilish bilan qo'rqitib binoga g'amab qo'yish) qo'llanilishi mumkin.

Bir binoda bo'lgan shaxsning boshqa shaxsga ma'lum predmetlardan, shu bilan birga aloqa xizmatidan foydalanishni taqiqlash, uni zo'rlik ishlatmasdan ushlab turish JK 138-moddasidagi jinoyat tarkibini tashkil etmaydi. Shuningdek, shaxsning o'z roziligi asosida biror binoga g'amash jinoyat tarkibini tashkil etmaydi. Undan tashqari, ota-onalar

tomonidan o'z farzandlarini tarbiyalash maqsadida zo'rlik ishlatib g'ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish mazkur jinoyat tarkibini tashkil etmaydi.

Jabrlanuvchi g'ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilingan paytdan e'tiboran jinoyat tamom bo'lgan deb hisoblanadi. Ozodlikdan mahrum qilishning muddati aybdorlarning JK 138-moddasi bo'yicha javobgarligiga ta'sir qilmaydi.

Jinoyat **subyektiv tomondan to'g'ri qasd** bilan sodir etiladi, aybdor jabrlanuvchini qonunga xilof ravishda ozodlikdan mahrum etayotganligini biladi va shuni istaydi. Jinoyatning sodir etilish motivi va undan ko'zlangan maqsad jinoyatning kvalifikatsiyasiga ta'sir qilmaydi. Jinoyat jabrlanuvchini ma'lum harakatlarni bajarishga majburlash maqsadida uni qo'rqitish uchun sodir etilishi mumkin. Zo'rlik ishlatib g'ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish bezorilik niyatlari yoki o'ch olish maqsadida sodir etilishi mumkin.

Ushbu **jinoyatning subyeksi** 16 yoshga to'lgan aqli raso jismoniy shaxslar bo'lishi mumkin. Mazkur jinoyatni sodir etgan mansabdor shaxslar ish holatlaridan kelib chiqib, hokimiyat yoki mansab vakolatlarini suiiste'mol qilganliklari uchun (JK 205-moddasi), hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqqanlik uchun (JK 206-moddasi) yoki odil sudlovga qarshi jinoyatlar, masalan, qonunga xilof ravishda ushlab turganlik yoki g'amoqda ushlaganlik uchun (JK 234-moddasi) javobgarlikka tortiladilar.

Zo'rlik ishlatib g'ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish quyidagi holatlarda **JK 138-moddasi 2-qismi** bilan kvalifikatsiya qilinadi:

- a) jismoniy azob berish bilan;
- b) hayot yoki sog'ligi uchun xavfli bo'lgan sharoitda ushlab turish bilan.

Agar ko'rib chiqilayotgan mazkur jinoyatni sodir etish jarayonida jabrlanuvchiga nisbatan do'pposlash, qiynash yoki tana uchun noqulay sharoitda uzoq muddat ushlab turish (to'liq turish, qo'llar qo'zg'almas jismlarga birlashtirilganda ularni tushirish imkoniyati cheklangan va boshq.) harakatlari sodir etilgan bo'lsa, aybdor harakatlari JK 138-

moddasi 2-qismi «a» bandi bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim. Agar aybdorning jabrlanuvchiga jismoniy azob berish bilan bog'liq harakatlari alohida jinoyat tarkibini tashkil qilsa, (masalan, qasddan og'ir tan jarohatlari yetkazish, nomusga tegish) qilmish jinoyatlar jami tariqasida kvalifikatsiya qilinishi lozim (JK 138-moddasi 2-qismi «a» bandi va 104-moddaning tegishli qismi yoki 118-modda bo'yicha).

NOTA BENE !

Hayot yoki sog'liq uchun xavfli sharoit deganda, odamning uzoq vaqt sovuq xonada yoki aksincha juda ko'p vaqt issiq xonada saqlanishi, uzoq vaqt suv, ovqat berilmasligi, ya'ni jabrlanuvchining hayoti va sog'ligiga jiddiy zarar yetkazish xavfi vujudga kelgan hollarni tushunish lozim.

Agar jabrlanuvchiga bunday ta'sir ko'rsatish odam o'limiga sabab bo'lsa va bunda JK 97-moddasi 2-qismi «j» bandi alomatlari bo'lmasa, qilmish JK 138-moddasi 2-qismi «b» bandi va 102-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

5-§. Tuhmat (JK 139-moddasi)

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 27-moddasiga muvofiq, «har kim o'z sha'ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan ... himoyalaniş huquqiga ega»¹ dir.

¹Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси: Ўн иккинчи чакириқ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ўн биринчи сессиясида 1992 йил 8 декабрда қабул қилинган. (2002 йил 27 январда ўтказилган умумхалқ референдуми натижаларига кўра ҳамда унинг асосида Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 24 апрелда қабул қилинган Қонунига мувофиқ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси XVIII, XIX, XX, XXIII бобларига ўзгартиришлар ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2007 йил 11 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 89-моддасига, 93-моддасининг 15-бандига, 102-моддасининг иккинчи қисмига тузатишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2008 йил 25 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 77-моддасининг биринчи қисмига ўзгартириш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2011 йил 12 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 90-моддасининг иккинчи қисмига тузатиш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 16 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 32, 78, 93, 98, 103 ва 117 моддаларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 6 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 4-бандига, 81-моддасининг еттинчи қисмига, 83-моддасига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13 ва 14- бандларига, 107-моддасининг биринчи қисмига, 110-моддасининг биринчи ва учинчи қисмларига, 111-моддасига ўзгартиришлар ва қўшимча киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 31 майда қабул қилинган

Tuhmat qilishning **bevosita obyekti** shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilinishini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar yoki boshqacha qilib aytganda, shaxsga va uning faoliyatiga jamiyat tomonidan baho berish hisoblanadi. **Qo'shimcha obyekt sifatida** fuqarolarning hayoti va sog'ligi xavfsizligi namoyon bo'lishi mumkin.

Sha'n va qadr-qimmat tushunchalari bir-biri bilan bog'liq: ular axloq kategoriyasiga kiradi, insonning ma'naviy dunyosini ko'rsatadi va mazmun jihatdan bir-biri bilan bog'liq. Ular o'rtasidagi farqni faqat obyektiv va subyektiv yondashish orqali ko'rish mumkin: sha'n – insonning obyektiv bahosi, qadr-qimmat – insonning subyektiv bahosi hisoblanadi.

NOTA BENE !

Sha'n – bu jamiyatning obyektiv fikri, shaxsning ijtimoiy bahosi.

NOTA BENE !

Qadr-qimmat – mazkur xususiyatning shaxs ongida aks etishi, ya'ni jamiyatning obyektiv fikri asosida unga baho berilishi.

Obyektiv tomondan tuhmat yolg'onligini bila turib, boshqa shaxsni sharmanda qiladigan uydirmalarni tarqatishda ifodalanadi. Bunda agar shaxsga aynan shu qilmishi uchun unga nisbatan ma'muriy jazo qo'llanilganidan so'ng bir yil ichida shu qilmishni sodir etsa, JK 139-moddasi 1-qismi bilan javobgarlikka tortiladi.

JK 139-moddasi 1-qismida tuhmatning barcha zaruriy belgilari sanab o'tilgan: aybdor tarqatilayotgan ma'lumotlar **yolg'onligini** bilgan bo'lishi, tarqatilgan ma'lumotlar haqiqatga to'g'ri kelmaydigan va **sharmanda qiluvchi**, ya'ni jabrlanuvchining sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi bo'lishi lozim.

Ma'lumotlarning sharmanda qiluvchi ekanligi masalasi jabrlanuvchining subyektiv bahosidan qat'i nazar, sud tomonidan aniqlanadi. Masalan, shaxsning tanosil yoki ruhiy kasalga chalinganligi,

Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 5 ва 12-бандларига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13-бандига ҳамда 108, 109-моддаларига ўзгартишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 29 августда қабул қилинган қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 99 ва 10-моддаларига ўзгартишлар киритилган.) – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 12 б.

qiz bolaning bokira emasligi to'g'risidagi yolg'on ma'lumotlar sharmanda qiluvchi bo'lishi mumkin.

Bunday sharmanda qiluvchi yolg'on ma'lumotlar shaxs hayoti va faoliyatining turli sohasiga tegishli bo'lishi mumkin: shaxsiy munosabatlar, mehnat munosabatlari, ijtimoiy munosabatlar va boshq. JK 139-moddasi bo'yicha javobgarlik yuzaga kelishi uchun ma'lumotlar faktik (konkret) mavjud bo'lishi mumkin va avvalgi yoki hozirgi davrga tegishli bo'lishi kerak.

Basharti aybdor boshqa shaxs haqida uni sharmanda qiluvchi, **ammo haqiqatga to'g'ri keladigan** ma'lumotlarni tarqatgan bo'lsa, uni tuhmatda ayblab, javobgarlikka tortib bo'lmaydi. Xuddi shunday agar aybdor tomonidan tarqatilgan ma'lumotlar yolg'on bo'lmasa, tuhmat jinoyatining tarkibi mavjud bo'lmaydi.

Tuhmat qiluvchi ma'lumotlar ma'lum bir faktlar, voqea-hodisalar, holatlarga tegishli bo'lishi kerak. Masalan, kimnidir firibgar deb aytish aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish faktini ko'rsatgan holda amalga oshirilishi lozim. Aks holda, mazkur harakat tuhmat sifatida baholanadi.

Aniq faktlarni ko'rsatmagan holda umumiy xarakterdagi ma'lumotlarni aytish haqorat hisoblanadi.

Shuningdek, aybdor tomonidan tarqatilgan ma'lumotlar obyektiv jihatdan amalga oshishi mumkin bo'lishi kerak. Masalan, shaxsni «G'ayritabiiy kuchlar bilan so'zlashadi» deb aytish tuhmat hisoblanmaydi. Chunki mazkur holat haqiqatda mavjud bo'lishi mumkin emas.

Tuhmat qiluvchi ma'lumotlarning uchinchi asosiy belgisi uning ma'lum bir vaqtga tegishli emasligi, ya'ni tuhmat kelasi zamonda emas, balki o'tgan va hozirgi zamon to'g'risidagi ma'lumotlarda ifodalangan bo'lishi lozim. Kelasi zamonda bo'lishi mumkin bo'lgan harakatlarni aytish haqorat tarkibini tashkil qiladi. Masalan, shaxs kimgadir uning odam o'ldirishga qodirligini aytishi.

NOTA BENE !

Yolgʻonligini bila turib boshqa shaxsni sharmanda qiladigan uydirmalarni **tarqatish** deganda, ularning hech boʻlmaganda bir shaxsga maʼlum qilinishini tushunish zarur.

Uydirmalarni tarqatish usuli har xil boʻlishi mumkin. Masalan, ogʻzaki, yozma, biror tasvir koʻrinishidagi lavha va hokazo.

Tuhmat jinoyatining tarkibi mavjud boʻlishi uchun tuhmat maʼlumotlar tarqatilayotganda jabrlanuvchining oʻzi boʻlgan yoki boʻlmaganligi ahamiyatga ega emas. Shuningdek, yolgʻon maʼlumotlarni tarqatishda maʼlumotlarning muallifi yoki uchinchi shaxs tomonidan tarqatilganligi ahamiyatga ega emas.

Tuhmat jinoyati aybdor tomonidan bila turib yolgʻon maʼlumotlarni hech boʻlmaganda bir shaxsga yetkazganda **tugallangan** hisoblanadi.

Subyektiv tomondan tuhmat faqat **toʻgʻri qasd** bilan sodir etiladi. Aybdor jabrlanuvchi toʻgʻrisida yolgʻon, sharmanda qiluvchi maʼlumotlarni tarqatayotganligini biladi va buni xohlaydi. Jinoyatni mazkur modda boʻyicha kvalifikatsiya qilishda zaruriy shart aybdorning tarqatayotgan maʼlumotlarning yolgʻonligini bilishi hisoblanadi. Maʼlumotlarning yolgʻonligiga nisbatan yanglishishi JK 139-moddasi boʻyicha javobgarlikni keltirib chiqarmaydi.

Jinoyatning **motiv va maqsadi** turlicha boʻlishi mumkin va bu holat qilmishning kvalifikatsiyasiga taʼsir koʻrsatmaydi. Istisno tariqasida, agar shaxs tamagirlik yoki boshqa past niyatlarda jinoyat sodir etgan boʻlsa, qilmish JK 139-moddasining 3-qismi «g» bandi boʻyicha javobgarlikka tortiladi.

Bu **jinoyatning subyeksi** 16 yoshga toʻlgan har qanday aqli raso shaxs boʻlishi mumkin.

Agar tuhmat qilish nashr qilish yoki boshqacha usulda koʻpaytirilgan matnda yoxud ommaviy axborot vositalari orqali sodir etilgan boʻlsa, qilmish JK 139-moddasi 2-qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

NOTA BENE !

Nashr qilish yoki boshqacha usulda ko'paytirilgan matnni tarqatish yoxud ommaviy axborot vositalari orqali tuhmat qilish deganda, yolg'on ma'lumotlarni kitoblarda, gazeta va jurnallarda, varaqalarda yoki boshqa asarlarda radio, televidenie, videoda namoyish qilish orqali, audio va kassetalarda keng ommaga tarqatishni tushunish lozim.

Mazkur holatda, boshqa shaxsni sharmanda qiluvchi mazmundagi yozilgan, tasvirlangan, bosma chiqarilgan har qanday ma'lumot orqali jinoyat sodir etilishi mumkin.

Mazkur holat orqali amalga oshirilgan tuhmat jabrlanuvchiga oddiy tuhmatdan ko'ra katta ma'naviy zarar yetkazadi.

JK 139-moddasi 3-qismi bilan quyidagi hollarda javobgarlik kelib chiqadi:

- a) og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatlar sodir etishda ayblab;
- b) og'ir oqibatlar kelib chiqishiga sabab bo'lgan holda;
- v) xavfli retsivist tomonidan;
- g) G'arazgo'ylik yoki boshqa past niyatlarda qilingan bo'lsa.

Shaxsni axloqqa zid harakatlari uchun tuhmat qilishdan farqli ravishda, JK 139-moddasi 3-qismi «o» bandidagi tuhmat, JK Maxsus qismida ko'rsatilgan og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat sodir etishda jabrlanuvchini ayblash, nafaqat ma'naviy, balki davlat nomidan ham ayblaydi.

Og'ir jinoyatlar deganda, qasddan sodir etilib, qonunda og'ir jazo sifatida besh yildan ortiq, lekin o'n yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish nazarda tutilgan jinoyatlar tushuniladi. **O'ta og'ir** jinoyatlarga qasddan sodir etilib, qonunda o'n yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoxud umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi.

JK 139-moddasi 3-qismi «b» bandida nazarda tutilgan og'ir oqibatlariga tuhmat qilishdan shaxsning o'zini o'zi o'ldirishi, uni ruhiy yoki boshqa kasalliklarga chalinishi (infarkt, insult va boshq.), oilasining

buzilishi, ishdan haydaliishi va yashashi uchun zarur bo'lgan moddiy yordamdan ayrilishini kiritish mumkin.

JK 139-moddasi 3-qismi «a» bandida nazarda tutilgan tuhmatni yolg'on xabar berish (JK 237-moddasi) va yolg'on guvohlik berishdan farqlash lozim. Tuhmat jinoyatining bevosita obyekti jabrlanuvchining sha'ni va qadr-qimmati hisoblanadi, yolg'on guvohlik berish jinoyatining bevosita obyekti esa odil sudlov faoliyatini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Yolg'on xabar berishda, tuhmatdan farqli ravishda ma'lumotlar nafaqat o'tmish va hozirgi vaqtga, balki kelajakka oid ham bo'lishi mumkin. Masalan, huquqni muhofaza qilish organlariga shaxsni jinoyatga tayyorgarlik ko'rayotganligi haqida xabar berish. Asosiysi, yolg'on xabar berish va guvohlik berishda, yolg'on ma'lumotlar jinoyat ishini qo'zg'atish va tegishli hukm chiqarish vakolatiga ega bo'lgan organga beriladi. Yolg'on xabar berish va guvohlik berishda aybdorning qasdi jabrlanuvchini jinoiy javobgarlikka jalb qilishga, ya'ni uni sudda aybli deb topishga qaratilgan bo'ladi, tuhmat esa uning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitishga qaratiladi. Haqoratdan esa, tuhmat bila turib yolg'on va sharmanda qiluvchi ma'lumotlarni tarqatishi bilan farq qiladi.

6-§. Haqorat qilish (JK 140-moddasi)

Jinoyatning bevosita obyekti inson o'zga shaxsning sha'ni, qadrini hurmat qilinishini kafolatlovchi, o'z shaxsining qadrini subyektiv anglashini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Fakultativ obyekt sifatida haqoratlangan insonning sog'ligi ko'rsatilishi mumkin.

Obyektiv tomondan haqorat shaxsning sha'ni va qadrini noma'qul ko'rinishda yerga urish hisoblanadi. Shu bilan birga javobgarlik JKning 140-moddasi 1-qismi bilan yil davomida xuddi shunday harakatlar uchun ma'muriy javobgarlikka tortilgandan yuzaga keladi.

NOTA BENE !

Haqorat – bu jabrlanuvchi shaxsining noma’qul ko‘rinishdagi salbiy bahosi bo‘lib, shaxsning sha’ni va qadr-qimmatini yerga uradi, uning ma’naviy qiyofasini ham atrofida nazarida, ham o‘zining nazarida poymol qiladi.

Haqorat turli ko‘rinishlarda va usullarda namoyon bo‘ladi. U faqat og‘zaki, yozma, bevosita tegmasdan tana harakatlari orqali (jabrlanuvchi tarafga qarab tuflash, xunuk qiliqlar bilan va h.k.) va bevosita tegish bilan tana harakatlari orqali, lekin jabrlanuvchiga jismoniy zarar yetkazmasdan (itarib yuborish, kiyimlarini yirtish va h.k.) sodir etilishi mumkin. Ko‘pchilik hollarda, haqorat bevosita ro‘y beradi, lekin u bilvosita ham bo‘lishi mumkin. Bunday hollarda, 140-modda bo‘yicha javobgarlik faqat aybdor jabrlanuvchiga haqoratlari etib borishiga ishongan taqdirdagina qo‘llanilishi mumkin.

NOTA BENE !

Shaxsning sha’ni va qadr-qimmatini **tahqirlash** deganda, insonga nisbatan salbiy baho berilishi tushuniladi va haqoratning tarkibi uchun bu baholarning yolg‘on yoki rostligi ahamiyatsizdir.

Agar haqorat haqiqat bo‘lganida va uyatsiz, noma’qul ko‘rinishda ifoda etilgan bo‘lsa, haqorat jinoyat tarkibi bo‘ladi. Aksincha, to‘g‘ri ifoda etilgan tanqid haqorat hisoblanmaydi. Haqorat qilishning tarkibi bo‘lishi uchun qadr-qimmatning tahqirlanishi albatta uyatsiz va noma’qul ko‘rinishda ifoda etilishi kerak, ya’ni sudda aniqlanadigan har bir holat jabrlanuvchiga nisbatan jamiyatda qabul qilingan odob-axloq qoidalariga va muomala madaniyatiga zid tarzda ifodalangan bo‘lishi shart. Haqorat uchun javobgarlik masalasining hal qilinishida faqatgina haqoratlangan shaxsning reaksiyasidan kelib chiqib bo‘lmaydi, bu reaksiya o‘zini yuqori darajada yaxshi ko‘rishi sababli vujudga kelishi mumkin. Har qanday tahqirlash haqoratni tashkil etavermaydi, faqatgina

sha'n va qadr-qimmatni tahqirlasa va noma'qul ko'rinishda ifodalan-sagina haqorat hisoblanishi mumkin.

Haqoratli iboralarning tarkibi turlicha bo'lishi mumkin, bu haqorat qiluvchining «ixtirochiligiga» bog'liq. Qoida bo'yicha, shaxsning noma'qul ko'rinishda baholanishi tsenzuraga zid tarzda gapirilishdan iborat bo'ladi. Shuni yodda tutish kerakki, haqorat doimo aynan bir kishiga qaratilgan bo'ladi. Manzilsiz aytilgan uyatsiz so'z va so'kinish-lar bezorilik sifatida kvalifikatsiya qilinishi mumkin.

JKning 140-moddasiga binoan shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini tahqirlashga qaratilgan uyatsiz harakatlarni sodir etilgan vaqtidan boshlab, jabrlanuvchiga nisbatan zarar etgan yoki etmaganligidan qat'i nazar, jinoyat **tugallangan** hisoblanadi.

Subyektiv jihatdan haqorat faqatgina **to'g'ri qasddan** sodir etilishi mumkin. Aybdor jabrlanuvchining sha'ni va qadr-qimmatini nojo'ya usulda poymol etayotganini biladi va shuni xohlaydi. Haqoratning **motivi** turlicha bo'lishi mumkin va sodir etilgan jinoyatning kvalifikatsiyasiga ta'sir etmaydi, bezorilik motivi bundan mustasno.

Jinoyatning subyekti – 16 yoshga to'lgan aqli raso, jismoniy shaxs.

Nashr qilish yoki boshqacha usulda ko'paytirilgan matnda yoki ommaviy axborot vositalari orqali haqorat qilinganda, aybdor JKning 140-moddasi 2-qismiga binoan javobgarlikka tortiladi.

(Ushbu qism bilan kvalifikatsiya qilish uchun JK 139-moddasining 2-qismiga qarang.)

JKning **140-moddasi 3-qismi** bilan javobgarlikka tortish quyidagi holatda vujudga keladi:

a) jabrlanuvchining o'z xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabati bilan bog'liq bo'lsa;

b) xavfli retsivist yoki tuhmat qilganligi uchun ilgari sudlangan shaxs tomonidan qilingan bo'lsa.

(«o'z xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabati bilan» tushunchasi bo'yicha JKning 97-moddasi 2-qismi «g» bandiga qarang.)

Haqoratni bezorilikdan ajratish kerak va bu yerda motiv va maqsad haqoratning sodir etilishida asosiy rol o'ynaydi. Qasddan bezorilik maqsadida noloyiq ko'rinishda shaxs sha'ni va qadr-qimmatini

tahqirlash (qoida bo'yicha, jamiyatda aybdor tomonidan odob-axloq qoidalarining buzilishi) boshqa zarur belgilar mavjudligida JKning 277-moddasi (Bezorilik) bilan kvalifikatsiya qilinadi va JKning 140-moddasi bo'yicha qo'shimcha kvalifikatsiya qilishni talab etmaydi.

«Shaxsning ozodligi, sha'ni va qadr-qimmatiga qarshi jinoyatlar» mavzusi bo'yicha yakuniy savollar

1. JKning 135-moddasi (Odam savdosi) bo'yicha jinoiy javobgarlikning boshlanish shartlari qanday? Qaysi paytdan ushbu jinoyat tugallangan hisoblanadi? Odam savdosi jinoyatida javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlarni ayting.

2. Odamlardan foydalanish deganda nimani tushunish lozim? Fohishalikdan foydalanishning jinsiy foydalanishning boshqa ko'rinishlaridan farqi nimada?

3. Odamlarni jinsiy foydalanish maqsadida aldov yo'li bilan og'irish yoki ishontirib yollash bilan ayol kishini jinsiy aloqa qilishga majburlash orasida qanday farq bor?

4. Ayolni erga tegishga majbur qilish yoki uning erga tegishiga to'sqinlik qilish deganda nima tushuniladi?

5. JKning 136-moddasiga (Ayolni erga tegishga majbur qilish yoki uning erga tegishiga to'sqinlik qilish) muvofiq ayolga nisbatan jismoniy, ruhiy zo'rlik ishlatish hamda uni o'g'irlash deganda nimani tushunasiz? Ushbu jinoyatning kvalifikatsiyasi tartibi qanday?

6. JKning 137-moddasiga binoan aybdor harakatlarining kvalifikatsiyasi uchun qanday alomatlar bo'lishi kerak? Odam o'g'irlashning og'ir oqibatlarini deganda nima tushuniladi?

7. Odam o'g'irlashning zo'rlik ishlatib noqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilishdan farqi nimada?

8. Jismoniy azob berib, hayot yoki sog'liq uchun xavfli sharoitda zo'rlik ishlatib ozodlikdan mahrum qilish deganda nima tushuniladi?

9. JKning 139-moddasi (Tuhmat)ni qo'llashning zaruriy shartlarini ayting. Ushbu jinoyatning javobgarlikni og'irlashtiradigan holatlariga tavsif bering.

10. Haqorat qilganlik uchun jinoiy javobgarlik qanday asoslarda belgilanadi.

11. Tuhmat qilishning haqorat qilishdan farqi nimada?

Qo‘shimcha adabiyotlar

O‘quv qo‘llanmalar, maxsus adabiyotlar

Зубкова В.И. Ответственность за преступления против личности по законодательству России. – М.: НОРМА, 2005. – 256 Б.

Красиков А.Н. Уголовно-правовая охрана прав и свобод человека в России. – Саратов: 1996. – 41 Б.

Рустамбаев М.Х. Преступления против личности. Учебное пособие. – Т.: «Эльдинур», 1998. – 181 Б.

Сугачев Л.Н. Ответственность за оскорбление. – М.: «Юридическая литература», 1966.

Ilmiy maqolalar

Абдурасулова Қ.Р. Баъзи хорижий мамлакатларнинг қонунларида одам савдоси учун жавобгарлик // Одам савдосига қарши курашнинг жиноий-ҳуқуқий ва криминологик муаммолари: Республика илмий-амалий конференцияси материаллари (2013 йил 21 декабрь). – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2014. – Б. 13-20.

Ахраров Б.Д., Расулев А.К. Мансабдор ва масъул мансабдор шахслар тушунчаларининг вужудга келиши ва ривожланиши масалалари // Жиноят қонунчилигининг либераллаштирилиши шароитида айрим жиноятларни декриминализация қилиш масалалари. Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. –Т.: ТДЮУ, 2014. –Б. 24-39.

Баймурзин Г.И. Честь и достоинство личности как объект оскорбления и клеветы. // В кн.: Правовая наука Казахстана. – Алма-Ата: 1978.

Дьяченко А.П. Ответственность за сексуальную эксплуатацию женщин и детей. // Ж. Уголовное право. – 2003. – № 2.

Закирова У.А. Трансплантация: қонун ва жавобгарлик // Юридик фанлар ахборотномаси. Вестник юридических наук. Илмий-амалий ҳуқуқий журнал. – 2017. №2. –Б. 130-137.

Мирзаев У.М. Одам савдоси жиноятини содир этиш усули сифатида // Одам савдосига қарши курашишнинг жиноят-ҳуқуқий ва криминологик муаммолари. Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами (2013 йил 21 декабрь). – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2014. – Б. 27-30.

Мухитдинова Ф. Некоторые вопросы ответственности за клевету по УК союзных республик. // Актуальные проблемы борьбы с преступностью. Сборник научных трудов ТашГУ – Т.: ТашГУ, 1983.

Осмонов А. Объект преступления оскорбления личности. Проблемы государства и права на современном этапе. – Т.: ИГП АН, 1973, вып. 6.

Осмонов А. Уголовно-правовая охрана чести и достоинства личности // Проблемы государства и права на современном этапе. – Т.: ИГП АН, 1971, вып. 3.

Рустамбаев М.Х. Личная неприкосновенность и проблемы судебной защиты граждан. // В сб. Судебная защита прав человека: проблемы теории и практики. – Т.: ТДЮИ, 2001. – С. 21-23.

Рустамбаев М.Х. Охрана прав личности в уголовном праве. Взгляд юриста. Профессия юриста и права человека в Узбекистане. // Бельгия, 1999. – С. 117-121.

Салаев Н.С. Миллий ва халқаро миқёсда одам савдосига қарши кураш масалалари // Одам савдосига қарши курашишнинг жиноят-ҳуқуқий ва криминологик муаммолари. Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами (2013 йил 21 декабрь). – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2014. – Б. 21-24.


Салаев Н.С. Миллий ва халқаро миқёсда одам савдосига қарши кураш масалалари // Одам савдосига қарши курашнинг жиноий-ҳуқуқий ва криминологик муаммолари: Республика илмий-амалий конференцияси материаллари (2013 йил 21 декабрь). – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2014. – Б. 45-49.

Турғунбоев Э.О. Одам савдоси –трансмиллий жиноят // Одам савдосига қарши курашишнинг жиноят-ҳуқуқий ва криминологик муаммолари. Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами (2013 йил 21 декабрь). – Т.:Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2014. – Б. 24-27.

Ўразалиев М.Қ. Криминологическая характеристика проституции как одной из форм торговли людьми // Экономика и право. Россия. 2015 . №7. – С.40-44.

**VIII BOB. FUQAROLARNING KONSTITUTSIYAVIY
HUQUQ VA ERKINLIKLARIGA QARSHI
JINOYATLAR**

10-sxema



1-§. Fuqarolarning teng huquqliligini buzish (JK 141-moddasi)

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasida «O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e‘tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, qonun oldida tengligi»¹ belgilangan. **JK 141-moddasi** xalqaro huquqiy hujjatlarga to‘la muvofiq keladi. Xususan, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi Xalqaro Paktning 26-moddasiga ko‘ra barcha kishilarning qonun oldida tengligi va har bir kishining huquqi qonun bilan himoya qilinishi yozib qo‘yilgan. Shu munosabat bilan har qanday kamsitish qonun bilan taqiqlangan bo‘lib, qonun barcha shaxslarning irqi, tanasining rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e‘tiqodlari, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy mavqei, tug‘ilishi yoki boshqa vaziyatlarga ko‘ra kamsitilishiga qarshi teng va samarali himoyani kafolatlashi lozim.

Jinoyatning **bevosita obyekt**i fuqaroning shaxsiy huquqlarini amalga oshirishi borasidagi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Fuqaroning nafaqat O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, balki xalqaro hujjatlarda nazarda tutilgan huquqlari jinoyatning **predmeti** bo‘lib hisoblanadi.

¹Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси: Ўн иккинчи чакириқ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ўн биринчи сессиясида 1992 йил 8 декабрда қабул қилинган. (2002 йил 27 январда ўтказилган умумхалқ референдуми натижаларига кўра ҳамда унинг асосида Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 24 апрелда қабул қилинган Қонунига мувофиқ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси XVIII, XIX, XX, XXIII бобларига ўзгартиришлар ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2007 йил 11 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 89-моддасига, 93-моддасининг 15-бандига, 102-моддасининг иккинчи қисмига тузатишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2008 йил 25 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 77-моддасининг биринчи қисмига ўзгартириш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2011 йил 12 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 90-моддасининг иккинчи қисмига тузатиш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 16 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 32, 78, 93, 98, 103 ва 117 моддаларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 6 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 4-бандига, 81-моддасининг еттинчи қисмига, 83-моддасига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13 ва 14- бандларига, 107-моддасининг биринчи қисмига, 110-моддасининг биринчи ва учинчи қисмларига, 111-моддасига ўзгартишлар ва қўшимча киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 31 майда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 5 ва 12-бандларига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13-бандига ҳамда 108, 109-моддаларига ўзгартишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 29 августда қабул қилинган қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 99 ва 10-моддаларига ўзгартишлар киритилган.) – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. –9 б.

Obyektiv tomondan jinoyat fuqarolarning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsiy yoki ijtimoiy holatidan kelib chiqqan holda, huquqlarining bevosita yoki bilvosita buzilishi yoki cheklanishida namoyon bo‘ladi.

NOTA BENE !

Fuqarolarning huquqlarini bevosita yoki bilvosita buzish yoki cheklash yoxud fuqarolarga bevosita yoki bilvosita imtiyozlar berish deyilganda, diskriminatsiya, fuqarolarning birini boshqasidan ustun qo‘yish tushuniladi. Diskriminatsiya, ya’ni muayyan bir shaxsning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsiy yoki ijtimoiy holatidan kelib chiqqan holda davlat, jamiyat, madaniy ishlar yoxud boshqa faoliyatda ishtirok etishi uchun to‘sqinlik qilish yoki o‘z huquq va erkinliklaridan foydalanishiga yoki ularni amalga oshirishiga to‘sqinlik qilishda namoyon bo‘ladi.

Masalan, ishdan bo‘shatish, ro‘yxatga olishdan bosh tortish, ishga olishda, o‘qishga kirishda irqi, jinsi, millatidan kelib chiqib va hokazo. Ko‘rilayotgan jinoyat harakat orqali ham, harakatsizlik orqali ham sodir etilishi mumkin.

Harakat orqali sodir etilgan jinoyatga qasddan fuqarolarning qonuniy huquq va erkinliklaridan foydalanishga to‘sqinlik qilish kiradi. Harakatsizlik orqali sodir etilgan jinoyatga esa xuddi shu huquq va erkinliklardan foydalanishga ko‘mak bermaslik kiradi.

Jinoyat fuqarolarning qonuniy huquq va erkinliklariga zarar etish yoki etmasligidan qat’i nazar, buzish yoxud cheklashning boshlangan vaqtdan **tugallangan** deb topiladi. Jinoyatning tarkibi bo‘lishi uchun, irqi, millati, tili, dinidan qat’i nazar, fuqarolarning huquq va erkinliklarini yoki imtiyozlarini buzish yoki cheklash uchun harakat yoki harakatsizlikning o‘zi kifoyadir. Shu sababdan bu jinoyatga nisbatan suiqasd istisno qilinadi.

Subyektiv tomondan fuqarolarning teng huquqliligini buzish qasddan sodir etilgan jinoyatdir. Qasd to‘g‘ri yoki egri bo‘lishi mumkin.

Bunda aniq maqsad bo'lmashligi mumkin. Asosiysi jinoyatning motividir, shuningdek, JK **141-moddasi 1-qismida** ko'rsatilgan vaziyatlardan birini, jabrlanuvchiga nisbatan taalluqli harakatni aybdor tomonidan sodir etilishidir.

Jinoyatning **subyekt**i – 16 yoshga to'lgan aqli raso jismoniy shaxs. Jinoyat subyekt i mansabdor shaxs bo'lgan hollarda sodir etilgan jinoyat zarur bo'lganda mansab vakolatini suiiste'mol qilish (JK 205-moddasi), hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish (JK 206-moddasi) deb JKning Maxsus qismi tegishli moddasi bilan qo'shimcha ravishda kvalifikatsiya qilinishi zarur.

Aybdorning jinoyati, agar teng huquqlilikning buzilishi zo'rlik ishlatib sodir etilgan bo'lsa, JKning **141-moddasi 2-qismi** bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Fuqarolarning teng huquqliligini **zo'rlik ishlatib buzish** deganda, kaltaklash, do'pposlash, badanga yengil yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazish tushuniladi.

Ushbu holatda shaxsga qarshi jinoyat uchun javobgarlikka tortishda qo'shimcha kvalifikatsiya zarur emas. Og'ir tan jarohatlari yetkazilgan taqdirda aybdorning qilmishi jinoyatlar majmui bo'yicha JK **141-moddasi 2-qismi** va JK 104-moddasi tegishli qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

2-§. Shaxsiy hayot daxlsizligini buzish (141¹-modda)

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 27-moddasida «Har kim o'z sha'ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalani sh va turar joyi daxlsizligi huquqiga ega....»¹ deb aytiladi.

¹Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси: Ўн иккинчи чакирик Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ўн биринчи сессиясида 1992 йил 8 декабрда қабул қилинган. (2002 йил 27 январда ўтказилган умумхалқ референдуми натижаларига кўра ҳамда унинг асосида Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 24 апрелда қабул қилинган Қонунига мувофиқ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси XVIII, XIX, XX, XXIII бобларига ўзгартиришлар ва қўшимчалар қиритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2007 йил 11 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 89-моддасига, 93-моддасининг 15-бандига, 102-моддасининг иккинчи қисмига тузатишлар қиритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2008 йил 25 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 77-моддасининг биринчи қисмига ўзгартириш қиритилган. Ўзбекистон Республикасининг

Shaxsning shaxsiy hayoti to‘g‘risidagi, shaxsiy yoki oilaviy sirini tashkil etuvchi ma‘lumotlarni uning roziligisiz yig‘ish, tarqatish, foydalanish qonun bilan taqiqlanadi, bu shubhasiz, insonning shaxsiy hayoti daxlsizligi kafolatlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonuni 13-moddasiga muvofiq, shaxsning axborot borasidagi xavfsizligi uning axborotdan erkin foydalanishi zarur bo‘lgan sharoitlar va kafolatlarni yaratish, shaxsiy hayotiga taalluqli sirlarini saqlash, axborot vositasida qonunga xilof ravishda ruhiy ta’sir ko‘rsatilishidan himoya qilish yo‘li bilan ta‘minlanadi. Jismoniy shaxslarga taalluqli shaxsiy ma‘lumotlar maxfiy axborot toifasiga kiradi. Jismoniy shaxsning roziligisiz uning shaxsiy hayotiga taalluqli axborotni, xuddi Shuningdek shaxsiy hayotiga taalluqli sirini, yozishmalar, telefondagi so‘zlashuvlar, pochta, telegraf va boshqa muloqot sirlarini buzuvchi axborotni to‘plashga, saqlashga, qayta ishlashga, tarqatishga va undan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi, qonun hujjatlarida belgilangan hollar bundan mustasno. Jismoniy shaxslar to‘g‘risidagi axborotdan ularga moddiy zarar va ma‘naviy ziyon yetkazish, Shuningdek ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ro‘yobga chiqarilishiga to‘sqinlik qilish maqsadida foydalanish taqiqlanadi¹. 1966 yilgi Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning 17-moddasiga muvofiq, hech kimning shaxsiy va oilaviy hayotiga o‘zboshimchalik bilan yoki noqonuniy tarzda aralashish mumkin emas.

2011 йил 12 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 90-моддасининг иккинчи қисмига тузатиш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 16 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 32, 78, 93, 98, 103 ва 117 моддаларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 6 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 4-бандига, 81-моддасининг еттинчи қисмига, 83-моддасига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13 ва 14- бандларига, 107-моддасининг биринчи қисмига, 110-моддасининг биринчи ва учинчи қисмларига, 111-моддасига ўзгартишлар ва қўшимча киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 31 майда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 5 ва 12-бандларига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13-бандига ҳамда 108, 109-моддаларига ўзгартишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 29 августда қабул қилинган қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 99 ва 10-моддаларига ўзгартишлар киритилган.) – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. –12 б.

¹ Ўзбекистон Республикасининг 2002 йил 12 декабрдаги 439–II-сонли «Аxborot эркинлиги принциплари ва каfoлатлари тўғрисида»ги Қонуни.

Sharhlanayotgan jinoyatning **obyekti** fuqarolarning shaxsiy hayotini muhofaza qilish huquqi, xususan, shaxsiy yoki oilaviy sirlari dahlsizligini saqlashga oid konstitutsiyaviy huquqlarni amalga oshirish sohasidagi ijtimoiy munosabatlardan iborat.

Ko‘rib chiqilayotgan jinoyatning predmeti shaxsning roziligisiz oshkor qilinishi mumkin bo‘lmagan shaxsiy yoki oilaviy sirni tashkil etuvchi ma’lumotlar hisoblanishi mumkin. Shaxsiy yoki oilaviy sirlarga nafaqat shaxsni yoxud uning oilasini obro‘sizlantiruvchi, sharmanda qiluvchi ma’lumot, balki shaxs maxfiy saqlab qolishni istayotgan boshqa ma’lumotlar ham kiradi, jumladan, oila a’zolaridan birida birorta kasallik mavjudligi, nojo‘ya, xunuk odatlar, ishqiy aloqalar.

Obyektiv tomondan jinoyat shaxsning shaxsiy yoki oilaviy sirini tashkil etuvchi ma’lumotlarni uning roziligisiz: 1) qonunga xilof ravishda yig‘ish; 2) tarqatish yo‘li bilan sodir etilishi mumkin.

Shaxsning shaxsiy hayoti to‘g‘risidagi ma’lumotlarni qonunga xilof ravishda yig‘ish, uning shaxsiy yoki oilaviy sirini tashkil etuvchi shaxsiy hayoti to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yig‘ishga qaratilgan har qanday harakatlar orqali sodir etilishi mumkin. Bu muayyan shaxsni kuzatish, orqasidan poylab yurish, suratga olish, uni taniydigan xodimlar, xizmatdoshlardan so‘rab, surishtirish va h.k. Asosiysi shundaki, mazkur ma’lumotlar egasining roziligisiz yig‘iladi, vaholanki faqatgina ma’lumot egasi nimani sirligicha qoldirishni hal qiladi.

Shaxsning shaxsiy yoki oilaviy sirini tashkil etuvchi shaxsiy hayoti to‘g‘risidagi ma’lumotlarga ega shaxs tomonidan ushbu ma’lumotlarni tarqatish ularni shaxsiy yoki oilaviy sir egasining roziligisiz ommaviy axborot vositalarida chop etish, internet orqali, auditoriya oldida chiqish yo‘li bilan sodir etilishi mumkin.

Ma’lumotlarni tarqatishda ular haqida keng doiradagi shaxslar xabardor bo‘ladi.

Ammo, shuni inobatga olish zarurki, basharti ma’lumotlar jamoatchilikka jabrlanuvchining o‘z aybi bilan oshkor qilingan bo‘lsa, jinoyat tarkibi mavjud bo‘lmaydi (masalan, shaxs muntazam ravishda o‘z turar joyida yashovchilar nigohida mast holda ko‘rinishi, qo‘shnilar ko‘z o‘ngida tilanchilik qilish va b.)

Jinoyat **obyektiv tomonining** zaruriy belgisi shundaki, birinchidan, shaxsning shaxsiy yoki oilaviy sirini tashkil etuvchi shaxsiy hayoti to'g'risidagi ma'lumotlarni qonunga xilof ravishda yig'ish yoki tarqatish shaxsning rozilgisiz, ikkinchidan, ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etiladi.

Shaxsning shaxsiy yoki oilaviy sirini tashkil etuvchi shaxsiy hayoti to'g'risidagi ma'lumotlarni tarqatish usullari jinoyatning kvalifikatsiyasiga ta'sir qilmaydi.

Shuni hisobga olish lozimki, shaxsning rozilgisiz uning shaxsiy yoki oilaviy sirini tashkil etuvchi shaxsiy hayoti to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish yoki tarqatish, bosharti qonunga asoslangan bo'lsa (jumladan, militsiya to'g'risidagi, JPK, ommaviy axborot vositalari to'g'risidagi va sh.k.), jinoyat deb tan olinishi mumkin emas.

Jinoyat shaxsning rozilgisiz uning shaxsiy yoki oilaviy sirini tashkil etuvchi shaxsiy hayoti to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish yoki tarqatish boshlangan vaqtdan boshlab **tamomlangan** hisoblanadi.

Subyektiv tomondan jinoyat to'g'ri qasd bilan sodir etiladi. Jinoyatni sodir etish maqsadi uning kvalifikatsiyasiga ta'sir qilmaydi.

Jinoyatning **subyeksi** 16 yoshga to'lgan, aqli raso jismoniy shaxs hisoblanadi.

JK 141¹-moddasining ikkinchi qismida o'sha harakatlar:

- a) og'ir oqibatlarga olib kelgan bo'lsa;
- b) g'arazli niyatlarda sodir etilgan bo'lsa;
- v) xavfli retsivist tomonidan sodir etilgan bo'lsa, javobgarlik ko'zda tutilgan.

Og'ir oqibatlar ostida jabrlanuvchiga jiddiy ma'naviy zarar yetkazilishi, oilaning ajralishi, uning sog'ligi buzilishini tushunish lozim. Oqibatlar har bir holatda sud tomonidan baholanishi shart.

G'arazli niyatlar tushunchasi JKning VIII bo'limida berilgan. Xavfli retsivist tushunchasi avvalroq berilgan edi.

3-§.Fuqarolarning turar joyi daxlsizligini buzish (JK 142-moddasi)

Turar joy daxlsizligi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan kafolatlanadi, ya’ni Konstitutsiyaning 27-moddasida «hech kim qonun nazarda tutgan hollardan va tartibdan tashqari bironing turar joyiga kirish, tintuv o‘tkazish yoki uni ko‘zdan kechirishi mumkin emas»¹, deb qayd etilgan.

JK 142-moddasi Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi Xalqaro Pakt(bitim)ga va Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga muvofiq keladi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 17-moddasida hech kimning g‘ayriqonuniy tarzda uy-joyga bostirib kirishi mumkin emas, deb belgilab qo‘yilgan.

Jinoyatning **asosiy bevosita obyekti** bo‘lib fuqarolarning turar joy daxlsizligi bo‘yicha konstitutsiyaviy huquqini ta‘minlaydigan ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Qo‘shimcha obyekt sifatida, shaxsiy daxlsizlik, sog‘liq, shaxsiy erkinlikni ta‘minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Obyektiv tomoni turar joyga unda yashovchilar erkiga xilof ravishda zo‘rluk ishlatib g‘ayriqonuniy bostirib kirishdan iboratdir.

NOTA BENE !

Turar joy deb, odamlarning doimiy yoki vaqtinchalik yashashi uchun mo‘ljallangan joy (shaxsiy uy, kvartira, hovli, mehmonxona va h.k.) tushuniladi. Shuningdek, yuqoridagilarning dam olish, mol-mulk saqlash, yashovchilarning boshqa zarur ehtiyojlarini qondirish uchun ishlatiladigan tarkibiy qismlari (balkon, oynavand ayvonlar va h.k.) ham turar joyga kiradi. Ombor, garaj yoki boshqa xo‘jalik xonalari odam yashashi uchun mo‘ljallanmagan bo‘lsa turar joy hisoblanmaydi.

Bostirib kirish bu turar joyga noqonuniy tarzda kirish deganidir. Bu hol nafaqat yashirin ravishda amalga oshirilishi, balki, ochiqchasiga,

¹Ўша жойда.

odamlarning qarshiligini va to‘siqlarni yengib va turli qo‘llanmalar yordamida yoki to‘siqlarni engmasdan ham amalga oshirilishi mumkin.

NOTA BENE !

Noqonuniy bostirib kirish bu aybdor tomonidan har qanday usul bilan yashayotganlarning roziligisiz yoki ularning xohishiga qarshi va bunga huquqiy asos mavjud bo‘lmagan holda turar joyga kirishga qaratilgan harakatlardir (noqonuniy ko‘chirishni amalga oshirish, sanksiyalanmagan tintuv va boshq.).

Turar joyga unda yashovchilarning erkiga xilof ravishda zo‘rlik ishlatib g‘ayriqonuniy bostirib kirilganda JK 142-moddasi bilan jinoiy javobgarlik kelib chiqadi. o‘ayriqonuniy bostirib kirish zo‘rlik ishlatmasdan sodir etilgan holatda aybdorning harakatlari jinoiy javobgarlikka tortilmaydi.

NOTA BENE !

Zo‘rlik ishlatish deganda, jabrlanuvchiga nisbatan jismoniy kuch ishlatishni tushunish lozim (jabrlanuvchini itarib yuborish, qo‘lini qayirish, kaltaklash, do‘pposlash, uning badaniga yengil va o‘rtacha og‘ir shikast yetkazish).

Bunday holatlarda aybdorning harakatlarini jinoyatlar majmui bilan JKning sog‘liqqa qarshi jinoyatlar uchun javobgarlikni nazarda tutadigan moddalari bilan jinoyatlar jami tarzida kvalifikatsiya qilib bo‘lmaydi.

Bostirib kirganda jabrlanuvchiga nisbatan ishlatilgan zo‘rlik JKning 142-moddasida nazarda tutilgan jinoiy illatlardan ko‘ra og‘irroq jinoyat hisoblanmasagina yuqoridagi holat nazarda tutiladi.

Jinoyat zo‘rlik ishlatib turar joyga bostirib kirilgan vaqtdan boshlab vujudga kelgan oqibatlardan qat’i nazar, **tamomlangan** deb topiladi.

Subyektiv tomondan jinoyat to'g'ri qasd bilan sodir etiladi. Aybdor o'zining zo'ravonlik harakatlari bilan fuqarolarning uy-joyga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqlarini buzayotganini anglaydi va buni xohlaydi.

Ushbu jinoyatning **subyeksi** 16 yoshga to'lgan aqli raso jismoniy shaxs bo'lishi mumkin.

Turar joyga unda yashovchilarning erkiga xilof ravishda zo'rlik ishlatib g'ayriqonuniy ravishda bostirib kirish mansabdor shaxs tomonidan sodir etilganda, uning harakatlari JK 206-moddasi bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi.

Birovning mol-mulkini talon-toroj qilish maqsadida turar joyga kirish o'zgarar mol-mulkini o'g'irlaganlik uchun javobgarlikni nazarda tutadigan tegishli moddalar doirasiga kiradi va JK 142-moddasi bilan qo'shimcha baholashni talab qilmaydi.

4-§. Xat-yozishmalar, telefonda so'zlashuv, telegraf xabarlarini yoki boshqa xabarlarining sir saqlanishi tartibini buzish (JK 143-moddasi)

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 27-moddasiga muvofiq, har bir fuqaro yozishmalar va telefon so'zlashuvlari siri huquqiga ega¹. Mazkur konstitutsiyaviy qoida Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro Paktning 17-moddasi, shuningdek, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 12-moddasida ham mustahkamlangan.

JK 143-moddasi fuqarolarning ushbu huquqdan foydalanishining jinoiy-huquqiy kafolati hisoblanadi.

Fuqarolarning xat-yozishmalari, telefonda so'zlashuv, telegraf xabarlarini yoki boshqa xabarlarini sir saqlash huquqidan foydalanishini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar jinoyatning **bevosita obyeksi** bo'lib hisoblanadi.

Obyektiv tomondan JKning 143-moddasida nazarda tutilgan jinoyat xat-yozishmalari, telefonda so'zlashuv, telegraf xabarlarini sir saqlash tartibini buzganda xuddi shunday qilmish uchun ma'muriy javobgarlikka tortilgandan so'ng yuzaga keladi.

¹Ўша жойда.

Ushbu holatda tartibni **buzish**, ma'lumot egasining roziligisiz yoki qonuniy sabablarsiz (jinoyat ishining qidiruvi yuzasidan sud ajrimi yoki prokuror sanksiyasi) telefon, faks, elektron pochta orqali kelib tushadigan xatning, telegrammaning, audio ma'lumotlarning va boshqa xabarlarning mazmuni bilan tanishishda namoyon bo'ladi.

JPKning 166-moddasi (Pochta-telegraf jo'natmalari aresti) va 167-moddasi (Pochta-telegraf jo'natmalarini ko'zdan kechirish va olish) asosida pochta-telegraf jo'natmalarini olish, bu jo'natmalarni ko'zdan kechirish, ochish holatlari faqatgina prokuror sanksiyasi yoki sud ajrimiga ko'ra amalga oshirilishi mumkin. Telefon so'zlashuvlarini yoki boshqa aloqa vositalarida olib borilayotgan muloqotlarni eshitish ham prokuror sanksiyasi yoki sud ajrimi bilan amalga oshirilishi lozim (JK 143-moddasi 3-qismi).

Xat-yozishmalari, telefon so'zlashuvlari, yoki boshqa yozishmalar bilan ruxsatsiz tanishishni boshlash vaqtidan boshlab jinoyat **tamomlangan** deb topiladi.

Xat-yozishmalar, telefon so'zlashuvlari telegraf yoki boshqa xabarlarning siri jinoyatni ochish, jinoyatni aniqlash va jinoyatchini ushlab maqsadida qonunda belgilangan tartibda huquqni muhofaza qilish idoralari tomonidan buzilgan hollarda shaxslarning harakatlari jinoiy qilmish deb topilmaydi.

Mansabdor shaxslarning g'ayriqonuniy harakatlari tegishli belgilar mavjud bo'lgan holatda JK 205- yoki 206-moddalarida nazarda tutilgan mansab vakolatini suiiste'mol qilish jinoyatini vujudga keltirishi mumkin. Agarda bu tartibga rioya qilinmasa aybdor jinoiy javobgarlikdan ozod qilinmaydi.

Subyektiv tomondan JK ning 143-moddasida nazarda tutilgan jinoyat qasddan sodir etiladi. Shaxs begona shaxsning xat-yozishmalari va boshqa ma'lumotlar bilan tanishayotganda, begona telefon so'zlashuvlarini eshitayotganida fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqini poymol etayotganini biladi va shuni xohlaydi.

Jinoyatni kvalifikatsiya qilishda uning **motiv** va **maqsadi** ahamiyat kasb etmaydi, lekin jazo tayinlanayotganda e'tiborga olinishi kerak.

Ko'p hollarda jinoyatning motivi oddiy odamiy qiziquvchanlikdan kelib chiqadi.

Ko'rilayotgan jinoyatning **subyeksi** 16 yoshga to'lgan aqli raso jismoniy shaxs bo'ladi.

5-§. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish (144-modda)

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 35-moddasida har bir shaxs bevosita o'zi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga egaligi belgilangan. Shuningdek, Konstitutsiyaning mazkur normasiga muvofiq, arizalar, takliflar va shikoyatlar qonunda belgilangan tartibda va muddatlarda ko'rib chiqilishi shart.

1994 yil 6 mayda qabul qilingan «Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni Konstitutsiyamizning ushbu muhim yo'nalishda huquqiy mexanizmini ta'minlovchi hamda davlat tomonidan fuqarolik jamiyatini shakllantirishda jismoniy yoki yuridik shaxslarning faoliyatini kafolatlovchi normativ-huquqiy hujjat sifatida namoyon bo'ldi. Keyinchalik, 2002 yil 13 dekabrda «Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni yangi tahrirda qabul qilindi.

Yurtimizda olib borilayotgan demokratik islohotlar mavjud ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy mexanizmlarni ham takomillashtirishni taqozo etishi natijasida 2014 yil 3 dekabrda «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bu boradagi normativ-huquqiy hujjatlarni qo'llash amaliyotini tahlil qilish asosida yangi tahrirda qabul qilindi.

Mazkur Qonun qabul qilinishi munosabati bilan:

1) O'zbekiston Respublikasining 1994 yil 6 maydagi «Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida»gi Qonuni;

2) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1994 yil 6 maydagi «Fuqarolarning murojaatlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga kiritish haqida»gi Qarori;

3) O‘zbekiston Respublikasining 2002 yil 13 dekabrda «Fuqarolarning murojaatlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish haqida»gi Qonuni;

4) O‘zbekiston Respublikasining 2014 yil 3 dekabrda «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish haqida»gi Qonuni o‘z kuchini yo‘qotdi.

Shuningdek, mazkur Qonunning qabul qilinishi munosabati bilan 2014 yil 14 dekabrda qabul qilingan Qonun orqali O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritildi, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 144-moddasi yuqorida qayd etilgan yangi tahrirda bayon etildi.

Kodeksning mazkur moddasida nazarda tutilgan jinoyatning **obyekti** ariza, taklif va shikoyatlar bilan vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga murojaat qilishga doir jismoniy va yuridik shaxsning huquqlarini ta‘minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida»gi Qonuniga binoan murojaatlar og‘zaki, yozma yoxud elektron shaklda arizalar, takliflar va shikoyatlar tarzida bo‘lishi mumkin.

Bunda **ariza** deganda, huquqlarni, erkinliklarni va qonuniy manfaatlarni amalga oshirishda yordam ko‘rsatish to‘g‘risidagi iltimos bayon etilgan murojaat, **taklif** deganda, davlat va jamiyat faoliyatini takomillashtirishga doir tavsiyalarni o‘z ichiga olgan murojaat, **shikoyat** deganda, buzilgan huquqlarni, erkinliklarni tiklash va qonuniy manfaatlarni himoya qilish to‘g‘risidagi talab bayon etilgan murojaat tushuniladi. Murojaatlar, ularning turi va shaklidan qat’i nazar, bir xil ahamiyatga egadir.

Elektron murojaat deganda - belgilangan tartibda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida berilgan, shu jumladan

davlat organining, tashkilotning rasmiy veb-saytiga joylashtirilgan murojaat, (real vaqt rejimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda berilgan ogʻzaki murojaatlar bundan mustasno) tushuniladi.

Takroriy murojaat deganda - ayni bir jismoniy yoki yuridik shaxsdan kelib tushgan, uning avvalgi murojaati yuzasidan qabul qilingan qaror ustidan shikoyat qilinayotgan yoki boshqacha tarzda norozilik bildirilayotgan, shuningdek, agar takroriy murojaat kelib tushgan paytga kelib qonun hujjatlarida belgilangan koʻrib chiqish muddati tugagan boʻlsa, ilgarigi murojaati oʻz vaqtida koʻrib chiqilmaganligi toʻgʻrisida xabar qilinayotgan murojaat tushuniladi.

Anonim murojaat - jismoniy shaxsning familiyasi (ismi, otasining ismi), uning yashash joyi toʻgʻrisidagi maʼlumotlar yoki yuridik shaxsning toʻliq nomi, uning joylashgan eri (pochta manzili) toʻgʻrisidagi maʼlumotlar koʻrsatilmagan yoxud ular haqida yolgʻon maʼlumotlar koʻrsatilgan murojaat, Shuningdek uni identifikatsiya qilish imkoniyatini bermaydigan elektron murojaat yoxud imzo bilan tasdiqlanmagan yozma murojaat tushuniladi.

JKning 144-moddasi 1-qismida koʻzda tutilgan jinoyat **obyektiv tomondan** quyidagi harakatlar orqali sodir etiladi:

1) jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini qabul qilish va koʻrib chiqishni qonunga xilof ravishda rad etish;

2) jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini koʻrib chiqish muddatlarini uzrli sabablarsiz buzish;

3) jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari yuzasidan yozma yoxud elektron shaklda javob yubormaslik;

4) jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari toʻgʻrisidagi qonun hujjatlariga zid qaror qabul qilish;

5) jismoniy va yuridik shaxslarning buzilgan huquqlari tiklanishini, murojaat munosabati bilan qabul qilingan qarorning bajarilishini taʼminlamaganlik yoki jismoniy shaxslarning shaxsiy hayoti toʻgʻrisidagi yoxud yuridik shaxslarning faoliyati toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni ularning roziligisiz oshkor etish;

6) jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini boshqacha tarzda buzish.

«Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida»gi Qonunining 6-moddasiga ko'ra, murojaatlarga bir qator talablar qo'yilgan. Jumladan, jismoniy shaxsning murojaatida jismoniy shaxsning familiyasi (ismi, otasining ismi), uning yashash joyi to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Yuridik shaxsning murojaatida yuridik shaxsning to'liq nomi, uning joylashgan yeri (pochta manzili) to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Jismoniy va yuridik shaxsning murojaatida davlat organining, tashkilotning aniq nomi, murojaat yuborilayotgan mansabdor shaxsning lavozimi va (yoki) familiyasi (ismi, otasining ismi) ko'rsatilgan, shuningdek murojaatning mohiyati bayon etilgan bo'lishi kerak.

Murojaatlarda murojaat etuvchilarning elektron pochta manzili, aloqa telefonlari va fakslari raqamlari ko'rsatilishi mumkin.

Murojaatlar davlat tilida va boshqa tillarda berilishi mumkin.

Yozma murojaat murojaat etuvchi jismoniy shaxsning imzosi yoki murojaat etuvchi yuridik shaxs vakolatli shaxsining imzosi bilan tasdiqlangan bo'lishi lozim. Jismoniy shaxsning yozma murojaatini murojaat etuvchining imzosi bilan tasdiqlash imkoni bo'lmagan taqdirda, bu murojaat uni yozib bergan shaxsning imzosi bilan tasdiqlanib, uning familiyasi (ismi, otasining ismi) ham qo'shimcha ravishda yozib qo'yilishi kerak.

Murojaat etuvchilarning vakillari orqali berilgan murojaatlarga ularning vakolatlarini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi.

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini qabul qilishni qonunga xilof ravishda rad etish sharhlanayotgan modda nuqtai nazaridan murojaatni qanoatlantirishni rad etish, uni ko'rib chiqishga qabul qilmaslik va tegishincha jismoniy yoki yuridik shaxsning bevosita uning huquq va erkinliklariga doir bo'lgan hujjatlar va materiallar bilan tanishish, ulardan foydalanish yoki ularga egalik qilish huquqini qanoatlantirmaslik haqida vakolatli organ, mansabdor shaxs yoki xalq vakili tomonidan qaror qabul qilinishida namoyon bo'ladi. Bunda rad etishning qonunga xilof

ekanligi uning noqonuniyligini, murojaatlarni ko‘rib chiqish zarurligini belgilovchi normativ hujjatlarga zid ekanini bildiradi.

O‘zbekiston Respublikasining «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida»gi Qonunining 18-moddasiga muvofiq, murojaatlar davlat organlari, tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari tomonidan qabul qilinishi va ko‘rib chiqilishi shart, ushbu Qonunning 29 va 30-moddalarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Jismoniy yoki yuridik shaxs murojaatni qabul qilish va ko‘rib chiqish qonunga xilof ravishda rad etilganligi ustidan bo‘ysunuv tartibida yuqori turuvchi organga yoxud bevosita sudga shikoyat qilishga haqli.

Murojaatning qabul qilinishi va ko‘rib chiqilishini qonunga xilof ravishda rad etish harakat (rad etish haqidagi rezolyutsiya yoki ariza) yoki harakatsizlikda (subyektning o‘z majburiyatini bajarmasligi, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqish huquqlarini poymol qilishida) namoyon bo‘ladi.

Murojaatlarni ko‘rib chiqish muddatlarini uzrli sabablarsiz buzishga asossiz holda murojaatlarni ko‘rib chiqishning qonun bilan belgilangan muddatini buzish, tegishli muassasaga murojaatlarni ko‘rib chiqish uchun o‘z muddatida yubormaslik kiradi. Uzrli sabablar obyektiv xususiyatdagi omillar (yengib bo‘lmas kuch ta’siri) ham, subyektiv xususiyatdagi (masalan, murojaatlarni ko‘rib chiqishga mas’ul shaxsning betobligi) omillar ham bo‘lishi mumkin.

Ariza yoki shikoyat masalani mazmunan hal etishi shart bo‘lgan davlat organiga kelib tushgan kundan e’tiboran o‘n besh kun ichida, qo‘shimcha o‘rganish va (yoki) tekshirish, qo‘shimcha hujjatlarni so‘rab olish talab etilganda esa bir oygacha bo‘lgan muddatda ko‘rib chiqiladi.

Ariza va shikoyatlarni ko‘rib chiqish uchun tekshirish o‘tkazish, qo‘shimcha materiallar so‘rab olish yoxud boshqa chora-tadbirlar ko‘rish zarur bo‘lgan hollarda, ularni ko‘rib chiqish muddatlari tegishli davlat organi rahbari tomonidan istisno tariqasida uzog‘i bilan bir oyga uzaytirilishi mumkin, bu haqda murojaat etuvchiga xabar qilinadi.

Taklif davlat organiga kelib tushgan kundan e’tiboran bir oygacha bo‘lgan muddatda ko‘rib chiqiladi, qo‘shimcha o‘rganishni talab

etadigan takliflar bundan mustasno, bu haqda taklifni kiritgan jismoniy yoki yuridik shaxsga o‘n kunlik muddatda yozma shaklda xabar qilinadi.

«Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 25-moddasiga asosan, qo‘yilgan masalalarni hal etish o‘zining vakolat doirasiga kirmaydigan davlat organiga kelib tushgan murojaatlar besh kunlik muddatdan kechiktirmay tegishli organlarga yuborilib, bu haqda murojaat etuvchiga yozma yoxud elektron shaklda xabar qilinadi.

Murojaatlarni ko‘rib chiqish uchun asossiz ravishda boshqa davlat organlariga o‘tkazish yoxud qarorlari yoki harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilinayotgan organlarga yoki mansabdor shaxslarga yuborish taqiqlanadi.

Agar murojaatlarda ularni tegishli organlarga yuborish uchun zarur ma‘lumotlar mavjud bo‘lmasa, bu murojaatlar murojaat etuvchiga besh kunlik muddatdan kechiktirmay asoslantirilgan tushuntirish bilan qaytariladi.

Murojaatni to‘liq, xolisona va o‘z vaqtida ko‘rib chiqish uchun qo‘shimcha ma‘lumotlar, ma‘lumotnomalar va materiallarga zarurat paydo bo‘lgan taqdirda, mazkur murojaatni ko‘rib chiqayotgan davlat organining mansabdor shaxsi murojaat etgan jismoniy yoki yuridik shaxsdan, shuningdek o‘z vakolatlari doirasida boshqa davlat organlaridan qo‘shimcha axborotni so‘rab olishi mumkin.

Agar axborot davlat sirini yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan bo‘lmasa, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlariga, jamiyat va davlat manfaatlariga zarar yetkazmasa, davlat organlari, ularning mansabdor shaxslari o‘zlaridan so‘ralayotgan axborotni o‘n kun ichida taqdim etishi shart.

«Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining talablariga muvofiq, kelib tushgan har bir murojaatga javob yuborilishi shart. Murojaatga javobni davlat organining rahbari yoki boshqa vakolatli mansabdor shaxsi imzolaydi. Mazkur tartibda murojaat qilgan jismoniy yoki yuridik

shaxsga javob yubormaslik murojaatlar yuzasidan yozma yoxud elektron shaklda javob yubormaslik sifatida baholanadi.

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risidagi qonun hujjatlariga zid qaror qabul qilish – bu murojaatdagi masalaning amaldagi qonunchilik normalarini buzgan holda hal qilinishidir.

Jismoniy va yuridik shaxslarning buzilgan huquqlari tiklanishini, murojaat munosabati bilan qabul qilingan qarorning bajarilishini ta'minlamaganlik yoki jismoniy shaxslarning shaxsiy hayoti to'g'risidagi yoxud yuridik shaxslarning faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni ularning rozilgisiz oshkor etish murojaatlarni ko'rib chiqish jarayonida aniqlangan har qanday jismoniy yoki yuridik shaxsning shaxsiy hayotiga tegishli bo'lgan ma'lumotlarni, uning shunday murojaat qilgan yoki qilmaganidan qat'i nazar, tarqatishdan iborat bo'ladi.

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini boshqacha tarzda buzish deganda murojaatni ko'rib chiqishni yuqorida qayd etilgan holatlardan tashqari boshqa holatlarda buzish, jumladan, murojaat qilganlik munosabati bilan jismoniy yoki yuridik shaxsning ahvolini yomonlashtiradigan choralarni ko'rish va hokazolar tushuniladi.

JKning 144-moddasi 1-qismida ko'rsatilgan jismoniy yoki yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish turlari ro'yxati ochiq bo'lib, jismoniy yoki yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzilganda har bir holatda aybdor tomonidan huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi normativ hujjatlarning aynan qaysilari buzilganini aniqlash lozim.

JKning 144-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyat moddiy tarkibli jinoyatdir. Ya'ni, qilmish jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlariga, erkinliklariga yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga yoxud jamiyat va davlat manfaatlariga jiddiy ziyon yetkazilgan vaqtdan boshlab, tamom bo'lgan deb topiladi. Jismoniy yoki yuridik shaxslarning huquqlari yoki jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga yetkaziladigan ziyonning jiddiyligi

to'g'risidagi masalani hal qilish jarayonida jismoniy yoki yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilishi natijasida kelib chiqadigan oqibatlar xususiyati hamda ma'naviy zarar, yuridik shaxsning obro'siga yetkazilgan ziyonning ahamiyati, moddiy zarar hajmi, shaxsning mehnat qilish, shaxsiy, huquqiy va nomulkiy va mulkiy bo'lmagan huquq va manfaatlarining cheklanganlik darajasi inobatga olinishi kerak.

Jismoniy yoki yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish ishlari bo'yicha har bir alohida olingan holatda aybdorning qilmishlari va JKning 144-moddasi 1-qismi dispozitsiyasida ko'rsatilgan kelib chiqqan oqibatlar o'rtasidagi sababiy bog'lanishni aniqlab olish kerak.

JKning 144-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan jinoyatning **obyektiv tomoni** jismoniy shaxsni, uning vakilini, ularning oila a'zolarini, yuridik shaxsni, uning vakilini va yuridik shaxs vakilining oila a'zolarini ular davlat organiga, davlat muassasasiga yoki jismoniy yoki yuridik shaxslarning o'zini o'zi boshqarish organlariga murojaat qilganligi munosabati bilan yoxud bildirilgan fikri va murojaatidagi tanqid uchun, xuddi Shuningdek boshqacha shaklda tanqid qilganligi uchun mansabdor shaxs tomonidan ta'qib etishdan iborat.

Ta'qib etish deganda, mansabdor shaxs tomonidan jismoniy yoki yuridik shaxs davlat organlariga yoki boshqa muassasalariga murojaat qilganligi yoki uning murojaatida bayon etilgan tanqidi uchun ushbu shaxsning mehnat, turar joy, mulkiy va boshqa huquqlarini yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini cheklashni tushunish lozim (masalan, noqonuniy ishdan bo'shatish, kam ish haqi to'lanadigan ishga asossiz o'tkazish, taqdim etilishi lozim bo'lgan imtiyozlardan mahrum etish va hokazo).

JKning 144-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan jinoyat ta'qib qilingan paytdan boshlab **tugallangan** deb topiladi.

Jismoniy yoki yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risidagi qonun hujjatlari mansabdor shaxs tomonidan g'arazgo'ylik yoki boshqa shaxsiy manfaatlarni ko'zlab qasddan buzilishi natijasida jismoniy yoki yuridik shaxslarning huquqlari yoki jamiyat va davlatning qonun

bilan qo‘riqlanadigan manfaatlariga jiddiy zarar yetkazilgan hollarda qilmish ish holatlariga qarab JKning 205 yoki 206-moddalari bo‘yicha kvalifikatsiya qilinishi zarur.

Subyektiv tomondan jinoyat to‘g‘ri qasd bilan sodir etiladi.

JKning 144-moddasi 1-qismi bo‘yicha jinoyatning **subyektiv** 18 yoshga to‘lgan, aqli raso jismoniy shaxs bo‘lishi mumkin. JKning 144-moddasi 2-qismi bo‘yicha esa, faqatgina mansabdor shaxs subyektiv bo‘lishi mumkin.

6-§. Vijdon erkinligini buzish (JK 145-moddasi)

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasiga ko‘ra, hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e‘tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e‘tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi¹.

O‘zbekiston Respublikasi JKning 145-moddasi Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi Xalqaro Paktning 18-moddasi 1-qismi va Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 18-moddasiga to‘la mos keladi. Ularda har bir inson fikrlash, vijdon va din erkinligiga egaligi belgilangan.

Vijdon erkinligini buzish jinoyatining **asosiy bevosita obyektiv** Konstitutsiya bilan kafolatlangan vijdon va e‘tiqod erkinligini, diniy

¹Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси: Ўн иккинчи чакириқ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ўн биринчи сессиясида 1992 йил 8 декабрда қабул қилинган. (2002 йил 27 январда ўтказилган умумхалқ референдуми натижаларига кўра ҳамда унинг асосида Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 24 апрелда қабул қилинган Қонунига мувофиқ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси XVIII, XIX, XX, XXIII бобларига ўзгартиришлар ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2007 йил 11 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 89-моддасига, 93-моддасининг 15-бандига, 102-моддасининг иккинчи қисмига тузатишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2008 йил 25 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 77-моддасининг биринчи қисмига ўзгартириш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2011 йил 12 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 90-моддасининг иккинчи қисмига тузатиш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 16 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 32, 78, 93, 98, 103 ва 117 моддаларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 6 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 4-бандига, 81-моддасининг еттинчи қисмига, 83-моддасига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13 ва 14- бандларига, 107-моддасининг биринчи қисмига, 110-моддасининг биринчи ва учинчи қисмларига, 111-моддасига ўзгартишлар ва қўшимча киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 31 майда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 5 ва 12-бандларига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13-бандига ҳамда 108, 109-моддаларига ўзгартишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 29 августда қабул қилинган қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 99 ва 10-моддаларига ўзгартишлар киритилган.) – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 13 б.

tashkilotlarning qonuniy faoliyatini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. **Qo'shimcha bevosita obyekt** bo'lib fuqarolar sog'ligi himoyasi bo'yicha ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

JK 145-moddasi jinoyat tarkibining uchta turini nazarda tutadi.

Obyektiv tomondan JK 145-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyat diniy tashkilotning qonuniy faoliyatiga yoki diniy marosimlarni o'tkazishga to'sqinlik qilishda namoyon bo'ladi.

Qarshilik ko'rsatish diniy muassasalarning faoliyatiga to'sqinlik qilishda (masjid va cherkovlarni yopib qo'yish) yoki diniy marosimlarni o'tkazishga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan harakatlarni sodir etish (nikoh o'qish, sunnat qilish, janoza o'qish yoki marhumni dafn etish va hokazolar) da ifodalanishi mumkin.

Qonun chegarasida amalga oshirilayotgan va fuqarolarning huquqlarini poymol qilishga yo'l qo'yilmaydigan diniy marosimlarni o'tkazishga to'sqinlik qilish holati jinoyat hisoblanadi.

NOTA BENE !

Vijdon erkinligi diniy marosimlarni faqat qonun chegarasida amalga oshirishni nazarda tutadi.

Agar diniy faoliyat fuqarolarning o'z konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishga yoki fuqarolik majburiyatlarini bajarishga qarshilik ko'rsatish bilan sodir etilgan bo'lsa yoki diniy marosimlarni o'tkazish biror kishining badaniga shikast yetkazilishini keltirib chiqarsa, aybdorning qilmishida mazkur jinoyat tarkibi bo'lmaydi.

NOTA BENE !

Diniy marosimlar deganda, diniy ta'limot, toat-ibodat qilish va boshqa urf-odatlar (masalan, cho'qintirish, sunnat qilish, nikoh o'qitish, dafn marosimi va hokazo) ni, ma'lum bir timsoliy harakatlarni ko'pchilik bilan amalga oshirishni tushunish lozim.

Diniy tashkilotlarning qonuniy faoliyatiga yoki diniy marosimlarni bajarishga qarshilik ko'rsatishga qaratilgan harakat sodir etilgan vaqtdan boshlab, JK **145-moddasi 1-qismida** nazarda tutilgan jinoyat **tugallangan** deb hisoblanadi.

JK **145-moddasi 2-qismida** nazarda tutilgan jinoyatning **obyektiv tomoniga** Voyaga yetmagan fuqarolarni o'z xohishiga qarshi, ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar xohishiga qarshi diniy tashkilotlarga jalb qilish hamda diniy ta'limotlarini o'rgatish kiradi.

Voyaga yetmagan shaxslarni diniy tashkilotlarga noqonuniy tarzda jalb qilishga turli yo'llar bilan diniy tashkilotlarning faoliyatida ishtirok etishga (aldash, moddiy rag'bat va'da qilib, o'ch olish, qo'rqitish, qasos olish tuyg'usini singdirish, ko'raolmaslik yoki boshqa sabablarni ko'rsatib) majburlash yoki ko'ndirish holatlari kiradi.

Ko'ndirishda aybdor Voyaga yetmagan shaxsdan turli yo'l bilan ota-onasining yoki ularning o'rnidagi shaxslar xohish-istaklariga qarshi biror-bir diniy tashkilot faoliyatida ishtirok etish istagini vujudga keltirishga harakat qiladi. **Majburlash** deganda, 18 yoshga etmagan shaxsni o'z xohishiga qarshi diniy tashkilot faoliyatida ishtirok etishga majbur qilish tushuniladi.

Noqonuniy tarzda diniy ta'limot o'rgatish – bu Voyaga yetmagan shaxslarning o'z istagiga qarshi, ota-onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning xohish-istagiga qarshi din haqidagi turli bilimlarni singdirishga harakat qilishdir.

JK **145-moddasi 2-qismida** nazarda tutilgan jinoyat Voyaga yetmagan shaxslarni diniy tashkilot faoliyatida ishtirok etishga ko'ndirish yoki noqonuniy tarzda o'z istagiga qarshi dinga o'rgatish holatlari sodir etilgan paytdan boshlab **tamomlangan** hisoblanadi.

JKning **145-moddasi 3-qismida** nazarda tutilgan vijdon erkinligini buzishning obyektiv tomoni diniy faoliyatning:

– fuqarolarning o'z fuqarolik huquqlarini amalga oshirishlari yoki fuqarolik burchlarini bajarishlariga (masalan dam olish huquqi, kasbiy burch, ota-onalar burchi va hokazo) to'sqinlik qilish;

– majburiy badallar yig‘ish va dindorlardan pul yig‘ish yoki inson sha‘nini va qadrini poymol qiluvchi choralarni qo‘llash (masalan, diniy marosimlarga faqat moddiy hissa qo‘shish, qurbonlik qilish sharti bilan qatnashishga ruxsat berish, u yoki bu diniy qonun-qoidalarni buzganlarga nisbatan «Jarima sanksiyalarini» qo‘llash yoki shaxs sha‘ni, qadr-qimmatini poymol qilish darajasida muomala qilish);

– diniy ta‘limot olish va fuqaro tomonidan dinga bo‘lgan munosabati, dinga e‘tiqod qilishi yoki qilmasligi, diniy marosimlar va tadbirlarda ishtirok etishi yoki ishtirok etmasligiga majburlash (bu holatda majburlash qoida bo‘yicha jabrlanuvchiga ruhiy ta‘sir o‘tkazish, ko‘ndirish, tahdid qilish yoki ko‘rsatilgan amallarni bajarishga majbur bo‘ladigan sharoit yaratish yo‘li bilan amalga oshiriladi);

– badanga yengil yoki o‘rtacha og‘ir shikast yetishiga olib keladigan diniy marosimlarni (masalan, insonning biror a‘zosiga ozor berish, uzoq vaqt ochlikda saqlash yoki JKning 105- yoki 109-moddalarida nazarda tutilgan oqibatlariga olib kelgan qiynoqni amalga oshirish) o‘tkazishni tashkil qilish bilan izohlanadi.

(«Yengil tan jarohatlari» yoki «o‘rtacha og‘irlikdagi tan jarohatlari» tushunchalari haqida JKning 105- va 109-moddalari tahlilida berib o‘tilgan.)

JK 145-moddasi 3-qismida nazarda tutilgan jinoyat, shikast yetgan vaqtdan boshlab tamomlangan deb topiladigan yengil yoki o‘rtacha og‘irlikdagi tan jarohatlari yetishiga olib keladigan diniy marosimlarni tashkil etish kabi harakatlardan birini sodir etilgan vaqtdan boshlab **tamomlangan** deb topiladi.

Subyektiv tomondan JKning 145-moddasida nazarda tutilgan jinoyat **to‘g‘ri qasddan** sodir etiladi. Aybdor o‘z harakatlarining ijtimoiy xavfliligini anglaydi va ularni amalga oshirishni xohlaydi. JK 145-moddasi 3-qismida nazarda tutilgan yengil yoki o‘rtacha og‘irlikdagi tan jarohatlari yetishiga olib keladigan diniy marosimlarni o‘tkazishni tashkil qilishda vijdon erkinligini buzish jinoyati mustasnodir. Ushbu jinoiy harakat aybning murakkab shaklida

ifodalanadi. Agar aybdor ko'rsatilgan oqibatlarining kelib chiqishini xohlasa sodir etilgan harakatni JKning 105- yoki 109-moddalariga binoan kvalifikatsiya qilish kerak.

Jinoyatni kvalifikatsiya qilish uchun **motiv** va **maqsad** ahamiyatga ega emas.

Jinoyatning **subyekt**i 16 yoshga to'lgan aqli raso jismoniy shaxs bo'lishi mumkin.

Mansabdor shaxs turli usullar bilan fuqarolarning vijdon erkinligi va e'tiqod qilish huquqini bajarishga o'z lavozimidan foydalangan holda to'sqinlik qilsa, uning harakatlarini aniq holatdan kelib chiqib JK 205-moddasi «Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish» va 206-moddasi «Hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish» bo'yicha kvalifikatsiya qilish lozim.

7-§. Saylov yoki referendum tashkil qilish, ularni o'tkazish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish (JK 146-moddasi)

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 9-moddasiga binoan: «Jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etiladi, umumiy ovozga (referendumga) qo'yiladi. Referendumni o'tkazish tartibi qonun bilan belgilanadi¹.

NOTA BENE !

Referendum –bu davlat hayotining eng muhim masalalari bo'yicha umumxalq ovozi orqali qonunlarni yoki boshqa qarorlarni qabul qilish.

Saylovlarni o'tkazish tartibi saylovlar to'g'risidagi qonunlar bilan belgilanadi. Saylov jarayoni murakkab jarayon bo'lib, bir necha pog'onalarda amalga oshiriladi: nomzodlarni ko'rsatish, ularni ro'yxatga olish, tashviqot olib borish, ovoz berish, saylov yoki referendum natijalarini aniqlash, ularni e'lon qilish.

¹Ўша жойда. – 6 б.

Jinoyatning **bevosita obyekti bo'lib**, fuqarolarning ham aktiv, ham passiv saylov huquqidan, referendumda ishtirok etish huquqi hamda o'rnatilgan tartibda saylov va referendum o'tkazish huquqidan foydalanishini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Obyektiv tomondan JKning 146-moddasida nazarda tutilgan jinoyat quyidagi harakatlarning birida ifodalanadi: saylov yoki referendum o'tkazishda, tashkil qilishda, ovoz berish yashirinligini buzish, ovoz berish byulletenlari yoki imzo varaqalariga soxta yozuvlarini kiritish, bila turib ovozlarni noto'g'ri hisob-kitob qilish.

NOTA BENE !

Ovoz berish yashirinligini buzish referendum yoki saylov qatnashchilarining o'zlarining saylov huquqlarini yoki referendumda qatnashish huquqlarini amalga oshirishlariga to'sqinlik qilishdir. Boshqa so'zlar bilan aytganda, bu saylovchilar, referendum qatnashchilarining o'z erkini ifoda etishi ustidan nazorat o'rnatish yoki nazorat o'rnatishga harakat qilishdir. Masalan, fuqarolarni yashirin ovoz berish imkoniyatidan mahrum qilish maqsadida ovoz berish jarayonini kuzatish, ochiq ovoz berish kabinalarini jihozlash va boshqalar.

NOTA BENE !

Saylov yoki referendum hujjatlariga saylov byulletenlari, imzo varaqalari, ovoz berish uchun ro'yxatlar va saylov kampaniyasining boshqa materiallari kiradi.

NOTA BENE !

Saylov yoki referendum hujjatlarini almashtirish deganda, hujjatning asl nusxasini qalbakisiga almashtirib qo'yishni tushunish kerak.

Byulletenlar yoki imzo varaqalariga **soxta yozuvlarni kiritish** deganda, asl hujjatlarga boshqa yozuvlarni kiritish natijasida hujjatni buzish tushuniladi.

Imzo varaqalari yoki byulletenlariga soxta ma'lumot kiritish deganda, ularga haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlar kiritish tushuniladi.

Bila turib ovozlarni noto'g'ri hisoblash deganda, saylov yoki referendumda berilgan ovozlar natijalarini u yoki bu nomzod foydasiga qasddan buzib ko'rsatish tushuniladi.

Saylov yoki referendumni tashkil etish, o'tkazish to'g'risidagi qonunni buzishga qaratilgan harakatlarning birortasi sodir etilish vaqtidan boshlab, JKning 146-moddasida ko'rsatilgan jinoyat **tamomlangan** hisoblanadi.

Subyektiv tomondan bu jinoyat **to'g'ri qasddan** sodir etiladi. Saylovni tashkil qilish va o'tkazish to'g'risidagi qonunchilikni buzib, subyekt harakatlarining ijtimoiy xavfli ekanligini, saylov yoki referendum natijalarining buzilishi mumkinligini anglaydi va buni istab harakat qiladi.

Ko'rsatilgan jinoyatning **maqsadi** – saylovchilar yoki referendum qatnashchilarining irodasi va istagiga xilof ravishda saylov yoki referendum natijalarini soxtalashtirib, kerakli natijaga erishishdir.

Jinoyat **motivi** kvalifikatsiyada ahamiyatga ega emas.

Jinoyat **subyeksi** maxsusdir. Qonunda belgilanganidek, faqat (18 yoshga yetgan) mansabdor shaxslar jinoyat subyeksi bo'la oladi, ya'ni siyosiy partiyalar yoki fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari vakillari, tashabbuskor guruhlar yoki saylov komissiyalari yoxud referendum komissiyalari a'zolari jinoyatning subyeksi bo'lishlari mumkin.

Ko'rsatilgan barcha shaxslar amaldagi saylov qonunchiligiga muvofiq vakolatlarga ega bo'lishlari kerak. Faqat shu holatdagina ular **JK 146-moddasi** bo'yicha javobgar bo'la oladi. Bunday hollarda JK 205- va 206-moddalari bo'yicha qo'shimcha kvalifikatsiya talab qilinmaydi. Mansabni suiiste'mol qilish yoki vakolat doirasidan chetga chiqish holatlari (JK 146-moddasida ko'rsatilgan harakatlardan tashqari) boshqa ko'rinishlarda amalga oshsa JKning 146-, 205- yoki 206-moddalari bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Ko‘rilayotgan jinoyat ishtirokchilikda sodir etilishi mumkin. Agar jinoyatning ko‘rilayotgan tarkibi subyektlari maxsus subyekt bo‘lmagan boshqa shaxslar bilan til biriktirib, harakat qilishgan bo‘lsa, JK 28-moddasi va **146-moddasi** bo‘yicha tashkilotchi, dalolatchi va yordamchilar sifatida javobgarlikka tortiladi.

8-§. Saylov huquqining yoki ishonchli vakil vakolatlarining amalga oshirilishiga to‘sqinlik qilish (JK 147-moddasi)

Mazkur norma Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi Xalqaro Paktning 25-moddasiga muvofiq bo‘lib, unda: «Har bir fuqaro biror-bir kamsitishlarsiz va asossiz cheklashlarsiz quyidagi huquq va imkoniyatga ega bo‘lishi kerak:

a) erkin ovoz berishini ta‘minlaydigan yopiq ovoz berishda umumiy teng saylov huquqi asosida ovoz berish va saylanish huquqiga».

Jinoyatning **bevosita obyektiga** fuqarolarning saylash yoki saylanish, saylov va referendumda erkin ishtirok etish, saylovoldi tashviqot olib borish, deputatlikka yoki O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod shaxsning ishonchli vakillari sifatida o‘z vakolatlarini erkin amalga oshirish huquqini ta‘minlovchi ijtimoiy munosabatlar kiradi.

JK 147-moddasida nazarda tutilgan jinoyat **obyektiv tomondan** zo‘rluk ishlatish, aldash, qo‘rqitish yoki og‘dirib olish yo‘li bilan fuqaroning saylov huquqlarini erkin amalga oshirishda to‘sqinlik qilishda yoki deputatlikka yoxud O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod shaxslarning ishonchli vakillari vakolatlarini amalga oshirishga yo‘l qo‘ymaslikda ifodalanadi.

To‘sqinlik qilish qasddan, harakat yoki harakatsizlik orqali amalga oshirilishi mumkin. Bunda fuqarolarning saylov huquqlarini amalga oshirish erkinligini buzadigan harakatlar qasddan sodir etiladi, jumladan, fuqaroning saylovda yoki referendumda ishtirok etish yoki ishtirok etmaslik huquqi, ma‘lum deputatlikka nomzodga qarshi tashviqot qilish yoki qilmaslik, referendumga qo‘yilgan masala bo‘yicha ovoz berish yoki bermaslik, biror-bir nomzodga qarshi ovoz berish, barcha

nomzodlarga qarshi ovoz berish va hokazo (passiv saylov huquqi); O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga, davlat hokimiyati organlariga yoki mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlariga saylanish huquqi va bu bilan bog'liq qonunchilikda ko'rsatilgan saylovda qatnashish bo'yicha huquqlari yig'indisi (aktiv saylash huquqi) va boshqalar.

Bu saylovoldi tashviqotini amalga oshirish uchun qasddan sun'iy to'sqinliklarni; nomzodlarni ro'yxatga olishda qonunchilikda asoslanmagan turli to'siqlar va bahonalarni; saylov uchastkalariga kirish uchun to'siqlarni (masalan, harbiy qism komandiri harbiy xizmatchini saylov huquqidan foydalanishi uchun ruxsat bermasligi) vujudga keltirish kabi harakatlarda yuzaga kelishi mumkin.

Mazkur jinoyat ovoz berish istagini bildirgan kasalga saylov qutisini bermaslik yoki unga saylov byulletenlarini bermaslik, saylovchini tegishli ro'yxatga kiritmaslik kabi harakatsizliklar bilan sodir etilishi mumkin.

JK 147-moddasi dispozitsiyasida ko'rilayotgan jinoyatning **zaruriy belgisi** zo'rlik ishlatish, qo'rqitish yoki og'dirib olish yo'li bilan amalga oshadigan to'sqinlik qilishdir.

Zo'rlik ishlatish deganda, jabrlanuvchiga uni saylov huquqlarini amalga oshirishga ishonchli vakil sifatida ishtirok etishiga to'sqinlik qiluvchi har qanday ta'sir o'tkazish tushuniladi (kaltaklash, do'pposlash, g'ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum etish, badanga yengil yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazish).

Agar jabrlanuvchiga og'ir shikast yetkazilsa, aybdor harakati JK 104-moddasi va 147-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Qo'rqitish jabrlanuvchiga ruhiy ta'sir o'tgazishda, ya'ni agar u saylovda ishtirok etib o'z huquqini amalga oshirsa, ovoz bersa yoki saylovoldi tashviqoti olib borsa, uning yoki qarindoshlarining qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga (hayoti, sog'ligi, mulki, sha'ni, qadr-qimmat va boshqalarga) zarar yetkazish niyati bildirilgan (yozma, og'zaki, imo-ishora bilan) xabarlarda ifodalanadi.

Ushbu jinoyatni sodir etish usuli sifatida **aldash** deganda, bila turib shaxsni referendumda, Prezident saylovlarida, saylovoldi tashviqotlari olib borish huquqiga nisbatan noto'g'ri axborotlar berib yanglishtirish,

ovoz berish joyi, vaqti, tartibi va hokazolar to'g'risida noto'g'ri xabarlar berish tushuniladi. Bunday aldash saylovchilarga, referendum qatnashchilariga va ishonchli vakillarga berilishi kerak bo'lgan ma'lumotlar haqida indamaslik, nomzod shaxsiga, saylovchilar bilan uchrashuv o'tkazish vaqti va joyiga, saylov vaqti va joyi, ovoz berish vaqti, byulletenlarni to'ldirish tartibi yoxud saylovoldi kampaniyasi yoki saylovda erkin ishtirok etishi uchun bilishi zarur bo'lgan ma'lumotlarga oid bo'lishi mumkin.

Og'dirib olish deganda, shaxsning saylovoldi kampaniyasida yoki saylovlarda qatnashmasligi uchun taqdirlash yoki biror mulkiy imtiyozlar yoki ne'matlarni taqdim etishga va'da berish tushuniladi (masalan, saylovoldi kampaniyasi, saylov yoki referendumda ishtirok etmaslik, muayyan shaklda ovoz berish, saylov komissiyasining ishiga to'sqinlik qilish, o'z nomzodini qaytarib olish uchun).

Ba'zan og'dirish qonunning va hatto insonparvarlik harakatlari ostiga yashiringan holda amalga oshirilishi mumkin. Masalan, kasbi tadbirkor bo'lgan nomzod saylov kampaniyasi o'tkazilayotgan vaqtda o'z hisobidan kam ta'minlangan saylovchilarga moddiy yordam berishi, saylovchilar uy-joylarini bepul ta'mirlatib berishi mumkin va hokazo.

Jinoyat JK 147-moddasi dispozitsiyasida sanab o'tilgan birorta harakatni sodir etish vaqtidan boshlab **tamomlangan** deb topiladi. Bunga fuqaroning ovoz berishda, saylovda yoki saylanishda saylovoldi tashviqotida qatnashuviga amalda chinakamiga to'sqinlik qilingan-qilinmaganligining ahamiyati yo'q.

Subyektiv tomondan JK 147-moddasida nazarda tutilgan jinoyat **to'g'ri qasddan** sodir qilinadi. Aybdor saylov huquqini amalga oshirishga ishonchli vakillarning vakolatlariga qarshilik qilish maqsadida jabrlanuvchiga nisbatan zo'rlik, tahdid ishlatayotganini, uni aldayotganini yoki og'dirayotganini biladi va shu harakatlarni amalga oshirishni xohlaydi. Sodir etilgan harakatning motivi kvalifikatsiya uchun ahamiyatga ega emas.

16 yoshga yetgan aqli raso har qanday jismoniy shaxs ushbu jinoyatning **subyekt**i bo'lishi mumkin.

Mansabdor shaxs tomonidan mazkur jinoyat sodir etilgan va boshqa zarur belgilar mavjud bo'lganda qilmishni JK 205- yoki 206-moddalarida ko'rsatilgan jinoyatlar bilan jinoyatlar majmui sifatida kvalifikatsiya qilish kerak.

9-§. Mehnat qilish huquqini buzish (JK 148-moddasi)

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 37-moddasida fuqarolarning mehnat qilish huquqi muhofaza qilinadi. Ya'ni, unda: «har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalanih huquqiga egadir»¹, deb yozib qo'yilgan.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 23-moddasida «har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli va qulay sharoitlarda bo'lish va ishsizlikdan himoyalanih huquqiga egadir», deb ta'kidlanadi.

JK 148-moddasida ko'rsatilgan jinoyatning **bevositaobyekti** bo'lib, fuqarolarning, shuningdek, homilador ayollarning yoki 3 yoshgacha farzandlari bo'lgan ayollarning ishga joylashish, shu toifadagi ayollarning mehnat huquqini amalga oshirishni ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Ishdan g'ayriqonuniy ravishda bo'shatish yoki ishga tiklash to'g'risidagi sud qarorini bajarmaslik, shunday qilmish uchun ma'muriy javobgarlikka tortilgandan so'ng sodir etilgan bo'lsa, qilmish **JK 148-moddasi 1-qismida** nazarda tutilgan jinoyatning **obyektiv tomoni** hisoblanadi.

NOTA BENE !

Shaxsni **qonunga xilof ravishda** bila turib **ishdan bo'shatish** — mehnat qonunida nazarda tutilgan asoslarning bo'lmasligi yoki ishdan bo'shatishning belgilangan tartibiga rioya qilmasdan amalga oshirilganligidir.

¹Ўша жойда. 15-б.

JK 148-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan jinoyatning **obyekti** ayolni homiladorligi yoki yosh bola parvarish qilayotganligini bila turib, uni ishga olishdan g'ayriqonuniy ravishda bosh tortish yoki ishdan bo'shatish hisoblanadi.

Jinoiy javobgarlikning boshlanishi uchun homiladorlik muddatining ahamiyati yo'q. **JK 148-moddasi 2-qismida** ko'rsatilgan harakatlar, masalan, bo'sh ish o'rinlarining zarur blankalar, hujjatlar, tavsifnomalarning yo'qligi bahonasi bilan yoki ish shtatlarining qisqarayotgani yoki ishlab chiqarish samaradorligining pastligi va h.k. sabab qilib ko'rsatilishi bilan sodir etilishi mumkin.

Ko'rilayotgan jinoyatning obyektiv tomoni faqat harakat ko'rinishida sodir etilishi mumkin va biror-bir hujjat bilan yuridik tasdiqlangan bo'lishi shart emas.

Bu harakat og'zaki ko'rinishda ishga qabul qilishdan bosh tortishda yoki ishdan bo'shatishda, masalan, ishga qo'yishni cheklab qo'yishda namoyon bo'ladi.

JK 148-moddasining 1- va 2-qismida nazarda tutilgan jinoyat ularda nazarda tutilgan qilmishning birini sodir etilishi bilan **tamom bo'lgan** hisoblanadi va biror oqibat kelib chiqishini talab qilmaydi. Kelib chiqqan oqibatlar jazo tayinlanayotgan vaqtda inobatga olinishi mumkin.

Aybdor qonunda belgilanganidek, fuqaroning mehnat qilish va ishga joylashish huquqini asossiz ravishda buzayotganini biladi va xuddi shunday yo'l tutishni istaydi.

Subyektiv tomondan jinoyat to'g'ri qasd bilan amalga oshiriladi. Aybdor, qonunda ko'rsatilganidek, fuqaroning mehnat qilish huquqini sabablarsiz buzayotganligini biladi. Jinoyatni kvalifikatsiya qilish uchun **motiv** va **maqsadning** ahamiyati yo'q. Qoida bo'yicha, bu ma'lum shaxslarning ish joyida bo'lishini xohlamaslik yoki ularni ishga olmaslikda ifodalanadi.

Jinoyatning subyekti 16 yoshga yetgan aqli raso, jismoniy shaxs, ya'ni ishga qabul qilish yoki ishdan bo'shatish huquqiga ega bo'lgan shaxs bo'lishi mumkin, ya'ni maxsus subyekt. Ammo, bu yerda ishtirokchilik ham bo'lishi mumkin, masalan, yirik tashkilotlarda mehnat munosabatlari bilan bog'liq masalalar odatda bo'linma tomonidan hal

qilinadi. Agar rahbar, masalan, homilador ayolni ishga qabul qilmaslik haqida ko'rsatma bersa, u JK 28-moddasi 4-qismi bo'yicha (dalolatchi sifatida) javobgarlikka tortiladi. Agar rahbar shunday ko'rsatmani o'z qo'l ostidagilarga, aniq shaxsga nisbatan bersa, u qilmishi uchun bajaruvchi sifatida javobgarlikka tortiladi.

10-§. Mualliflik yoki ixtirochilik huquqlarini buzish (JK 149-moddasi)

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida: «Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutug'laridan foydalanish huquqi kafolatlanadi» (42-modda) va bu esa ijodiy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni qo'riqlash zaruratini keltirib chiqaradi¹.

Fuqarolarning tafakkur mulki, xususan, mualliflik va ixtirochilik huquqini himoya qilishga oid va Konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar ushbu jinoyatning **bevosita obyekti** bo'lib hisoblanadi.

Jinoyatning **predmeti**, tabiiyki, tafakkur mulki obyektlaridir. Bu obyektlar nomoddiy obyekt sifatida qo'riqlanadi. Ba'zan bu obyektlar moddiy obyektlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

NOTA BENE !

Tafakkur, intellektual mulk obyektlari jumlasiga, intellektual faoliyat natijalari, fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining tovarlar, ishlar va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalar hamda Fuqarolik kodeksida va boshqa qonunlarda nazarda tutilgan hollarda intellektual faoliyatning boshqa natijalari hamda fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlar va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalar kiradi.

Intellektual faoliyat natijalariga fan, adabiyot va san'at asarlari, ixtirolar, fonogrammalar, efir yoki kabel orqali ko'rsatuv yoki eshittirish

¹Ўша жойда.16-б.

beruvchi tashkilotlarning ko'rsatuvlari yoki eshittirishlari; elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalari, ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari, seleksiya yutug'lari; oshkor etilmagan axborot, shu jumladan, ishlab chiqarish sirlari (nou-xau) kiradi.

NOTA BENE !

Asar – inson ijodiy faoliyatining o'ziga xos natijasidir. U og'zaki, yozma, ovozli yoki video-yozuv, tasvir, hajmli-fazoviy yoxud boshqa obyektiv shakllarda ifodalanadi. Fan, adabiyot va san'at asarlari jumlasiga adabiy asarlar (adabiy, badiiy, ilmiy, o'quv, publitsistik va boshqa asarlar), drama va ssenariy, musiqa, xoreografiya asarlari, pantomimalar, audiovizual, rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika, dizayn asarlari va tasviriy san'atning boshqa asarlari, manzarali-amaliy va sahna bezagi asarlari, fotografiya asarlari, xaritalar, fanning turli sohalariga oid tarhlar, eskizlar va asarlar, EHM uchun dasturlar va boshqalar kiradi.

NOTA BENE !

Sanoat mulki obyekti deganda, ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari tushuniladi.

Ixtiro – bu istalgan sohadagi biror narsaga nisbatan (masalan, jihoz, mikroorganizmlar shtammi, o'simliklar va hayvonlar tana hujayralari tarkibi), uning usuliga (moddiy obyekt ustidan moddiy vositalar yordamida sa'y-harakatlar sodir etilishi jarayoni) daxldor bo'lgan texnik yechimdir.

Foydali model – bu yangi moslamalarning qo'llaniluvchi, konstruksiyaviy bajarilishidir.

Sanoat namunasi – bu mahsulotning tashqi ko'rinishini belgilovchi, yangi va o'zgacha badiiy-konstruktiv yechimdir.

Sanoat mulki obyekti muallifi deganda, shu mulkni ijodiy mehnati bilan bunyod qilgan jismoniy shaxs tushuniladi. Agar sanoat mulki

obyekti bir necha jismoniy shaxs tomonidan birgalikdagi ijodiy mehnat mahsuli natijasida vujudga kelgan bo'lsa, ijodkorlarning barchasi, agar ular orasida boshqacha kelishuv bo'lmasa, teng huquqli hammuallif hisoblanadilar¹.

Ilm-fan, adabiyot, san'at asarlari yoki sanoat mulki obyekti muallifi (hammuallifi)ga texnik, tashkiliy yoki moddiy yordam ko'rsatgan yoki mualliflik huquqini olish va undan foydalanishga yordam bergan, lekin shaxsan ijodiy hissa qo'shmagan jismoniy shaxslar muallif (hammuallif) hisoblanmaydilar.

Obyektiv tomondan 149-moddada nazarda tutilgan jinoyat tafakkur mulki obyektiga nisbatan mualliflik huquqini o'zlashtirib olish, hammualliflikka majburlash, shuningdek, tafakkur mulki obyektlari to'g'risidagi ma'lumotlarni ular rasman ro'yxatdan o'tkazilgunga yoki e'lon qilingunga qadar muallifning roziligisiz oshkor qilishda ifodalanadi.

Mualliflikning boshqa shaxs tomonidan **o'zlashtirilishi (plagiat²)** deyilganda quyidagilarni tushunish lozim:

1) asarni ommalashtirish (kitobni nashr qilish, kompakt-disk, kompyuter programmalari, ma'lumotlar manbalarini tayyorlash va h.k.);

2) asar nusxalarini tarqatish (sotish, almashtirish, ijaraga topshirish va h.k.);

3) asar nusxalarini tarqatish maqsadida import (O'zbekiston hududiga olib kirish) qilish;

4) asarni omma oldida namoyish qilish (asarlarni ko'rgazmada namoyish etish va h.k.);

5) asarni omma oldida ijro etish (qo'shiqni omma oldida ijro etish, teatrdan pyesani sahnalashtirish, kino asarlarni kino uyida namoyish qilish va h.k.);

¹Ўзбекистон Республикасининг 1994 йил 6 майдаги “Ихтиролар, фойдали моделлар ва sanoat намуналари тўғрисида (Янги тахрири)” N 1062-ХП Қонуни (Мазкур Қонуннинг янги тахрири ЎзР 29.08.2002 й. 397-П-сон Қонуни билан тасдиқланган) // “Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами”, 2002 йил, 19-сон, 143-модда; “Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси”, 2002 йил, 9-сон, 158-модда.

²Плагнат – лотинчадан «plagio» – ўғирлаймау – муаллифликни қасдан ўзлаштиришни англатади.

6) asarni efirga uzatish (radio va televidenie, shu jumladan kabel televideniya orqali va h.k.);

7) arxitektura yoki dizaynerlik loyihalariga nisbatan – xuddi shunday loyihani amalga oshirish, ya'ni binolarni, qurilmalarni qurish, amaliy bezak san'ati asarlarini chop etish.

Shu bilan birga, **mualliflik asarlaridan foydalanish** deganda, O'zbekiston hududida mualliflik huquqi bilan himoya qilingan **aqliy faoliyat mahsuli** mulkidangina foydalanish tushuniladi. Mualliflik huquqi bilan himoyalangan xuddi shunday obyektlar bunga kirmaydi.

Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi quyidagilarni belgilaydi: huquqiy obyekt hisoblangan intellektual mulkdan foydalanish o'zga shaxslar tomonidan faqatgina huquq egasi bo'lgan muallifning roziligi bilan amalga oshirilishi mumkin. Shuning uchun har bir intellektual mulkdan noqonuniy foydalanish shu huquqning qo'pol ravishda buzilishi hisoblanadi. Jumladan, tadbirkorlik subyektlarining intellektual natijalarini o'zlashtirib olish JKning 149-moddasi bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi mumkin. Agar intellektual mulk obyektlari moddiy qiymatga ega bo'lsa, aybdorning qilmishi talon-toraj deb baholanadi¹.

Shuni nazarda tutish kerakki, mualliflikni o'zlashtirish to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita amalga oshirilishi mumkin. Masalan: o'z nomi bilan begona muallifning ilmiy yoki adabiy asarini chop ettirish, musiqiy asarni radio orqali uzatish, san'at asarini ko'rgazmada namoyish qilish bevosita plagiatlikka kiradi. Bilvosita plagiatlik esa, boshqa muallifning asaridan lavhalarni o'z ilmiy asariga muallifini ko'rsatmasdan kiritish hisoblanadi, garchi bu lavhalar «barchaga ma'lumki» qabilidagi iboralar bilan boshlangan bo'lsa ham. Har qanday holatda ham plagiatlikning berilgan ko'rinishlari qilmishni JK 149-moddasi bo'yicha kvalifikatsiya qilishda ahamiyatsizdir.

¹Ўзбекистон Республикаси Олий суди ҳамда Ўзбекистон Республикаси Олий ҳўжалик суди пленумининг “Тадбиркорлик фаолияти билан боғлиқ қонунчиликни қўллаш суд амалиёти тўғрисида”ги 2000 йил 28 апрелдаги 2/84 Қарори // Тўплам, 2-жилд. 281-б.

NOTA BENE !

Mualliflik huquqi **g'oyalar, uslublar, jarayonlar, tizimlar, kontseptsiyalar, prinsiplar va usullarga** nisbatan qo'llanilmaydi va shu sababli asarlarda qo'llanilgan g'oyalar, uslublar kontseptsiyalar va h.k. lardan yangi ko'rinishda o'z asarida foydalanish plagiatlikka kirmaydi va jinoiy jazolanmaydi.

O'zganing sanoat mulki obyektidan noqonuniy foydalanish deganda, sanksiyasiz ravishda, tarkibida patentlangan ixtironi tashkil qilgan mahsulotni tayyorlash, sotish va mahsulotni boshqa xo'jalik aylanmasiga kiritish hamda patent sohibining rozilgisiz patent bilan himoya qilingan usullarni qo'llash, patentlangan sanoat namunasini qo'llagan holda mahsulot ishlab chiqarish hollarini tushunish lozim.

Hammualliflikka majbur etish deganda, tafakkur mulki egasi muallifga turli yo'llar bilan ta'sir o'tkazish, ya'ni aybdorning o'zi tomonidan hamda uning talabi bilan tafakkur mulki obyektini yaratishda bevosita ishtirok etmagan boshqa shaxslar tomonidan ta'sir o'tkazish tushuniladi. Hammualliflikka majbur etish – tafakkur mulki egasiga tafakkur mulki obyektini yaratish ishiga aybdorning talabi bilan uning o'zini yoki boshqa shaxslarni mualliflar jamoasi tarkibiga qo'shishga oid ta'sir o'tkazishdir. Jabrlanuvchiga nisbatan huquqiga qarshi ta'sirlar turlicha bo'lishi mumkin (muallifning o'zi yoki uning yaqinlariga nisbatan jismoniy kuch ishlatish bilan tahdid qilish; qonuniy imtiyozlardan mahrum etish bilan qo'rqitish; aybdorni hammualliflikka kiritishga majbur qiladigan sharoit yaratish yo'li bilan talab qo'yish). Agar JK 149-moddasida nazarda tutilgan jinoyatdan ko'ra xavfi jihatdan ijtimoiy xavf tug'dirmasa, JKning boshqa moddalari bo'yicha kvalifikatsiya qilish shart emas.

Muallifning rozilgisiz tafakkur mulki obyekti to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor etish deganda, muallifning rozilgisiz tafakkur mulki to'g'risida uning rasmiy ro'yxatdan o'tkazilguniga yoki e'lon qilinguniga qadar oshkor qilingan har qanday axborotni tushunish kerak. Ya'ni, muallifning rozilgisiz yoki so'rovchining (biror-bir sanoat

mulkiga patent olishga so‘rov bergan shaxs) roziligisiz ommaviy axborot vositalarida chop etish, konferentsiyalarda nutq so‘zlash yoki boshqa oshkor etish usullarini qo‘llab, hech bo‘lmasa bir kishining ogoh etilishi tushuniladi.

JKning 149-moddasining dispozitsiyasida nazarda tutilgan har qanday harakatlardan birini sodir etish vaqtidan boshlab mazkur jinoyat **tamomlangan** deb topiladi.

Subyektiv tomondan jinoyat **to‘g‘ri qasddan** sodir etiladi. Aybdor mualliflik yoki ixtirochilik huquqini buzayotganini angelaydi va shuni xohlaydi.

Jinoyatning **motivi** va **maqsadi** jazo tayinlanayotganda inobatga olinishi mumkin.

Jinoyat **subyeksi** – 16 yoshga yetgan aqli raso jismoniy shaxs.

«Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar» mavzusi bo‘yicha yakuniy savollar

1. Fuqarolarning teng huquqliligini buzish nimadan iborat?
2. Fuqarolarning teng huquqliligini buzishda zo‘rluk ishlatish nimada namoyon bo‘ladi?
3. Fuqarolarning uy-joy daxlsizligini buzishning jinoiy javobgarligi shartlari qanday?
4. Noqonuniy bostirib kirish deganda nima tushuniladi?
5. Fuqarolarning uy-joy daxlsizligini buzishning qaysi hollarida qilmish jinoiy javobgarlikka tortilmaydi?
6. Xat-yozishmalar, telefonda so‘zlashuv, telegraf xabarlar yoki boshqa xabarlarning sir saqlanishi tartibini qasddan buzish nimalarda nomoyon bo‘ladi?
7. Xat-yozishmalar, telefonda so‘zlashuv, telegraf xabarlar yoki xabarlarning sir saqlanishi tartibini buzganlik uchun javobgarlikdan ozod etilishning sharti qanday?
8. Fuqarolarning murojaatlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish oqibatlar va usullari qanday?

9. JK 144-moddasi 2-qismida (Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish) berilgan ta'qib qilish deganda nima tushuniladi ?

10. Vijdon erkinligi deganda nima tushuniladi?

11. Vijdon erkinligini buzish nimalarda namoyon bo'ladi?

12. JK 145-moddasi 3-qismida nazarda tutilgan jinoyatdan diniy dunyoqarash natijasida qasddan o'rtacha og'irlikdagi tan jarohati yetkazish o'rtasidagi tafovut nimada?

13. Saylov yoki referendum o'tkazish yoki tashkil etish qonunchiligini buzish usullari qanday?

14. Yashirin ovoz berishni buzish, saylov hujjatlarini qalbaki-lashtirish, ovozlarni noto'g'ri hisoblash deganda nimalarni tushunish kerak?

15. Millatchilik, irqchilik yoki diniy dushmanlikni qo'zg'atish nimada namoyon bo'ladi?

16. Saylov yoki referendumni tashkil qilish, ularni o'tkazish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish bilan saylov huquqining yoki ishonchli vakillar vakolatlarining amalga oshirilishiga to'sqinlik qilish o'rtasida qanday farq bor?

Qo'shimcha adabiyotlar

O'quv qo'llanmalar, maxsus adabiyotlar

Зубкова В.И. Ответственность за преступления против личности по законодательству России. – М.: НОРМА, 2005. – 256 Б.


Рустамбаев М.Х. Преступления против личности. Учебное пособие. – Т.: «Эльдинур», 1998. – 181 Б.

Ilmiy maqolalar


Искандеров С. Об объекте преступлений против трудовых прав граждан // Ученые записки Азербайджанского университета. Серия юридических наук, 1972, № 1.

IX BOB. TINCHLIK VA INSONIYATNING XAVFSIZLIGIGA QARSHI JINOYATLAR

11-sxema



12-sxema



1-§. Urushni targ‘ib qilish (JK 150-moddasi)

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi o‘z preambulasida xalqaro huquqning umume’tirof etilgan normalari ustuvorligini tan olib, 17-moddasida «O‘zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli subyektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umume’tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi»¹, deb belgilangan.

Urushni targ‘ib qilish **ijtimoiy xavfi**, avvalo, shaxsning bir mamlakatni ikkinchi mamlakatga nisbatan qo‘zg‘atish uchun turli shakldagi qarashlar, Qoyalar yoki chaqiriqlar tarqatib dunyoni va davlatlarning tinchligini xavf ostiga qo‘yadigan holatga keltirishidir.

Urushni targ‘ib qilish xalqaro huquq me‘yorlariga ziddir.

Mazkur jinoyatning **bevosita obyekt** tinchlik va davlat hamda xalqlarning rivojlanishi va hayotiy faoliyatining sharti bo‘lgan tinch hayot kechirishidir.

Obyektiv tomondan urushni targ‘ib qilish bir mamlakatning ikkinchisiga agressiya amalga oshirishiga erishish maqsadida qanday shaklda bo‘lmasin qarashlar, g‘oyalar yoki chaqiriqlar tarqatishdir.

¹Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси: Ўн иккинчи чакириқ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ўн биринчи сессиясида 1992 йил 8 декабрда қабул қилинган. (2002 йил 27 январда ўтказилган умумхалқ референдуми натижаларига кўра ҳамда унинг асосида Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 24 апрелда қабул қилинган Қонунига мувофиқ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси XVIII, XIX, XX, XXIII бобларига ўзгартиришлар ва қўшимчалар қиритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2007 йил 11 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 89-моддасига, 93-моддасининг 15-бандига, 102-моддасининг иккинчи қисмига тузатишлар қиритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2008 йил 25 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 77-моддасининг биринчи қисмига ўзгартириш қиритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2011 йил 12 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 90-моддасининг иккинчи қисмига тузатиш қиритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 16 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 32, 78, 93, 98, 103 ва 117 моддаларига ўзгартиш ва қўшимчалар қиритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 6 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 4-бандига, 81-моддасининг еттинчи қисмига, 83-моддасига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13 ва 14- бандларига, 107-моддасининг биринчи қисмига, 110-моддасининг биринчи ва учинчи қисмларига, 111-моддасига ўзгартишлар ва қўшимча қиритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 31 майда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 5 ва 12-бандларига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13-бандига ҳамда 108, 109-моддаларига ўзгартишлар қиритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 29 августда қабул қилинган қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 99 ва 10-моддаларига ўзгартишлар қиритилган.) – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 8 б.

NOTA BENE !

Urush – bu ikki yoki undan ortiq suveren, mustaqil davlatlar yoki xalqlar orasidagi tashkil qilingan qurollangan kurash, qurolli ziddiyatdir.

NOTA BENE !

Urushni targ‘ib qilish insonlarning ongiga va irodasiga ularning boshqa suveren davlatga qarshi harbiy harakatlar olib borishga undash, urush e‘lon qilish zaruratini tug‘dirish va shunday istakni uyg‘otish maqsadida ta‘sir qilish deganidir.

Sharhlanayotgan jinoyat subyektiv tomondan bir mamlakatning boshqa mamlakatga tajovuz qilishini keltirib chiqaradigan qarashlar, g‘oyalar yoki chaqiriqlarni tarqatishdan (ya‘ni, har xil shaklda bayon etishdan) iborat.

Urushni targ‘ib qilishning usullari jinoyatning kvalifikatsiyasiga ta‘sir qilmaydi, lekin jazo belgilanayotganda hisobga olinishi kerak. Urushni targ‘ib qilishning, qarashlar, g‘oyalar, chaqiriqlarni tarqatishning ommaviyligi ham xuddi shunday, kvalifikatsiya uchun ahamiyatga ega emas.

Urush olovini yoqishga qaratilgan chaqiriqlar, qarashlar yoki g‘oyalarni tarqatish vaqtidan boshlab jinoyat **tugallangan** deb topiladi.

Har qanday shakldagi urushni targ‘ib qilish subyektiv tomondan ongli ravishda, ya‘ni shu harakatni anglagan holda amalga oshiriladi. Shunga ko‘ra bu jinoyat qasddan sodir etilishi mumkin. Aybdor o‘zining urush olovini yoqish haqida g‘oyalar, qarashlar, kayfiyatlarni tarqatganligini biladi va mazkur qilmish urush, agressiya kabi oqibatlarini keltirib chiqarishidan qat‘i nazar shuni xohlaydi.

Jinoyatni kvalifikatsiya qilish uchun uning **maqsad** va **motivi** ahamiyatsizdir.

Mazkur jinoyatning **subyekt** 16 yoshga to‘lgan barcha shaxslar bo‘lishi mumkin.

Urushni targ‘ib qilishni agressiyaga dalolatchilik (JK 151-moddasi) qilishdan ajratish lozim. Ularning farqi shundaki, agressiyaga

dalolatchilik qilish hech qachon ommaviy tus olmaydi va JK 151-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning subyekti bo'lishi mumkin bo'lgan aniq bir shaxsning irodasiga qaratilgan bo'ladi, urushni targ'ib qilish esa, ko'pchilikka nisbatan amalga oshirishni va urush ochilishining zarurligini va maqsadga muvofiqligini omma ongida shakllantirishni maqsad qiladi.

2-§. Agressiya (JK 151-moddasi)

Agressiya urushini rejalashtirish yoki unga tayyorgarlik ko'rish, shuningdek, shu harakatlarni amalga oshirishga qaratilgan fitnada qatnashish xalqaro huquq me'yorlariga binoan tinchlikka qarshi jinoyat hisoblanadi.

Agressiya urushini rejalashtirish, unga tayyorgarchilik ko'rish sezilarli ijtimoiy xavf tug'diradi, zero bunday harakatlarni sodir etish natijasida davlatlar orasida tinchlik buziladi va xalqaro munosabatlarda ziddiyat tug'iladi, natijada bu harakatlar ko'plab qurbonlarga, binolarning vayron bo'lishiga, shahar va qishloqlarning yo'q bo'lishiga olib keladi.

Hozirgi zamonaviy qurol-yarog' turlarini hisobga olgan holda agressiv urushning oqibatlarini oldindan aytish qiyin.

Agressiyaning **bevosita obyekti** tinchlik va tinch hayot kechirish asoslari hamda **JK 151-moddasi 1-qismida** nazarda tutilgan jinoyatning quyidagi: agressiv urushni rejalashtirish yoki unga tayyorgarlik ko'rish, shuningdek, shu harakatlarni amalga oshirishga qaratilgan fitnada qatnashishda namoyon bo'ladi.

1974 yil 14 dekabrda bo'lib o'tgan BMT Bosh Assambleyasi sessiyasida qabul qilingan qarorida agressiya atamasini «davlat tomonidan Qurolli Kuchlarni boshqa davlatning suverenitetiga, hududiy daxlsizligiga yoki siyosiy mustaqilligiga qarshi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustaviga xilof tarzda qo'llash»¹ deb ta'riflaydi.

Rezolyutsiyaning 3-moddasida sanab ko'rsatish ro'yxati, usuli bilan ta'riflanadigan agressiya tushunchasi mavjud. Zikr etilgan harakatlar

¹Мазкур резолюция расмий равишда эълон қилинмаган.

urush e'lon qilingan-qilinmaganligidan qat'i nazar, agressiya harakati deb topiladi.

Hech qanday siyosiy, iqtisodiy, harbiy yoki boshqa tasnifdagi fikrlashlar agressiyani oqlash uchun xizmat qila olmaydi (Rezolyutsiya-ning 5-moddasi).

Agressiv urushni rejalashtirish deganda, urush harakatlarining ishlanmalari va urush olib borishning strategik va taktik loyihalarining parallel ravishda olib borilishi va amalga oshirilishi tushuniladi. Shu bilan birga harbiy operatsiyalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan kuchlar va imkoniyatlarning hisobini olish, zarur harbiy obyektlarni loyihalashtirish hamda zaxiraviy ta'minotning hisobini qilish, mobil loyihalarni tuzish, urushga tayyorgarlikni amalga oshirish uchun ittifoqdosh davlatlarni urushga jalb qilish bo'yicha harakatlar ishlanmasi va loyihasini ishlab chiqish, agressiv urushni olib borish yoki alohida harbiy operatsiyalarni amalga oshirish va h.k. tushuniladi.

Agressiv urushni loyihalashtirish urushga **tayyorgarlikning** boshlang'ich bosqichi sifatida ko'rilishi mumkin. **Agressiv urushga tayyorgarlik** deganda, yakuniy harbiy loyihalarning tuzilishi va ularning amalga oshirilishiga yo'naltirilgan harakatlarni sodir etish tushuniladi. Masalan, harbiy tuzilmalarni bir yo'nalishda jamlash, harbiy inshootlarni qurish, harbiy mahsulotlarni ishlab chiqarishni ko'paytirish, harbiy qismlarni qayta tashkil qilish, mahsulotlar, yoqilg'i zaxirasini yaratish, dushman hududida qo'llaniladigan harbiy harakatlarga mos o'quv mashqlari va manevrlar o'tkazish va h.k. shular jumlasidandir.

Shuni inobatga olish kerakki, davlat himoya imkoniyatini oshirish va xavfsizligini ta'minlash maqsadida loyihalash va tayyorgarlik ko'rish harakatlarini sodir etish agressiyani tashkil etmaydi.

Til biriktirish deganda, ikki yoki undan ortiq shaxslarning agressiv urush uchun loyihalash yoki tayyorgarlik ko'rish yoxud kelishib tayyorlanishi tushuniladi.

JK 151-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan jinoyatning **obyektiv tomoni** agressiv urushni boshlash yoki olib borish hisoblanadi.

Agressiv **urushni boshlash** deganda, boshqa davlat suverenitetini uning hududiga agressor davlat Qurollangan Kuchlarining bostirib kirish

yoʻli bilan buzishga qaratilgan aniq harakatlar sodir etishini; harbiy okkupatsiya yoki anneksiyaning hamda qarshi tomonning bostirib kirishiga majbur etuvchi sharoitlarni yaratish yoki harbiy kuchlarni qoʻllash va harbiy harakatlarni olib borishni boshlash, strategik qurollanishni qoʻllash uchun sabab va bahonalarni yaratishni tushunish lozim.

Bunday harakatlar ham harbiy, ham siyosiy koʻrinishda boʻlishi mumkin.

Rezolyutsiyaning 3-moddasida sanab koʻrsatish roʻyxati usuli bilan taʼriflanadigan agressiya tushunchasi mavjud. Zikr etilgan harakatlar, urush eʼlon qilingan-qilinmaganligidan qatʼi nazar, 2-moddani inobatga olib, uning qoidalariga munosib ravishda agressiya harakati deb baholanadi:

1) davlat Qurolli Kuchlarining boshqa davlat hududiga bostirib kirishi yoki qancha muddatga choʻzilganligidan qatʼi nazar, har qanday bosib olish, mazkur bosqinchilik oqibati sifatida yoki boshqa davlatga uning biror hududiga qarshi kuch ishlatish bilan sodir etilgan har qanday harakat agressiya deb baholanadi;

2) davlat Qurolli Kuchlarining boshqa davlat hududini bomba bilan portlatish yoki davlatning har qanday qurolni boshqa davlatlarga qarshi ishlatishi ham shunday tushuniladi;

3) davlat portlari yoki qirgʻoqlarining boshqa davlat Qurolli Kuchlari tomonidan toʻsib qoʻyilishi;

4) davlat Qurolli Kuchlarining boshqa davlatga tegishli quruqlikdagi, suvdagi, havodagi kuchlariga yoki havo flotiga bostirib kirishi;

5) boshqa davlat hududidagi bir davlatning Qurolli Kuchlarini mazkur davlat bilan tuzilgan bitim shartlarini buzib qoʻllash yoki har qanday shakldagi mazkur Qurolli Kuchlarning bitimi harakati toʻxtatilishidan soʻng ham ushbu davlat hududida saqlanishining davom etishi;

6) davlatning boshqa davlat ixtiyoriga topshirib qoʻyilgan hududida mazkur davlat tomonidan boshqa uchinchi davlatga agressiya sodir etishga yoʻl qoʻygan harakatlari;

7) davlat yoki uning nomidan Qurolli Kuchlarni, guruhlarini va nomuntazam kuchlar yoki yollanganlarni yuborish (mazkur kuchlar boshqa davlatga qarshi qurol kuchini ishlatgan holatlarda, basharti bu

holat jiddiy tus olib yuqorida qayd etilgan harakatlarga teng kelsa yoki unda anchagina ishtiroki bo'lsa) agressiya harakati deb baholanadi.

Agressiv urushni olib borish deganda, boshlangan agressiyani davom ettirishni tushunish lozim bo'lgan harbiy operatsiyalarni qo'llash, agressor-davlat tomonidan agressiyaning boshlang'ich akti hisoblangan boshqa davlatga nisbatan qo'llanilgan harakatlarini davomli amalga oshirish demakdir.

Urush olib borish o'z harakat doirasi, davomiyligi, harbiy va jonli kuchlarning qo'llanilishi darajasi bilan agressiyaning Yakka ko'rinishlaridan ustun turadi. Ilk zarbalarni berishning ta'qib qiluvchi agressiv urush boshlashdan farqli o'laroq, harbiy harakatlarning rivojlanishiga olib keluvchi bunday urushni olib borish aniq yakuniy maqsadga ega. Bunday maqsadda hududiy daxlsizlikni buzish, davlatning harbiy, siyosiy, iqtisodiy kuchini barbod qilish xalqni o'z erkini belgilash va mustaqillik huquqidan mahrum qilish deb baholanishi lozim.

Agressiv urushni boshlash yoki olib borish davom etgan jinoyat deyiladi.

Agressiv urushni loyihalashtirish, tayyorgarlik ko'rish va olib borish bo'yicha harakatlar sodir etilgan damdan agressiya **tamomlangan** jinoyat deb topiladi.

Agressiyaning **subyektiv tomoni** bila turib sodir etilgan aybli harakat bilan tavsiflanadi (to'g'ri qasd). Undagi tashkilotchilar va ishtirokchilar uning ijtimoiy xavfliligini anglaydilar va uni sodir etishni xohlaydilar.

Davlatning harbiy masalalarini hal qilish vakolatiga ega mansabdor shaxslar agressiyaning **subyektiv** bo'lishlari mumkin. Mansabdor shaxslar agressiv urushlarni rejalashtirish va tayyorlashda qatnashadilar yoki mazkur harakatni bajarish uchun fitna uyushtiradilar.

3-§. Urushning qonun va udumlarini buzish (JK 152-moddasi)

Xalqaro qonunchilik, jumladan, 1907 yildagi Quruqlikdagi jangning odat va qonunlari to‘g‘risidagi Gaaga Konvensiyasi¹, 1949 yildagi Aholi fuqarolarini urush vaqtida himoya qilish to‘g‘risida Jeneva Konvensiyasi² va boshqa bir qator xalqaro huquqiy hujjatlar³ urush olib borishning qoidalarini belgilab beradi.

Xalqaro jinoiy huquq bu jinoyatlarni harbiy jinoyatlar guruhiga kiritadi. Uning **ijtimoiy xavfi**, avvalo, shundan iboratki, urushning o‘zi odamlarning o‘lishi va qirilib ketishiga, shahar va qishloqlarning vayron bo‘lishiga, madaniy boyliklarning yo‘q bo‘lib ketishiga, taraqqiyot jarayonining orqaga surilishiga va shu kabi og‘ir oqibatlariga olib keladi. Shubhasiz, urush qonunlarini buzish har bir urushning oqibatlarini kuchaytiradi va og‘irlashtiradi.

Urush olib borishning vositalari va usullariga rioya qilish borasidagi munosabatlar jinoyatning **asosiy bevosita obyekti** bo‘lib hisoblanadi. **Qo‘shimcha bevosita obyekt** bo‘lib, harbiy asirlar va tinch aholining xavfsizligini va inson taraqqiyotining yutug‘lariga erishishni ta‘minlash bo‘yicha ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Obyektiv tomondan urush qonunlari va udumlarini buzish deganda, tinch aholini yoki harbiy asirlarni qiynash, jismonan qirib yuborish, tinch aholini majburiy ishlarga yoki boshqa maqsadlarda haydab ketish, xalqaro huquq bilan taqiqlangan urush olib borish vositalarini qo‘llash,

¹Каранг: Куруқликдаги жангнинг одат ва қонунлари тўғрисидаги Гаага конвенцияси (Гаага, 1907 йил 18 октябрь).

²Каранг: Тинч аҳолини уруш вақтида ҳимоя қилиш тўғрисидаги Женева конвенцияси (Женева, 1949 йил 12 август; Ўзбекистон Республикаси Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг 1993 йил 3 сентябрдаги 946-ХП-сон қарори билан қўшилди; Ўзбекистон Республикаси учун 1994 йил 8 апрелдан бошлаб кучга кирди).

³Каранг: Харбий асирлар билан муомала қилиш тўғрисидаги конвенция (Женева, 1949 йил 12 август; Ўзбекистон Республикаси Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг 1993 йил 3 сентябрдаги 946-ХП-сон қарори билан қўшилди; Ўзбекистон Республикаси учун 1994 йил 8 апрелдан бошлаб кучга кирди); 1949 йил 12 августдаги Женева конвенцияларига халқаро қуролли можароларнинг қурбонларини ҳимоя қилишга оид Қўшимча протокол (I Протокол) (Женева, 1977 йил 8 июнь; Ўзбекистон Республикаси Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг 1993 йил 3 сентябрдаги 946-ХП-сон қарори билан қўшилди; Ўзбекистон Республикаси учун 1994 йил 8 апрелдан бошлаб кучга кирди); 1949 йил 12 августдаги Женева конвенцияларига халқаро тусга эга бўлмаган қуролли можароларнинг қурбонларини ҳимоя қилишга оид Қўшимча протокол (II Протокол) (Женева, 1977 йил 8 июнь; Ўзбекистон Республикаси Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг 1993 йил 3 сентябрдаги 946-ХП-сон қарори билан қўшилди; Ўзбекистон Республикаси учун 1994 йил 8 апрелдан бошлаб кучга кирди) ва бошқалар.

shaharlar va aholi yashash joylarini behuda vayron qilish, mulkni talon-toroj qilish, shuningdek, bunday harakatlarni qilishga buyruq berishda ifodalangan urushning qonun va udumlarini buzish tushuniladi.

Berilgan moddaning tarkibini aniqroq tushunish uchun yuqorida qayd etilgan xalqaro hujjatlarda belgilangan me'yorlarga murojaat qilish darkor.

«**Tinch aholini va harbiy asirlarni qiynash, jismonan qirib yuborish**» tushunchasi 1949 yildagi Jeneva Konvensiyasiga Qo'shimcha protokol (II Protokol) da qayd etilgan noxalqaro ko'rinishdagi Qurolli ziddiyatlar qurbonlarini himoya qilish va harbiy asirlar bilan muomala haqidagi Jeneva Konvensiyasida belgilangan «tinch aholi bilan tajovuzkorona muomala qilish va «harbiy asirlar bilan tajovuzkorona muomala qilish» tushunchalaridan kelib chiqqan. Berilgan hujjatlardan kelib chiqib, fuqaroviy aholini qiynash deganda, aholini qiynoqqa solish, jismonan qirib tashlash yoki jismoniy jazolashning boshqa turli ko'rinishlari, kollektiv jazolashni qo'llash; inson qadr-qimmatini poymol qilish, jumladan, tahqirlovchi va haqoratlovchi muomala qilish, nomusga tegish, jinsiy aloqaga kirishga yoki jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirishga majburlash, qullik yoki barcha ko'rinishdagi qul savdosi bilan shug'ullanish kabilar tushuniladi¹.

NOTA BENE !

Fuqarolik huquqiga ega aholi – fuqarolar, O'zbekistonda istiqomat qiluvchi fuqaroligi bo'lmagan shaxslar hamda davlat hududida bo'lgan chet el fuqarolari va harbiy harakatlarda bevosita ishtirok etmayotgan yoki ishtirokini to'xtatgan shaxslar.

Asirlarni qiynash deganda, asirlikda tutib turganlar tomonidan har qanday noqonuniy harakat yoki harakatsizlik, asirning sog'ligini xavf ostiga qo'yuvchi, uning o'limiga olib keluvchi holatlar; asirlarni

¹Қаранг: 1949 йил 12 августдаги Женева конвенцияларига халқаро тусга эга бўлмаган қуролли можароларнинг қурбонларини ҳимоя қилишга оид Қўшимча протокол (II Протокол) (Женева, 1977 йил 8 июнь), 4-модда 2-банд.

jismonan azoblash, qanday turdagi bo‘lmasin, ilmiy yoki tibbiy tajribaga (faqat, agar tajriba asirni davolash yoki uning manfaatiga xizmat qilishi bilan oqlanmasa) duchor qilish, repressiyani qo‘llash; asirlarni ularning sog‘ligiga salbiy ta‘sir qiladigan va epidemiya tarqalishiga olib keladigan antisanitar sharoitda saqlash va h.k. tushuniladi.

1949 yil 12 avgustdagi **harbiy asirlar** bilan muomala qilish to‘g‘risidagi Bitimning «A» bandi 4-moddasiga muvofiq, dushman qo‘liga tushgan quyidagi shaxslar harbiy asir hisoblanadi:

1) ziddiyatdagi mamlakat Qurolli Kuchlarining shaxsiy tarkibi, shu jumladan, mazkur Qurolli Kuchlar tarkibiga kiruvchi xalq lashkarlari va ko‘ngillilar otryadi;

2) boshqa xalq lashkarlari va ko‘ngillilar otryadi shaxsiy tarkibi, shu bilan birga ziddiyatda bo‘lgan tarafga tegishli qarshilik ko‘rsatish harakatining shaxsiy tarkibi va o‘z hududida harakat qilayotgan yoki hududdan tashqarida bo‘lgan, agar bu hudud okkupatsiya qilingan bo‘lsa ham bu xalq lashkarlari va ko‘ngillilar otryadi, qarshilik ko‘rsatish harakatlari quyidagi shartlarga javob beradi:

a) boshida o‘z qo‘l ostidagilari uchun mas‘ul bo‘lgan shaxs bo‘lsa;

b) tayinli va uzoqdan aniq ko‘rinadigan farqli belgisi bo‘lsa;

v) ochiq holda, erkin qurol olib borsa (yursa);

g) o‘z harakatlarida urushning qonun va udumlariga rioya qilsa;

3) asirlikda tutib turganlar tomonidan Derjava deb topilmagan bo‘lsa, o‘zini davlat yoki hokimiyat qo‘l ostida deb hisoblovchi, doimiy Qurolli Kuchlarning shaxsiy tarkibiga kirsas;

4) Qurolli Kuchlar ortidan borayotgan, lekin ularning tarkibiga bevosita kirmaydigan shaxslar, masalan, harbiy samolyot ekipajiga kiruvchi fuqarolar, harbiylarni yetkazib beruvchi shaxslar, Qurolli Kuchlarda xo‘jalikni ta‘minlash yuklatilgan komandalar yoki xizmat bo‘linmalari ishchilarining shaxsiy tarkibi, agar ular kuzatib borayotgan Qurolli Kuchlardan bunga ruxsat olishgan bo‘lsa, buning uchun Qurolli Kuchlar shaxsni tasdiqlovchi hujjat berishlari kerak;

5) savdo floti kemalarining ekipaji a‘zolari, jumladan, kapitanlar, lottsmanlar va yungalar hamda ziddiyatda bo‘lgan tomonlarning fuqarolik aviatsiyasi ekipajlari, albatta, agar ular xalqaro huquqning

boshqa holatlarini nazoratda tutuvchi biror imtiyozli sharoitdan foydalanishmasa;

6) dushman yaqinlashganda o‘z-o‘zidan o‘z xohishiga binoan bostirib kirayotganlar bilan kurashish uchun qo‘liga qurol oladiganlar, lekin doimiy lashkar sifatida tarkib topmagan, ochiq holatda qurol olib yuruvchi va urushning qonun va udumlariga rioya qiluvchi okkupatsiya qilinmagan hudud aholisi.

NOTA BENE !

Harbiy asirlarga yordam ko‘rsatish maqsadida asirlikda saqlayotgan davlat tomonidan qo‘lga olingan **tibbiy-sanitar xodimlar va diniy xodimlar** harbiy asir hisoblanmaydi (Harbiy asirlar bilan muomala haqidagi Jeneva Konvensiyasining 33-moddasi).

Aholini yoki harbiy asirlarni jismonan yo‘q qilish deganda, ularni o‘ldirish yoki har qanday noqonuniy harakatning sodir etilishi yoki dushman tomonidan keltirilgan shaxslarning o‘limiga olib keladigan har qanday harakatsizlik tushuniladi.

Tinch aholini majburiy ishlarga yoki boshqa maqsadlarda haydab ketish deganda, aholining deportatsiyasi, ya’ni majburiy haydash, ko‘chirish, bosib olingan hududlardan ma’lum joyda yashash maqsadida yoki hayot uchun zarur sharoitlar tasavvurisiz noma’lum yo‘nalishda olib chiqib ketish tushuniladi. Haydash tinch aholini ko‘chirish, bosib olgan davlat hududi yoki boshqa istalgan davlat joyi, u bosib olingan yoki bosib olinmaganligidan hamda bosib olingan davlatning hududi bo‘lganligidan qat’i nazar, deportatsiyaning belgilarini aniqlash uchun ahamiyatga ega emas.

Tinch aholini urush paytida himoya qilish haqidagi Jeneva Konvensiyasining 49-moddasiga binoan biror-bir bosib olingan hududdan to‘liq yoki qisman evakuatsiya qilish, agar buni tinch aholining xavfsizligi yoki harbiy ko‘rinishdagi eng muhim sabablar talab qilsa va aholisi bosib olingan hududning eng xavfsiz joyiga ko‘chirilsa va shu taxlitda ko‘chirilganlar harbiy harakatlar tugagandan so‘ng o‘z

uylariga qaytadigan bo'lsalar, bu holat deportatsiya holatini o'zida tashkil qilmaydi.

Xalqaro huquq taqiqlagan urush olib borishning usullarini qo'llash deganda, urush olib borish jarayonida 1907 yildagi urush qonun va udumlari haqidagi Gaaga Konvensiyasi, Atrof-tabiiy muhitga dushmanlik bilan va boshqa har qanday vositada ta'sir etishni taqiqlash to'g'risidagi Konvensiya¹, Ko'p zarar yetkazuvchi oddiy qurollarni qo'llashni cheklash va taqiqlash to'g'risidagi Konvensiya² hamda boshqa xalqaro kelishuvlar tomonidan taqiqlangan urush olib borishning usul va vositalarini tushunish kerak.

NOTA BENE !

Urush olib borish vositalariga urush olib borilayotgan davlat tomonidan qurollarning (qurol-yarog', o'q-dori zaxirasi, buyumlar, qo'llanmalar va hokazo) qo'llanishi, moddiy boyliklarni yo'q qilishga mo'ljallangan harbiy texnika (avvalo, harbiy obyektlar) hamda dushmanning tirik kuchi kiradi.

Urush olib borishning xalqaro huquq bilan taqiqlangan vositalariga, avvalo, ommaviy qirg'in qurollari, odamlarni ortiqcha qiynash maqsadida qo'llaniladigan bakteriologik (biologik) va boshqa toksik qurollar kiradi. Masalan, harbiy harakatlarda qo'llash va odamning himoyalanmagan ko'rish organlariga zarar yetkazishga mo'ljallangan lazer qurollaridan foydalanish (bexosdan ko'rlikni keltirib chiqaradigan qurollar bundan mustasno); istalgan ko'rinishdagi yoqiluvchi qurollar, masalan, ognemyotlar, fugaslar, snaryadlar, granatalar, minalar, bombalar va boshqa tarkibida yoqiluvchi moddalari bo'lgan har qanday

¹Karant: Atrof-tabiiy muhitga harbiy eki dushmanlik bilan boshqa har qanday vositada ta'sir etishni taqiqlash tufarisidagi konvensiya (Jeneva, 1976 yil 10 dekabr; BMT Bo'sh Assambleyasining 96 yilpi majlisida 31/72-son Rezolyutsiyasi bilan qabul qilindi; 'zbekiston Respublikasi uchun 1993 yil 26 mайдan bo'slab kuchga kirди).

²Karant: Oddiy qurollarning haddan tashqari kup zarar keltiradi eki barча narсага baravar ta'sir etadi deb hisoblaniши mumkin bulgan konkret turлари qullaniliшини taqiqlash eki cheklash tufarisidagi konvensiya (Jeneva, 1980 yil 10 oktyabr; 'zbekiston Respublikasi 'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997 yil 30 avgustdagi 500-I-son qarori bilan qushildi; 'zbekiston Respublikasi uchun 1998 yil 29 martdan bo'slab kuchga kirди).

qurollar (bexosdan yonuvchi yoki kuydiruvchi qurollar bundan mustasno) va h.k. shular jumlasidandir.

Urush olib borishda, shuningdek, zilzila, tsunaming vujudga kelishiga, ob-havo va iqlimning, biror-bir hududda ekologik muvozanatning o'zgarishiga, ozon qatlami va ionosfera holatining buzilishlariga olib keluvchi vositalarni qo'llash taqiqlanadi.

NOTA BENE !

Urush olib borish uslublari o'zida texnikadan, qurol va lashkardan foydalanish qoidalari, tartibi, taktikasi, usullarini qamrab oladi.

Xalqaro huquq tomonidan urush olib borishning taqiqlangan uslublari tinch aholiga va qurolini tashlab boshqa himoya vositasiga ega bo'lmay chekingan dushman tarafga qasd qilish; hech kimning tirik qolmasligi haqida e'lon qilish; parlament va milliy bayroqni, dushman taraf harbiy kiyimining va harbiy belgilarining, Jeneva Konvensiyasi tomonidan o'rnatilgan harbiy belgilarni noqonuniy qo'llash; harbiy zarurat taqozo etmagan taqdirda yoki maqsadsiz shaharlar va qishloqlarni vayron qilish yoki talon-toroj qilish; harbiy asirlar yoki tinch aholidan harbiy operatsiyadan ma'lum bir hududni himoya qilish uchun foydalanish; tibbiyot birlashmalariga va sanitar ulovlariga hujum qilish; tinch aholiga nisbatan ocharchilikni qo'llash hamda shundan kelib chiqqan holda aholining yashashi uchun zarur bo'lgan obyektlarni yaroqsiz holatga keltirish yoki u erdan ko'chirish, bosqinchilik, talon-toroj qilish va vayron qilishlar kiradi.

Buyruq berish deganda, huquq va mas'uliyatga ega bo'lgan shaxs nomidan uni ijro etish majburiyati bo'lgan shaxsga nisbatan biror-bir harakatni sodir etish talabi tushuniladi.

Urush olib borish qonunlari va udumlarini buzish jinoyati JKning 152-moddasi dispozitsiyasida berilgan harakatlarning aqalli bittasi sodir etilganida shu damdan boshlab jinoyat **tamomlangan** hisoblanadi.

Jinoyatning **subyektiv tomoni** to'g'ri qasddan sodir etilishi bilan tavsiflanadi, chunki shaxs o'z xatti-harakatining ijtimoiy xavfliligini va huquqqa xilofligini biladi, shunday bo'lsa-da, uni sodir etishni xohlaydi.

Motiv va **maqsad** jinoyatni kvalifikatsiya qilishga ta'sir ko'rsatmaydi.

Jinoyatning **subyeksi** – 16 yoshga yetgan aqli raso jismoniy shaxs. Har qanday harbiy xizmatchi jinoyat subyeksi bo'lishi mumkin. Harbiy asirlarga nisbatan sodir etilgan harakatlar xususida gap ketganda mansabdor shaxslar, harbiy xizmatchilar yoki ularni qo'riqlash, saqlash, nazorat qilish va h.k. bo'yicha muayyan huquq va mas'uliyatga ega bo'lgan boshqa shaxslar jinoyat subyeksi bo'lishlari mumkin.

4-§. Genotsid (JK 153-moddasi)

Genotsid – bu insoniyatga qarshi jinoyatdir (Ayni ma'noda, «qavmni, qabilani o'ldirishdir»). Genotsid jinoyatining oldini olish va uning uchun jazolash to'g'risidagi Konvensiya¹ning 1-moddasida, ahdlashuvchi tomonidan genotsid u tinch yoki urush davrida sodir etilishidan qat'i nazar, xalqaro huquq me'yorlarini buzuvchi ekanligini tasdiqlaydilar va ular uning oldini olish choralarini ko'rish va uni sodir etganlik uchun jazolash majburiyatini oladilar, deb ta'kidlangan.

Ushbu Konvensiyaga muvofiq, **genotsid** biror-bir milliy, etnik, irqiy yoki diniy guruhni to'la yoki qisman yo'q qilishga qaratilgan harakat sifatida belgilanadi. Bu harakat shu guruh a'zolarini o'ldirish; uning a'zolariga jismonan yoki aqliy shikast yetkazish, qaysidir guruhni ataylab to'la yoki qisman yo'q qilishga mo'ljallangan hayotiy shart-sharoitlar yaratish; shunday guruh muhitida bola tug'ilishining oldini olishga mo'ljallangan chora-tadbirlar; bolalarni insonlarning bir guruhidan boshqasiga topshirish kabi harakatlar sodir etishda namoyon bo'ladi.

Germaniya, Chili, Kampuchiya va boshqa davlatlarda sodir bo'lgan vahshiyona fashistik harakatlar genotsid hisoblanadi.

¹Қаранг: Геноцид жиноятининг олдини олиш ва унинг учун жазолаш тўғрисидаги конвенция (Нью-Йорк, 1948 йил 9 декабрь; БМТ Бош Ассамблеясининг 260 А (III)-сон Резолюцияси билан қабул қилинди; Ўзбекистон Республикаси Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг 1999 йил 20 августдаги 835–I-сон қарори билан қўшилди; Ўзбекистон Республикаси учун 1999 йил 8 декабрдан бошлаб кучга кирди).

Genotsidning **bevosita obykti** sayyoramizdagi istiqomat qiluvchi kishilarning millati, etnik, irqiy xususiyatlari yoki dinidan qat'i nazar, xavfsizligi va tinch-totuvligini ta'minlaydigan ijtimoiy munosabatlar tizimidir.

Shuni ta'kidlash kerakki, genotsiddan **jabrlanuvchilar** butun milliy, etnik, irqiy yoki diniy guruhlar hisoblanadi va genotsid ularni yo'q qilishga qaratilgan bo'ladi.

Ko'rilayotgan jinoyat moddasida **guruh** deganda, diniy yoki etnik umumiylik, aholining boshqalardan irqi yoki millati jihatidan ajralib turuvchi katta bir qismi yoxud butunlay millat yoki elat tushuniladi.

Millat deb, qadimdan birlashib, tili, madaniyati, odatlari, udumlari, o'ziga xosligi, mentaliteti, hududiy kelib chiqishi, o'zligini anglashi bilan yashash hududidan qat'i nazar, o'zining bir millatga tegishli ekanligini anglab tashkil topgan guruhga aytiladi.

Etnik guruh deb, biror-bir elatga yoki qavmga mansub bo'lgan kishilar guruhiga aytiladi.

Irqi guruh deb, tashqi ko'rinishi (terisining, sochining ranglari, ko'z va qovoqlar o'yimi, boshining shakli, bo'yi va h.k.) va boshqa jismoniy xususiyatlari jihatidan umumiyliги bo'lgan odamlar **guruhiga** aytiladi. Irqning uchta turi bo'lib, ular yevropeoid, negroid va mongoloid irqilariga bo'linadi.

Diniy jihatdan birlik e'tiqod qilish umumiyliги yoki diniy oqimlar birligi bilan tavsiflanadi.

Genotsidning **obyektiv** jihati biror-bir milliy, etnik, irqiy yoki diniy guruhni yo'q qilishga qaratilgan harakat sifatida belgilanadi. Bu harakat shu guruh a'zolarining o'ldirilishi, bir guruh shaxsning jismonan to'la yoki qisman qirilib ketishiga olib keladigan turmush sharoitini qasddan yaratish, bunday shaxslarni jismonan to'la yoki qisman qirib yuborish, bola tug'ilishini zo'rlik bilan kamaytirish yoxud bolalarni ana shu odamlar guruhidan olib, boshqasiga topshirish kabi harakatlar sodir etish va shu harakatlarni sodir etishga buyruq berishda namoyon bo'ladi.

Biror-bir milliy, etnik, irqiy yoki diniy guruhni to'la yoki qisman yo'q qilishga mo'ljallangan sharoitlarni ongli ravishda yaratish kishilar guruhi uchun u yoki bu noma'qul sharoit natijasida ularni to'la

yoki qisman yo‘qolib ketishlariga qaratilgan choralarni qo‘llashni nazarda tutadi. Bu hol guruhni tiriklik manbai bo‘lgan u yoki bu mashg‘uloti bilan shug‘ullanishni taqiqlash, yashash uchun zarur bo‘lgan obyektlarni vayron qilish yoki yaroqsiz holga keltirish, guruhning yashash hududini ifloslantirish va h.k. larda namoyon bo‘ladi.

Biror-bir milliy, etnik, irqiy yoki diniy guruhni to‘liq jismonan qirish o‘z ichiga guruh a‘zolarining bir davlat hududida yoki alohida hududlarda yashashidan qat’i nazar, barchasini istalgan ko‘rinishda va istalgan usul bilan qasddan yo‘q qilishni oladi. Shu bilan birga bunday guruh a‘zolarini yo‘q qilish usullari turlicha bo‘lishi mumkin: o‘qotar qurollardan foydalanib, ommaviy qirg‘in qurollaridan foydalanib, bunday guruhlarning yashash hududidagi tabiatni zaharlash, odamlarni boshqa biror-bir hududga, yashashi uchun to‘g‘ri kelmaydigan sharoitga surgun qilish holatlarini o‘z ichiga oladi.

Biror-bir milliy, etnik, irqiy yoki diniy guruhni qisman jismonan qirish deganda, guruh a‘zolarining sonini istalgan usul bilan kamaytirish holati tushuniladi.

Bola tug‘ilishini zo‘rlik bilan kamaytirish deb, mazkur guruh kishilarini majburiy ravishda bichish yoki zurriyotsizlantirish, onalik va bolalik uchun ongli ravishda sharoit yaratmaslik, onaning roziligisiz majburan homiladorlik davrini to‘xtatish, aholining erkak va ayollarini zo‘rlik bilan ajratib qo‘yish, bola tug‘ilishini taqiqlovchi yoki cheklovchi me‘yoriy hujjatni nashr etish va boshqa holatlarga aytiladi.

Biror-bir milliy, etnik, irqiy yoki diniy guruhning bolalarini tanlab olib, mazkur guruhdan mahrum etib boshqa guruhga berish deb, ota-onaning xohish-irodasiga qarshi shunchaki yoki pul to‘lash evaziga boshqa millat, etnik, irqiy yoki diniy guruhdagi bolani qarindoshlari bo‘lmagan a‘zolarga noqonuniy berilishi holatlariga aytiladi.

Shuni aytib o‘tish kerakki, genotsid bu faqatgina faol harakat orqali sodir etilishi mumkin bo‘lgan jinoyatdir. Harakatsizlik bu holatda jinoyatning sharoitiga, jumladan jinoyatning subyektiga qarab JK 207-moddasi bo‘yicha sovuqqonlik sifatida yoki JK 141-moddasi bo‘yicha fuqarolarning teng huquqliligini buzish sifatida kvalifikatsiya qilinishi

mumkin. Shuni nazarda tutish kerakki, og‘ir tan jarohati yetkazish va shu kabi ko‘rilayotgan jinoyatning tarkibi jinoyatni sodir etish usuli sifatida baholanadi va JK 104-moddasi bo‘yicha qo‘shimcha kvalifikatsiyani talab qilmaydi. Agar genotsid sodir etilganda qasddan odam o‘ldirilsa, aybdorning harakatini JK 97- va 153-moddasi bo‘yicha kvalifikatsiya qilish kerak.

JK 153-moddasida nazarda tutilgan jinoyat dispozitsiyasida ko‘rsatilgan harakatlarning sodir etilgan davridan boshlab, biror-bir oqibatning kelib chiqishidan qat’i nazar jinoyat **tugallangan** hisoblanadi.

Genotsid jinoyati tarkibini faqat genotsidning o‘zi emas, balki genotsid sodir etish maqsadida oshkora va bevosita ig‘vo qilish, zikr etilgan harakatlarni sodir etish uchun buyruq berish, genotsid qilishga qasd qilish va unda ishtirok etishda ham ifodalanadi. Jinoyatni tugallangan deb topish uchun oqibatlarining yuz berishi talab etilmaydi.

Genotsid **subyektiv tomondan to‘g‘ri qasddan** sodir etiladi. Chunki shaxs yoki ayrim shaxslar guruhi milliy, etnik, irqiy yoki diniy belgilariga ko‘ra biror guruhni jismoniy qirg‘in etishga yo‘naltirilgan ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilayotganligini biladi va mazkur qilmishni xohlaydi.

Maqsad – biror-bir milliy, etnik, irqiy yoki diniy guruhni jismoniy to‘la yoki qisman yo‘q qilish.

Genotsidning **motivi** turlicha bo‘lishi mumkin. Odatda bu yuqorida ko‘rsatilgan guruhlardan biriga nisbatan qasos yoki nafrat hissiyotidir. Biroq jinoyatning kvalifikatsiyasiga bu holatlar ta’sir qilmaydi.

Jinoyatning **subyeksi** 16 yoshga to‘lgan shaxs, shuningdek, mas’ul vazifalarda ishlaydigan mansabdor shaxslar bo‘lishi mumkin. 13 yoshdan 16 yoshgacha bo‘lgan shaxslar JK 153-moddasida ko‘rsatilgan jinoyatni sodir etganida javobgarlikka tortiladi: bunga odam o‘ldirish, og‘ir tan jarohati yetkazish va h.k. kiradi.

Genotsidni boshqa turli jinoyat tarkibidan farqlash kerak, fuqarolarning hayoti va sog‘ligiga qasd qiluvchi jinoyatlar shular jumlasidandir. Shu bilan birga, aybdor harakatlarining yo‘nalishini hisobga olish kerak: harakatining maqsadi, jinoyat oqibatining tavsifi

(jabrlanuvchilar soni), jinoiy harakatning sharoiti va sabablari, qoʻllanilgan usul, uslublari va boshqalar. Masalan, bir yoki bir necha shaxsning oʻldirilishi uning sababi va maqsadidan kelib chiqib, ogʻirlashtiruvchi sharoitdagi qasddan odam oʻldirish sifatida kvalifikatsiya qilinishi mumkin.

Urush sharoitida yoki harbiy ziddiyatlar vaqtida shunday harakat sodir etilsa tinch aholini yoki harbiy asirlarni toʻliq yoki qisman qirish maqsadida jismoniy qirishga qaratilgan harakatlar sodir etilsa, bu harakat genotsidni hamda urush qonunlari va udumlarini buzish birligini tashkil qiladi (JK 152-moddasi).

5-§. Yollanish (JK 154-moddasi)

Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1970 yil 24 oktyabrdagi Nizomiga muvofiq hamda Davlatlar orasidagi doʻstlik va hamkorlikka tegishli xalqaro huquq tamoyillari haqidagi Deklaratsiyaga muvofiq, har bir davlat boshqa davlatning hududiga bostirib kirish maqsadidagi tashviqotlar va doimiy kuchlar yoki qurollangan toʻdalarni tashkil qilish yoki ularni qoʻllab-quvvatlashdan voz kechishga majbur.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi 2465 (XXIII) Rezolyutsiyasida yollanuvchilardan foydalanuvchi va yollanuvchilarning oʻzlari ham jinoyatchi hisoblanadi, deb belgilab qoʻyilgan.

«**Yollanuvchi**» tushunchasi 1949 yil 12 avgustdagi Jeneva Konvensiyasiga xalqaro qurolli ziddiyatlar qurbonlarini himoya qilish haqidagi Qoʻshimcha protokol (I Protokol) ning 47-moddasida belgilab berilgan. Shunga koʻra, yollanuvchi bu qurolli harakatlar boʻlayotgan hudud yoki chegaradan tashqarida asosan shaxsiy manfaatni koʻzlab yoki moddiy ragʻbatlanishga ega boʻlish niyatida qurolli ziddiyatlarda ishtirok etuvchi shaxsdir.

Nizolashayotgan davlatning fuqarosi yoki harbiy xizmatchisi hisoblanmagan yoxud nazorat qilinib turgan nizolashayotgan davlat hududida doimiy yashamaydigan shaxs; nizolashayotgan davlatning Qurolli Kuchlari shaxsiy tarkibiga kirmaydigan shaxs; davlat tomonidan

yuborilmagan hamda uning Qurolli Kuchlari tarkibiga kiruvchi harbiy sifatida bo'lmagan shaxslar ham 47-modda belgilab bergan talablar asosida baholanadi.

Yollanishning **bevosita obyekt**i xalqaro huquq tomonidan o'rnatilgan urush olib borishning vositalarini va uslublarini qo'llashni nazorat qiluvchi ijtimoiy munosabatlardir.

JK 154-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyatning **obyektiv tomoni** nizolashayotgan davlatning fuqarosi yoki harbiy xizmatchisi bo'lmagan shaxsning nazoratdagi hududida muqim istiqomat qiluvchi shaxs ham emas, Qurolli Kuchlar tarkibiga ham kirmaydi va biror davlat tomonidan uning Qurolli Kuchlari safida rasmiy vazifalarni bajarish uchun yuborilmasligidadir.

Yollanuvchining o'zga davlat hududida yoki uning tarafini olib qurolli to'qnashuv yoki harbiy harakatlarda ishtirok etishi deganda, yollanuvchining rag'batlantirish yoki boshqa shaxsiy manfaatlar evaziga harbiy sifatida o'z qobiliyatlarini yollovchi manfaati uchun namoyon qilishini tushunish kerak.

Shuni ta'kidlash kerakki, ko'rilayotgan jinoyat obyektiv tomonining majburiy sharti bu qurollangan ziddiyat yoki harbiy harakatlar sharoitidir.

NOTA BENE !

Qurollangan ziddiyat deb,ikki yoki undan ortiq suveren davlatlarning Qurolli Kuchlari bilan harbiy harakatlar olib borishi tushuniladi.

NOTA BENE !

Harbiy harakatlar – bubirol-bir davlatga qarshi nodavlat, nohukumat qurollangan tuzilmalar olib boradigan harbiy harakatlardir (masalan, terroristik tashkilotlar).

Moddiy rag'batlantirish deganda, moddiy boylik, pul, mulkiy ko'rinishdagi mablag' olishi, qarzning uzilishi tushuniladi va hokazo.

Boshqa shaxsiy manfaat deganda, yashash uchun uy-joy taqdim qilinishi, noqonuniy faoliyatning amalga oshirilishi va boshqa nomoddiy ko‘rinishdagi boyliklarning taqdim qilinishi tushuniladi.

JK 154-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan jinoyatning **obyektiv tomoni** yollanuvchini yollash, o‘qitib tayyorlash, moddiy rag‘batlantirish yoki boshqa shaxsiy foydalari jihatdan ta‘minlash hamda qurollangan ziddiyatlar yoki harbiy harakatlarda undan foydalanishdir.

Yollanuvchini yollash harakati deganda, qurollangan ziddiyatlar yoki harbiy harakatlarda ishtirok etishi uchun odamlarni yollash maqsadida amalga oshirilgan har qanday harakat tushuniladi. Yollash harakatlari yollanuvchilarning qabul qilinishi haqidagi ma‘lumotlarning tarqatilishi, uchrashuv joyining belgilanishi, shaxsning yollanishi haqidagi og‘zaki yoki yozma kelishuvning amalga oshirilishi, yollanuvchilarga moddiy ta‘minot taqdim qilish yo‘li bilan ham amalga oshirilishi mumkin.

Yollanuvchini o‘qitish – bu shaxsda harbiy harakat haqida bilim, malaka va ko‘nikmalar shakllantirish, turli jangovar qurollarni ishlatishni, harbiy texnika vositalarida ishlashni, turli ob-havo sharoitlarida urushga kirish strategiyasi va taktikasini o‘rgatish, qo‘poruvchilik va razvedka faoliyatini o‘zlashtirish, yashash uchun kurashish, mafkuraviy tayyorlashni qamrab oladi.

Yollanuvchini moliyalashtirish – bu moliyalashtirish manbalarini topish, o‘zlashtirish va uni yollash shartiga ko‘ra yollanuvchilarga taqdim etish bilan bog‘liq chora-tadbirlar majmuidir. Moliyalashtirish turli vositalar yordamida: naqd pul mablag‘i berish, pul mablag‘ini yollanuvchining bankdagi hisob rag‘amiga o‘tkazish, yollanuvchi tomonidan ko‘rsatilgan shaxsga pul mablag‘ini topshirish va boshqa usullarda amalga oshirilishi mumkin. Ammo bu kvalifikatsiya qilishga ta‘sir etmaydi.

Yollanuvchini **boshqacha moddiy ta‘minlash** deganda, yollanuvchini pul mablag‘idan tashqari turli ashyo va texnik predmetlar (masalan, telefon) bilan ta‘minlab turish tushuniladi. Yollanuvchini boshqacha moddiy ta‘minlash turli jangovar qurollar, avtotexnika yoki boshqa harakatlanish vositalari bilan ta‘minlash tarzida ham amalga

oshirilishi mumkin. Moddiy ta'minlash to'g'ridan-to'g'ri (masalan, avtomobilni taqdim etish), shuningdek, bilvosita (masalan, yo'llangan shaxslarga ma'lum bo'lgan joyga kerakli barcha narsani g'amlab qo'yish orqali) amalga oshirilishi mumkin. Moddiy ta'minot qanday usulda amalga oshirilganligi qilmishni kvalifikatsiya qilishga ta'sir etmaydi.

Yollanuvchidan qurolli ziddiyatlar yoki harbiy harakatlarda foydalanish yollanuvchining shaxsi, jismoniy va aqliy salohiyatidan urush operatsiyalari yoki harbiy tUSDagi aktsiyalarda, harbiy harakatlar hududida, ham hududdan tashqarida, ham qurolli to'qnashuvlar yoxud harbiy harakatlarda bevosita foydalanish deganidir.

Ta'kidlab o'tish kerakki, berilgan harakatlarning har biri faoliyat hisoblanadi. Bu esa faoliyatning o'z ichiga turli o'zaro bog'langan faoliyatlar kompleksini olishini bildiradi va ular bitta shaxs tomonidan ham, bir necha subyektlar tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin. Masalan, yollanuvchini ta'minlash uchun pul mablag'larini topish bilan biri shug'ullansa, ikkinchisi ularning akkumulyatsiyasi bilan, uchinchisi esa pul mablag'larini yollanuvchilarga yetkazish bilan shug'ullanadi. Biroq aybdorning u yoki bu faoliyatning aynan qanday elementini (yollash, o'qitish, pul mablag'larini berish yoki boshqa turdagi moddiy ta'minotlar) sodir etganligiga qarab, uning harakatini yollash, o'qitish, pul mablag'larini berish yoki boshqa turdagi moddiy ta'minotlar yoxud bu faoliyatning boshqa elementlari aybdorning aqli bilan qo'llanilganligi sharti bilan ko'rilayotgan moddaning mazmuni bo'yicha foydalanish sifatida kvalifikatsiya qilish lozim.

JK 154-moddasida nazarda tutilgan jinoyat yollanuvchini qurolli ziddiyatlar yoki harbiy harakatlarda ishtirok etgan damdan boshlab yoxud yollanuvchini yollash, o'qitish, pul mablag'larini berish yoki boshqa turdagi moddiy ta'minotlarni amalga oshirishi yoxud yollanuvchidan qurolli ziddiyatlar yoki harbiy harakatlarda foydalanish vaqtdan boshlab **tamomlangan** hisoblanadi.

Subyektiv tomondan yollash va yollanish faqat ongli ravishda qasddan sodir etiladi. Aybdor qurolli ziddiyatlar yoki harbiy

harakatlarda faqat moddiy rag‘bat yoki shaxsiy foyda olish maqsadida ishtirok etayotganini biladi (JK 154-moddasi 1-qismi) yoki aybdor yollanuvchini yollash, o‘qitish, pul mablag‘larini berish yoki boshqa turdagi moddiy ta‘minotlarni amalga oshirayotganini biladi (JKning 154-moddasi 2-qismi) va bunday harakatlarni sodir etishni xohlaydi.

JK 154-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning zaruriy belgisi bo‘lib moddiy rag‘bat yoki shaxsiy foyda olish maqsadi xizmat qiladi.

JK 154-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan yollanish jinoyatining **subyekt**i bo‘lib 16 yoshga yetgan aqli raso, jismoniy shaxs hamda faqat yollanuvchi ishtirok etishi mumkin. Ya‘ni, bu yerda subyekt maxsusdir. JK 154-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan jinoyatning subyekt*i* esa umumiydir.

NOTA BENE !

Yollanuvchi deb, quyidagi belgilarga ega bo‘lgan shaxslarga aytiladi:

1) yollanuvchi boshqa davlat hududida yoki uning tarafini olib qurolli ziddiyatlar yoki harbiy harakatlarda moddiy rag‘bat yoki shaxsiy foyda olish maqsadida ishtirok etadi;

2) u nizolashayotgan davlatning fuqarosi va harbiy xizmatchisi emas;

3) u nizolashayotgan davlat nazorat qilinib turgan hududda doimiy yashamaydi;

4) u Qurolli Kuchlar safida rasmiy vazifalarni bajarish uchun hech qanday davlat tomonidan vakolat berilmagan shaxsdir.

Harbiy maslahatchilar vaqtincha faqat davlatlararo kelishuvga muvofiq boshqa joyga xizmatga yuborilishlari mumkin, lekin ular harbiy ziddiyatlarda bevosita ishtirok eta olmaydilar.

JK 154-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan jinoyat, mansabdor shaxs tomonidan o‘z vakolatini suiiste‘mol qilish yo‘li bilan amalga oshirilsa (masalan, pul-mablag‘ va moddiy resurslarni boshqarish vakolatini suiiste‘mol qilish) sodir etilgan harakatni jinoyat xususiyatiga ko‘ra JK 154-

moddasi hamda JK 205-moddasi (Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste' mol qilish) tegishli qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

6-§. Chet davlatlarning harbiy xizmatiga, xavfsizlik, politsiya, harbiy adliya organlari yoki shunga o'xshash boshqa organlariga xizmatga kirish, yollanish (JK 154¹-moddasi)

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 52-moddasida «O'zbekiston Respublikasini himoya qilish — O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir» deb belgilab qo'yilgan. Ushbu moddaning mazmunan davomi sifatida Asosiy Qonunning quyidagi normasi ahamiyatlidir, bunda «Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga majburdirlar»¹ deyilgan. Harbiy xizmatga kirayotganda har bir fuqaro «O'zbekiston Respublikasi xalqiga va Prezidentiga sodiqligi haqida harbiy qasamyodni»² qabul qiladi. Ammo, O'zbekiston Respublikasining avvalgi qonunchiligi Harbiy qasamyodni nazorat qiluvchi amaliy tuzilmaga ega bo'lmay, balki uning qabul qilinishi qasamyod qiluvchining ma'naviy mas'uliyati bilan baholanar edi.

¹Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси: Ён иккинчи чакириқ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ўн биринчи сессиясида 1992 йил 8 декабрда қабул қилинган. (2002 йил 27 январда ўтказилган умумхалқ референдуми натижаларига кўра ҳамда унинг асосида Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 24 апрелда қабул қилинган Қонунига мувофиқ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси XVIII, XIX, XX, XXIII бобларига ўзгартиришлар ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2007 йил 11 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 89-моддасига, 93-моддасининг 15-бандига, 102-моддасининг иккинчи қисмига тузатишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2008 йил 25 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 77-моддасининг биринчи қисмига ўзгартириш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2011 йил 12 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 90-моддасининг иккинчи қисмига тузатиш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 16 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 32, 78, 93, 98, 103 ва 117 моддаларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 6 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 4-бандига, 81-моддасининг еттинчи қисмига, 83-моддасига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13 ва 14- бандларига, 107-моддасининг биринчи қисмига, 110-моддасининг биринчи ва учинчи қисмларига, 111-моддасига ўзгартишлар ва қўшимча киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 31 майда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 5 ва 12-бандларига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13-бандига ҳамда 108, 109-моддаларига ўзгартишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 29 августда қабул қилинган қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 99 ва 10-моддаларига ўзгартишлар киритилган.) – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. -18 б.

²Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг 2002 йил 12 декабрдаги «Умумий ҳарбий мажбурият ва ҳарбий хизмат тўғрисида»ги Қонуни, 3-модда 6 ва 7-қисмлари, 39-модда 1-қисми // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2002 й., 12-сон, 217-модда.

Jinoyat kodeksiga ko‘rilayotgan moddaning kiritilishi qonunchilikda bu boradagi bo‘shliqni to‘ldirish, fuqarolarning o‘z davlati oldidagi mas’uliyatini oshirishga qaratilgan.

Jinoyatning **ijtimoiy xavfliligi** shundaki, uning sodir etilishi natijasida huquq-tartibotga, davlatlarning tinch-totuv munosabatlariga, O‘zbekiston Respublikasining mudofaa imkoniyatlariga putur yetadi. Bundan tashqari, harbiy xizmatga, xavfsizlik organlariga, politsiyaga, harbiy adliyaga va boshqa shu kabi xorijiy davlat tashkilotlariga kirish yoki yollanish natijasida O‘zbekiston fuqarolaridan yollanuvchilar sifatida foydalanish haqida fikrlar vujudga keladiki, bu holat xalqaro tashkilot tomonidan qat’iyan taqiqlanadi.

JK 154¹-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning **bevosita obyekt** davlatlarning xavfsizligi va osoyishta hayotini ta’minlovchi, ularning rivojlanishi va hayotiy faoliyati sharoitlarini ta’minlovchi ijtimoiy munosabatlardir. Fakultativ obyekt sifatida bu yerda O‘zbekiston Respublikasining suvereniteti, tashqi xavfsizligi, obro‘yi xizmat qiladi.

JK 154¹-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyatning **obyektiv tomoni** O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining harbiy xizmatga, xavfsizlik organlariga, politsiyaga, harbiy adliyaga va boshqa shu kabi xorijiy davlat tashkilotlariga kirishini tashkil qiladi.

Berilgan jinoyat faqat faol harakatlar natijasida sodir etilishi mumkin.

Ko‘rilayotgan jinoyat kontekstida **xizmatga kirish** shaxsning Qurolli Kuchlar tarkibiga, harbiy xizmatga, xavfsizlik organlariga, politsiyaga, harbiy adliyaga va boshqa shu kabi xorijiy davlat tashkilotlariga a’zo bo‘lishi uchun amalga oshirilgan sa’y-harakatlar tizimini bildiradi. Shuni ham nazarda tutish kerakki, xizmatga kirishda har bir holatda shaxsning tashqi irodasini anglatuvchi o‘z xohish va istagi asosiy belgidir.

Xizmatga faoliyat sifatida kirishish o‘z ichiga turli harakatlarni oladi: kirish uchun zarur hujjatlarni tayyorlash, harbiy xizmat organlari, davlat xavfsizligi organlari bo‘linmalari va boshqalar bilan aloqa o‘rnatish, mutaxassislarni qabul qiluvchilar va tarqatuvchilar bilan tanishish, ko‘rib chiqish uchun hujjatlarni topshirish va boshqalar. Aybdor tomonidan harbiy xizmatga kirish uchun qo‘llanilgan uslub va usullar

turlicha bo‘lishi mumkin va bu holat jinoyatning kvalifikatsiyasiga ta’sir qilmaydi. Shu bilan birga agar bunday uslub va usullar ijtimoiy xavfli bo‘lib, alohida jinoiy harakatni tashkil qilsa (masalan, hujjatlarni qalbakilashtirish, pora berish va h.k.) bunday holatda sodir etilgan harakatni JK 154¹-moddasi 1-qismi bo‘yicha va JK ushbu jinoyatni nazarda tutuvchi tegishli moddasi bo‘yicha kvalifikatsiya qilish lozim.

O‘zbekiston fuqarosining istalgan xizmatga emas, balki faqat harbiy xizmatga, xavfsizlik organlariga, politsiyaga, harbiy adliyaga va boshqa shu kabi xorijiy davlat tashkilotlariga a’zo bo‘lishi hamda xizmatga kirishi jinoyat hisoblanadi.

Harbiy xizmat – bu davlat xizmatining harbiy tayyorgarlik va davlatni harbiy qo‘riqlashni o‘z ichiga oluvchi maxsus ko‘rinishidir. Harbiy xizmat davlatning Qurolli Kuchlari va boshqa harbiy tuzilmalarida amalga oshiriladi. Qurolli Kuchlarning va harbiy tuzilmalarning, shuningdek, harbiy xizmatning nomi kvalifikatsiya uchun ahamiyatga ega emas.

Xavfsizlik organlarida xizmat qilish xuddi shunday davlat xizmatining maxsus ko‘rinishi bo‘lib, bunda ham shaxs asosiy faoliyati inson, jamiyat, davlatning hayotiy zarur manfaatlarini ichki va tashqi xavflardan himoyasini ta’minlash bo‘lgan milliy organlarda xizmatni o‘taydi. Xorijiy davlatlarda davlat va jamiyat xavfsizligi turli organlar orqali amalga oshiriladi hamda ularning tuzilmalari O‘zbekiston xavfsizlik organlari tuzilmalaridan farq qilishi mumkin va bu holat harakatning kvalifikatsiyasiga ta’sir qilmaydi. Shuningdek, xavfsizlik organlarining nomlanishi va tashkiliy-huquqiy ko‘rinishi ham jinoyatning kvalifikatsiyasiga ta’sir qilmaydi.

Politsiyada xizmat qilish davlat xizmatining maxsus ko‘rinishi bo‘lib, ijtimoiy tartibni qo‘riqlash hamda jinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha maxsus organlar tizimida o‘tashdir. Barcha yoki ba’zi ko‘rinishdagi huquqbuzarlikni taftish qilish bilan shug‘ullanadi¹. O‘zbekistonda va ba’zi boshqa davlatlarda militsiya deb nomlanadi.

¹Каранг: Большой юридический словарь. Под ред. А.Я. Сухарева, В.Е. Крутских. изд. второе. – М.: ИНФРА-М, 2000. 442-б.

Politsiya deb nomlanishi va tashkiliy-huquqiy ko‘rinishi jinoyatning kvalifikatsiyasiga ta’sir qilmaydi.

Harbiy adliya organlarida xizmat qilish o‘z ichiga turli boshqarma va xizmatlarni hamda faoliyati Qurolli Kuchlar va davlatning boshqa harbiy tuzilmalaridagi huquq-tartibotni ta’minlash bilan bog‘liq bo‘lgan sud tizimini oladi.

Boshqa shu kabi xorijiy davlat tashkilotlari deganda, xizmati harbiylashtirilgan deb hisoblanadigan (xorijiy davlat hududida ular doimiy lashkar sifatida, shuningdek, ichki armiya sifatida ko‘rilishi kerak) istalgan muassasa, tashkilotlar, organlar va h.k. larni tushunish lozim hamda xorijiy davlatga sodiqlik haqida qasamyodning qabul qilinishi bilan tasdiqlanadi (masalan, soliq politsiyasi, bojxona politsiyasi, giyohvandlikka va korrupsiyaga qarshi kurashish maxsus otryadlari va boshqalar). Ko‘rilayotgan modda bo‘yicha shaxsni javobgarlikka tortish uchun mazkur organni tavsiflashda harbiylik belgisi va qasamyod qabul qilinganligi shart.

Xorijiy davlat tashkilotlari organlariga xizmatga kirish, masalan, umumiy yurisdiksiyadagi (Qurolli Kuchlar, huquq munosabatlariga taalluqli bo‘lgan ish ko‘rilmaganida) tergovchi, prokuror yoki sudya lavozimlariga ular tomonidan ham qasamyod qabul qilinganligidan qat’i nazar jinoyat hisoblanmaydi.

Davlatlararo hamkorlik harbiylar va boshqa mutaxassislar, maslahatchilar bilan almashinish yoki huquqni himoya qilish faoliyatida O‘zbekiston fuqarolari ma’lum vaqt harbiy maslahatchi, mutaxassis yoki boshqa lavozimda xorijiy davlat xizmatida faoliyat yuritishi holatlari ham jinoyatdan mustasnodir. Bundan tashqari, xorijiy davlat hududida ma’lum xalqaro tashkilotlar miqyosida, harbiy va maxsus bo‘linmalar va tuzilmalarda, jumladan, BMTning tinchlikni saqlash tuzilmalari tarkibida («havorang kaskalar») hamda INTERPOLda xizmat qilish ham mazkur moddaning ta’siriga tushmaydi.

JK 154¹-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyat aybdorning Qurolli Kuchlar tarkibiga harbiy xizmatga, xavfsizlik organlariga, politsiyaga, harbiy adliyaga va boshqa shu kabi xorijiy davlat tashki-

lotlariga qabul qilinganligi haqidagi buyruqning chiqarilishi, ma'lumotning olinishi, buyruqning imzolanishi (va boshqa ko'rinishdagi hujjatlar) vaqtidan boshlab **tamomlangan** deb hisoblanadi.

JK 154¹-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan jinoyatning **obyektiv tomoni** O'zbekiston Respublikasi fuqarosini harbiy xizmatga, xavfsizlik organlariga, politsiyaga, harbiy adliyaga va boshqa shu kabi xorijiy davlat tashkilotlariga yollashda namoyon bo'ladi.

Berilgan me'yorning mazmuni bo'yicha **yollash** deganda, O'zbekiston Respublikasi fuqarosini harbiy xizmat, xavfsizlik organlari, politsiya, harbiy adliya va boshqa shu kabi xorijiy davlat tashkilotlariga yollashga yo'naltirilgan har qanday harakatning sodir etilishini tushunish lozim.

Xorijiy davlatlardagi shu kabi xizmatga nomzodlarni yollash harakatlari yollanuvchilarning qabul qilinishi haqidagi ma'lumotlarning tarqatilishi, uchrashuv joyining belgilanishi, shaxsning yollanishi haqidagi og'zaki yoki yozma kelishuvning amalga oshirilishi O'zbekiston fuqarosining xorijiy davlat xavfsizlik organlarida, politsiya va shu kabi joylarda xizmat qilishi shartlarini belgilash va boshqa odamlarni yollash bo'yicha barcha boshqa harakatlardan iborat.

O'zbekiston Respublikasi fuqarosining xorijiy davlat xavfsizlik organlarida politsiya va shu kabi joylarda xizmat qilishi shartlarini kelishish vaqtidan boshlab berilgan jinoyat **tamomlangan** deb topiladi.

JK 154¹-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning **subyektiv tomoni** doimo anglangan holda **to'g'ri qasddan** sodir etiladi. Berilgan moddaning 1-qismi bo'yicha harakat sodir etilganda aybdor O'zbekiston fuqarosi ekanligini va harbiy xizmatga, xavfsizlik organlari, politsiya, harbiy adliya va boshqa shu kabi xorijiy davlat tashkilotlariga xizmatga kirayotganini biladi va shuni xohlaydi. Xuddi shunday JK 154¹-moddasi 2-qismi bo'yicha aybdor O'zbekiston fuqarosini harbiy xizmat, xavfsizlik organlari, politsiya, harbiy adliya va boshqa shu kabi xorijiy davlat tashkilotlariga xizmatga yollayotganini anglaydi.

Berilgan harakatlarning **maqsadi** va **motivi** turlicha bo‘lishi mumkin, lekin jinoyatning kvalifikatsiyasiga ta’sir qilmasa-da, sud tomonidan jazoni belgilash vaqtida inobatga olinishi lozim.

JK 154¹-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyatning **subyekt**i maxsus shaxs bo‘lib, u faqat 16 yoshga yetgan aqli raso O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lishi mumkin. JK 154¹-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan jinoyatning subyekt*i* esa 16 yoshga to‘lgan har bir aqli raso jismoniy shaxs bo‘lishi mumkin. Bu shaxslarning fuqaro-ligi ahamiyatsizdir.

NOTA BENE !

Fuqarolik odamning davlat bilan qat’iy huquqiy aloqasi bo‘lib, o‘zaro huquq va majburiyatlar, shaxs huquq va erkinligi, qadr-qimmatini hurmat qilish tamoyillariga asoslanadi.

O‘zbekiston fuqarosining harbiy xizmat, xavfsizlik organlari, politsiya, harbiy adliya va boshqa shu kabi xorijiy davlat tashkilotlariga O‘zbekiston hududidagi tashkilotlar, organlar, muassasalarda xizmatini davom ettirishi bilan kirishi tegishli belgilar mavjud bo‘lsa, hattoki izohlanayotgan jinoyatning subyektida O‘zbekiston fuqarosining pasporti saqlanib qolgan bo‘lsa ham harakatni yollanish sifatida kvalifikatsiya qilinadi. Bu yerda harakatni davlatga xiyonat sifatida kvalifikatsiya qilib bo‘lmaydi, chunki harbiy xizmat, xavfsizlik organlari, politsiya, harbiy adliya va boshqa shu kabi xorijiy davlat tashkilotlariga kirishi (shaxsiy tarkibiga qabul qilinishi) vaqtidan boshlab shaxs avtomatik tarzda O‘zbekiston fuqaroligini yo‘qotadi¹.

Shuningdek, harbiy xizmat, xavfsizlik organlari, politsiya, harbiy adliya va boshqa shu kabi xorijiy davlat tashkilotlariga kirish va yollanish jinoyatlariga javobgarlik hamda JK 154-moddasida nazarda tutilgan yollanish jinoyatiga javobgarlik o‘rtasidagi farqni ajratish kerak.

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг 1992 йил 2 июлдаги «Ўзбекистон Республикасининг фуқаролиги тўғрисида»ги Қонуни, 21-модда, 1-қисм, 1-банд // Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1992 й., 9-сон, 338-модда.

Buning uchun birinchidan, JK 154¹-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyatning majburiy belgisi O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining **rasmiy** tarzda harbiy xizmat, xavfsizlik organlari, politsiya, harbiy adliya va boshqa shu kabi xorijiy davlat tashkilotlariga kirishini tashkil qiladi. Nodavlat, xususiy xizmatlar, bo‘linmalar va qurolli tuzilmalarda xizmatni o‘tash ishning sharoitiga qarab, agar shaxs harbiy harakatlarda, qurolli to‘qnashuvlarda qatnashsa yoki qatnashish istagida bo‘lsa yoki umuman jinoiy qidiruvning markazi bo‘lishini istamasa (masalan, yirik xususiy kompaniya, korporatsiya yoki xususiy detektiv qo‘riqlash agentligida ishlash) uning harakati yollanish sifatida kvalifikatsiya qilinadi.

Ikkinchidan, berilgan jinoyatlar tarkibining asosiy farqi jinoyat **subyektid**adir. Yollanishning tarkibi uchun shaxsning ziddiyatlarda yoki harbiy harakatlarda ishtirok etayotgan davlatning Qurolli Kuchlari shaxsiy tarkibiga taalluqliligining yo‘qligi majburiydir. Bundan tashqari, shaxsni JK 154-moddasi bo‘yicha aybdor deb topish uchun uning qurolli to‘qnashuvlar yoki harbiy harakatlarda ishtirok etgani (JK 154-moddasi 1-qismi) yoki boshqa shaxslarni, yollanuvchilarni ishtirok etish uchun yollaganligi (JK 154-moddasi 2-qismi) aniqlanishi zarur.

7-§. Terrorizm (JK 155-moddasi)

Xalqaro huquqda terrorizmga qarshi kurashishga yo‘naltirilgan qator konvensiyalar mavjud. Masalan, Terrorizmni yo‘q qilish haqidagi Yevropa Konvensiyasi (Strasburg, 1977 yil 27 yanvar), Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi davlatlari-ishtirokchilarining terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha hamkorligi haqidagi shartnomasi (Minsk, 1999 yil 4 iyun), Bombani qo‘llash bilan bog‘liq terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risidagi xalqaro Konvensiya¹, Terrorizm, separatizm va

¹Қаранг: Бомбани қўллаш билан боғлиқ терроризмга қарши кураш тўғрисидаги халқаро конвенция (Нью-Йорк, 1997 йил 15 декабрь; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг 1998 йил 29 августдаги 684-І-сон қарори билан ратификация қилинган; Ўзбекистон Республикаси учун 2001 йил 23 майдан бошлаб кучга кирди).

ekstremizmga qarshi kurash to'g'risidagi Shanxay konvensiyasi¹ va h.k. shular jumlasidandir.

Terrorizm jinoiy harakatning eng og'ir ko'rinishlaridan biri bo'lib, aybdor atrofdagilarda qo'rquv, g'alayonuyg'otishga, ularning me'yoriy odati va ijtimoiy foydali faoliyatini to'xtatib qo'yishga, hokimiyat va boshqaruv organlariga qarshilik qilib, o'zining noqonuniy maqsadlariga erishishga harakat qiladi.

Terrorizmning **asosiy bevosita obyekti** xalqaro xavfsizlikni ta'minlaydigan va insoniyatni himoyalaydigan hamda O'zbekistonning ijtimoiy xavfsizligini ta'minlaydigan ijtimoiy munosabatlardir. Terrorizmda fuqarolarning hayoti va sog'ligiga, hokimiyat va boshqaruv organlari faoliyatiga, ijtimoiy tartibot, o'zgarar mol-mulkiga va boshqalarga zarar etishi mumkin. Shu sababli terrorizmning bevosita **qo'shimcha obyekti** bo'lib odamlarning hayoti, sog'ligi, moddiy yoki boshqa manfaatlarini ta'minlaydigan ijtimoiy munosabatlar xizmat qiladi.

Terrorizm jinoyatida jinoyatning **predmeti** bo'lib moddiy boylik va boshqa moddiy obyektlar, masalan, ko'p qavatli turar joylar, temir yo'l vokzallari, aeroportlar, avtostantsiyalar, elektropoezd, metropolitenlar, madaniyat saroylari suv va issiqlik energiyasi ta'minoti tarmoqlari, yadroviy obyektlari va h.k. lar xizmat qilishi mumkin.

Obyektiv tomondan JK 155-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan terrorizm o'z ichiga zo'rlik ishlatish, kuch ishlatish va boshqa harakatlarda davlat organlari, xalqaro tashkilot, jismoniy yoki yuridik shaxslarni qandaydir qilmishni sodir etish yoki ulardan voz kechishga majbur qilish bilan bog'liq faol harakatlarda ifodalanadi.

Bunday zo'rlashning vositasi qotillik yoki tan jarohati yetkazish bilan tahdid solish, xorijiy davlat yoki xalqaro tashkilotlarning vakillarini garovda ushlab turish, davlat yoki jamoat arbobiga yoxud hokimiyat vakiliga tajovuz qilish yoki tan jarohati yetkazish kabilardir.

¹Караг: Терроризм, сепаратизм ва экстремизмга қарши кураш тўғрисидаги Шанхай конвенцияси (Шанхай, 2001 йил 15 июнь; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг 2001 йил 30 августдаги 274-II-сон қарори билан ратификация қилинган).

Kuch va zoʻrlik ishlatish deganda, aybdor tomonidan terrorizm harakatida har qanday zoʻravonlik tusidagi harakatlarning sodir etilishi tushuniladi. Zoʻrlik ishlatish deganda, turli darajadagi tan jarohati yetkazish, odam oʻgʻirlash, asirlikka olish, qurol, shu jumladan, ommaviy qirgʻin qurollarini ishlatish va hokazolarni tushunish lozim.

Shaxsga yoki mol-mulkka xavf tugʻdiruvchi boshqa harakatlar deganda, shaxsga yoki mol-mulkka xavf yetishini vujudga keltiradigan harakatlar tushuniladi. Bular terroristik tusdagi istalgan harakatlar boʻlishi mumkin va u quyidagilarga yoʻnaltirilgan boʻladi: portlatish, yoqib yuborish harakatlari; aholi yashash joylarini suvga choʻktirish; hosillarni barbod qilish; yerni yoki hosilni yaroqsiz holga keltirish; chuchuk suv resurslarini zaharlash; radioaktiv, kimyoviy, biologik, yadroviy qurollardan, bomba, zaharlovchi, kuchli taʼsir etuvchi, toksik moddalardan foydalanish; transport vositalari yoki boshqa obyektlarni zararlash yoki yoʻq qilish; avariya hodisalari va texnogen halokatlari uchun sharoit yaratish va hokazolardir.

Shaxsning xavfliligi deganda, terroristik aktning sodir etilishiga yoʻnaltirilgan harakatlar davomida hech boʻlmasa bir kishining hayotiga tahdid solinishi tushuniladi. **Mol-mulk xavfliligi** deganda, mol-mulkka sezilarli zarar etishiga sharoit nazarda tutiladi. Shu bilan birga mol-mulkning zarari qiymati barbod boʻlgan yoki zararlangan mol-mulkning bahosi bilan belgilanadi.

Kuch ishlatish tahdidi, zoʻrlik ishlatish shaxsga yoki mol-mulkka xavf tugʻdiruvchi boshqa harakatlarni sodir etish davlat organlari, hokimiyatlar mansabdor shaxslariga, xalqaro tashkilotlarning vakillari va vakolatli shaxslariga, umuman maʼlum davlat, hudud, mahalliy joyning aholisiga xalqaro munosabatlarni qiyinlashtirish, suverenitetni va hududiy yaxlitlikni buzish, davlat xavfsizligiga putur yetkazish, urushni, qurolli toʻqnashuvlarni, ijtimoiy-siyosiy muhitning muvozanatini buzish, aholini qoʻrqitishdan iborat.

Terrorchilik harakatlarini sodir etish tahdidi ogʻzaki, yozma, bevosita yoki turli aloqa vositalari orqali maʼlum qilinishi mumkin. U, albatta, haqqoniy boʻlishi kerak, har holda jabrlanuvchida aybdorning tahdidini

amalgga oshirmoqchi bo‘lganligi yoki bo‘lmaganligidan qat’i nazar uning sodir etilishidan qo‘rqishi uchun yetarli sabablari bo‘lishi lozim.

Terroristik tashkilotlarning mavjud bo‘lishi, faoliyat yuritishi, moliyaviy qo‘llab-quvvatlanishini ta‘minlashga yo‘naltirilgan faoliyat deganda, aybdor tomonidan terroristik tashkilotlarning shaxsiy tarkibini (askarlar) rekrut (yollash, yig‘ish, tanlab olish) qilish bo‘yicha harakatlari nazarda tutiladi; shunday tashkilotlarni qurollantirish, ya’ni yollanma askarlarni sovuq yoki o‘qotar qurollar, o‘q-dori zaxiralari va portlovchi vositalar, harbiy va maxsus texnika bilan ta‘minlash; yollanma askarlarni o‘qitishni tashkil qilish, terroristik tashkilotlarni yoki terroristik-buzg‘unchi guruhlarining faoliyatini va harakatlarini rejalashtirish; terroristik tashkilotlarning kundalik xo‘jalik va boshqa ehtiyojlarini moliyaviy, shu jumladan, milliy va xorijiy valyutalarda qoniqtirish va hokazolarda namoyon bo‘ladi.

Terroristik aktlarni tayyorlash va sodir etish o‘z ichiga terroristik aktlarni tayyorlash ketma-ketligini bildiradigan maqsadli harakatlarni oladi: rejalashtirish (terroristik aktni sodir etish rejasini ishlab chiqish, jinoyatga loyiq obyektни tanlash), ishtirokchilar orasida majburiyatlarni taqsimlash (mutaxassislarni, jumladan, portlatish texnikalari, ekspertlarni tanlash va «shahidlarni» tayyorlash), tayyorgarlik ishlarini olib borish (hududni o‘rganish, orqaga qaytish yo‘llarini o‘ylash va boshqalar) va hokazo hamda terroristik harakatni amalga oshirish pog‘onalari, ya’ni rejalashtirilgan terroristik aktни u yoki bu ko‘rinishda (portlatish, yoqib yuborish, bosib olish, asirlarni qo‘lga olish va hokazo) bevosita sodir etishda namoyon bo‘ladi.

Terroristik tashkilotlarga yoki terroristik faoliyatdagi qatnashuvchilarga yoki ishtirokchilarga bevosita yoki bilvosita har qanday vositalarni, resurslarni yoki boshqa xizmatlarni taqdim etish yoki yig‘ish terroristik tashkilotlarni moliyalashtirish moddiy ta‘minlashga yo‘naltirilgan har qanday ko‘rinishdagi faoliyatni o‘z ichiga oladi, jumladan, terroristik tashkilotlar manfaatlariga xizmat qiluvchi yoki uning ko‘rsatmalari bilan ochiqchasiga yoki yashirin tarzda faoliyat yurituvchi turli jamg‘armalarni, ijtimoiy tashkilotlarni, birlashmalarni tashkil qilish; go‘yoki xayriya uchun vositalar yig‘ish yo‘li bilan;

davlatlar hududida hamda nazorat qilinmaydigan hududlarda, terroristik tashkilotlarni moddiy moliyalashtirishda ishtirok etadigan shaxslarni moliyalashtirish, kredit berish, foizsiz imtiyozli tarzda qarz berish maqsadida faoliyat yurituvchi turli moliyaviy tashkilotlarni, banklarni qonuniy tarzda tashkil qilish va hokazolar yuqorida koʻzda tutilgan harakat turiga kiradi. Bundan tashqari, terroristik tashkilotlar faoliyatini moliyalashtiruvchi manba sifatida foydasi terroristik tashkilotlarning faoliyatini qoʻllab-quvvatlashga sarflanadigan ishlab turgan zavodlar, fabrikalar va boshqalar ham xizmat qilishi mumkin. Shu bilan birga, tashkilotlar orqali va lotereya hamda kazino oʻyinlarini oʻtkazish orqali ham moliyalashtirish harakatlari aniqlangan.

Aybdor resurslar va vositalarni kimga taqdim etayotganini bilsa hamda bu vositalarni terroristlarga berishni **bevosita** amalga oshirsa, vositalarni taqdim etish qasddan amalga oshirildi deb baholanishi zarur. Vositalarni **bilvosita** taqdim etish holati, aybdorning vositalarni terroristlarga emas, balki dallollarga, masalan, biror-bir xayriya tashkilotlari orqali berilishida namoyon boʻladi. Bevosita va bilvosita vositalarni taqdim qilish oʻrtasidagi farqni vositalarni taqdim qilish daliliga koʻra ajratish lozim: agar ular vositachiga berilgan boʻlsa, demak bu vositalarni bilvosita taqdim etishdir, agar vositachi boʻlmagan boʻlsa, demak bu bevosita taqdim etish hisoblanadi.

Vositalarni taqdim qilishdan farqli oʻlaroq **vositalarni yigʻishoʻzida** tegishli vositalarni ularni taqdim etuvchi shaxslardan akkumulyatsiya qilish boʻyicha faoliyatni mujassam etadi, yaʼni vositalarni yigʻuvchilar ularni taqdim etuvchilar va terroristik tashkilotlar yoki terroristik faoliyatda ishtirok etuvchi shaxslar orasida vositachi sifatida xizmat qiladi. Vositalarni yigʻuvchilar vositachilar kabi ularning mulkdori hisoblanmaydi, faqatgina taqdim etilgan vositalarga ega boʻlishadi. Boshqacha qilib aytganda, vositalarni yigʻuvchilar va ularni taqdim etuvchilar orasidagi chegarani taqdim etilgan vositaning mulkdori ekanligiga qarab aniqlash lozim.

Terroristlarga **boshqa xizmatlarni koʻrsatish** oʻz ichiga quyidagilarni oladi: terroristlarni belgilangan jazosidan berkitish, xalqaro terrorizm holatida – xorijiy rahbariyat bilan aloqani tashkil qilish, turli

xil kuzatishlarni olib borish (masalan, biror-bir arbobning kun tartibini kuzatish) va hokazo kabilar.

Shuni nazarda tutish kerakki, terrorizm turli xil usullar orqali amalga oshirilishi mumkin, lekin ularning barchasi ikkita umumiy belgiga ega: davlat hokimiyatini agʻdarishga yoʻnaltirilganlik hamda aholi orasida terroristlarning tashkillashtirilgan va shafqatsiz zoʻravonligi natijasida qoʻrquv va himoyasizlik hissini uygʻotish.

Koʻp hollarda terrorizm odamlarning oʻlimi xavfini tugʻdiruvchi, mol-mulkka sezilarli zarar yetkazilishi yoki boshqa ijtimoiy xavfli oqibatlar yoki berilgan harakatlarni sodir etish tahdidiga olib keluvchi portlatish yoki yoqib yuborish yoʻli bilan sodir etiladi.

NOTA BENE !

Portlash – bu qisqa vaqt ichida chegaralangan hajmda koʻp miqdordagi quvvatning issiqlik ajratishi bilan boʻshashi jarayonidir.

Yuqori bosim natijasida oʻta qizdirilgan gaz (plazma) kengayadi va atrofdagi buyumlarga mexanik taʻsir koʻrsatadi (bosim, vayron qilish, parchalash va hokazo).

NOTA BENE !

Yoqib yuborish – bu aybdor shaxs tomonidan u yoki bu usul orqali obyektning nazorat qilinmaydigan yonish jarayonini sodir etishdir.

JK 155-moddasi 1-qismi dispozitsiyasi haqiqatdan ham koʻrsatilgan oqibatlarni sodir etish va koʻrsatilgan maqsadlarga etishni nazarda tutmaydi. Gap shu haqida bormoqdaki, terroristik tashkilotlar uchun berilgan maqsadlarda yoki vositalarni yigʻishda zoʻrlilik ishlatilish dalili, agar qoʻyilgan maqsadga erishilmaganda ham odamlar oʻlimiga yoki mol-mulk zarariga olib kelish xavfi tugʻilganida jinoyat **tamomlangan** hisoblanadi.

Subyektiv tomondan terrorizm **toʻgʻri qasddan** sodir etilgan jinoyatdir. Qasd toʻgʻri boʻlib, aybdor terroristik tashkilotlarning faoliyat yuritishi, moliyalashtirilishini, taʻminlashga yoʻnaltirilgan, sodir

etayotgan terroristik harakatlar yoki boshqa faoliyatning ijtimoiy xavfini va tavsifini, xalqaro xavfsizlikni izdan chiqarishni angelaydi. Shunday bo'lsa-da, buni xohlaydi.

Berilgan jinoyat tarkibining subyektiv tomoni uchun **maqsad** – xalqaro munosabatlarni og'irlashtirish, suverenitetni va hududiy yaxlitlikni buzish, davlat xavfsizligini buzish, urushni, qurolli to'qnashuvlarni targ'ib qilish, ijtimoiy-siyosiy sharoitni izdan chiqarish, aholini qo'rqitish holatlari bo'lishi shart. Bunday maqsad bo'lmaganida sodir etilgan harakatni JK 155-moddasi 1-qismi bilan kvalifikatsiya qilib bo'lmaydi.

Ko'rilayotgan jinoyatni sodir etish **motivlari** turlicha bo'lishi mumkin: qasos, qasd, davlatda olib borilayotgan siyosatni g'oyaviy qabul qilmaslik va boshqalar, biroq bular jinoyatning kvalifikatsiyasiga ta'sir qilmaydi, ammo har bir holatda sud tomonidan jazo belgilanayotganda inobatga olinishi lozim.

JK 155-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan terrorizmning **obyektiv tomoni** davlat yoki ijtimoiy vakil yoki hokimiyat vakillariga ularning davlat yoki ijtimoiy faoliyati bilan bog'liq holda tan jarohatlari yetkazishi, hayotiga qasd qilish holatlarida namoyon bo'ladi.

Hayotga suiqasd qilish deganda, aybdor tomonidan davlat yoki ijtimoiy vakilning aybdorning irodasidan kelib chiqmagan holda sharoitlar natijasida o'limiga olib keladigan holatlar tushuniladi. Qasd qilish transport vositalarining to'qnashuvini sahnalashtirish, sovuq qurol bilan insonning hayotiy zarur organlariga urish, zaharlash harakati va boshqalarda namoyon bo'ladi. Qasd qilishning usuli harakatning kvalifikatsiyasiga ta'sir qilmaydi, lekin sud tomonidan jazoni belgilashda inobatga olinishi mumkin.

Terrorizmni sodir etishda **tan jarohatini yetkazish** davlat yoki ijtimoiy vakil yoki hokimiyat vakillariga ularning davlat yoki ijtimoiy faoliyati bilan bog'liq holda har qanday og'irlikdagi (yengil, o'rtacha og'ir yoki og'ir) tan jarohatini yetkazishda namoyon bo'ladi.

(Og'ir, o'rtacha og'ir va yengil tan jarohatlarini yetkazish tushunchalari haqida JK ning 104-, 105- va 109-moddalari sharhini qarang.)

Shu bilan birga tan jarohati ijtimoiy vakil yoki hokimiyat vakillariga ularning aynan davlat yoki ijtimoiy faoliyati bilan bogʻliq holda yetkazilgan boʻlishi shart. Agar koʻrsatilgan shaxslarning sogʻligiga zarar ularning faoliyati bilan bogʻliq holda yetkazilmay, balki boshqa sharoitlar sababli boʻlsa, u holda koʻrilayotgan terrorizmning tarkibi sifatida istisno qilinadi va aybdorni shaxsga qarshi jinoyat sodir etish boʻyicha tergov qilinadi.

Agar **tan jarohati yetkazish** qasd qilish maqsadiga ega boʻlsa, sodir etilgan harakatni kuch ishlatish belgisiga koʻra JK 155-moddasi 1-qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

JK **155-moddasi 2-qismida** nazarda tutilgan jinoyat ijtimoiy yoki hokimiyat arboblari hayotiga suiqasd qilish yoki sogʻligiga zarar yetkazish holati sodir etilganida **tamomlangan** deb topiladi.

JK 155-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan terrorizm subyektiv tomondan qasddan sodir etiladi. Aybdor oʻzi tomonidan sodir etilayotgan harakatlarning ijtimoiy xavfli tavsifini anglaydi va shuni xohlaydi, shu bilan birga qonunda koʻrsatilgan aniq maqsad bilan – davlat organlari tomonidan qarorlarning qabul qilinishiga taʼsir etish yoki sharoitni izdan chiqarish yoxud siyosiy va boshqa ijtimoiy faoliyatga toʻsqinlik qilishga harakat qiladi.

JK **155-moddasi 3-qismida** nazarda tutilgan terrorizm berilgan moddaning 1- yoki 2-qismida nazarda tutilgan va quyidagi oqibatlarini olib kelgan harakatlarni sodir etishda namoyon boʻladi:

- a) odam oʻlimi;
- b) boshqa ogʻir oqibatlar.

JK 155-moddasi 3-qismi «a» bandi boʻyicha odam oʻlimi oqibatlarini keltirib chiqargan terroristik aktlar va terroristik xarakterdagi boshqa harakatlarning sodir etilishini kvalifikatsiya qilish lozim. Terrorizmni sodir etish holatida qasddan odam oʻldirish (asirni otib tashlash, biror-bir obyektga bostirib kirayotganda qoʻriqchini oʻldirish va shu kabilar) harakati sodir etilgan boʻlsa, aybdorning harakati JK 97-moddasi boʻyicha qoʻshimcha kvalifikatsiyani talab qiladi. Terroristik harakatni sodir etishda odamni oʻldirish ehtiyotsizlik natijasida yetkazilgan boʻlsa

harakat ko‘rilayotgan modda bo‘yicha baholanadi va JK 102-moddasi bo‘yicha qo‘shimcha kvalifikatsiyani talab qilmaydi.

Terrorizmning boshqa og‘ir oqibatlar deganda, ko‘pchilik odamlarga og‘ir tan jarohati yetkazish yoki o‘ldirish; binolarni, qurilmalarni o‘ta katta miqdordagi zarar olib kelish darajasida vayron qilish yoki yo‘q qilish; davlatlar orasidagi munosabatlarni qiyinlashtirish yoki to‘xtatib qo‘yish; muhim siyosiy va iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan kelishuvlarni barbod qilish; davlatdagi ijtimoiy-siyosiy sharoitni izdan chiqarish; aholi yashash joylaridagi hayotiy zarur obyektlarni vayron qilish, ularni radioaktiv, kimyoviy, bakteriologik yoki boshqa turda zaharlash va boshqalar tushuniladi.

O‘zbekiston Respublikasining 16 yoshga to‘lgan fuqarolari, chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar terrorizm **subyekt** bo‘lishi mumkin. Agar terroristik harakatda 13 yoshdan 16 yoshgacha bo‘lgan shaxslar ishtirok etgan bo‘lsa, ular faqatgina o‘zlari sodir etgan ma’lum jinoyatlari, masalan, odam o‘ldirish, og‘ir tan jarohati yetkazish, qasddan o‘zganing mol-mulkini yo‘q qilish va boshqa harakatlari uchun javobgarlikka tortiladilar. Tergov va sud idoralari bunday shaxslarning ruhiy holatini tekshirishga e‘tibor berib, jinoiy xulq-atvor sabablarini belgilab olishlari lozim.

Terrorizmning oldini olish uchun JK 155-moddasi 4-qismida nazarda tutilgan **rag‘batlantirish me‘yori** muhim ahamiyat kasb etadi. JK 155-moddasi berilgan qismiga muvofiq terroristik akti sodir etishga tayyorgarlik ko‘rishda qatnashgan shaxs o‘z vaqtida davlat organlarini ogohlantirsa yoki boshqa yo‘l bilan terrorchilik harakati sodir etilishini to‘xtatishga yordam bergan bo‘lsa va bu shaxsning harakatlarida boshqa jinoyat tarkiblari bo‘lmasa, u jinoiy javobgarlikka tortilmaydi.

Aybdor jinoiy javobgarlikdan quyidagi holatlarda ozod qilinishi mumkin:

- 1) agar u faqatgina terakti tayyorlashda ishtirok etgan bo‘lsa;
- 2) o‘z vaqtida, ya’ni obyektiv tomonning jinoyat sodir etishidan avval hokimiyat organlariga terrorchilarning maqsadlarini amalga oshirishlarini va og‘ir oqibatlar kelib chiqishining oldini olish uchun choralar ko‘rishga imkon yaratgan holda ma’lum qilgan bo‘lsa;

3) boshqa usullar bilan terrorchilarning maqsadlarini amalga oshirishlari va og‘ir oqibatlar kelib chiqishining oldini olishga faol harakat qilgan bo‘lsa, ya’ni terrorchilik harakatini to‘xtatish uchun har qanday harakatni amalga oshirgan bo‘lsa (masalan, huquq-tartibot organlariga yoki terroristik akt sodir etilishi ko‘zlangan tashkilot ma’muriyatiga shaxsan borib ogohlantirish; davlat organlarini anonim tarzda ogohlantirish; ijtimoiy xavfli harakatlarni oldini olish bo‘yicha subyektning boshqa faol harakatlari; zararli oqibatlarni to‘xtatish va kuchsizlantirish uchun boshqa fuqarolarni jalb etish va hokazo);

4) agar uning harakatlarida boshqa jinoyat tarkiblari bo‘lmasa (qurol yoki portlovchi moddalarni sotib olish, saqlash yoki ularni o‘g‘irlash, shaxsan tayyorlash va hokazo).

**8-§.Tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan terrorchilik harakatlari
to‘g‘risidagi ma’lumotlar va faktlarni xabar qilmaslik
(155¹-modda)**

Tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan terrorchilik harakatlari to‘g‘risidagi isbotlangan, aniq ma’lum bo‘lgan ma’lumotlar va faktlarni xabar qilmaslik bevosita tinchlik va insoniyat xavfsizligiga qarshi qaratiladi hamda surishtiruv, tezkor-qidiruv, tergov, prokuratura va sud organlarining jinoyatlarni fosh etish va jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan adolatli jazo tayinlash, shu orqali jinoyat sodir etgan va boshqa shaxslar tomonidan yangi jinoyat sodir etilishini oldini olish hamda fuqarolarni qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalashdek o‘ta muhim faoliyatini tartibga soluvchi ijtimoiy munosabatlarga tahdid qiladi.

Ushbu jinoyatning ijtimoiy xavfliligi shundan iboratki, u jinoyatchining jinoyat izlarini yashirish va qilmish uchun jinoiy javobgarlikdan qutulib qolish yo‘lidagi harakatlariga imkoniyat yaratadi, shu orqali terrorchilik harakatlarini sodir etayotgan shaxsni «rag‘batlantiradi», tinchlik va insoniyat xavfsizligiga putur yetkazadi. O‘z navbatida, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning ishini og‘irlashtiradi, jinoyatni ochish, jinoyatchilarni aniqlash va fosh qilishni qiyinlashtiradi, bularning barchasi keyinchalik latent (yashirin)

jinoyatchilikning o'sishiga ta'sir ko'rsatadi. Yuqorida zikr etilgan holatlar pirovard natijada jinoyat uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini amalga oshirishga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Sharhlanayotgan moddada nazarda tutilgan jinoyatning **asosiy bevosita obyekt** milliy, mintaqaviy va xalqaro xavfsizlikni ta'minlaydigan, tinchlikni mustahkamlaydigan ijtimoiy munosabatlardir.

Tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan terrorchilik harakatlari to'g'risidagi ma'lumotlar va faktlar har qanday hokimiyat organlariga berilishi mumkin, biroq mazkur jinoyat haqida xabar bermaslik asosiy bevosita obyekt bilan bir qatorda odil sudlovni amalga oshiradigan sud, prokuratura, dastlabki tergov yoki surishtiruv idoralarining maromli faoliyatini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazadi hamda ularning tez va to'liq fosh etilishiga to'sqinlik qiladi. Bu esa, odil sudlov organlarining jinoyat ishlarini tergov qilish, jinoyatlarni ochish, jinoyat sodir etgan aybdorlarni fosh qilish va ularni jinoiy javobgarlikka tortish yuzasidan vazifalarini amalga oshirishdagi normal ish faoliyatini buzadi.

Jinoyatning **qo'shimcha bevosita obyekt** odil sudlov faoliyatini amalga oshiruvchi sud, prokuratura, dastlabki tergov, tezkor-qidiruv faoliyati va surishtiruv organlarining normal ish faoliyatini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Terrorizmدا fuqarolarning hayoti va sog'ligiga, hokimiyat va boshqaruv organlari faoliyatiga, ijtimoiy tartibot, o'zgalar mol-mulkiga va boshqalarga zarar etishi mumkin. Shu sababli, odamlarning hayoti, sog'ligi, moddiy yoki boshqa manfaatlarini ta'minlaydigan ijtimoiy munosabatlar mazkur jinoyatning **fakultativ bevosita obyekt** sifatida qaralishi lozim.

Jinoyatning **predmeti** tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan terrorchilik harakatlarining tarkibiy elementlarini tashkil qiluvchi jinoyat-huquqiy holatlar haqidagi ma'lumotlar va faktlar hisoblanadi. Masalan, bunday ma'lumotlarga, jinoyat sodir etgan shaxs haqidagi, jinoyat sodir etish qurol va vositalari, jinoyat sodir etish joyi va boshqalarni kiritish mumkin.

Obyektiv tomondan jinoyat quyidagi ikkita harakatsizlikdan bittasi orqali sodir etiladi:

1) ro'yxati JKning 155¹-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan jinoyatlar bo'yicha dastlabki tergov hamda sud muhokamasi materiallari bilan isbotlangan, aniq ma'lum bo'lgan tayyorlanayotgan terrorchilik xususiyatiga ega jinoyat to'g'risida xabar qilmaslik;

2) ro'yxati JKning 155¹-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan jinoyatlar bo'yicha dastlabki tergov hamda sud muhokamasi materiallari bilan isbotlangan, aniq ma'lum bo'lgan sodir etilgan terrorchilik xususiyatiga ega jinoyat to'g'risida xabar qilmaslik.

Terrorchilik xususiyatiga ega jinoyat deganda, jamiyatni zo'ravonlik bilan muntazam ravishda qo'rqitish, ig'vo qilish va beqarorlashtirish xususiyatiga ega qilmishlar tushuniladi. Bunday qilmishlar ro'yxati qonunda to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilgan bo'lib, mazkur ro'yxatdagi jinoyatlar quyidagilardan iborat:

- terrorizm (JKning 155-moddasi);
- terrorchilik faoliyatini amalga oshirish maqsadida o'quvdan o'tish (JKning 155²-moddasi);
- terrorizmni moliyalashtirish (JKning 155³-moddasi);
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga tajovuz qilish (JKning 158-moddasi);
- O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumiga tajovuz qilish (JKning 159-moddasi);
- qo'poruvchilik (JKning 161-moddasi);
- jinoiy uyushma tashkil etish (JKning 242-moddasi);
- shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish (JKning 245-moddasi);
- radioaktiv materiallardan qonunga xilof ravishda foydalanish (JKning 254-moddasi);
- bakteriologik, kimyoviy va boshqa xil yalpi qirg'in qurollari turlarini ishlab chiqish, ishlab chiqarish, to'plash, olish, birovga o'tkazish, saqlash, qonunga xilof ravishda egallash va ular bilan boshqa harakatlarni sodir etish (JKning 255¹-moddasi).

Mazkur jinoyatlar ro'yxati to'la-to'kis hisoblanadi.

Amaldagi jinoyat qonunchiligiga muvofiq, jinoyatlar sodir etilish bosqichiga ko'ra tamom bo'lgan va tamom bo'lmagan jinoyatlarga ajratiladi. Ya'ni, qasddan sodir etiladigan jinoyatlar, odatda, jinoyatga tayyorgarlik ko'rish bosqichi alohida ajratiladi. Tayyorlanayotgan jinoyat – bu ijtimoiy xavfli bo'lgan qilmishni sodir etishni tayyorlashga qaratilgan harakatlar bo'lib, zarur qurol, portlovchi moddalar, vaziyatni o'rganish, ishtirokchilarni qidirish va hokazo harakatlarda ifodalanishi mumkin.

Tayyorlanayotgani aniq ma'lum bo'lgan yoki sodir etilgan jinoyat haqida ayblanuvchining huquqni muhofaza qilish organlari xabar bermaganligini xabar bermaslik sifatida tan olish mumkin. Bunday organlarga xabar berish yozma yoki og'zaki; shaxsan yoki vositachi orqali; anonim yoki ochiq tarzda amalga oshirilishi mumkin, xabar berishning shakli va turi ahamiyatga ega emas.

NOTA BENE !

Tayyorlanayotgan terrorchilik harakatlari deganda, terrorchilik xususiyatiga ega jinoyat sodir etish yoki suiqasd qilish uchun tayyorgarlik ko'rishni tashkil qiluvchi qilmishlar va jinoyat sodir etish uchun ishtirokchilarni tanlash va qidirish tushuniladi.

NOTA BENE !

Sodir etilgan terrorchilik harakatlari deganda esa, terrorchilik xususiyatiga ega jinoyatning zaruriy belgilari hisoblangan jinoiy qilmishlarning barchasini amalga oshirishi va shaxs jinoiy niyatini amalga oshirish hamda jinoyat sodir etishdan avval rejalashtirgan ijtimoiy xavfli qilmishlarini to'liq bajarishi, agar jinoyatning oqibati qonunda nazarda tutilgan bo'lsa, ushbu jinoiy oqibatning kelib chiqishi tushuniladi.

Terrorchilik harakatlari to'g'risidagi ma'lumotlar va faktlar aniq, o'z vaqtida berilishi va to'liq bo'lishi kerak.

Terrorchilik harakatlari to'g'risidagi ma'lumotlar va faktlarni xabar qilmaslik uchun jinoiy javobgarlik faqat tayyorgarlik ko'rilayotgan yoki sodir etilgan jinoyat haqida shaxs aniq bilgani holda, xabar bermagan hollardagina kelib chiqadi. **Aniq bilish** jinoyat haqidagi ma'lumotni aniq, ishonchli va muqarrar bilishni anglatadi.

Shaxs haqiqatan ham jinoyat sodir etilayotganligini yoki haqiqatan ham jinoyat sodir etishga tayyorgarlik ko'rilayotganligini anglashi lozim. Aks holda, bunday belgilarning aniqlanmaganligi Terrorchilik harakatlari to'g'risidagi ma'lumotlar va faktlarni xabar qilmaslik jinoyati tarkibini inkor etadi.

Demak, mazkur modda bo'yicha javobgarlik yuzaga kelishining muhim sharti – ma'lumotlar aybdorga aniq ma'lum bo'lishi kerak. **Aniq ma'lumotlar** deb, shaxsda ularning haqiqiylikiga ishonch tug'diradigan xarakterli manbalardan olingan ma'lumotlar tushuniladi. Qonunda shaxs unga ma'lum bo'lgan, tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan jinoyat haqida ma'lumot berishi muddati ko'rsatilmagan. Bunday muddat sifatida shaxsga jinoyat haqida ma'lum bo'lganidan keyingi muddat tan olinadi. Shu muddat mobaynida shaxs tegishli organlarga bu haqda ma'lumot berish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim.

Shaxs jinoyat haqidagi aniq ma'lumotlarni shaxsan kuzatishi jinoyatni sodir etgan shaxs yoki jinoyat ishtirokchilarining ma'lumotlari, muayyan hujjatlar bilan tanishish orqali olishi mumkin. Shaxs xabar berish shaklidagi huquqiy majburiyatini o'z vaqtida bajarishi bilan birga, berilayotgan ma'lumotlar to'liq bo'lishi kerak.

Bu masalani hal qilishga nisbatan bildirilgan qarashlarni ikki guruhga ajratish mumkin:

1) qonun fuqarolarga ishning holatlari bo'yicha shaxsga ma'lum bo'lgan jinoyatga, aybdor yoki aybdorlarning shaxsiga tegishli barcha ma'lumotlarni xabar qilish majburiyatini yuklaydi. Bundan kelib chiqqan holda, shaxs ushbu ma'lumotlarning barchasini hokimiyat organlariga to'liq ravishda berishi ma'lumotlarning to'liqligidan dalolat beradi;

2) terrorchilik harakatlari to'g'risidagi ma'lumotlar va faktlarni xabar qilmaslik uchun jinoiy javobgarlik faqat tayyorgarlik ko'rilayotgan yoki

sodir etilgan jinoyat haqida xabar berilmagan ma'lumotlar xabar berilmayotgan jinoyat tarkibiga tegishli bo'lgan ma'lumotlarni tashkil qilsa, mazkur jinoyat tarkibini keltirib chiqaradi.

Bunda xabar bermaslik sifatida javobgarlikka tortish uchun talab etiladigan sodir etilayotgan qilmishni tushunish hajmi bo'yicha shaxsga qo'yilayotgan talabni «delictum sui generis» sifatida qarash, ya'ni subyekt qilmishning jinoiyligini qisman yoki mufassal emas, balki umuman bilishini nazarda tutish maqsadga muvofiq.

Agar shaxs aniq bo'lgan jinoyat haqidagi ma'lumot to'g'risida ixtiyoriy ravishda xabar bersa, bunday hollarda, bu shaxs jinoyat ishi bo'yicha guvoh maqomiga ega bo'ladi. Dastlabki tergov jarayonida mazkur shaxs tomonidan yolg'on ma'lumot berilsa, uning qilmishi Jinoyat kodeksining 238-moddasi bo'yicha yolg'on guvohlik berish sifatida kvalifikatsiya qilinadi.

Terrorchilik harakatlari to'g'risidagi ma'lumotlar va faktlarni xabar qilmaslik – uzoqqa cho'zilgan jinoyatdir. U subyektning jinoyat haqida xabar berish majburiyatlarini bajarishga real imkoniyatlari mavjud bo'la turib, bajarmagan paytdan e'tiboran **tugallangan** hisoblanadi va u haqda hokimiyat organlariga xabar bergunga qadar davom etadi.

Tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan terrorchilik harakatlari to'g'risidagi ma'lumotlar va faktlarni xabar qilmaslik uchun jinoiy javobgarlikka tortishning shartlaridan yana biri bu jinoyatning subyektiv tomonini to'g'ri belgilab olishdir.

Aybdor tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan terrorchilik xususiyatiga ega jinoyatlar haqida aniq ma'lumotlarga ega ekanligini biladi va bu haqda odil sudlov organlariga xabar bermasdan, qonunda belgilangan majburiyatlarini qasddan bajarmaydi. Jinoyat haqida xabar bermaslik natijasida kelib chiqadigan oqibatlarga bo'lgan aybdor shaxsning munosabatlari ushbu jinoyatning ayb shaklini belgilashga ta'sir etmaydi.

Subyektiv tomoni to'g'ri qasdda ifodalanadi. Uning tuzilishi ikki belgi bilan izohlanadi. Birinchi belgi – aqliy belgi, ya'ni tayyorgarlik ko'rilayotgan yoki sodir etilgan jinoyatlar haqida aniq bilgani holda vakolatli organlarga xabar bermaslik shaklidagi o'z harakatsizligining ijtimoiy xavfli oqibatini anglaydi. Ikkinchi belgi – uning irodaviy

belgisi, ya'ni shaxsning shunday harakatsizlik qilishni xohlashi bilan izohlanadi.

Tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan terrorchilik harakatlari to'g'risidagi ma'lumotlar va faktlarni xabar qilmaslikning motivi har xil (jinoyatni sodir etgan shaxsni yashirib qolish, guvoh sifatida ishtirok etishni istamaslik va hokazolar) bo'lishi mumkin. Ammo, bu motivlar jinoyatni kvalifikatsiya qilishda ta'sir etmaydi. Ushbu jinoyatning maqsadi va motivi jinoyat tarkibi chegarasidan tashqarida bo'ladi va sud tomonidan jazo tayinlashda hisobga olinadi .

Tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan terrorchilik harakatlari to'g'risidagi ma'lumotlar va faktlarni xabar qilmaslikning subyekt jinoyat sodir etgunga qadar 16 yoshga to'lgan jismoniy shaxslar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi JKning 31-moddasi uchinchi qismida oldindan va'da bermagan holda jinoyat haqida xabar bermaganlik yoki jinoyatni yashirganlik uchun gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining yaqin qarindoshlari javobgarlikka tortilmasligi belgilangan. Mazkur norma tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan terrorchilik harakatlari to'g'risidagi ma'lumotlar va faktlarni xabar qilmaslik jinoyatiga nisbatan ham tatbiq etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2004 yil 24 sentyabrdagi «Qasddan odam o'ldirishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida»gi qaroriga ko'ra¹, yaqin qarindoshlar deganda, ota-ona, aka-uka, opa-singil, er-xotin, farzand, shu jumladan, farzandlikka olinganlar, nevaralar, Shuningdek er-xotinning ota-onasi, aka-ukasi va opa-singillari tushuniladi.

JK 155¹-moddasining ikkinchi qismida terrorchilik xususiyatiga ega jinoyatlarga nisbatan qayd etilgan qilmish odam o'lishiga yoki boshqa og'ir oqibatlarining kelib chiqishiga sabab bo'lganligi uchun jazoni og'irlashtiruvchi holat sifatida belgilangan.

¹Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2004 йил 24 сентябрда қабул қилинган «Қасддан одам ўлдиришга оид ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги қарори. // Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. 1991–2006. / Н.З. Тошматовнинг умумий таҳрири остида. – Тошкент: Ўқитувчи, 2007. – Б. 194.

Tayyorgarlik ko‘rilayotgan yoki sodir etilgan og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyat haqida aniq bilgani holda xabar bermaslik JKning 241-moddasi birinchi qismi bilan jinoiy javobgarlikka tortiladi. JKning 155, 155², 155³, 158, 159, 161, 242, 245, 254, 255¹ va (yoki) 264-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarning barchasi og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyatlar toifasiga kiradi. Shu sababdan, 155, 155², 158, 159, 161, 242, 245, 254, 255¹ va (yoki) 264-moddalarida nazarda tutilgan, dastlabki tergov hamda sud muhokamasi materiallari bilan isbotlangan, aniq ma‘lum bo‘lgan tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan terrorchilik xususiyatiga ega jinoyat to‘g‘risida xabar qilmaslik 2014 yil 21 yanvargacha JKning 241-moddasi birinchi qismi bilan jinoiy javobgarlikka tortilib kelgan.

9-§. Terrorchilik faoliyatini amalga oshirish maqsadida o‘quvdan o‘tish, chiqish yoki harakatlanish (155²-modda)

Mazkur moddada nazarda tutilgan jinoyatning ijtimoiy xavfliligi, birinchidan, terrorchilik faoliyatini amalga oshirish yoxud terrorchilik xususiyatiga ega jinoyatning sodir etilishiga real xavf tug‘ilishi, ikkinchidan, ushbu jinoyatni sodir etuvchi shaxsning malakali ekanligi, shu munosabat bilan jinoyat oqibatining o‘ta og‘ir bo‘lishi uchun real xavfning mavjudligida ifodalanadi.

Terrorchilik faoliyatini amalga oshirish maqsadida o‘quvdan o‘tishning **asosiy bevosita obyekti** tinchlik va insoniyat xavfsiligini ta‘minlovchi ijtimoiy munosabatlardir.

Ma‘lumki, mamlakatimizda harbiy texnika va qurol-yarog‘lardan foydalanish harbiy bilim yurtlarida, shuningdek, harbiy xizmatni o‘tash chog‘ida o‘rgatiladi. Mazkur jinoyatda esa, shaxs har qanday o‘qotar qurol-yarog‘lardan foydalanish o‘quvidan o‘tadi. Ushbu jinoyatning **qo‘shimcha bevosita obyekti** harbiy texnika va qurol-yarog‘lardan foydalanishning belgilangan tartibini ta‘minlovchi ijtimoiy munosabatlardir.

Obyektiv tomondan ushbu moddaning birinchi qismi dispozitsiyasida nazarda tutilgan maqsadlarda o‘tkazilayotganligi o‘zi uchun ayon bo‘lgan o‘quvdan o‘tish orqali sodir etiladi.

Bunda shaxsning **o‘zi uchun ayon bo‘lgan** o‘quvdan o‘tish deganda, shaxsning o‘tkazilayotgan o‘quvning terrorchilik faoliyatini amalga oshirish yoxud JKning 155, 158, 159, 161, 242, 245, 254, 255¹ va (yoki) 264-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlardan birini sodir etish maqsadida o‘tkazilayotganligini anglashi nazarda tutiladi. Bunday o‘quvning qayd etilgan maqsadda o‘tkazilayotganligini mazkur o‘quvning tashkil etilish usuli, joyi, o‘quvni tashkil etuvchi subyektlari, tashkilotchilari, o‘quvni o‘rgatish usuli, mashq turlari orqali bilish mumkin.

Terrorchilik faoliyatini amalga oshirish usullari va uslublari, terrorchilik harakatlarini tayyorlash va sodir etish, urush va qurolli mojarolar chiqarish, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish, hokimiyatni egallab olish yoki O‘zbekiston Respublikasining hududiy yaxlitligini g‘ayrikonstitutsiyaviy yo‘l bilan buzish, hokimiyatni egallash maqsadida fitna uyushtirish, odamlarni o‘ldirish, ularning sog‘ligiga shikast yetkazish, mulkni nobud qilish, davlat iqtisodiyotiga putur yetkazish, shaxslarni garov sifatida tutqunlikka olish va h.k.

O‘quvdan o‘tish quyidagi usullarda sodir etilishi mumkin:

1) terrorchilik faoliyatini amalga oshirish yoki JKning 155, 158, 159, 161, 242, 245, 254, 255¹ va (yoki) 264-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etish bilimini, amaliy mahoratini va ko‘nikmalarini egallash;

2) o‘quv chog‘ida qurol-yarog‘, portlatish qurilmalari, portlovchi, zahar-lovchi, atrofdagilar uchun xavf tug‘diradigan boshqa moddalar va buyumlar bilan muomala qilish usullarini o‘rganish.

Jinoyatlarni sodir etish bilimini, amaliy mahoratini va ko‘nikmalarini egallash deganda, dispozitsiyada qayd etilgan qilmishni sodir etish bo‘yicha nazariy bilimlarni o‘qish, uni sodir etish bo‘yicha turli amaliy tayyorgarlik mashqlarini o‘tkazish, jinoyatni sodir etish usulini sinab ko‘rish, jismoniy va o‘qotar quroldan foydalanish bo‘yicha tayyorgarlik va boshqa ko‘nikmalarni egallash tushuniladi. Bunda aybdor mazkur bilim, amaliy mahorat va ko‘nikmalarni to‘liq yoki qisman egallaganligi ahamiyatga ega emas. Jinoyat, to‘liq yoki qisman

egallaganligidan qat'i nazar, aniqlangan kundan boshlab **tugallangan** hisoblanadi.

O'quv chog'ida qurol-yarog', portlatish qurilmalari, portlovchi, zaharlovchi, atrofdagilar uchun xavf tug'diradigan boshqa moddalar va buyumlar bilan muomala qilish usullarini o'rganish deganda, mazkur predmetlarning xususiyatlari to'g'risida ma'lumot olish, ularni ishlatish usullarini o'rganish, tajriba sifatida qo'llab ko'rish, shunday tajriba amaliyotlarini o'tkazish va boshqa shu kabi holatlar tushuniladi.

Qurol – fizikaviy, kimyoviy va biologik ta'sirni ta'minlovchi, hujum qilish va faol himoya qilish vositasi, ya'ni dushmanning tirik kuchlari va jangovar texnikasini yo'qotish yoki safdan chiqarish vositasi¹. Barcha qurollarni ta'sir qilish yoki energiya manbalariga ko'ra yadroviy, kimyoviy, bakteriologik, minali portlovchi, sovuq va o'qotar qurollar turlariga ajratish mumkin.

Qurol-yarog'lar ro'yxatiga: turli ko'rinishdagi qurollarning komplekslari va ularni jangda qo'llashda foydalanadigan vositalar, mo'ljalga olish, boshqarish va h.k. tizimlar; qurolli kuchlarni ta'minlashga mo'ljallangan maxsus texnik vositalar; o'q-dorilar va ularning komponentlari, ehtiyot qismlar, o'quv qurollari (maketlar, trenajyorlar va turli qurollar, harbiy texnikaning imitatorlari); jangovar raketalar uchun raketa yonilg'isi, ularni ishlab chiqish uchun moslamalar; aloqa tizimi va hokazolar kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Qonunga xilof ravishda qurolga egalik qilish to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida»gi 1996 yil 27 fevral kungi 3-sonli qarorida bayon etilishicha, o'qotar qurol deganda, amalda qanday maqsadlarda qo'llanilishidan qat'i nazar, otish uchun porox gazlarining kuchidan foydalaniladigan barcha turdagi jangovor, sport va ov qurollari tushunilishi lozim².

O'q-dorilar deganda, qurol uchun lozim bo'lgan o'qlar, artilleriya snaryadlari, bombalar, minalar, granatalar, raketalarning jangovor

¹Ўзбекистон юридик энциклопедияси. Нашр учун масъул: Р.А. Муҳитдинов ва бошқ. / Масъул муҳаррир: Н. Тойчиев. – Тошкент: Адолат, 2009. –Б.622.

²Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. 1991–2006. Т.1. Н.3. Тошматовнинг умумий таҳрири остида. – Тошкент: Ўқитувчи, 2007. – Б.45.

qismlari, shuningdek, o'qotar quroldan otish uchun mo'ljallangan ashyolar tushuniladi. Umuman olganda, o'q-dorilar o'qotar qurollarga xos bo'lgan belgilarga ega. Bu, birinchidan, ularning faqat jonli nishonni mahv etish, vayron qilish va hokazolar uchun mo'ljallangan bo'lsa, ikkinchidan, ruxsatnoma olish zarurligi to'g'risidagi qoidalarning ularga ham taalluqli ekanligidir.

O'q-dorilarning: artilleriya zambaraklari va o'qotar qurollar uchun o'q-dorilar (snaryadlar, o'qlar); kichik kalibrli, o'yama va silliq stvolli ov qurollari, qo'lda yasalgan qurollar uchun o'qlar; portlash xususiyatga ega o'q-dorilar (minalar, bombalar, granatalar va hokazolar) kabi turlari mavjud.

Portlovchi moddasi yo'qligi, jonli nishonni mahv etish va vayron qilish uchun emas, faqat o'quv maqsadlari uchun mo'ljallanganligi sababli ularga egalik qilish jamoat xavfsizligiga xavf tug'dirmasligi munosabati bilan mashq granatalari, minalari, bezarar o'qlar o'q-dori ashyosi sifatida ko'rib chiqilishi mumkin emas. Yuqorida nomi keltirilgan Plenum qaroriga ko'ra, o'q-dorining bo'lagi (masalan, granataning zapali) ham, agar uning o'zi o'q-dorining barcha xususiyatlariga ega bo'lsa, mustaqil ravishda o'q-dori deb tan olinishi mumkin¹.

Portlatish qurilmalari – konstruksiyasi tuzilishiga ko'ra portlashni amalga oshirish uchun mo'ljallangan, portlovchi moddani o'zida saqlaydigan sanoatda ishlab chiqarilgan yoki qo'lbola ishlangan (zapal, portlatgich, detonator va hokazolar) maxsus moslamalar hisoblanadi. Imitatsiya-pirotexnik va yoritgich vositalari portlovchi moddalar va portlatish qurilmalari jumlasiga kirmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil mart kunidagi 109-sonli qaroriga asosan² yaratish, ishlab chiqarish, tashish, saqlash va realizatsiya qilish bo'yicha faoliyat litsenziyalanishi kerak bo'lgan portlatish qurilmalari ro'yxati³ tasdiqlangan. Unga ko'ra, o't o'tkazuvchi pilta, poroxlarni yoqishning maxsus vositasi, piston –

¹Ўша жойда. – Б. 46.

²Ўзбекистон Республикаси Ҳукумати қарорлари тўплами, 2004 й., № 3, 22-модда.

³Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2004 йил, 10-сон, 114-модда.

portlatgichlar, pistonsiz portlatishda tezlashtiradigan vositalar, elektrportlatgichlar, shuningdek, elektralangalatuvchilar va quduqlarda o‘q otib portlatish ishlari uchun issiqqa chidamli portlovchi patronlar, tez portlovchi piltalar, tez portlovchi tasmalar, pirotexnik rele; oraliq portlatgichlar va shashka – portlatgichlar portlatish qurilmalari hisoblanadi.

Portlovchi moddalar – tezda, o‘zidan o‘zi ro‘y beruvchi kimyoviy o‘zgarish (portlash)ga qodir birikmalar yoki aralashmalar, ya’ni porox, dinamit, trotil, nitroglitserin va kislородli havo etishmagan vaziyatda portlash xususiyatiga ega bo‘lgan kimyoviy moddalar va aralashmalardir.

Portlovchi deb, yoqish, zarba, detonatsiya, qizdirish, havo bilan birlashish natijasida portlashga yarog‘li tabiiy yoki sun‘iy moddalar (masalan, porox, dinamit, trotil, nitroglitserin, ammonal, ammonit, geksagen va hokazolar) tan olinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Portlovchi va zaharli moddalarni yaratish, ishlab chiqarish, tashish, saqlash, realizatsiya qilish sohasida xavfsizlikni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2004 yil mart kunidagi 109-sonli qaroriga asosan¹ yaratish, ishlab chiqarish, tashish, saqlash va realizatsiya qilish bo‘yicha faoliyat litsenziyalanishi kerak bo‘lgan portlovchi moddalar ro‘yxati² tasdiqlangan. Unga ko‘ra, ammiakli selitralar asosida (ammonitlar, ammonallar, akvatollar, grammonitlar, granulitlar, detonitlar, dinamonlar, karbatollar, poremitlar va boshqalar), nitrobirikmalar va ularning aralashmalari (trotil, dinitronaftalin, nitroglitserin, nitroglekol, TEN – pentaerititetranitrat, geksogen, oktogen, tetril va boshqalar), tutunli va tutunsiz poroxlar, zaryadlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar, issiqqa chidamli portlovchi moddalar, zaryadlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar portlovchi moddalar hisoblanadi.

Odam organizmiga toksikologik (zaharlovchi) ta’sir ko‘rsatuvchi moddalar **zaharlovchi moddalar** hisoblanadi. Ushbu moddalarni kam miqdorda iste’mol qilganda ham inson og‘ir zaharlanishi yoki o‘limi

¹Ўзбекистон Республикаси Хукумати қарорлари тўплами, 2004 й., № 3, 22-модда.

²Ўзбекистон Республикасининг қонун ҳужжатлари тўплами, 2004 йил, 10-сон, 114-модда.

kelib chiqishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yilgi 109-sonli qaroriga asosan yaratish, ishlab chiqarish, tashish, saqlash va realizatsiya qilish bo‘yicha faoliyat litsenziyalanishi kerak bo‘lgan zaharli moddalar ro‘yxati tasdiqlangan. Akrilonitril (ventoks), metil spirti, mishyakli angidrid, mishyaksimon angidrid, dixlorid simoblar (sulema) va boshqa simob tuzlari, nikel tetrakarbonili, sariq fosfor, sianidli vodorod va uning tuzlari (natriy sianid, kaliy sianid, kadmiy sianid, kumush sianid, simob sianid va oksisianid, qo‘rg‘oshin sianid, mis sianid, rux sianid, kaltsiy sianid), sianqotishma, «siklon», etilmerkuxlorid kabi moddalar **zaharlovchi moddalar** sifatida belgilab qo‘yilgan.

Atrofdagilar uchun xavf tug‘diradigan boshqa moddalar va buyumlar deganda, kuchli ta‘sir qiluvchi zaharli, radioaktiv moddalar, Shuningdek boshqalar uchun xavfli bo‘lgan shu kabi boshqa modalar va buyumlar nazarda tutiladi.

Mazkur jinoyat formal tarkibli bo‘lib, qilmish natijasida jinoiy oqibat yuzaga kelishi yoki yuzaga kelmasligidan qat‘i nazar qilmish **tugallangan** jinoyat sifatida kvalifikatsiya qilinadi.

Jinoiy oqibatning yuzaga kelishi esa, kelib chiqqan oqibatning turi va xususiyatiga ko‘ra tegishli ravishda jinoyatlar jami bo‘yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Jinoyat subyektiv tomondan qasddan, to‘g‘ri qasd bilan sodir etiladi. Shaxsga sodir etilayotgan jinoyat oldindan ayon bo‘ladi.

Jinoyatning subyektiv tomonining yana bir zaruriy belgisi – uning maqsadidir.

Jinoyat quyidagi maqsadlarda sodir etiladi:

- 1) terrorchilik faoliyatini amalga oshirish;
- 2) JKning 155, 158, 159, 161, 242, 245, 254, 255¹ va (yoki) 264-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlardan birini sodir etish.

Terrorchilik faoliyatini amalga oshirish maqsadi deganda, terrorchilik harakatini uyushtirish, rejalashtirish, tayyorlash va amalga oshirishdan, terrorchilik harakatiga undashdan, terrorchilik tashkilotini tuzishdan, terrorchilarni yollash, tayyorlash va qurollantirishdan, ularni

moliyalashtirish va moddiy-texnika jihatidan ta'minlashdan iborat bo'lgan faoliyatni amalga oshirish maqsadi tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 15 dekabrda «Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida»gi Qonuni 2-moddasiga ko'ra, terrorchilik harakati – garovda ushlab turish uchun shaxslarni qo'lga olish yoki ushlab turish, davlat yoki jamoat arbobining, aholining milliy, etnik, diniy, boshqa guruhlarini, chet el davlatlari va xalqaro tashkilotlar vakillarining hayotiga tajovuz qilish, davlat yoki jamoat ahamiyatiga molik obyektlarni, shu jumladan, kontinental shelfda joylashgan statsionar platformalarni bosib olish, shikastlantirish, yo'q qilish, portlatishlar, o't qo'yishlar, portlatish qurilmalarini, radioaktiv, biologik, portlovchi, kimyoviy, boshqa zaharlovchi moddalarni ishlatish yoki ishlatish bilan qo'rqitish, er usti, suv va havo transporti vositalarini qo'lga olish, olib qochish, shikastlantirish, yo'q qilish, aholi gavjum joylarda va ommaviy tadbirlar o'tkazilayotganda vahima ko'tarish va tartibsizliklar keltirib chiqarish, aholi hayotiga, sog'ligiga, jismoniy yoki yuridik shaxslar mol-mulkiga avariya, texnogen xususiyatli halokatlar sodir etish yo'li bilan zarar yetkazish yoki xavf tug'dirish, tahdidni har qanday vositalar va usullar bilan yoyish tarzida terrorchilik tusidagi jinoyatlarni, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida va xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan normalarida belgilangan terrorchilik tusidagi boshqa harakatlarni sodir etish¹.

Sharhlanayotgan moddada nazarda tutilgan jinoyat qayd etilgan ikkita maqsaddan birini yoki ikkalasini nazarda tutgan hollarda JKning 155²-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinishi mumkin. Aks holda, qilmishni JKning 155²-moddasi bilan kvalifikatsiya qilish mumkin emas.

Jinoyatning **subyekt** 16 yoshga to'lgan aqli raso jismoniy shaxsdir.

Yollash deganda, terrorchilikni o'rgatish va mazkur faoliyat bilan shug'ullanish maqsadida O'zbekiston Respublikasidan tashqariga olib chiqib ketish uchun mos keladigan shaxslarni izlab topishni tushunish lozim.

¹Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2001 й., 1–2-сон, 15-модда.

Yollash usullari jinoyatni kvalifikatsiya qilish uchun ahamiyatga ega emas va ular har xil bo'lishi mumkin («katta» pul, boshqa moddiy boyliklarni va'da qilish, chet el mamlakatlarida ishga joylashtirishni va'da qilish va h.k.).

Yollash og'zaki, yozma ravishda kelishish, varaqalarda, internet orqali chorlovlar, shaxsning terrorchilik faoliyatida ishtirok etishi shartlarini kelishish yo'li bilan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi hududi orqali harakatlanish deganda shaxslarning muayyan davlat hududidan terrorchilik faoliyatini o'rganish va unda ishtirok etish uchun O'zbekiston Respublikasi hududi orqali har qanday tarzda o'tishi tushunilishi lozim.

JKning 155²-moddasining 2-qismida nazarda tutilgan jinoyat odamlarni yollashga qaratilgan harakatlar bajarilgan paytdan boshlab **tugallangan** hisoblanadi, bunda aybdor shaxs yollashga muvaffaq bo'lgani yoki bo'lmagani jinoyatni kvalifikatsiya qilish uchun ahamiyatga ega emas.

JKning 155²-moddasi 3-qismida rag'batlantiruvchi norma nazarda tutilgan bo'lib, unga ko'ra, ushbu moddada nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan shaxs, agar u terrorchilik faoliyatini amalga oshirish yoxud ushbu Kodeksning 155, 158, 159, 161, 242, 245, 254, 255¹ va (yoki) 264-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlardan birini sodir etish maqsadida o'tkazilayotganligi o'zi uchun ayon bo'lgan o'quvdan o'tganligi to'g'risida hokimiyat organlariga ixtiyoriy ravishda xabar qilsa, sodir etilgan jinoyatni fosh qilishga yoki bunday o'quvdan o'tgan, bunday o'quvni amalga oshirgan, tashkil etgan yoxud moliyalashtirgan boshqa shaxslarni, Shuningdek o'quv o'tkazilgan joyni aniqlashga faol ko'maklashsa va agar uning harakatlarida jinoyatning boshqa tarkibi mavjud bo'lmasa, jinoiy javobgarlikdan ozod qilinadi.

10-§. Terrorizmni moliyalashtirish (155³-modda)

Terrorizmni moliyalashtirishning obyekti – tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash borasidagi ijtimoiy munosabatlar, O'zbekiston Respublikasining jamoat xavfsizligi.

Fuqarolarning hayoti, sog'ligi va mulkiy manfaatlari, davlat mulki xavfsizligini ta'minlash borasidagi ijtimoiy munosabatlar terrorizmni moliyalashtirishning qo'shimcha obyekti hisoblanadi.

Obyektiv tomondan jinoyat quyidagilarga qaratilgan faoliyatda o'z ifodasini topadi: 1) terrorchilik tashkilotining mavjud bo'lishini, faoliyat ko'rsatishini, moliyalashtirilishini ta'minlash; 2) terrorchilik faoliyatida ishtirok etish uchun xorijga chiqib ketishni yoki O'zbekiston Respublikasi hududi orqali harakatlanishni ta'minlash; 3) terrorchilik harakatini tayyorlash va sodir etish; 4) terrorchilik tashkilotlariga yoxud terrorchilik faoliyatiga ko'maklashayotgan yoki bunday faoliyatda ishtirok etayotgan shaxslarga bevosita yoki bilvosita har qanday mablag'-vositalarni, resurslarni berish yoki yig'ish, boshqa xizmatlar ko'rsatish.

Terrorchilik tashkilotining mavjud bo'lishini, faoliyat ko'rsatishini, moliyalashtirilishini ta'minlashga qaratilgan faoliyat aybdor terrorchilik tashkiloti jangarilarini yollash, to'plash, tanlab olish, ularni qurollantirish, ya'ni turli xil qurol-aslaha, o'q-dorilar, portlovchi moddalar, portlovchi qurilmalar, turli xil harbiy texnika bilan ta'minlash, jangarilarni o'qitib-o'rgatishni tashkil etish, ularning terrorchilik faoliyatini rejalashtirish, terrorchilik tashkilotining maishiy va boshqa ehtiyojlarini har qanday valyutadagi pul bilan qondirish, yashash uchun binolar berish va ular bilan ta'minlash, yonilg'i-surkov materiallari bilan ta'minlash borasidagi izchil harakatlarni bajarishni nazarda tutadi.

Terrorchilik faoliyatida ishtirok etish uchun xorijga chiqib ketishni yoki O'zbekiston Respublikasi hududi orqali harakatlanishni ta'minlashga qaratilgan faoliyat ularga moliyaviy madad ko'rsatish, xorijga chiqib ketish uchun ularni zaruriy hujjatlar

bilan ta'minlash, chiptalar sotib olish, har qanday turdagi transportni taqdim etish yo'li bilan ko'maklashish yoki mazkur shaxslarni tashishdan iborat.

Terrorchilik harakatini tayyorlash va sodir etish oldinma-ketin bajariladigan quyidagi harakatlarni o'z ichiga oladi: birinchidan, terrorchilik harakatini tayyorlash bosqichi, ya'ni rejalashtirish (terrorchilik harakati rejasini ishlab chiqish, hujum obyektini tanlash), majburiyatlarni taqsimlash (mutaxassislarni, shu jumladan portlatish texnikasi mutaxassislarni tanlash, o'zini o'zi portlatuvchi («smertnik»)larni tayyorlash, boshqa tayyorgarlik harakatlarini bajarish), ikkinchidan, terrorchilik harakatini sodir etish (portlatish, o't qo'yish, shaxslarni garov sifatida tutqunlikka olish, ommaviy odam o'ldirishlar va h.k.).

Terrorchilik tashkilotlariga yoxud terrorchilik faoliyatiga ko'maklashayotgan yoki bunday faoliyatda ishtirok etayotgan shaxslarga bevosita yoki bilvosita har qanday mablag'-vositalarni, resurslarni berish yoki yig'ish, boshqa xizmatlar ko'rsatish terrorchilik tashkilotlarini moliyalashtirishga, ularni har qanday moddiy ta'minlashga qaratilgan faoliyatni har qanday shaklda, shu jumladan yashirincha yoki ochiq faoliyat ko'rsatadigan, homiylik niqobi ostida mablag'lar to'playdigan turli yordam jamg'armalari, tashkilotlar, birlashmalar tuzish, terrorchilik tashkilotlarini moliyalashtirishga ko'maklashuvchi yoki ularda ishtirok etuvchi shaxslarni moliyalashtirish, kreditlash, ularga foizsiz, imtiyozli qarzlarni berish maqsadida faoliyat ko'rsatuvchi moliyaviy tuzilmalar, banklar tashkil etish yo'li bilan amalga oshirishni nazarda tutadi.

Terrorchilik tashkiloti faoliyatini moliyalashtirish manbalari daromadi terrorchilik tashkiloti faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun yo'naltirilayotgan korxonalar, boshqa ishlab chiqarish tashkilotlari bo'lishi mumkin.

Mablag'-vositalarni, resurslarni berish, agar aybdor ularni kimga va nima uchun berayotganini bilsa, bevosita berish sifatida baholanishi lozim.

Mablag'-vositalarni, resurslarni bilvosita berish aybdor ularni terrorchilarga emas, balki vositachilarga, masalan, biron-bir

jamg'armaga, homiylik tashkilotiga bergan, ammo mazkur mablag'-vositalar, resurslar kimga va nima uchun mo'ljallanganini aniq bilgan hollarda mavjud bo'ladi.

Mablag'-vositalarni, resurslarni berishdan farqli o'laroq, ularni yig'ish mazkur mablag'-vositalarni, resurslarni ularni taqdim etuvchi shaxslardan keyinchalik terrorchilik tashkilotlariga yoki terrorchilik harakatiga ko'maklashuvchi yoki unda ishtirok etuvchi shaxslarga berish uchun jamg'arishdan iborat faoliyatdir.

Terrorchilarga boshqa xizmatlar ko'rsatish ularni jazodan yashirish, aloqa vositalari bilan ta'minlash, ularga transport, yashash uchun joy taqdim etish va hokazolarni o'z ichiga olishi mumkin.

Jinoyat terrorchilik tashkilotining mavjud bo'lishini, faoliyat ko'rsatishini, moliyalashtirilishini, terrorchilik faoliyatida ishtirok etish uchun xorijga chiqib ketishni yoki O'zbekiston Respublikasi hududi orqali harakatlanishni ta'minlashga, terrorchilik harakatini tayyorlash va sodir etishga, terrorchilik tashkilotlariga yoxud terrorchilik faoliyatiga ko'maklashayotgan yoki bunday faoliyatda ishtirok etayotgan shaxslarga bevosita yoki bilvosita har qanday mablag'-vositalarni, resurslarni berish yoki yig'ish, boshqa xizmatlar ko'rsatishga qaratilgan faoliyatni sodir etish boshlangan paytdan e'tiboran **tugallangan** hisoblanadi.

Subyektiv tomondan terrorizmni moliyalashtirish faqat to'g'ri qasd bilan sodir etiladi.

O'n olti yoshga to'lgan shaxs jinoyatning **subyektiv** bo'lishi mumkin.

JK 155³-moddasining 2-qismi bo'yicha o'sha harakatlar:

- a) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan;
- b) mansabdor shaxs tomonidan;
- v) uyushgan guruh tomonidan sodir etilgani uchun jinoiy javobgarlik kelib chiqadi.

JK 155³-moddasining 3-qismida rag'batlantiruvchi norma nazarda tutilgan bo'lib, unga ko'ra, terrorizmni moliyalashtirishda ishtirok etgan shaxs, agar u hokimiyat organlariga o'z vaqtida xabar berish yoki boshqa usul bilan og'ir oqibatlar yuzaga kelishining hamda terrorchilar maqsadlari amalga oshirilishining oldini olishga faol ko'maklashgan

bo'lsa, basharti bu shaxsning harakatlarida jinoyatning boshqa tarkibi bo'lmasa, jinoiy javobgarlikdan ozod etiladi.

11-§. Milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo'zg'atish (JK 156-moddasi)

Barcha odamlar diniy e'tiqodidan, millatidan, irqidan va boshqa o'ziga xosligidan qat'i nazar tengligi haqida xalqaro huquqning umume'tirof etilgan zamonaviy me'yorlarida belgilangan. Bu qoida BMT qabul qilgan 1948 yildagi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (2-modda), Iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Pakt (2-modda) va boshqa xalqaro bitimlarda o'z aksini topgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida xalqaro huquq umume'tirof etilgan me'yorlarining o'рни haqida ta'kidlab, shu bilan birga, berilgan qoidalarni bir qator moddalarda, jumladan, 4, 8, 31-moddalarda mustahkamlagan.

Konstitutsiyaning 18-moddasida «O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar»¹ deyilgan. Milliy, irqiy yoki diniy adovat qo'zg'atishga javobgarlikni o'rnatuvchi JK 156-moddasi ushbu holatlarning huquqiy kafolati hisoblanadi.

¹Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси: Ўн иккинчи чакириқ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ўн биринчи сессиясида 1992 йил 8 декабрда қабул қилинган. (2002 йил 27 январда ўтказилган умумхалқ референдуми натижаларига кўра ҳамда унинг асосида Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 24 апрелда қабул қилинган Қонунига мувофиқ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси XVIII, XIX, XX, XXIII бобларига ўзгартиришлар ва қўшимчалар қиритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2007 йил 11 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 89-моддасига, 93-моддасининг 15-бандига, 102-моддасининг иккинчи қисмига тузатишлар қиритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2008 йил 25 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 77-моддасининг биринчи қисмига ўзгартириш қиритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2011 йил 12 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 90-моддасининг иккинчи қисмига тузатиш қиритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 16 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 32, 78, 93, 98, 103 ва 117 моддаларига ўзгартиш ва қўшимчалар қиритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 6 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 4-бандига, 81-моддасининг еттинчи қисмига, 83-моддасига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13 ва 14- бандларига, 107-моддасининг биринчи қисмига, 110-моддасининг биринчи ва учинчи қисмларига, 111-моддасига ўзгартишлар ва қўшимча қиритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 31 майда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 5 ва 12-бандларига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13-бандига ҳамда 108, 109-моддаларига ўзгартишлар қиритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 29 августда қабул қилинган қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 99 ва 10-моддаларига ўзгартишлар қиритилган.) – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. -11 б.

Ko‘rilayotgan jinoyatning **ijtimoiy xavfi** shundan iboratki, milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovatni targ‘ib qiluvchi ma‘lumotlardan noqonuniy foydalanish, davlat ijtimoiy xavfsizligini buzishga, jumladan, adovatning amalda qo‘zg‘alishiga, millatchilik va irqchilik asnosida kelishmovchilik va boshqalarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Bu esa, o‘z navbatida, fuqarolarning hayoti va sog‘ligini xavf ostiga qo‘yuvchi va davlatning progressiv rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi ekstremistik faoliyatning rivojlanishiga, jinoyatchilikning ko‘payishiga olib keladi.

Ko‘rilayotgan jinoyatning **turdosh obyekt** bo‘lib, insoniyatning tinchligi va xavfsizligini nazorat qilish va ta‘minlash bo‘yicha munosabatlar hisoblanadi.

Jinoyatning **bevosita obyekt** bo‘lib, milliy, irqiy, etnik yoki diniy belgilariga ko‘ra nafratni yoki adovatni qo‘zg‘atish ko‘rinishidagi ekstremistik harakatlarga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha konstitutsion tamoyilni kafolatlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. **Qo‘shimcha obyekt** sifatida, bu yerda, jamiyatda me‘yoriy muhitni, fuqarolarning sog‘ligi va hayoti, ularning qonuniy huquq va erkinliklarini ta‘minlovchi ijtimoiy munosabatlar xizmat qiladi.

JK 156-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyatning **predmeti** milliy, irqiy yoki diniy adovatni qo‘zg‘atuvchi yoki uni targ‘ib qiluvchi materiallardir.

Materiallar deganda, ko‘rilayotgan me‘yorning kontekstida turli ko‘rinishdagi bosma nashrlar (kitoblar, jurnallar, broshyuralar va boshq.), varaqalar, plakatlar, bosma nashrlarning nusxalari, kino, foto, audio, video mahsulotlar, internet sahifalari va boshqa ekstremistik ruhdagi materiallar nazarda tutiladi.

Adovat – bu xush ko‘rmaslik, nafrat bilan singdirilgan munosabat va harakatdir. Afsuski, psixologiyada adovat tushunchasi ochib berilmagan, lekin nafrat tushunchasiga quyidagicha ta‘rif berilgan: «Nafrat – bu shaxsning o‘z ehtiyojlari, qarashlari, qadriyatlariga zid keluvchi hamma narsani faol inkor etuvchi hissiyotidir. Nafrat nafaqat taalluqli ashyoga nisbatan qo‘zg‘alishi mumkin, balki unga qarshi bo‘lgan faol harakatni ham vujudga keltiradi. Nafratning shakllanishiga odatda hodisalarning istalmagan holdagi rivojlanishi natijasida kuchli qoniqmaslik yoki salbiy

his-hayajonlar manbasining tarmoqli ravishda asta-sekinlik bilan yig'ilib borishi sabab bo'ladi. Bunday hollarda nafratning markazida bu voqealarning hayotiy yoki xayoliy sabablari bo'ladi».

(Milliy, etnik, irqiy, diniy guruhlar tushunchalari haqida JK 153-moddasi tahliliga qarang.)

Milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovatni targ'ib qiluvchi hujjatlar deganda, o'z ichiga aniq bir irq, millat yoki etnik guruh yoxud diniy tashkilotlarga nisbatan ishonchni va hurmatni poymol qiluvchi hamda ma'lum bir irq yoki millat aholisining hayot tarzi, madaniyati, diniy udumlarini xush ko'rmaslikni targ'ib qiluvchi g'oyalar, qarashlar va fikrlardan tashkil topgan materiallarni tushunish lozim. Shu bilan birga ta'kidlash kerakki, bunday g'oyalar va qarashlar aniq tavsifda emas, balki umumiy ko'rinishda bo'lishi kerak, ya'ni aniq bir shaxsga qaratilgan bo'lmasligi kerak. Odatda bular milliy yoki diniy ekstremizm yoki separatizm qarashlari yoki g'oyalarini tashkil qiluvchi materiallardir.

JK 156-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyat tarkibining **obyektiv tomoni**, milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovatni targ'ib qiluvchi materiallarni tarqatish yoki tarqatish maqsadida materiallarni tayyorlash va saqlash bilan baholanadi. Shu bilan birga JK 156-moddasi 1-qismi tuzilmasi ma'muriy preyuditsiyaga ega bo'lib, bu modda bo'yicha javobgarlik xuddi shunday harakatlar uchun ma'muriy ogohlantirishdan so'ng bir yil davomida boshlanishi mumkin.

Tayyorlash deganda, keyinchalik tarqatish maqsadida istalgan ko'rinishda va istalgan usul bilan shunday materiallarni tayyorlashga yo'naltirilgan qasddan sodir etilgan harakatlarni tushunish lozim. Milliy, irqiy, etnik va diniy adovatni targ'ib etuvchi materialning hech bo'lmaganda bir nusxasini tayyorlash vaqtidan boshlab, uning tarqatilganligidan qat'i nazar, lekin tarqatish maqsadi aniqlangan holatida tayyorlash jinoyati **tamomlangan** hisoblanadi.

Saqlash deganda, milliy, irqiy, etnik va diniy adovatni targ'ib qiluvchi materiallarni topish bilan bog'liq holatlar, aybdorning materiallarni tarqatish maqsadida saqlash holati aniqlanishi (o'zi bilan

birga, biror-bir joyda, yertoʻlada va boshqa joylar) harakatlari tushuniladi.

Milliy, irqiy, etnik va diniy adovatni targʻib qiluvchi materiallarni saqlash davomli jinoyat hisoblanadi. Uning xususiyati shundaki, bu harakat noqonuniy jinoiy-huquqiy obyektlarga uzoq vaqt davomida qasd qiluvchi qator harakatlardan tashkil topadi va jinoyat sodir etilgan damdan boshlab yoki aybdorning aybiga iqror boʻlishi va jinoyatning koʻrsatilgan ashyolarini tarqatish maqsadida saqlaganini aniqlash vaqtidan boshlab tamomlangan hisoblanadi. Agar aybdor oʻzida saqlangan milliy, irqiy, etnik va diniy adovatni targʻib qiluvchi materiallarni uchinchi shaxs foydasiga oʻzidan soqit qilish holatini sodir etsa, u holda saqlash koʻrilayotgan jinoyat obyektiv tomonining boshqa koʻrinishiga – tarqatishga aylanadi.

Koʻrsatilgan ashyolarni saqlaganlik uchun javobgarlik saqlashning davomiyligidan qatʻi nazar boshlanadi.

Milliy, irqiy, etnik va diniy adovatni targʻib qiluvchi materiallarni **tarqatish** deganda, uchinchi shaxs foydasiga oʻzidan soqit qilishning har qanday (sotish, sovgʻa qilish, koʻchalarda tarqatish va shu kabilar) koʻrinishi yoki material tarkibi bilan shaxslarni tanishtirish (varaqalarni osish, ommaviy axborot vositalarida namoyish etish, auditoriya oldida chiqish qilish, elektron aloqa vositalari va internet tarmogʻining boshqa imkoniyatlaridan foydalanish va boshqalar) usullarini tushunish lozim.

Milliy, irqiy, etnik va diniy adovatni targʻib qiluvchi hujjatlarni tarqatish, berilgan materiallarning tarkibini, maʼlumotini yoki xabarini hech boʻlmaganda bir kishiga yetkazish vaqtidan boshlab **tamomlangan jinoyat** hisoblanadi.

JK 156-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan jinoyatning **obyektiv tomoni**, milliy shaʼn va qadr-qimmatini yerga urish, fuqarolarning diniy yoki ateistik qarashlari bilan bogʻliq his-tuygʻularini haqoratlash hamda fuqarolarning milliy, irqiy, etnik mansubligiga yoki dinga munosabatiga qarab bevosita yoki bilvosita huquqlarni cheklab qoʻyish, bevosita yoki bilvosita imtiyozlarni belgilash holatlaridir.

Milliy shaʼn va qadr-qimmatini yerga urish, fuqarolarning diniy yoki ateistik qarashlari bilan bogʻliq his-tuygʻularini

haqoratlash bilan bog'liq harakatlar deganda, turli millat, irq, etnik guruh yoki konfessiyalarga taalluqli fuqarolar orasida adovat, nafrat qo'zg'atish, ziddiyatlarni vujudga keltirishga yo'naltirilgan har qanday harakatni tushunish lozim. Bunday harakatlar u yoki bu millat, irq vakillarini qo'rqoqlikda, sotqinlikda va boshqa ularga loyiq bo'lmagan xususiyatlarda ayblash, haqorat qilish bilan tavsiflanadi.

Fuqarolarning milliy, irqiy, etnik mansubligiga yoki dinga munosabatiga qarab bevosita yoki bilvosita huquqlarini cheklab qo'yish, bevosita yoki bilvosita imtiyozlarni belgilash O'zbekiston Respublikasi fuqarosi ega bo'lgan har qanday huquqlarga tegishlidir. Bular: o'qishga, ishga qabul qilishni rad etish, shaxsning u yoki bu millat, irq yoki dinga mansubligidan kelib chiqib imtiyozlardan cheklash va boshqalar.

JK 156-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan jinoyat fuqarolarning milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovatni qo'zg'atishga yo'naltirilgan harakatlarning birortasi sodir etilgan damdan boshlab **tamomlangan** hisoblanadi, ya'ni jinoyat tarkibining tamomlanishi uchun milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat shunday harakatlar natijasida haqiqatdan ham vujudga kelishi talab qilinmaydi.

Jinoyat kodeksining 156-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning **subyektiv tomoni** aybning **to'g'ri qasddan**, anglangan holda sodir etilishi bilan tavsiflanadi. Aybdor milliy, irqiy va diniy adovatni qo'zg'atayotganini, jumladan, milliy, irqiy, etnik va diniy adovatni targ'ib qiluvchi materialni tarqatayotgani yoki tarqatish maqsadida tayyorlayotgani, saqlayotganini biladi va shuni xohlaydi. JK 156-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyat tarkibi subyektiv tomonining majburiy belgisi milliy, irqiy, etnik va diniy adovatni targ'ib qiluvchi materiallarni tarqatish yoki tarqatish maqsadida tayyorlash yoki saqlash, jinoyatning **maqsadi** – berilgan materiallarni tarqatishdir.

Aybdorda bunday maqsadning mavjudligi bir necha dalillar, jumladan, tayyorlanayotgan va saqlanayotgan materiallarning soni va turlari yoki shunday mazmundagi materiallarni tayyorlash yoki saqlash, olib kirish usullari bilan tavsiflanadi. Masalan, shaxsning diniy separatizm g'oyalarini o'z ichiga olgan materialni ko'p sonli nusxada

qadoqlangan shaklda saqlashi uning ushbu adabiyotni tarqatish niyatida bo'lganini anglatadi. Agar shaxsda shunday g'oyalarni targ'ib qiluvchi materiallarni tarqatish maqsadi bo'lmasa, u JK 156-moddasi 1-qismi bo'yicha ularni tayyorlagani yoki saqlagani uchun jinoiy javobgarlikka tortilmaydi. Aybdor tomonidan jabrlanuvchi milliy sha'n va qadr-qimmatini yerga urish, fuqarolarning diniy yoki ateistik qarashlari bilan bog'liq his-tuyg'ularini haqoratlash harakatlari sodir etilganda maxsus **maqsadning** mavjudligini – aholining milliy, irqiy, etnik yoki diniy belgilariga ko'ra guruhlar orasida adovatni, nafratni yoki kelishmovchilikni qo'zg'atishni aniqlash zarur.

Harakatning **motivi** turlicha bo'lishi mumkin. Odatda, bu millatchilik, diniy dunyoqarash, bundan tashqari, ko'ra olmaslik va boshqa niyatlardir. Bular jinoyatning kvalifikatsiyasiga ta'sir qilmaydi, lekin jazo belgilanayotganda inobatga olinishi zarur.

JK 156-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning **subyeksi** 16 yoshga to'lgan aqli raso jismoniy shaxs.

O'z mansab vakolatlaridan foydalangan holda milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovatni targ'ib qiluvchi materiallarni tarqatish, tarqatish maqsadida tayyorlash, saqlash bilan shug'ullanuvchi mansabdor shaxs jinoyat tarkibiga ko'ra **JK 156-moddasi** hamda 205-moddasi (Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish) yoki 206-moddasi (Hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish) bo'yicha ishning aniq holatidan kelib chiqib javobgarlikka tortiladi.

Mansabdor shaxs fuqarolarning millati, irqi yoki diniy mansubliklariga qarab fuqarolarning huquqlarini cheklash yoki imtiyozlarini belgilash harakati subyekt sifatida xizmat qilsa, uning harakatlarini ishning aniq holatidan kelib chiqib, **JK 156-moddasi 2-qismi** bilan hamda 205-moddasi (Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish) yoki 206-moddasi (Hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish) bo'yicha kvalifikatsiya qilish kerak.

JK 156-moddasi 3-qismi bir qator kvalifikatsiya qilinuvchi belgilarni nazarda tutadi. Ko'rilayotgan moddaning 1- yoki 2-qismida nazarda tutilgan milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovatni qo'zg'atish holatlarini sodir etish:

a) boshqa shaxslarning hayoti uchun xavfli usullar bilan;

b) og‘ir tan jarohati yetkazish yo‘li bilan;

v) aholini doimiy yashash joyidan majburiy ko‘chirish;

g) mas‘ul mansabdor shaxs tomonidan;

d) oldindan til biriktirgan holda yoki bir guruh shaxs tomonidan amalga oshirilgan deb tushuniladi.

Boshqa shaxslar hayoti uchun xavfli usullar deganda, ko‘rilayotgan moddada aybdor tomonidan jinoyatni sodir etishning shunday usullaridan foydalanish nazarda tutiladi, ya‘ni aniq holatda nafaqat jabrlanuvchilar, balki boshqa shaxslar hayotiga ham zarar yetkazish xavfini tug‘diradigan jinoyatni sodir etishning usullari va uslublari nazarda tutiladi.

Agar aybdor milliy, irqiy, etnik va diniy adovatni qo‘zg‘ashga yo‘naltirilgan harakatlarni sodir etishi jarayonida jabrlanuvchiga og‘ir tan jarohatini yetkazsa, uning harakatini JK 156-moddasi 3-qismi «b» bandi bilan kvalifikatsiya qilinadi va JK 104-moddasi bo‘yicha qo‘shimcha kvalifikatsiyani talab qilmaydi.

(«Og‘ir tan jarohati» tushunchasi haqida JK 104-moddasi tahliliga qarang.)

JK 156-moddasi 3-qismi «v» bandida keltirilgan **fuqarolarni o‘z doimiy yashash joylaridan zo‘rlik ishlatib ko‘chirish** deganda, shaxslarni o‘z xohish-irodasiga qarshi doimiy yashash joyini tashlab ketishiga majburlash holatlarini tushunish zarur. Bunday holatlarda jabrlanuvchilarga nisbatan kaltaklash, yengil yoki o‘rta og‘ir shikast, tan jarohatlari yetkazish ko‘rinishida zo‘rlik ishlatilishi mumkin. Bundan tashqari, fuqarolarni o‘z doimiy yashash joylaridan zo‘rlik ishlatib ko‘chirish deganda, fuqarolarni o‘ziga yoki uning yaqinlariga nisbatan zo‘rlik ishlatishga, mol-mulkini yo‘q qilishga, yashash sharoitini og‘irlashtirishga tahdid qilish, fuqarolarni doimiy yashash joyidan majburiy tarzda ko‘chirish holatlari tushuniladi.

JK 156-moddasi 3-qismi «g» bandida eslatib o‘tilgan, JKning sakkizinchi bo‘limi holatiga muvofiq, mas‘ul mansabdor shaxslarga quyidagilar kiradi:

1) hokimiyat vakillari;

2) doimiy yoki vaqtincha, saylangan yoki tayinlangan, davlat tashkilotlarida, muassasalarida yoki birlashmalarida tashkiliy-boshqaruv yoki ma'muriy-xo'jalik majburiyatlarni bajaruvchi hamda yuridik ahamiyatga ega bo'lgan harakatlarni sodir etishga vakolatlangan lavozimga ega bo'lgan shaxslar;

3) mulkchilikning boshqa ko'rinishidagi tashkilotlar, muassasalar yoki birlashmalarning rahbarlari, davlat boshqaruvi bo'yicha o'rnatilgan tartibda hokimiyat vakolatiga ega bo'lgan jamiyatning vakillari;

4) ikkinchi bandda ko'rsatilgan vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan, fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlarida lavozimga ega bo'lgan shaxslar.

JK 156-moddasi 3-qismi «d» bandi bo'yicha jinoyatni kvalifikatsiya qilish uchun milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovatni qo'zg'atish holatlarini sodir etishda bevosita ishtirok etgan ikki yoki undan ortiq shaxslarning harakatlari birgalikda sodir etilganligi hamda bir maqsadga yo'naltirilganligini aniqlash zarur.

«Tinchlik va insoniyatning xavfsizligiga qarshi jinoyatlar» mavzusi bo'yicha yakuniy savollar

1. Urushni targ'ib qilish deganda nima tushuniladi?
2. JK 150-moddasi bo'yicha aybdorning harakatlarini kvalifikatsiya qilishning xususiyatlari nimada?
3. Agressiya degani nima, uning namoyon bo'lish turlari va usullari qanday?
4. Agressiv urushni rejalashtirish va tayyorlash nimadan tashkil topadi?
5. Agressiyaning urushni targ'ib qilishdan farqi nimadan iborat?
6. Urush qonunlari va udumlari nimadan iborat? Ularni buzish nimada namoyon bo'ladi? Urush qonunlari va udumlarini buzishning obyekti qanday?
7. Genotsidning maqsadi qanday?
8. Jismoniy, ijtimoiy-iqtisodiy va biologik genotsid nimadan tashkil topadi?

9. Yollanish tushunchasi va uning belgilariga ta'rif bering. Berilgan jinoyat subyekting xususiyatlari qanday?

10. Harbiy xizmatga, xavfsizlik organlariga, politsiyaga, harbiy adliyaga va boshqa shu kabi xorijiy davlat tashkilotlariga kirish nimada namoyon bo'ladi? Berilgan jinoyatning kvalifikatsiyasi xususiyatlari qanday? Berilgan jinoyat tarkibi yollanishdan nimasi bilan farqlanadi?

11. Terrorizm nimada namoyon bo'ladi va uning turlari qanday? Terrorizmni asirlikka olish, tamagirlik qilish va odam o'g'irlash jinoyatlaridan qaysi belgilariga ko'ra chegaralash lozim?

12. Milliy, irqiy, etnik va diniy adovatni qo'zg'atish nimada namoyon bo'ladi? Berilgan jinoyatning kvalifikatsiyasi xususiyatlari qanday?

13. JK 156-moddasida (milliy, irqiy, etnik va diniy adovatni qo'zg'atish) nazarda tutilgan jinoyatning vijdon erkinligi yoki fuqarolarning teng huquqliligini buzishdan farqi nimada?

Qo'shimcha adabiyotlar

O'quv qo'llanmalar, maxsus adabiyotlar

Антоян Ю.М. Терроризм. Криминологическое и уголовно-правовое исследование. – М.: «ИвИТ-М», 1998.

Емельянов В.П. Терроризм и преступления с признаками терроризирования. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2002. – 291 Б.

Кибальник А.Г., Соломоненко И.Г. Преступления против мира и безопасности человечества. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2004. – 385 Б.

Кочаров А.А. К вопросу об ответственности военных руководителей за преступления против мира // Труды НИИ правовой защиты. – Баку: 1970.

Международное уголовное право: Учебник // Под ред. В.И. Кудрявцева. – М.: «Наука», 1999. – 264 Б.

Незнанов С. М. Наемничество и его международная противоправность. Автореф. канд. дисс. – М.: Дипломатическая академия МИД СССР, 1985.

Рахимов Д.Ф. Современные конструкции определения терроризма: международно-правовые аспекты. – Т.: «Qonun himoyasida», 2004. – 194 Б.

Рахманов А.Р. Проблемы безопасности: на национальном, региональном и глобальном уровнях. – Т.: 2001. – 97 Б.

Рыбаков Ю.М. Вооруженная агрессия – тягчайшее международное преступление. – М.: «Юридическая литература», 1980.

Салимов К.Н. Современные проблемы терроризма. – М.: «Ивита-М», 1999.

Таджиханов Б.У. Правовая характеристика терроризма. Учебное пособие. – Т.: Академия МВД Республики Узбекистан, 2002. – 79 Б.

Таджиханов Б.У. Уголовно-правовые меры борьбы с терроризмом. Учебное пособие. – Т.: Академия МВД Республики Узбекистан, 2003. – 88 Б.

Ilmiy maqolalar

Матмуратов Б.Ж. Борьба с терроризмом // Терроризмга қарши кураш: илмий-амалий ва назарий муаммолар. Илмий-амалий анжуман маъруза матни. – Т.: ТДЮИ, 2002. – 20–23-б.

Махкамбаев П.А. Значение охраны государственной границы в системе обеспечения национальной безопасности Республики Узбекистан // Сборник СНБ Республики Узбекистан. 1996. № 5. – 35–37-б.

Крутько О. Некоторые проблемы квалификации терроризма. // Терроризмга қарши кураш: илмий-амалий ва назарий муаммолар. Халқаро конференция материаллари. – Т.: ТДЮИ, 2002. – 245–252-б.

Пайзуллаев К.П., Абдуқодиров Ш.Ё. Терроризм – умумбашарий муаммо // Терроризмга қарши кураш: илмий-амалий ва назарий муаммолар. Халқаро конференция материаллари. – Т.: ТДЮИ, 2002. – 113–120-б.

Таджиханов Б.У. Законодательное определение понятия терроризма в Республике Узбекистан // Терроризмга қарши кураш:

илмий-амалий ва назарий муаммолар. Халқаро конференция маърузалар тўплами. – Т.: ТДЮИ, 2002. – 267–281-б.


Таджиханов Б.У. Преступления, связанные с террористической деятельностью // Терроризмга қарши кураш: илмий-амалий ва назарий муаммолар. Халқаро конференция маърузалар тўплами. – Т.: ТДЮИ, 2002. 184–187-б.

Таджиханов Б.У. Принципы и критерии классификации современного терроризма // Ж. Ҳуқуқ-Право-Law. 2002. – № 7. – 78–82-б.

Якубов А.С., Таджиханов Б.У. Объект терроризма // Ж. Давлат ва ҳуқуқ. 2003. № 5. – 60–65-б.

X BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIGA QARSHI JINOYATLAR

13-sxema



1-§. Davlatga xoinlik qilish (JK 157-moddasi)

Davlatga xoinlik qilish o‘ta og‘ir jinoyatlardan biridir. Mazmunan bu harakat o‘z xalqiga nisbatan sotqinlik qilishdir.

Davlatga xoinlik qilishning **bevosita obyekti** O‘zbekiston Respublikasining milliy xavfsizligini tashkil qiluvchi va suverenitetdan, hududiy daxlsizlikdan, xavfsizlikdan, o‘zini himoya qila olishlikdan va davlatning iqtisodidan tashkil topuvchi tashqi xavfsizligi hisoblanadi.

NOTA BENE !

O‘zbekiston Respublikasining **milliy xavfsizligi** – bu O‘zbekiston Respublikasida suverenitet sohibi va hokimiyatning birdan-bir manbai bo‘lmish O‘zbekiston ko‘p millatli xalqining xavfsizligidir.

Suverenitet davlat ichida davlat hokimiyatining ustunligi va uning tashqi siyosiy faoliyatda mustaqilligini bildiradi. O‘zbekiston

Respublikasining suvereniteti uning butun hududiga nisbatan amal qiladi.

Hududiy daxlsizlik deganda, O‘zbekiston Respublikasining hududi va chegarasining butunligi va bo‘linmasligi tushuniladi. O‘zbekiston Respublikasining davlat chegaralarigacha bo‘lgan quruqlik, suv, yer qa’ri va havo bo‘shliqlarining barchasi uning hududi hisoblanadi.

Davlatning **xavfsizligi** uning manfaatlarining o‘z vaqtida va to‘liq amalga oshirilishida namoyon bo‘ladi. o‘z navbatida, davlat manfaatlari O‘zbekiston Respublikasining konstitutsion tuzumi, suvereniteti va hududiy yaxlitligining birligidan, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy tenglik, qonunchilikni ta’minlash va huquq-tartibotni qo‘llab-quvvatlash, teng huquqli hamda o‘zaro manfaatli xalqaro munosabatlardan tashkil topadi.

Mudofaa salohiyati o‘zida iqtisodiy, harbiy, ijtimoiy, huquqiy va davlatning tashqarisidan bo‘ladigan tajovuzni bartaraf etish bo‘yicha boshqa imkoniyatlari tizimi, ya’ni harbiy qudratini ifodalaydi.

Iqtisodiyot deganda, mehnatni qo‘llagan holda odamlar tomonidan hayotni ta’minlash, ehtiyojlarni qondirish uchun hayotiy zarur imkoniyatlarni, sharoitlarni va vositalarni yaratuvchi davlatning xalq xo‘jaligi yoki uning qismi, obyektlar, jarayonlar¹ tushuniladi. Iqtisodiyot o‘zida moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarini – qishloq xo‘jaligi, transport, savdo-sotiq, og‘ir va yengil sanoat va boshqalar hamda nomoddiy tarmoqlar – madaniyat, sog‘liqni saqlash, ma’naviyat va boshqalarni mujassam etadi.

Davlatga xoinlik qilishning **predmetini** O‘zbekiston Respublikasining 1993 yil 7 maydagi 848-XII-sonli «Davlat sirlarini himoya qilish haqida»gi Qonunida berilgan davlat sirlarini tashkil qiluvchi ma’lumotlar tashkil qiladi².

Davlat sirlari deganda, davlat tomonidan qo‘riqlanadigan va maxsus ro‘yxatlar bilan chegaralab qo‘yiladigan alohida ahamiyatli, mutlaqo maxfiy va maxfiy harbiy, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va boshqa xil ma’lumotlar tushuniladi.

¹Каранг: Райзберг Б.А., Лозовский Л.Ш., Стародубцева Е.Б. Современный экономический словарь.– М.: ИНФРА-М. 1997. С. 393.

²Ўзбекистон Республикаси олий Кенгаши Ахборотномаси. 1993 йил, №5 – 232 б.

Davlat siri oshkor etilishi davlatning harbiy-iqtisodiy imkoniyatlarining sifat holatiga salbiy ta'sir etishi yoki davlatning mudofaa qobiliyati, davlat xavfsizligi, iqtisodiy va siyosiy manfaatlari uchun boshqa og'ir oqibatlar keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan ma'lumotlardir.

Harbiy sir oshkor etilishi davlatning mudofaa qobiliyati, davlat xavfsizligi va Qurolli Kuchlari uchun og'ir oqibatlar keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan harbiy xususiyatga ega ma'lumotlardir.

Xizmat siri oshkor etilishi davlat manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan fan, texnika, ishlab chiqarish va boshqaruv sohasiga doir ma'lumotlardir.

Davlatga xoinlik qilishning **obyektiv tomoni** O'zbekiston Respublikasining suverenitetiga, hududiy daxlsizligiga, xavfsizligiga, mudofaa qudratiga, iqtisodiyotiga ziyon yetkazadigan dushman tomonga o'tish, josuslik qilish, chet davlatga, chet el tashkilotlari yoki ularning vakillariga O'zbekiston Respublikasiga qarshi dushmanlik faoliyati olib borishida yordam berish va chet davlatga boshqa yordamlarni ko'rsatishda namoyon bo'ladi.

Davlatga xoinlik qilish harakatlarining mazkur ro'yxati to'la bo'lib, uni sharhlashning hojati yo'q.

Josuslik qilish deganda, chet davlatga, chet el tashkilotlari yoki ularning vakillariga yetkazish maqsadida davlat sirlarini tashkil etuvchi ma'lumotlarni yig'ish, o'g'irlash va xabardor qilish harakatlari tushuniladi.

Ta'kidlab o'tish kerakki, davlatga xoinlik qilish ko'rinishidagi josuslik qilish jinoyati uchun faqat O'zbekiston Respublikasi fuqarolari javobgarlikka tortiladilar.

Agar josuslik harakati chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxs tomonidan sodir etilsa, aybdor shaxsning jinoyatini JK 160-moddasi (Josuslik) bo'yicha kvalifikatsiya qilish lozim.

(Josuslikning to'liqroq tahlili JK 160-moddasini ko'rib chiqishda beriladi.)

Xorijiy davlat deganda, har qanday (O'zbekiston Respublikasidan tashqari) xalqaro birlashma tomonidan tegishli boshqaruv turi

(Respublika, monarxiya)ga ega bo'lgan BMT ga a'zolidan qat'i nazar hamda O'zbekiston Respublikasi bilan diplomatik munosabatlarning mavjud yoki mavjud emasligidan qat'i nazar, aniq jamiyatli, siyosiy tashkilot tushuniladi. Mazkur holatda, davlat xoini xorijiy davlatning o'ziga yoki uning organlaridan birida (odatda bu maxsus xizmat yoki huquqni himoya qilish organlari) xizmat qilishi mumkin.

Xorijiy tashkilot (O'zbekiston fuqarolaridan tashqari) birgalikda ma'lum maqsad yoki dasturni amalga oshirishga va ma'lum qoidalar asosida harakat qiluvchi har qanday odamlar birlashmasidir. Uning turli ko'rinishlari sifatida xalqaro tashkilot, ya'ni davlatlararo, boshqaruvlararo tashkilotlar xizmat qiladi.

Xorijiy davlat yoki xorijiy tashkilotning vakili – bu ushbu davlat (tashkilot) topshirig'iga (buyrug'iga) binoan, uning nomidan va uning manfaatlari yo'lida qaror qabul qiluvchi va (yoki) harakatlar sodir etuvchi shaxsdir. Bu shaxs xorijiy maxsus xizmatning razvedkachisi, xorijiy tashkilotning emissari bo'lishi mumkin.

Xorijiy davlat yoki xorijiy tashkilotga yoki uning vakiliga davlat sirini oshkor qilish ko'rinishidagi davlatga xoinlik qilish jinoyati O'zbekiston Respublikasi fuqarosi tomonidan qasddan davlat sirlarini o'zida aks ettiruvchi ma'lumotlar (buyumlar)ni yetkazish yoki ma'lum qilishdan tashkil topadi.

Davlat sirlarini oshkor qilish turli shakllarda amalga oshirilishi mumkin (og'zaki yoki yozma, ko'rgazma shaklida va boshqalar): o'z xohishiga ko'ra (odatda, xoinlik shunday ro'y beradi) ham, zo'rlik ishlatilishi natijasida ham (tahdid, zo'ravonlik, tamagirlik ta'siri ostida).

Davlat sirlarini oshkor etish usullari jinoyatning kvalifikatsiyasiga ta'sir qilmaydi.

Davlat sirlarini oshkor etish, josuslik ko'rinishida sodir etilgan davlatga xoinlik qilishdan farqlanadi. Birinchi holatda shaxs davlat sirlariga o'z faoliyati munosabati bilan ega yoki ma'lumotlarni boshqa bir yo'l bilan biladi, josuslik holatida esa, shaxs xorijiy davlatga yetkazish uchun davlat sirlarini yig'adi yoki o'g'irlyadi.

Josuslik ko'rinishidagi davlatga xiyonat qilish hamda davlat sirlarini oshkor etish, davlat sirlaridan tashkil topgan ma'lumotlar ko'zlangan va

qonunda ko'rsatilgan egasiga yetkazilgan va uning mulkiga aylangan damdan boshlab jinoyat **tamom bo'lgan** hisoblanadi.

Davlatga xoinlik qilishning so'nggi ko'rinishi **O'zbekiston Respublikasiga qarshi dushmanlik faoliyatini amalga oshirishda xorijiy davlat, xorijiy tashkilot yoki uning vakillariga boshqa ko'rinisdagi yordam ko'rsatishdir.**

Bular har qanday ko'rinisdagi harakatlar bo'lishi mumkin, faqat yuqorida ko'rsatilgan josuslik qilish va davlat sirlarini oshkor etish faoliyatlari xorijiy davlatga yordam ko'rsatish holati bo'lsa-da, shunga qaramay jinoyatning alohida ko'rinishi sifatida shakllangani sababli bundan mustasnodir.

Bu holat aynan, masalan, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi tomonidan xorijiy agentlarning uchrashuvlari uchun joy taqdim etish; xorijiy agent uchun zarur mutaxassislarni topish va yollash; xorijiy maxsus xizmat agentiga yashash joyini taqdim etish, uni hujjatlar bilan, oziq-ovqat mahsulotlari, transport vositalari bilan ta'minlash, maxsus tashkilotlarga, organlar va xizmatlarga xorijiy davlatlar manfaatlariga xizmat qiluvchi va O'zbekiston Respublikasiga qarshi dushmanlik faoliyatini olib boruvchi xorijiy tashkilotlar yoki ularning vakillariga, xorijiy agentlarga, qurolli guruhlariga, separatist harakatlarga turli ko'rinisdagi ishtirokchilikni amalga oshirish maqsadida ishga joylash; urush paytida dushman tomonga o'tish, front chizig'idan o'tishda hamda dushman bilan uning bosib olgan hududida hamkorlik qilishga rozilik berishida va boshqalarda namoyon bo'ladi.

Bunday ko'rinisdagi yordamni amalga oshirish holati ham O'zbekiston Respublikasi hududida, ham undan tashqarida sodir etilishi mumkin.

Ta'kidlash kerakki, davlatga xiyonat qilishning ko'rilayotgan turi, asosan, ikki aktdan tashkil topadi: aybdor va xorijiy davlat, xorijiy tashkilot yoki ularning vakillari o'rtasida aloqa o'rnatish va ularning buyrug'i bo'yicha aniq harakatlarni amalga oshirish.

Shu bilan birga agar aybdor xorijiy davlat, xorijiy tashkilot yoki ularning vakillari buyrug'iga binoan, biror-bir jinoyatni konstitutsiyaviy tuzum va davlat xavfsizligiga (davlatga xoinlik qilishdan tashqari) qarshi

sodir etsa uning harakatlarini jinoyatning xususiyatiga ko'ra kvalifikatsiya qilish lozim. Masalan, agar aybdor tomonidan qo'poruvchilik harakati sodir etilgan bo'lsa, u holda aybdor JK 157-moddasi va 161-moddasi (Qo'poruvchilik) bo'yicha javobgarlikka tortiladi.

O'zbekiston Respublikasiga qarshi dushmanlik faoliyatini olib borishda xorijiy davlatga yordam berish ko'rinishidagi davlatga xoinlik qilish yordam berishga yo'naltirilgan har qanday harakatni sodir etish vaqtdan boshlab **tugallangan** jinoyat hisoblanadi.

Shaxsning adresat bilan aloqa o'rnatish uchun, yordam berish rejasini ishlab chiqish uchun sharoit yaratish harakati va hokazoni amalga oshirishi xorijiy davlat, xorijiy tashkilotlar yoki ularning vakillari tomonidan O'zbekiston Respublikasiga qarshi dushmanlik faoliyatini amalga oshirishga yordam berish yo'li orqali davlatga xoinlik qilishga tayyorlanishni tashkil qiladi.

Xorijiy davlat bilan aloqa o'rnatishga harakat qilishning barbod bo'lishi suiqasd deb topiladi.

Xorijiy davlat tomonidan dushmanlik harakatini amalga oshirish – urush yoki qurolli (harbiy) ziddiyatlarning mavjud bo'lishi, «kuchli bosim» dushmanlik siyosatini olib borish, O'zbekiston manfaatlariga zid keluvchi iqtisodiy, siyosiy va harbiy faoliyat, jumladan, siyosiy va iqtisodiy sanksiyalarni, embargolarni kiritish, urushni yoki harbiy harakatlarni rejalashtirish yoki tayyorlash, diplomatik munosabatlarni to'xtatish yoki uzish demakdir.

Subyektiv tomondan jinoyat **to'g'ri qasd** bilan sodir etiladi. Aybdor uning qilmishi davlat suvereniteti, hududiy daxlsizligi, xavfsizligi, mudofaa qudrati, iqtisodiyotiga ziyon yetkazayotganligini angelaydi va shuni xohlaydi.

Davlatga xoinlik qilish **motiv** va **maqsadi** turlicha bo'lishi mumkin (separatistik dunyoqarash, ko'ra olmaslik va boshqalar). Biroq bu ko'rilayotgan jinoyatning kvalifikatsiyasiga ta'sir qilmaydi.

JK ning 157-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning **subyektiv** faqat 16 yoshga to'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lishi mumkin.

Davlat sirlarini oshkor etish ko‘rinishida sodir etilgan davlatga xoinlik qilish jinoyati subyekti faqatgina bu sirlar xizmat yuzasidan unga topshirilgan yoki xizmat yuzasidan ma’lum bo‘lib qolgan yoki boshqa yo‘l bilan uning mulkiga aylangan shaxs bo‘lishi mumkin. Davlat sirlarini yig‘ish yoki o‘g‘irlash holatlari bundan mustasnodir.

Agar shaxs davlat sirlariga «tasodifan» ega bo‘lsa (masalan, davlat sirlarini tashkil etuvchi buyumlar topilmasining egasi bo‘lsa) va ularning sirligini bilib turib, shunda ham xorijiy davlatga oshkor etsa, bu harakat ham JK 157-moddasi bo‘yicha jinoiy javobgarlikka loyiqdir.

JK 157-moddasi 2- va 3-qismlarida davlatga xoinlik qilishga jalb qilingan shaxs uchun rag‘batlantirish me‘yori bo‘lgan so‘nggi imkon, boshqacha qilib aytganda «oltin ko‘prik», ya‘ni davlat manfaatlariga etadigan zararining hamda jinoiy javobgarlikka tortilishning oldini olishning imkoni mavjud.

JK 157-moddasi 2-qismida belgilab qo‘yilgan «chet el davlat yoki tashkiloti tomonidan O‘zbekiston Respublikasiga qarshi qaratilgan davlatga zarar yetkazuvchi faoliyatni amalga oshirishda hamkorlik qilish uchun jalb qilingan O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi o‘zining bunday hamkorligi to‘g‘risida hokimiyat organlariga ixtiyoriy ravishda arz qilsa, uning faoliyati esa Respublika manfaatlariga zarar yetkazmagan bo‘lsa, javobgarlikdan ozod etiladi». Ya‘ni, xoinning javobgarlikdan ozod etilishi uchun ikkita shart zarur:

1) xorijiy davlat bilan hamkorligi haqida ixtiyoriy ravishda hokimiyat organlariga arz qilishi. Shu bilan birga bunday arz qilish fikri aybdorning qarindoshlari tomonidan hamda O‘zbekiston Respublikasining maxsus xizmati va huquqni muhofaza qilish organlariga hamkorlik qiluvchi shaxslar tomonidan taqdim qilinishi mumkin. Shunga qaramay sodir etilgan jinoyat haqida hokimiyat organlariga arz qilish qarorini aynan uni sodir etgan shaxs qabul qilishi kerak;

NOTA BENE !

Ixtiyoriylik – aybdorning xorijiy davlat bilan hamkorligi haqida ixtiyoriy ravishda hokimiyat organlariga arz qilishi harakati – tegishli

organlarga uning aloqasi ma'lum bo'lishidan avval ro'y berishi kerak, bundan tashqari, bunday arz aybdor tomonidan biror kishining ta'sirisiz o'z xohishi bilan amalga oshirilish kerak.

2) shaxsning xorijiy razvedka bilan hamkorligi O'zbekiston Respublikasi manfaatlariga zarar yetkazmasligi lozim.

Berilgan shartga rioya qilish uchun, aybdor sodir etilgan jinoyat haqida hokimiyat organlariga arz qilishi o'z vaqtida bo'lishi kerak, ya'ni hokimiyat organlarining O'zbekiston Respublikasi manfaatlariga etadigan zarar oqibatlarining oldini olish uchun yetarli vaqt bo'lishi zarur. Obyektiv jihatdan bunday arz aybdorning yetadigan zararining oldini olishga ongli ravishda harakat qilishini bildiradi.

Hokimiyat organlari deganda, berilgan holatda qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi yoki sud hokimiyatlaridan birini tushunish lozim. Ijro etuvchi hokimiyatning davlatga xoinlik qilishni aniqlaydigan va oldini oladigan asosiy davlat organi O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizligi xizmatidir.

JK 157-moddasi 3-qismida belgilanganidek, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi, agar u o'z qilmishi to'g'risida hokimiyat organlariga ixtyoriy ravishda xabar berib jinoyatni ochishga faol yordam bergan va buning natijasida davlat uchun kelib chiqishi mumkin bo'lgan og'ir oqibatlarning oldi olingan bo'lsa, javobgarlikdan ozod qilinadi.

Jinoyatni ochishga **faol** yordam berish, O'zbekiston Respublikasi hududidagi maxsus xizmatga maxfiy ko'mak berishi haqida rozilik berish, jinoyatlarni ochish va yo'lini to'sish, xorijiy maxsus xizmat organlaridan olingan vazifalarni boshqalar bajarishining oldini olish, xorijiy razvedka vakillari foydalanadigan vaqtinchalik yoki doimiy yashash joylarini, jinoyatni sodir etgan shaxslarni aniqlash va boshqalarda yordam berishda ifodalanadi.

2-§. O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga tajovuz qilish (JK 158-moddasi)

Mazkur jinoyat JKning «O'zbekiston Respublikasiga qarshi jinoyatlar» bo'limidan bejiz joy olmagan. Zero, O'zbekiston

Respublikasi Prezidenti fuqarolarning huquq va erkinliklariga, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishining kafilidir hamda O‘zbekiston Respublikasining suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligini mudofaa etish, milliy davlat tuzilishi masalalariga doir qarorlarni amalga oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlarni ko‘radi, Konstitutsiyada belgilangan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi. Konstitutsiyaning 91-moddasida «...Prezidentning shaxsi daxlsizdir va qonun bilan muhofaza etiladi»¹ deyilgan.

Ko‘rilayotgan qilmishning **turdosh obyekt** bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining davlat suvereniteti, xavfsizligi, mudofaa qudrati va iqtisodiyoti asoslarini ta‘minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining siyosiy tizimi **bevosita asosiy** obyektidir. **Qo‘shimcha bevosita** obyekt bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hayoti, xavfsizligi, sog‘ligi, sha‘ni va qadr-qimmatini ta‘minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Hokimiyat nufuzi va obro‘si, Prezident faoliyati, uning hayoti, sog‘salomatligi, sha‘ni va qadr-qimmatini tahlil etilayotgan jinoyat obyektidir.

O‘zbekiston Respublikasi davlat boshlig‘i sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ko‘rib chiqilayotgan jinoyat **jabrlanuvchisi** hisoblanadi.

¹Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси: Ён иккинчи чакириқ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ўн биринчи сессиясида 1992 йил 8 декабрда қабул қилинган. (2002 йил 27 январда ўтказилган умумхалқ референдуми натижаларига кўра ҳамда унинг асосида Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 24 апрелда қабул қилинган Қонунига мувофиқ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси XVIII, XIX, XX, XXIII бобларига ўзгартиришлар ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2007 йил 11 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 89-моддасига, 93-моддасининг 15-бандига, 102-моддасининг иккинчи қисмига тузатишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2008 йил 25 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 77-моддасининг биринчи қисмига ўзгартириш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2011 йил 12 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 90-моддасининг иккинчи қисмига тузатиш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 16 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 32, 78, 93, 98, 103 ва 117 моддаларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 6 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 4-бандига, 81-моддасининг еттинчи қисмига, 83-моддасига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13 ва 14- бандларига, 107-моддасининг биринчи қисмига, 110-моддасининг биринчи ва учинчи қисмларига, 111-моддасига ўзгартишлар ва қўшимча киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 31 майда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 5 ва 12-бандларига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13-бандига ҳамда 108, 109-моддаларига ўзгартишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 29 августда қабул қилинган қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 99 ва 10-моддаларига ўзгартишлар киритилган.) – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. –44 б.

JK 158-moddasi 1-qismi **obyektiv tomondan** aybdorning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hayotiga bevosita sodir etgan tajovuzini ifodalaydi.

Hayotga tajovuz qilish deganda, jabrlanuvchining o‘ldirilishini yoki uning hayotiga qasd qilinishini anglatadigan, ya’ni aybdor tomonidan jabrlanuvchini hayotidan mahrum qilishga qaratilgan har qanday harakati tushuniladi.

(«Qasddan odam o‘ldirish» tushunchasi haqida JK 97-moddasi tahliliga qarang.)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hayotiga tajovuz qilish, kelib chiqqan oqibatlardan qat’i nazar, **tugallangan** jinoyat deb topiladi. Prezidentning hayoti to‘xtatiladimi yoki yo‘qmi jinoyatning kvalifikatsiyasi uchun ahamiyatsizdir. Odam o‘ldirish va tajovuz qilish ongli ravishda amalga oshirilsa, aybdor JK 158-moddasi 1-qismi bilan javobgarlikka tortiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining o‘limi hamda uning hayotiga tajovuz qilishning o‘zi ham ko‘rilayotgan jinoyat tarkibi belgilarini tashkil qiladi va JK 97-moddasi bo‘yicha qo‘shimcha kvalifikatsiyani talab qilmaydi.

JK 158-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan jinoyatning **obyektiv tomoni** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga tan jarohatini yetkazishda namoyon bo‘ladi.

Aybdorning harakatlarini, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga qanday turdagi tan jarohati yetkazilganidan qat’i nazar (og‘ir, o‘rtacha og‘ir yoki yengil), JK 158-moddasi 2-qismi bilan kvalifikatsiya qilish lozim.

(«Og‘ir tan jarohatlari», «o‘rtacha og‘ir tan jarohatlari», «Yengil tan jarohatlari» tushunchalari haqida JK 104-, 105- hamda 109-moddalari tahliliga qarang.)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga qanday turdagi bo‘lsa ham tan jarohati yetkazilgan paytdan boshlab JK 158-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan jinoyat **tamomlangan** hisoblanadi.

Agar aybdorning qasdi Prezidentga tan jarohati yetkazish bo‘lsa va uning irodasiga zid holda, ba’zi shart-sharoitlarga ko‘ra zarar

yetkazilmagan bo'lsa, u holda aybdor O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga tan jarohati yetkazishga suiqasd qilish bo'yicha JK 25-moddasi 2-qismi bilan hamda 158-moddasi 2-qismi bilan javobgarlikka tortiladi.

JK 158-moddasi 3-qismida nazarda tutilgan jinoyatning **obyektiv tomoni** O'zbekiston Respublikasi Prezidentini omma oldida haqorat qilish yoki unga tuhmat qilishdan iboratdir.

Ommaviy haqorat deganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining sha'ni va qadr-qimmatini aholi orasida, masalan, mitinglarda, yig'ilishlarda, ma'ruzalarda, konferentsiyalarda, seminarlarda va boshqa aholi to'planadigan jamoat joylarida, matbuot va boshqa ommaviy axborot vositalarida, jumladan, Internet tarmog'ida haqorat qilish yoki unga tuhmat qilish va boshqalar tushuniladi. Bu holatda haqorat Prezident nomiga axloqsiz so'kishlar ko'rinishida, nomaqbul so'zlarni yozish yoki ularni barchaga aytish ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Tuhmat deganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentini haqorat qiluvchi, aslida haqiqatda yolg'on bo'lgan yoki aybdor tomonidan bila turib bo'hton shakliga aylantirilgan ma'lumotlarni tarqatish tushuniladi.

Matbuot yoki boshqa ommaviy axborot vositalardan foydalanish deganda, bu holatda Prezidentni tahqirlovchi yoki yolg'on ma'lumotlarni kitoblarda, jurnallarda, ro'znomalar yoki varaqalar va boshqalarda chop ettirish yoki radio, televidenie, videokassetalar, Internet tarmog'i orqali ma'lum qilish va h.k. holatlar tushuniladi.

Prezidentga nisbatan ommaviy haqorat qilish yoki tuhmat qilish jinoyati aybdor tomonidan haqorat yoki tuhmatni anglatuvchi har qanday harakatlarni sodir etgan vaqtdan boshlab **tamomlangan** hisoblanadi.

JK 158-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning **subyektiv tomoni** O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga tajovuz qilish aybining **to'g'ri qasd** bilan sodir etilganligida namoyon bo'ladi. Aybdor O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga tajovuz qilishning ijtimoiy xavfini anglaydi va uni sodir etishni istaydi. Jinoyatning maqsad va motivi kvalifikatsiya uchun ahamiyatga ega emas. Qoida bo'yicha, aybdor berilgan jinoyatni sodir etishda Prezidentning davlat faoliyatini to'xtatishni maqsad qiladi yoki ko'rsatilgan faoliyat uchun qasos olishni maqsad qilib qo'yadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga tajovuz qilishning **subyekt**i 16 yoshga to‘lgan har qanday aqli raso jismoniy shaxs bo‘lishi mumkin. Agar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga tajovuz ko‘rsatilgan yoshga, ya’ni 16 yoshga etmagan shaxs tomonidan sodir etilgan bo‘lsa, u shaxsga qarshi tegishli jinoyat (odam o‘ldirish, og‘ir tan jarohati yetkazish va shu kabilar) bo‘yicha javobgarlikka tortiladi.

3-§. O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumiga tajovuz qilish (JK 159-moddasi)

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 7-moddasida «Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir. O‘zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko‘zlab va O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan idoralar tomonidangina amalga oshiriladi.

Konstitutsiyada nazarda tutilmagan tartibda davlat hokimiyati vakolatlarini o‘zlashtirish, hokimiyat idoralari faoliyatini to‘xtatib qo‘yish yoki tugatish, hokimiyatning yangi va muvoziy tarkiblarini tuzish Konstitutsiyaga xilof hisoblanadi va qonunga binoan javobgarlikka tortishga asos bo‘ladi»¹ deyilgan.

¹Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси: Ўн иккинчи чакириқ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ўн биринчи сессиясида 1992 йил 8 декабрда қабул қилинган. (2002 йил 27 январда ўтказилган умумхалқ референдуми натижаларига кўра ҳамда унинг асосида Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 24 апрелда қабул қилинган Қонунига мувофиқ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси XVIII, XIX, XX, XXIII бобларига ўзгартиришлар ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2007 йил 11 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 89-моддасига, 93-моддасининг 15-бандига, 102-моддасининг иккинчи қисмига тузатишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2008 йил 25 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 77-моддасининг биринчи қисмига ўзгартириш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2011 йил 12 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 90-моддасининг иккинчи қисмига тузатиш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 16 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 32, 78, 93, 98, 103 ва 117 моддаларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 6 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 4-бандига, 81-моддасининг еттинчи қисмига, 83-моддасига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13 ва 14- бандларига, 107-моддасининг биринчи қисмига, 110-моддасининг биринчи ва учинчи қисмларига, 111-моддасига ўзгартишлар ва қўшимча киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 31 майда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 5 ва 12-бандларига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13-бандига ҳамда 108, 109-моддаларига ўзгартишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 29 августда қабул қилинган қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 99 ва 10-моддаларига ўзгартишлар киритилган.) – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. –5 б.

Konstitutsiyaning 3-moddasida «O‘zbekistonning davlat chegarasi va hududi daxlsiz va bo‘linmasdir»¹ deyiladi.

Jinoyatning **bevosita obyekti** Konstitutsiya tomonidan o‘rnatilgan O‘zbekiston Respublikasining hayotiy muhim manfaatlari – respublika-ning Konstitutsiyaviy tuzumi asoslari, davlat hokimiyati tuzilishi va faoliyatining tartibi hisoblanadi. Asosiy bevosita zarar, bu yerda xalq manfaatlariga hamda davlatda hokimiyatni ifodalovchi jismoniy va yuridik shaxslarning konstitutsiyaviy manfaatlariga yetkaziladi. **Qo‘shimcha bevosita obyekt** bo‘lib, jabrlanuvchilarning sog‘ligi, jismoniy daxlsizligi, sha‘ni va qadr-qimmatini ta‘minlovchi ijtimoiy munosabatlar xizmat qiladi.

JK 159-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyatning obyektiv tomoni amaldagi davlat tizimini Konstitutsiyaga xilof tarzda o‘zgartirishga ommaviy chaqirish, hokimiyatni qo‘lga olish yoki qonuniy saylangan yoki tayinlangan vakillarni hokimiyatdan chetlatish yoxud O‘zbekiston Respublikasi hududiy yaxlitligini Konstitutsiyaga xilof tarzda buzish, shuningdek, xuddi shunday ma‘lumotlarni targ‘ib qiluvchi materiallarni tarqatish maqsadida tayyorlash, saqlash yoki ularni tarqatishdan iborat.

Chaqiriqlar – aybdorning odamlarning ongiga, irodasi va harakatlariga o‘zi istagan ma‘lum harakatlarni sodir etish istagini

¹Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси: Ўн иккинчи чакириқ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ўн биринчи сессиясида 1992 йил 8 декабрда қабул қилинган. (2002 йил 27 январда ўтказилган умумхалқ референдуми натижаларига қўра ҳамда унинг асосида Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 24 апрелда қабул қилинган Қонунига мувофиқ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси XVIII, XIX, XX, XXIII бобларига ўзгартиришлар ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2007 йил 11 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 89-моддасига, 93-моддасининг 15-бандига, 102-моддасининг иккинчи қисмига тузатишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2008 йил 25 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 77-моддасининг биринчи қисмига ўзгартириш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2011 йил 12 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 90-моддасининг иккинчи қисмига тузатиш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 16 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 32, 78, 93, 98, 103 ва 117 моддаларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 6 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 4-бандига, 81-моддасининг еттинчи қисмига, 83-моддасига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13 ва 14- бандларига, 107-моддасининг биринчи қисмига, 110-моддасининг биринчи ва учинчи қисмларига, 111-моддасига ўзгартишлар ва қўшимча киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 31 майда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 5 ва 12-бандларига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13-бандига ҳамда 108, 109-моддаларига ўзгартишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 29 августда қабул қилинган қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 99 ва 10-моддаларига ўзгартишлар киритилган.) – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. –4 б.

shakllantirish maqsadida yoʻnaltirilgan harakatlarining tashqi ifodasidir. Shu bilan birga, chaqiriqlar umumiy tavsifga ega boʻlib, alohida shaxslarga aniq yoʻnaltirilmasligi, aniq joy, vaqt yoki jinoyatni sodir etish usulini tashkil etmasligi kerak. Aks holda, aybdorning harakatini gij-gijlash sifatida kvalifikatsiya qilish lozim.

Koʻrilayotgan modda boʻyicha shaxsni javobgarlikka tortish uchun uning chaqiriqlari ommaviy tusda boʻlishi lozim, yaʼni ochiqchasiga, tushunish oson boʻlgan koʻrinishda hamda qoida boʻyicha koʻpchilik odamlar tomonidan qabul qilinishiga imkon yaratadigan sharoitda tarqatilishi lozim.

Ommaviy chaqiriqlar noaniq sondagi odamlar oldida («omma») ogʻzaki, yozma (varaqlar yordamida) yoki koʻrgazmali-namoyishkorona tarzda (plakatlar, shiorlar yordamida va boshqalar) chiqish qilishdan tashkil topadi. Shu bilan birga bu chiqishlar zoʻravonlik usullariga undashni va amalga oshirishni (amaldagi davlat tizimini Konstitutsiyaga xilof tarzda oʻzgartirish, hokimiyatni qoʻlga olish va shu kabilar) tashkil qilishi lozim. Harakatlarning zoʻravonlik usullari chaqiriqning tarkibida aniq namoyon boʻlishi kerak, hatto toʻgʻridan-toʻgʻri jinoyatga undashi mumkin.

Amaldagi davlat tizimini Konstitutsiyaga xilof tarzda oʻzgartirishga ommaviy chaqirish qilish Oʻzbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini oʻzgartirish yoʻli bilan davlat hokimiyati tizimini tashkil qilishga undashlardan iborat boʻlishi kerak.

Hokimiyatni qoʻlga olish yoki qonuniy saylangan yoki tayinlangan vakillarni hokimiyatdan chetlatish yoxud Oʻzbekiston Respublikasi hududiy yaxlitligini Konstitutsiyaga xilof tarzda buzishga chaqirish shaxsning unga tegishli boʻlmagan hokimiyatga Konstitutsiyaga xilof tarzda kelishini yoki hokimiyatning qonuniy vakilini uning irodasiga qarshi, uning bajarayotgan vazifalaridan chetlatish va bu vazifalarni Oʻzbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumini oʻzgartirmagan holda oʻzboshimcha boshqa shaxs yoki guruhlarga yuklash bilan namoyon boʻladi.

Hokimiyat vakillariga davlatning biror-bir hokimiyat organining nomidan ish koʻrib, muayyan vazifalarni doimiy yoki vaqtincha amalga

oshiruvchi va o'z vakolatlari doirasida ko'pchilik yoxud barcha fuqaro yoki mansabdor shaxslar uchun majburiy bo'lgan harakatlarni sodir etish yoki farmoyishlar berish huquqiga ega bo'lgan shaxslar kiradi. Bularga: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti; Vazirlar Mahkamasi a'zolari; barcha darajadagi hokimlar va ularning o'rinbosarlari; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi senatorlari va deputatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar, tumanlar deputatlari; sudyalari, prokuratura xodimlari, DXX va IIV organlari xodimlari va boshqalar kiradi.

O'zbekiston Respublikasi hududiy yaxlitligini Konstitutsiyaga xilof tarzda buzishga ommaviy chaqirish, O'zbekiston Respublikasi davlat chegarasini **noqonuniy** zo'rlik ishlatib yaxlitligini buzishni, uning biror-bir viloyatini yoki Qoraqalpog'iston Respublikasini ajratishga undash holatlarida namoyon bo'ladi.

Konstitutsiyaga qarshi **materiallarni tayyorlash** deganda, amaldagi davlat tuzumini Konstitutsiyaga xilof tarzda o'zgartirishga, hokimiyatni bosib olishga yoxud qonuniy ravishda saylab qo'yilgan yoki tayinlangan hokimiyat vakillarini hokimiyatdan chetlatishga yoxud davlatning hududiy yaxlitligini Konstitutsiyaga xilof tarzda buzishga ochiqdan-ochiq da'vat qilish mazmunidagi materiallarni tayyorlash tushuniladi.

Shu kabi ma'lumotlardan tashkil topgan materiallarni **saqlash** deganda, tarqatish maqsadida aybdorda haqiqatda ularning mavjud bo'lishi (o'zi bilan birga, biror-bir xonada, yerto'lada va boshqa joylarda) uchun sodir etilgan har qanday harakatlar tushuniladi.

Konstitutsiyaga qarshi mazmundagi materiallarni **tarqatish** deganda, ularni yopishtirish, Internet tarmog'iga joylashtirish, varaqalarni, ro'znomalarni, jurnallarni yoki boshqa fuqarolarni amaldagi davlat tuzumini Konstitutsiyaga xilof tarzda o'zgartirishga chaqiruvchi adabiyotlarni yoxud materiallarni tarqatish tushuniladi.

JK 159-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoiy harakatlar sodir etilgan vaqtdan boshlab uning natijasida biror-bir oqibatning kelib chiqishidan qat'i nazar, ya'ni amaldagi davlat tuzumini Konstitutsiyaga xilof tarzda o'zgartirish chaqiriqlarini ommaga yetkazish va shu kabilar, Konstitutsiyaga qarshi materiallarning hech bo'lmaganda bir nusxasini

tayyorlash yoki shunday materialni saqlash va aybdorda keyinchalik ularni tarqatish maqsadini aniqlash yoki shunday materialni hech bo'lmasa bir nusxasini amalda tarqatish vaqtdan boshlab **tamomlangan** hisoblanadi.

JK 159-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan harakat **subyektiv** tomondan **to'g'ri qasd** bilan sodir etiladi. Aybdor o'zi tomonidan amalga oshirilayotgan Konstitutsiyaga qarshi ommaviy chaqiriqlarning xavfini hamda Konstitutsiyaga qarshi mazmundagi materiallarni tayyorlash, saqlash yoki tarqatish bo'yicha harakatlarning ijtimoiy xavfini biladi va ularni amalga oshirishni xohlaydi. Qoida bo'yicha, aybdor jinoyatni sodir etishda amaldagi konstitutsiyaviy tuzumni o'zgartirish maqsadini ko'zlaydi.

Ta'kidlash kerakki, aybdorni Konstitutsiyaga qarshi mazmundagi materiallarni tayyorlagani yoki saqlaganligi sababli javobgarlikka tortish uchun aybdorda bu narsalarni keyinchalik tarqatish maqsadi borligini aniqlash zarur. Aybdorda bunday maqsadning mavjudligidan o'z navbatida tayyorlanayotgan yoki saqlanayotgan materialning miqdori dalolat beradi.

Jinoyatning motivlari turlicha bo'lishi mumkin: amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga, qonuniy saylangan davlat arboblariга nisbatan nafrat, ichiqoralik va shu kabilar, biroq bular jinoyatning kvalifikatsiyasiga ta'sir qilmaydi.

JK 159-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan jinoyatning **obyektiv tomoni**, konstitutsiyaviy hokimiyat organlarining qonuniy faoliyatiga qarshilik qilishga yoki Konstitutsiyada nazarda tutilmagan hokimiyatning qarama-qarshi tuzilmasi bilan almashtirishga yo'naltirilgan zo'ravonlik harakatini sodir etish, bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida nazarda tutilgan tartibga qarshi tashkil etilgan hokimiyat tuzilmasini tarqatish haqidagi vakolatga ega davlat hokimiyati organlari qarorlarini o'z vaqtida ijro etmaslikdan iborat.

Konstitutsiyaviy hokimiyat organlarining qonuniy faoliyatiga qarshilik ko'rsatishga yo'naltirilgan zo'ravonlik harakatlari konstitutsiyaviy hokimiyat organlari vakili bo'lmish shaxslarni ozodlikdan

mahrum etish, tan jarohatlari yetkazish va shu kabilarda namoyon bo‘ladi.

Shuni inobatga olish kerakki, yuqorida ko‘rsatilgan shaxslarga tan jarohatlari yetkazish, hatto og‘ir jarohat yetkazish ham JK 159-moddasi 2-qismi bo‘yicha qamrab olinadi hamda JK Maxsus qismida sog‘liqqa qarshi jinoyatlarga javobgarlikni nazarda tutadigan tegishli moddalari bo‘yicha qo‘shimcha kvalifikatsiyani talab qilmaydi.

Konstitutsiyaviy hokimiyat organlarining qonuniy faoliyatiga qarshilik qilishga yoki Konstitutsiyada nazarda tutilmagan hokimiyatning qarama-qarshi tuzilmasi bilan almashtirishga yo‘naltirilgan zo‘ravonlik harakati O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida nazarda tutilmagan yangi har qanday hokimiyat organlarini tashkil qilish va davlat masalalarini shu noqonuniy tashkil qilingan hokimiyat tuzilmalari yordamida hal qilishga harakat qilish demakdir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida nazarda tutilgan tartibga ko‘ra, qonunga xilof ravishda tashkil etilgan hokimiyat tuzilmasini tarqatish haqidagi vakolatga ega davlat hokimiyati organlari qarorlarini o‘z vaqtida ijro etmaslik noqonuniy tashkil etilgan tuzilmalar yo‘lboshchilari tomonidan shu noqonuniy tashkil etilgan tuzilmani tarqatish va faoliyatini to‘xtatish haqidagi sud qarorini ijro etmaslikdan iborat.

JK 159-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan jinoiy harakatlar aybdorning jinoiy natijaga erishgan yoki erishmaganligidan qat’i nazar, sodir etilgan vaqtdan boshlab **tamomlangan** hisoblanadi.

JKning 159-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumiga tajovuz qilishning **subyektiv tomoni** aybning anglangan holda **to‘g‘ri qasddan** sodir etilganligi bilan tavsiflanadi. Aybdor o‘zi sodir etayotgan harakatlarning ijtimoiy xavfini anglaydi va uni sodir etishni xohlaydi. Sodir etilgan harakatning **motiv** va **maqsadi** turlicha bo‘lishi mumkin va u kvalifikatsiya uchun ahamiyatga ega emas.

JK 159-moddasi 1- yoki 2-qismida nazarda tutilgan harakatlar:

a) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan bo‘lsa;

b) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini koʻzlagan holda sodir etilgan harakat uchun javobgarlik **JK 159-moddasi 3-qismida** nazarda tutiladi.

(«Takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan jinoyatni sodir etish» tushunchasi haqida JK 97-moddasi 2-qismi «r» bandi tahliliga qarang, «uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini koʻzlagan holda jinoyatini sodir etish» tushunchasi haqida JK 97-moddasi 2-qismi «p» bandi tahliliga qarang).

JK 159-moddasi 4-qismida nazarda tutilgan jinoyatning **obyektiv tomoni** Oʻzbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumini agʻdarish yoki hokimiyatni bosib olish maqsadida fitna uyushtirishdan iborat.

Koʻrilayotgan meʼyor maʼnosida **fitna uyushtirish** Oʻzbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumini agʻdarish yoki hokimiyatni bosib olishga qaratilgan jinoiy harakatlarni amalga oshirish uchun oʻz kuchlarini birlashtiruvchi ikki yoki undan ortiq shaxsning jinoiy kelishuvidir.

Fitna, Oʻzbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumini agʻdarish yoki hokimiyatni bosib olish maqsadida jinoiy guruh tashkil etilgan vaqtdan boshlab, jinoiy maqsadga erishishga yoʻnaltirilgan biror-bir harakatni sodir etganidan qatʼi nazar, **tamomlangan** jinoyat hisoblanadi.

JK 159-moddasi 4-qismida nazarda tutilgan jinoyat **subyektiv tomondan toʻgʻri qasd** bilan sodir etiladi. Aybdor Oʻzbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumini agʻdarish yoki hokimiyatni bosib olishga yoʻnaltirilgan jinoiy faoliyatni amalga oshirish uchun kelishuvga kirishayotganini angelaydi, bu harakatning ijtimoiy xavfliligini tushunadi va uni sodir etishni xohlaydi. Shu bilan birga, aybdor maxsus **maqsad** – konstitutsiyaviy tuzumini agʻdarish yoki hokimiyatni bosib olishni koʻzlaydi. Jinoyatni sodir etishning motivlari kvalifikatsiya uchun ahamiyatga ega emas.

Oʻzbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumiga tajovuz qilish **subyektiv** 16 yoshga toʻlgan, har qanday aqli raso jismoniy shaxs boʻlishi mumkin.

JK 159-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlar Oʻzbekiston Respublikasi fuqarosi tomonidan xorijiy davlat topshirigʻiga binoan

sodir etilsa, u jinoyat xususiyatiga ko'ra, JK 159-moddasi va 157-moddasi tegishli qismlari bilan javobgarlikka tortiladi.

JK 159-moddasi 5-qismida fitnada qatnashgan shaxslarning jazodan ozod etilish sharti nazarda tutilgan. Unda «fitna to'g'risida hokimiyat organlariga ixtiyoriy ravishda xabar bergan shaxs, basharti, ko'rilgan choralarda natijasida fitnaning oldi olingan bo'lsa, jazodan ozod qilinadi» deb ko'rsatilgan.

(«Ixtiyoriy ravishda xabar berish» yoki «ixtiyoriy ravishda arz qilish» tushunchalari haqida JK 157-moddasi tahliliga qarang.)

Bunday rag'batlantirish me'yorlarining mavjudligi davlat uchun xavfli oqibatlar kelib chiqishining oldini olishga imkon beradi.

4-§. Josuslik (JK 160-moddasi)

Josuslikning **bevosita obyekti** O'zbekiston Respublikasi suvereniteti, hududiy daxlsizligi, xavfsizligi, mudofaa salohiyati, iqtisodiyoti asoslaridir.

Davlat sirlarini tashkil qiluvchi ma'lumotlar yoki O'zbekiston Respublikasi tashqi xavfsizligiga zarar yetkazish uchun qo'llanilishi mumkin bo'lgan davlat sirlarini tashkil qiluvchi ma'lumotlardan tashqari boshqa ma'lumotlar ham josuslikning **predmeti** hisoblanadi.

(«Davlat sirlari» tushunchasi haqida JK 157-moddasi tahliliga qarang.)

Boshqa ma'lumotlar deganda, xorijiy davlat razvedkasini qiziq-tiruvchi, lekin davlat sirini tashkil qilmaydigan (masalan, yo'llarning ma'lum uchastkalari haqida ma'lumotlar, ularning chizmalari (fotosuratlar); aniq bir shaxsni tavsiflovchi ma'lumotlar; ma'lum hududning tuprog'i, suvidan namunalari va shu kabi ma'lumotlar) ma'lumotlar tushuniladi.

Maxfiy ma'lumotlarni yetkazish turli yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin. Buning uchun maxsus tayyorlangan, shifrlangan yozuvlar, maxfiy yozuvlar va boshqalardan foydalaniladi. Ma'lumotlar bevosita chet davlat vakillari, uning razvedkasi va vositachilariga yetkazilishi mumkin. Ma'lumotlar davlat sirini tashkil etishi zarurdir. Chet el

razvedkasi topshirig‘i bilan to‘planadigan barcha boshqa ma‘lumotlar josuslik uchun bo‘ladigan javobgarlikni istisno etadi.

Josuslik **obyektiv tomondan** turli yo‘llar: o‘z xizmatiga ko‘ra maxfiy ma‘lumotlarga ega shaxsdan mazkur ma‘lumotlarni o‘g‘irlash, hujjatlar yoki buyumlardan fotografiya yo‘li bilan nusxa olish, uni o‘g‘irlash (andazalar, qismlar, murvatlar, asboblar va h.k.), maxfiy ma‘lumotlarni biladigan kishilar bilan ulardan ma‘lumotlarni olish uchun muloqotda bo‘lish, laqmaligi, joriy matbuotdagi ma‘lumotdan foydalanib va boshqalar bilan yetkazilishi mumkin.

(«Xorijiy davlat», «xorijiy tashkilot», «agentlik» (yoki «xorijiy davlat yoki xorijiy tashkilotlarning vakillari») tushunchalari haqida JK 157-moddasi tahliliga qarang.)

Josuslikning ikkinchi ko‘rinishi bo‘lib, **xorijiy razvedka** hisoblanadi, ya‘ni davlat organlari (organlar tizimi) yoki xorijiy davlat maxsus xizmatining ko‘rinishlari – tekshiruvchilik (josuslik) faoliyatini amalga oshirishga davlat hokimiyat vakolatiga ega bo‘lgan davlat organlarining alohida bo‘linmalari.

Ko‘rilayotgan modda ma‘nosida **yetkazish** deganda, davlat sirlarini ma‘lum qilish yoki O‘zbekiston Respublikasiga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan boshqa ma‘lumotlarni qonunda ko‘rsatilgan xorijiy vositachilarga yetkazilishi tushuniladi. Bunday xabar (ma‘lum qilish) og‘zaki, yozma yoki ko‘rgazmali – namoyishkorona tarzda va istalgan usul bilan (qo‘ldan-qo‘lga, vositachi orqali, yozma ma‘lumot, kompyuter tarmog‘i, videokasseta, telefon, radioaloqa, yashirish joyi orqali) amalga oshiriladigan harakatlardir.

Yetkazishning usullari va ko‘rinishlari jinoyatning kvalifikatsiyasiga ta‘sir qilmaydi.

Xorijiy davlat, xorijiy tashkilot, agentliklarga davlat sirlarini tashkil qiluvchi yoki xorijiy davlat razvedkasi topshirig‘iga binoan O‘zbekiston Respublikasiga qarshi qo‘llash uchun boshqa ma‘lumotlarni yetkazish ko‘rinishidagi josuslik, tegishli ma‘lumotlarni egasiga yetkazish vaqtidan boshlab **tamomlangan** jinoyat hisoblanadi.

Davlat sirlarini o‘g‘irlash, o‘zida milliy qonunchilik bilan undan xabardor bo‘lish cheklangan ma‘lumotlarni to‘plashning maxsus, o‘ziga

xos ko‘rinishini tashkil qiladi. Ma’lumotlarni yig‘ishning bunday usuli muassasalar, tashkilotlar, korxonalar yoki ma’lumotlarga ega boshqa shaxslardan ma’lum hujjatlarni (hisobot, reja, chizma, texnologik xarita va boshqalar), buyumlar namunalari, maxsus adabiyotlarning nusxalari va boshqalarni o‘g‘irlab olishni tashkil qiladi.

Davlat sirlarini o‘g‘irlash yashirin yoki ochiqchasiga, zo‘rluk ishlatib yoki ishlatmasdan sodir etilishi mumkin. Davlat sirlarini zo‘rluk ishlatgan holda o‘g‘irlashda aybdor harakatlarini ishning sharoitidan kelib chiqib va qo‘llanilgan zo‘ravonlikning tavsifiga ko‘ra jinoyatning xususiyati bo‘yicha kvalifikatsiya qilish lozim.

Davlat sirlarini o‘g‘irlash ko‘rinishidagi josuslik, qonunda ko‘rsatilgan egasiga yetkazish maqsadi bilan sodir etilgan josuslik, aybdor haqiqatda davlat sirlariga ega bo‘lgan vaqtdan boshlab jinoyat **tamomlangan** hisoblanadi.

Davlat sirlarini yoki O‘zbekiston Respublikasiga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan boshqa ma’lumotlarni **yig‘ish** josuslikning avvalgi ikkita ko‘rinishi kabi o‘g‘irlashdan tashqari, har qanday usul bilan ma’lumotlarni topishdan tashkil topadi. Yig‘ishning boshqa usullari turlicha bo‘lishi mumkin: shaxsan ma’lumotlarni yig‘ish (vizual kuzatish, suratga olish, yashirincha eshitish, hujjatlardan nusxa olish va shu kabilar); pulga sotib olish; boshqa shaxsning xizmatlaridan «yashirincha» foydalanish; ma’lumotni texnik tarmoqlar orqali olish va boshqa yo‘llar. Davlat sirlarini yig‘ish usullari josuslikning kvalifikatsiyasiga ta’sir etmaydi.

Davlat sirlarini O‘zbekiston Respublikasiga qarshi qo‘llash uchun boshqa ma’lumotlarni yig‘ish ko‘rinishidagi josuslik, aybdor tomonidan haqiqatdan yig‘ilganligi va keyinchalik ularni xorijiy davlat, xorijiy tashkilotlar va ularning agentliklariga yetkazish maqsadini aniqlangan vaqtdan boshlab jinoyat **tamomlangan** hisoblanadi.

Davlat sirlarini tashkil qiluvchi ma’lumotlarni **saqlash** – bu aniq bir jismoniy yoki yuridik shaxsga tegishli bo‘lgan biror-bir makonda yoki hududda hamda ularning saqlanishini ta’minlovchi boshqa joylarda joylashgan ma’lumotlarni o‘zida saqlagan moddiy buyumga (yetkazuvchi) egalik qilishdir. Shu bilan birga bu buyumni o‘sha joyga

saqlovchining o'zi joylashtirganligi yoki uning roziligi bilan boshqa shaxs tomonidan olib kelinganligi ahamiyatsizdir. Biroq, belgilangan buyumni saqlash uchun joy yoki hududni taqdim etgan shaxs avvaldan, ya'ni ular yetkazilishidan oldin ularning davlat sirlarini tashkil qilishini bilsa, bu shaxs ham josuslik uchun javobgarlikka ishtirokchilik belgisi bo'yicha tortilishi lozim.

Bizning nuqtai nazarimizdan, saqlash kabi, shuningdek, josuslikning boshqa ko'rinishlari mavjudligida sodir etilgan davlat sirlarini tashkil qiluvchi ma'lumotlarni olib o'tish (olib borish)ni ham kvalifikatsiya qilish lozim.

Olib o'tish (olib borish) – bu davlat sirlarini tashkil qiluvchi ma'lumotlar moddiy saqlovchisini bir joydan ikkinchi joyga shaxsan, odam orqali har qanday transport yordamida o'tkazilish usuli va saqlash joyidan qat'i nazar ko'chirilishidir.

Yuborilish – bu ma'lumotlarni bir joydan ikkinchi joyga pochta yoki yuk orqali ataylab hamda hayvonlarni yoki qushlarni qo'llagan holda (it, delfin yoki maktubchi kabutar va boshqalar) jo'natishdir. Olib o'tishdan farqli o'laroq jo'natish aybdorning bevosita ishtirokisiz amalga oshiriladi.

Davlat sirlarini O'zbekiston Respublikasiga qarshi qo'llash uchun boshqa ma'lumotlarni saqlash ko'rinishidagi josuslik, aybdor tomonidan haqiqatdan saqlanganligi va keyinchalik, ularni xorijiy davlat, xorijiy tashkilotlar va ularning agentliklariga yetkazish maqsadini aniqlangan vaqtidan boshlab jinoyat **tamomlangan** hisoblanadi.

Subyektiv tomondan josuslik hamisha qasdni taqozo qiladi. Davlat sirlaridan iborat bo'lgan ma'lumotlarni chet davlat tashkilotiga yoki ularning vakillariga ehtiyotsizlik bilan yetkazish faqat davlat sirlarini oshkor etish jinoyat tarkibini tashkil etishi mumkin (JK 162-moddasi). Josuslik hamisha to'g'ri qasd bilan sodir etiladi. Bunday aybdor chet davlatiga, chet el tashkilotiga yoki ularning vakillariga davlat sirlarini yetkazganligini biladi va mazkur qilmishni istaydi.

Josuslikning **subyekt**i 16 yoshga to'lgan, xorijiy davlat fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxs.

Josuslik jinoyatida, shaxsning tegishli shartlarga rioya qilganida, jinoiy javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilinishi ham qoʻllaniladi.

JK 160-moddasi 2-qismida belgilanganidek, «chet el razvedkasi bilan hamkorlik qilishga jalb qilingan shaxs, basharti, oʻziga yuklatilgan topshiriqni bajarish yuzasidan hech qanday harakat sodir etmasdan, bu haqda oʻz ixtiyori bilan hokimiyat organlariga xabar bersa, javobgarlikdan ozod qilinadi».

JK 160-moddasi 3-qismiga binoan, «oʻzining jinoiy faoliyatini ixtiyoriy ravishda toʻxtatgan va qilmishi toʻgʻrisida hokimiyat organlariga maʼlum qilib, jinoyatning ochilishiga faol yordam bergan shaxs, basharti, davlat uchun kelib chiqishi mumkin boʻlgan ogʻir oqibatlarining oldi olingan boʻlsa, jazodan ozod qilinadi».

Davlat uchun kelib chiqishi mumkin boʻlgan ogʻir oqibatlar deganda, Oʻzbekiston Respublikasi suvereniteti, hududiy daxlsizligi, xavfsizligi, mudofaa salohiyati va iqtisodiyotiga zararning yetkazilishini tushunish lozim.

(Ragʻbatlantiruvchi meʼyorlar haqida toʻliqroq xabardor boʻlish uchun JK 157-moddasi 2- hamda 3-qismlari tahliliga qarang.)

5-§. Qoʻporuvchilik (JK 161-moddasi)

Qoʻporuvchilikning **bevosita obyekti** – Oʻzbekiston Respublikasining ijtimoiy, siyosiy sharoitini yoki iqtisodiy xavfsizligini yoxud davlat organlari faoliyatining muvozanatini taʼminlovchi ijtimoiy munosabatlardir. Koʻpgina hollarda qoʻporuvchilik sodir etilganida odamlar oʻlimiga olib keladi, ularning sogʻligiga ommaviy zarar yetkaziladi, zavodlar, turli qurilmalar (yer osti yoʻllari, metropolitenlar, koʻpriklar, gidroelektrostantsiyalar, temir yoʻllari, suv taʼminoti va gaz taʼminoti tizimlari) vayron etiladi yoki yoʻq qilinadi. Shu munosabat bilan qoʻporuvchilikning **predmeti** boʻlib, koʻproq korxonalar, qurilmalar, aloqa yoʻllari va usullari, aloqa vositalari hamda aholining hayotiy taʼminot obyektlari (shaharlar va aholi punktlarining normal hayotini taʼminlovchi kommunal xizmat obyektlari; suv taʼminoti va

kommunal quvurlar markazlashgan tizimi; gaz ta'minoti obyektlari va boshqalar) hisoblanadi.

Qo'poruvchilikning **obyektiv tomoni** quyidagi: 1) kishilarni nobud qilishga, ularning sog'ligiga zarar yetkazishga yo'naltirilgan harakatlar; 2) mol-mulkka ziyon yetkazishga yoki uni yo'q qilishga yo'naltirilgan harakatlarni sodir etishdan tashkil topadi.

Odamlarni yo'q qilish deganda, ikki yoki undan ortiq shaxslarning o'limini tushunish lozim.

Odamlarning sog'ligiga zarar yetkazish deganda, ikki yoki undan ortiq shaxsga o'rtacha og'ir yoki og'ir tan jarohatini yetkazishni tushunish lozim.

Mol-mulkka ziyon yetkazish – bu iqtisodiy jihatdan qayta tiklash imkoniyati mavjud bo'lgan moddiy obyektlarni qisman yoki vaqtinchalik yaroqsiz holga keltirishdir.

Mol-mulkni yo'q qilish – bu moddiy obyektlarni shunday holatga keltirishki, ularni qayta tiklash imkoni bo'lmasligi yoki qayta tiklash iqtisodiy jihatdan befoyda bo'lgan holatidir.

Qo'poruvchilik qoida bo'yicha ijtimoiy xavfli usul bilan, portlatish, cho'ktirish, yoqib yuborish, ommaviy zaharlash, epidemiya kasalliklarini tarqatish, epizootiya (hayvonlarga kasallik yuqtirish) va boshqa usullar bilan sodir etiladi. Qo'poruvchilikni sodir etish usullari jinoyat kvalifikatsiyasiga ta'sir etmaydi.

Kishilarni nobud qilishga, ularning sog'ligiga zarar yetkazishga, mol-mulkka ziyon yetkazishga yoki uni yo'q qilishga qaratilgan harakatlarni sodir etishdan boshlab, davlat organlari faoliyatining yoki ijtimoiy-siyosiy sharoitning muvozanati buzilganligi yoki O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga putur yetishidan qat'i nazar, qo'poruvchilik jinoyati **tamomlangan** hisoblanadi. Odamlar o'limi, ularning sog'ligiga zarar etishi mol-mulklarini vayron qilish yoki yo'q qilish harakatlari ko'rinishidagi oqibatlar ham xuddi shunday, qo'poruvchilikni tamomlangan jinoyat deb topish uchun ahamiyat kasb etmaydi, lekin bu oqibatlar jazo belgilashda sud tomonidan inobatga olinishi mumkin.

Qo‘poruvchilik **subyektiv tomondan** aybning **to‘g‘ri qasd** shakli bilan tavsiflanib, davlat idoralari faoliyatini yoki ijtimoiy-siyosiy vaziyatni izdan chiqarish yoki O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiga putur yetkazish maqsadidan iborat. Aybdor o‘z qilmishlarining ijtimoiy xavfli tomonlarini yaxshi tushunadi va ularni sodir etishni istaydi.

Agar aybdor shaxs odamlarni yo‘q qilib yoki ularning sog‘ligiga zarar yetkazib yoki mol-mulkini vayron qilib yoki yo‘q qilib davlat idoralari faoliyatini yoki ijtimoiy-siyosiy vaziyatni izdan chiqarishga, mamlakatning iqtisodiga putur yetkazishga harakat qilmasa, u holda aybdor shaxsga qarshi yoxud talon-toroj jinoyati bo‘yicha tegishli moddalar bilan javobgarlikka tortiladi.

Qo‘poruvchilikning **motivlari** turlicha bo‘lishi mumkin (qasos, amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga nafrat, g‘arazva boshqalar), lekin sodir etilgan harakatning kvalifikatsiyasiga ta’sir qilmaydi.

16 yoshga to‘lgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar qo‘poruvchilik jinoyati **subyektiv** bo‘lishi mumkin.

Ta’kidlanganidek, chet el razvedkasi yollagan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi qo‘poruvchilikni sodir etganda, uning harakatlarini jinoyatlar majmui: davlatga xoinlik qilish va qo‘poruvchilik bilan, ya’ni JK 157- va 161-moddalari bo‘yicha kvalifikatsiya qilish lozim.

6-§. Davlat sirlarini oshkor qilish (JK 162-moddasi)

Jinoyatning **bevosita obyektiv** Respublikaning harbiy, iqtisodiy, tashqi siyosiy va boshqa faoliyatidagi hayotiy muhim manfaatlari hisoblanadi.

Davlat sirlari, ya’ni davlat harbiy yoki xizmat sirlarini tashkil qiluvchi ma’lumotlar davlat sirlarini oshkor qilishning **predmeti** bo‘lib hisoblanadi.

(«Davlat sirlari», «harbiy sirlar» yoki «xizmat sirlari» tushunchalari haqida JKning 157-moddasi sharhiga qarang.)

NOTA BENE !

Davlat sirini oshkor qilish deganda, shaxsga uning xizmati va kasbiy faoliyatiga ko‘ra ishonib topshirilgan va ma‘lum bo‘lgan davlat siridan iborat ma‘lumotlarni huquqqa xilof ravishda oshkor etish, buning oqibatida ushbu ma‘lumotlarning boshqalar mulkiga aylanib qolishini tushunish lozim.

Oshkor etish har qanday usulda sodir etilishi mumkin: davlat sirlariga uning tarkibiga vakolatli bo‘lmagan shaxslarga og‘zaki yoki yozma ma‘lumot berish. Begona shaxslar ro‘yxati ham turlicha bo‘lishi mumkin, bular: qarindoshlar, do‘stlar yoki davlat sirlariga ega bo‘la olmaydigan boshqa shaxslar bo‘lishi mumkin.

Davlat sirlarini birovlariga yetkazish, davlat siri bo‘lgan ma‘lumotlarni begona kishiga og‘zaki yoki yozma ravishda bildirish, unga davlat sirlari mavjud bo‘lgan hujjatlar, materiallar yoki nashrlarni topshirish, har xil maqsadlarda ishlatish uchun vakolati bo‘lmagan shaxsga berish niyatida bunday ma‘lumotlarni yozuv mashinasida qayta chop etish va h.k. dan iborat.

Davlat sirlarini oshkor etish **faol harakatlar** yo‘li bilan sodir etilishi mumkin (masalan, maxfiy hujjatni namoyish qilish, qurollanish namunalarini, ularning taktik-texnik ma‘lumotlarini begona shaxslar oldida namoyish qilish davlat sirlarini ma‘ruzalarda, televidenie yoki radio orqali chiqishlarda ma‘lum qilish va boshqalar).

Davlat sirini oshkor etish **harakatsizlik** shaklida, davlat sirlarini saqlash qoidalarini buzish, ularning saqlanishi uchun chora ko‘rmaslikda sodir etilishi mumkin. Masalan, mansabdor shaxs, o‘z ishxonasidan chiqib turib, stol ustida davlat siridan iborat hujjatlarni qoldirishi oqibatida bu ma‘lumotlarni bilishga ruxsati bo‘lmagan kishiga ma‘lum bo‘lishi mumkin yoki u begona kishilar qo‘liga tushishi mumkin bo‘lgan davlat siri mavjud bo‘lgan nusxa olish qog‘ozidagi matnni yo‘q qilish uchun zarur choralarni ko‘rmasligi mumkin.

Ko‘rilayotgan jinoyatning tarkibi uchun davlat sirlari begona shaxslarning nechtasiga ma‘lum bo‘lgani ahamiyatsizdir. Biroq, jazo

belgilanayotganda bu narsa sud tomonidan inobatga olinishi lozim. Davlat sirlari bilan bunga huquqi bo'lmagan shaxslarning ko'pchiligining tanishishi O'zbekiston Respublikasi manfaatlari uchun yuqori darajada xavf tug'dirishi mumkin.

Davlat sirlarini yetkazish tushunchasi, ko'rilayotgan modda mazmunida bizning fikrimizcha davlat sirlarini oshkor qilish tushunchasiga o'xshash bo'lib, tegishli ma'lumotlarni begona shaxsga har qanday usulda ma'lum qilishdan iboratdir.

Davlat sirini oshkor qilish mazkur sirning boshqalarga oshkor etilishi bilan **tamomlangan** deb topiladi. Davlat sirlarini oshkor etish tahdidi vujudga kelganida ushbu jinoyatning tarkibi yo'qqa chiqadi. Masalan, shaxs davlat sirlari bilan ishlash qoidalarini buzgan holda ish tugagandan so'ng maxfiy hujjatlarni seyfga solmasdan, ish stolining ustida qoldiradi va farrosh ham xonani tozalayotganida bularga e'tibor bermaydi. Bunday hollarda davlat sirlari bilan ishlash tartib-qoidalarini buzishda aybdor shaxsga nisbatan intizomiy javobgarlik choralari qo'llanishi mumkin.

Davlat sirini bila turib oshkor qilish **subyektiv tomondan** aybdorning davlat siridan iborat ma'lumotlarni ongli ravishda oshkor etishni va uning mazkur ma'lumotlarni boshqalarga ma'lum bo'lishini istagani (to'g'ri qasd) ni taqozo qiladi. Bunday jinoyatning turli qasd shaklidagi misoli mudofaa korxonasiining mansabdor shaxsi o'z tanishi oldida davlat sirini bilishi bilan maqtanishi uchun unga mazkur sirlarni oshkor qilishidir.

Davlat sirini oshkor qilish egri qasd bilan ham sodir etilishi mumkin. Bunday hollarda shaxs davlat siri bo'lgan ma'lumotlarni boshqalarga oshkor etishni xohlamasdan, mazkur xatolikka yo'l qo'yadi. Chunonchi, muassasa xodimi uning xonasiga keluvchilarni qabul qilaturib, o'z stoli ustidagi maxfiy hujjatlardagi ma'lumotlar boshqalarga ham oshkor bo'lishini anglaydi, lekin u bunga e'tiborsizlik bilan qaraydi.

Jinoyatning motiv va maqsadi turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, maqtanish, o'zining xabardorligini, muhim shaxsligini ko'rsatish istagi va boshqalar. Jinoyatning kvalifikatsiyasiga bular ta'sir qilmaydi.

JK 162-moddasi dispozitsiyasida ko‘rsatilganidek, mazkur jinoyatning **subyekti** (maxsus) o‘zlarining xizmat yoki kasbiy faoliyat sohasiga ko‘ra davlat sirlari ishonib topshirilgan yoki xabardor shaxslar bo‘lishi mumkin.

Agar davlat sirlarini ish faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan holda ma‘lum bo‘lgan shaxs oshkor etsa bu shaxs berilgan jinoyatning subyekti bo‘la olmaydi.

JK 162-moddasi 2-qismida davlat sirlarini oshkor etish natijasida og‘ir oqibatlar kelib chiqqanligi uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

Davlat sirlarini oshkor etish natijasida **og‘ir oqibatlar** kelib chiqishi deganda, tegishli ma‘lumot xorijiy davlat, xorijiy tashkilot yoki ularning agentligi mulkiga aylansa O‘zbekiston Respublikasi suvereniteti, hududiy mustaqilligi, xavfsizligi, mudofaa qobiliyati, iqtisodiyotiga zarar etishini tushunish lozim.

Davlat sirlarini oshkor etishni davlat sirlarini sotishdan farqlash lozim. Davlat sirlarini oshkor etishda aybdor davlatga xoinlik qilishga asoslangan maxsus maqsadni ko‘zlamaydi va O‘zbekiston Respublikasi suvereniteti, hududiy mustaqilligi, xavfsizligi, mudofaa qobiliyati, iqtisodiyotiga zarar yetkazishni qasd qilmaydi.

7-§. Davlat siri yoki harbiy sir hisoblangan hujjatlarni yo‘qotish (JK 163-moddasi)

Davlat siri yoki harbiy sirga ega bo‘lgan hujjatlar, buyumlar va moddalar bilan ishlash va saqlash qoidalariga qat‘iy rioya qilish barcha ishonib topshirilganlar uchun asosiy qoida bo‘lishi zarur. Hujjatlar, buyumlar, moddalarni saqlash, ko‘paytirish va jo‘natishda ozgina tartib-buzarlikning o‘ziyoq ularning yo‘qolishiga olib kelishi mumkin. Qayd etilgan davlat yoki harbiy sirlarning har biri begonalarning qo‘liga tushib, O‘zbekiston Respublikasi mudofaa salohiyatiga va tashqi xavfsizligiga zarar keltirishi uchun ishlatilishi mumkin.

JK 163-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning **bevosita obyekti** bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining harbiy, iqtisodiy, tashqi siyosiy va boshqa faoliyatlardagi hayotiy zarur manfaatlari hisoblanadi.

Berilgan jinoyatning predmeti faqatgina davlat yoki harbiy sirni tashkil etuvchi hujjatlar, buyumlar yoki ashyolar, ma'lumotlar bo'lishi mumkin.

Hujjat identifikatsiya qilish mumkin bo'lgan rekvizitlarga ega bo'lgan ma'lumotlarni o'zida aks ettirgan moddiy jismdir.

Davlat yoki harbiy sirni tashkil qiluvchi hujjat bu tegishli ma'lumotni o'zida aks ettirgan moddiy jism bo'lib, maxfiylik belgisiga va ma'lum rekvizitlarga ega bo'ladi. Bunday hujjatlarga turli usul bilan ishlangan (qo'lyozma, yozuv mashinasida, nashriyotda, EHM moslamasida) davlat yoki harbiy sirlarni tashkil qiluvchi matnli yoki chizma materiallar (ma'lumotnomalar, rejalar, buyruqlar, hisobotlar, nashriyot xaritalari, chizmalar, foto va kinoplyonkada muhrlangan ma'lumotlar va boshqalar) kiradi.

Davlat yoki harbiy sirni tashkil etuvchi ma'lumotlarning predmetlarini turli buyumlar, namunalari yoki materiallar, ya'ni nafaqat maxfiy ma'lumotning moddiy manbasi, balki davlat yoki harbiy sirning moddiy ko'rinishi bo'lib xizmat qiluvchi moddiy dunyoning buyumlari tashkil qiladi. Bunday buyumlarga masalan, qurollanishning hamda texnikaning alohida yopiq modellari yoki namunalari, shifrlar va kodlar kirishi mumkin.

Davlat yoki harbiy sirlarni tashkil qiluvchi ashyolar deganda, turli ko'rinishdagi buyumlar to'g'risidagi ma'lumotlar, davlat yoki harbiy sirlarni tashkil qiluvchi ma'lumotlar predmeti bo'lgan material sifatлари namoyon bo'lishi tushuniladi. Bular turli xildagi portlatish moddalari ham, boshqa organik ashyolar ham bo'lishi mumkin.

JK 163-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyat **obyektiv tomondan** davlat yoki harbiy sirlarni tashkil qiluvchi hujjatlarni, buyumlarni yoki ashyolarni yo'qotish holatlari, agar yo'qotish ko'rsatilgan hujjatlar, buyumlar yoki ashyolar bilan munosabat qoidalarini buzish natijasida ro'y bergan bo'lsa tashkil qiladi.

Yo'qotish deb, davlat yoki harbiy sirlarni tashkil qiluvchi hujjatlarni, buyumlarni yoki ashyolarni qonuniy egasidan, ya'ni bu sirlarni olib yuruvchisidan hujjatlar, buyumlar yoki ashyolar bilan munosabat qoidalarini buzish natijasida tashqariga chiqishi tushuniladi.

Ko‘rilayotgan jinoyatning obyektiv tomoni uchun zaruriy belgi bo‘lib, hujjatlar, buyumlar yoki ashyolar bilan muomalada bo‘lish qoidalarini buzish va begona shaxslarni ular bilan tanishishi xavfining tug‘ilishi hisoblanadi.

Buyumlar, hujjatlar yoki ashyolar bilan **muomalada bo‘lish qoidalarini buzish** muomala tartibi (qabul qilish, ishlash, saqlash, yetkazish va shu kabilar) haqidagi me‘yoriy-huquqiy aktga rioya qilmaslikda namoyon bo‘ladi. Bular hujjatlar saqlanadigan seyfni yopmaslik, bunday hujjat, buyum yoki ashyo bilan uyda yoki boshqa belgilanmagan joyda ishlashdir.

Hujjatlar (buyumlar yoki ashyolar) doimiy saqlanish joyidan topilmaganida yoki qonunan topshirilgan shaxsda ham bo‘lmaganida egalikdan chiqqan deb hisoblanadi.

Agar ko‘rsatilgan buyumlar bilan muomala qoidalari buzilmagan bo‘lsa, lekin shunday bo‘lsa ham hujjatning yo‘qolishi ro‘y bergan bo‘lsa jinoyatning tarkibi bundan mustasnodir. Masalan, ishdan so‘ng davlat sirlari bilan ishlaydigan mas‘ul shaxs hujjatlar bilan muomalada bo‘lish qoidalarini buzmaganda holda hujjatlarni seyfga solib, yopib, saqlashga topshirgan bo‘lsa ham ularning yo‘qolishi sodir etilgan bo‘lsa, u holda jinoyatning tarkibi mustasnodir.

Davlat sirlarini yo‘qotish holati jinoiy jazolanishi uchun, yo‘qotish natijasida davlat yoki harbiy sirlardan begona shaxslarning xabardor bo‘lishi xavfi tug‘ilishi lozim. Shu munosabat bilan davlat yoki harbiy sirni tashkil qiluvchi **hujjatni yo‘q qilish** (masalan, yoqib yuborish) holati begona shaxslarning undan xabardor bo‘la olmasligi sababli yo‘qotish holatini tashkil qilmaydi. Agar tegishli hujjat, buyum, ashyoning yo‘q qilinishi ehtiyotsizlik natijasida sodir etilgan bo‘lsa (masalan, axlat bilan birga yoqib yuborilgan bo‘lsa), u holda agar aybdor lavozimli shaxs bo‘lgan bo‘lsa mansabga sovuqqonlik (JK 207-moddasi) bo‘yicha ko‘rilishi mumkin.

NOTA BENE !

Davlat yoki harbiy sirlarni tashkil qiluvchi hujjatlarni yo‘qotish – bu davlat sirlarini qaytarilmaydigan holda yo‘qotishdir, xuddi shunday begona shaxslarning ular bilan tanishish xavfi bo‘lgan holatda davlat sirlariga vakolati bo‘lgan shaxsning huquqiy egaligidan ozgina vaqtga bo‘lsa ham chiqishidir.

JK 163-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyat moddaning dispozitsiyasida ko‘rsatilgan hujjatlar, buyumlar yoki ashyolarni xizmat yoki kasbiy faoliyat taqozosi bilan ishonib topshirilgan shaxsning qonuniy egaligidan chiqqan va u bilan begona shaxslarning tanishish xavfi vujudga kelgan vaqtdan boshlab **tamomlangan** hisoblanadi.

JK 163-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyatning **subyektiv tomoni** ehtiyotsizlik, jinoiy beparvolik yoki jinoiy o‘zboshimchalik bilan tavsiflanadi. Albatta, davlat yoki harbiy sirga ega hujjatlar, buyumlar yoki ashyolar ishonib topshirilgan shaxs tasarrufidan qasddan sodir etilgan faoliyat natijasida chiqib qolishi mumkin. Bu, masalan, bila turib, begona shaxsga davlat siriga ega hujjatni yoki buyumni topshirishdir. Biroq, bunday holatlar hujjatlarni yo‘qotish emas, balki davlat sirini oshkor qilish sifatida baholanadi.

Har qanday 16 yoshga etgan, aqli raso jismoniy shaxs davlat siri yoki harbiy sirga ega hujjatlar, buyumlar yoki ashyolar ishonib topshirilgan shaxs, ya’ni maxsus subyekt jinoyat **subyekt**i bo‘lishi mumkin. Agar shaxs bunday materiallar uchun javobgar bo‘lsa-yu, ularni belgilangan qoidalarga xilof ravishda begona kishiga vaqtincha saqlash uchun topshirsa, natijada begona shaxs uni yo‘qotsa, ushbu materiallarni huquqqa xilof ravishda berib qo‘ygan shaxs jinoiy javobgarlikka tortiladi.

JK 163-moddasi 2-qismida davlat yoki harbiy sirning yo‘qolishi og‘ir oqibatlarining kelib chiqishiga sabab bo‘lgan holga javobgarlik nazarda tutilgan.

Qanday oqibatlarni **og‘ir oqibat** deb topish masalasi barcha holatlarni inobatga olgan holda alohida hal etilgan. Tergov va sud amaliyoti

bunday og‘ir oqibatlar sifatida o‘ta muhim materiallarning tasarrufdan chiqishi, ularning begona shaxslar yoki chet el maxsus xizmatlari qo‘liga tushishi, davlat yoki harbiy sirga ega hujjatlar, buyumlar yoki moddalardan O‘zbekiston Respublikasiga ziyon yetkazish maqsadida foydalanish kabilarni tan oladi.

JK 163-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan jinoyat davlat yoki harbiy sirlarni tashkil qiluvchi hujjatlar yoki ma’lumotlarning yo‘qolishi natijasida og‘ir oqibatlar kelib chiqqan vaqtdan boshlab **tamomlangan** hisoblanadi.

«O‘zbekiston Respublikasiga qarshi jinoyatlar» mavzusi bo‘yicha yakuniy savollar

1. Davlatga xoinlik nimadan iborat? Ushbu jinoyatni sodir etganda javobgarlikdan va jazodan ozod etish shartlari qanday?

2. Josuslikni davlatga xoinlik sifatida kvalifikatsiya qilishning xususiyatlarini ayting va tushuncha bering.

3. JK da davlatga xiyonatning qanday ko‘rinishlari nazarda tutilgan?

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga tajovuz qilish nimada namoyon bo‘ladi?

5. O‘zbekiston Respublikasi konstitutsion tuzumiga tajovuz qilish nimadan iborat? Ushbu jinoyatni sodir etganda javobgarlikdan va jazodan ozod etish shartlari qanday?

6. Josuslikka tushuncha bering va uning zaruriy belgilarini ayting.

7. Josuslikni sodir etganda javobgarlikdan va jazodan ozod etish shartlari qanday?

8. Qaysi belgilarga ko‘ra josuslik davlatga xoinlik qilishdan farqlanadi?

9. Qo‘poruvchilik ko‘rinishlari va tushunchasini ayting. Berilgan jinoyat kvalifikatsiyasining xususiyatlarini ko‘rsating.

10. Davlat sirlarini oshkor etish va davlatga xoinlik qilish nimasi bilan farqlanadi?

11. Davlat sirlarining qanday ko‘rinishlari mavjud?

12. Davlat sirlarini oshkor etishning usullari qanday?

13. Davlat sirlarini oshkor etganlik uchun jinoiy javobgarlikning xususiyatlarini ochib bering.

14. Davlat sirlarini fosh etishning davlat yoki harbiy sirlarni tashkil etuvchi hujjatlarni yo‘qotishdan farqi nimada?

15. Davlat yoki harbiy sirlarni tashkil etuvchi hujjatlarni yo‘qotganlik uchun jinoiy javobgarlikning shartlarini ayting.

16. JK 163-moddasi 2-qismi (Davlat yoki harbiy sirlarni tashkil etuvchi hujjatlarni yo‘qotish)ga ko‘ra og‘ir oqibatlarining kelib chiqishi deganda nimani tushunasiz?

Qo‘shimcha adabiyotlar

O‘quv qo‘llanmalar, maxsus adabiyotlar

Асланов Р.М. Преступления против государственной власти. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2003. – 480 Б.

Беляев А.Е., Воронцов В.М. Уголовная ответственность за призывы, образующие преступления против государства. – М.: 1991.

Брусницын Н.А. Открытость и шпионаж. – М.: «Военное издательство», 1991.

Вус В.М. Государственная тайна в Российской Федерации. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2000.

Дьяков С.В. Государственные преступления против основ конституционного строя и безопасности государства и государственной преступности. – М.: «Норма», 1999.

Дьяков С.В., Игнатьев А.А., Карпушин М.П. Ответственность за государственные преступления. – М.: «Юридическая литература», 1988.

Ермакова Л.Д. Особо опасные государственные преступления. – М.: «ВЮЗИ», 1982.

Клягин В.С. Некоторые вопросы теории и практики борьбы с особо опасными государственными преступлениями. – Минск: «Выща школа», 1976. – 208 Б.

Махкамбаев П.А. Правовое регулирование режима государственной границы Республики Узбекистан. – Т.: «Фан», 1996.

Преступления против основ конституционного строя и безопасности государства: Комментарий к главе 29 УК РФ. С постатейным приложением нормативных актов и документов / Авт.-сост. д.ю.н., проф. А.Ю. Шумилов. – М.: Изд-ль Шумилова И.И., 2001. – 204 Б.

Смирнов Е.А. Особо опасные государственные преступления (вопросы квалификации в связи с применением уголовно-правовой нормы). Учеб. пособие. – Киев.: Киев высш. шк., 1974. – 180 Б.

Ilmiy maqolalar

Махкамбаев П.А. Значение охраны государственной границы в системе обеспечения национальной безопасности Республики Узбекистан // Ж. Сборник СНБ Республики Узбекистан. 1996. № 5. – 35–37-б.

Махкамбаев П.А. Подрывная деятельность иностранных спецслужб на территории Афганистана и Средней Азии в XIX – XX вв // Ж. Сборник СНБ Республики Узбекистан. 1995. № 2. – 28–30-б.

Махкамбаев П.А. Правовое регулирование режима государственной границы Республики Узбекистан // Мустақил Ўзбекистон фалсафа ва ҳуқуқ фанларининг долзарб муаммолари. – Т.: «Ўзбекистон», 1996. – 15–17-б.

RUSTAMBAYEV MIRZAYUSUP XAKIMOVICH

O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist,
yuridik fanlar doktori, professor

**O' ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JINOYAT HUQUQI
K U R S I**

III TOM

**MAXSUS QISM
SHAXSGA QARSHI JINOYATLAR.TINCHLIK VA
XAVFSIZLIGIGA QARSHI JINOYATLAR**

Oliy ta'lim muassasalari uchun darslik
(2-nashr, to'ldirilgan va qayta ishlangan)

«Complex Print» nashriyoti, Toshkent, 2018

Muharrir: O.Rahimov
Texnik muharrir: Murakayeva Z.I.
Korrektor: Qosimjonova D.R.
Dizayner: Gabbasov B.R.

Bosishga ruxsat berildi 12.12.2018. Buyurtma № 3-и Format 60x84/16
Times New Roman garniturasida bilan raqamli usuli bilan bosildi.
Hajmi: 25,19 sh.-b.t. 19,93 n.-x.t. Adadi 80nusxa

Nashriyot lisenziya Ai №004, 20.07.2018 y.
«Complex Print» nashriyoti, Toshkent sh., A.Navoiy ko'ch., 24.
Tel.: +998 71 244 40 89

«Complex Print» bosmaxonasida chop etildi.
Lisenziya № 10-3606, 10.12.2016 y.
Toshkent sh., A.Navoiy ko'ch., 24.
Tel.: +998 71 244 40 89